

ERKIN MALIK

CHAMPO

OTLI ILON

Qissalar



“SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2006

Erkin Malik

Champo otli ilon: Qissalar. “Bolalar kutubxonasi” turkumi. — T.: “Sharq”, 2006 — 368 b.

Bu kitob, nafaqat ajoyib va g‘aroyib ilonlar, vafodor itlar, jin va parilar haqida, balki urushda bedarak ketib, “sotqin” degan nom olgan bobosining qutlug‘ nomini tiklagan “Nevara”lar, hamisha mehribon va mushfiq, ammo bag‘ri dog‘li “Onaizor”lar, tirik yetim bo‘lib qolgan bir qizning “Yetim qolgan xotiralar”i, Vatanning har bir qarich yerini meniki deb g‘ururlanadigan “Yurt egalari” va “7-“A”da...” nimalar bo‘lgani haqidagi qissalardan iboratdir. O‘qing fikrlang, o‘zingizni, o‘zligingizni anglang.

BBK84.(5Y).

NEVARA



Izzatullaning tirsagidan mahkam ushlab olgan jismoniy tarbiya muallimi uni o'qituvchilar xonasiga olib kirdi. O'qituvchilar yarq etib ularga qarashdi-yu, nor-don narsaning ta'mini tuygandek ko'zlari qisilib, peshanalari tirishib ketdi. Bu hol bir zumgina davom etdi. Keyin hamma o'z ishi bilan mashg'ul bo'laverdi. Aftidan, Izzatullaning achchiq qalampirdek qizarib-bo'rtib turishi, vayron bo'lgan yoqalari bu yerdagilar uchun yangilik emasdi. Uni yaxshi tanigan o'qituvchilar biron narsa deyish bilan o'z kayfiyatlarini buzib, og'izlarini bemaza qilishdan saqlanishayotganga o'xshardi. Faqat, harbiy dars o'qituvchisi Mixail Matveyevichgina Izzatullaga tikilib turardi, yuqori sinflarga dars bergani uchun uni tanimayotgan edi. Unga Izzatullaning vujudidan alam aralash kuch yog'ilib turishi, ko'zlarining qoplonnikidek yiltirashi yoqib qolgan edi. Umuman, Mixail Matveyevich og'zidagini oldirib lalayib, shalpayib yuradigan bolalarni yoqtirmasdi. Unaqa bolalardan yaxshi jangchi chiqmaydi, derdi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi Izzatulla bilan yonma-yon turar, to'rdagi stolda o'tirgan tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi Gulchehra Navro'zovnaning bir nima deyishini kutardi. Ana u Izzatulla tomon yurib keldi. Tashkilotchining dumaloq, chiroyli yuzlariga, kulib turadigan katta-katta ko'zlariga Izzatullani ko'rish bilan xavotirlik cho'kkan edi.

— Yana nima bo'ldi, — dedi u Izzatullaga qarab.

— Hech nima.

— Kechagi faxriyning o'g'lini shunday do'pposlayaptiki, sal bo'lmasa... He, yaramas... Izzatullaning o'rniga javob berdi jismoniy tarbiya o'qituvchisi.

— Men uni o'ldiraman.

— Ajratmaganimda shunday qilardi ham g'ippa

bo'g'ib olibdi-ya, — qo'shimcha qildi jismoniy tarbiya o'qituvchisi.

— Nimaga urding?

— O'zidan so'rang.

— Men sendan so'rayapman, — Izzatullaning o'zi bilan tengma-teng olishayotganligidan Gulchehra Navro'zovnaning yuziga duv qizillik yugurib, katta-katta, chiroyli ko'zlari qisilib ketdi.

— Bekorga urmadim, u hali mendan ko'radi.

Mixail Matveyevich bu bola miq etmay, bez bo'lib turaversa kerak, deb o'ylagan edi. Lekin uning bidirlab, izzat-nafsini qattiq himoya qilayotganligidan sergaklanib, o'rta so'z qo'shdi:

— Gulchehra Navro'zovna, rostanam bekorga urmagandir, a?

Izzatulla yalt etib harbiy dars o'qituvchisiga qaradi-yu, ko'zlariga yosh quyilib kela qoldi.

— E, arzimagan narsa, — dedi jismoniy tarbiya o'qituvchisi qo'l siltab, — kecha uchrashuvga kelgan otaxonning nabirasi bunga: “Sening bobong fashist-larga sotilgan”¹, deпти...

Aytib bo'lmaydigan bu gapni o'qituvchilar ham eshitib qolganligidan Izzatulla tipirchilab qoldi. Mushtlari bilan ko'z yoshlarini artib, boshini hali o'ngga, hali chapga burdi.

— O'lib ketgan bobong uchun talashguncha, intizoming, biliming uchun talashsang bo'lmaydimi? — dedi unga yaqinroq o'tirgan muallimlardan biri.

— Menimcha, — dedi Mixail Matveyevich hammani o'ziga qaratib, — arzimagan narsaga janjal chiqmagan. Judayam arziydi.

Mixail Matveyevichning doim shafaqdek qizarib yuradigan yuzlari oqarib, o'ktam ko'zlari chaqchayib ketgandi.

¹ Ikkinchi jahon urushi 1941—1945-yillar davom etgan. Unga yurtimizdan 1 million 433 ming 230 kishi tortildi. O'sha paytda O'zbekistonning aholisi 6,5 million kishi bo'lganligini hisobga olsak, qo'lga qurol tutishi mumkin bo'lgan har bir kishi urushga ketgan. Ulardan 450 ming kishi jangdan qaytmadi. 604 ming 52 kishi nogiron bo'lib qaytdi. Nemis fashizmi boshlagan bu urushda 50 million odamning yostig'i quridi. Hozir 33 ming 721 urush qatnashchisi oramizda yashamoqda.

— Judayam qiziqsiz-da, Mixail Matveyevich, nima bu bilan...

— Bu bilan mushtlashib to'g'ri qilgan demoqchimasman. Bunaqa gapga hammaniyam g'azabi toshishini aytmoqchiman.

— E-e-e, — dedi Izzatullaga yaqin turgan boyagi muallim qo'l siltab, — birinchi marta bo'lsa ekan. Bobosimish, shunchaki qo'lining qichig'ini bosmoqchi bo'lgan. Bobosini yaxshi ko'rgan nabira uning nomini tuproqqa belab yuradimi. Soliyev desa odamning yuragiga sanchiq kiradi.

— Ota-onasi bir yaxshi odamlar...

— Opasi-chi, Soliyeva maktabni yaxshi bitirib ketdi...

— Ha-ya, qanaqa aktivistkaydi...

O'qituvchilar birin-ketin beixtiyor suhbatga qo'shilib ketishdi...

Mixail Matveyevich Soliyeva familiyasini eshitishi bilan battar sergaklandi.

— Gulchehra Navro'zovna, — dedi u, — Soliyevaning ukasi bo'lsa men buning bobosini uncha-muncha bilaman. Qidiruv klubimiz bir vaqtlar shug'ullangan. Lekin oxiriga yetkaza olmagandik. Ishni boshqatdan boshlashga to'g'ri keladi. Umuman faxriyning nabirasi yomon gap aytgan. Judayam yomon gap.

O'qituvchilar bir-birlariga qarab qo'yishdi. Mixail Matveyevich Izzatullani protezsiz sog' qo'li bilan yelkasidan ushlab hamdardlik bildirgandek o'qituvchilar xonasidan olib chiqib ketdi.

Karamatovmi, Karamadovmi?

Izzatulla darslar tugab hovliga chiqqanda, darvoza yonida Mixail Matveyevich uni kutib turardi. Shodmon bilan Rustam shoshilinch ishim bor deganiga qaramay orqasidan kuzatib chiqishdi. Uning harbiy dars o'qituvchisi bilan ketayotganini ko'rib, stadionga burilishdi. Ularga Izzatullaning shoshilinch ishini yashirgani alam qilgan, g'ashlari kelgan edi.

Izzatulla ham birinchi marta o'rtoqlari bilan yo'lini ayri solgani, sir yashirgani uchun yuragi g'ashlanib borardi.

— Qorin qalay? — so'radi Mixail Matveyevich.

— Ochmadi.

— Ko'rinib turibdi. Sen kuchli odamlar toifasiga kirasan. Unaqa odamlar issiqqayam, sovuqqayam, ochlikkayam chidamli bo'lishadi. Eh, bu chidamlilik harbiy mashqlarda shunaqangi asqotadiki... Umuman, jangda chidamlilar yutib chiqadi. Lekin kuchni boya-gidaqa mushtlashishga sarflash yaramaydi.

— O'zini ko'rmaysizmi?..

— Chidash kerak edi. O'sha iflos gapi uchun ko'pchilik ichida uyaltirib, kechirim so'ratish kerak edi.

— E, unaqalar bilan o'z joyidayoq hisob-kitob qilish kerak.

— Axir kaltak bilan hech narsani isbotlab bo'lmaydi-ku. "Nima bo'пти, nega uripti, shunaqa deпти, shunga uripti?" Ko'ryapsanmi? O'sha iflos so'z borgan sari urchib ketyapti. Aslida u o'sha gapni sendan alamini olish uchun aytgan. Sen bo'lsa mushtga zo'rbergansan.

Izzatulla shunga o'xshagan gaplarni ilgari ham boshqa o'qituvchilardan eshitgandi. Lekin Mixail Matveyevichning gaplari unga moydek yoqayotgan edi. U xuddi Izzatullaga o'rtog'idek, eski qadrdonidek muomala qilardi. Izzatulla boyagi gap hatto harbiy dars o'qituvchisining ham halovatini o'g'irlaganini sezib borardi. Mixail Matveyevich buvasining qadrdon o'rtog'imikin?

— O'sha gap sizga ham alam qildi a? — Izzatulla bu mavzuni bir daqiqa ham to'xtatmaslikni, bobosi haqida yaxshi gaplar eshitishni istardi.

— Albatta, alam qiladi-da. Ko'rib turibsanki, bitta qo'limni urush maydonlariga tashlab kelganman. U yerda nimalar bo'lganligini faqat bizgina bilamiz. Ko'rmaganlarning ko'r-ko'rona muhokama qilishga haqqi yo'q.

Ular avtobusga o'tirib "Faxriylar" maydoniga bo-

rishdi. Izzatulla bu yerda ko'p bo'lgan, lekin maydonga bugungidek allaqanday ilinj bilan tikilmagan edi. Ana, janubga og'a boshlagan sentyabr quyoshi maydonga bir tekis nur sochyapti. Muzdek yoqimli shabada issiq kuchini kesib, bahordagidek tiniq, chiroyli ochilgan atirgullar hidini maydon bo'ylab taratar edi. Izzatulla maydonning sharq tomonidagi go'yo nur sochib turgan quyoshni dushmanlardan himoya qilish uchun qo'lida avtomat bilan gavdasini qalqon qilayotgan jangchi haykaliga qarab qoldi. Uning bir necha tonnalik ulkan gavdasi havoda muallaq turganga o'xshardi. U: "Ey yalmog'iz, quyoshga tegma, quyosh gullarga, osmonga, hammayoqqa nur sochadi", deb hayqirayotganga o'xshardi. Uning yelkasi osha esa quyosh ko'tarilar, tezroq yerdan uzilib, yalmog'izlarning qo'li yetmaydigan joyga chiqib olishga urinardi.

Mixail Matveyevich ham xuddi maydonni birinchi marta ko'rayotgandek, ayvoni yaltiroq shapkasining ostidan ko'zlarini qisib atrofga tikilardi.

— Ana shu granit odam timsolida, — deya tilga kirdi u, — sening bobong ham bor. Hamma askarlar ozodlik oftobini himoya qilib, gitlerchilarga qarshi jangga kirganlar.

Izzatulla Mixail Matveyevichning: "O'sha haykal sening bobong bo'ladi", deyishini juda-juda xohlagan edi. Bu yerga nima uchun kelishdi o'zi?

— Bu yoqqa yur, — dedi Mixail Matveyevich uning fikrini uqib olgandek.

Monumentning o'ng tomonida uzun marmar hovuzcha bo'lib, uning maydonga qaragan tomoniga bir xil kattalikdagi plitalar qiya qilib yotqizilgan. Plitalar maydonning sharqidan g'arbga qarab yonma-yon terilgan. Bir qaraganda uning yuzi jimjimador gulli hoshiyaga o'xshardi. Yaqin borgan sari odamlarning ism va familiyalari ko'zga yaqqol tashlanardi.

— Shuncha odam, — dedi Mixail Matveyevich, — Buxorodan — tuproqqa qorishib ketdi. Ulardan mana shu tosh ismlargina yodgor bo'lib qoldi. Qani endi

ular ham qo‘lidanmi, oyog‘idanmi ajragan bo‘lsa-da, bugungi kunlarni ko‘rsalar edi...

Mixail Matveyevich o‘zi bilan o‘zi gaplashayotgan-ga o‘xshar, jangchilarning qabri ustida turgandek furajkasini qo‘lga olvolgan edi. Izzatulla uning oq-sariqdan kelgan uzun, salqi yuziga, bilinar-bilinmas yoshlana boshlagan osmondek ko‘zlariga tikilardi.

— Mana shu yozuvlar orasida bobongning ham ism-sharifi bor, — deb qoldi kutilmaganda Mixail Matveyevich.

— A? — Izzatulla ko‘z oldida jimirlayotgan ism-larga angrayib qarab qoldi.

— Familiyasini bilasanmi?

— Bilaman, Soliyev, — shoshib qoldi Izzatulla.

Mixail Matveyevich hafsalasi pir bo‘lgandek bosh chayqadi.

— Soli — ismlari. Familiyasi Karamatov.

Izzatullaning quloqlarigacha qizarib, peshanasidan ter chiqib ketdi. Mixail Matveyevich unga sovuqroq qaragandek bo‘ldi.

— “K” harfli familiyalar orasidan bobongni ismini top-chi!

Izzatullaning vujudi dam qizir, dam sovur, familiyalar orasidan bobosinikini qidirardi. Xuddi buning ustiga faxriyning nevarasi: “Familiyasini bil-mas ekansan-ku, yana bobom qahramon deysan”, deb tirjayib turganga o‘xshardi. Izzatulla hozir topaman-u, faxriyning nevarasini sudrab kelib ko‘ziga ko‘rsata-man, deb ko‘nglidan o‘tkazardi. Bu yerda bir xil familiyaliklar judayam ko‘p edi. Ana Karamadov S., Karamatov D. Yo‘q, Karamatovni topolmadi. Alam qilib ketdi. Karamadov S.ni bir emas o‘n marta o‘qidi. Uning ko‘ziga “d” harfi “t” bo‘lib ko‘rinmadi. Mixail Matveyevich ancha narida boshqa familiyalarni o‘qish bilan ovora edi.

— Topmadim, — dedi Izzatulla tundlik bilan.

— Karamadov degan familiyani ko‘rdingmi? O‘sha sening bobong bo‘lishi mumkin. Bundan to‘rt yil avval opang Soliyeva familiyani aniqlash uchun ancha

ovora bo'lgan edi. Oxiriga yetkaza olmay maktabni bitirib ketdi. Endi bu ishni sen davom ettirasan. Dadangdan, amakilaringdan, qarindosh-urug'lardan, bobongni o'rtoqlari bo'lsa ulardan so'rab-surishtirasan. Seni "Qidiruv" klubiga a'zo qilib olamiz. Hujjat beramiz. U bilan arxivlarga ham kirsan bo'ladi.

Mixail Matveyevich toshga aylangan ismlarga yana bir bor qarab oldi-da, xo'rsindi. Boshiga shapkasini kiydi.

— Bu yerga 8703 ta odamning ismi va familiyasi yozilgan. Ularning ko'pchiligi aniqlanishga muhtoj. Senga o'xshagan nabiralarini kutib yotishibdi, bilding.

Mixail Matveyevich Izzatullani avtobus bekati-gacha kuzatib keldi-da, o'zi yo'lakdan Eski shahar tomonga yurdi. U sal engashib yengil-yengil qadam tashlab borardi.

Izzatullanning ichiga bu odam chiroq yoqqandek bo'ldi. Opasi buvasini qachon qidirgan ekan? Eslay olmadi. Opasi maktabda o'qiyotganida u ikkinchi sinfga borardi. Opasi orqasidan quvlab yurib dars tayyorlatardi. Sen uchun men gap eshitaman deb yig'lardi ham. Dadasining buvasi haqida aytganlarini eslamogchi bo'ldi. "Dadamiz mehnatkash odam edilar, urushga ketganlaridan keyin qiynalib qoldik. Rahmatlikning savodi yo'q edi. Shunga birorta ham xatlari saqlanib qolmagan"...

Bunaqa gaplar odatda ovqatlanib bo'lingach boshlanardi... Shu o'qishni ham yig'ishtirib qo'yib bobomni izlash bilan shug'ullansammikin? Mixail Matveyevich bunga nima derkin?

Do'stlar birgalashib...

Izzatulla uyga kelib kiyimlarini almashtirmayoq darvoza taqilladi. Shodmon bilan Rustam ekan. Rustam pakana bir itni bo'ynidan kamar o'tqazib yetaklab olipti. Izzatulla bu itni nimaga olib kelishganini darrov payqadi. Izzatullanning polvon xo'rozi bor. U jangda, hatto, itlarni ham yengib, dabdala qilib

tashlardi. Ular tez-tez shunaqa pakana itlarni topib kelib Izzatullaning xo‘rozig a ro‘para qilib tomosha ko‘rishardi.

— Harbiy muallim bilan qayoqqa bording? — so‘radi Shodmon.

— Shoshilinch ish boridi, nimagadir qovog‘ini uyib javob berdi Izzatulla.

— Qanaqa ish, bilsak bo‘ladimi?

— Bobomlar haqida...

— Ha, ertalabkimi... Qo‘y, xafa bo‘lma, undan alamingni oldik. U endi bobosini uchrashuvga olib kelmaydigan bo‘ldi. Qiziq-a, urushga borgan buvasi-yu, u bo‘lsa nuqul o‘zi borgandek maqtanadi.

— Men bobomni hammaning ko‘zi oldida oqlab olishim kerak. Mixail Matveyevich, yordam bermoqchi. “Qidirish” klubiga oladigan bo‘ldi. Bobomni oqlab olgandan keyin veteranning nevarasi bilan o‘zim yaxshilab gaplashib qo‘yaman.

Rustam cho‘ntagidan sigaret oldi.

— Mehmon keluvdi, esidan chiqib qopti, zo‘r, a?! Ular zarli sigaretadan bitta-bitta olib tutatishdi.

— Xo‘rozing qalay? — so‘radi Shodmon.

— Zo‘r.

Itni katakning oldiga olib borishdi.

— Qayerda urishtiramiz, kataknig ichidami yoki hovlidami? — so‘radi Rustam.

— Hovlida.

Izzatulla katak og‘zini ochib yubordi. Qamalib yotgan tovuqlar o‘zini hovliga urib, yoyilib ketishdi. Oliftanamo qadam tashlab xo‘roz ham chiqdi. U xuddi hamma gapni tushungandek bo‘yniga kamar bog‘langan itning ro‘parasiga kelib, men bilan olishishga yararmikansan, degandek tojisi qontalash bo‘lib ketgan boshini hali chapga, hali o‘ngga egib, “qo‘g‘... qo‘g‘”ladi.

Rustam itni bo‘shatib yubordi. O‘zlarini chetga olishdi. It begona hovlida yotsirab, u yoq-bu yoqqa alanglab, qochib qolish payida bo‘lib qoldi. Xo‘roz bo‘lsa orqaga tisarilib, boshini pastga egdi-da,

bo'ynidagi patlarini hurpaytirdi. Bu uning men jangga tayyorman degani edi. Lekin jang hadeganda boshlanavermasdi. It dumini qisib kichkina mitti ko'zlarini javdiratib, yolvorgansimon bolalarga qarar, devor taglariga, tomlarga qarardi. Oxiri itni xo'rozga qarab itarib yuborishdi. Xo'roz orqaga tisarildi-yu, havolanib itni qo'shoyoqlab tepdi. Ana undan keyin jang boshlanib ketdi. Tovuqlar qa-qalab, it irillar... Xo'roz it har tashlanganda odam bo'yi osmonga ko'tarilar, tepadan itni mo'ljalga olib tushar va tepardi. Jang suvi to'la samovarning to'rt qator g'isht ustidan pastga qulashi va jo'mragining cho'rt uzilib ketishi bilan tugadi. Itning basharasidan qon oqar, aftidan xo'roz ko'zini o'yib olganga o'xshardi. Xo'rozning bo'lsa, bitta qanoti shalvirab qolgan edi.

— Sen g'irt ahmoqsan.

Izzatulla darvoza oldida turgan opasiga ko'zi tushdi.

— Ahmoqligingdan hamma maynavozchilik biznikida bo'ladi. O'rtoqlaring nega o'zlarinikida shunaqa ahmoqchilik qilishmaydi? A, nega?

Uch o'rtoq sekingina hovlidan sirg'alib chiqib ketishdi. Izzatullaning kayfiyati buzilgan edi. Xo'roz mayib bo'ldi. Samovar ishdan chiqdi. Otasidan kechqurun bobosi haqida so'ramoqchi edi. Reja buzildi. Hali akasi ishdan kelsa, unga musht o'qталadi. Onasi qarg'aydi. Dadasi qovog'ini uyib oladi. Umuman dadasi hech kimni urishmaydi. "Biz to'yib ovqat yemadik, sizlar yenglar, kiyimga zor bo'ldik, sizlar kiyinglar", deb hali uni, hali buni ko'tarib kelaveradi.

— Ketdik, — dedi Shodmon, — menda pul bor. Xohlasalaring tirga boramiz, xohlasalaring kinoga, xohlasalaring morojniyga.

— Ketdik, — Rustamga jon kirdi.

— Ketdik, — dedi Izzatulla, — shunaqasi do'xtir amakimnikiga boraman. Bugun menga uyda kun berishmaydi, bo'lmasa. Endi o'qishga ham bormayman. Mixail Matveyevich javob olib beradi. Bobomni qidiraman.

— O'sha Mixail Matveyevichingga ayt, bizga ham javob olib bersin. O'qisham jonga tegdi. Bizam bobongni qidirardik.

— Rost, bir og'aynichilik qilinglar! Axir bu ham ish-ku, javob berishadi.

— Bo'pti, so'rayman. Lekin u ham mendan xafa bo'lib qoldiyov.

— Nimaga?

— Bobomlarning familiyasini aytib berolmadim, shunga bo'lsa kerak.

— Ko'rmagansan-da, ko'rmagan odamingni familiyasini qattan bilasan? Menam bobomning familiyasini bilmayman, o'lay agar, — dedi Shodmon.

Kichik amakining aytganlari...

— Jiyan, o'sha bola shunday degan bo'lsa, ko'p andishasiz ekan-da. Bunaqa xulqi bilan bobosiga munosib bo'la olmaydi, — dedi xafa bo'lib Jo'ra amakisi.

Negadir bu gap Izzatullaga ham tegishlidek qizarib ketdi. Ertalabki o'qituvchining "bobosini yaxshi ko'rgan nevara uning nomini tuproqqa belab yurmaydi", degan so'zlari yodiga tushdi. Mixail Matveyevichning: "Hali bobongning familiyasini bilmaysanmi", degandek xo'mrayib olgani ko'z oldiga keldi. U xayolga tolib o'tirgan amakisiga boshini ko'tarib qaradi. Amakisi ochiq derazadan tashqariga tikilib o'tirar, xayoli Minorai kalondan ham balandda, ko'z ilg'ab bo'lmaydigan uzoq-uzoqlarda kezardi. Oq-sariqdan kelgan qotma yuzlari dardchil, hammaga birdek mehr bilan qaraydigan ko'zlari yoshlangandek.

— Mana sen, mening farzandlarim baxtlisizlar, — dedi amakisi tashqaridan ko'zini uzmay. — Sizlar otanimaligini bilasizlar, erkalanasizlar. Men bo'lsam bilmayman. Otamlar jangga ketganlarida men olti oylik chaqaloq bo'lganman. Otamning qanaqa odam bo'lganlarini, qayerda ishlaganliklarini, qayerda harbiyga kuzatib qo'yishganligini marhuma onamdan,

akalarimdan ming marta eshitganman. Lekin suratlarini bo'lsa ham bir marta ko'rganimda edi. Otam haqida amakilaring o'xshatib gapirib berishadi. Men bitta narsani aytishim mumkin. O'shanda yoz oylari edi. Urush tugagan. Men besh yoshga kirgan edim. Onamlar: "Sen norasida, begunoh bolasan. Dadangni xudodan so'ra, tezroq kelsinlar, sizlarni urush qiyinchiliklaridan eson-omon olib chiqdim, bag'irlariga bossinlar", derdilar. Men eshigimiz tagidagi supachada o'tirib, otamni kutardim. Bir kuni ko'chamizda harbiycha kiyingan kishi ko'rindi. Uni bolalar o'rab olgan, u to'g'ri menga qarab kelardi. Shunda menga kimdir: "Otang", degandek bo'ldi. O'sha odam tomon chopdim. Meni yugurgilab borayotganimni ko'rib, harbiy odam qo'llarini ikki yoqqa yozganicha cho'kkaladi. Otajon, deb quchog'iga o'zimni otdim. U meni yerdan azot ko'tarib oldi. Uning ter bosgan, sho'r yuzlaridan o'pdim. O'sha sho'r ta'm hozir ham labimda qolgan. U ham meni quchoqlab o'pdi. Cho'ntagidan bir chaqmoq oq qand chiqarib berdi. Biroz yurgach, uylaring qaysi, deb qoldi. Ana uyimiz, dedim. Darvozaga juda yaqin qolgan edik. Oting nima, dedi u menga. Jo'ra, dedim. Menga qara, Jo'rajon, men otangning o'rtog'iman, uni kutgin, u keyingi poyezdda kelyapti...

Jo'ra amaki jimib qoldi. Aftidan o'sha daqiqalar ko'z oldiga keldi shekilli, gapini davom ettirilmay ustma-ust yutib, o'rnidan turib ketdi.

— Bilasanmi, jiyan, — dedi joyiga qaytib o'tirib Jo'ra amaki, — ehtimol hozirgacha yuzta, ikki yuzta, undan ham ko'proq odamni operatsiya qilgandirman. Lekin har safar qo'linga jarrohlik pichog'ini olganimda ko'z oldimda ko'rmagan, hozirgacha kutayotgan otam namoyon bo'ladi. Go'yo men navbatdagi bemorni emas, o'z otamni operatsiya qilayotgandek, uni hayotga qaytarishim kerakdek, uni soppa-sog', tirik ko'rishim kerakdek his etaman o'zimni. Balki otam urushda yaralanib, operatsiya stolida jon bergandir, balki unga yetib borolmagandir. Otamni

kuchli odam bo'lgan deyishadi. Kuchli odamlar chidamli bo'lishadi. Otamni qidirib bir emas, ikki emas, o'ttiz marta xat yozdik. Hammasiga "bedarak yo'qolgan", degan javobni oldik...

— Maydondagi Karamadov S. bobom emasmi?

— Boribsan-da?

— Mixail Matveyevich olib bordilar. O'sha bolaning gapiga ular ham chidab turolmadilar. Bobongni o'lik bo'lsa o'ligini, tirik bo'lsa tirigini topamiz, deyaptilar. Meni "Qidiruv" klubiga a'zo qilib oladigan bo'ldilar. O'qishni ham yig'ishtirib qo'yib bobomni qidirmoqchiman.

— Yo'q, — dedi Jo'ra aka, — bu chatoq fikr. Otamdan yodgor bo'lib birorta ham xat saqlanib qolmagan. Chunki bobonglar yozishni bilmagan ekanlar. Sening ham savodsiz bo'lib qolishingni istamaymiz. O'qimagan bobong uchun o'qi, a'lochi bo'lib o'qi. Maydondagi familiyaga kelsak, u bizning yuragimizga nur bo'lib yoqildi. Biz to'rt og'a-ini otamlarning nomini saqlab qolish uchun, u kishining ruhini shod qilish uchun ismlarini farzandlarimizga ota ism qilib berdik. Hozir bobonglarning nomi yigirma to'qqiz nabirasiga iftixor baxsh etyapti. Shundan biz xursandmiz. Maydondagi Karamadov S. familiyasi sal mavhum bo'lsa ham bizdan boshqa hech kim "otam", deb unga qiziqmadi. Harbiy arxivdagi qanaqadir qog'ozda shunday yozilgan ekan.

Jo'ra amaki kiyina boshladi. U boya Izzatulla kelgandagidan ancha parishon bo'lib qolgandi. Kiyim javonidan bir emas, ikkita ko'ylakni olib yana joyiga qo'ydi. Keyin yana ulardan birini oldi-da, kiydi. Yengiga yaltiroq tugma o'tkazib Izzatullaga qaradi:

— Hozir bir joyga boramiz-da, keyin seni uyga tashlab, ishga o'taman, — dedi.

Amakisi garajdan "Jiguli"ni haydab chiqqanda kun tafti ancha qaytib qolgan, quyosh Buxoro ustidan uzoq-uzoqlardagi bog'lar ichiga engasha boshlagan edi. Ular bozordan gul olib maydonga qaytishdi.

— Jiyan, yuragimni alg'ov-dalg'ov qilib yubording.

Bizning otamiz unaqa odam emas... Jo'ra amaki yo'lda shundan bo'lak gap aytmadi.

Ular gulni Karamadov S. degan familiyaning ustiga qo'yishdi.

— Otajon, olamdan o'tgan bo'lsangiz, joyingiz janatda bo'lsin. Biz sizning o'g'illaringiz, nabiralaringiz nomingizni hamisha pok saqlaymiz. Unga dog' tushirmaymiz, — dedi Jo'ra aka ovozlari o'zgarib.

Izzatulla yana g'alati bo'lib ketdi. Yana quloqlari tagida: “Bobosini yaxshi ko'rgan nabira uning nomini tuproqqa belab yurarmidi?” degan ovoz shafqatsizlar-cha jarangladi. Yana Mixail Matveyevichning tund yuzi ko'z oldiga keldi.

— Xo'p jiyan, akamga, yangamga salom ayt, kirsam, ushlanib qolaman. Harakat qil, Mixail Matveyevichni mahkam ushla. Ehtimol otamni topishdek baxtga sen muyassar bo'larsan.

Izzatulla amakisining mashinasi ko'zdan yo'qol-guncha orqasidan qarab qoldi.

U xayol bilan cho'ntagiga qo'lini solib nimanidir hafsala bilan maydalayotganligini sezib qoldi. Qarasa, sigaret donalari, uning moxorkalariga ko'zi tushishi bilan og'zi taxir tortib ketdi. U cho'ntagini ag'darib, qoqib tashladi. Mixail Matveyevich nimaga uni kuchli, chidamli odamlar qatoriga qo'shdi? Axir necha marta unga “sigaret chekmagin”, deyishdi. U necha marta “chekmayman”, deb va'da berdi. Bari bir chidamsizlik qildi. Va'dasida turolmadi. Mixail Matveyevich uni kuchlisan, deb to'g'ri aytdi. U mushtlashishda birovdan kaltak yeb ketaveradigan bola emas. Demak, u kuchli ekan-u, chidamsiz ekan. Yoki bo'lmasam chidamsiz kuchli dardisarlardan ekan-da...

Chorbakirga borganlari...

Hamma baqiriq-chaqiriqlar-u, Izzatillaning boshiga yog'ilgan la'nat toshlari dadasi ishdan qaytguncha tugadi. “Bo'ldi, dadalaringga aytib, dilini xufton qil-

malarining. Kelgan balo-qazolar o'shalarga ursin. Juda bo'lmasa, xo'rozni so'yib yermiz", deb qoldi onasi. Izzatulla birinchi marta o'zining chidamliligini sinab ko'rdi. Dars qilgan kishi bo'lib jim o'tiraverdi. Lo'lilik qilmaganligi uchun uydagilar ham hayron bo'lishdi.

Dadasi bo'lsa ishdan keldi-yu, uni qidirib qoldi. Darsxonada u bitta o'zi o'tirardi. Akasi, opasi ovqatga qarashar, uni-buni yig'ishtirish bilan ovora edi. Adasi Izzatulladan o'qishlarini so'rab-surishtirgan bo'ldi-da:

— Ish bilan Jo'ra amakingni oldiga o'tgan edim, unikiga boribsanmi? — dedi.

— Boruvdim.

— Himm... — Adasi qalin qovoqlarini uyib yerga qaradi. — Hammasini eshitdim. To'xta, o'sha bola o'zidan-o'zi shunaqa dedimi? Bu gapni qattan topdiykin?!

— Uni bitta buvasi bor. Maktabimizga tez-tez kelib turadi. Kelsa, nevarasini taltaytirib, yonida olib o'tiradi. Shunga uni hamma "faxriyning nevarasi", deb chaqiradi. Menam shunaqa deb chaqirsam yugurib kelib itarib tashladi. "Buvasi bilan keriladi, maqtanchoq", dedim. "Alam qilsin, o'zingning buvang yo'q", dedi. "Mening buvam qahramon bo'lib o'lgan", dedim. "Ko'rib turuvdingmi, o'layotganini?" deydi. Bir musht tushirsam, o'sha yomon so'zni aytib stadionni boshiga ko'tardi-da...

— Tushunarli, gap o'rtamizda qolsin. Ertaga mening dam olish kunim. O'qishing tugagach, maktab darvozasining oldida tur. Mashinani minib boraman. Bir yerga boramiz...

Ertasi kuni Mixail Matveyevichning kabinetiga Izzatulla, Rustam, Shodmon uchovlon kirib borishdi.

— Mixail Matveyevich, bular mening o'rtoqlarim. Buvamni birga qidirishmoqchi. Bular ham kuchli, sovuqqayam, issiqqayam, ochlikkayam chidaydigan bolalar...

— Ko'rinib turibdi. Endi uchovlarning "Qidiruv" klubi raisi, 8-sinf o'quvchisi Shavkat Nurillayev nomi-

ga ariza yozasizlar. Biz sizlarning arizalaringizni klubning navbatdagi yig'ilishida ko'rib chiqamiz. Qabul qilgach, mana bunaqa guvohnoma beramiz.

Mixail Matveyevich sirti qizil, ikki sahifali guvohnomani ko'rsatdi.

— Unga shunday deb yoziladi: “O'rtoq Soliyev Izzatulla Buxoro shahridagi Abu Ali ibn Sino nomli maktab qoshidagi “Qidiruv” klubining a'zosi. Guvohnoma urush va mehnat faxriylari tarjimai holini, hayot yo'llarini o'rganish, davlat arxivlariga kirish huquqini beradi”.

* * *

Izzatulla dadasi aytgan joyga vaqtida yetib keldi. Darvoza yonida o'g'lining ikki o'rtog'i bilan turganini ko'rib:

— Sizlar ham o'tiringlar mashinaga, — dedi salom-alikdan so'ng.

— Biz bobomlarni birga izlaydigan bo'ldik, — dedi Izzatulla, — bugun “Qidiruv” klubiga olinglar, deb uchovimiz ariza yozdik.

— Qadrdon do'stlar shunaqa bo'ladi-da, — dedi Asatulla aka motorga gaz berib. — Men sizlarga hozir, qadrdon do'stlar haqida odamlardan eshitganimni aytib beraman:

“... Bir chol bilan kampir bo'lgan ekan. Ularning yakka-yu yolg'iz o'g'illari bo'lib, o'sib, ulg'ayib yigit bo'libdi.

Chol-kampir o'g'lini yigit yoshida ham yer-u ko'kka ishonishmas ekan. G'am-tashvish ham, dard ham bizga kelsin-u, o'g'limizga yopishmasin, deyi-sharkan. Nima bo'lipti-yu, azroyil o'sha yigitning jonini oladigan bo'lib qopti.

— Yo'q, o'g'limning o'rniga mening jonimni ol, — deпти chol. — Yoshimni yashaganman, oshimni oshaganman.

— Yaxshi, — deпти azroyil, — bo'lmasa, o'lim taxtasiga yot, kalima keltir.

Chol taxtaga yotipti-yu, titray boshlapti. Tilida

aytgani bilan ko'nglida o'lgisi yo'q ekan. Buni Azroyil sezipti-da:

— Tur o'rningdan o'lishga tayyormasakansan, joningni ololmayman, — depti. Chol xursand bo'lib o'rnidan turib ketipti.

— Cholning joni shirin ko'ringan bo'lsa, menikini ol, — depti kampir. Lekin kampir ham Azroyilning taxtasiga yotishi bilan tipirchilab qolipti.

— Senam bo'lmaysan, tur, — depti Azroyil kampirga. Kampir ham dik etib o'rnidan turib ketipti. Shu payt yigitni qidirib jo'rasi, qadrdoni kelib qolipti.

— Nima gap, — depti u. Azroyil maqsadini aytip-ti.

— Do'stim uchun jon berishga mana men tayyor-man, — depti jo'rasi.

— Yo'q, — depti yigit, — o'zimning jonimni ol. Men do'stimsiz yasholmayman. Usiz menga yorug' dunyo qorong'i.

— Unda ikkalamizning ham jonimizni ol, usiz men ham yasholmayman, — depti jo'rasi.

— Yotinglar, — buyuripti Azroyil o'lim taxtasini ko'rsatib.

Ikkovi ham jon taslim qilgani taxtaga cho'zilishipti. Azroyil ularda hech qanaqa qo'rquvni sezmapti. Shunda azroyil ularning do'stligiga tan beripti-da, Ollohning amri bilan jonini olmaydigan bo'pti..."

— Ko'rdinglarmi, haqiqiy do'stlikka o'lim ham yo'l beradi.

Izzatulla ham, Rustam ham, Shodmon ham bu hikoyaning mag'zini chaqmoqchi bo'lishgandek xayolga berilgan edi. Hatto, Asatulla aka ularni yo'lda kabob bilan mehmon qilganda ham churq etmay o'tirishdi.

— Chorbakirga ketyapmizmi, endi uning hikoyasini eshitinglar yo bilasizlarmi? — so'radi Asatulla aka.

— Bilmaymiz.

— Aytib bering.

— U yerning nomi Chorbakir emas — Chorbikir. "Chor" — "to'rt" degani, "bikir" degani turmush qurmagan, "hur qiz" degani.

“Emishki, bir vaqtlarda hukmronlik qilgan Buxoro amirlaridan biri qishloqma-qishloq odam qo‘yib saroyga cho‘rilar izlatipti. Shunda amirning odamlari shu biz borayotgan qishloqdan o‘tib qolishihti. Devor osha qizlarning sho‘x kulgilari quloqqa chalinipti... Qarashsa, to‘rt qiz, biri qoshiga o‘sma qo‘yib, biri so‘zana tikib, chaqchaqlashib o‘tirishganmish. Amirning odamlari qizlarni saroyga olib ketishmqochi bo‘lishipti. Qizlar bo‘lsa “amirning o‘zi kelsin”, deb unashmapti. Qizlarning bu g‘alati talablarini amirga yetkazishihti. Amir ham hayron bo‘lib, yo‘lga tushipti. Qarasa, qishloqning oddiy qizlari emish.

— Ularni sochlaridan dorga osinglar, — farmon beripti amir darg‘azab bo‘lib. Amirning odamlari qizlarga tashlanipti-yu, qo‘rquvdan dir-dir titrab qolishihti. Chunki qizlar ko‘zdan g‘oyib bo‘lishipti-da. Shundan keyin amir odamlari bu yerga cho‘ri izlab kelmaydigan bo‘lishipti. Bunday tashvishdan qutulgan odamlar qishloqni Chorbikir deb atashihti. “Hur qizlar”ga atab madrasalar qurishihti. Hov ana Chorbakirning o‘zi ham ko‘rinib qoldi.

Bolalar xuddi hur qizlarni qidirayotgandek, ro‘paraga, qishloq tepasidagi zangori osmonga tiki-lishdi. Ko‘zlariga xuddi ufqdan chiqib kelgandek gumbazli bino ko‘rindi.

— Gumbazni ko‘rayapsizlarmi? O‘sha Chorbakir madrasasi. Qurilganigayam ming yilcha bo‘lib qol-gandirov. Haliyam uzoqdan salobatli ko‘rinadi. U yerda Qur‘on, Hadis ilmini o‘qishgan, deyishadi. Atrofida noma‘lum avliyolarning qabrlari bor.

Mashina Chorbakir madrasasiga olib kiriladigan darvoza oldida to‘xtadi. O‘ng tomonda ko‘rimsizgina, pastak uylar tizilib ketgan. Ular eski uslubda puxta qilib qurilgan edi. Asatulla aka Chorbakir darvozasiga tutash tushgan hovliga ishora qilib gapida davom etdi:

— Mana shu hovlida Izzatullaning bobosi — mening otamning yoshligi o‘tgan. Onamiz ham shu uyga kelin bo‘lib tushganlar. Katta akam Salohiddin, undan keyingisi Sa’dulla, men ham shu hovlida

tug'ilganman. Jo'ravoy ukam Buxoroda tug'ilgan. Men akalarim bilan mana bu Chorbakirga olib kiradigan darvoza tagida o'tirib, bozor kunlari otamlarni kutardim. Otam mehnatkash, polvon odam ekanlar. Birortasi uy qurib tomiga xari chiqaradigan bo'lsa otamlarni chaqirib ketishardi. Xarining bir tomonini bir necha kishi ko'tarsa, bir tomonini otam ko'tarardi. Qish kunlari otamlar Buxoroga o'tin olib borib sotardilar. Bozordan shirinlik olib kelardi. Mana shu darvoza halqalarida, devorlarda dadamlarning qo'l izlari bor. Mana bu yo'llarda etik izlari qolgan.

Asatulla aka yengil xo'rsinib atrofga tikildi, qadrdon bo'lib qolgan, bolaligidan yuragiga o'rnashgan, otasini eslatadigan narsalarni go'yo o'zi bilan olib ketmoqchi bo'lgandek, ko'ngil uzolmasdi.

— Qani o'tiringlar, — deb oxiri mashinaga ishora qildi u. — Bizning Buxoroga ko'chib ketishimizga ham otamlarning mehnatkashligi, polvonligi sabab bo'ldi, — yo'ldan ko'zini uzmay gapida davom etdi Asatulla aka. Urush boshlanmasdan besh-olti yil oldinroq Buxoroga paxta zavodi qurildi. Unga paxta toylarini ko'taradigan, polvon odamlar kerak bo'lib qoldi. Kolxoz dadamni zavodga ishga yubordi. Shundan keyin biz shahardagi Shmidt degan ko'chaga ko'chib ketdik.

Mashina Chorbakirdan katta ko'chaga chiqqach, tezlab ketdi. Keyin shaharga borgach, Bozorcho'pga burildi.

— Mana Bozorcho'pga ham yetib keldik. Bu yerda ilgari o'tin-cho'p sotilgan. Otamlar o'tinni shu yerga keltirib sotganlar. Endi Bozorcho'p bo'lib nomigina qoldi. Hammayoq gazlashdi. Cho'p sotishga hojat qolmadi. Mana bu Oxunboboyev ko'chasi. Endi shu yerda bir zum to'xtaymiz. Huv anavi yerga qapishgan temir qoplamani ko'ryapsizlarmi?

Bolalar yer bilan tep-tekis bo'lib ketgan dum-dumaloq cho'yan parchasini ko'rishib, "ha, ko'rdik", deyishdi.

— O'sha yerda vodoprovod jo'mragi bo'lardi.

Tepasida bitta odam turardi. Urush yillari ikki tiyin to'lab bir chelak suv olardik. Endi bo'lsa odamlar tomorqasiniyam vodoprovodda sug'orishadi.

Mashina Oxunboboyev ko'chasidan kun chiqishga qarab burildi. Bu ko'cha borgan sari torayib borardi. Mashina to'xtadi.

— Mana bizning qadrdon ko'chamizga ham yetib keldik, — dedi Asatulla aka mashinadan tusharkan. Asatulla akaning ko'zlari yosh bolanikidek javdirar, nimagadir betoqat bo'lardi.

— Bizning eng qiyin, eng shirin bolaligimiz o'tgan ko'chalar. Lekin qiyin deb, faqat yig'lab-siqtab o'smaganmiz. Bizning ham sizlarga o'xshab ko'chadan uyga kirgimiz kelmasdi. O'yin bilan qornimiz ochganini esdan chiqarardik, ovunardik. Urush-urush o'ynardik. Xuddi jangda yurgandek saf-saf bo'lib yurardik. Bir xilda qadam tashlab qo'shiq aytardik:

*Alpomishday er bo'lg'in,
Go'ro'g'liday sher bo'lg'in.
Hech to'xtovsiz yov ustiga yurish qil,
Tomchi qoning qolgunicha urush qil...*

*Mard odamning farzandi ham mard bo'lar,
Hamla qilsa, baland tog'lar gard bo'lar...*

deb piyodalar hujum boshlar, yog'och otli chavandozlar ham piyodalarga yordamga kelardi.

— Bir kuni juda qiziq bo'ldi, — deya Asatulla aka bolalarni ko'cha ichkarisiga boshladi. — Mana, bizning uyimiz shu edi. Hozir bu yerda boshqa oila yashaydi. Qo'shnining uyi bilan bizning uyimiz o'rtasida yosh bola yonlab sig'sa bo'ladigan oraliq bor edi. Men bir kuni berkinib, shu yerdan “dushman”ni kuzata boshladim. Men shtabga qanday bo'lmasin bitta “til” tutib borishim kerak edi. “Jangda” dushman bizdan ustun kelib turardi. Biz ko'p talafot ko'rgan edik. Qarasam, ikkita “dushman” men tomonga qarab kelyapti. Ko'rib qolmasin deb

yanayam ichkariroqqa suqildim. Shunda oyog'imga bir narsa qattiq urildi. "Dushman"ni o'tkazib yuborib sekin ushlab ko'rsam, chipta qopga o'rog'liq narsa. Uni devor oralg'ining kengroq joyiga surib, chipta qopni ochdim. Qarasam, rosmana qilich. Tig'lari sal zanglagan, yuqori tomonlari yaltirab turibdi. Men o'shanda rostakam jangchiga aylanib qoldim. Qilich og'ir edi. Ikki qo'llab boshimdan yuqori ko'tardim-da, "dushman"ga qarab yugurib qoldim-u...

Qarasam, esxonasi chiqib ketgan "dushman" askarlari qo'lini ko'tarib taslim bo'lib chiqyapti. Ularni shu ko'yi oldimga solib "shtabga" haydab bordim. "Shtab"dagilar ham, "dushman" ham hayron. "Qayerdan olding, qayerdan topding?" Shunday qilib, bir o'zim butun boshli "armiya"ni yenggan edim...

— Hozir o'sha qilich bormi? — so'radi Rustam.

— Dadamning Isayev Abduvoid degan jo'rasi bor edi. O'sha kishi birovni mayib qilib qo'yan, deb olib qo'ygan. Keyinchalik biz o'sha joydan miltiq ham topib oldik. U qo'shog'izli jangovar miltiq edi. Biz uni kattalardan yashirib, pana joylarda ko'tarib yurardik. O'qi bo'lmasa ham otishni mashq qilardik. Miltiqni topgach, niyatim buzilib qoldi. Miltiqni olib dadamning oldiga qochib ketmoqchi bo'ldim. Buni kimdir onamga aytib qo'yibdi. Onam dadamning jo'rasiga aytib miltiqni oldirib qo'ydi.

— Ularni bu yerga kim qo'ygan bo'lishi mumkin? — yana qiziqdi Rustam.

— Buxoro amirining navkarlari shu yerga berkitishgan bo'lishi kerak. Harholda qurolni hukumatga topshirishni xohlamagan kishining ishi bu...

— Jo'ra amakim bobomlarni shu ko'chada o'tirib kutganlarmi? — so'radi Izzatulla.

— Ha, bobonglarni shu uydan harbiyga kuzatganmiz. Oldin ularni harbiy komissariatga olib borishgan. Qani ketdik, harbiy komissariat binosini ham ko'rsataman sizlarga.

Mashina iziga qaytdi.

— Otamlar harbiy xizmatga chaqirilmasdan oldin-

roq uyimizda g'alati bir gap bo'lgan. Chorbakirdan otamning bir jo'rasi kelib qoldi. U biznikida tunab qoladigan bo'ldi. Mehmon, otam, men mehmonxonada yotdik. O'shanda mehmon dadamga:

— Soli, seni urushdan olib qolaymi? Bugun-erta senga chaqiruv qog'ozi keladi, hammani safarbar qilishyapti, — deb qoldi.

— O'zing-chi, o'zing ham bormaysanmi? — so'radilar dadam.

— Menga bron berishmoqchi, axir bu yerdagi xo'jalikni ham yuritish kerak-ku.

— Qog'oz bilan olib qolasanmi? — so'radi dadam.

— Unaqa qilolmayman, cho'lga qo'ychivon qilib jo'natvoraman. To seni u yerdan qidirib, qo'lingga chaqiruv qog'ozi berishguncha besh-olti oy o'tib ketadi. Ungacha urush ham tugaydi.

Bu gaplar dadam haqida borayotganligi uchun quloqlarim ding bo'lib eshitardim. Ular meni uxlab qolgan gumon qilishsa ham sekin-sekin gaplashishardi. Otam uzoq o'ylanib qoldi. Keyin:

— Yo'q, peshanamga yozilgani bo'lar, — dedilar, — ko'pga kelgan to'y.

Otam to'g'ri odam edi. Men zavodga qidirib borsam, doim ish ustida ko'rardim. Yelkalarida yuz kilolik toy paxta, vagonga qiya qo'yilgan narvonlar g'ijirlab ketardi.

“Jiguli” qizil g'ishtli bino ro'parasida to'xtadi.

— Mana shu binoda Buxoro shahar harbiy komissariati bo'lardi. Shaharning bosh planiga mos kelib qolganligi uchun buzilmay qoldi. Mana shu bino yonida otam tengilarni to'plashdi-da, buxarka degan poyezdiga chiqarish uchun olib ketishdi.

Mashina yana joyidan qo'zg'aldi. Bolalar sezishdiki, ular buxarka vokzaliga ketishyapti.

— O'sha vaqtda Kogondan Buxoroga — o'n ikki kilometr masofaga — to'rt vagonli poyezd qatnardi. O'sha poyezdni buxarka deyishardi. Mana buxarkaga ham yetib keldik.

Bolalar sirlari qorayib ketgan, pishiq g'ishtin eski

binoni va uning narigi tomonida quyosh nurida yaltirayotgan temir izlarni ko'rishdi. Asatulla aka o'sha tomonga boshladi. Po'lat izlar bo'm-bo'sh, nomi-gayam birorta vagon ko'rinmasdi. Bir vaqtlar vokzal vazifasini o'tagan bino hozir shahar turistlar idorasiga, omonat kassaga aylantirilgan. Asatulla aka bolalarni bir joyga mo'ljal qilib olib bordi-da, bir zum o'yg'a tolib dedi:

— Otamni xuddi mana shu joydan vagonga chiqar-ganmiz. Vagon — passajir vagoni emasdi. Vagon bilan platforma o'rtasiga taxtadan ko'prikcha qo'yilib jangchilarni vagonga chiqarishgandi. Mana bu yerda esa otamlar hammamizni bag'riga tortib, do'sti Isayevga dedi:

— Sen qolayapsan, bolalarimni senga, seni xudoga topshirdim.

Isayev bo'lsa:

— Hali ketmaysizlar, Kogonga olib borib, sizlarni mashq qildirishadi, ungacha urush ham tugaydi, — degan edi. Otam bilan deyarli xayrlashmadik, ertasiga Kogonga palov pishirib boradigan bo'ldik.

Ertasiga onam, akalarim borishsa ketib qolishgan ekan, yig'lab qaytib kelishdi. Mana o'sha bino, o'sha perron, o'sha temir yo'llar. Hammasi joyida turipti. Lekin qani otamiz?.. Shu yerdan kuzatilgan minglab odamlar qani?

Asatulla aka qalin qovoqlarini uyib, xayolga botib, yuzlari tundlashib turib qoldi. Bugungi sayohat niho-yasiga yetgan edi. Asatulla aka qaytishda hech nima demadi. Bolalar ham indashmadi. Asatulla akaning eski yaralari yangilangan, bolalarning yelkasidan qan-daydir ko'rinmas yuk bosib turganga o'xshardi. Ular har kungi it urishtirish, mushuklarning dumiga ip bog'lab o'ynash, sigaret chekib, tutunini parovoz qi-lishga o'xshash ishlardan ko'ra bugun boshqacharoq olamni ko'rishgan, g'alati hikoyalar eshitishgan edi.

— Endi bu gaplarni, ko'rgan-kechirganlaringni yozasizlarmi yo eshitib qo'ya qolasizlarmi, — so'rab qoldi Asatulla aka kutilmaganda.

Bolalar bir-birlariga qarashdi.

— Yozsak kerak, yozamiz, — dedi Shodmon. Uning kechgacha gapirgan gapi ham shu bo'ldi. Izzatulla uning miq etmay yurgandan bunaqa sayohatlar unga yoqmadimikan, ertaga buvangni o'zing qidiraver, dermikan, deb o'ylayotgan edi.

Izzatulla o'rtoqlari bilan xayrlashib, hovliga kirar ekan, bobosini o'ylab ketdi. Bobosi tirik bo'lganda ularga ham: “Bu nevarangiz darsini o'qimaydi, chekaverganidan mog'or bosib ketgan”, deb yomonlasharmidi? Bobosi ham unga: “Jonga tegib ketdingku”, dermidi? Yo'q, bobosi Mixail Matveyevichga o'xshab, uni bir ko'rishdayoq tushunardi. Darrovda o'n kilodan qirq kilogacha bo'lgan toshlarni olib berardi. Dadasiga o'xshab, bo'ying o'smay qoladi, deb galga solib o'tirmasdi. Polvon odam darrov tushunardi. Dadasi nuqul: “Sening yoshingda qo'shotar miltiqda o'rdak ovlab, oilani boqqanman”, deb maqtanadi. Izzatullada qo'shotarmas, birotariyam yo'q. Mazaku, cho'lga chiqib o'rdak ovlash. Yana: “Birovlarning qo'yini, sigirini boqardik, kun ko'rish uchun”, deydi-lar. Qani o'sha sigir, qo'ylar bo'lsa, tekingayoq boqib berardim. Nuqul: “O'qi, o'qi!”. Maktabdayam darsni o'tishadi, o'tishadi-da, yana: “O'shani o'qib ke, o'qib ke”, deyishadi. Bolalar biron qiziqroq o'yin topishsa, o'qituvchilar ahmoqdan olib ahmoqqa solishadi. Toshbaqaning o'lgani chatoq bo'ldi-da. U bilan har qanaqa o'yin o'ylab topsa bo'lardi. Ukasining mashinasi ariqchaga tiqilib qoldi. Toshbaqa shatakka olib tortib chiqardi. Kechasi kosasiga shag'am o'rnatib, qorong'i ko'chaga qo'yvorishdi. To'ydan qaytayotgan xotinlar qo'rqib mahallani boshiga ko'tarishdi. Oxiri bolalar toshbaqaning suzishini tomosha qilish uchun tog'oraga suv to'ldirib, qo'yvorishdi. U tog'oraning tagiga tushdi-da, qitir-qitir qilib yura boshladi. “Uh, toshbaqa amfibiya”, “suv tagida yuradigan tanka!” deb osmonga sakrashdi bolalar. “Tanka” tog'oraning narigi boshigacha bordi-da, yo'li tamom bo'lgach, tog'ora devorini paypaslab orqasiga

qaytdi. Yarim yo'lga yetmay "motori" o'chdi. Tog'oradan olishsa, o'lib qopti. Keyin xo'roz urishtirishni topishdi. Uyam tugadi...

Izzatullaning xayolini tanish hushtak ovozi bo'ldi. Darvoza tagida Rustam bilan Shodmon turishardi. Ular bir nimani eslaridan chiqarishganga o'xshardi.

— Ha, — dedi Izzatulla.

— Bobong haqida yozadigan gaplarimizni kelishib olsak, — dedi Rustam. — Biznikida Samarqand haqida bitta kitob bor. Uch tilda yozilgan. O'zbekcha, ruscha, yana inglizcha bo'lsa kerak. Lekin mazmuni bir xil, deydi dadam.

— Biz ham shunaqa uch tilda yozamiz, — dedi Shodmon.

— Zo'r bo'ladi, — dedi Izzatulla. — Mayli men rus tilida yozaman.

— O'zbek tilidagisini men, — dedi Shodmon.

— Men-chi? — ikkilanib qoldi Rustam.

— Sen o'sha inglizchada-da!

— U tilda yozolmayman-da. Qanaqa qilib yozaman?

— Bo'lmasa tojik tilida yoz.

— Unda yoza olaman.

Shodmon bilan Rustam qaytib ketishdi. Izzatulla ular orqasidan tikilgancha o'ylanib qoldi: "Mabodo azroyil Rustamnimi, Shodmonnimi jonini olaman deb turib olsa, "mana menikini ol", deya olarmikanman?..

Katta amakining frontga o'q yasab jo'natganlari...

Ertasiga uchala do'st ko'zlari kirtayib maktabga kelishdi. O'sha tuni uchalovi uch yoqda kitob yozishdi. Ota-onalari bolamiz dars tayyorlayapti, insof bergani rost bo'lsin, ertaga "5" olib keladi, deb xursand bo'lishdi. Ular bo'lsa hech qachon bunchalik ko'p, uzoq yozishmagan edi. Olti yil davomida yozganlarini bir yerga to'plashsa ham tunda yozganlarining yarmicha chiqmasdi. Biroq o'qituvchilar ularning tun bo'yi qilgan mehnatlarini qadrlay bilishmadi.

Ko'zlari kirtayib mo'ltirab qarashsa ham parvo qilishmadi. Dars tayyorlamabsanlar deb "2" ni shartillatib qo'yaverishdi. To'g'ri, ular "biz shunaqa ish bilan band bo'ldik", deyishmadi. Ehtimol, aytishganda rahm-shafqat qilisharmidi. Umuman maqtangilari kelmadi. Undan keyin maqtanish uchun qilishmayapti bu ishni. Ular Izzatullaning bobosi sotqin emasligini isbot qilishmoqchi. O'lib ketgan odamni yomon gapdan qutultirishmoqchi. U tirik bo'lsa ekan, o'zi kelib: "Unaqa emas, bunaqa", deb vaysaqilarni shapaloq bilan bir tushirsa. Ular "2" lardan qo'rqishmayotgan edi. Sinf rahbarining qidiruv ishidan ularni mahrum qilib qo'yishidan qo'rqishardi.

Aytganlari bo'ldi. Darsdan keyin Malika opa ularni olib qoldi. Mixail Matveyevichni chaqirtirdi.

— Mana siz maqtagan bolalar. To'qqizta "2" ni uchovi bo'lishib olishibdi. Klubingizning foydasi shu bo'lsa?! Klubga olmaysiz bularni, gap tamom!..

— Mayli, siz boravering, bular bilan o'zim gaplashaman, — dedi Mixail Matveyevich.

Malika Ergashevna sinfdan chiqib ketdi. Oyoq tovushi koridorda eshitilmay qolguncha jim o'tirishdi.

— Xo'sh, ishlar qalay, shovvozlar? — dedi Mixail Matveyevich jimlikni buzib, — kecha biron yangi gap topdinglarmi?

— Topdik, — dedi Izzatulla, — bobomning o'rtoqlari urushdan olib qolaman desalar ham unamagan ekanlar. Kecha dadam bizni bobomlarning yurgan yo'llari bo'ylab olib yurdilar.

— Rosa charchabsizlar-da.

— Qayoqda, — dedi Rustam, — bir qadam joyga ham "Jiguli"da bordik.

— Unda nega dars tayyorlamadilaring?

— Biz kecha eshitganlarimizni yozdik.

— Esimizdan chiqib ketardi-da...

— Mixail Matveyevich, biz uch tilda yozyapmiz.

— O'zbek tilida.

— Rus tilida.

— Tojik tilida.

— Yashanglar, urush qahramonlari ishlarini ming tilda yozib butun dunyoga tarqatilsa ham kamlik qiladi. Lekin dars qilmaganlarning chatoq bo'пти. Ishni eng oldin gap tegmaydiganidan boshlash kerak. Demak, maktabdan qaytgach, birinchi galda dars tayyorlash kerak. Keyin qidiruvga chiqish kerak. Kelishdikmi?

— Ha, Mixail Matveyevich.

— Bo'пти, shunaqa qilamiz.

— Aytib qo'yay, sizlarni klubga a'zo qilib olishayotganda, albatta, baholaringga qarashadi.

Bolalar birinchi marta o'quvchiga o'xshab Izzatullalarnikida naridan beri bo'lsa ham dars tayyorlashdi. Ularni kechki soat beshlarda Izzatullaning katta amakisi Salohiddin aka kutardi. Salohiddin aka shahar telefon stansiyasida injener bo'lib ishlaydi. Telefon orqali bog'lanib uchrashuvni beshga tayin qilishgan edi. Asatulla aka, Jo'ra akalarning aytishicha, Izzatullaning buvasi haqida Salohiddin aka ko'proq bilar ekanlar. Otalari xizmatga ketganda o'n olti yoshda bo'lganlar-da.

Salohiddin aka bolalarni xuddi katta odamlarni kutgandek hurmatlab qarshi oldi. To'rga o'tkazib, o'zi poygakka cho'kdi.

— Zap vaqtida telefon qildilaring-da, — dedi bolalarga qarab. — Kecha shahar telefonlarini profilaktikadan o'tkazgan edik. Kechasi bilan uxlay olmadim. Tushimga otam kriptilar, mendan xafa ko'rinadilar. Nega bunday bo'ldi, otam nega xafalar deb hayron bo'lib yuruvdim. Endi bilsam, sizlarning kelishingiz, so'rab-surishtirishingiz ekan.

Bobom amakimning tushlariga kirgan bo'lsalar, anovi bola aytgan xunuk gapni eshitiptilar-da, ko'nglidan o'tkazdi Izzatulla. Tushingizga bekor kirmaganlar, shunaqa gap bo'luvdi, desinmi? Izzatulla amakisiga qaradi. Salohiddin aka dadasidan, Sa'dulla amakisidan qariroq, charchaganroq ko'rinadi. Ehtimol, bobosi xuddi shu amakisiga o'xshagan odam bo'lgandir. Izzatulla gapni ichiga yutdi, aytmadi. Shundoq ham kechasi uxlamadim, deyapti...

— Xo'sh, gapni nimadan boshlasak ekan. Siz qidiruvchilarga qiziqarli bo'larmikan? Shu desangizlar... qirq birinchi yilning yozi birdan to's-to'polon bo'lib qoldi. La'nati fashist hammaning tinchini o'g'irladi. Uylaridan ilon chiqqandek — hamma ko'chada. Endi nima bo'larkin? Dushmanni daf qilgani bilagida kuchi, yuragida o'ti borlar jangga keta boshlashdi. Men sakkizinchida o'qirdim. O'qituvchilarimiz jangga ketib o'qituvchisiz qoldik. Otamlar paxta zavodida yukchi bo'lib ishlardilar. Zavoddagilarni olishmaydi deyishardi. Bu yerga qanaqadir zavod ko'chib keladi, paxta zavodidagilar o'shanda ishlaydi, degan gaplar yurdi. Aytilgan zavod ko'chib kelguncha zavoddagi odamlar ham siyraklashib qoldi. Bir kuni dadamga ham chaqiruv qog'ozi keldi. Uning kelishini bilardik. Keyingi kunlarda otam chaqiruv qog'ozi kelmayotganiga sal xijolat ham bo'lib yurardilar. "Bron bersa bermaydi, bo'lmasa bir yoqli qilishmaydi", derdilar otam. Nega deganda ko'chamizdagi dadam tengilar ham ketib borishardi. Chaqiruv qog'ozi kelganda chiroylari yorishib ketdi. Uch-to'rt kun ishga bormadilar. Uyimizning u yer-bu yerini, tomlarni shuvadilar. Chorbakirdan bir arava to'nka-o'tin olib keldilar. Uni ikkalamiz sarjin qilib hujraga taxladik. "Bu o'tinni qish chillasiga asranglar. Ungacha tezak, g'o'za yoqib amallanglar", dedilar. Darvozamiz ikki tabaqali edi. Bittasini mahkam qilib mixlab tashladilar. "O'zim kelib ochaman, bir tabaqasiyam yetadi", dedilar. Otam ilgari unchamuncha ishlarni bir o'zlari qilaverardilar. O'sha uch-to'rt kunlik hamma ishni men bilan bajardilar. O'tin yordirdilar, andavada shuvoq ham qildirdilar.

Salohiddin amaki bir zum chakkasini qashlagancha turib qoldi.

Ha, ketishlaridan bir kun oldin kechki ovqatni yeb bo'lgach, dasturxonga fotiha o'qildi. Otam, sizlarga aytadigan gapim bor, degandek hammamizga qaradilar-da:

— Asatulla, Sa'dulla, o'rinlaringdan turib bir poygakka o'tib turinglar-chi, — dedilar.

Ikkala ukam hayron bo'lib, namatdan pastga tushib, javdirab qarab turishdi. Jo'ravoy emizikli, onamning bag'rida edi.

— Ikkala quloqlaring bilan eshitib olinglar, — dedilar ukalarimga qarab. — Bugundan boshlab xonadonimizning kattasi Salohiddin bo'ladi. Men kelguncha u sizlarga ham aka, ham ota. Uning bitta aytgan gapini ikki qilmaysizlar. Gap qaytarsanglar, bilinglarki, Salohiddinga emas menga gap qaytargan bo'lasizlar, uqdilaringmi?

Ukalarim "ha" degandek bosh qimirlatishdi. Asatulla sakkiz yoshda, undan kattasi Sa'dulla o'n ikki yoshda edi. Ukalarimga o'tirish uchun ruxsat tegdi.

— Endi sen ukalaring o'rniga tur, Salohiddin, — dedilar dadam. Men qo'l qovushtirib ukalarimning o'rniga borib turdim.

— Ot o'rnini toy bosadi, o'g'lim, onangni ukalaringni avvalboshi Xudoga, qolaversa senga ishonib qoldiryapman. Aqling, hushing joyida. Biroq yo'qchilik yo'ldan ozdirishi mumkin. Sen yo'ldan ozma. Katta aravaning izidan kichigi ketadi... Yukchining o'g'lisan. Og'ir yukka yelka tutsang, yuzaga chiqasan. Ukalaringga mehrli bo'l, onangni izzatla, o'g'lim...

Otamlar kam gapirib ko'p ishlaydigan odam edilar. Endi o'ylasam, o'shanda otam bizni oyoqqa turg'azib o'ziga xos qasamyod qildirgan ekanlar. Otam o'shanda "yosh boshingga turmush tashvishlari tushyapti, senga ancha qiyin bo'ladi", degandek ayash bilan qaragan ko'zlari, qotma, ancha siniqib qolgan yuzlari, onamning piq-piq yig'lashi doimo ko'z oldimda turadi...

Salohiddin amakining o'ninchi sinfda o'qiydigan kenja qizi bolalar oldiga dasturxon yozdi. Bezatilgan patnis keltirib qo'ydi. Choyni Salohiddin amakining o'zi piyolaga quyib, bolalarga uzatdi.

Shunday qilib, bir dunyo odam bilan otamiz buxarka poyezdida Kogonga jo'nadi. Harbiy mashq-lardan o'tishlari kerak edi. Ertasiga palov damlab dekchasi bilan ko'tarib, Kogonga yetib bordik.

Stansiyanı supurib yurgan qorovul choldan bo‘lak hech kimni ko‘rmadik. Hov, poyezd jo‘nab ketdi, dedi u kunbotar tomonga ishora qilib. Biz bo‘m-bo‘sh ufqdan boshqa hech narsani ko‘rmadik. Birov o‘sha yoqqa qarab yugurdi, kim sochini yozib yig‘ladi. Men shoshib-pishib temir izga qulog‘imni bosdim. Chindan ham qayerdadir poyezd ketib borardi. “Duku-duk, duku-duk”... Ovoz otamni bizdan uzoq-uzoqlarga olislatib ketayotganligini sezib turardim.

Otamlar ketgach, Ukrainadagi zavod ham Buxoroga ko‘chib keldi. U Xarkov shahridagi traktor zavodi ekan. Shaharda yetishmovchilik, ochlik hukm surardi. Bir kuni otamning do‘sti Isayev uyimizga kirib holimiz nochorligini ko‘rdi. Meni ko‘chib kelgan zavodga ishga joyladi. Ukam Sa‘dullani bir yoshdan o‘n yoshgacha bo‘lgan bolalarga ovqat pishirib tarqatadigan joyga o‘tyoqar qilib qo‘ydi. Ukalarim Asatulla bilan Jo‘ravoy shaharning o‘sha katta qozonidan qorin to‘yg‘azishardi. Ovqatni ularga Sa‘dulla olib kelardi. Shuning uchun ham Jo‘ravoyning tili “Osh aka” bo‘lib chiqdi. “Osh aka” degani — Sa‘dulla edi. U yaqingachanam Sa‘dullani “Osh aka” deb chaqirardi.

Mening zavodga birinchi borgan kunim sirayam esimdan chiqmaydi. O‘sha kuni men o‘zimga o‘xshagan bolalar bilan qipiq, yog‘och payrahalarini tashish bilan ovora bo‘ldim. Bizni bu ishga tamaki chekmanligimiz uchun qo‘yishdi. Umuman, zavodda chekish taqiqlangan, kashandalarni ishga olishmas edi. Birinchi ish kunimni tugatib uyga qaytayotganimda hamma qatori menga ham bir kilo non tutqazishdi. Qani qo‘llarimga, ko‘zlarimga ishonsam. Qani endi uyga tezroq yetib kelsam, onamni, ukalarimni quvontirsam derdim. Biz anchadan beri buncha nonni ko‘rmagan edik. Men endi har kuni uyga shuncha non olib boraman. O‘n kunda, o‘n kilo. O‘ttiz kunda o‘ttiz kilo. “Otajon, men ishimni topib oldim. O‘sha siz ishlagan paxta zavodida sizning o‘rningizga ishlayapman”. Men otamdan xat kelsa, shunaqa deb

yozaman deb yugurib borardim. Bitta men emas, hamma uyiga yugurardi. Qo'ltiqlaridagi nonni uyda ko'zlari to'rt bo'lib o'tirganlarga yetkazay derdi.

Yangi zavod front uchun o'q-dori ishlab chiqarishga moslashdi. Men o'q-dori uchun yashik tayyorlaydigan duradgorlar sexida ishlardim. Biz yashiklarga "Fashizmga o'lim!", "Smert fashizmu!" degan so'zlarni qora bo'yoqlar bilan yozib qo'yardik. Biz har kuni otamdan xat kutardik. Lekin xat kelavermasdi. Onam: "Otang yozishni bilmaydilar", deb ko'z yoshi qilardilar. Men jo'natayotgan o'q-dorilarimiz otamning qo'liga yetib boryaptimikin, bilyaptilarmikin, deb xayol qilardim. Bir kuni zavoddan bir parcha qog'oz topdim-da: "Dadajon, bu o'q-dorilarni o'g'lingiz Salohiddin yuboryapti. Buxorodan sizga salom", deb yashik ichiga yopishtirvordim. Qizig'i shuki, o'sha kuni dadamni tushimda ko'rdim: Xatimni olib, kularmishlar... Men bo'lsam: o'qishni bilib olibsiz-ku, yozishni ham o'rgandingizmi, dermishman...

Shundan keyin ham men bunaqa xatlardan uyda ko'proq tayyorlaydigan bo'ldim. Hech bo'lmasa shulardan birortasi dadamlarning qo'liga tegar deb ishonardim. Lekin bu ishimni master sezib qolib, zavoddan haydaydigan bo'ldi. Gap eshitib turganim ustiga injener kelib qoldi.

— Nima gap? — dedi u.

Master bo'lgan gapni aytdi.

— Nima qipti? — ich-ichiga tushib ketgan ko'zlari masterga tikdi injener.

— Axir, yashik dushman qo'liga tushib qolsa, nima bo'ladi? Buxoroda shunaqa zavodimiz borligini bilib olishadi-ku.

— Bilishsin! — injener titrab ketdi. — Bilishsin, Osiyoning bir chekkasidagi kichkinagina bir shaharda otalari uchun o'q-dori yasab yuborayotgan farzandlari borligini bilishsin. Bizning yengilmasligimizni bilishsin!

Master meni ishdan haydamadi. Ikkinchi bunday qilmaslikka va'damni oldi.

Otamdan hech qanaqa xat kelmadi. Keyin bilsak, qora xat kelgan ekan. Buni onam bizga ellik uchinchi yili betoblanib, hayotlari oxirlab qolganini sezgach, aytgandilar. “Otalaringga men bilan baravar aza ochinglar”, degandilar...

* * *

Bolalar Salohiddin amakinikidan chiqishganda quyosh Buxoro ustida qizgʻish iz qoldirib botib ketgan edi. Doʻstlar har galgidek jimjit qaytishardi. Chunki ular bunaqa hikoyalarga befarq qaray olmasliklarini kun sayin his qilishardi. Ularning yuraklari yaxshiniyam, yomonniyam darrov his qiladigan sezgir yuraklardan edi. Ogʻaynilarni sirtdan kuzatgan odam birovdan rosa kaltak yeyishgan-u, alamini ololmagan bolalarga oʻxshatishi mumkin edi.

— Men nonkoʻrman, — deb qoldi Shodmon kutilmaganda. Rustam bilan Izzatulla “yarq” etib unga qarashdi.

— Shundoq dadamdan bekinib yuraman. “Necha baho olding?” deyishlaridan qoʻrqib bekinib yuraman. Baʼzi odamlar boʻlsa otaga zor.

— Men sendan ham battar, — dedi Izzatulla. — Mehribon, yumshoq dadani topib olganman. Bekordan-bekor har kuni ishdan kelishlariga bir dunyo gʻalva topib qoʻyaman. Yana uyalmasdan qoʻyinlariga tiqilib pul soʻrayman. Gʻirt ahmoqman, a?!

— Bizniyam dadalarimiz sening bobongga oʻxshab poygakka tushirib, qasamyod qildirishlari kerak-da, — dedi Rustam.

— E, — deb qoʻl siltadi Shodmon.

1026 raqamli qoraxatni topganlari...

Mixail Matveyevich bolalar yozayotgan kundalikni koʻrib, ishlaridan qoniqish hosil qildi. Rus tilida boʻlganligi uchun Izzatullanikini qiziqish bilan oʻqidi.

Undagi ayrim soʻzlar tagiga erinmay chizib chiqdi. Oʻsha sahifada shunday deb yozilgan edi:

“Shodmon dars tayyorlamay otasidan bekinib yurgani uchun oʻzini nonkoʻr bola, dedi. Men oʻzimni ahmoq ekanman, dedim. Nega shunaqa dedik? Uzoq oʻyladim. Oʻq-dorili yashikka xat yozib tashlagan Salohiddin amakim, begona odamni otam deb, izza boʻlgan Joʻra amakim, dosh qozonlar tagiga olov yoqib ovqat pishirgan Saʼdulla amakimlar birin-ketin koʻz oʻngimdan oʻtishdi. Oʻshanda Salohiddin amakim zavodda ishlab, non topib kelganlarida hatto mendan bir yosh kichik boʻlgan ekanlar. Ular qanaqa boʻlishgan-u, biz qanaqamiz? Biz tekinxoʻr, kemiruvchilarga oʻxshaymiz. Biz tekin tomoqlarmiz. Bir kuni ovqat yemasam, onamlar: “It ogʻziga sariyogʻ yoqmas”, deb urishdilar. Men ahmoq boʻlsam, “nima qilarkin, nega yoqmas ekan?” deb yarim kilo sariyogʻni itga yedirib oʻtiribman. It boʻlsa “yoqdi” degandek labini yalab, koʻzini loʻq qilib turibdi. Amakilarim, dadamlar boʻlsa bir tishlam non uchun kunlab ishlashgan. Eh, oʻzimni-oʻzim doʻpposlay olganimda edi, bir alamdan chiqardim-da”.

— Men sizlarni kuchli ekanligingizga shubha qilmaganman, — dedi Mixail Matveyevich, — faqat kuchli odamlargina oʻzini-oʻzi koyiy oladi. Bu oʻzini-oʻzi doʻpposlagandan ming marta foydali. Ehtimol, Izzatullaning bobosi ham bolaligida sizlarga oʻxshagan oriyatli, doʻstining or-nomusi uchun kurashadigan bola boʻlgandir. Umuman, sizlarni topganimdan xursandman.

Mixail Matveyevich Shodmon bilan Rustamning ham yozganlarini koʻzdan kechirdi.

— Vaqt kelganda kundaliklaringizni koʻrgazmaga qoʻyamiz. Aqlli ish qilgansizlar. Uni tojik ham, rus ham, oʻzbek ham qiziqib oʻqib chiqadi. Endi ishingizga yana bir ish qoʻshmoqchiman. Ogʻirlik qilmasmikan?

— Yoʻq, Mixail Matveyevich, aytavering, charchamaymiz.

— Darslaringga og‘irlik qilmasmikan, demoqchi-man.

— Og‘irlik qilmaydi, bugundan boshlab “2” mas “3” ola boshladik, — dedi Rustam.

— Mixail Matveyevich, bu ishlar bizni dars tayyorlashga majbur qilyapti. Qidirishga vaqt ko‘proq qolsin deb tez-tez darsimizni tayyorlab olyapmiz.

— Bilasizmi Mixail Matveyevich, sinfda jim o‘tirsam, keyin dars tayyorlash oson bo‘larkan.

— Tushunarli, — dedi Mixail Matveyevich, — qo‘shimcha ish shunday: “Qidiruv” klubimiz shu vaqtgacha bitta kamchilikka yo‘l qo‘ygan. Jangchilardan kimning hayotini o‘rgangan bo‘lsa suratini, hujjatlarini to‘plagan. Kishilarning xotiralarini yozib olgan. Lekin u yashagan ko‘chalarni, uylarni, ishlagan idoralarni, harbiy xizmatga jo‘natilgan joylarning suratini olmagan. Oranglarda fotoapparatni tushunadiganlar bormi?

— Bor, men, — dedi Shodmon.

— Demak, “Jiguli”da yana bir sayohatga chiqishlaringga to‘g‘ri keladi.

— Chiqamiz, Mixail Matveyevich, dadam jon deb olib boradilar, — dedi Izzatulla.

— Lekin do‘stlarim, o‘qish masalasida uyaltirib qo‘ymasalaring bo‘ldi.

— Aytdik-ku, Mixail Matveyevich, “uch” ola boshladik deb, “to‘rt” ham olib qolarmiz, — dedi Izzatulla.

— Yaxshi, — dedi Mixail Matveyevich, — “to‘rt” olganning “besh”gayam kuchi yetadi. Kelishdik...

Uch o‘rtoqning qidiruv ishlaridan hamma bo‘lmasayam yarim maktab xabardor edi. Anovi bola o‘qiydigan sinf o‘quvchilari Izzatulla o‘qiydigan sinf o‘quvchilaridan kechirim so‘rashmoqchi bo‘lishibdi. Anovi bola bo‘lsa, pinagini buzmapti. “Oldin u bobosini qahramon bo‘lganligini isbot qilsin, keyin o‘zim oyog‘iga yiqilib kechirim so‘rayman”, depti.

Bolaning “Oyog‘iga yiqilib kechirim so‘rayman”, degani qidiruvchilarning battar jahlini chiqargan edi.

Kuz oyoqlab qish boshlandi. Tong bilan boshlangan qor Masjidi jome, Toqi zargaron, ibn Sino madrasalari gumbazlarini oqartirishga ulgurgan. Asfalt yo'lga yoqqanlari esa erib suv bo'lib oqar, mashina g'ildiraklari tagidan sitilib ikki yonga pilchillab otilardi. Izzatulla dadasi bilan bozorga osh kadiga borishardi. Mashinaning oyna tozalagichi tinimsiz ishlar, Izzatullaning ko'ziga faqat oyna yuzidagi qorni emas, balki ko'cha sahniga shoshilayotgan hamma qorlarni ikki yoqqa surib borayotganga o'xshardi. Izzatulla, bu manzarani jimgina kuzatib borarkan shahar arxivining harbiy bo'limidan "Karamadov S." degan yozuvdan boshqa hech nima topa olishmayotganligiga ajablanardi. Bu familiya qanday qilib 1943-yili qahramonlarcha halok bo'lganlar ro'yxatiga yozilib qoldiykin? Nimaga asosan yozilgan? Yo bu "Karamadov S." tamom boshqa odammikan. Bu masala bilan Izzatullaning amakisi Sa'dulla amaki ko'p shug'ullangan. U kecha Izzatullaning o'rtoqlari bilan arxivga kelib yana o'sha qog'ozni ko'rdi-yu, hafsalasi pir bo'lib ketdi. Umuman, buvasining do'stlari Abduvoid Isoyev, uning xotini Shura xola, yana boshqa kishilar yoshini yashab dunyodan o'tib ketishgan. Ular urush yillari haqida nimalarni bilishsa, o'zlari bilan olib ketishgan. Nahotki, u bobosini qahramonlarcha halok bo'lganligini isbot qila olmasa?

Asatulla aka mashinani bozor darvozasi oldidagi yalanglikka qo'ydi-da, Izzatulla bilan rasta tomon yo'l oldi. Osh kadi rastasida Asatulla aka o'zi tengi bir odam bilan yuzma-yuz kelib, to'xtab qoldi.

— Hey, Safoqulmisan?

— Voy sen-ey...

Ikkovlari bir-birlarini quchoqlab ketishdi.

— Qara o'g'lim, — dedi Asatulla aka Izzatullaga ishora qilib. Ikkita kattasidan kichigi bu...

Safoqul aka Izzatullaning so'rashish uchun uzatilgan qo'lidan ushlab o'ziga tortdi.

— Xuddi o‘zing-ku, yo‘q, sendan chiroyliroq, buyog‘i onasidan o‘tgan bo‘lsa kerak. Esingdami, xuddi shunaqa yoshda edik. Bolalaridan o‘g‘irincha non yemoqchi bo‘lgan odamni jarda tappa bosib, nonini olib qochganimiz...

— Ha-a-a, — deb Asatulla aka qotib kuldi. Go‘yo bozorda ulardan boshqa hech kim yo‘qdek. — Qani uyga ketdik, Jo‘ra.

— Boshqa vaqt, jo‘ra, shoshib turibman. Seni qayerdan topsam bo‘ladi.

— Hovli Jukovskiy ko‘chasida, 95-uy. Ish haliyam taksamatorda.

— Yigirma yilcha bo‘lib qoldi-yov, a?

— Undan ham oshdi. Menga qara, jo‘rajon, bo‘lmasa shu bir sixdan jaz yeymiz. Yo‘q dema. Otalarimizning do‘stligi haqqi.

— Bu gapdan keyin yo‘q deb bo‘ladimi? Otalarimiz bizga qaraganda ming chandon oqibatliroq edilar.

Izzatulla gap bobosiga burilganini sezib sergaklandi.

— Safoqul amaki, siz bobomni ko‘rganmisiz, — so‘radi u.

— Iye, otimniyam darrovda bilib obsan-ku, a. O‘qishdan zo‘rmi deyman, ziyrak-ku, a?

— Bu hammamizdanam zo‘r chiqib turibdi. Biz qilolmagan ishlarni qilyapti. Bobosini qidiriyapti. Bilganlaringni aytib ber.

— Shundaymi, bobong paxta zavodini yelkasida ko‘targan odam. Otam bilan qadrdon edilar. Urushga ham bir kunda ketishgan. Otam qaytib, yoshini yashab olamdan o‘tdi. Sening bobong qaytib kelmadi...

Asatulla aka kabob buyurib, do‘stini choyxonaga boshladi.

— Kabob tayyor bo‘lguncha sen bizga otam haqida bilganlaringni gapirib ber. Hammamizning o‘ylagan o‘yimiz shu bo‘lib qoldi hozir.

— Bilasanmi, mening esimdan chiqmaydigani shuki, otam do‘stini ko‘p eslardi. Qaytib kelmadi-ya,

deb ko'p kuyardi. Otam otangni ko'rgan eng so'nggi odam hisoblanadi. Otamning aytishicha, ular ancha vaqt birga jang qilishgan. Otang pulemyotchi bo'lgan ekanlar. Bir kuni ular cherkovda dam olib yotishgan ekan. Jangchilar orasidan bitta-bitta terib, chaqira boshlashibdi. Ular orasida otamning ham nomi chiqibdi. Shunda otang otamni bag'riga bosib:

— Jo'ram, jigarim, ko'risholmasak, xayr. Qay birimiz omon borsak, uydagilarga sog'inchli salom aytaylik, — deptilar. Otam urushdan qaytganlarida biz qishloqqa ko'chib ketgan edik. Sizlarnikiga bir-ikki borib keldilar. Onang qoraxat kelganligini sezib qolishmasin, deb nafaqa puliniyam sizlardan bekitiqcha olib yurganligini aytgan ekanlar...

— Otamizdan qoraxat kelganligini onamlar o'limi oldidan aytgan edilar. Biroq nafaqa haqida hech nima demovdilar. Menga qara, jo'ra, o'sha vaqtda nafaqani qayerdan berishgan?..

— Qaydam... Sobezdandir-da... Rayon ta'minot bo'limidan...

— Nafaqa degin, — deya Asatulla aka o'ylanib qoldi.

* * *

Kechqurun Izzatullalarnikiga Sa'dulla amakisi chiqdi. Asatulla aka Safo akadan eshitganlarini akasiga gapirib berdi.

— E...e... — dedi ko'zlari charaqlab Sa'dulla amaki. Otamning mehnat daftarchasiniyam zavodda topa olmagan edim. Demak, nafaqa berilgan bo'lsa, mehnat daftarchasi talab qilingan. Demak, hamma hujjat arxivning sobezga aloqador bo'limida bo'lishi kerak... Qoraxat ham o'sha yerdan chiqadi. Qoraxatda bor gap yoziladi.

Arxivning sobezlar bo'limidagi hujjatlarni ko'rib chiqish uchun ham ikki haftadan ko'proq vaqt ketdi. Delolar, ular ichidagi qog'ozlar sarg'ayib ketgan, bir qaraganda keraksizdek, aslida esa ularning har birida odamlar tarixi, oilalar taqdiri saqlanardi. Ko'pchilik

odamlardan mana shu qog'ozlarga qolgan, o'zlari esa allaqachon tuproqqa aylangan.

Qanchadan-qancha nevaralarning bobolari yotib-diykin bu qog'ozlarning orasida. Kutaverib nomlari ham o'chib boryapti... Izzatulla qog'ozlarni avaylab ko'rar, Rustamga ham, Shodmonga ham shunday qilishyaptimi, deb sergak qarab qo'yardi. Qizig'i shu bo'ldiki, Izzatullaning bobosiga tegishli hujjatlarni topish Sa'dulla amakiga nasib qildi. Izzatulla amakisining yelkasini devorga tirab, hovuchi bilan yuzini berkitib o'tirganini ko'rib qoldi. Amakimga nima bo'ldiykin, deb yoniga bordi:

— Amaki, nima bo'ldi? Boshingiz og'rib ketdimi?

— Izzatulla amakisining qalin, dag'al oq oralagan sochlarini siladi.

Amakisi sarg'ayib ketgan to'rt burchak qog'ozni hovuchidan olib Izzatullaga uzatdi-da, yosh boladek hiqillab yig'lab yubordi. Izzatulla qog'ozga ko'z yugurtirdi. Undagi bosma harflar bilan yozilganlari yaxshi saqlangan. Siyoh bilan yozilganlarni esa ilg'ash qiyinlashib ketgan edi. Izzatullaning yoniga Rustam bilan Shodmon ham qo'shilishdi. Unda rus tilida shunday so'zlar yozilgan edi;

“Buxoro shahar harbiy komissariatining bo'limiga!
18-noyabr 1943-yil.

1026 nomerli ma'lum xati.

Buxoro shahri, Stalin ko'cha, uy № 157.

Sizning o'g'lingiz qizil armiyachi Karamadov Soli Buxoro oblast. Buxoro shahrilik. 10-oktyabr 1943-y. Poltava oblast Chutovo qishlog'iga dafn etildi.

Mazkur qoraxat pensiya olish huquqini beradi”.

Izzatulla qo'llarining titrayotganligini sezib qoldi. Bir nima kuydirayotgandek ichi achishib ketdi. Hamon ro'molchasini ko'ziga bosib yig'layotgan amakisiga qaradi-yu, arxiv qog'ozlari taxlab qo'yilgan javonga tirsagini tiradi-da, bilagiga yuzini bosganча yig'lab yubordi. Rustam bilan Shodmon nima qilishni bilmay qolishdi, ularning ko'ziga yig'i kelmasdi. Amaki bilan jiyanni qanday qilib yupatishni bilish-masdi.

— Qo'y, Izzatulla, yig'lama, axir bobonglarni topdik-ku, — dedi Rustam oxiri.

— Ha-ya, endi faxriyning nevarasi g'ing deb ko'rsin-chi? — derdi Shodmon.

Sa'dulla aka qoraxatni olganligi haqida tilxat berdi-da, qo'yin cho'ntagiga amallab solib qo'ydi. Keyin arxiv binosining oldiga chiqdi-da, Izzatulla, Rustam, Shodmonlarni bag'riga bosdi.

— Men sizlarga nima deyishni bilmayman. Qanday qilib ko'ngillaringni olay. Sizlar katta ish qildinglar. Nomu nishonsiz otamizni bor qildinglar. Tiril-tirdinglar. Men hammangizni Chutovoga olib boraman...

Tashqari sovuq edi. Ikki kun oldin yoqqan qor hammayoqni tarashadek qotirib, yer betini ko'rpadek qoplab yotardi. Faqat qori kuralgan yo'laklar sal-pal erigan, ular ham muzlab bolalarning oyog'i ostida qirsillab sinardi.

— Qani mashinaga, — dedi Sa'dulla aka, — sovuq qotib qoldinglar.

Ular mashinaga o'tirishdi. Sa'dulla aka mashinaga o'tirib, motorni yoqdi-da, pechkasini yoqib qo'ydi. Iyagini rulga tiraganicha tashqariga tikilib o'tirdi. Quyosh ham sovuqdan junjikkandek, tuxum sarig'idek rangi o'chib, dumalab borardi.

Izzatulla: "Bobomni topolmas ekanman-da", deb o'ksib yurgan edi. Uning bobosi yana oddiy jangchi emas, pulemyotchi bo'lgan ekan. Boshqalar miltiq bilan urushsa, uning bobosi pulemyot bilan dushman-ni qiyratgan ekan. Izzatulla arxiv binosining eshigiga qaradi. Bu yerdan bir parcha qoraxatni emas, balki bobosini boshlab chiqqandek, qog'ozlarda yana qanchadan-qancha qahramon jangchilar Izzatullaga o'xshagan nabiralarini kutib turishganga o'xshardi.

Sa'dulla aka motorga gaz berdi-da, bolalarga qaradi:

— Xo'sh, qayoqqa boramiz?

Nimagadir shu topda Sa'dulla akaning uyga borgisi kelmayotgan edi. Uning yuragi uzoq-uzoqlarni, keng-

liklarni qo‘msardi. Uning vujudi hozir shaharga sig‘masdi.

— Mixail Matveyevichning oldiga boraylik, — deb qoldi Izzatulla.

— Barakalla, shu yerda ham kallang ishladi...

Telegrammalar, xatlar ketidan xatlar...

Bir vaqtlar kishilarning ko‘ngillarini vayron qilgan, xavotirli, qo‘rqinchli bo‘lgan bir parcha qog‘oz mana endi hammaning yuragiga boshqacha kayfiyat solib o‘tiribdi. Uni hamma aka-ukalar, nevaralar, qarindosh-urug‘lar, tanish-bilishlar, bir-bir qo‘llariga olib ko‘rishdi. Xuddi bobosi qaytib kelgandek qo‘shnilar yo‘qlab chiqishdi. “Bu ishlarni shu o‘zimizning Izzatulla, Rustam, Shodmonlar qilishdimi? O‘zi o‘t-olovliklari ham kimliklarini aytib turibdi. Yetti uxlab tushingga kirmagan narsalarni shunaqa bolalardan kutish kerak”, deyishardi.

Sa‘dulla akani aytmaysizmi, oyog‘i olti bo‘lib, bolalarni yoniga olib Chutovo qayerdasan deb jo‘nashga otlanib qoldi.

— Shoshilmang, — dedi Mixail Matveyevich, — bu xatni kelganiga salkam qirq yil bo‘lyapti. Bu o‘rtada nimalar bo‘lib ketmadi deysiz. Aniqlab, keyin yo‘lga chiqish kerak. Yana bolalar bilan sarson bo‘lib qolmang.

Shundan keyin Chutovo harbiy komissariatiga Karamadov Solini so‘rab, telegramma jo‘natishdi. Oradan ko‘p o‘tmay telegrammaga quyidagicha javob keldi.

“Sizning xatingizni oldik. Chindan ham Sizning otangiz Karamadov Soli shu yerga dafn etilgan. Voenskom, polkovnik Kovalyov”.

Telegrammadan keyin xat ham keldi:

“Agarda kelmoqchi bo‘lsangiz, yo‘lga chiqish kuningizni bizga ma‘lum qiling. Biz Sizlarni kutib olamiz. 9-Mayga kelsangiz bo‘lardi. Voenskom, polkovnik Kovalyov”.

— Demak, 9-May kuniga chaqirishyaptimi, o'sha kunga yaqin borish kerak. Ular shu kunga alohida tayyorgarlik ko'rishadi. Hammasi o'z o'rnida, maromida bo'lgani yaxshi, — dedi Mixail Matveyevich Sa'dulla akaga.

Shunday qilib, ular may oyini kuta boshlashdi. Buni qarangki, shu orada yana bir xat kelib qoldi. Bunisi voenkomdan emasdi:

“Qadrli do'stlar! Biz Chutovodagi o'rta maktabning 6-“A” sinf o'quvchilari Ikkinchi jahon urushi yillarida Vatanimizni himoya qilganlarni alohida qiziqish bilan o'rganamiz: tez-tez bizning yengilmas armiyamizning urush yillaridagi qahramonliklari haqidagi hikoyalarini eshitib turamiz. Biz urush dahshatlarini ko'rmadik, portlashlar ovozi eshitmadik. Lekin biz baxtli bolaligimiz yo'lida kurashib, Chutovomizni dushmandan himoya qilib, qahramonlarcha halok bo'lganlarga hamisha bosh egib, ta'zim qilamiz. Shuning uchun ham qimmatli Soliyev Sa'dulla amaki, sizlarning dardlaringizga sherikmiz. Halok bo'lgan otangiz xotirasini yod etib, hamdardlik bildiramiz.

9-May kunlari kelishingizni, sizlar bilan otangiz qabri ustiga borib bosh egib, sukut saqlashni o'zimiz uchun sharaf deb bilamiz. Hurmat bilan 6-“A” sinf o'quvchilari”.

Xatni Mixail Matveyevich “Qidiruv” klubi a'zolariga o'qib berar ekan, hayajonlanib ketdi.

— Ko'rdinglarmi, — dedi u, — fashizmga, yomon niyatli kishilarga qarshi kurash davom etyapti, u davom etaveradi... Bu xatni yozganlar ham qahramon jangchilarning nabiralari bo'ladi. Oldin fashizmga qarshi ularning bobolari kurashdi. Otalari, onalari esa, holdan toygan Vatanni oyoqqa turg'azishdi. Izzatulla Soli akaning yigirma uchinchi nabirasi. U bobosini do'stlari bilan axtarib topdi. U bobosining nomini oqlash uchun kurashdi. Bobosiga munosib nabira bo'lish uchun kurashdi...

Xatlar ketidan xatlar kelaverdi.

“Aziz do‘stlar! Ko‘ngillaringiz yanada taskin topsin uchun qahramonlar dafn etilgan marmar monumentning suratini yuboryapmiz. Siz u yerdan bobongizning nomini topib olasiz. Ehtimol, boshqa tanish familiyalar ham uchrar. Sizga salom bilan 6-“A” sinf o‘quvchilari”.

Serjant Ashurmatov D. 18. IX 1943-y.
Hamdamov I.
Razakov X.
Abdullayev A. 19. IX 1943-y.
Ahmedov Y.
Babayev U.
Batirov M.
Karamadov S.
Mirzayev A.
Mullayev S.
Haydarov J.
Umrzakov D.
Nazarov R.

Izzatulla, Rustam, Shodmon uchovi bu suratni oldilariga qo‘yishib har bir ism va familiya haqida o‘ylab ko‘rishdi. Bobolarining familiyasini, albatta, qayta-qayta o‘qishdi.

Sa’dulla amaki va uch o‘rtoq Chutovoga borish uchun qattiq tayyorgarlik ko‘rishdi. Bolalar Mixail Matveyevich aytgan gaplarni oxirlatishar, bobolari nomi bilan bog‘liq bo‘lgan joylarning suratlarini olishib, alohida albom tayyorlashardi. Buxoro shahri haqidagi rus tilida chiqqan kitoblar, otkritkalarni to‘plashardi. Hammadan ham ularning fanlardan o‘zlashtira boshlaganliklari yaxshi bo‘ldi. Lekin Izzatullaning rus tilida tuzgan albomi ham zo‘r chiqdi. Buyursa ham bunaqa yasay olmaydi. Bolalar bundan tashqari, boshqa narsalarni ham o‘rganishdi. O‘zbekiston haqida, uning odamlari, boyliklari, Buxorodan boshqa shaharlari haqida ham. Suv zaxiralari, hayvonot olami, hamma-hammasidan ozozdan bilimli bo‘lishdi.

Ana shu voqealar orasida bolalar faxriyning nevarasi Izzatulladan qanday qilib kechirim so'rarkin, deb qiziqib yurishardi. "Ko'cha-ko'yda o'zingni yolg'iz topib kechirim so'rasa, unama, hammamizning oldimizda kechirim so'rasin, oyoqqa yiqilish qanaqa bo'lishini bir ko'rib qo'yaylik", deyishardi bolalar.

Bu gaplarni eshitib qolgan nevara pinagini ham buzmay shunday gap tarqatdi: "Kaltaklagani uchun u mendan kechirim so'rasin. Men shunday demaganimda u bobosini qidirib topmagan bo'lardi. Bunchalik taniqli ham bo'lmasdi. Buning uchun menga rahmat aytsin. Bosh-oyoq sarupo qilsa ham yo'q demayman".

Bu gapni eshitib Rustam bilan Shodmon lovullab ketishdi:

— Bir musht bilan ko'zini ko'zoynak taqtirib qo'ya qolsakmikan, saruposini keyin olib berardik, — dedi Rustam.

— Anchadan beri qo'lim qichib yuribdi, — dedi Shodmon.

— Endi qo'llaring qichimasin, — dedi Izzatulla, — bu bola ustimizdan Chutovoga yomonlab yozib yuborishdan ham toymaydi. Yana safardan qolib ketmaylik.

Salom Chutovo, assalomu alaykum otajon...

O'zbekiston poytaxti — Toshkentdan ko'tarilgan samolyot Ukrainaning Xarkov shahri aeroportiga qo'ndi. Havo ochiq, katta-katta yulduzlar shundoqqina aeroport ustiga to'kilgudek yaqin charaqlardi. Havo, maysalar, igna bargli daraxtlarning hidiga to'yingan, o'rganmagan odamning dimog'ini qitiqlaydi. Bu pallada Toshkentda tong yorishib borar, Xarkovda bo'lsa tun yarim edi. Sa'dulla aka aeroport binosiga kirib borar ekan, yura qolinglar, orqada qolib ketmanglar, degandek yon-beriga qarar, yonida na Izzatullani, na Rustamni, na Shodmonni ko'rماغach, g'alati bo'lib ketardi. Kelish ularning haqqi edi, derdi

o'ziga-o'zi. Qancha tayyorgarlik ko'rishdi, shu kunning orzusida yashashdi. Ketishga bir hafta qolganda Izzatulla shamollab qoldi. Samolyotga chiqishga vrach amakisi ruxsat bermadi. Rustam bilan Shodmon Izzatulla sog'aysin, keyingi safar boramiz deb unashmadi. Sovg'alarini Sa'dulla akaga topshirishdi. Sa'dulla aka bundan keyingi hayajonli damlarni ularsiz tasavvur qila olmasdi.

Sa'dulla aka tong otishini ham kutmay mashina yollab, 110 kilometr naridagi Chutovoga yo'l oldi. U oldinda o'tirar, xuddi orqa o'rindiqda bolalar o'tirgandek yana shu yoqqa qarab-qarab qo'yardi. Tungi soat to'rtlarda mashina Sa'dulla akani Chutovoga tashlab ketdi. Nimagadir bu kichkinagina, chiroyli, shinam shaharcha u uchun begonaga o'xshamasdi. Ko'chaning ikki chekkasidagi daraxtlar, bir qavatli uylar, yarqirab nur sochayotgan simyog'och chiroqlari hamma-hammasi tanishdek edi. U mashinadan tushib bir qadam yurdi-yu, to'xtab qoldi. U oyog'i ostida turgan zaminda bir vaqtlar otasi qadam tashlaganligini, shu ko'chadan otasi pulemyotini ortmoqlab o'tganligini, nag'al qoqilgan etigining taraq-turuq ovozi eshitgandek bo'lardi. Ko'chaning ikki chekkasidagi mana shu qayin, archa daraxtlariga otasi ham qaragan bo'lishi kerak. Chorbakirdagi bog'larni xayolidan o'tkazgan bo'lishi kerak. U hamon ko'chaning o'rtasida turardi. Shahar shunaqangi sokin, shirin uyquda ediki, yana bir qadam bossa oyoq tovushiga hamma uyg'onib ketadigandek edi. Uning shu topda boradigan joyi yo'q edi. Qayoqqa yurishni ham bilmasdi. U mana shu shaharni istab keldi. Uning bag'rida fe'li keng mehnatkash otasi yotipti.

Sa'dulla aka bir soatlar chamasi shahar kezib kattakon boqqa duch keldi. Chiroqlar nurida jimgina mudrayotgan bog' qo'yniga kirdi. Uni bu yerga yuragi boshlab kelgan edi. Bog' o'rtasidagi o'sha suratda ko'rgan yodgorlik ko'kka bo'y cho'zib turardi. Sa'dulla akaning boshi aylanib, ko'z oldidan nurlar uchib o'ta boshladi. U skameykaga qanday o'tirib qol-

ganini bilmay qoldi. Uning quloqlariga “o‘g‘lim” degan ovoz eshitilgandek bo‘ldi.

— Labbay, otajon men keldim. O‘g‘illaringizdan, nevaralaringizdan, yor-u birodarlaringizdan sog‘inchli salom. Hammasi siz aytgandek bo‘ldi. Otajon nomin-gizga dog‘ tushirmaslikka harakat qilyapmiz. Salohiddin akam — injener, men shahar ta‘minot bo‘limida kichkina bir idoraga boshliqman. Asatulla taksi haydaydi. Jo‘ravoy bosh vrach, yigirma to‘qqiz nevarangiz sizning nomingizni ardoqlab yurishibdi... Otajon Asatullangizning o‘g‘li Izzatulla boshqacharoq chiqib qoldi. Sizni o‘sha topdi. O‘rtoqlari bilan kirmagan eshigi, so‘ramagan odami qolmadi. Axiri topdi...

Sa‘dulla akaning yuzlarini qaynoq yosh tomchilari yuvar, ko‘zlarini ocholmas, go‘yo ro‘parasida pulemyotini orqasiga ortmoqlagan, kirzi etikli, mallarang shinelli otasi qaddini g‘oz tutib turardi.

Sa‘dulla aka chamadonini ochib qondek qip-qizil lolalarni olib yodgorlik tomon qadam tashladi. Shunda yoshli ko‘zlari ochildi-yu, otasi ko‘z o‘ngidan nari ketdi. Bo‘lmasa lolalarni shundoqqina qo‘llariga tutqazmoqchi edi. U lolalarni yodgorlik poyiga qo‘ydi.

Otasining familiyasini sira adashmay topdi. Unga qaynoq lablarini, yuzlarini bosdi.

— Otajon, biz sizga zor bo‘lib o‘tdik. Kelishingizni kutdik. O‘sha, o‘zim kelib ochaman degan darvoza-ning bir tabaqasi mixlanganicha qolib ketdi. Biz sizni qo‘msayverib, u hovlida yasholmadik, shahardan tashqariga ko‘chib ketdik. O‘shanda onam, Sa-lohiddin akam bilan osh damlab Kogonga kelgan edik. Ketib qolibsiz. Endi bilsam, o‘sha sizni olib, shoshib jo‘nagan poyezd mana shu yerlarga keltirib tashlapti. Tinch yoting, otajon. Sizga, do‘stlaringizga lolalar olib keldim. Bu yil bahor Buxoroga ancha erta keldi...

Sa‘dulla aka bemahalda kelganidan sira ham afsus-da emasdi. U balki kunduzi kelganda otasi bilan bun-

chalik yurakdan dardlasha olmasdi. Xumoridan chiqolmasdi...

O'rindiqqa suyanganicha ko'zi ilinib qopti. Tong saharda uyg'ondi. Yuraklari bo'shagan, hayajonlari bosilgan. Nogahon o'rindiqning qisirlashidan ko'zini ochdi. Unga polkovnik kiyimidagi kishi jilmayib, qarab turardi.

— O'rtoq Soliyev, xush kelibsiz, — dedi u.

— O'rtoq Kovalyov, meni sizga kim ayta qoldi.

Ular eski qadrdonlardek quchoqlashib ko'rishishdi.

— Qani, ayting-chi, meni Kovalyov ekanligimni qayerdan bildingiz?

— Mundiringizdan.

— Men bo'lsam... — deya entikib lolalarga ishora qildi polkovnik.

— Yo'q, meni bu yerdaligimni sizga kim aytdi?

— Eh, do'stim, dunyoda ota-onangdan ayrilsang ham do'stlaringdan ayrilma ekan. Bu yerga mening do'stlarim ko'milgan. Har kuni bog'da qadam izlari bosilgach, kelaman. Tinch yotinglar, men ham uxlagani ketyapman deyman. Sahar, odamlar qadami tushmasdan yana kelaman. Tinch yotinglar, men o'zim uchun ham, Sizlar uchun ham ishlagani ketyapman, deyman... Shunday qilmasam na uyqumda, na ishimda halovat bo'ladi... Qurbonlar 20 million-u, ularning dog'ida adog' bo'lganlar, kuyib yashayotganlar qancha...

Polkovnikning gaplari Sa'dulla akaga harbiy dars o'qituvchisi Mixail Matveyevich Martinenkoni eslatib yubordi. U Chutovodan borgan xatlardan birini o'qib shunday degan edi:

— Ko'rdingizmi, do'stim Sa'dulla, kechagina sizlar otangiz jasoratini abadiylashtirish maqsadida so'rab-surishtirayotgan edingiz. Bugun bu ishni nevaralar qilishyapti. Ertaga chevaralar, evaralar davom ettirishadi. Otalar jasoratiga sodiqlik, urush olovini yoquvchilarga cheksiz nafrat hissi qondan qonga o'tib yashayveradi. Demak, dunyo tinch bo'ladi!..

1988-yil.

ONAIZOR



*B*olajonim, xizmat burchingni o‘tab, sog‘-u salomat yuribsanmi? Ilohim ko‘p qatori yarlaqasin, bo‘shing toshdan bo‘lsin. Yana xat yozyapman, ha, ha yana yozyapman, sirdoshim. Kecha ishdan qaytib qanchalar hayajonga tushganimni, shirin-shirin xayol-larga g‘arq bo‘lib, tong ottirganimni bilsang edi. Hayot yo‘lim bamisoli daryodek ko‘z oldimdan oqib o‘tdi, suyanchig‘im. Tosh kelsa kemirib, suv kelsa simirib deganlaridek, ne-ne kunlar orqada qolib ketib-di-ya. Judayam sabrli, bardoshli ekanman-da, endi o‘ylasam. Axir homilador holimga Sabohatni ortmoqlab, seni yetaklab hali trolleybusga, hali avtobuslarga chopishning o‘zi bo‘lmasdi-da, mehribonim.

O‘shanda degin, bolalarni solib yuradigan aravachalar endigina urf bo‘lgan edi. Qulayroq bo‘larmikan deb bittasini sotib olibman. Ertasigayoq “qulay”i burnimdan chiqdi. “Bolalarning rohati sizga-yu, shaltog‘i bizgami, oyimcha”. Yomg‘irli kun edi, buning ustiga avtobuslar tiqilinch, aravachaning g‘ildiragi... O‘sha bashang kiyingan erkakning chaqchaygan ko‘zi-yu, zaharxanda so‘zlari hali-hanuz ko‘z oldimdan ketmaydi. Xijolatdan yer yorilsa, yerga kirkudek bo‘lib, nima qilishimni bilmay boshimdan ro‘molimni yechib, haligi kishining loy tekkan joylarini tozalashga tushibman, degin. “E, nari turing”, mendan hazar qilgandek jerkib berdi erkak. Bir xo‘rligim keldi, bir xo‘rligim keldi, ko‘z yoshlarimni tiyolmay qoldim. Kimdir haligi erkakni urishib tashladi, kimdir otangning go‘riga g‘isht qaladi. “Nomard erkaklar ko‘payib ketyapti-da, bola tug‘dirishni bilgan, bundoq qarashishniyam bil-da!” Yo‘lovchilar tirik yetim ekanliklaringni qayoqdanam bilishsin...

Sen-ku otangni yaxshi bilarding. Singling unchalik

tanimasdi. Shungami erkaklarni ko'rsa joydirab qolar, ularga talpingandek bo'lardi ham. Ayniqsa, avtobus, trolleybuslarda shunday bo'lardi. Yurak-bag'rim ezilib, nima qilishimni bilmay qolardim.

Ana shunaqa o'g'lim boshqalar ikki ko'zlab o'stirsa, men sizlarni bir ko'zlab o'stirishga urindim. Haligidek xo'rlanishlarga bora-bora ko'nikib ham ketdim.

Ishimni bilasan, yeganning ham, yemaganning ham og'zi qon deganlaridek... Bir kuni bog'chaga to'lash uchun pul topolmay qoldim. Tog'alaringdan so'rayverishga mulohaza qildim. O'ylab-o'ylab o'zini xudojo'y ko'rsatib yuradigan bir kishidan qarz so'radim. Berishga berdi-yu: "Magazinda ishlagan odam qarz so'rsa g'alati tuyularkan, kuniga besh, o'n so'mlik bo'lib ketmasangiz, nima qilasiz savdoda ishlab, buning ustiga bevasiz, yetimchalarangiz bor, xudoyam kechiradi, bandasiyam", deb u koyigan bo'ldi.

O'sha odam pisanda qilmasayam, hamkasblarimning sharmandali ishlarini ko'rib, ko'nglim ozardi, o'g'lim. Albatta, besh qo'l barobar emas, deganlaridek hammasiyam badnafs emasdi. Ammo oralarida shundaylari boridi. Chiqadiganroq mol kelib qolsa, oyoqlari olti, qo'llari sakkiz bo'lib ketardi. Sizdan ugina, bizdan bugina deydigan tanishlariga telefon qilishgan, mo'mayroq tashlab ketadigan puldorlarni axtarib, izg'ishgan... Bunaqa paytlarda, hatto, o'z otanasiniyam tanimay qolishardi. Tashqaridagilar qolib, hatto, sotuvchilarning orasida oldi-sotdi avjiga chiqib ketardi. Haddim sig'adiganlarni "buncha besh qo'llaringni og'zilarangga tiqmasalaring", deb chaqib olardim. Ular bo'lsa: "oylik bilan yashab ko'r-chi, yashab bo'psan, ochingdan tirishib qolasan", deb og'zimga urishardi. Gapning ochig'i bunaqa ishlar bir xilda mening ham ichimni qizdirardi, bolajonim. Hech bo'lmasa bog'chaga loyiq pul ishlab olsam-mikin, derdim. Ha, pul oshirib dang'illama uylar qurmay qo'ya qolay, tilla taqinchoqlarga ham belan-

masam belanmay, hech bo'lmasa, bolalarimning kiyim-kechagiga... harna-da. Bolalarimning yetimligi, bevaligim yaxshigina bahona ekan-ku. Ha, menga o'xshaganlar oramizda bor edi. Bo'lgandayam ancha-muncha edi. Ular bunday "qulaylik"dan yaxshigina foydalanishardi. Jamoatchilik sudlarigayam tushib qolishardi. Ularni kechirishardiyam.

Yo'q, o'g'lim men har nechuk bunday ishlarga o'zimni chog'lamay, baribir nafratlanardim. Bu ishning oxir-oqibatidan qo'rqardim. Ko'z oldimga sen, singling Sabohat, hali dunyoga kelmagan Bahodirim qadalib, turib olardilaring. Etagimga yopishib, izillab yig'lagandek bo'laverardilaring. Axir bu ishning oxir-oqibati qamoq-da. Unda men sizlarni g'irt tirik yetim qilib qo'yamanku!

Bolalarimni halol pulimga katta qilaman. Undoqroq yeyishmasa, bundoqroq yeyishar, undoqroq kiyishmasa, bundoqroq kiyishar, harom pul baribir haromligini qiladi. Harom yeb katta bo'lgan bola albatta harom yo'llarga kirib ketadi degan o'y meni bu qorong'i ko'chalarga olib kirmadi. Ha, shundoq bo'lishi kerak o'g'lim. Halollikka nima yetsin! Halol degani imonlik, poklik degani emasmi? Axir, iflos narsani qandoq qilib odamning ta'bi tortadi? Hatto, yuvilmagan qo'l bilan yeyilgan ovqat tanangga botmaydi-ku. Ha, azamatim, tishingni kirini so'rib yursang-yur-u, halol bo'! Halol odamning tiliyam, qo'liyam uzun bo'ladi. Uncha-muncha pastkashlar oldida bo'yni egilmaydi. Buni men ayol boshim bilan ko'p sinadim.

Qara-ya, bolajonim men senga nimalar demoqchiydimku, nimalar deyapman. Axir tamom boshqa gaplarni aytmoqchiydimku. Chalg'ib ketdim shekilli... Rostanam meni hayajonga solgan, shirin-shirin xayol-larga g'arq qilgan narsa xususida so'zlamqchiydim-a? Gapni singlingdan boshlashim kerak edi, aslida. Bilasanmi, ha, seni hech narsadan xabaring yo'q o'g'lim. Suyunchini aka bo'lib cho'zib qo'lasan endi. Kecha desang Sabohatga sovchilar keldi. O'zimcha

senga qiz axtarib, uni-buni ko'z ostimga olib yuribman-u, Sabohatni o'ylamapman, uyam kap-katta qiz bo'p qopti. Yurak-bag'rimni huvillatib, uchirma bo'lgan qushdek uch-i-ib ketadi-a, endi? Qiz bola tug'ilgan joyiga mehmon deganlari shudirda, a? Men bo'lsam haliyam go'dak sanab yuribman uni. Voy tushmagurey, bir hazilkash, bir yoqimli qiz bo'lgan, bir gapirib, o'n kuladi, bir qop yong'oq. Sovchilarni ko'rib, qanchalik suyunsam, shunchalik kuyundim ham, o'g'lim. Quvoning-da, oyijon, nimaga endi kuyinar ekansiz, deysanmi, mening mehribonim?

Axir men ham ne-ne umidlar bilan otangga tekkan edim-da. Singlingdek yakka-yu yolg'iz qiz edim men ham. Oqibati nima bo'ldi? Sutdan og'zi kuygan qatiqni puf-puflab icharkan. Shunga o'y o'ylab ketdim-da, bolajonim. Qaysi ona bolasining baxtini o'ylamaydi, deysan? Hamma onalar o'ylaydi. Ha, onalar bolalariga juda ko'p narsalarni orzu qilishadi. Qani endi qo'llariga ochil dasturxoni tutqazib qo'yishsa. Bilmaydilarki, ochil dasturxon ham, hamma-hamma orzu-havaslar ham bolalarning o'z qo'llarida ekanligini. Mana otangni olgin, bir vaqtlar u ham xuddi sendek yigit edi. Oilani barbod qildi, shu bilan ota-onasiga rahmat olib keldimi? Men oilani saqlab qolishga qanchalik urinmay, baribir uddasidan chiqa olmadim. Ishqilib, qiz bolaning ishi qiyin ekan-da, maslahatgo'yim. Singlingni qanaqa xonadonga uzat-sak ekan? Masalan, sen singlingning qanaqa yigitga turmushga chiqishini xohlarding? Oldingi xatlarimda seni, oilamizning boshlig'isan, deb aytdim. Ha, bundan bu yog'i shundoq bo'ladi, o'g'lim, xudo xohlasa. Xo'sh, oilamizning boshlig'i aka bo'lib maslahat ber? Oila qurish, bu — umr savdosi, to'g'rimi?

Mana shunaqa shirin tashvishlar eshigimizni taqillatib turibdi. Bu boradagi mulohazalaring men uchun suv bilan havodek zarur, bilsang, o'g'lim. Shu bilan xatimni oxirlayman. O'zingni ehtiyot qil, sog'inib, sog'inib bag'rimga bosaman.

Bolajonim, sovchilarni qayta-qayta o'ylar ekanman, senga yana yuragimni yozyapman. Sen yana o'ylamagin, oyimlar ja xat yozishni mashqini olvoldilar, deb. Yo'q, pahlavonim, unaqa emas. Bilsang, men qo'linga qog'oz, qalam olmayman. Go'yo seni ko'chadan chaqirib olaman-u ona-bola gaplasha boshlaymiz. Ha, gungur-gungur suhbat quramiz. Bir xil gaplarimga baralla kulib yuborasan. Shunda yag'rindor keng yelkalarining silkinib-silkinib tushadi. Sipo yuzlaring charaqlab, ko'zlaringdagi mung bir zumga o'chadi-da, oppoq tishlarning ko'rinib, ovozing do'rillab ketadi. Voy, do'rillagan ovozingdan onang o'rgilsin! U meni ne-ne tanish, notanish eshiklarga yetaklashini bilsang edi...

Mening sirdoshginam, eshit. Yigitman, degan birovga sovchi qo'yarkan, o'ziga yostiqdosh deb, umrini-umriga bog'lar ekan, aqlini yig'sin. Farzand ko'rgandan keyin esa... oh bunday baxtli kunga yetishni hamma orzu qiladi-ya. Ha, farzand ko'rgach, faqat farzandim deb yashasin. Turmushda nimalar bo'lmaydi, deysan? Ba'zida xotini ko'ziga yomon ko'rinib qolishi mumkin. O'shandoq paytlarda erkak kishi o'sha shirin farzandining ko'zi bilan xotiniga qarasa, olam guliston. Bo'lmasa, shundoq qo'g'irchoqdek, qo'g'irchoqdek oilalar to'zib ketayapti. Yaqinda bizda yig'in bo'ldi, desang. Ma'ruzachiyam allambalo unvonlik, katta odam ekan. O'sha odam nima deydi, degin? Naq yoqamni ushlab qopman. Bilasanmi, bir yilda ikki millionta nikoh to'yi bo'larkan. Bir yilga yetar-yetmas shundan to'qqiz yuz mingi buzilib ketarkan. Buning kasofatiga yetti yuz ming bola yetim bo'lib qolarkan. Bir yilda shuncha yetim-a! Dahshatmasmi bu, o'g'lim?! Shunga ekan-da, tong sahardan bola qo'ltiqlab chopayotgan onalarning hisobi oshsa oshib boryaptiki, kamaymayapti. Shunga cho'chiyapman-da, o'g'lim.

Avvalo farzand ota bilan ona o'rtasida dunyoga

keldimi, shu ikkovining o'rtasida katta bo'lsin. Men bu azobni seni harbiyga kuzatayotganimda yana bir marta yurak-yuragimdan his qilganman. Esingda bo'lsa, jamiyki qarindoshlarimiz seni kuzatgani chiqishdi. Nazarimda hammaning kuzatuvchilaridan bizniki ko'proq edi. Bunga seniyam, meniyam fahmimiz yetib turardi. Sherning otasi bo'lsayam yo'qdek, onasining ko'ngliyam yarim, deb shunday qilishdi. Biroq o'sha kuni ikkovimizniyam ko'nglimiz to'lmadi, yarimligicha qoldi. O'sha kunni sen ham yaxshi eslasang kerak. Ana, yigitlarni birin-sirin radiokarnay orqali ichkariga chaqirib olyapti. Sen nimagadir indamaysan, boshqa bolalardek onangga yopishmaysanam. Razm solsam ikki-uch qadam naridagi o'zingga o'xshagan yigitga tikilib qopsan. U yigit ham onasidan ko'ra, otasiga yopishib opti. Otasi bo'lsa unga bir nimalarni uqtiryapti. Gap o'zini himoya qila olish, kuchlilik haqida bo'lsa kerak-da, birdan yigit otasini dast yerdan uzib ko'tarib oldi. Ota bo'lsa boshqalardan yarim bo'y o'sib, xoxolab kuladi, o'g'lining yelkasiga qoqib, "bo'ldi", "bo'ldi" deydi. Hamma kuldi. Senam kulding o'g'lim. Ammo kulging qanday tez paydo bo'lgan bo'lsa shunday tez o'chdi. U mungli ko'zlaringga toshdek cho'kib ketgandek bo'ldi. O'sha daqiqalarda xayolingdan nimalar kechganini bilaman, o'g'lim. Otang seni bolaligingda mana shunaqa qilib erkalatardi. Osmon-u falakka otardi. Buni qaraki, vaqti kelib o'g'illar ham otalarini osmonga otgudek erkalashlari mumkin ekan. Baxtli otalar, baxtli o'g'illar... Onani kuzatdingmi o'shanda? Rangpargina-yu, istarali xotin ekan. U hammadan ham baxtiyor edi. Xuddi quvlash-machoq o'ynayotgan yosh qizlardek chiroyli kulardi. Kulib turib ko'z yoshlarini artardi. Sho'rlikkina yig'lamay desa, shundoq o't-olov o'g'li uyini huvillatib ketyapti. Kulmay desa ota-bolaning sho'xligi aka-ukanikiga o'xshaydi. Shunaqa to'la-to'kis xonadonlar ham ko'p hayotda, o'g'lim.

O'shanda mening ham o'g'lim kuchli yigit, degandek baquvvat qo'llaringga, keng yelkalaringga g'urur

bilan qarab qo'ydim. Buni sezding, shekilli, ohista quchib, boshingni yelkamga qo'yding-da, sovuqqota-yotgandek qunishib xo'rsinding. Sening xo'rsinishing a'zoyi-badanimga titroq bo'lib yugurdi. Axir men onaman-ku, yuragingda nima to'polonlar bo'layotganini bilmasam ekan?! Yelkangni erkalagan bo'lib siladim-da, tilimning uchida turgan gapni asta qulog'ingga shivirladim: "Otangni ham xabardor qilsak bo'larkan-a, o'g'lim?". Sen jahl bilan boshingni ko'tarding-da, atrofga shunday bir o'tli qarash qildingki... nazarimda, hammayoq yonib ketgandek bo'ldi. Oh, o'g'lim, pahlavonim, suyanchig'im! O'ksik ko'ngil o'rtansa, dunyoga o't ketadi, deganlari rost ekan. Barmoqlaring o'zidan-o'zi tugildi, birinchi marta peshonangda chiziq ko'rdim. Sarosimaga tushib nima qilishimni bilmay qoldim. Yaxshiyam tezda o'zingga kelding, soviding. Gunohkordek boshingni egding-da, xuddi o'zimdek shivirlading: "Xabardor edilar!". Endi men o'zimni tutib turolmadim. Endi men xuddi sendek yonib atrofga alangladim. "Hay nomard, kelgan bo'lsang, nima qilasan bir chekkada pusib, kelavermaysanmi bolang yoniga. Gina-kuduratning o'rnimi hozir; "Shuncha kungacha tortgan azoblarimam bir bo'ldi-yu, shunisiyam bir bo'ldi-da, o'g'lim. Shundoq norg'ul yigitniyam sazasini o'ldiradimi ota degan?"

Shu payt radiokarnaydan boyagi sho'x yigitning ismi-sharifi eshitildi, shekilli, "yest!" deb baqirib yubordi. Keyin eng avval qarindoshlari bilan quchoqlashib xayrlasha boshladi. Navbat otasi bilan onasiga kelganda juda qiziq bo'ldi. Yigit qanotini burgutdek yozib, bir qo'li bilan onasini, bir qo'li bilan otasini quchdi. Onaning ham bir qo'li o'g'liga-yu, bir qo'li otaga tushdi. Qo'llarni bosib otaning qo'llari tushdi. Uchta jism-u jon, uchta bosh bitta bo'lib qolgandek, anchagacha tebranib turdi. Keyin yigit sirg'alib chiqdi-da, darvoza tomon chopqillab ketdi. Bolasini bag'ridan bo'shatgan ona, birdan madorsizlandi shekilli, eriga suyanib qoldi. Erining kuchli qo'llari uni adl tutib turardi.

Bu manzara boshqalarning emas, faqat bizning ko'z oldimizda kechardi. Biz uni eng ta'sirli kino ko'rayotgandek berilib kuzatardik. Nimaga desang, bunday holat ikkovimizgayam begona edi-da. Biz ham xayrlashdik. Biroq bizning xayrlashuvimizda uchta jism-u jon, uchta bosh bitta bo'lmadi. Otangning o'rni bo'sh qoldi. Men ham anovi ayoldek madorsizlandim, oyoq-qo'limdan jonim chiqib ketay dedi, o'g'lim. Na iloj, yana o'zimga, jafokash yuragimga tayanib qolaverdim, jigarbandim.

Mana nima uchun sovchilar yuragimdagi qo'r bosgan cho'g'ni qo'zg'ab qo'yishganini endi his qilgandirsan, qarchig'ayim! Kuyov bo'lmish bir qanotiga farzandlarini, ikkinchi qanotiga singlingni olarmikan? O'zing-chi, Sherim! Bilaman, sen otang bilan men yurgan ko'chalardan yurmaysan. Bu ko'chalar — qorong'i ko'chalar. Ular sizlarning to'kis bolaligingizni o'zidek qorong'i qilib qo'ydi. Sen o'z qismatingni hech qachon bolalaringga sog'inmaysan.

Yana sen bu qorong'ilik uchun meni ayblab yurma, o'g'lim. Men sen, singling, ukang uchun qanchalik xo'rlik bo'lsa, barini bo'ynimga oldim. Ajrashib buvingnikiga ko'ch-ko'ronimni ortib kelgandan keyin ham otang bilan yarashdim. Ha, ha endi buvingnikida yashay boshladik. Otangga hali ishonch yo'q edi. Ammo sizlar tufayli oz bo'lsayam umidim bor edi. Xato qilganligimni keyin sezib qoldim. U qayta yarashganda ishidan haydalgan, fikr-u yodi bir qultum zahar-zaqqum bo'lib qolgan ekan. Otang bir oycha o'zini u yoqqa-bu yoqqa tashlab yurgan bo'ldi. Uyimizga qaytib borish haqida gap ham ochmadim. Bechora o'zigayam o'zi ishonmadi shekilli-da. Tog'alaring u yer, bu yerdan ish topishgan bo'lishdi, bormadi. Ammo har zamonda cho'ntagida besh-to'rt so'm paydo bo'lib qolardi. Mardikorchilik qilardi shekilli. Buyam uzoqqa cho'zilmadi. Yana ichkilik xuruji boshlandi. Men tog'alaring, mahalla oldida izza bo'layotganimdan zor-zor qaqshardim. Sen o'shanda bolaligingga borib, adangni yurishlarini alpang-tal-

pang ko'rsatardingda, voy, boshimni qayga urishni bilmay qolardim. Bolayding-da, bo'lmasa o'z otangni o'zing ermak qilarmiding? Oxiri janjal chiqdi. Kallayi saharlab ichishga yana pul so'radi. Qattan olay axir! O'zim onamnikida sig'indi bo'lib o'tirsam. Yum-yum yig'lab, singling bilan ikkovingni sudrab, ukangni ko'tarib bog'chaga, undan nari ishga ketdim. Shu kuni adang uyga qaytmadi. Ertasigayam qorasini ko'rsatmadi. Bir mahal uyni yig'ishtirayotib, oynalik javonning changini artay deb qotdim-qoldim. "Odam shunchalik ham pastkash bo'ladimi? Hali men shu odam bilan turmushimni qayta boshlayman deb yuribmanmi?" Nima bo'ldi degin, otang yarashganimizdan keyin tug'ilgan kunimga deb billur qandil sovg'a qilgan edi. O'shani olib ketibdi-da. Nimaga bo'lardi, sotib ichgani-da. Balki o'sha qandilning o'rniga boshqasini olib ketgandayam bunchalik ta'sirlanmasmidim? Ko'nglim battar muzlab ketdi, o'g'lim. Ishqilib, kuyov bo'lmish ichkilik degan ofatdan uzoq bo'lsin-da. To'g'rimi, tolmas qanotim?

3

Shu desang, o'g'lim, keyingi paytlarda sal narsaga ta'sirlanadigan bo'lib qolibman. Kuni kecha mehmondorchilikka bordim-u, borganimga pushaymon ham bo'ldim, xushyor ham tortdim. Balki seni o'ylamaganimda bunchalik dahshatga tushmagan, qo'limga qalam olmagan bo'larmidim. Nimaga onam hadeb meni o'ylaydigan bo'lib qoldilar, deb hayron bo'lma. O'ylamay bo'larkanmi, o'g'lim. Bu Afg'on urushi degan kasofat qattanam yonimizdan yon qoziq bo'lib chiqdi-ya! Urush bitta Afg'onda bo'lyapti deb o'ylaysanmi?! Butun mamlakatning jismi-jonida kechayapti-ku bu urush! Ilgari bolalari sovuq tomonga tushib qolsa ota-onalar zorlanishardi, bolam qiy-naladigan bo'ldi, shu atrofdan qolsa, bo'lmasmidiykin, deb. Endi sovuqmas, undan nariga ketsayam mayli, ishqilib Afg'ondan nari bo'lsin deb orzulanishadi. Men ham bir yilgina tinch yurdim. Ikkinchi yili seni

Afg'onga o'tkazishdi-yu, tinchim buzildi, bolajonim. Xatingni o'qib, sog'-salomatligingni bilguncha jonim shundoq xalqumimga kelib qoladi-ya. Lekin podsholar bu ishning xatoligini tushunib, insofga kela boshlaganlaridan beri yorqin-yorqin tushlar ko'ra boshladim. Zora o'sha do'zax ichidan muddatidan oldinroq etak qoqib keta qolsalaring. To'ylarni boshlab yuborsak. Seni uylantirsam, Sabohatni uzatsam. Ha, quloqlaringa kelin salom-u yor-yorlarning ovozi shundoqqina eshitilib turibdi. Bizning xonadonga ham yorug' kunlar tongdek oqarib kelyapti. Nimagayam kelmasin, keladi-da. Biz kimga yomonlik qilibmizki, bunday kunlardan benasib bo'lsak. Ilohim go'shanga kuyov bo'lg'in. Aytib qo'yay, insofli qaynona bo'lamen. Sening qallig'ingni qanchalik suyib, bag'rimga bossam, mehr-oqibat ko'rsatsam, mening yakka-yu, yolg'iz qizimniyam borgan joyida shunchalik bag'riga bosishadi. Iloho, niyatim yo'ldoshim bo'lsin. Ana xolos, yana chalg'ib ketdim-a... Mehmonga borganim haqida yozayotuvdim-ku.

Mehmonga borgan joyimizda bitta to'rt qavatli bino mahallaning o'rtasiga adashib tushib qopti, degin. Mezbonimizga shu binoning uchinchi qavatidan joy tekkan ekan. Sizlarda bilmadim-u biz tomonlarda bahor kechikdi. Ko'katlar qulf urib, hidi endi dimoqni qitiqlaydigan bo'la boshladi. Ichkaridan osma ayvonga chiqqim keldi. Chiqdim-u ko'zim mo'jizaga tushgandek yuragim jaz-jaz achishib ketdi. Butun mahalla bu yerdan kaftdagidek ko'rinib turardi. Mening diqqatimni tortgan narsa osma ayvon tagidagi mo'jizaga chorbog' edi. Chorbog'ning boryo'q mulki — bir tup o'rig-u ikki tup nok edi. Bir qarashda ular puturdan ketgan, yangi novdalaridan ko'ra qurigan, cho'gir shoxlari ko'p edi. Shundayam o'rik gullab, endigina gulini to'kkan, xuddi kuygandek qizarib turardi. Noklar hali gullamagan, tosh nok bo'lsa kerak g'unchalari bo'rtib ko'rinardi. Qo'shni hovlilarda bo'lsa shaftolilar pushti gullarini bahor shamollariga tutib hilpiratgandan-hilpiratishardi.

Bolalik, beg'uborlik davrlarimni eslab, bir yuragim orziqdi, bir orziqdi, o'g'lim...

Ha, chorbog'ning ajabtovur gir aylana devori ham bor edi. Ajabtovur deganimning sababi ular olis-olis-lardan, horib, tolib, ozib-to'zib kelayotgan o'rkachli tuyalarni eslatardi. Bu yerdagi barra maysalar chunonam yashnab yotardiki, go'yo bahor shu burchakka berkinib olib, shovqin-suronli, chang-to'zonli shahardan nari erkin-erkin nafas olardi. Mening bu go'shaga bunchalik berilib ketganimning boisi, esingdami, adanglar tarafda shunaqa xaroba joylar ko'p edi. Sababi, u yerdan bittagina temir yo'l o'tgan, qachonlardir ikkinchisiyam o'tadigan bo'lgan, evini qilganlar joylarini buzib ketishgan edi. Noilojlargina yashab kelishardi. Yodingda bo'lishi kerak xuddi shunday bahor paytlarida seni yetaklab, jag'-jag', ismaloq tergani chiqardim. Dadanglarni topib olgani baliq ovi edi. Baliq ovi aroqxo'rlikka bahonaykan-da, bolam. Men bo'lsam, ko'k somsa qilib kutib o'tirardim. Qani endi ko'nglim uchun bir donasini og'izga olsa. Jizzalar, qalampir, murchlar solingan, biram xushta'm bo'lardi. U odamning ko'klar bilan ishi yo'q edi. Men u kishiga o't-o'lansiz, hatto, bir bosh piyoz, pomidor-siz bo'lak qozon osardim...

— Hay, hay, — dedi uy egasi yonimga suqilib, — ja o'n sakkiz yoshlilardek o'y o'ylab ketibsan, tinchlikmi? Uy egasi deytoganim birga ishlaydigan Nasima opang edi. Huv, quvnoq xotin bor edi-yu, o'sha! Qirqqa kirganiga o'tirish qilib berayotgan edi. “Yur, — dedi u qo'limdan tortqilab, musiqa bo'layapti, eshitayapsanmi musiqa! Yur, oz bo'lsayam o'ynab-kulib qolaylik, ertaga kech bo'ladi, kech...” Nasimaning rosmiyo sho'xligi tutgan edi.

— To'xtab, turgin, — dedim bilagimni bo'shatib, — mana bu yoqqa qara, bu chorbog'ni egasi yo'qmi? Cho'ntakdan tushib qolgan hamyonga o'xshaydi-ya. Axir bir parcha yer uchun odamlar birov-birovining boshini yorishyapti-ku...

— E, qo'y, — dedi Nasima qo'l siltab, — yur, ichkariga, yur...

Nimagadir Nasima zo'rg'a chog' qilgan kayfiyatini buzgisi kelmadi. Nima bo'lishi mumkin yo qarg'ish tekkan joymikan, balki birortasi dafn etilgandir bu yerga.

Bu haqdagi gap keyinroq, mutloqo boshqa tomondan ochilib qoldi. O'zi qiziq bo'ladi-da, yurakka bir nima o'rmalab kirmasin. Kirdimi, tamom yurakning o'zi yuraklarga yo'l topadi. Oxiri o'sha tilsimning qulfi u qanchalik sirli bo'lmasin o'z-o'zidan mana man, deb ochiladi-qoladi. Nima bo'ldi, degin? Nasima o'rikdan tayyorlangan sharbat ochdi. Tasavvur qilgin, o'rik gullaganda xuddi shoxidan uzilgandek mevasini yeyishni. Biram xushta'm, biram xushta'm. O'tirganlar bir chekkadan maqtay ketishdi.

— Hay, hay, bu dunyoning o'rigiga o'xshamaydiya.

— U dunyodan deyaver, naq jannatning o'zginasidan.

— Yana tuksiz, oq o'rik ekan-da?

— O'zimizdan, — dedi Nasima, — pastdagi chorbog'dan, o'ziyam cho'girtob bo'lib bir tupgina qolgan.

— Hay, bizam aqchasini to'lab, ega chiqib qo'yaylik.

— Sotilmaydi puldor dugonajonlarim, sotilmaydi. Pishganda aytaman, nasib qilsa biron chelakdan olarsizlar, xo'pmi?

— Ho-o-o, quruqlanishini qaraylar, bunaqa o'rikning kilosi falon so'mdan tushmaydi-ku, yo hotamtoylik qilmoqchimilar-a?

— Ey, aytsam ishonmaysizlar, — dedi-da, Nasima allanechuk xo'rsinib, chetga qaradi.

Bilasanmi, o'g'lim, chorbog' o'zida nimalarni yashirib kelayotgan ekan? Bamisoli qati varaqlanmagan kitob deysan. Eshitib barchamizni ko'zimiz yoshlandi. Surmalarimiz surkalib, oppoq ro'molchalarimiz qop-qora bo'ldi. Voqea bunday bo'lgan ekan, mening yupanchim.

O'sha chorbog'dagi o'rig-u nokni ekkan odam qirq birinchi yilning kuzida urushga ketgan ekan.

Xotining bo'yida gumona qolgan ekan. Oy-kuni to'lib qo'chqordek o'g'il ko'ribdi boyaqish. Eri ha deganda urushdan qaytavermapti. Xotini bo'lsa, noumid bo'lmay kutaveribdi. Kutgan ko'zlariga surt-gudek bo'lib o'g'li ulg'ayibdi. Ana-mana deb oradan yigirma yil o'tib ketibdi. Ana shuncha yildan keyin eridan xat-xabar topibdi sho'rlik. Uyam bor-yo'g'i ikki og'izgina ekan: "Eringiz Moskva ostonalaridagi janglarda qahramonlarcha halok bo'lgan". Balki bu xabar yigirma yil oldin, jilla qursa o'n besh yil oldin kelgandayam ayol sho'rlik boshqa erga tegarmidi, taqdirga tan berib? Ha, o'sha ikki kalima so'zni bag'riga bosib, yakka-yu yagona o'g'liga suyanib qopti. O'g'li quyib qo'ygandek otasining o'ppa-o'ziykan. Axir pok, vafoli bevalarga bundan ortiq yupanch, bundan ortiq in'om bormi dunyoda? Yigit bo'y yetib, oliy o'quv yurtiga o'qishga kiribdi. O'qib yurganda muhabbat degan savdoga andarmon bo'p qopti-da, yigitgina. Oh, bunday taqdirlarni eshitganingda, muhabbat deganlari odamzod boshiga bitgan balomikan, deb o'ylab qolasan kishi.

Yigit oxirgi kursda yoqtirib qolgan qizidikiga onasini jo'natibdi. Onaizor o'g'lining qaddi-qomati bilan, donoligi bilan mag'rurlangandan mag'rurlanib yurarkan. Shungami, xohlagan eshigimni taqillatsam qizini beradi, deb o'ylarkan. Oh, bolajonim, nazarimda, har bir ona shundoq deb o'ylasa kerak. Ming-ming la'natlar bo'lsinkim, onaizorning aytgani bo'lmabdi. Sovchilikdan yerparchin bo'lib qaytibdi. Qiz tomon nima depti degin: "Qizimizni ota-onasi borga beramiz, boshqa kelmang".

Qara-ya, noinsoflarni, yigitning otasi o'z ajali bilan o'lgan bo'lgandayam, boshqa gap edi. Axir shu dorilomon kunlarni deb jon bergan bo'lsa, yigit qahramon jangchining o'g'liman deb boshini tik tutib yursa-yu, otasizligini yuziga solib, muhabbatiga bolta urishsa! Bu qandoq ko'rgilik-a? Bunaqa befahm odamlar qattan paydo bo'ladi-a? Axir bu ko'rib turib kuygan yuzga tarsaki tushirish emasmi? Ko'zi yoshli

odamga behayolarcha tirjayib qarash emasmi? Otasiz bo'lib qolganiga yigit aybdor bo'ldimi? Beva nomini ko'tarib, bir o'g'lini katta qilgan onaga mukofot shumi? Nega bunday bo'ladi-a, bolajonim? Nimaga baxt deb intilgan baxtsizlikka, haq deb intilgan haqsizlikka ro'para kelib qolaveradi-a? Hayotning bunaqa o'yinlarini nima deb tushunish kerak-a? "Hayot" degan muqaddas narsani qahr bilan tilga olganim uchun ming bor uzr o'g'lim. Eng notavon odamlargina hayotdan noliydilar, o'z baxtsizliklarini hayotga to'nkaydilar, ko'z yoshi qilib yuradilar. Nima, hayot insonga bag'ridan joy, rizq-ro'z bergani uchun aybdormi? Yo'q, hammasi odamning o'zida qolgan. Birovlar shu zaminda yashab, palak yozib shirindan-shirin mevalar berarkan, birov taxirdanam-taxir! Ming afsuski, shirinning ham ishi taxirga tushmay iloji yo'q ekan-da. Vo, darig', o'sha ota-ona qiz o'stirgan-a? Voy omadsiz yigitgina-ya, voy qahramon jangchining jigarbandi-ya, voy o'lik muhabbatga hali-hanuz jon bag'ishlab kelayotgan mushtipar onaizor-a, shunday taviyalargayam ishing tushadimi-ya! Muhabbatning ko'zi ko'r deganlari shu bo'lsa kerak-da?!

Onaizorning eski yarasi yangi bo'lganligini, butun joni-jahoni o'rtanganini, ona bo'lganim uchun ham his qildim, o'g'lim. Sho'rlikkina, eriga shuncha yil aza tutganiyam, "otasiz" degan gapni eshitganiyam bir bo'lgandir. Boshini devorlarga urib-urib yig'lagandir, mushtipargina. "Yo'q" degan muzdek javobni nuri diydasiga qandoq yetkazdiykin? Undan ko'ra gung bo'lib qolishni ming marta afzal bilgandir, onaizor! Ha, peshanasi sho'r ekan bechoraning. Farzandini elga qo'shib, endi uylayman, uyim to'ladi deganda, og'zi oshga yetganda burni qonaydimi-a?

Biron nimani sezib qolishganmi, qizning uyidagilar shoshib-pishib to'y qilib yuborishibdi. Yigit bechora qizginadan ajrab qopti. U bunchalik bo'lishini kutmagan ekanmi, bir kechada miyasi aynib qopti. Oh, deb yubordim. Dushmaningniyam boshiga solmasin bunday kulfatni. Odamlar bir-birlariga nimaga bunchalik

beshafqat-a? Shu o'rinda kimni ayblaysan-u kimni qoralaysan?

Kechir, o'g'lim, men boya tilimga haddan ziyod erk berib, qizning ota-onasini yozg'irib yubordim. Axir qizning ota-onasi ota-onalik yigitni orzulashgan bo'lsa, ularda nima ayb. Shunchalik ularning go'riga g'isht qalashim kerakmidi? Hamma yoqtirgan oshini ichadi-da, nima deding?

O'sha yigit hozir qirqdan oshibdi. Biz tengi ekan. Og'zida nuqul bitta gap emish: "Odamlar, hoy, odamlar, eshitmadim demanglar! Qumrixonni olyapman. Taka-tum to'y, taka-tum to'y!"

Onaizor necha-necha yillardan beri mahallada sunnat to'yi bo'ladimi, nikoh to'yi bo'ladimi, ishqilib to'y egalarining ko'rpa-to'shagini qavib, mag'izlab berarkan. Falon so'm deb mehnatiga narx urmas ekan. "Men dunyodan o'tib ketsam, yolg'izim orqamda qolsa, bir qoshiq issiqlaringni ayamasanglar bo'ldi, deb mehnatini shunga chaqib qo'yaqolarkan. Mahalla-ko'y ham telba o'g'ilga qattiq-quruq gapirishmas ekan, ba'zi-ba'zida erkaliginiyam ko'tarishar ekan.

Oh, onalar-a, onalar-a... Menimcha, hech bir ona vaqti-qazosi yetgandayam xotirjam ko'z yummasa kerak...

Jon o'g'lim, har bir yoshga muhabbat savdosi mehmon bo'lishi bor. To'ylar haqida o'ylaymanu mana shunaqa azoblardan xudoning o'zi asrasin, deyman, nuqul. Axir shunday insonning zurriyotiga shafqatsizlik qilgan odamlar bizni ayab o'tirarmidi? Otang bilan faxrlana olmaymiz-ku. Bor bo'lib bordek emas, yo'q bo'lib yo'qdek emas. Bu yog'iga ehtiyot bo'laylik. Xato qilishga haqqimiz yo'q, suyangan tog'im!

4

Jonim bolam, to'y haqida o'ylasam, qushdek yengil tortib yuraman. Axir el-yurt oldiga dasturxon yozishdanam qutlug'roq tashvish bormi dunyoda?

Yaxshilikka, to'y-to'kislikka, dasturxon yozishga nima yetsin? Dasturxonda gap ko'p, o'g'lim. Dasturxonigiz to'kin bo'lsin deb bekorga tilak bildirishmaydi. Shuning uchun eshikdan do'st kirib keladimi, dushman kirib keladimi, uyda bir burda non bormi, yo'qmi, baribir dasturxon yoziladi. Urf-odat shunaqa. Dasturxon do'stni do'st qiladi, dushmanning aqlini kiritadi, insofga chaqiradi. Dasturxon mezbon ziynati, mehmon hurmati, o'g'lim. Dasturxonni yoziq odamning ko'ngli ham ochiq bo'ladi.

To'y qilib, sizlarning dasturxonlaringizni ochish haqida o'ylab turib o'zimning bevaqt yig'ishtirilgan dasturxonimni eslab ketdim, o'g'lim. Adang bilan mening dasturxonimiz qachon yig'ishtirildi? Qay soat, qay daqiqada?

Odamning xotirasi shunday ekanki, uning hisobidan o'tib qolgan eng kichkina narsayam o'chmay turaverar ekan. Kompyuter tugmasidek bilib, bexato bosilsa, miya barini jonlantirib berishga qodir ekan. Mana: "Dasturxonimiz qachon yig'ishtirildi?", — deyishim bilan bari ko'z oldimga keldi-qoldi.

O'shanda Bahodirimga boshim qorong'i edi. Ha, kulma, o'g'lim. Boshi qorong'ilik qanaqa bo'lishini, u bo'lajak onani qanchalik nari olib borib, beri olib keli-shini, ha demay, uylansang, bilasan. Ammo ana shu pallada bir-birovingga qanchalik mehribon, oqibatli bo'lsalaring, balki, farzanding ham shunchalik mehr-oqibatli bo'lib tug'iladi. Nimaga desang, bu fazilat-larning bari jon bitayotgan bolaga ona orqali o'tadi-ya! Teskaricha xatti-harakat bo'lsa, teskarichasiga o'tadi. Bola dunyoga kelgandan keyin ba'zi birovlar, nega undoq, nega bundoq deb gap qilib o'tirishadi. "Hov kuyov bola, kelin bola ko'zi yoriguncha boya-qishni nechchi marta onasinikiga qon qora qaqshatib jo'natdingiz, ichmay kelgan kuningiz bo'ladimi o'zi?", deydigan mard yo'q. Nima eksang, shuni o'rasan, deganlari shu bo'ladi, o'g'lim. Onam yuzimni ochib yuboryaptilar, dema. Ehtimol, bu gaplarni yuzma-yuz o'tirsam aytolmas edim. Lekin xat orqali

aytaman, ayta olaman o'g'lim. Ko'pgina qo'ydi-chiqdilar shu oddiy haqiqatni bilmaslikdan bo'lyaptida, o'g'lim. Meshdagi qimizning oqib tugashiga ignaning ko'zidek teshik yetadi. Mehr-oqibat ham bamisoli meshdagi qimiz. Hamma gap silqishga yo'l bermaslikda. Balki otang ham shu narsalarni bilmagandir-da? Balki u ham mehrsizlikning achchiq mevasi bo'lib dunyoga kelgandir-a? Balki uning ham onasi o'sha boshi qorong'ilik paytida... Eh, bekorga boshi qorong'i degan emas-da, xalqimiz. Bunday paytda onalarning boshi hech qachon yorug' va yorqin bo'lolmaydi. Axir, qattanam shundoq bo'lsin? Qachonki onadagi yorug' va yorqinlik dunyoga kelayotgan bolaga oqib o'tayotgan bo'lsa! Ona butun a'zosidan unga ko'chat o'tqazadi-ya! Bu osonmi? Aslo! Qaniydi buni hamma bilsa, onaga haloskor bo'lsa. O'sha qorong'ilik kunlar evazigagina bola yorug' jahonni ko'rishini hamma ham o'ylab ko'rmaydi-da!

Onalarning gapiga quloq solsang, men, falonchi bolamda falon narsaga boshim qorong'i bo'lgan edi, deb qo'yishadi. Bahodirimda men ko'k o'tni ko'proq tusagan edim. Balki shu bahor pallasiga to'g'ri kelib qolganligidandir. O'sha kuni desang, otangga oq sho'rva osib, o'zimga ko'kdan chuchvara tugdim. Nimayam bo'ldi-yu... shu o'sha kuni meni bir g'aflat bosdi-da. Otang har galgidek ichib kelgan edi. Dasturxon yozdim. Oldin otangning ovqatini suzib kelay, deb har ehtimolga qarshi namagini ko'rdim. Yengilroq. Bir chimdim tuz tashladim. Namagi yetilguncha chuchvarani suzib olaqolay dedim. Shu desang, laganni dasturxonga qo'yishimni bilaman, "yana ko'kmi" deb laganni boshidan oshirib otib yuborsa bo'ladimi? Lagan bir nimaga tegib chil-chil bo'ldi. Shu o'rtalig'da singling yo'lga kirib, atakchechak qadam bosib yurgan edi, chirilladi-qoldi. Yerparchin bo'lib yotgan singlingning bir parcha cho'g'dek bag'rimga bosdim. Jon holatda yuz-ko'zini paypaslayman, degin. Bir mahal barmoqlarim qop-

qora qonga belandi. Qani endi mening ahvolimni tushunadigan odam topila qolsa?!

Qo'shnilarimiz chiqishdi. Zormanda lagan singlingning boshiga tegib chil-chil bo'ldi deb o'ylabman. Hayriyat, laganning uchintirig'i quloq suprasini yirtib o'tgan ekan... O'sha yara izi hali-hanuz bor.

Endi o'ylasam, bizning dasturxonimiz o'shanda otang dasturxondagi ne'matni boshidan oshirib uloqtirganda yig'ishtirilgan ekan. U bir lagan chuchvarani emas, hamma narsani — bolalarining baxtiniyam, o'zining kelajaginiyam, mening orzu-havaslarimniyam uloqtirgan ekan. Men bu gaplar bilan nimalar demoqchi bo'layotganimni tushunib turibsan, aqlligim. Odatda dasturxon yozishning avval boshi ikki yoshning umid bilan bir yostiqa bosh qo'yishidan boshlanadi. Ilohim yurt oldiga dasturxon yozaylik-da, sening ham, singlingning ham, ukangning ham dasturxoni har doim yoziq bo'lsin.

5

Bugun yana o'y o'ylab, o'yimga yetolmay yurdim, shunqorim. Goh sen bilan, goh otang bilan, goh buving bilan, ko'proq o'zim bilan o'zim gaplashdim. Bunga buvinglarni bir og'iz so'zlari sababchi bo'ldi. Ha, ba'zan bir og'iz so'z bilan odamning butun xonumoni o'rtanib ketadi. Kecha kechqurun to'yga deb andozalangan ko'rpachalarni qavib o'tirib buving nima dedilar degin?

— Qizim, bu Anvarjondan sira darak bormi?

Ishxonamning hisob-kitob ishlari bilan judayam band edim. Shungami, savollariga unchalik e'tibor bermay, "Qaydam", — dedim-u birdan ko'z oldim tumanlashib xatni ko'rmay qoldim.

— Nima dediz?

— Bolalaringning otasini aytyapman-da, bolam?

Ishonasanmi, o'g'lim, xuddi birov temirdek qo'llari bilan ikki chakkamdan qisib, boshimni devorga gurs-gurs urgandek bo'ldi. Ha, miyamga og'riq kirib ketdi. Bilmadim, aft-angorim qay taxlitga tush-

gan edi o'shanda? Buvinglar aytar gapni aytib qo'yib, yuzimga qarashga botina olmasdilar. Go'yo o'zlarini xotirjam tutib, ish bilan band odamdek qilib ko'rsatdilar. Men bo'lsam o'z onamga, ha, men uchun yakka-yu yolg'iz qadrdon odamga yetti yot begonaga qaragandek qarab turardim. Axir buvinglar o'n besh yildirki biron martayam otangning nomini tillariga olmagan edilar-da. Uning ismi qarindosh-urug'larimiz uchun bamisoli balo-qazodek bo'lib qolgan edi. "Qizi qaytib kelgan, beva" degan gapga faqat shu nom aybdordek. Men bo'lsam, hatto shunaqa ismli odamlardan ham nafratlanadigan bo'lib qolgandim. Shuni bilaturib buvinglarni ko'rmaysanmi: "Anvarjon bolalaringni otasi" mish!

— Ha, nima gung bo'lib qoldingmi? — dedilar buving ishdan bosh ko'tarmay.

— O'sha sizga nimaga kerak bo'lib qoldi? — ovozim ham qahrli, ham zahrli chiqdi. Bu onamga nisbatan behurmatlik edi, albatta. Axir mening eng yara joyimga tegib ketishsa nima qilay, bolajonim? Qandoq chiday? Qurib ketgur bu yara na tuzalib tuzalmaydi, na meni bir yoqlik qilmaydi.

— Nima ota fotihasisiz qiz chiqarib, o'g'il uylamoqchimisan? — Bo'lmaydi, yo'q, — bosh chayqadilar buving.

— Ota bo'p nima qip qo'yiptiki, fotiha beradi?

— Dard, sendan yaxshi bilaman, nima qilib, nima qilmaganini. Otang to'ng'iz bo'p to'qayga kirib ketsa, chaqirib duvosini ol, deyishgan, axir ming qilsayam o'shaning zurriyoti-ku.

Buni qaraya, bolajonim, shuncha yil tishimda tishlab, bo'ylaringni bo'yim bilan teng qilsam-u mening fotiham o'tmasa.

— Har qancha fotiha bo'lsa siz bor, tog'alari bor, o'zim bor, — dedim.

— Seniki o'z yo'lga, onasan, jabrini tortgansan, albatta fotiha berasan. Lokin senikiyam, biznikiyam... Bilmasang, bilib qo'y, fotihaning lakmingi otaning qo'l ochib "omin" deganiga yetmaydi. Ota rozi, xudo

rozi. Men aytdim-qo'ydim, keyin armon qilib yurma...

Oh "armon", deyдилar-a, qara-ya, armonmisha-a... Axir butun umrim armon bilan o'tdi-ku. Yana qanaqa armonlar bor bu boshimda? Yana qanchasini ko'tarish mumkin? Insof, rahm-shafqat degan narsalar bormi bu dunyoda?

Shu kuni Zahro o'rtog'imni o'ylab ketibman, degin. U bechora: "O'rtoqjon, oldingda hamishalikka boshim egik", deb yuradi. Sovchilarni otang tomondan o'sha boshlab kelgan edi-da. O'zi shu tomonga tushgan edi. Bolalikda birga o'sdik, birga bo'laylik, deganda boyaqish. Taqdirning bunaqasiga aylanib ketishini qattan bilibdi? Buvinglarning qistovlaridan angladim-ki, Zahrodan otangni so'rab-surishtirib qo'yishim kerakka o'xshaydi. Qattanam buvinglar bu bosh og'riq gapni o'ylab topdilar-a?! Yo o'zimiz kelishib, fotihani yo'qqa chiqaramizmi-a? Fotiha beradigan ahvoldamikan o'zi? Axir fotihaga ochilgan qo'l biron marta bolalarining boshini silamagan bo'lsa. Bu yog'i qandoq bo'ladi-a?

Eh, bolajonim, bolajonim qotmagan boshingni qotirib yubordimmi? Bo'lar ish bo'lib, bo'yog'i singan-ku. Shunday deyman-u, ba'zan o'ylab qolaman. Otangdan nimaga bunchalik o'zimizni olib qochmasak? Nima, u odam o'ldiribdimi? Yo qaroqchilarga qo'shib ketganmi? Qamalib chiqqanmi? O'shanda javondagi qandilni olsa, o'zi olib kelganni olgan. Yoniga boshqasini qo'shib olib chiqib ketmagan-ku. Shunday qilsa, qo'limdan nima kelardi? Shu pastkashlikka bormadiku u odam.

Agarda biz buving aytgan yo'riqqa yursak, "Falonchi bolalarini oq yuvib, oq tarab, yana buning ustiga bolalarini tashlab ketgan otasidan fotiha olib beribdi, barakalla", degan gapni eshitmaymizmi? Shu ma'qulroq emasmi? Qara-ya, ko'nglimning ko'chasini, maqtovsirab qopmanmi? Maqtov deganlari qanaqa bo'ladi o'zi? Onalar uchun bolalarini oyoqqa turg'azib, ko'pning qatoriga qo'shishdan ortiq maqtov bormi, erkatoyim!

Mayli, otangniyam to'ylarimizga aytamiz, otalik fotihasini bersa beraqolsin. Yana kim biladi, o'g'lim, to'yga aytishimizni otang qandoq qabul qilarkin? Balki haqoratli deb bilar-a? Sezayapsanmi, bu dunyoda yashashdan murakkabi, yashashdan noqulayi yo'q ekan-da. Xuddi yelkadan tushirib bo'lmaydigan yukka o'xshaydi. Qo'lga olsang, toldiradi, boshga qo'ysang, zirqiratadi. Yelkaga sursang ezadi, orqalasang qaddingni o'roq qiladi. Oqibat bu yuk oxirgi yo'lga olib ketadi. Yashash bu judayam olis, mashaqqatli yo'l o'g'lim. Bu yo'lda yigit kishining uchta dushmani bor. Biri molparastlik, mol-dunyo desang, nopok yo'llarga kirasan, birovning rizqini tuya qilasan. Ikkinchisi mayparastlik, buni ta'riflab o'tirmayman, jonim bolam. Biz uning tirik qurbonlarimiz. Uchinchisi... aytaman, o'g'lim, aytaman, yuzimni sidirib tashlab bo'lsayam aytaman — ayolbozlik. Uning dahshatlili shundaki, bu illat molparastlik bilan mayparastlikning qo'shiluvidan urchiydi, o'g'lim.

Qara, bitta "fotiha olish" so'zi qancha mazabemaza gaplarni yodga soldi-ya. Xatimni o'qib, nimaga onamlar fotiha olish haqida oldinroq o'ylab ko'rmaganlar, nahotki buvimning eslatishlarini kutganlar, deb o'ylamagin. O'ylaganman, bolajonim, o'ylaganman. O'ylay-o'ylay o'ylaganlarim dard bo'lib yuraginga ko'milgan edi-da! Esingdami?.. Ke, qo'y, bu xatim har qachongisidan ham cho'zilib ketdi. Vaqt ham allamahol bo'lib qoldi. Keyingi maktubda yozarman. Seni quchib, sergap bo'lib qolgan onang.

6

Bolajonim, oldingi xatimda bir voqeani eslatmoqchi bo'luvdim shekilli. Ha, esingdami, o'shanda sen uchinchi sinfda o'qirding. Singling bilan ukang bog'chaga borishardi. Ulardan ko'nglim to'q edi-yu, sendan notinch bo'laverardim. Judayam o'yinqaroq, sho'x eding-da. To ishdan chiqib, bog'chaga o'tib uyga borgunimcha, hali u, hali bu gaplar chiqib qolardi. Gaplarning bir uchi senga borib taqalardi.

Nimagadir o'sha kuniyam ishda betoqat bo'laverdim. Qaraginki, onaning yuragi sezadi-da, o'g'lim, ishimni oxirlata olmadim. Uyga borsam, tog'alaringning xotinlari seni hali maktabdan kelmaganingni aytishdi. Aytishdi-yu, birdan o'zlariyam qo'rqib ketishdi. Axir bu vaqtda sen allaqachon uyda bo'lishing kerak edi-da. Ko'chama-ko'cha tentirab, oxiri maktabga qarab chopdim. Maktabga yetay-yetay deganda sen tengi bolalarning: "Ana, oyisi, o'shaning oyisi", — deb qo'llarini men tomonga ko'rsata boshlashdi. Oh, bolamga bir nima bo'pti-da, degan qo'rquvdan jonim chiqay dedi. Yaxshiyamki, ko'cha devori bor ekan, suyanib qoldim. Ko'zim chug'urlashayotgan bolalarda. Shu payt bir notanish xotin men tomonga qirg'iydek qanotlarini yozib kela boshladi. Tushunmadim, menga ko'maklashmoqchimi yoki shum xabar yetkazmoqchimi?

— Siz Sherning onasimi? — dedi titrab-qaqshab.

Men: "Ha, menman", — dedimmi yoki ha degan-dek ko'zimni yumib, boshimni qimirlatdimmi, ishqilib nima gap deb so'rashga tilim aylanmay qolgan edi. U ayol ham menga sarosimada intildi-yu bir nima deya olmadi... Oh, onalar, onalar-a... bir qarasang, ulardan kuchli, ulardan qudratli odam yo'q dunyoda. Eng zaifa, eng xokisoriyam onada aslida...

Nihoyat, ayon bo'ldiki, u ayolning o'g'lini sen yo'ldan uribsan. Ikkoving boshlashib qayoqqadir ketgan emishsanlar. Mana shu haqiqatni bilguncha ikki ona o'n yilga qaridigov. Mendan shum xabar eshitamanmi deb u bechoraning ham esxonasi chiqib ketgan ekan. Nimagadir lop etib, adang yodimga tushdi. Birinchi, ikkinchi sinflarda o'qib yurganlaringda kelib-ketib turganlarini eshitgan edim. O'shanda se-ning xatti-harakatlaringda qo'rslikka o'xshash bir nimalar paydo bo'la boshlagan edi. Albatta, buni men otangning kelib-ketishidan ko'rdim. Mahalla qo'mitasiga borib, otangning ustidan arz qildim. "Bolalarimni ikki uylik qilmasin, shuncha bergan azoblariyam yetadi", — dedim. Shu-shu adang qorasi-ni tortib ketgan edi.

Haligi ayol bilan avtobusga o'tirib, to'g'ri o'sha yoqqa jo'nadik. Borsak, ne ko'z bilan ko'raylikki, ikkoving ham papkalarini taglaringga bosib, darvoza tagida mung'ayib o'tiribsizlar. Ikkovimizniyam yuzimizga nur, labimizga kulgu yugurdi. Ha, o'sha pallada ikkovimizdan ham baxtliroq odam yo'q edi dunyoda. Go'yo biz bahri-ummon tagiga tushib ketgan topilmas javohirlarimizni (ha, bu javohirlarsiz onalar onaligini unutadi) topib olgandek edik. Seni o'shanaqa g'amgin o'tirishingni ko'rganda otang bilan ming marta qayta yarashishga rozi bo'lgan edim, o'g'lim. Bolasi deb yongan ona nahotki bolasini tushunmasa. Shundog'am tushundimki, lekin otang ham tushunishi kerak edi-da.

Sizlarni olib kelib, buning ustiga yana kuttirib qayoqqadir daf bo'lganligidan g'azabim toshib ketdi. Bilmadim, o'shanda ro'paramdan chiqib qolsa nima qilardim.

— Ichaverib miyasi aynib qopti-da, bo'lmasa o'zining bolasi qolib siznikiniyam boshlab keladimi? — dedim uzr so'ragandek yonimdagi ayolga. — Xafa bo'lmang, hozir mahalla uchastkovoyiga borib bor gapni aytaman. Keyin:

— Yur, — dedim qo'lingdan tortib.

— Yo'-o'-o'q, dadam, — deding o'jarlik bilan qo'lingni qo'limdan bo'shatishga tirishib.

— Qayoqqa ketdi dadang?

— Bilmadim.

Sen shunday deding-da, go'yo qayoqqa ketganini men biladigandek ko'zlarimga jovdirab qarading.

— Senlarni bu yoqqa dadang olib keldimi axir?

— O'zimiz keldik, avtobusda keldik...

Hayrat va qo'rquvdan tanam muzlab ketdi. Qaraya, topib kelganingni. Boshqa avtobusda, boshqa tomonlarga ketib qolganingda, to daraklaring chiqquncha biz ikkita ayolning holi nima kechardi? Sog'inch degan narsa kattadir, kichikdir adashtirmay izlagan odamingning yoniga olib kelar ekan-da. Men bilan kelgan ayol uyda emizikli bolasi qolganligini

aytib, bolasining qo‘lidan ushladi. Shunda sen birdaniga o‘rtog‘ingning yoqasiga yopishding:

— Ketmaysan, ketmaysan, dadamni ko‘rasan, dadam bor...

— Qani dadang, yo‘q dadang, — dedi o‘rtog‘ing ham bo‘g‘ilib. Keyin kuch bilan seni itarib yubordi. Sen bo‘lsa uni tortib gursa yerga quladilaring. Ikkoving tuproqqa belanib, ayqashib ketdilaring. Ikki xotin tepalaringda chunon hay-haylaymiz, qani endi ajratib bo‘lsa. Sen jon-jahding bilan “bor” deysan, o‘rtog‘ing ham jon-jahdi bilan “yo‘q, yo‘q” deydi.

Bir amallab ajratib oldik. Ust-boshingni changdan qoqdik. Sen to‘tiqushdek nuqul o‘sha gapni qaytararding:

— Bor-a, oyi, dadam bor-a, anovinga bor, deng.

— Yo‘q, yo‘q, yo‘q, — dedi o‘rtog‘ing ham ko‘zlarini lo‘q qilib.

Mendan sado chiqmasdi. “Bor” deb o‘zimni majburlashdan ko‘ra anovi bolaning “yo‘q” deyishi yoqayotgan edi. Ikki ayol ikkovingni oralaringda nima gap bo‘lganligini anglab yetdik. Ayol menga achingandek qaradi-da, o‘g‘lini yetaklab keta boshladi. Shunda sen o‘zingni tutib turolmay qolding. Mendan najot chiqmagach, yig‘lab turib, o‘rtog‘ingga yolbora boshlading:

— Jichcha to‘xtab turgin, hov Avaz, hozir kep qoladilar, meni dadam bor axir...

— Yo‘q sening dadang, mening dadam bor-a oyi, — baqirdi bola. Onasi uni jahl bilan siltalab tashladi.

Sen shundog‘am bo‘shashib turgan qo‘limdan qo‘lingni zarda bilan tortib olding-da, papkangni ustiga o‘tirib, boshingni tizzalaring orasiga olib, hiq-hiq yig‘lay boshlading.

Men o‘sha daqiqani hech qachon unutilmasam kerak. U yuraginga pichoq bilan o‘yilgandek o‘yildi. Faqat bitta narsaga qattiq ishonaman, o‘g‘lim, sen hech qachon, ha, hech qachon o‘z farzandingni bunaqa ahvolga solmaysan. Bu azobni go‘dak boshingdan o‘tkazding.

Men nima qilishimni bilmay, tepangda serrayib turib qoldim. Sen yig'larding, har zamon, har zamon boshingni ko'tarib, yo'l adog'iga qarab qo'yarding, tepangda zang bosgan qulf osig'liq... Bu manzara meni go'ringacha ta'qib qilsa keragov.

— Bo'ldi, — dedim o'sha kuni o'zimga o'zim so'z berib, erim it bo'lsayam yarashaman. Otangni yoningga borib turishini bekor qilganimga ming bor pushaymon bo'ldim. U bormasa sen kelar ekansan-da. Qo'shnini chaqirdim. “Sherning otasiga aytib qo'ysangiz, biz u odamni judayam sog'indik, ko'rgani keluvdik, yo'q ekanlar, jilla qursa Sherning maktabiga borsin yo mening ishxonamga”, — dedim.

Otangda mardlik yetishmadimi yo o'zini qo'lga ololmadimi, ishqilib kelmadi. Sen uzoq vaqt bularni tushunmading, otangga intilaverding. Keyinchalik yana otang yoningga keladigan bo'ldi, ora-sira uchrashib turdilaring. To o'sha, ha o'sha kungacha otangning kimligini anglab yetmading. Ammo anglab yetishing, oq-qorani tanishing sog'lig'imning yarmiga teng bo'ldi. Ke, qolgan gaplarni ertaga qoldiraylik-a, oppog'im.

7

Bolajonim, maktubning chalasini yozyapman. O'shanda sen sakkizinchi sinfni tamomlab, mendan so'ramay shahodatnomangni ko'tarib kelding to'g'rimi? Ha, dedim hayron bo'lib. Maktabni yig'ishtirdim degandek xotirjam qo'l siltading-da, bilim yurtiga boraman, chilangarlikka, deding. Ilgari ham bu haqda bir-ikki, g'ira-shira gap bo'lgan edi. Qaroringni tog'alaring ma'qullashgan, menga ham yoqqandek bo'lgan edi. Ammo bilim yurtiga borganlarning ko'pchiligi buzilib ketayotganini eshitib, to'qqiz-o'nni davom ettiraverarmikansan, degan o'yda yurardim. Shahodatnomangni ko'tarib kelganningdan bildimki, g'isht qolipdan ko'chgan. Shoshib qoldim. Shoshganimning boisi bilim yurtiga boradiganlar ro'yxatida seni ko'rmagan edim-da, shunga

xotirjam yurgandim. Bu o‘z-o‘zingdan, ha o‘zingdan chiqqan tashabbus edi. Bundaylarni o‘qituvchilar bayroq qilib olishlarini ham bilardim. O‘sha kuni dardim ichimda qoldi. Ertasiga sen aytgan bilim yurtiga bordim. Direktori bilan gaplashdim. Bundoq ob-havoni bilay dedim-da. Direktori yaxshi odam ekan. Tarjimai holingni erinmay eshitdi-da, xayol surib qoldi. Keyin lo‘ndagina qilib shunday dedi: “Ona tarbiyasida o‘sgan bolalar yo o‘ta ma’qul bola bo‘lishadi, yo o‘ta noma’qul bo‘lishadi. Gapingizga qaraganda, o‘g‘lingiz o‘ta ma’qul bolaga o‘xshaydi. Bunday bolalarni bizdagilar enka-tinkasini chiqarib yuborishadi. Qarabsizki, bunday bola haligi ta’sirdan yo hamiyatsiz bo‘lib qoladi, yo hamiyatini himoya qilaman deb qo‘liga erk beradi. Qarabsizki, mash-mashalar boshlanadi...”

Bu gaplarda jon bor edi, o‘g‘lim. Men seni tergayverib, tergayverib o‘ta ma’qul qilib qo‘ygan edim-da. Qara-ya, qo‘rqa-qo‘rqa nima ko‘yga solibman seni? Ishqilib ba’zi otasiz bolalarga o‘xshamagin degan edim-da.

Bundoq o‘ylasam, tog‘alaringning o‘g‘illariga seni qiyoslab ko‘rsam, jiyanlarim sendan ancha dadil, ancha mustaqil ko‘rindi ko‘zimga. Ularning qaysidir jihatlari, gap-so‘zlari dadil-dadil gapirishlari otalariga o‘xshab ketardi. Men qanchalik tirishmay baribir otadan o‘tadigan fazilatlarni senga bera olmagan, hatto bu mumkin emasligini o‘ylab ham ko‘rmagan ekanman.

Shularni yo‘l-yo‘lakay o‘ylab, o‘zimni o‘zim yanib, bilim yurtidan qaytdim o‘g‘lim. Uyga kelib maktabni davom ettirishingni yolgandek bo‘lib so‘radim.

— Bo‘ldi, bo‘ldi, — deding qovog‘ingni solib, — shuncha boqdiyz, shuncha kiydirdiyz, endi o‘zim...

— Hali o‘zimlab qoldingmi, shu-da bo‘ying cho‘zilib, aqling ham uzayib qoldida-a? — dedim alamimdan nima qilishimni bilmay.

— Bo‘pti, — deding birdan yumshab, ammo bu

yumshash so'ngida tosh otgandek bir gap qildingki, chakkamni ushlab qoldim. — Bu yog'ini adamlardan so'rayman, ular ham bir nima derlar...

Shunda seni endi ortiqcha ko'z yoshlar, pand-nasihatlar bilan ushlab turib bo'lmasligini payqadim. Men nima dedim o'shanda:

— Qancha nasihat-u maslahat kerak bo'lsa ana tog'alaringdan so'ra, otang o'rnida otalik qilishyapti axir.

Sen menga yarq etib qarading. Ko'zingda chaqin chaqqandek bo'ldi go'yo. Bu chaqin yuragimdagi ko'pgina qorong'i joylarni yoritib yuborgandek bo'ldi. Sen tog'alaringga hech qachon ota deb qaramaganligingni, qaramasligingni ham sezib qoldim. Tog'alaring bolalari qatori sengayam kiyim-kechaklar olib keli-shardi. Bolalari otalarini yalab-yulqashardi. Sen bo'lsa qarzga olayotgandek sovuqqina qilib, "rahmat" deb qo'ya qolarding.

Xullas, bolani otasiz katta qilish dorbozning arqonida langarsiz yurishiga o'xshaydi.

Shunday qilib, shanba kuni edi, kechga tomon otangning yoniga otlanib qolding.

— Nega endi bemahalda, qachon borasan-u qachon kelasan? — dedim.

— Kunduz kunlari uyda bo'lmaydilar-u, qayt-masam, yotib qolarman, — deding.

Xuddi shu yoshga yetganingda otang seni mendan tortib olayotgandek, buning ustiga o'zing intilayotganing vujudimni o'rtab turardi. Bilardim, o'g'lim, sen o'zing bilmagan holda yuragingdagi to'lmay qolgan, ha to'lmay kelayotgan kemtikni to'latishga intilarding. Otang deganda kungaboqar yuzini quyoshga tutgandek nurlanib ketarding. Shungami, yotib qolishingga bir nima deya olmadim. Axir otang bilan mening oram ochiq, nikoh qog'ozi birlashtirgan edi, yana shu qog'oz bekor bo'lgach, begonalashdik. Ammo bolani ota-onadan hujjat bilan begona qilib bo'lmas ekan. Axir tomiringda otangning qoni gupillab urib tursa, qon-qonga intilib tursa, men nimayam qila olardim, jonim bolam.

Sen ketding-u butun bor-yo'g'imni qimorga boy bergan odamdek kalavlanib qoldim. Qorong'i ham tushdi. Kelib qolarsan, deb kechki ovqatni issiq tutib o'tirdim. Avtobuslar yotgandagina umidimni uzdim. Qani endi ko'zga uyqu kela qolsa. Yumshoq o'rin ba'zida odamga tosh-metindek bo'lib tuyulishini o'shanda bildim, o'g'lim. O'zimcha ota-bola ikkovinglarni gurunglaring qiziyotganini tasavvur qilaman-u, nima gaplar bo'layotganini taxmin qila olmayman. Faqat otang yonida yayrab-yayrab, entikib-entikib gapirayotganingni his qilaman. Hatto, ovozingni eshitgandek ham bo'laman.

Kechqurun qaytmaganingga erta sahar kelib qolarsan, deb nonushta tayyorlab tuz totmay o'tirdim. Choy sovidi, tomog'imdan bir tishlam ham nasiba o'tmadi. Shu kuni dam olish kunim bo'lsa-da, chalg'iy deb ishga bordim. Yonimga borib qolarsan degan o'yda uzun kunni kech qildim. Bormading. Balki uyga kelgandir, magnitofon eshitib o'tirgandir, degan ilinjda uyga keldim. Keldim-u taqdirimga la'natlar o'qidim. Axir sendan haliyam darak bo'lmagan edi-da. Ishga boribam nimayam qilardim, andisha deganlarini bir tomonga uloqtirib, erta bilan uyqularingda bostirib bormaymanmi, men sho'r peshana. Bolasini yuborib, orqasidan o'zi kepti desa, der. Ustimdan kulsa kular. Otangda zig'ircha insof bo'lganda bunday qilmasdi. Jo'natib yuborardi seni. E, unda insof nima qilsin-a? Suvsiz quduqqa chelak tushirgandek gapku bu. Birgalashib boravermaymanmi bunchalik o'z yog'imga o'zim qovirilguncha.

Mana shu azoblar, qiynoqlar haydovida otangnikiga, ha, o'n to'qqiz yoshimda ne-ne umidlar bilan qadam qo'ygan ostonaga yetib bordim, bolaginam. Bordim-u ko'zlarimga ishonmay qotib qoldim. O'sha bundan besh yil burun seni izlab borganimda ko'rgan qulfim qandoq bo'lsa, shundoqligicha osig'liq turardi. Nima, bu odam bu yerda yashamayaptimikan? Shoshib qo'shnining eshigini taqillatdim. Eshikni Navro'z xola ochdilar. Quchoq ochib, ko'zyosh qilib

ko'rishdi bechoragina. Ko'rishyapti-yu nuqul gapiriradi: "Badbaxtgina, sendek xotinni bilmadi-ya. Kelin emas, oltin eding, oltin, shu'laginang shundoq hovlimizga tushib turardi-ya. Sen ketding-u bu joylarniyam chirog'i o'chdi. Boyo'g'lixona bo'p qoldi boyo'g'lixona. Oldingda gunohkormiz qizim, u dunyoyu, bu dunyomiz qora. Insofga chaqirmaymizmi yigit o'lgurni o'shanda, tomoshaqovoq bo'p turguncha"...

Eha, qancha-qancha gaplarni gapirib tashladi Navro'z xola tushmagur. Navro'z xolaga qolsa-yu, shu bugunoq nikohlasa-qo'ysa. "Hay kelin, kecha kechqurun desang, meni ko'rgani o'g'ling chiqdi. Ha, jonim qoqindiq, otasi ikkovi boshlashib chiqishdi. Voy, kap-katta yigit bo'pti-ya. Ishqilib, qilig'i o'xshamasin-u otasining o'ppa-o'ziya. Eringni urishdim. Endi o'g'ilni uylash payidan bo'l, ichovirma battol, dedim. Ering boladek ishshayib kuladi degin, iloya insof bergur".

Bu gaplardan sal o'zimga kelib, yuzimga qon yugurdi shekilli, endi seni so'rayman deb tursam, xolaning kelini gapni ilib ketdi: "Ey, qo'ysangiz-chi oyi, bu bechorani yana balchiqqa botirmoqchimisiz. Avrashingiznichi, agarda o'sha Anvar piyon yetti tug'ib bir qolganingiz bo'lsayam. U allaqachon tamom bo'lgan, odamlilikdan asar ham qolmagan-ku. Sizgayam hayronman, dedi menga qarab, shundoq guldek o'g'ilni nima qilib oldiga yuborib o'tiribsiz. Piyolasidan odam irganadi-yu ko'rmagan bekasi qolmadi buning. Chapagingizni chalib qolmang tag'in!"

Ana xolos, biri bir chelak suv sepsa, ikkinchisi shuncha kerosin sepib o'tiribdi. Bezgak tutgandek tanimga titroq kirib ketdi. Ko'zlarim jiqqa yoshga to'lib seni, otangni so'radim. "Baliqqa ketishdi, bomdodga turganda ko'rdim, shu eringga suvdan tekkanov", — dedi xola. Otang seniyam o'z yo'rig'iga tortganini eshitib, adoyi tamom bo'ldim, o'g'lim.

Voy, bu odamzodning asablari tag'inam chidar-kan-da. Ana kelasizlar, mana kelasizlar bilan tun-

niyam yarim qildim. Daraklaring yo‘q, qo‘shnilarniyam esnoq tuta boshladi. Uydagilar xavotir olib o‘tirishgandir deb bemahalda yo‘lga chiqdim. Baxtinga shu mahallalik odam aeroportga borish uchun taksi buyurtirgan ekan. Uyga keldim. Qani endi hovliga sig‘sam. Tog‘alaring urushgan bo‘ldi. Buving nuqul taskin beradilar. Uydagilarni sal tinchlantirdim-da, o‘g‘rincha ko‘chaga chiqib, yo‘lovchi mashinada yana izimga qaytdim. Seni ko‘rmaguncha, bag‘rimga bosmaguncha dunyo ko‘zimga tor edi, mening baxtim. Shunday ahvolga tushgan edimki, agarda bolang mana shu yoqda deb, munchoqning ko‘zini ko‘rsatsa, o‘sha ko‘zdan o‘tgan bo‘lardim. Onalar mana shunaqa, o‘g‘lim. Ming marta afsuski, otalar bunaqa bo‘lolmaydilar. O‘sha daqiqalarda men mushtiparginani na otang, va na sen o‘ylading? Zang bosgan qulf osilgan darvozaga bo‘zlagancha tikilib qopman. Ishqilib, hech kimning uyiga ham, baxtiga ham qulf tushmasin dunyoda. Qaniydi dod deyishning iloji bo‘lsa-yu nomingni aytib butun dunyoni ostin-ustun qilsam. Yo‘q, buning iloji yo‘q edi, bolaginam. Qarshimda seni yoriltoshdek bag‘riga yashirgan, bir tepsa qulab tushadigan otangning kulbasigina turardi. Kuchim shu yergacha yetgan edi.

Tun salqin tortdimi, shu turishda qanchalar zaif va notovonligimni his qildimmi, etim junjikib ketdi. Endi seni so‘roqlab boradigan na bir uyim, na bir ko‘cham qolgan edi. Yer qattiq, osmon uzoq deganlari mendek bir onaning zori bo‘lsa kerak-da? “Ey, xudo, nimaga buncha xo‘rlanaman? Chumolichalik ham qadrim yo‘qmi?” — deb ko‘kka tavallo qilaman. Osmon to‘la yulduz, jimir-jimir qiladi. Ular ham mana shu ro‘paramdagi kulbadek, zang bosgan qulfddek soqov. Qayerdadir qurbaqa mungli qurillaydi. Nazarimda, hamma tinch, hamma shirin tushlar ko‘rib, bolalarini bag‘riga bosib g‘arq uyquda yotishibdi. Bitta mengina notinch, bitta mengina bedor. Shu payt bir yulduz kun botish tarafga shunday chiziq tortib uchdiki, go‘yo u bolang shu yoqda degandek bo‘ldi. Beixtiyor

shu tomonga intilibman degin. Ammo yulduz qanday uchgan bo'lsa shunday tez o'chdi-yu yana to'rvasini yo'qotgan devonadek bo'lib qoldim. Yulduz chorbog' tomonga qarab uchdiku, balki temir yo'l tomondan kirishib, hovlida uxlab yotishgandir, degan o'yda qorong'i dunyom yorishib ketdi. Bir vaqtlar kalit qo'yiladigan joyni esladim. Qo'limni cho'zsam, turibdi. Qulf ancha tixirlik bilan ochildi. Demak, yo'l o'sha yoqdan ekan-da, darvoza ochilmas ekan-da, degan xayolga bordim. Hovliga olib kiradigan yo'lak qop-qorong'i — zimiston edi. Bir vaqtlar shu yo'lakdan yor-yor bilan kirib kelganimda, qaynotam rahmatlik "qo'sha qaringlar" deb peshonamdan o'pgan edilar. U ham o'g'liga kuya-kuya olamdan o'tib ketdi. Yaxshi farzand suydiradi, yomon farzand kuydiradi, deganlari shu bo'lsa kerak-da, o'g'lim. Eh, bolajonim qaniydi, ota-onaning o'zigina kuya qolsa. O'shanda mana shu yo'lakdan qachonlardir hozirgidek turtinib-surtinib kirib kelishimni bilganimdami, kelinlik libosiniyam otib urib orqa oldimga qaramay, qochib qolgan bo'lardim. Odam qanchalik dono bo'lmasin baribir bu dunyoda ko'rga o'xshab yashaydi. Bir zumdan keyin nima bo'lishini bilmaydi. "Bitta keksa otasi-yu bitta ukasi bor, keng uyning kelinchagi bo'lasan, qayning qaymoqdoshing, qaynotang ota o'rnida otang", — deb meni iydirishgan edi. Xayol boshqa, hayot boshqa ekan, o'g'lim.

Bir amallab yo'lakdan hovliga o'tdim. Dimog'imga yoqimsiz hidlar urildi. Xuddi o'z oyog'im bilan botqoq ichiga kirib borayotgandek, birov ko'kragimdan itarayotgandek bo'laverdi.

Ko'zim olma daraxti tagidagi sim karavotga tushdi. O'sha-o'sha turishi. Yoz kunlari qaynotam rahmatlik yotardilar. Hoziram birov yotgandek ko'rindi ko'zimga. Ha, temir yo'l tomondan kirishibdi-da. Yuragim xuddi qinidan chiqqudek battar urib ketdi. Birdan or-nomusim ustun kelib qolgan edi shu tobda. Bu telbaligimni otang nima deb tushunadi endi? Tun yarimdan og'ib, tong ham otib qoldi shekilli. Voy, men

o'lay, shunchalik shayton vos-vosiga uchamanmi? Yotishibdi-ku, ana. Yo'q, orqaga qaytaman-da, darvoza tagida tong ottiraman. Qaniydi oyog'im o'zimga bo'ysunsa? Seni ko'rmaguncha tasalli topa olmasdim. Aytdim-ku, ona bolam deganda ne ko'ylarga tushmaydi-yu nimalarga qodir bo'lmaydi deb. Qaynotam rahmatlik Nikolay zamonasidan qolgan bir rivoyatni aytgan edi. Bir boyning paxta zavodida er-xotin ishlasharkan. Ularning yo'lga kirib qolgan bolasi ham bor ekan. O'sha bolasini nimayam bo'пти-yu paxta toyi bosib qopti. Shunda ona "dod" debdi-yu haligi toyni bir quchoq paxtadek ko'tarib nariga uloqtirib tashlabdi. Paxta toyimish-a, onalar bolasi deganda butun yeru zaminni ko'tarib tashlashga qodir bo'ladilar. Oyoq uchida sekin-sekin yurib karavot tepasiga bordim. Bordim-u birdan muzladim-qoldim. Oh, tasmollarim yana meni aldagan edi. Shu turishimda kimdir meni dam olovga tutib, dam yaxdek suvga pishib ming bir qiynoqqa solardi. Qo'shyostiқ bo'm-bo'sh, o'rinko'rpa yig'ishtirilmagan edi. O'ylaganimdek, kecha otang bilan birga uxlabsan. Go'dakligingda ham shunaqa eding. Otang o'zini bilmas holda mast-alast kelsayam, qo'yniga kirarding-da, pishillab uxlab qolarding. Shularni bir umr qumsab yashading-da, o'g'lim. Karavot chekkasiga cho'kmoqchi bo'ldim, ko'nglim tortmadi. Shundoq olmaga suyanib, cho'nqaydim. Qayoqda qolishdiykin, nima bo'ldiykin? Yigit bo'lding, deb otang ichirgan bo'lsa-ya, umrida katta suvda cho'milmagan bola cho'milsa-ya... Yo otasi boshqa shaharlarga olib qochib ketdimikan?.. Bilmadim, miyam ishlashdan to'xtadimi, yuragim urmay qoldimi, xayol olib qochdimi, olmaga suyangancha ko'zim ilindimi, hali-hanuz bu jumboqni yecha olmayman, o'g'lim. Men o'tirishga jirkangan sim karavotda yotganmishman. Birov sochlarimni silagandek bo'larmish. Ko'zimni ochsam, marhum qaynotam xijolat tortgandek tepamda turganmishlar. "Tur, qizim, bu o'rinda yotma", — dermishlar. "Nevarangiz uxlasin deb hozirgina cho'zilgan edim", — dermish-

man. “Ha, nimaga ayyorlik qilayapsan, — dermish kulib, — nevaram men bilan yotibdi-ku, uyqu shirinda-a?”. “Yo‘g‘e, hozirgina yonimda yotuvdi-ku, shumtaka, qachon boraqoldi yonizga?” — deb ko‘zim ochilib ketdi. Ha, ha qaynotam mendan ikki qadam narida teskari qarab ketib borardi. Oyoq tovushlari eshitilmas, xuddi soyadek uzoqlashardi. Oxiri, yo‘lakdagi qorong‘ilik ichiga kirib g‘oyib bo‘ldi. U yog‘ini bilmayman, o‘g‘lim meni uyga kim olib kelib qo‘ydi, eslolmayman...

Sen uchinchi kun deganda qorangni ko‘rsatding. Men unda piligi tugagan shamdek so‘nib borardim. Seni ko‘rdim-u dunyoga qayta keldim. Eh, bolajonim, ovqat, yemish deymiz-u unga tuz maza kiritishini o‘ylamaymiz. Hayot, turmush, yashash deymiz-u uning “tuzi” bola-farzand ekanligini ko‘pam bilmaymiz.

Sen kela solib o‘zingni bag‘rimga otding. Yuz-ko‘zlarimdan shundoq yutoqib o‘pdingki, go‘yo men seni yo‘qotib emas, sen meni yo‘qotib, topib olgandek. Go‘dakligingda shunaqa odating bor edi. Qattandir surkalib kelib qolarding-da, yuz-ko‘zlarimdan cho‘lp-cho‘lp o‘pib, yana shataloq otgancha ko‘chaga choparding.

Endi bilsam, sen tug‘ilganingdan beri birinchi marta shuncha kun mendan uzoqlab ketibsan. Sen yana nima deb bag‘rimni nurlarga to‘ldirding, azamatim, o‘shanda: “Oyijon, meni kechiring, eshityapsizmi, meni kechiring, kechirasiz-a? Endi hammasi siz aytgandaqa bo‘ladi”. “Endi” deyishingdan bildimki, otang bilan oralaringdan nimadir o‘tgan. Bu hanuzgacha menga qorong‘i...

Men boyagina alamdanda butun dunyoga sig‘magan bo‘lsam, endi sevinchdan shu dunyoga sig‘mayotgan edim. Shunda o‘tgan uch kun o‘chmas qilib hayotimda o‘z izini qoldirib ketganini sezib qoldim. Buni avvalo sen payqading. Hayrating oshib menga g‘alati tikilib qolding-da:

— Oyi, sochingizga nima qildi? — deding.

— Qaydam, ko‘zguga qachon qaraganimam esimda yo‘q, — dedim.

Sen tokchadagi ko‘zguni olib kelding-da, yonimga uzala tushib yotib boshingni boshimga surib ko‘zguni to‘g‘rilading. Rosti, o‘shanda o‘zimni o‘zim tanimay qoldim, bolajonim! Ko‘zgudan sen-u notanish bir xotin qarab turardi. Xotinning peshanasi qat-qat ajin, lablari qovjirab yorilgan, ko‘zlari ich-chiga tushgan, sochi qordek oppoq edi...

Ha, o‘sha uch kun ichida men hayotdan bir qadar ketdim, omonatga o‘xshab qoldim. Sen bo‘lsa bamisoli o‘sha uch kunda qayta tug‘ilding.

Bu o‘tgan voqealarni zinhor-bazinhor otangdan sovgin deb yozmayapman, o‘g‘lim. Bunday niyatdan uzoqdaman, lochinim. Yozganlarim hayotga endigina kirib kelayotgan sendek bir yigitga yo‘l ko‘rsatarmikan deyapman, mening yo‘lovchi bolam.

8

Shunday qilib, bari men aytgancha bo‘ladigan bo‘ldi. “To‘qqiz, o‘nni davom ettirasan-a?” — dedim. “Ha”, deding qat’iy qilib. O‘shanda men sen tanlagan yo‘lga qarshi turib bekor qilgan ekanman. Buni keyinchalik bilib qoldim. Ammo bilishimgacha, oradan qancha gaplar o‘tib ketdi-yu, bu gaplardan sen bexabarsan. Mana endi eshit, ammo soddaligimdan kulma. Hayotda turli-tuman, turfa-turfa odamlar yashashini bilib qo‘ysang bas.

Sen o‘qishni davom ettirishga qaror berganingdan keyin bo‘yin egib maktabingga bordim. Qarorimizni eshitib, zavuchning fig‘oni falakka chiqdi:

— Nima, sizlarga maktab kaptarxonami, bo‘lmaydi, axir bizdayam tartib-qoida bor. Bolangiz maktabdan chiqarilgan, hujjatlari o‘zi aytgan bilim yurtiga jo‘natib yuborilgan.

Ha, kirar eshigingni o‘zing taqa-taq yopgan ekansan, o‘g‘lim. Tarvuzim qo‘ltig‘imdan tushib, chiqib ketayotsam, tanish farrosh xotinni uchratib qoldim. Dardimga tarafkashlik qilib, eshitib turdi-da:

— Ey, aylanay, bo'lmaydigan ish borakanmi bu dunyoda, magazinda ishlaysiz-ku, — dedi.

— Xo'sh, magazinda ishlasam nima, — degandek unga qaradim.

— Qanaqadir bir matoxni zavuchimiz magazin u yoqda tursin, chayqovchidanam topolmayapti. Bo'ladigan to'yi o'shanga qarab bo'lmay turibdi. Qizi o'shanaqasi bo'lmasa, erga tegmayman, deytoganimish, aylanay, ko'rdizmi hozirgi yoshlarni. Birov nemislarni yurtiga ketayotgan ekan azza-bazza buyurib yubordi. O'shani topib bering, olam guliston. Ha oldingi direktorni ishdan olib tashlashdi, sizga ayt-sam, o'zi direktor bo'lib qoladi, degan gaplar yuribdi.

— Nima ekan u qidirayotgani, — hayron bo'lib so'radim.

— E, men qattan bilay nomini, haligi taraq-turuq mebellari nemislarnikiykan. Ha, esladim, esladim, choyshabi yetishmas ekan, choyshabi. Qurib ketgur bo'yradekkina narsani topolmadi-ya. Anqoning urug'imi deyman o'ziyam.

O'y surib uyga bordim. Gap men Germaniyaga tajriba almashishga borganda singlingga deb olib kelgan choyshab ustida borardi. Ha, bu choyshabni men kattagina pulga olgan edim. Singling uchinchi sinfda o'qirdi. Bitta qizning baxti shu arzimagan narsaga qarab qolgan bo'lsa, bera qolay degan o'y ko'nglimdan o'tdi. Ammo turgan narsa sandiqni turtib chiqib ketyaptimi, atalgan narsa atalganicha tursin, degan ikkilanishgayam bordim. Ammo sening o'qishing yana ko'ndalang bo'lib turib qoldi. Har ikkala barmog'imni tishlasam ham og'rirdi. Xo'p mayli, olib ham bordim, deylik. Poraxo'rmanmi, deb quvib chiqarsa nima qilaman? Tavakkal qildim.

Zavuch qo'ltig'imdagi narsani ko'rishi bilan g'alati bo'lib, yuziga tabassum yugurdi.

— To'yingiz shunga qarab qolgan ekan, — deb choyshabni yozib yubordim.

— Voy-y-y! — uning ko'zlari qamashib ketdi.

— Nemislar yurtiga borganda olib keluvdim, qi-

zimga atab, qizim endi uchinchida o'qiyapti, ungacha xudo poshsho.

— Hay, hali bizda o'qiydigan qizingizam bormi?
— so'radi zavuch quvona-quvona.

— Undan kichigiyam hademay birinchi sinfga keladi.

— Shundaymi, siz meni tang paytda qo'llaysiz-u men qarab turarmidim?!

Rostini aytsam, judayam, ha judayam noqulay bo'larkan. Birovning noqulayligidan foydalanishni aytyapmanda.

Hayot deganlari shunaqa, o'g'lim, biz uning bag'rida xohlagan maqomimizga o'ynaymiz. O'zimiz qo'ygan tuzoqqa o'zimiz ilinib hayotga to'nkab yuraveramiz. Hayot nima, o'g'lim. U bamisoli daryo. Baliq suzolmasa, o'zini-o'zi himoya qilolmasa, daryo aybdor emas-ku?

Ha, keyin nima bo'ldi, deysanmi? Zavuch yelkandan quchib, xuddi egachi-singildek kuzatib qo'ya boshladi. "Xotirjam bo'ling, men sho'ttaykanman, uchala bolangiz ham himoyamda bo'ladi. O'g'lingizni o'sha bilim yurtidan hujjatlarini o'zim oldirtiraman. Medalga bitiradi, mana ko'rasiz".

Bilaman, o'g'lim, xatimni o'qib, o'zingcha g'ijinib qo'yyapsan. Aytdim-ku, onangning soddaligidan kulmagin deb. Axir sentyabrga dovur fikring o'zgarib qolishini men qattan bilay? Kunduzi ishlab, kechasi o'qiydigan ishga kirib ketding-u choyshab ham suv bo'ldi ketdi, na o'rni bo'ldi, na puli. Men seni boshida tushunmaganimni aytdim-ku. Sen boshida qalbingga puch emas, to'q urug' ekkan ekansan. Men tushunmay, unib chiqishiga xalaqit qipman. To'q urug', to'q urug' ekan-da, bir kunmas bir kun o'zini ko'rsatar ekan.

Shunaqa o'g'lim, biz ham farishta emasmiz.

9

Bolajonim, sen javob xatingda yozganlaringizni besabr bo'lib kutamiz, qo'lma-qo'l bo'lib ketadi, dep-

san. O'qinglar, bolajonlarim, o'qinglar. Qiziq bo'lsa, o'qinglar, nafi bo'lsa, o'qinglar. Bular menga o'xshagan minglab onalarning yuragidagi dard. Hamma onalar ham aytolmaydigan yurak azoblari. Shunday deyish bilan ko'nglim tog'dek ko'tariladi. Xatlarim keyingi oylarda ancha kamaydi-a? To'yning taraddudi boshlandi-da, o'g'lim. Shu desang, sarupolar har kuni bir qo'ldan o'tadi. Bilaman, sen mendaqa uzundan uzoq xatlar yozmaysan, yozolmaysan ham. Axir sen jang qilyapsan, jang. Xizimatingni o'z yurtimizda o'tab yurgan paytlaringda uzun-uzun xatlar yozarding. Men o'qib to'ymasdim. Seniyam xatlaring dugonalarim orasida qo'lma qo'l bo'lardi. Ayniqsa, haligi komandiring bilan o'rtalaringda bo'lib o'tgan janjalli voqea haqidagi xat-chi. Keyin Afg'ondan yozgan anovi xating-chi? Gapning rosti, o'sha xatlaringdan keyin, o'g'lim dardlashadigan yigit bo'p qopti, degan xulosaga keldim. Birinchi xatingni eslasam, etim jimirlab ketadi. Qara-ya, senlarni harbiy mashq qildirish o'rniga sovxozda ishlatib, ustilaringdan aysh-u ishrat qilishibdi-ya. Ha harbiydayam shunaqa odamlar bo'larkan-da? Biz bolalarimizni kimlarga ishonamiz-a? Yaxshiyam insoflilar bor. Komandiringning ustidan yuqoriga boplab yozibdi. Yemoqning qusmog'i bor, deganlaridek komandiring oyog'i kuygan tovuqdek tipirchilab qopti. Komandiring sendan boshqalarning barini qo'lga opti. "Sovxozda ishlamadik, harbiy mashq qildik", deydigan qipti. Oxirida navbat senga kepti.

Komandiring deydi:

- Og'ir ahvolga tushib qoldim, serjant.
- Eshitaman, o'rtoq mayor.
- Biz sovxozda ishlamadik, harbiy mashq o'tkazdik, tushunarlimi?
- Tushunmadim, o'rtoq mayor.
- Tushungin-da, axir!
- Bitta men tushunganim bilan boshqalar-chi?
- E, ular nima-yu, mol nima, hamma gap senda qoldi endi.

— Menam o'sha mollar qatoriga qo'shilaymi?

— Gapni qisqa qil, serjant, mana mukofotga tavsiyanomam.

Ko'nglim birdan bo'shashdi, oyijon, axir harbiyda mukofot olish, hazilakam emas-da. Biroq o'ylab qoldim. U meniyam molga aylantirish uchun mukofot tiqishtiryapti. Ko'nglimga kelgan gapni qaytar-madim:

— Tushunmadim, o'rtoq mayor, mollargayam mukofot berishadimi?

— He, g'irt ahmoq ekansan-ku, delovoy bola deb yuribman seni. Ma, o'qisangchi, tavsiyanomani, avliyoyinggayam bunchalik paxta qo'yishmaydi.

— Avliyoga o'xshatganingiz uchun rahmat, men avliyoligimcha qolaman.

Qalay, o'g'lim, xatingni so'zma-so'z yodlab olganimga ishondingmi? Tanishlarimga maqtanib aytib ham yurdim. Ba'zilar tushunishmadi shekilli, ishonishmadi. Ba'zilar: "Bekor qipti, ishi bitguncha eshakni "tog'a" deb turavermaydimi? Harbiyda komandir bilan o'chakishib bo'ladimi", — deyishdi. Ammo ikkovimiz uchun buning ajablanadigan joyi yo'q, to'g'ri emasmi? Men senlarga boshidan halol non yedirishga niyat qilganman. Halollik odamzodni hamisha halol yo'lga boshlaydi. Shu xatti-harakatingni o'zi meni osmon-u falakka olib chiqdi, o'g'lim. Afg'onistondan yozganing-chi... Uyam miyamga shundoq o'rnashib qolgan. Anovi senga asir tushib qaymoqlashib qolgan afg'onistonlik o'zbekning nomi Yo'ldosh edi-a? Qara-ya, soqchilikda turganingda o'zi kelibdi-ya. "Hay yigit, — deпти xarsang panasiga yashirinib, — musulmon bolasimisan?". "Ha" — debsan sen xushyor tortib. "Bunday so'rovga unday javob bermaydilar", — debdi u. "Qanday javob beradilar?" so'rabsan sen. O'sha tomonga qurolingni to'g'rilab. "Hey bola, fe'ling aynimasin, otganimda allaqachon o'ldirib qo'ya qoldim", — deпти u. "Musulmonmisan?" "Ha" — debsan yana jahl bilan — o'zbekman". "Yana ha deysan-a, alhamdulilloh,

musulmonman deyishing kerak, jiyan!“. To‘g‘ri, o‘g‘lim, biz ham bunaqa gaplarni bolaligimizda eshitardik. Ammo buni men senga o‘rgatmagan edim. Bunaqa kalimalarni aytmaydigan qilib tashlashgan edi. O‘ylab ko‘rmaganman-da, vaqtiki kelib, kimdir sen bilan ota-bobolarimiz tilida gaplashishini men qattan bilay? “Gap shu, — deпти u, — asir tushmoqchiman, otmaysanmi?” “Bizda asirlarni otmaydilar, ayniqsa o‘z xohishi bilan o‘tganlarni”.

Shu payt kattakon xarsang ortidan tish-tirnog‘igacha qurollangan, dehqonsifat bir odam chiqib keladi. U qurol-aslahalarini oyog‘ing tagiga tashlaydi. “Endi olib bor, olib borgandayam musulmon boshliqlaringning oldiga boshlab bor”, — deydi. Sen xizmat joyingni tashlab ketolmasligingni, keyin xizmatda turganingda gapirish mumkin emasligini aytasan. U anchagina indamay yer chizib o‘tiradi. Keyin yana seni gapga sola boshlaydi. “Qattansan?” “Toshkentdan”. “Mening ota-onam Farg‘onadan”. “Hey, sen hech odam otdingmi, men hecham otolmadim. Oldin qo‘limga qurol berib: “Savr inqilobini himoya qil”, deyishdi. Qo‘lim tepkini bosolmadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri u yoqqa o‘tib ketdim. U yoqdagilar bo‘lsa, bu yoqqa tashlashdi “din-u islomni himoya qil” deb. Mana, yana ko‘rib turibsan: Qurolimdagi o‘qlar sadog‘idan chiqqani yo‘q, bus-butun. Axir men qandoq qilib odam o‘ldiray. Bir bechora po‘stindo‘z bo‘lsam”.

Bir mahal asiring o‘rnidan turib soylikka qarab tusha boshlabdi. “Ha, qayoqqa?”, — debsan hayron bo‘lib. “Tahorat olib, peshinni o‘qib olay”. Shu payt komandiring seni almashtirishga odam boshlab kelib qolibdi. Haligi bechorani nomoziniyam o‘qitmay kerak joyga haydab ketibdi. U bo‘lsa senga: “Tushuntirasana, otishmaydi-a?” — dermish.

O‘sha odamga juda achinib ketganingni yozasan. Bunaqa arosatdagi odamlar judayam ko‘p, deysan. Bir qarasangiz, galasi bilan u tomonga o‘tib ketishadi, bir qarasangiz bu tomonga o‘tib kelishadi. Odam o‘ldirishga qo‘li bormadimi, ular haqiqiy odamlar,

oyijon, deysan. Bekordan-bekor ikki o'rtada elanib o'lib ketishyapti, deb kuyunasan. Bundaylarni e'tiqodsiz, qo'rqq, xoin deb o'ligidanam hazar qilishadi. Biz kimmiz, biz nima qilib yuribmiz bu yerlarda, deya fig'oning falak bo'ladi, jonim askar o'g'lim. Oh, azamatim. Bu savollaringga xatoni qilib qo'yganlar javob bersin. Faqat men ona bo'lib shuni aytishim mumkin. U ham bo'lsa, o'z ona yurtini himoya qilgan, kerak bo'lsa jonini bergan farzand bilangina faxrlana olaman. Boshqa onalarni bilmadim-u men shundayman. Ana ko'rdingmi, o'g'lim, bu masalada ham o'ylarimiz bir joydan chiqdi. Ishqilib, yomon kunlarning yuzini teskari qilsin. Tezroq kel o'sha yoqlardan bag'rimga bosay.

10

Bolajonim, omonmisan. Ikki o'rtadagi otishmalar to'xtaganini eshitib yuragingga yorug'lik kirdi. Ishqilib, insof bergani rost bo'lsin. Shu o'rinda men ham sening yuragingga yorug'lik solsam, deyman, o'g'lim. Kecha qiziq bo'ldi, degin. Nazarimda, senga munosibroq bir qiz topgandekman. Kim ekan u, deysanmi? Shoshilma, o'g'lim, hozir barini boshidan aytib bera-man. Ishga bormaydigan kunim edi. Kechroq yotib, uxlab qopman. Shu katta tog'angning qizi tushmagur judayam ko'zga yaqin bo'lgan-da. Har ko'rganda ko'nglim bir sust ketardi, degin. Biroq bir hovlida katta bo'lishgan, qandoq bo'larkin, degan istihola bor edi menda. Shu desang, Guliginam sahar-mardondan menga sumalak ko'tarib kepti-da.

— Voy-y-y, ammajon, haliyam uxlab yotibsizmi? Biz bo'lsak bugun bittayam uxlamadik. Sumalak pishirib chiqdik. Rosa o'ynadik, hovlimiz to'y bo'p ketdi. Nimaga bormadiz-a, deb tepamda chuldirab turib opti. Esingdami, o'g'lim, chopqillab yuradigan paytlaringda ikkoving meni talash-talash qilardilaring. Biring qo'yib, ikkinching yopisharding. Biring suydirsang, ikkinching suyarding. O'sha paytlarni eslab Guliginamni bir bag'rimga bosgim kelib ketdi.

— Kelaqol, uyqudan qolgan bo'lsang, yonimda mizg'ib ol, — dedim. Bag'rimga boladek singib ketdi. Shunda birdan bir nima chaqqandek seskanib tushsa bo'ladimi?!

— Voy o'lay amma, — dedi u bir menga, bir yostiqa qarab.

— Ha, — dedim.

— Nima bu? — deb yostiqa jirkangandek ishora qiladi, degin.

— E, bumi, — deb qotib-qotib kulibman, — o'ta-kamni yording-ku, do'xtir qizim. Bu Sher akangning yostig'i, harbiyga ketgandan beri g'ilofini yuvmayman, hidi ketib qoladi deb. Jonim qizim, shunaqa!

— Meni, qizim, demang. Jiyan deyavering, o'sha yaxshi, — dedi nimagadir ginali yo'sinda.

— Balki zamonning zayli bilan qizim bo'lib qolar-san-a?

— E, dedi-da, boshini ko'ksimga bosib, yelkandan mahkam quchoqlab oldi.

— Nima, qizim bo'lging kelmayaptimi?

Guli “yarq” etib menga qaradi-da, boshini yostig'ingga bosib, yuz-ko'zini berkitib oldi. Ishoramga tushunib qoldi, shekilli. Sochlarini silab erkalay boshladim. Gulining bo'lsa hiqillab yelkasi ucha boshladi.

— Senga nima bo'ldi, a, nima bo'ldi, yig'layap-sanmi?

— Sher akam bilan harbiyga ketmaslaridan oldin pom chiqqan edik, hozirgacha pommiz.

Guli yig'lardi, men kula-kula uni erkaldim. U xo'rsina-xo'rsina oxiri uyqu zo'r chiqdi shekilli, boladek pishillab uxlab qoldi.

Bu qanaqasi bo'ldi, aqlligim, buni sendan kutmagan edim-ku. Guli pom chiqib yuradigan qizmi? Oh, uni oppoq xalatlarda hamshira bo'lib yurishini ko'rsang edi? Istaralikkina, do'mboqqina, sochlarini menikiga o'xshatib orqaga tashlab yuradi. Sen unday qilma, yigit kishisan. Yarash, xat yoz, bu yil o'qishni bitiradi. Yana oldingdan oqqan suvning qadri yo'q bo'lmasin. U: “Xat yoz desayiz, yozvoraman”, —

dedi. Men: “Unday qilma, qizlik g‘ururingda tur, Sherning o‘zi xat yozadi”, — dedim. Bolajonim, Gulining suvratini yuborayapman. Yaxshi qiz mahalladan, qarindosh-urug‘dan ortmaydi. Sarupolarni Guliga moslab tiktiraveraymi, azamatim?

11

Bolajonim, bu gaplarni senga yozish, yozmaslik haqida ko‘p o‘yladim. Axir hayotda aytadigan gaplar bo‘ladi, ichingga yutib ketadigan gaplar bo‘ladi. Biroq sen fotiha haqidagi xatimni o‘qigach, adang bilan qiziqib, sog‘-salomatmikanlar, bir-ikki tushimda ko‘rdim, debsan. Bu savollaringga javobni qandoq topdim ekan, deb turuvdim, xudoning o‘zi mushkulimni oson qildi.

Haligi esingdami, hovlining o‘ng tomonida qo‘shni bo‘lardi. O‘sha qo‘shnining kelini uch qizdan keyin o‘g‘il tuqqan edi. O‘sha o‘g‘liga sunnat to‘yi beradigan bo‘libdi. Seni to‘yingda uncha-muncha qarzdor qilib qo‘yishgan edi. Xijolat bo‘p yurardim. O‘sha qo‘shni to‘yga aytib ketibdi. Bordim, to‘y bahona otangniyam bilib, senga javob xati yo‘llay dedim.

Tanish-bilishlar ko‘rib, hol so‘rashdi. Esalaridan chiqarishmapti, hali-hanuz baraka topkurlar. Turmush qilmapsiz, haliyam bag‘rimizga kela qoling, eringizam ichkilik orqasidan abgor bo‘lib, o‘tir desa o‘tiradigan bo‘lib qolgan, deb u chekka, bu chekkadan gapira ketishdi. Qani endi gapning nishobi o‘zgara qolsa? Qaytaga battar avjiga chiqaverishdi. “Bir nima bo‘lsa, otamlab, bola-chaqalaringiz ko‘madi-da, aylanay”.

— Hah, dedi to‘y egasi gapni cho‘rt kesib, bolalari endi ko‘zlaringizga ko‘rinib qoldimi, bir tiyini kuydimikan u so‘xtasi sovuqning. Bolani kim azobini tortsa, rohatini o‘sha ko‘radi, ko‘mishmish-a?!

— Voy, bolajonimey, bu xotinlar bunchalik farosatsiz bo‘lishmasa. Shu gaplarsiz ham to‘kilib turgan yuragimni bunchalar siqishmasa. Nahotki qo‘llaridagi g‘iybat savag‘ichining bir uchi mengayam tegayotgani bilishmasa. Axir ming qilsayam u senlarning otang,

etni tirnoqdan ajratib bo'lmaydi-ku. O'zlaricha meni ko'kka ko'targanlarimi bu?!

— Sizlarga aytsam, dedi to'y egasi, gapning kattasi bu yoqda degandek tomoq qirib. — Sizlarga aytsam, u allaqachonlar odamgarchilikdan chiqib bo'lgan. Shu desanglar kamqonlik kasaliga yo'liqib qoldim. Undan qo'shnim, deb bir qoshiq issig'imni ayamasdim. U bo'lsa qonini menga pulga sotdi-ya...

Bor gap shu, o'g'lim, sendan yashirib nima qilardim. Bu sabil qolgur aroq irodasi bo'shlarni mana shunaqa qilib tugatar ekan-da, bir chekkadan yemirib. Bu xatgayam nuqta qo'ydim, mening irodali, sabr-toqatli o'g'lim.

12

Bolajonim, qattanam qo'shnimizning to'yiga bordim. Qattanam otangni so'rab-surishtiray dedim. Dasturxonni tuzab, Sabohatdan berib yubora qolsam bo'lmasmidi. Mana endi otangning ahvolini eshitib, ungayam kuyib o'tiribman. Nahotki bir gap bo'lsa uni ko'madigan odam topilmasa. U dunyoga nimaga keldi-yu, nima deb ketadi? Qaysi gunohlariga shu ko'yga tushdi u? Bizni xo'rlagani uchunmi? Agarda shuning uchun bo'lsa, biz u kishidan rozimiz. U mehr-oqibat ko'rsatmadi, biz ham ko'rsatmaymiz, deyishimiz insofdan emas. Agarda hamma shunday qilaversa, odamzodga allaqachon qiron kelgan bo'lardi. Oxiratni unutib qo'yish odamni ne kuylarga solishini o'sha to'y kechasi o'ylab ketdim. Qaynotam rahmatlik judayam xoksor odam edi. Bir kaft tuproqdan o'n kaft nasiba terib olardi. Ikkala o'g'lini yoniga olib chunonam bo'yinlarini ishga egishga tirishardiki, qani endi ular bundoq egilishsa. Dam olish kunlari-ning birida otangni javray-javray baliq ovidan olib qoldim. Qulupnayni o't bosib ketgan edi.

— Xo'p, boboy, — dedi otang bugun baliq oviyam sabil qoldi degandek og'rinib, — qo'lni qadoq qilish kerak bo'lsa, qilamiz-da. Lokin jaziramada ishlashning o'zi bo'lmaydi-da. Pivosi qurgur terlab turganda

ja ketadi-da. Ozroq dehqonchilik daromadidan cho'zasiz-da, endi.

— Shunchalik dedingmi, shunisigayam shukur, insof bergani rost bo'lsin, — deb qo'ynidan pul chiqarib berdilar.

Amaking ikkita shisha ballonni olib ko'chaga zing'illadi. Qani endi otang ha deganda ishga tusha qolsa. U yoqqa ship-ship o'tadi, bu yoqqa ship-ship o'tadi. Bir mahal pivoyam keldi. Ish qayoqda, aka-uka qoq baliqni o'rtaga qo'yib, “sen ich, men ich”ga tushib ketishdi. Qaynotam sho'rlik bitta ketmon uradi, to'rt bukiladi. Chidab turolmadim, o'g'lim.

— Insof bormi o'zi senlarda, odam bolasimisanlar? — deb “sen-sen”lab yuboribman.

— Kir uyga, ota bizniki, senga nima yo otamga tekkanmisan, — deb o'shqirdi otang.

Qaynotamning ham sabr kosasi to'lib turgan ekanmi, ketmonni otib urdilar-da, shahd kelib stolni pivomivosi bilan ag'darib yubordilar. Quturgan o'g'illar otaga tashlanib qolishsa bo'ladimi?! Dod solib qo'shnilarni boshimga to'pladim. Otani bu notavon o'g'illar panjasidan zo'rg'a qutqarib olishdi.

— Ayb o'zimda, — deb ho'ng-ho'ng yig'lardi qaynotam sho'rlik. — O'z qo'lim bilan harom narsaga pul berdim, shunga yarasha xudo meni jazoimni berdi.

Bechoragina shundayam o'zini gunohkor deb bildi-ya.

Ko'rdingmi, o'g'lim, faqat o'zini o'ylash, aysh-u ishratga berilish, hatto, padarga qo'l ko'tarishgacha olib borar ekan. Mayli, nima bo'lsayam biz otangni himoyamizga olamiz. Tosh otganga osh otamiz. Bu ham bir sinov, o'g'lim.

13

Bolajonim, oldingi xatimda otangni himoyamizga olish haqida gapirdim-u, o'ylanib qoldim. Sen-ku, hartugul, otangga jon tortib turasan, singling-chi, ukang-chi? Eslarigayam kelmaydi. Ukang-ku, mayli, axir singling otasini biladi-ku. Ammo singling bugun-

erta yorug' jahonni ko'ray deb turganda bir xunuk ish bo'lgan, o'g'lim. O'shandayam qaynotamga jonim achib, tilimga kelib qolgan gapni qaytara olmagan edim. "Keksa odamni nimaga ayamaysiz, ertaga o'z bolangizdan o'n chandon, yuz chandon bo'lib qaytadi", — deganimni bilaman, yuzimga tarsaki tortib yuborsa bo'ladimi? Qara-ya, ikki yo'l o'rtasida turgan edim-a? Ertasigayoq yuzimni ko'kartirib tug'ruqxona-ga ketibman. Ammo taqdir meni shunday siyladiki, tarsaki azobiyam esdan chiqdi. Shu bolamning qiz bo'lishini shunchalar orzu qilgandimki, asti qo'yaverasan. Qiz bola onaga yaqinroq, dardkashroq bo'ladi-da. O'shanda bilasanmi, o'g'lim, tarsaki tushgan yuzimni xuddi otangning qo'lini silagandek silabman. Nima qilgandayam u qizimning otasi-ku. Qo'l ko'tarishga majbur qilganim uchun kechirim ham so'rashga tayyor edim.

Biroq otangdan darak yo'q edi. Na ikki enlik xat, na bir dasta gul, degandek. Jimjit. Hatto tug'ruqxonadan chiqadigan kunimiz ham kelmadi. Uyga olib ketishga taraddudlanib buvinglar kelib qoldilar. Otangdan bo'lsa darak yo'q. Bo'lmasa xabari bor ekan. Onamning ko'zlari darvozada: "Kelib qolar, biron yerda ushlanib qolgandir-da", — deb meni yupatgan bo'ladilar. Bu paytda nechtaning eri gul ko'tarib kelib, xursandchilik bilan bolasini bag'riga bosib chiqib ketishdi. Biz bo'lsak nima qilishimizni bilmay, bir chekkada mo'ltirab turardik. Oxiri chiday olmadim:

— Oyijon, nima o'zimiz yo'l topolmaymizmi, shunchalik, — dedim.

— Ha-ya, izzattalab bo'lib turishimizni qara, ketdik, bolam.

Uyga borsak, darvoza qulf, sizlar buvingnikida edilaring. Kalitni topib hovliga, deraza orqali xonaga kirdik. Qaynotam kelib qoldilar.

— Bormadimi, badbaxt, qo'lga pul beruvdim, qizingni olib kelgin, deb.

Xavotir ola boshladim. Nima bo'ldiykin?

Qaynotamning pul berdim, deyishlaridan, puli yo‘q ekan-da, bechoraning. Shunga mening oldimgayam ko‘rgani borolmapti-da. Maosh olishiga yana o‘n kun bor, hali. Bu taxminlar yuragimga chiroq yoqdi-yu, bir oz qaddim ko‘tarilgandek bo‘ldi. Biroq, nimaga bormadi, qatta qolishi mumkin?

Bir mahal otang ko‘chadan gandraklab kirib keldi. O‘n kuncha avval tarsaki tushgan yuzim qayta lovlulab yondi. Ha, qayta tarsaki tushgandek bo‘ldi.

O‘sha kundan boshlab befarq bo‘ldim-qoldim. Ha, muzladim, o‘g‘lim, muzladim. Otang o‘shanda bira-to‘la hamma narsaga tarsaki tortib yuborgan ekan-da!

Men bir narsaga hayron edim. Singling esini taniy boshladiyamki, otangga talpinmasdi. Go‘yo o‘sha tarsaki mening emas, singlingning yuziga tushgandek. Aslidayam shunday bo‘lsa-chi? Axir ona bilan bola bitta tana-ku. Sutdan o‘tmaydi deysanmi, o‘tadi o‘g‘lim, o‘tadi. Mana shunaqa nozik tomonlarga ehtiyot bo‘l, ayol kishiga hech qachon qo‘l ko‘tarma, mard bo‘l!

14

Rahmat, o‘g‘lim. Guli bilan yarashibsan. Xat jo‘natibsan. Boshim ko‘kka yetdi. Avvaliga Guliga xat kelganidan xabarim yo‘q edi. Biroq Gulisi tushmagur ilgarigidek yopishmas, o‘zini allanechuk tortib qolgan edi. Yuragimga boshqacharoq shubhalar o‘rmaladi, degin. Axir ammajonlab bag‘rimga kirib ketadigan qiz birdaniga sipo tortib qolsa, hayron bo‘larkansan-da. Kelinoyingni aytmay-sanmi, yarashmaydigan, ortiqcha mulozamatga o‘tib qopti. “Ha, — dedim, — bu qanaqasi, yarashmagan qiliq”. Kelinoyim qandaydir entikish bilan shkaf g‘aladonini ochdilar. Xuddi qimmatbaho narsani ushlagandek qilib bezaklangan xatni menga tutdi. “Sherdan”, — dedi u g‘urur bilan. Qaraya, topgan otkritkangni, yam-yashil maysalar ustida nikoh uzugi dumalab boryapti. Bir qarasang bitta, sal qiyrixon qilib qarasang, ikkita bo‘lib ko‘rina-

di. Shu bir parcha qog'oz orqali bari gapni muxtasar aytib qo'yaqolibsanda, bolajonim.

— Qarang-a, katta bo'lishibdi-ya, umrimiz o'tibdi-ya, — dedi kelinoyim yengilgina xo'rsinib. — Kechagina shu hovliga kelin bo'lib tushmapmidim, siz nozik nihol qizaloq edingiz. Sochingiz biram uzun edi. Guliniyam sochi sizga tortdi.

— Ilohim baxti o'xshamasin, — dedim shoshapisha.

— Taqdir qilgan bo'lsa, Sher yaxshi yigit. Hozir sinashtaroq yigitniyam, qizniyam topish qiyin. Sizniki meniki, meniki sizniki, yaxshi yomoniyam o'zimizniki...

— Shu deyman, gaplaringizga qaraganda, quda bo'ladiganga o'xshab qoldik-ku, a, — dedim o'zimni jo'rttaga quvlikka solib.

— Hah, o'somqchilamay keting-a, qiz qilaman deb bolaginamning yuragiga o't tashlab qo'yan kim? Ammam nimaga shundoq dedilar-a, oldingidek yonlariga borolmay qoldim, deb jig'ibiyron qiz bechora.

— Uyalayotgan bo'lsa — bu qiz bolaning husni, tushunsa bo'ladi, siz nimaga bunday qilyapsiz? To'rt qavat ko'rpacha soling, parq-u bolish qo'ying, ilgari taqir yerdayam o'tirib ketaverardim-ku, endi... Bunaqasi ketmaydi, quda-andalik begonalarni yaqinlashtirsa, bizni uzoqlashtiradimi? Qo'ying, bunaqa yasama mulozamatlarni. Tezroq to'yning harakatiga tushaylik, — dedim.

Egachi-singil uzoq hasratlashib o'tirdik. O'tgan kunlarni eslashdik.

Bolajonim, odamzod yoshim ulg'aydi, deyoymas ekan. Ayniqsa ayol kishi.

Axir xohlaymizmi, yo'qmi ikkalamizam bir yigit-u bir qizning umrini yashab qo'yibmiz-da. Shuncha yil bolalarni oyoqqa turg'azish bilan o'tibdi. Bu yo'llar ikki ayol uchun ikki xil kechganini hamma biladi, o'g'lim. Kunlarning eng taxirini totib yashash mening chekinga tushdi. Onam yana nolishga tushdilar, dema, yo'q, o'zimcha sabablarini axtarayapman,

o'zimcha Gulini senga yanayam yaqinroq tanishtirmoqchiman. Kulma, o'g'lim. Gulini tanimas ekanmanmi, deb. Tanishniyam tanishi bor-da, aqlligim. Mana, o'zing o'ylab ko'r, Guli ota-ona bag'rida o'sdi, to'g'rimi? Shunday ekan, bolajonim u hayotgayam ana shunday to'la-to'kislik bilan qaraydi. Hayot deganlari bo'lsa unaqa emas, qiridan o'ri, shirinidan achchig'i ko'p. Guli ana shu past-u balandliklar, oddiy sinovlar oldida o'zini yo'qotib qo'yishi mumkin. Sen shu tomonlariga xushyor bo'l. Ziyrak bo'l, bilagidan mahkam tut, bu mashaqqatli umr yo'lida qo'lingdan qo'yma. Yana xuddi ota-onasiga suyangandek senga mutloqo suyanib qolmasin, kerak paytida seniyam suyasini, birga-birga oldinga bosinglar. Qaniydi, oila qurayotgan yoshlar o'zlarining mana shunday past-u baland tomonlarini obdan o'rganib, keyin bir yostiqqa bosh qo'yishsa. Bolalarini yetaklab hali yoqqa, hali, bu yoqqa zir yugurayotgan ayollar kamayarmidi?

15

Bolajonim, singlingning chevarlik bilim yurtida o'qiyotganidan xabaring bor. Qurmagur kecha bir ish qipti, degin. Yodimga beixtiyor komandiring bilan sening o'rtangda bo'lib o'tgan mojarolar tushib ketdi. Qaraysanki, ish komandirning foydasiga bosdi-bosdi bo'lib ketayapti. Yig'ilishda so'zga chiqib: "Komandir nimaga jazolanmayapti, harbiy Ustav buzilyapti, bunaqa komandirlar bor ekan, biz harbiyga ukalarimizni ortiq ishonib yuborolmaymiz", — deb yozganlaringni esladim, o'g'lim. O'shanda safdoshlaring uyqudan bir uyg'ongandek bo'lishgani aniq. Hech bo'lmasa miyalarida bir chaqmoq chaqqandek bo'lgandir. Odam hayotda bir-birining ko'zini ochishi, bir biriga odamligini ham eslatib turishi kerak-da. Bo'lmasa, yaxshi bilan yomonning, halol bilan haromning farqiga borolmay qolamiz.

Ammo komandiringga ham tan berdim, o'g'lim. O'zi ichkilikka o'ch odam sal tantiroq ham bo'ladi-

da. Uni lavozimidan pastlatib, hatto, boshqa joyga itob qilishibdi. U taqdirga tan berib ketaversayam bo'lardi-yu, bari bir yoningga kepti. "Sen yutib chiqding, serjant, biroq bari bir senga achinaman, bitta qoziq bilan daryo to'silmaydi. Hayotning shunday shiddatli oqimlari borki, sendaqalarni chirpirak qilib tashlaydi, chirpirak", — debdi.

Qo'rqma, o'g'lim, hayot komandiring aytganchalik vahshiy emas, kimlarni qanday qilib chirpirak qilishni o'zi biladi. Hayot ham senga o'xshaganlarni qo'llaydi. Hech bo'lmasa o'zi uchun asraydi.

— Xo'sh, singlim nima qipti, deysanmi? Hozir bizda tungi o'n! Ukang ikkovimiz o'tiribmiz. Singlimchi, singlim qayoqda deysanmi? Shuni yozyapman-da, senga, bolajonim. Shu bir haftacha oldin o'qituvchisi azza-bazza ishxonamga telefon qipti. Aytishicha, bilim yurtida ikki guruh qizlar bor ekan. Bir guruhi shahar markazida yashaydiganlar-u ikkinchi guruhi shahar atrofidan qatnaydiganlar. Hammalarini anchagina muddatga fabrikaga praktikaga yozishibdi. Ish ikki smenalik ekan. Shahar chekkasidan keladigan qizlar sarosimaga tushib qolishibdi. Axir ikkinchi smenadagilar uylariga qandoq yetib boradi? Shunda singling shahar atrofidan keladiganlar birinchi smenaga, shahar markazida turadiganlar ikkinchi smenaga kelaqolsin, degan taklifni aytibdi. "Hozir bir-birimizni qo'llamasak qachon qo'llaymiz", deпти. Biz xohlamaymiz, ikkinchi smenada ishlashga, degan qizlar bo'пти. "Xohlamaganlarni majbur qilamiz, insofga chaqiramiz", bo'sh kelmabdi singling. "Hadeb bizga qula-yu boshqalarga noqulay bo'laveradimi?" Hamma narsa ostin-ustun bo'lib ketibdi. O'qituvchilar tomonidan tuzilib, tasdiqlangan ro'yxat-u tartiblar bekor qilinibdi. Yangi ro'yxat tuzilib, yig'ilishda tasdiqlanibdi. Mana shunga o'qituvchisini fig'oni falak bo'lib telefon qilgan ekan. Singling bilan g'ururlanib ketdingmi, o'g'lim? Menam g'ururlandim. Insof degan narsa bor-da, axir. Uni hadeb oyoq osti qilaverish yaxshimas. Bu bilan singling Amerika ochmadi, to'g'rimi o'g'lim? Shunchaki insofni, diyonatni himoya qildi.

Hay, soat o'n bir bo'lib qopti-ku, singlingdan hali-gacha darak yo'q. Men qaray-chi...

16

... Bolajonim, boshlab qo'ygan xatimni o'n kundan keyin davom ettiryapman. Ko'p ko'ngilsiyohliklar bo'lib o'tdi, sirdoshim. Ey, bu dunyo deganlari tushunib bo'lmaydigan sirli olam ekan. Menga qolsa, bo'tana suv derdim. Ko'zga ko'rinmas qat-qat devor, desayam bo'ladi.

Qaniydi qaysi muyulishda seni nima kutib turgani-ni oldindan bilishning iloji bo'lsa.

O'sha kuni singlingdan xavotir olib hovliga tushdim. Hammayoq yop-yorug' ko'nglim sal yorishdi. Chiroqlar charaqlab turardi-da. Faqat ikkita to'qqiz qavatli binoning oralig'idagi yo'lakkina qorong'iroq edi. Singling shu tomondan yurguvchiydi. Beixtiyor shu yoqqa yura boshladim. Yuragim bejo urib, qadamim o'zidan-o'zi tezlashaverdi. Shu payt birov menga qarab yugurib kelayotgandek bo'laverdi. Oh, onaizorning sezgisi qarshisida hamma sezgi mashinalariyam ip esholmasa kerak. Bo'g'zimdan "Sabohat!" degan hayqiriq qanday otilib chiqqanini bilmay qoldim. "Oyi-jo-oon!". Ha, ha Sabohatim, yolg'izginam, xuddi o'zi. Menga yetay deganda qanotlarini yozib yiqilib tushdi. Jon holatda bag'rimga oldim. Vujudi o'q yegan qushchaday titraydi. Yig'laydi, ovozi chiqmaydi. Tili aylanmaydi. Bir mahal, "Sher akam u yoqda, Sher akam" deb, qorong'ilikni ko'rsatsa bo'ladimi. A, dedim-u, Sabohatni bag'rimdan qo'yib, o'sha tomonga intildim. Chiroqning olachalpak nurida bir nimaga turtinib ketdim. Qarasam, birov harbiy kiyimda yuztuban yotibdi. Uni shundoq bag'rimga oldim-u Sher! deb nola chekkanimni bilaman, u yog'i yodimda yo'q.

Men bu yoqda bo'lsam, u yana qanaqa Sher bo'ldi, dersan? Eh, o'g'lim, shu haqiqat deganning burni doimo qonab yuradi-da. Birovga yaxshilik qilish qanchalik qiyin-a? Singling o'sha kuni yomon bolalar

qurshoviga tushib qolibdi. Yo'lovchilar o'tib-ketib turganmish yana. Bezorilarning biri pichoq o'qtalib, boshqalari gapga solgan bo'lib, taqinchoqlarini yechib olishibdi. Shu payt harbiydan otpuskaga kelayotgan yigit shu to'dadan joy nomini so'rayman, deb yaqinlashadi-mi? Axir yaqindagina hovlilari buzilib uydagilar shu yoqqa ko'chib o'tishgan ekan-da, bizga o'xshab. Singling harbiy kiyimdagi yigitni ko'rishi bilan: "Sher aka!" — deb baqirib yuboribdi. Ikki o'rtada olishuv bo'p ketibdi.

Qara-ya, ikkita to'qqiz qavatli binodan birov "hay" deb chiqmapti-ya! Yana ur-yiqit shundoqqina o'sha jangchi bolaning uyi ro'parasida bo'layotganiga nima deysan? Yigitning ota-onasi birinchi qavatginada turarkan. Televizorga andarmon bo'lib o'tirishgan ekan. Axir bu binodagilar yaqindagina Qoratosh, Chaqar tomondagi mahallalardan ko'chib o'tishgan-a. Bu mahallalarga yo'lto'sarlar u yoqda tursin, sal bejoroq odamning o'zi qadam bosa olmasdi. Odamlari shunaqa salobatli, qadim mahallaning odamlari edi. Nima, ko'p qavatli uylarning odamlari shunaqa til-jag'siz, parvoyifalak bo'lib qoladimi? Yo madaniy uylarga ko'chib o'tdik, bo'lar-bo'lmasga aralashaverish madaniyatsizlik deb o'ylasharmikin? To'qqiz qavatli birgina binoning o'zida butun boshli mahalla yashaydi-ya. Odamlar bir yerga jam bo'lsa, mehr-oqibat ortishi o'rniga teskarisi bo'larkan-da. Yo beton uylar odamlarning yuragini o'zidek muzga aylantirib qo'yarmikan?

Shunday qilib, o'sha yigit bilan bitta kasalxonaga tushib qoldik, o'g'lim. Ikki joyidan pichoqlashibdi yashshamagurlar. Kun issiqligi uchunmi yigit dardni og'ir ko'tardi. Tinimsiz qon quyishdi. Qarindosh-urug'imiz bilan qon berib turibmiz. Har kuni toliqqanimcha tepasida o'tiraman. Ammo ota-onasi g'alatiroq odamlar ekanmi, tushunolmadim. Tasodifdan emas, nuqul bizdan ko'radi, degin. Kecha yigit xiyol o'ziga keldi. Og'zidan chiqqan gap shu bo'ldi: "Qiz qani?" Bugun Sabohatni olib bordim. U

singlingga tikilib turdi-da, yuzlari birdan yorishib ketdi. Bu yigitning sog'misan, omonmisan, seni himoya qila oldimmi, degani edi shekilli. Singling ham: "Tuzukmisiz?" dedi-da, uyalganidan yuzi lo'lov yonib, nima qilishini bilmay turib qoldi. Yigit birdan ko'zini yumib oldi-da, jim bo'lib qoldi. Qo'rqib ketdim, xuddi yigit singlingga ilhaq bo'lib, jon uzolmay yotgandek.

Ko'rdingmi, singlingning dugonalariga qilgan yaxshiligi qanday sinovlarga olib keldi. U hamma qatori birinchi smenada ishlayverganida, kech qolmasdi, anovilarga yo'liqmasdi, bu sho'rlik yigit ham eson-omon uyiga kirib kelardi. Ishqilib, yigit yashab ketsin-da. Bo'lmasa, singlingning or-u nomusi bitta yigit joni evaziga saqlab qolingan bo'ladi-da. Bu dardni qandoq ko'tarib yashaydi odam? Balki aslida ham shundaydir-a, o'g'lim. Or, nomus, insof degan pokiza tuyg'ular avvalo boshi Xudo, qolaversa mard yigitlar, otalar pushti-panohida yashab yursa kerak-da, a?

17

Shunday qilib, o'g'lim, fikr-u yodim askar yigitda bo'lib qoldi. Do'xtirlar aytishadi-ku, haligi nimaydi hah tilimning uchida turibdi "krizist". O'sha haliyam davom etayapti-da. Yigit har zamon, har zamonda o'ziga keladi. Yana o'sha savol: "Qiz qani?" Yigitning ota-onasini bo'lsa bizni ko'rarga ko'zi yo'q. Hatto, "bitta megajinni deb..." qarg'anganini ham eshitib, eshitmaslikka oldim. Ota-onaga oson tutib bo'ladimi? Axir o'shanda o'zim ham yigitni sen deb o'ylab o'zimdanda ketib qoldim-ku. Tavba, xuddi Hasan-Husanga o'xshaysizlar-a?

Singling ham qattiq qo'rqqan. Har qalay o'tib ketadi, deyishayapti. Hatto, anovi bezorilarni tuzukrog'am istashmadi. Uchastkovoy bo'lsa, singlingdan: "Ko'rsang, taniysanmi?" deb so'rabdi. Shuyam gap bo'ldi-yu, unaqa paytda tanib qolish odamning xayoliga kelarkanmi? Odamni faqat joni ko'ziga ko'rinadi-yu. Yigitning sog'ayishini kutishyap-

ti. Bir-ikkita shubhali bolalar bor ekan, yuzlash-tirisharmish. Bu gapdan keyin battar o'takam yorildi degin. Yigitning yotgan joyida payiga tushib qolish-masmikan deb.

Mendan yigit uchun qon olmay qo'yishdi. Qaytanga o'zimga qon quyish kerakmish. Ammo lekin do'xtiri tushmagurlar bitta noo'rin gapni bekor aytish-di-da. "Bolaning xirsdek-xirsdek ota-onasi bor ekan-u, hali bolam deb bir tomchiyam qon berishgani yo'q". Yigitga jonimni ko'chirib o'tqazsangiz ham roziman, u mening bemorim, dedim. Yakka-yu yolg'izimni qutqarib qoldi axir.

18

Bolajonim, butun dunyo ko'zimga boshqacharoq ko'rinayпти. Ha, ha, yorug'roq, yorqinroq. Yigit ko'zini ochdi, ha, ha, muz ko'chdi, Xudo xohlasa. Buni nimadan bildim, degin? Yigit tushmagur singlingdan "yaxshi ko'rganing yo'qmi?" deb so'rabdi. Singling bo'lsa bu gapga jahl qilib, xayr-ma'zurniyam nasiya qilib jo'nab qolibdi. Singling azza-baza: "meni kim deb o'ylayпти", — deb yigitdan o'pkaladi. Yigit nimaga dabdurustdan bunday dediykin, tushunmadim. Borsam, yigitning onasi o'g'lining yonida o'tirgan ekan, menga bir g'alati qarash qilib, chiqib ketdi. Yigitning yuziga sog'lomlik qoni yugurgan, meni jilmayibgina qarshi oldi. So'rashdim, senikiga o'xshagan jingalak sochlarini silab-siypaladim. U bo'lsa kaftimga peshanasini tutib turdi-da, allanechuk xo'rsindi.

— Ha, Ulug'jon, nima bo'ldi?

U norozidek yuzini devor tomonga o'girdi-da:

— Qizingizni xafa qilib qo'ydim, — dedi.

— O'g'lim ikkitaydi, siz bilan uchta bo'ldi, qizim bilan endi aka-singilsizlar, shunday bo'lgach, nimaga xafa bo'larkan, sirayam xafa bo'lmaydi-da. Bu gaplarimdan yigitning chehrasida hech bir o'zgarish bo'lmadi, qaytaga tundlashib qoldi.

— Balki qizingiz o'rniga o'zingiz javob berarsiz,

yoqtirgan yigiti yo'qmi, qizlar oyilariga sirlarini aytishadi-ku.

Nahotki, nimalar deyapti bu yigit? G'alati bo'lib ketdim. Yigit mendan javob kutib, hayajonlanardi, yuragi bezovta urayotganini shundoq ko'rib turardim. Chakka tomirlari bo'rtib, yuziga qizillik yugurgan edi yigitning. Eh, yoshlik, yoshlig-a! Xuddi kitoblarda yozilgandek bo'lib qoldi-ku bu yog'i.

— Qizimning siz himoya qilib qolgan sha'ni hurmati aytamanki, Sabohat hali hech kimga tishining oqini ko'rsatmagan.

Yigit “yalt” etib menga qaradi. Yuzida “o'zim ham shunday deb o'ylovdim” degan bir ifoda, ha mamnunlik paydo bo'ldi. Odamzod baxtiyor damlarida yanayam chiroyli bo'lib ketadi, deganlari rost ekan. Ulug'jonning ko'pdan qirtishlanmagan qop-qora soqollari tovlangandek yaltirab ketdi. Ko'zlariyam allanechuk yondi. Lablari birov ataylab kuldirayotgandek yoyilib-yoyilib ketdi. Sezib turardim, bolajonim, sezib turardim bu yosh ko'ngilning, ilk sevgining mavjlanishlari edi. Oh, bilmadim, bilolmadim buni Sabohat qanday qabul qilarkin. Bu yog'i qiziq bo'ldi-ku. Yigitning ota-onasi bunga nima derkin? Ular na menga, na singlingga ro'yxushlik berishadi. “Hali bevarisiz”, — deb yuzini oshkora burgan edi bir kuni dardlashib qolganimizda onasi. Odam qurigandek men bevarning ham qizini yaxshi ko'rib qoladimi, yigit tushmagur. Bosh qotgandan qotdi-ku, o'g'lim.

Shunaqa boshim qotib yurganda dugonalarimdan biri mehmondorchilikka chaqirib qoldi. Bilasan, er-xotinliklar borgan joyga men bormayman. Anovi men bilan birga ishlaydigan Huriyat opa boridi-ku, o'sha chaqirtirgan edi. Uyam menga o'xshagan yolg'iz. Bitta-yu bitta qizini yemay yedirib, kiymay kiydirib o'n to'qqizga kiritgan edi. Erkak zotidan judayam nafratlanardi. Nechta odam turmushga chiq, deb o'ziga odam qo'ydi, bo'lmasa. Shu paytgacha yo'q deb keldi. Ha, u o'z g'amini dasturxon qiladiganlardan emasdi. Borsam boray, bir yozilib

kelarman, degan o'йда ko'chaga chiqdim. Yo'l-yo'lakay yana uchta dugonamni uchratib qoldim. Ularam shu yoqqa borishayotgan ekan. "Bu sirli chaqiriqdan bir sir bor, erga tegmoqchiga o'xshaydi", deb kulishdi ular. "O'ldimi, qizining bo'yi yetib turibdi, shuni biron joyga unashtirmoqchidir", — dedim, og'izlariga urib. "E, topdim", — dedi ular-dan biri, eri bilan yarashmoqchi bo'lib yuruvdi, shunga chaqiryapti". "Voy, u odam tirik ekanmi?" "Tirik ekan, rahmatlik bo'p ketmagan ekan hartugul, bosh urib uyiga qaytib kepti!"

Mezbon bizni hayajonlanib, ochilib-sochilib kutib oldi. Qizidan hol-ahvol so'ragan bo'ldik. Avvallari biz bilan apoq-chapoq bo'lib ketadigan qizi begonasirab nuqul yerga qaraydi, degin.

Bir mahal Huriyat opang qo'shni bo'lmadan baland bo'yli, chiroyli bir erkakni boshlab chiqdi. Erkak sal xijolatli ko'ringani bilan o'zini bosiq, jiddiy tutardi. Huriyat opangni unchalik tushunib bo'lmasdi. U bir qarasang, eng baxtiyor odamga, bir qarasang, judayam ojiz bir notavon odamga o'xshardi. Erkak uy bekasidan o'zini o'tirganlarga tanishtiradi, deb kutdi, Huriyat opa bo'lsa og'ziga talqon solgandek miq etmadi. Erkakning o'zi:

— Xush kepsizlar, tuzukmisizlar, yaxshimisizlar, — deb biz bilan so'rashgan bo'ldi. — Dasturxonga qaranglar.

Oling-oling boshlandi. Shu payt shaddodroq dugonlarimdan biri:

— Pochchamiz bo'ladilarmi, tanishtirmaysizmi? — deb qoldi Huriyat opaga.

— Ha, ha topdingiz, — dedi erkak shoshib. — Men Yodgoraning otasi bo'laman. Men, men...

Qara-ya shundoq zabardast erkak o'zini bir zumga yo'qotib qo'ydi-ya.

— Nima desam bo'ladi, bu yerda men, men ayb-dorman. Ha, qizimning oldida, onasining oldida ayb-dorman. Yigirma yil mobaynida yigirma ming marotaba oilaga qaytishga urinib ko'rdim. Bo'lmadi-

da, bo'lmadi, qizim meni o'lgan deb yurarkan. Endi, endi, xullas, mana keldim, sizlar shohid...

Erkak kishi hech qachon tushkun, g'amgin ahvolga tushmasin ekan. Shundoq barvasta erkak ko'z oldimizda erib borayotgan qor odamga o'xshardi. Qaniydi, otang mana shunday bosh urib bir kunmas bir kun kirib kelsa. Uyimiz to'lib, bag'irlaring but bo'larmidi?

— Juda yaxshi bo'пти-da, to'y ekan-da bugun, yarashuv to'yi.

— Bundan bu yog'iga bir-biringizga suyanmasangiz kimgayam suyanardingiz, shunchalik kepsiz, rahmat sizga.

Uchala dugonam ham mana shunaqa gaplar bilan erkakni qo'llab-quvvatlagan bo'lishdi. Faqat mengina lom-mim deya olmadim. Tilimga yolg'ondakam bir tasalliyam kelmadi. Bu yarashuvni jon-dilim bilan istab turgan bo'lsam-da.

— Shunday qilib, yarashuv kechamizni ochiq deb e'lon qilamiz, — dedi erkak o'zini qo'lga olib.

— Yo'q, yo'q, hech qanaqa yarashuv yo'q...

Hammamiz tok urgandek seskanib ketdik. Bu — Huriyat opangning qizi edi. U shunday dedi-da, uydan chiqib ketdi. Shunday qilib, yarashuv kechamiz nihoyasiga yetdi o'g'lim.

Axir bundoq tanangga o'ylagin-da, yigirma yil deganda bir odam paydo bo'lib, otalikni da'vo qilib tursa, bunga kim ishonardi? Qiz uchun u yetti yot begona, qanday qilib "ota" desin? U uchun otasi o'lgan, ha, ha, mashina halokatida o'lgan. Huriyat opa qizining qulog'iga shunday deb quygan. Yolg'on gapirgan. Endi-chi? Endi qariyapmiz, deb er bilan xotin bir-birini o'ylab qolishipti. Mayli, buni tushunsa bo'lar. Keksalik musibatlari ularni bir-biriga yaqinlashtiryapti, keksalik ko'chalarida bitta odam turtin-gandan ikki kishiga oson bo'ladi. Lekin bularni o'n to'qqiz yoshli qizaloq qayerdan tushunsin. Nahotki, hayot shomini o'ylab qolgan ikki birdek odam qizning ahvolini fahmlab yetolmasa.

Men otangni shu kishidek uyimizga kirib kelishini orzu qilganimda judayam yengil o'ylaganimni sezib qoldim. Axir sen rozi bo'lganing bilan Sabohatim, Bahodirim rozi bo'lisharmikan. Ularning ham biri o'n to'qqizga, biri o'n oltiga kirdi-ku! "Yo'q, yo'q", — degan hayqiriq ularning ham og'zidan otilib chiqishi mumkin-ku!

Bolajonim, odamzod bunaqa xatolarni qilmasin ekan. Qildimi, u tog'dek ulg'ayib, uni tortishga tosh-u tarozi topilmay qolar ekan. Ilohim, bunday bedavo dardlardan sizlar nari bo'linglar, o'g'lim.

19

Bolajonim, bir yozuvchi hayotni girdobga o'xshat-sa, undan xafa bo'pman, buncha qahri qattiq bo'lmasa deb. U haq ekan. Qara-ya, Sabohatning savob yo'lida qilgan bitta kichkina xatti-harakati qanchadan-qancha savdolarini boshimizga soldi. Askar yigit — Ulug'jon oyoqqa turguncha ko'p emas, oz emas, qirq besh kun kasalxonada yotdi. Uning xizmat joyiga kasalligi, jasorati haqidagi hujjatlarning barini o'zim to'g'rilab jo'natdim. Ota-onasi bunaqa ishlar bilan bolamizga jabr yetkazishga sabab bo'lganlar shug'ullanishsin, deyishdi. Men bu ishlarni jon deb, yugurib-yelib ado etdim. Axir yigitning xizmat joyi, aytuvdimmi, yo'qmi, Afg'onda edi-da!

Yigit uyiga chiqqach, taomilimizga ko'ra, bosh-oyoq sarupo qilib uyiga yo'l oldim.

Oh, o'g'iljonim-a, bormay, o'zbekchilik qilmay men o'lay. Yo'lak eshigiga borganda oyog'im birdan qirqildi qoldi. Ularni birinchi qavatda turadi degan edim-ku. Yigitning onasi bir o'limdan qolgan bolasini shundoq qarg'ardiki, og'zidan chiqayotgan gapga ilon po'st tashlardi... Yergina yutkur, o'sha pichoq tig'ida keta qolsang bo'lmasmidi?" "Temir tobutlarda kelganing yaxshimasmidi", "Bizzi tengimiz o'shalar bo'ptimi, yaxshi bo'lsa bemahalda yurarmidi, xotinsiramay o'l..."

Nazarimda yigitning onasi meni ko'rgan-u jo'rtta-

ga eshitsin deb ataylab qarg'ayotgandek bo'ldi. Zo'r-bazo'r sudralib, izimga qaytdim, o'g'lim. Asablarim chidamadi, istimam chiqib, yotib qoldim. Ko'zimni yumdim deguncha Ulug'jon ko'z oldimga kelaverardi. Voy, soddagina-ey, darrovda onasiga yorilib nimayam qilardi-ya? Yo shu qizga og'iz ochib qo'ying demoqchi bo'ldimikin?..

Ikki kun ishga borolmadim. Uchinchi kuni yigitning o'zi uyimizga kirib keldi. Harbiycha kiyinib olibdi. Barvasta, chiroyli. Ammo bilinib turibdi, ruhi so'nik, parishon... Boshimni ko'targunimchayam bo'lmay, karavotim yonida paydo bo'ldi.

— Yotavering, qo'zg'olmang, nima bo'ldi sizga? — dedi jonsaraklik bilan. Kaftini peshanamga, yuzlarimga bosdi. — Issig'ingiz bor-ku, dori ichdingizmi? Do'xtir keldimi?

— Hechqisi yo'q, bolajonim, o'zi har zamon, har zamonda shunaqa bo'p turaman, o'tib ketadi. O'zingiz tuzukmisiz? Biz yo'qlab borishning o'rniga o'ziz kepsiz-da.

U allanechuk entikdi, bosh kiyimini olib, tizzasiga qo'ydi, senikidek jingalak sochlarini u yoq, bu yoq qilgan bo'ldi. Shunda ko'zlari gilam tepasida turgan sening suvratingga tushdi-yu, hayratdan qotib qoldi.

— Meni suvratimmi? — deya bir shirin qilib kuldi Ulug'jon. Yuzining bir tomonida bilinar-bilinmas kulgichi bor ekan, biram chiroyli ko'rindi-ki...

— Shunaqa bir-biringizga o'xshaysizlar-da, Sabohat bekorga: "Sher aka!" — deb dod solmagan-da, dedim.

Yostig'im tagidagi xatlaringdan birini berdim. Xizmat joyingga qarab: "Bizdan ancha naridaykan", — dedi. Oraga jimlik cho'kdi. Keyin yigit arzi bordek bir alfozda, uzr so'raganday bir ahvolda menga qaradi.

— Ketyapman.

— Darrovdaya...

— Yigit xijolat chekkandek yerga qaradi. Tunov kuni borib, kirmay kelganimni birovdan eshitdimikan?

Shunga ezilyaptimikan? Onaning qarg'ishlari har qanday odamni ham izdan chiqarishi turgan gap. Bechoragina sevgida shoshib qoldi-da. Onasi: "Bor ayt, qizini senga asrab o'tirmasin, o'z og'zing bilan aytib ket", — deb jo'natgan bo'lsa-chi? Shunday bo'lgan, shuning uchun ham u bir nima deb og'iz juftlay olmayapti.

— Men, men sizga... — deya, yigitning so'zlari og'zidan to'kila boshladi.

— Bilaman, nima demoqchiligingizni, Ulug'jon, — deya bola bechorani tashvishdan qutqarmoqchi bo'ldim. — Sabohat hali go'dak, sevgi degan narsalarni tushunmaydi, u judayam xom. Meni aytdi dersiz hayotda manman degan qizlarni uchratasiz. Balki ota-onangizning ko'z ostilariga olib qo'yanlari bordir. Ha, bor borligi aniq. Mana men ham Sherimga bitta qizni allaqachonoq topib qo'yanman. Qolaversa, ota-ona rozi, xudo rozi, — dedim.

Yigit menga angrayganicha qarab qoldi. Xuddi uning pichoq yegan joyi azob berardi-yu, dodlashdan ko'ra chidashni afzal bilardi.

— Siz, siz meni ayabsiz-da, bundan chiqdi, yo'q, ayab turib aldabsiz-da, tuzalguncha xo'p-xo'p, undan keyin orqasiga tep, bo'pti-da, bu yog'i.

Voy topgan gapini. Men nimani o'ylab, nimalar qilib qo'yanimni tushunmay, dovdirab qoldim. A'zoyi badanimdan qora ter chiqib, bir zumgina ko'zimni yumib, ochdim shekilli. Qarasam, Ulug'jon yo'q. Ulug' jo-o-o-on! Ul-u-u-g'... Ovoz bermadi. Jon-jahdim bilan turtinib-surtinib osma ayvonga chiqdim. U allaqachon pastda, butun alamini oyog'idan olgandek yer tepib ketyapti.

— Ulug'-jo-o-n!.. Qani ovozim chiqsa. U muyulishga o'tib, ko'zdan yo'qoldi.

Men nima qilib qo'ydim? Onasidan ham battar ish qilmadimmi? Ha, shunday bo'ldi, undan ham battar bo'ldi. Onasidan qarg'ish eshitayotganda yigit sho'rlik sevgisiga suyanib, chidab turgan edi. Men hozir o'sha suyanchiqni ko'r-ko'rona, qayoqdagi shubhalarga

borib, olib tashladim-ku! Tomga yetay degan oshiqni oyog'i tagidagi narvonni tortib yubordim-ku!

Xatda yozaman, kechirim so'rayman, yigit bechora mendan boshqa gap kutgan ekan-ku. Aytmaymanmi, xizmatni o'tab keling, bitta qizim emas, o'ntasi bo'lsayam sizdan aylansin, deb. Meni bu chalkash ko'chaga o'sha kuni eshitgan qarg'ishlarim olib kirib qo'yanligini ham yozaman. Ana shunda tushunadi Ulug'jon. O'ziyam nimaga bunchalik tortinchoqlik qildi. Qaytanga bemor bo'lib yotgan paytlarida dangalchiroq edi-ku!

20

Shunday qildim, o'g'lim. Ulug'jonga xat ustiga xat yozib yubordim. Sabohatgayam yozdirdim. Qizi tushmagur atrofimda girdikapalak bo'layotuvdi-ya. Haloskoringga xat yoz, deyishim bilan stolga o'tirib yoza ketdi. Sabohatginaning ham yuragida nimadir uyg'ongan ekan-da. Keyingi kunlarda sovchilarni yoqtirmay boshlaganidan ham sezib yurardim. Gulini uyga olib kelib olaylik-a, o'g'lim. Undan keyin...

Shu desang, kecha qiziq bo'ldi. Ishdan kelsam, singling bilan Guli chaqchaqlashib o'tirishibdi. Ketamanlab qoldi. Ishga biznikidan borasan deb, olib qoldim. Ovqatdan keyin ikkovi qanaqadir jurnalдан o'zlariga yarashug'lik bichim izlab o'tirishdi. Shu payt men ham sandiqni ochib sarupolarni ko'tarib qoldim-ku! Chuldirashib tepamga kelib olishibdi. To'rt kiyimlik matoni oldim-da, stol ustiga tashladim. "Voy, voy", — deyishib kiyimlik ustida parvona bo'p qolishdi. O'sha paytda Guliginam menga kelin bo'lishini unutib qo'ydiyov:

— Ammajon, kimga bular, muncha chiroyli? — deb qoldi.

— Senga jonim, ikkovingizga, hozir jurnalda tanlagan ko'ylaklaringni tiktiringlar, ilohim kelinlikka buyursin, — deganimni bilaman, bo'ynimdan mahkam quchoqlab olibdi, qani qo'yvorsa. "Hay, bu ahvolda to'ygacha qaynonangni o'ldirib qo'lasan,

bo'ldi, nafasim qaytib ketdi", — deyman kulib. Allapallagacha gaplashib o'tirdik. Ilohim yorug' kunlar kelaqolsin-ey, bolaginam-ey...

21

Bolajonim, meni kechir, yana bir necha kun qo'linga qalam ololmadim. Ololmas edim ham. Odamning zuvalasi nimadan yasalgan ekan o'zi? Joni buncha qattiq bo'lmasa? Bu tog'dek-tog'dek azob-larga tariqdek tirqirab ketmaganingga hayron qolaman. Ha, o'g'lim, qiyomat qo'pti, qiyomat!

Men kasalxonaga qatnab yurganimda Ulug'jonning qo'shnisi bilan tanishib qolgan edim. O'sha xotin choshgohda ishxonamga kirib keldi, degin. Umrida qadam bosmagan xotin so'rab, topib kepti. Hayron bo'ldim. Avvaliga biron narsa kerak bo'lib qolgandir, shuni so'rasa kerak-da, deb o'yladim. U dabdurustdan nima deydi, degin? "Hay, aylanay anovi Afg'onga qaytib ketgan bola bor-ku, qizingizni bezorilardan qutqarib qolgan, o'shaning o'ligi kepti. Bexabar qolmang deb keldim".

Ichimdan bir nima uzilgandek bo'ldi. Ko'z oldimni duvva qorong'ilik bosdi. Ko'zimni ochganimda, ishxonamizning bemorxonasida yotardim. Tepamda boyagi xotin ko'zyoshi qilib o'tiribdi. Ko'zi ko'zimga tushib: "Qanday xotinsiz, yetti tug'ib bir qolganingizmi, onasi kuysin, jodugar onasi. O'sha o'ldirdi, o'shaning qarg'ishi yigitginani boshiga yetdi. O'liging temir tobutlarda kelsin, devdi, yaxshi niyat qilsa o'larmidi?.." "Qo'ying, unday demang, qaysi ona bolasiga o'lim tilaydi? Jahl chiqqanda aql ketadida, qarg'ish bilan odam o'lmaydi", — dedim. "Qani, tura olasizmi, men ketovraymi, xabar keltirmay men o'lay".

Diydam qotib qolgan edi. Qani endi ko'zimga ikki tomchi yosh kelsa-yu oyoq-qo'lim bo'shashib yo'lga kirsam. Haligi ayol bilan taksiga o'tirib, Ulug'jonlarnikiga jo'nadik. Eshik tagidagi yo'lakda turgan odamlarni ko'rgunimcha ishonmadim, bolam.

Nimaga bunday bo'ldi? Ulug'jon dunyoga kelib nima ko'rdi? Yigit kishiga o'lim yo'q, deyishardi-ku. Bu qandoq adashgan o'lim bo'ldi-a? Birov yetmish, saksonga kirs, birov o'shaning yarmini, choragini ham yashamasa. Kerakmidi o'zi o'sha Afg'onda urushish?! Qo'shningnikiga o't tushsa, senikigayam tutashadi, deganlari shumikin yo?

Oh, onaning faryodi to'qqiz qavatli binolar orasida sarson-u ovora edi. Hah, onaizor-a, bundoq bo'lib qolishini bilmagansan-da. Bo'lmasa, o'g'ling nima desa, shunga rozi bo'larding-a? Voy, qarchig'aydek yigit edi-ya! Uning gaplari, jonsarak ko'zlari! Kechir meni, bolajon, oldingda gunohkorman. Umringga zomin bo'lib qoldimov. O'shanda nimaga chaynaldim, men baxti qaro xotin. Kimni o'yladim? Otang bilan onangnimi — o'zingni o'ylasam bo'lmasmidi?

Borib bir chekkada qotdik. Jasadni hali olib kelishmagan ekan. Bir mahal usti ochiq mashina kelib to'xtadi. Turganlar besaranjom bo'lib qolishdi. Undan oppoq temir tobutni bazo'r ko'tarib olishdi. Shunda onaning ovozi bir zumgina qumga singgandek bo'ldi. U chopib borib tobut ustiga o'zini tashladi. Uning nolasini kuydiruvchi o'tdek yer bag'irlab tik turganlarning tanasiga o'rlab, yuragini zirqiratardi. Erkag-u ayol "oh" deb o'tirib qolishdi. Hammaning hovuchi yuzida, hammaning hovuchi laqqa cho'g' edi, o'g'lim o'shanda. Ona hech qachon bolam deb oh chekmasin. "Voy, temir qafasga tushgan bola-a-aa-m... Voy temir kafanga loyiqmiding-e-e-ey! Voy, xon-u monim kuyde-e-e-e, qandoq qilaman, qandoq chidayma-a-a-a-n, qandoq chidayman! Voy, do-o-o-o-d! Voy, men o'lsam bo'lmasmidi, bola-a-am. Buni ochinglar, odamlar, buni ochinglar. Sovuq yuzini bo'lsayam ko'ray, ochinglar, oching-la-a-a-ar..."

Ha, o'g'lim, bunaqa ko'rgulikni dushmaningning boshiga ham solmasin. Onaning oh-zorlariga bag'ridagi temir tobut erib ketadimi dedim. O'lim oldida bandasi hamisha ojiz. Shunday qilib yana bitta

armon yuragimga ko'mildi, pahlavonim. Ulug'jonning ruhi-poki hurmati men ham, singling ham ko'k kiydik, ko'k...

Xotima

Aziz kitobxon, meni kechiring. Ko'pchilik maktablarni sizga bayon qila olmadik. To'g'risi onaizor rizolik bermadilar. Qolaversa, ha, qolaversa... til bormaydi aytishga, qo'l bormaydi yozishga... Bu mushtipar onaning o'zi aytgandek peshanasi sho'r ekan. Hali ustidan ko'ki tushmay, Ulug'jonning qabri sovimay uning yoniga Sherniki ham qo'shildi. Taqdir deganlari hech bo'lmasa senginani ayasa bo'lmasmidi, ey, onaizor! Kechir, sening irodangga qarshi borib, taqdirni ayblamoqdamiz. Taqdirga to'nikovchilarni yomon ko'rarding. "Aybdori o'zimiz, o'zimiz", derding kuyib-yonib. Sen yuz karra haqsan, ey, Ona! Minglab Ulug'jonlarni, minglab Sherlarni o'ldirgan o'zimiz. Minglab onalarga ko'k kiydirgan, minglab Sabohat-u Gulilarning kelinlik libosini sabil qoldirgan ham o'zimiz. Kel, ey Ona, senga Yaratgandan tog'dek bardosh tilaylig-u, o'zimizga zig'ircha bo'lsa ham insof so'raylik, insof!..

1988-yil.

YETIM QOLGAN XOTIRALAR



Uzoq desakmikin, yaqin desakmikin, ishqilib, hamma qishloqlarga o'xshagan qishloqlarning birida Ma'suda ismli qiz oyijonisi-yu ukasi Jahongir bilan ko'p qatori kun kechirib kelishardi. Adasi-chi, adasi? Ma'sudaning adasi yo'qmi, dersiz. Bor. U kishi qay-sidir yoqlarga, mo'mayroq pul topay deb ketvorgan.

Ma'suda beshinchi sinfni tamomlashi arafasida adasi bilan chet elda birga bo'lgan o'rtog'i kelib qoldilar. Bir dunyo sovg'a-salom...

Ammo adasining o'rtog'i sovg'a-salomlar bilan sovuqroq bir xabar ham olib kelgan ekan. Oila a'zolarining tinchi buzildi. Ma'sudaning adasi "tropik" degan kasalga uchrabdi. Undan tuzalib, endigina o'ziga kela boshlaganda yurak dardiga chalinibdi. Tayyorada uchish, kemada suzish yurak kasaliga to'g'ri kelmas ekan. Birdan bir yo'l quruqlik bilan mamlakatdan-mamlakatga o'tib, mashina, poyezd qilib kelish qopti. Bunday safarda yonida bitta yaqin kishisi bo'lmasa yana bo'lmas ekan. Axir safar ikki, uch oy, undan ham ko'pga cho'zilishi mumkin ekan. Yaqin kishi Ma'sudaning oyisidan bo'lak yana kim bo'lishi mumkin? Agarda shunday bo'lsa Ma'suda bilan Jahongir qayerda, kimning qo'lida qoladi? Bundoq o'ylab qarashsa, ishonib tashlab ketadigan, ishontirib olib qoladigan qarindoshlariyam yo'q ekan. Anchagacha boshlari qotdi. Oxiri, vaqtincha bo'lsayam bolalar uyi, degan qarorga kelishdi. Shunday qilinsa hamma tomonlama yaxshi, xotirjam bo'linarkan. Bolalarni bolalar uyiga ishonmasa, kimga ham ishonish mumkin. Hayot deganlari mana shunaqa... Kutilmaganda hammani har yoqqa tumtaraq qilib yuboradi. Bolani onaga, onani bolaga zor qiladi. "Yetim qolgan xotiralar"ning muqaddimasi ana shunday, azizlar. Davomi esa ushбудir...

Oyijon, bu nechanchi xat yozishimikin, o'zimam bilmayman. Hisobdan adashib ketganimgayam anchalar bo'ldi-yov. Rostini aytsam, gap nechanchi martaligidamas, oyijon. Zarurlik joyi yo'q uni. Ochi-g'i, shu Sizzi judayam, judayam sog'inib ketganimni aytmoqchiman, xolos. Bir xil paytlarda sog'inganimdan o'zimni qayerga ursamikin, deb o'ylab qolaman. Qani endi, shundoq derazaga qarasam-u Siz kuli-ib kirib kelayotgan bo'lsangiz. Qaniydi, uxlasam-u o'rtoqlarim: "Ma'su tur, tursang-chi, oyinglar keldilar", deb uyg'otishsa. Eh-e, sizni ko'rish o'yida o'zimcha nimalarni o'ylab topmayman, deng. Kunduz kunlari, haligi, yoqimli shamollar esib qoladi-ku, o'sha shamollar bilan gaplashaman, oyijon. Kechalari bo'lsa ochiq turgan derazamizdan mo'ralab, xon-amizni yop-yorug' qilib yuboradigan oymoma bilan gaplashaman. Qandoq qilib gaplashasan, deysizmi? Mana bundoq qilib: "Shamoljon, hoy shamoljon, sen hammadan chopqir, hammadan o'zg'irsan, to'g'rimi?" Shunday deyman-da, nafasimni ichimga yutib, javobini kutaman. Qayerdandir qulog'imga sirli bir ovoz eshitiladi. "Ha-a-a-a!" "Sen butun dunyodagi odamlarni yoqimli nafasing bilan silab-siypalab o'tasan, to'g'rimi? "Ha-a-a-a!" Meni oyijonimniyam-a? "Ha-a-a-a!" Yalinaman, yolvoraman, shamoljon hech bo'lmasa, bir martagina oyijonimning islarini olib kelgin, shunaqangi sog'indimki, xo'pmi, xo'p, deya qolgin shamoljon. "Ho'-o'-o'p..!"

Navbat oymomaga keladi. Oymomajon, oymoma, sen hammadan chiroylisan-a? Hammadan balandda turasan-a? To'g'rimi? "Ha, hammadan chiroyliman, hammadan balandda turaman!" "Huv, men bilmagan tomonlarda oyijonim bilan adajonimlar bor, o'shalarni bir marta barkashingda ko'rsatib ber, jon oymoma!" Oymoma xuddi sizlarni qidirgandek sekin-sekin dumalab yotoqxonamizning orqasiga o'tib ketadi. Bilaman sizlar o'sha oymoma o'tib ketgan tomon-

dasizlar. Men bo'lsam oymomaning orqasidan borolmayman. Yotoqxonamizdan chiqarishmaydi-da.

Bir xil kunlari-chi, oyijon... ko'pincha bunaqa holat maktabdan qaytayotganimda bo'ladi. O'zim bil-magan holda avtobus poylab turgan xotinlarning yoni-ga borib qolaman. Ba'zi xotinlar "ha" deb bundoq qarab ham qo'yishmaydi. Ba'zi xotinlarning rahmlari keladimi, yolg'ondan bo'lsayam erkalagan bo'lib boshimni silab qo'yishadi. Qo'llari shunaqayam xush yoqadiki. Ularga erkalanovursam, suykalanovursam. Qo'llari, erkalashlari Siznikiga o'xsharmikan, dey-man-da. O'xshamaydi. Bir nimalar deb gapirsa-chi, ovozi oyimlarga o'xsharmikan, deyman. Ularning topib olgan gaplari shu:

— Deddomdanmisan?

Eh, oyijon, boshimga musht tushgandek bo'ladi. Axir bizzi biron yerimizga "deddomniki" deb yozib qo'yishgan-da? Nimaga ular nuqul shunaqa deb so'rayverishadi? Balki ayb o'zimdadir-a, oyijon? Haligi, bo'ladi-ku mushukcha, kuchuk bolalarni adashtirib tashlab ketishadi. Ular bo'lsa ko'ringan odamga g'ingshib surkalaverishadi. Menam shunaqa qilsam kerak-da, shunga darrovda: "Deddom-danmisan", — deb qo'yishsa kerak. Men bo'lsam "Tezroq bu xotinning oldidan keta qolay", — deyman o'zimga-o'zim.

— Menga qiz bo'lasanmi, — deydi haligi xotin orqamdan.

— O'zimniyam oyijonim borlar, — deyman shoshib-pishib.

— Onam bor, deysanmi? — ishonmagandek so'raydi haligi xotin.

Men "ha, sizga zorlik joyim yo'q" degandek unga jahl bilan qarayman-da, jo'nab qolaman. Ammo o'sha xotinning hayron bo'lib menga qarab turishi ancha-gacha ko'z oldimdan ketmaydi. U xuddi: "Yol-g'onlayapsan, oying bo'lsa deddomda nima qila-san", — degandek bo'ladi-da, menga. Shunaqa payt-larda yuragim bir siqib keladiki, oyijon.

Darrovda Sizga xat yozishga tushaman. Tarbiyachimiz Manzura opamlar shunga o'rgatganlar. Xat yozinglar, yuraklaring ozgina bo'lsayam bo'shaydi, deganlar. Rostanam shunaqa bo'ladi, oyijon! O'sha yurakdagi og'riq oldin qo'lga, qo'ldan ruchkaga, ruchkadan qog'ozga to'kilgandek bo'ladi. Shungami, xat yozish bitta mening mashg'ulotim emas, ko'plar shunday qilishadi. Lekin xat ochiqdan-ochiq yozilmaydi. U yer, bu yerda bekitiqcha yoziladi. Bilasizmi, oyijon, yetimxonadan yozilgan xatlarga sirayam javob kelmaydi. Kelsayam: "Bu joyda bunaqa odamlar yashamaydi", "Bu odam boshqa shaharga ko'chib ketgan", degan javoblar keladi. Ko'p bolalar buni bilishadi-da, yozgan xatlarini, sekingina tarbiyachimizga berib qo'ya qolishadi.

Bizning xonamizda xat ham, kundalik ham yozmaydigan ikkita qiz bor. Ularning ikkovi g'irt yetimda, shunga. Ota-onalari o'lgan. Bilasizmi, o'sha ikkala qiz yetimxonani xuddi o'zlariniki qilib olishgan. Yana o'ylamang, zo'ravon qizlardan bo'lishsa kerak deb. Yo'q, unaqamas. Ular nimagadir bizga qaraganda bemalol yurishadi-da. Biz ularning oldida qandaydir bo'ynimiz qisiqda. Xuddi ularning ikkovi bu yerning egasi-yu, biz mehmondek. Balki ular g'irt yetimligi, bu yerning nomi yetimxona bo'lgani uchun ham shundaydir. Ammo bu yerning yetimxonaligi bilinmasin deb shunaqangi xonalarga oro berishganki, siz aytganday shohlarning saroyiga o'xshaydi. Siz o'shanda meni, ukamni ko'ndirish uchun bolalar shaxzodalardек yurishibdi degan edingiz. Bir qarashda balki shunaqa ko'rinar, lekin bu yerda yashay boshlasangiz, kim shaxzoda-yu kim g'aribligini darrov bilib qolasiz. Menga qolsa, g'irt yetimlarni shu yerning shaxzodalari derdim. Hatto tarbiyachilarimiz ham ularga o'zlarini yaqin tutib gaplashishadi. Tarbiyachilar go'yo hammaga barobarmiz, demoqchi bo'lishadi-yu bari bir biz sezib turamiz. Balki yetimxonada g'irt yetimlardan ko'ra ota-onali tirik yetimlar ko'pligi uchun ham sezilib qolayotgandir. Axir bilsangiz, oyijon, xona-

mizdagi o'n to'qqizta qizning yo otasi, yo onasi bor. Qiziqda, bolalarning yo otasi, yo onasi bo'lsa-yu, yetimxonaning nonini yesa, uyi-joyi bo'lsa-yu, yetimxonaning to'shagida uxlasa?! Yana o'ylamang, qizim menga ta'na qilayapti, deb. Axir, biz bu yerga vaqtinchalik mehmonmiz-ku.

Mehmon, deyyapman-u, shu ukamdan qo'rqa-man-da, oyijon. Yomonlayapti deb o'ylamang tag'in. Rostini aytishim kerak-da, sizga. Jahongiringiz judayam o'zgarib ketdi. Bo'iyam o'sgan, keyin odam tanimaydigan ham bo'lib qolgan. Shu desangiz, opa deb yonimga kelmaydi. Sizzi, adamlarni bundoq eslasa-chi. Og'zini poylayman, "sog'indim" dermikin deb. Lom-mim demaydi. Uning shunaqa bo'lib qolishiga ko'proq o'zimam aybdormanmi, deb o'ylab qolaman. Siz tashlab ketganingizdan keyin ukam bu yerdagi bolalar bilan til topishib, apoq-chapoq bo'lib ketdi. Bir xil paytlarda sog'inib, qidirib borsam, topolmasdim uni. Bir kuni o'zidan-o'zi uyga ketamiz deb menga yopishib oldi. Uyimizda hech kim yo'q dey-man, qani tushunsa. Hech kim yo'q bo'lsa, uyimiz bor-ku, deydi. Oxiri uyimizni topib borolmayman, deb aytdim. Rostiyam shu-da, oyijon, bu yerda uyga borish yo'llarini aytishmas ekan. Qochib ketadi, deb qo'rqishsa kerak-da. Jahongir bo'lsa: "Sho'ttan ketib, ko'chaga chiqaylik, uyimizni o'zim topaman", — deydi. O'g'il bola-da, ming qilsayam. Menda bunaqa jasorat yetishmaydi.

Oxiri, ukamdan qochib yuradigan bo'lib qoldim. Yo'lakda ovozi keldimi, yo karavotning tagiga, yo kiyim yechadigan shkafga berkinaman. Jahongir meni topolmagach, izillab yig'lashga tushadi. Qizlar unga hazillashadi: "Jahongir yig'loqi, yuzlari shaftoli qoqi, Jahongir yig'loqi, yuzlari shaftoli qoqi". Bekingan joyimda ukamga qo'shilib o'zim ham yig'lardim-u oldiga chiqmasdim. Shunday qilsam, ko'nikadi, yetimxonaga o'rganadi, deb o'ylardim-da. Ha, ukam ko'nikmadimas ko'nikdi. Hamma bolalar qatori ko'nikdi. Lekin meni tanimay qo'ydi. Men sizlarni

sogʻinib, chidolmay qolgan paytlarimda Jahongirni bagʻrimga bosgim keladi. Axir undan boshqa kimim bor bu yerda meni. U boʻlsa meni koʻrishi bilan yo qochib qoladi, yo tumtayib oladi.

Men boʻlsam ukam bilan gaplashib oʻtirgim, oyimlarni tushingda koʻrasanmi, deb soʻragim keladi.

Axir men Sizni har kuni tushimda koʻraman-da, oyijon. Har kuni uyquga yotdim deguncha tushimda koʻraman. Tarbiyachimiz: kim-kimni oʻylasa, oʻsha-ning tushiga kiradi deyдилar. Tushimga kirishingizdan bilamanki, siz ham meni har kuni oʻylaysiz. Men sizni qaysi koʻylakda koʻraman deng? Noʻxat gulli koʻylagingiz bor-ku, oʻshanda! Yana men Sizni nuqul bozorda yoʻqotib qoʻyaman. Siz, men, ukam bozorga kelgan boʻlamiz. Keyin Siz: “Mashu chinorni tagida turib turlaring, men hozir kelaman”, — deysiz-da, odamlar orasiga kirib ketasiz. Biz Sizni chinor tagida kutamiz-kutamiz. Oxiri ukam gʻingshiy boshlaydi. Shunda uzoqdan noʻxat gulli koʻylagingizni koʻrib qolaman. Siz teskari tomonga qarab ketib borayotgan boʻlasiz. “Oyijon, Oyi-i-i”, — deb chaqiraman. Siz eshitmaysiz. Shu payt novcha-novcha odamlar orasiga tushib qolamiz-da, Sizni yoʻqotib qoʻyamiz. Jahongir oyoqlar orasida qolib, gʻingshiydi. Havo yetmayotgandek ogʻzini kappa-kappa ochadi. Hech kimning biz bilan ishi boʻlmaydi. Birovning oyogʻiga tepaman, birovini nari itaraman, Sizzi yoʻqotib qoʻymay deyman. Bir xillarini yengidan ushlab tortqilayman. Shunda men ularni rostakam odamlar emas, qoʻgʻirchoq odamlar ekanini bilib qolaman. Shunda bu olomon ichidan qutulay-da, chinorning tagiga boray deb chinorni qidira boshlayman. Na Sizzi, na chinorni topolmay, haligi qoʻgʻirchoq odamlar orasidan chiqolmay uygʻonib ketaman. Anchagacha oʻzimga kelolmay yotaman.

Baʼzi kunlari gʻalati boʻladi, oyijon. Siz ertadan kechgacha men bilan birgalashib yurasiz. Ishonasizmi shunga? Ayniqsa, oʻqish paytlarida xuddi maktab darvozasi- dan qarab turgandek boʻlaverasiz. Men boʻlsam

o'qituvchi mendan so'ray qolsa-chi, oyimlar qanaqa javob berishimni bir ko'rsalar edi, deb turaman ichimda. O'qituvchiyam buni sezgandek Karimova deb qoladi. Faqat "a'lo" olishim kerak deb dadil yoniga chiqaman. Menga shu paytda o'qituvchiyam, bolalar ham savollar yog'dirib tashlashsa, bariga javob berib Sizni xursand qilsam, deymen. Afsuski, unday bo'lmaydi, ikki-uch og'iz gapirishim bilan, "Bildim, yaxshi tayyorlanibsan", — deydi-yu baho qo'yib joyimga o'tqazib qo'yadi. Keyin Siz maktabdan chiqib yetimxonaga qaytayotganimda, daraxtlar orqasidan, uylar panasidan kuzata boshlaysiz. Men har kungidek avtobus kutib turgan xotinlarga borib suykalmayman, odobli qiz bo'lib, to'g'ri yo'limdan qolmayman. Bunaqa kunlar men uchun eng yaxshi kunlar bo'ladi oyijon.

Men yana bir narsani ko'p o'ylayman, oyijon. Nimaga bitta bo'lsayam suratingizni qoldirmadingiz-a? O'zim olvolsam ham bo'lardi-ku. Qattan bilibman deng safaringiz bunchalik cho'zilib ketishini. Balki Sizam bilmagandirsiz-a?

Yaqinda bizning xonada surat bilan bog'liq bir voqea bo'ldi, deng. Ertalabki nonushta paytida Halima degan o'rtog'im stol tagidan sekingina oyog'imni bosdi. "Ha" deya unga qaradim. U tezroq choyingni ich, degandek qildi. Ikkovimiz boshqalardan oldinroq qo'zg'oldik. Halima qo'limdan ushlab, yugurtirib ketdi. Yotoqxonaga kirdik. Halima Madinaning karavoti yoniga borib, hozir bir narsa ko'ramiz, degandek yostiqni ko'tardi. Ko'tardi-yu orqasiga tisarilganicha, "vuy-y-y" deb yubordi. Menam nimaykin deb shu tomonga cho'zildim. Dumaloq gardishli oyna ichidan bitta chiroyli xotin bizga qarab turardi. Surat tirikka o'xshardi, oyijon, tirikka.

— Madinaning oyisi, — dedi Halima shivirlab, — o'xshaydi-a?

— Ha, chiroyli, — dedim-u ko'z oldimga Siz keldingiz, oyijon. Sizni suratingizni xonamizdagi qizlar ko'rishsa bormi, og'zilar ochilib qolardi-da.

Axir Siz hammadanam chiroylisiz-da. Men Madinaning oyisini xunuk demoqchimasman, bari bir Siz chiroylisiz-da, oyijon.

— Surat ekan-da, — dedi Halima, — men hayron bo'luvdim. Yarim kechaydi-da. Uyqum o'chib ketdi. Bir nima shiftda yarq etdi. Qarasam, Madina nimanidir oy yorug'iga solib termulib o'tiribdi. Men ko'zgumikan, deb o'ylabman. Shu payt burnim qichishib, aksirib yubordim. Madina qo'rqib ketdi. Qo'lidagi narsani yostig'i tagiga berkitdi. Keyin g'ujanak bo'lib, yig'lab yotdi.

— Nimaga suratni yashirib yuribdi, — hayron bo'lib so'radim men.

— Rost-ey, mana bunday qilib qo'yib qo'ymaydimi? — deb Halima suratni g'aladon ustiga qo'ydi.

Ko'zimizga yotoqxonamiz birdan boshqacha bo'lib ketdi. Shu payt xonaga boshqa qizlar ham kirishdi. Ularning ham ko'zlari darrovda suratga tushdi.

— Vuy-y-y, kino yulduzi, topinglarchi qizlar qaysi kinodan?

— Kino yulduzimas jinni, Madinaning oyisi, — dedi Halima.

— Sen qattan bilasan?

— Madina ko'rsatuvdi.

— Katta bo'lganda Madinayam shunaqa chiroyli bo'larmikan?

— Bo'latta, oyisining qizi bo'lgandan keyin, bo'latta.

Xonaga Madina kirib keldi. U yangi kelgan edi. Begonasirab yurardi. Qizlar unga havaslari kelgandek baravariga o'girilib qarashdi. Ha, Madina oyisiga o'xshaydimi, o'xshamaydimi, shuni bilishmoqchi bo'lishardi qizlar. Madina oyisiga o'xshamasdi. Yuzlari qarimsiq, ko'zlarining tagi salqi, peshonasi tirish, xuddi sovqotayotgandek qunishgani qunishgan. Avvaliga Madina qizlarning o'zlariga bunaqa qarab turishlaridan hayron bo'ldi. Ammo qizlar kelib-kelib uning karavoti oldida uymalashib olganini ko'rib, sergaklandi, keyin g'aladon ustidagi suratga ko'zi tush-

di-yu, “dod” deb qizlarga tashlandi. Unisini u yoqqa, bunisini bu yoqqa itarib tashladi. Karavotda omonat o‘tirganlar narigi tomonga o‘mbaloq oshib, yiqilishdi. Madina suratni g‘aladon ustidan yulqib oldi-da, bag‘riga bosganicha muk tushib oldi. U yig‘lardi. Biz garangsib qoldik. Madinani nima deb ovutishniyam bilmasdik. Shu payt xonaga tarbiyachimiz Manzura opam kirib keldilar.

— Tinchlikmi, nima bo‘ldi?

Nima deb javob qilishni ham bilmay karavotlarimiz tomon yurdik. Tarbiyachimizning ovozi eshitgan Madina yostiqni bag‘riga mahkamroq tortdi, sezardik, u suratning fosh bo‘lib qolishidan qo‘rqardi. Manzura opa bo‘shashibgina Madinaning tepasiga keldi-da, karavotning chekkasiga o‘tirdi. Madina battar karavotiga singib ketay derdi. Buning ustiga tarbiyachimiz, uning yelkalarini silab, erkalay boshladilar. Madina “kerakmas, erkalamang” degandek g‘ingshib berdi. Manzura opa bunaqa paytlarda o‘chakishib, nima gapligini so‘rab-surishtiravermaydilar. Keyinroq tagiga yetib, bilib oladilar. Hozir qizlar bir nima deyishmadimi, Madina arzi-dod qilmadimi, tushundilarki, aralashish befoyda. Qizlarning o‘zi kelishib olishadi. Shuning uchun ohista o‘rinlaridan turib, xonadan chiqib ketdilar.

Qiyin-qiyin shu tarbiyachimizga qiyin, oyijon. Judayam ko‘ngillari bo‘sh. Birortamiz xafa bo‘lsak, kasal bo‘lsak qo‘rqib ketadilar. Shungami biz ham hamma narsani tarbiyachimizga chaqavermaymiz.

Tarbiyachimiz chiqib ketgach Halima ikkovimiz Madinaning tepasiga bordik.

— Madina, meni kechir, — dedi Halima, — bari mendan bo‘ldi. Ma’sudani boshlab kirgan, suratni olgan menman.

Madina xuddi shu iqrorlikni kutib turgandek, o‘rnidan turib o‘tirdi. Boya surat bilan o‘zini karavotga tashlaganda oynasi chil-chil bo‘ldimikan, degan edim. Xayriyat butun qopti.

— Men seni biluvdim, — dedi Madina yig‘idan

qizargan ko‘zlarini chaqchaytirib, — kechasiyoq biluvdim, biluvdim-u bunchalik surbetlik qilasan, deb o‘ylamovdim.

Halima nima deyishini bilmay “rost, qizlar shunaqa qip qo‘ydim” degandek xonadagilarga jovdirab qaradi. Halimaga achinib ketdim. Biroq o‘ylasam, Halimaning o‘rnida men bo‘lganimdayam, boshqa har qanaqa qiz bo‘lgandayam, shunday qilgan bo‘lardi. Ayb Madinaning o‘zida-ku. Oyisining suratini nima qiladi yashirib, a? Nima qiladi? Ko‘rsatib qo‘yaversin. Nimasi yomon?

— Sen Madina, — dedim unga, — og‘zim bor deb valdirayverma.

— Nima qilarding? — dedi Madina sergak tortib.

— Boshqa xonaga o‘tkazvoramiz. Sendaqalarni ko‘rishga ko‘zimiz yo‘q.

— O‘zlaring nimaga meni ishimga tiqilasizlar?

— Nimaga suratni yashirib yuribsan, yashiradigan nimasi bor? — dedim.

— Rost, — deyishdi qizlar ham baravariga.

— Yashirmasidim, ishoninglar, yashirmasidim, — zorlandi Madina, — mashu joyning direktori unamagan. Qo‘ysa, hammaning oyisini suratini qo‘yish kerak ekan, qo‘ymasa hech kimnikini... Kecha yalinib-yalinib bir kunga so‘rab oluvdim. Hech kimga ko‘rsatmayman, devdim. Shuniyam ko‘p ko‘rdinglar.

Madina shunday deb suratni topshirgani xonadan chiqib ketdi. Biz bo‘lsa judayam noqulay ahvolda qoldik. Bechora Madina biz tufayli oyisining suratini ochiq-oydin ko‘rolmas ekan. Sababi, bizning oyilarimiz tirik bo‘lishsayam suratlarini qoldirishmagan. Direktor opaning maqsadiniyam tushundik, oyijon, oyisining surati yo‘q bolalarga og‘ir bo‘ladi, oyilarini qo‘msashadi degan-da. Men bo‘lsam suratingizni qoldirmapsiz, deb sizdan xafa bo‘lib yuribman.

Keyinchalik bilsak yana bitta o‘rtog‘imiz Svetaning ham oyisini surati bor ekan. Uyam o‘g‘rincha ko‘rib yurarkan.

Biz qizlar bilan kelishib, bekitiqcha surat ko‘rishni

bekor qilmoqchi bo'ldik. Madina bilan Svetaning oyisini suratlarini xonaga oshkora qo'yamiz deb direktor opaga xat yozdik. Yo'q desalar ochlik e'lon qilmoqchi bo'ldik.

Xatimizni o'qigan direktor opa xonamizga kulib kirib keldi. Hammamizni alohida-alohida erkalagan bo'ldilar. Derazalar zixini, g'aladonlar ustini, changi yo'qmikin, deb tekshirdilar. Biz xatimizga nima javob bo'larkin, deb qarab turibmiz.

— Voy, sizlarni-ey, voy gaplaringni-ey, — dedi direktor kulib, — men qizlarimni semirtiray deb hali u yoqdan, hali bu yoqdan bir nimalar tashmalab yot-sam-u, sizlar ochlik e'lon qilmoqchi bo'lsalaring. Sizlarni ozdirib nima zaril, mayli sizlar aytgancha bo'laqolsin!

Xursandchilikdan chapak chalib yuboribmiz. Shu kuni desangiz oyijon, xonamizda to'y bo'lib ketdi, to'y. Ikkala suratni xona o'rtasidagi stolga yonma-yon qo'ydik. Madina bilan Svetani ko'rsangiz. Xuddi oylari tirilib kelgandek suyunishadi, deng. Xonamizga shu suratlar yetishmay turgan ekanmi, qandaydir xonamiz to'lib, nurlanib ketdi.

Aytishim kerak, oyijon, bu ishimiz bitta qizga — Darmonjonga yoqmadi. Ataylab qilgandek, bizam suratlarini uning ro'parasiga qo'yib qo'yibmiz-da. Qattan bilibmiz buni?

— Peshanamdan ollaring matoxlaringni, — deb yer tepinib qolsa bo'ladimi?!

— Senga nima, — dedik chuvillashib, — sendan osh-non so'rayaptimi?

— Bo'lmasa, men chiqib ketaman, bu xonadan.

— Ketsang, ketavur.

— Ha, ketaman.

Oraga tarbiyachimiz tushdilar.

— Yaxshisi, Madina bilan Svetaning joyini xonaning huv to'riga ko'chiramiz. Suratlarini o'z g'aladonlari ustiga qo'yishsin.

Shunday qildik. Bari joy-joyiga tushdi. Suratlarini qo'yganda, yurakni ezadigan bitta joyini o'ylamapmiz,

oyijon. Axir bir xil qizlar suratlarning ro'parasida sehlrangandek soatlab o'tirishardi. Bilardim, ular suratlarga tikilib o'z oyilarini o'ylab ketishardi. Suratlardan oyilarining biror-bir belgilarini topishga urinishardi.

Men Darmonjonni o'sha kungi qilg'idan keyin mutlaqo yoqtirmay qo'ydim. U to'g'ri gapirsayam, menga kesatig'dek tuyulaverardi. Umuman u bilan gaplashmasam, derdim. Ichi qora qiz ekan. Suratlarda nima gunoh? Madina bilan Svetada-chi? Yanayam bu qizlar hech nima bo'lmagandek Darmonjon bilan apoq-chapoq bo'lib yurishadi.

Bir kuni tarbiyachimiz meni yetimxona bog'i tomon boshladilar. Ular qizlar bilan shunaqa tez-tez yakka-yolg'iz sayrga chiqib turardilar. Ammo meni hech qachon taklif qilmagan edilar. Sezyapman, menga nimadir demoqchilar. Nima gap ekan, deb yuragim toshyapti. O'lay agar, safaringiz uzayib ketganiga sizlar haqingizda biror ko'ngilsiz xabar eshitamanmi, deb juda-juda qo'rqardim.

— Ma'suda, — dedilar tarbiyachimiz bosiq ohangda, — nimaga sen Darmonjonni yoqtirmaysan?

E, gap bu yoqda ekan-ku, dedim-u o'zimni bosib oldim. Shu topda nimagadir tarbiyachimizning savoliga javob berishdan ko'ra, atrofni tomosha qilish xush yoqardi. Bog'imiz shunaqa chiroyliki... tovuqlar qiy-qiylab ovoz beradi. Qushlar sayraydi. Ishkomlarda uzumlar oltindek tovlanadi. Bog'da yurgan odam kuz boshlanganini, hali zamon barglar to'kilib, sovuqlar boshlanishini esidan chiqaradi. Daraxtlar ko'm-ko'k, barglari yaltiraydi. Bu kuz fasli ukam ikkovimizning yetimxonada kutib olayotgan ikkinchi kuzimiz. Tarbiyachimizga zimdan qarab qo'yaman. Ular ham bog'ni endi ko'rayotgandek atrofga mahliyo bo'lib tikildilar. Darmonjon haqida boshqa so'ramasalar, umuman u gapirib o'tirishgayam arzimaydigan qiz deb o'yldim.

— Bahordagi bir voqeani eslaysanmi, — deb qoldilar kutilmaganda tarbiyachimiz. Men yelka qisdim.

— Huv ja ketvorgan bir satang xotin keluvdi-ku. Gaplashgani seniham boshlab chiquvdim. “Qizim, demang, satqai qiz ...” — deb urishib beruvdim o‘sha xotinni, esingga tushdimi?

— Esladim, esladim, — dedim xushyor tortib, — artistga o‘xshab ja yasan-tusan qilib olgandi.

— O‘shanda aytmovdim senga, bilib qo‘y, o‘sha xotin Darmonjonning onasi bo‘ladi.

Badanimdan chumoli yurgandek bo‘ldi, oyijon. Men u xotinni telba bo‘lsa kerak deb o‘ylagandim. Axir bizning qishloqdayam Bahri satang degan bori-di-yu telba xotin. Ja o‘xshatib kiyinib qo‘yardi. Bahri satangga kiyimdan tekkan, deyishardi. O‘shanaqa xotinlardan bo‘lsa kerak-da, deb o‘ylagandim.

O‘shanda tarbiyachimiz u bilan ko‘pam gaplashgani yo‘q. Tarbiyachimiz nimagadir o‘sha xotinning uyiga bormoqchi bo‘lgan ekanlar-da!

— Meni ko‘rgani ko‘zingiz uchib turgan ekan, mana o‘zim keldim, — dedi u tilla soatiga bir qarab qo‘yib.

— Shu qizingizning gaplari rostmikan shuni bilmoqchiman, xolos.

— E, shunga ovora qilib yuribsizmi meni, ona suti og‘zidan ketmagan go‘dak nimalar demaydi.

— Ona suti og‘zidan ketmagan go‘dak faqat rost gapiradi. Kalamushli yerto‘laga qamab qo‘yganlaringiz rostmi? Bo‘g‘ib o‘ldirmoqchi bo‘lganingizchi?

— Ha, meni sudga bermoqchimisiz?

— Kerak bo‘lsa, beraman ham.

— O‘zidan ko‘rsin u shum, keyingi erimni “ota” demadi. Oyog‘ini uchida ko‘rsatdi. Aqli kirarmikin deb... E, ota demasa satqai sar, ana yuribdi-ku, tirik yetim bo‘lib, ha, qizimga aytib qo‘ying, — deb bir nimalarni tayinlamoqchi bo‘ldi u.

— E, qizim demang, satqai qiz ... — deb tarbiyachimiz boshqa gapirtirmadi.

Darmonjon dunyodagi hamma onalarni yomon ko‘rib qolgan ekan. Men bo‘lsam, g‘ayrlik qilyapti,

deb yuribman. Bechora, begona odamni ota deyoilmagani uchun bu yerlarga kelib qolgan ekan-da. Xo'rlansayam, o'limiga rozi bo'lsayam bari bir begonani "ota" demapti. Men ham xuddi shunday qilgan bo'lardim. Begonani o'lib qolsam ham "ota" deyoilmas ekanman. Balki hamma bolalar ham shunaqadir-a? Shu voqeadan keyin onalar ham har xil bo'lishini sezib qoldim. Onalarning o'gaylarigina "Zumrad va Qimmat"dagiga o'xshab yomon bo'ladi deb yurardim. Bildimki, o'z bolasiniyam xo'rlaydigan onalar bor ekan. Bir xil paytlarda xuddi Darmonjondan yuqqandek onalarni yomon ko'rayotganimni sezib qolaman. Axir mana shunaqa onalarni ko'rgandan keyin, nima qilay, oyijon?..

Bizning yetimxonada ichki navbatchi, tashqi navbatchi degan gaplar bor. Ichki navbatchi yotoqxonada, tashqi navbatchi tashqarida. Mana shu navbatchilik paytlarida shunday voqealarning guvohi bo'ldimki, esimdan og'ay dedim, oyijon.

Oldin ichki navbatchiligimdagi voqeani aytib beray. Shu desangiz, Nargiza degan o'rtog'imiz nonushtaga tushdi-yu tuz ham totmay qaytib chiqdi. Tushgacha o'rnida silqovlanib, maktabgayam bormay karavotida ag'anab yotdi. Hech narsa yegim kelmayapti deb tushlikkayam chiqmadi. Uzun, shaftoli sharbatlari bilan siyladim, ichmadi. Limonli choyniyam og'ziga olmadi. Kech kirganda uxlab qoldi. Isitmasi birdan ko'tarilib ketdi. Alahlab qoldi. Nuqul: "Opov, ketmang", "Opov, ketmang" deb qo'llarini kimgadir cho'zadi. Shifokor chaqirdik. Shifokor tilini, tomog'ini ko'rdi, ukol qildi, o'tib ketadi, deb chiqib ketdi. Shifokorning xotirjamligidan bildimki, Nargiza "yetimxona kasali"ga yo'liqqan. Ha, yetimxona kasali bor bizda, oyijon. U sog'inish kasali! Bolalar onalarini o'ylab-o'ylab ichlaridan kuyib-kuyib, oxiri yotib qoladilar. Nargizaning nuqul "opov"lashidan shu kasalga yo'liqqan edi. Qizlar biri olib, biri qo'yib Nargizaning oyoq-qo'llarini uqalashadi, men sochiqni ho'llab peshonasiga bosaman.

Nargiza tinimsiz “opov”lab yalinadi, ketmang, deydi, to‘xtang, deydi...

Tun yarimlaganda Nargiza holdan toydimi yo isitma chekindimi ishqilib pishillab uxlab qoldi. Boshqa qizlar bo‘lsa u yonlaridan bu yonlariga ag‘anab, uyqularini topolmay yotishdi. Nargizaning ingrashlari, “opov”lab yolvorishlari xonamizga qamalib qolgandek aks-sado berardi. Qaniydi Nargizaning “opov”lab qilgan iltijolari oyisining tushiga kirsaydu, erta bilan eshikdan kirib kelsa.

Qizlarni kech yotishgan bo‘lsayam, har kungi vaqtda uyg‘otdim. Bechoralar, biri uyquga to‘ymay esnaydi, biri ko‘zini uqalaydi. Shunday bo‘lsayam hech kim nolimaydi. Nargizaning bo‘lsa “opov”lab cho‘zilgan qo‘llari jonsizdek shalvirab yotar, rangi o‘n yillik kasaldek, ko‘zlari ich-ichiga tushib ketgan edi. Qizlar Nargiza tomonga qarab-qarab qo‘yishar, uyg‘otib, bezovta qilmaylik yana deb oyoq uchida yurishar, shivirlab gaplashishardi.

Men qizlarimizni bir-birlarini shunaqa ayashlarini ko‘rganimda biram suyunib ketamanki, oyijon. Bunaqa mehr-oqibat bitta uyda yashaydigan otanonaning bolalaridayam bo‘lmasligi mumkin. Biz o‘n to‘qqiz qiz kulsak — kulamiz, yig‘lasak — yig‘laymiz. Dardimiz bitta-da, dardimiz. Yetimmiz!

Qizlarimiz yuvinishib, taranishib nonushta qilgani oshxonaga tushib ketishdi. Men Nargiza bilan qoldim. Sezib turibman, qizlarimiz hali zamon chala-chulpa ovqatlanishadi-da, topgan-tutganlarini o‘zlari yemay ko‘tarib chiqishadi. Shularni o‘ylab, Nargizaning peshonasiga kaftimni bosdim, muzdek. Kasali o‘tibdi. Nargiza yetimxonaga mendan oldinroq kelganlardan. Shuncha vaqtdan beri uni hech kim so‘rab kelmadi. U qanday qilib kelib qolganikin bu yerga?

Shularni o‘ylab o‘tirsam, eshik taqillab qoldi. Odatda, o‘g‘il bolalarning ishlari bo‘lsa eshikni taqillatishib, chiqishimizni kutib turishadi. Nargizani uyg‘otib yubormay deb asta turdim-da, oyoq uchida yurib, eshikni ochdim. Yo tavba, ro‘paramda bitta

xotin turardi. Tanishgayam, notanishgayam o'xshardi. Biz tarbiyachimizning ruhsatisiz hech kimni yotoqxonaga qo'ymasdik. Shuning uchun darrovda orqamdan eshikni yopib, salom berib, "keling" degandek o'sha xotinga yuzlandim. Tavba, bu xotinning qayerlaridir Nargizaga o'xshab ketardi. Nahotki, tushida ko'rgan bo'lsa, deymen quvonib.

— Sizni tanidim, siz Nargizaning oyisiz-a? Tushingizga kirganda-a?

U xotin bo'lsa gaplarimni eshitmagandek beparvogina:

— Manzuraxonni chaqirgin, — dedi.

Men u xotinga angrayib qarab turardim. Nahotki adashdim. Ha, ha adashdim. Ko'zinga shunaqa ko'rindi shekilli.

— Tarbiyachimizmi, Manzura opammi? Qizlar bilan oshxonaga tushib ketdilar.

Haligi xotin ters burilib ketib borayapti-yu, hatto, yurishlariyam Nargizaga o'xshardi. Xonaga qaytib kirsam Nargiza uyg'onib, sergaklanib yotibdi.

— Tuzukmisan o'rtoqjon, qo'rqitvordingku... Turolasanmi, bet-qo'lingni yuvolasanmi?

— Kim bilan gaplashding, — so'radi Nargiza qiziqib.

— Eshitdingmi? Ey, qiziq bo'ldi... Bitta xotin Manzura opamni so'rab kepti. Ko'zinga xuddi seni oyingga o'xshab ko'rinsa bo'ladimi?!

— Oying deysanmi, yolg'onchi, sen oyimni ko'rmagansan-ku?

— Senga o'xshab ketarkanda...

Gapimizni nonushtadan qaytgan qizlar bo'lib qo'yishdi. Aytganimdek, ular yaxshi ko'rgan biron yegulikni o'zlari bilan olib chiqishgan edi.

Anchadan keyin xonaga tarbiyachimiz kirib keldilar. Har doimgiday jiddiy, o'ychan. Ammo ular ham tun bo'yi Nargizaning dardiga sherik bo'lib, uxlamay chiqqan edilar. Ranglari siniqib, kasal odamga o'xshab qolibdilar. Nargizaning karavoti chekkasiga o'tirib, peshanasiga kaftlarini bosdilar. Yengil

xo'rsindilar-da, uni erkalab ikki yuzidan, peshanasi-dan, ha, oyijon, Siz meni qandoq erkalingiz, xuddi shunaqa erkalab o'pdilar. Biz havasimiz kelib qarab turardik. Shu payt, ko'rib ishonmaydigan ish bo'ldi, oyijon. Tarbiyachimiz boshlarini ko'tarar ekan, ikki tomchi yosh yuzlarini chizib tushdi. Buni Nargizayam ko'rdi. Ko'rdi-yu, uyam hayron bo'ldi. Axir tarbiyachimiz ko'z yoshi to'kkan odamni judayam yomon ko'rardilar-da. Irodasizlargina ko'z yoshi qilib o'tiradi, derdilar. Biz Manzura opamizning ko'z yoshi qilayotganini birinchi marta ko'rib turardik.

— Yaxshi bo'p qoldim-ku, opa, — dedi Nargiza xijolat chekib.

— Ha, — dedilar tarbiyachimiz jilmayishga urinib, — yaxshi bo'linglar iloyim, hech qayerlaring og'rimasin.

Tarbiyachimiz shunday deb xursandligimdan yig'layapman demoqchi, bo'lardilar. Oyijon, men bu ko'z yoshining sababini keyinroq bildim. O'sha kelgan xotin Nargizaning oyisi ekan. Manzura opani so'rab kelgan kuni Nargizadan voz kechish uchun ariza bergani kelgan ekan. Men bo'lsam...

Shu desangiz, tashqi navbatchiligimdayam shunga o'xshab ketadigan bir voqea bo'ldi. Kichik guruhdan Odil degan bola maktabdan nari uyiga qochib ketibdi. Oldinisiga hayron bo'ldim. Qochib ketgan bo'lsa uyini qandoq toparkin, deb. Odilning tarbiyachisi uni ushlab kelamiz, deb meni o'ziga qo'shib oldi. Ko'chaga chiqamiz-u, birorta mashinaga o'tirib, uni quvishga tushamiz, deb o'ylabman. Qayoqda, ko'chaga chiqdik-da, o'ng tomondagi yo'lakning kun botishiga qarab ketaverdik. Maktabimiz shu tomonda edi. Odilning qayoqqa qarab qochganini oldin maktabdoshlardan bilib olsak kerak-da, degan o'y kallamga keldi. Nimagadir bu tarbiyachining xotirjamligi menga yoqmasdi. Uning o'rnida Manzura opam bo'lganlarida bormi, hammani oyoqqa turg'azgan bo'lardilar. Bu tarbiyachi ko'chaning o'ng tomonidan borib, chap tarafidan qaytib kelib, topolmadim deydiganlar xilidanga

o'xshardi. Aytganimdek ko'chaning chap tomoniga o'ta boshladik. Ammo orqaga qaytmadik. Tor ko'chaga burildik. Bu ko'chada biz bilan maktabda o'qiydigan bolalar, qizlar uchray boshladi. O'g'il bolalar koptok tepishar, qizlar tepki o'yini bilan band edi. Biz bilan birovning ishiyam yo'q edi. Kutilmaganda tarbiyachi koptok o'ynayotgan bolalardan birini mahkam ushlab oldi. Bola qayrilib tarbiyachini ko'rdi-yu qo'lga tushgan o'g'ridek qo'rqib ketdi. Qo'lini bo'shatib, qochib qolmoqchi bo'ldi. Uddasidan chiqolmadi. Tarbiyachi ko'rinishdan bo'shang ko'ringani bilan qo'li temirdek ekan. Men Odilni ko'rmagan edim, shungami, nima qilishimni bilmay angrayib turib qoldim. Tarbiyachi menga jahl bilan qaradi-da, buyurdi:

— Ushlasang-chi, narigi qo'lidan, nima buncha shalpayasan? Odil menga bo'y bermadi.

— Papkang qani, — so'radi tarbiyachi.

— Deddomda, Shokir obketgan...

Nimaga bu bola qochib ketmay, koptok tepib yuribdiykin, deyman o'zimga o'zim. U uyiga qochmagan ekan-da, shunchaki mahalla bolalariga ergashib kep qopti-da. Tarbiyachining to'g'ri shu yoqqa kelishidan bu birinchi martasi emas ekan-da. Uyiga qochib ketdi, deb vahima qilishlari-chi, tavba?

— O'zing yurasanmi yo, — deb tarbiyachi bir-ikki siltab tashladi. Odil oyoqlarini yerga tirab oldi.

— Bo'l, deyapman, yur! — tarbiyachining zardasi qaynadi.

Shu payt tomoshabin bo'lib turgan bolalardan biri:

— Ana, Odilni oyisi, — deb qoldi.

Uchtami, to'rtta hovli narida bola ko'targan bir ayol biz tarafga qarab turardi. Odil tarbiyachining angrayib qolganidanmi, bir siltandi-yu, "oyi-i!" deb o'sha tarafga shamoldek uchdi. Haligi xotin bo'lsa nima gapligini darrov fahmladi shekilli, shoshib qoldi. O'zini hovli ichkarisiga olib, darvozani taqa-taq yopib oldi. Odil bo'lsa darvozaga yopishib oyilab yig'lay boshladi. U mushtlari bilan darvozani urar, oyog'i bilan tepar, yalinar edi:

— Oyijon, jon oyijon, Reksni bitta ko'ray... qo'rq-mang, qomiman, deddomga ketaman, oyi-i...

Reks degani it bo'lsa kerak deb o'ylab qoldim. Oyisiyam darvozani ocha qolsa nima qilarkin-a? Odilni it tanib qoldimi, zanjirni uzgudek o'zini u yoq-dan, bu yoqqa ura boshladi. Odil bo'lsa endi oyilash-dan to'xtab, nuqul:

— Reks, Reks, Reksim, — deb, yig'lardi. Reks bo'lsa battar to'polon ko'tardi. Itning ovozi eshitgan bolalar qo'rqib qochishdi...

— Ipi uzilsa, hammamizni yeydi...

— Ovcharkalar yemaydi.

— Anovundayam Odil keluvdi, oching deb rosa yig'lovdi. Itiyam shunaqa uvillab yig'lab berdiki... Oyisi bari bir ochmadi eshikni.

— Keyin Odil yig'lab-yig'lab deddomiga ketdi-a?

— O'zi yomon-da, o'shanga oyisi deddomga bervorgan.

— Seniyam bervorish kerak, senam yomonsan.

— Ja senga.

Bechora Odil, deyman o'zimcha, seni bir qadam joydagi yetimxonagayam berishadimi-ya? Uzoqroqqa berishmaydimi. Axir uyi ham, o'rtoqlari ham shu yer-da bo'lsa, qandoq qilib o'rganadi Odil yetimxonaga.

Odil yig'lab charchadi, biz esa kutib. Sezardim, Odilning ham xo'rliги kelardi, ham alami. Shu payt bir kampir qo'shni hovlidan cho'michda suv ko'tarib chiqib qoldi. U menga cho'michni berdi-da, Odilni qo'lidan ushlab o'ziga qaratdi. Odil jimib qoldi. Bu jimlikdan Reks Odilni yo'qotib qo'ygandek, boyagi-dan ham battarroq hovlida shovqin-suron ko'tardi. Zanjiri zarb bilan sharaqlardi. Buni Odil ham sezdi shekilli, "Reks... Reks..." deb ovoz berdi. It tinchi-gandek bo'ldi. Reks ham Odilni ko'rgisi kelardi. Odil endi suv tutgan xotinga yalina boshladi:

— Toji xola, siz ayting ochadilar, Reksni ko'rsam bo'ldi, xudo ursin, ketaman.

Shu payt tarbiyachi o'zini tutolmay qoldi.

— Onamisan, toshmisan, — deb baqirib berdi. — tirnoqqa zor bo'l-e.

— Qo‘ying u xudobexabarni, yuzini ko‘rgilik qilmasin, naq u dunyo-yu bu dunyoingiz kuyadi-ya, ochmagani tuzuk, — dedi Toji xola.

Toji xola Odilning yelkalarini uqalab, peshanasidan o‘pib, erkalab yalingandek dedilar:

— Odiljon, bora qolgin, o‘sha deddomingga, ko‘rib turibsanku ahvolni. O‘zimoq bola qilib olardim seni. Jonim ko‘zimga ko‘rinib turibdi, ora kunda sarson bo‘p qolasanmi, deb qo‘rqaman, toychog‘im. Hademay katta yigit bo‘lasan, bu kunlaram o‘tadiketadi, shamoldek...

Shu payt Reks g‘ingshib, eshikni tirnoqlari bilan timdalay boshladi. Endi ketishga shaylanib turgan Odilga qayta jon kirdi. U yana darvozaga yopishdi:

— Reksim, Rek... och eshikni och, o‘zing aqlli itsan-ku, och!

Reks eshikni battar timdalab g‘inshir, darvozaxonani boshiga ko‘tarib, vovillab qo‘yardi. Ammo kutilmaganda itam jim bo‘p qoldi.

Odil bir nimani sezgandek jon holatda Reks, Rekslab qoldi. Reks javob bermadi. Ammo ovozi shundoq tepamizda momaqalldiroqdek gumburladi. Devordan shovullab tuproq to‘kildi. Reks devor ustida paydo bo‘ldi. Naq buzoqdek. Urunaverganidan tili osilgan, bo‘ynida bir qulochcha uzilgan zanjir. Bolalar duch kelgan ochiq eshikka o‘zlarini urishdi. Odil bo‘lsa xursandligidan sakraydi:

— Reks, Reks tush pastga, tush sakra...

Reks devor shuvog‘ini ko‘chirib pastga sakradi. Odil ikkovi tikkama tikka bir-birovlari bilan quchoqlashib ketishdi. Reks Odilning yuz-ko‘zlarini yalar, o‘zicha bir nimalar demoqchi bo‘lar, g‘alati ovozlari chiqarardi.

— Vuy, sen-e, shu zanjirniyam uzdingmi-a? Polvonsan-da, o‘zingam, — deb Odil xuddi odam bilan gaplashgandek gaplashardi. Birdan Odilning ko‘zi bizga tushdi-yu:

— Qo‘rqmanglar, tishlamaydi, aqli ko‘p, — deb bizga maqtandi. Odil aytmasayam itning aqlliligi

shundog'am ko'rinib turardi. Odilni deb zanjirni uzib chiqdi-ya, jonivor. Mana endi Odilning onasi darvozani ochishga majbur bo'ladi. Odilga ochmagan bo'lsa, itga ochadi, deyman o'zimga o'zim. Yo'q, yanglishgan ekanman, darvoza ochilmadi!

— Odiljon, ketaylik endi yur, — dedi tarbiyachi, — charchadim bolam boshimga og'riq kirib ketdi.

— Reks-chi, Reks ko'chada qoladimi? — kapalagi uchib so'radi Odil.

— Reks ko'chada qolib ketmaydi, biz ketgandan keyin, oying uyga kiritib oladi. Tezroq ketaylik, yur.

— Reks, — dedi Odil, — sen sho'tta tur, — men endi deddomga ketaman, eshitdingmi, sho'tta tur! — deb Reks turishi kerak bo'lgan joyni qo'lini bigiz qilib ko'rsatdi Odil.

Reks o'sha joyga borib cho'nqaydi. U Odilning ketishini sezayotgan edi, shungami, norozi bo'lib, boshini u yoq, bu yoqqa tashlab g'ingshiy boshladi. Biz Toji xola bilan xayrlashib yo'lga tushdik. Odil ketib boryapti-yu ko'zi Reksda. Reks bezovtalanib o'qtin-o'qtin vovillab qo'yar, uyam Odildan ko'zini uzmasdi.

— Reksam yura qolsin, — deya yalingandek so'radi Odil tarbiyachidan.

— Yursa, yura qolsin, tovuслarga, qirg'ovullarga qarab yuradi, — dedi tarbiyachi. O'zi tarbiyachiyam Reksni olib ketishni xohlab turgan ekan-da. Shunga darrovda rozi bo'la qoldi.

— Reks, — dedi Odil orqasiga o'girilib, Reks quloqlarini ding qilib bizga tikildi. Odil unga "kel", ishorasini qilgan edi, it bamisoli qanot chiqargandek uchib keldi. Odil zanjirdan ushlab oldi. Shunda bolalar darvoza orqasidan mo'ralab baqirishdi:

— Xayr, Odil, xayr!

Odil orqasiga o'girilib ularga qo'l siltar ekan, birdan to'xtab qoldi. Qarasam, Odillarning darvozasi qiya ochilgan, u yerdan boyagi xotin qarab turardi. Odil yoshdan qizargan ko'zlarini tikib shundoq qarab turardiki, hozir yana shu tomonga qarab chopib qolsa kerak, deb o'yladim.

— Ha, yana nima bo‘ldi, ketdik, — dedi tarbiyachi bizga.

Odil yuzini ters o‘girdi-da, itini yetaklaganicha tarbiyachining oldiga tushdi. Bir mahal orqamizdan “Reks, Reks” degan ayol kishining ovozi eshitildi. Reks quloqlarini ding qilib orqaga qaradi. Odil ham.

— Oyimlar, — dedi Odil.

— Qo‘yvoraqol, boraqolsin uyingga, — dedi tarbiyachi.

— Reks uyga borasanmi, a borasanmi? — dedi o‘pkasi to‘lib Odil. Reks turgan joyida bir aylanib, allaqanday ovoz chiqarib, bezovtalandi. Yana boyagi ovoz takrorlandi: Reks, Reks...

— Uyga bor, — deb Odil qo‘lidagi zanjirni tashlab, — oyimlarga sen keraksan, sen...

Ha, oyisi o‘g‘linimas, itini chaqirayotganiga Odilning alami kelgan edi.

Reksdan biz uzoqlashib keta boshladik. Jonivor Odil zarda qilib zanjirni otgan joyda qimir etmay turardi. Bunchalik aqlli bo‘lmasa bu it! Reks, Reks! Ovoz yana takrorlandi. Reks uyga borishni o‘zi xohlamadi, orqamizdan yetib keldi. To‘g‘ri yo‘lni o‘zi tanladi. Axir bola sig‘magan uyga it sig‘armidi...

Yaxshiyam yetimxonalar bor ekan-a, oyijon! Bo‘lmasa Odilga o‘xshagan, Darmonjonga o‘xshagan, Nargizaga o‘xshaganlar boshini qayoqqa urishardi?

Oyijon, yetimxonaga, ota-onalari xohlamaganidanmas, boshqacha yo‘llar bilan ham bolalar kelib qolarkan. Mana, eshiting:

Soliha degan qiz bizning safimizga yigirmanchi bo‘lib qo‘shildi. Avvaliga u bizga o‘rganolmay, xurpayib yurdi. Soliha chiroyli edi. Yuzlari cho‘ziqdan kelgan, chap qoshining tepasida qop-qora holi bor. Sochlari ham uzun, ham qalin. Biz uni o‘zimizga qanchalik yaqin olmaylik, u bo‘lsa nuqul o‘zini olib qochadi. Xuddi bu yerga uch-to‘rt kunga kelgandek. Shungami, maktabgayam bormasdi. Topib olgan joyi kutubxona edi. Oradan bir hafta o‘tdi, shekilli uni bir odam so‘rab keldi. U o‘shandayam kutubxonada edi.

Lablari uchib, koʻzlari bejolanib qoldi. Qoʻrquv har qanday chiroyli odamniyam xunuk qilib yuborar ekan, oyijon. U, nazarimda, qayoqqa qochib qutulsam ekan, degandek atrofdan pana joy izlardi. Kimdandir himoya kutardi. U oxiri kutubxonachining yoniga bordi-da:

— Meni qidirib kelishibdi, — dedi titrab-qaqshab, — yashirib qoʻying biror joyga, opajon, yaxshiligingizni oʻlgunimcha unutmayman.

— Kimdan yashiraman seni, kimdan, nimaga? — dedi kutubxonachi hayron boʻlib.

— Melisa boʻlsa kerak, melisa, — dedi koʻz yoshlarini toʻxtatolmay Soliha.

— Men bor joyda qoʻrqma qizim, melisasiniyam yuzini teskari qilib yuboraman, — dedi kutubxonachi oʻrnidan turib. Bu gapdan Soliha sal oʻziga kelib, koʻz yoshlarini artib, bizga qaradi.

— Borlaring, aytib kellaring oʻsha odamni, har qancha gapi boʻlsa meni oldimda gaplashsin, — dedi kutubxonachi bizga.

Chindan ham oʻsha kelgan odam forma kiymagan militsiya xodimi ekan. U Manzura opa bilan kutubxonaga kirib, oʻsha yerda uzoq qolib ketishdi. Oʻsha kungi voqeadan keyin biz Solihadan oʻzimizni tortib qoldik. Hamma Soliha haqida oʻzicha oʻylab, oʻzicha hukm chiqarib qoʻygan edi. Biz, oʻzimizni tortib qolganimizni Soliha sezmadimas, sezdi. Endi u bizga qarab intila boshladi. Odamning rahmiyam kelarkan, bunaqa paytda. Yetimxonada eng yomon azob yakkalanib qolish.

Shunday kunlarning birida hammomga boradigan boʻlib qoldik. Soliha: “Bormayman”, — deb turib oldi. — Borasan, dedilar tarbiyachimiz, — bizda hammom boʻyicha tartib bitta. Ovqat yemaslikka, maktabga bormakslikka, yana allanimalargadir haqqing bor. Lekin hammomga borasan. Biz kasallikni tozalik bilan haydaymiz.

Soliha battar sarosimada qoldi. Biz avtobus keli-

shini kutardik, u bo'lsa har birimizga yalingandek termular, bizdan najot kutardi.

— Qizlar, jon qizlar, meni qoldirib ketinglar, — dedi. Biz indamadik.

— Axir meni o'ldirib ketishadi, o'ldirib, — dedi oxiri sirni ochib.

Bu gapdan hamma sergak tortib, Solihaga qarab qoldi.

— O'ldirib ketishadi? — qizlardan biri takror so'radi.

— Kim o'ldirib ketadi?

— E, ko'pam vohima qilovurma, bilasanmi, biz bilan kim boradi, kutubxonachi opa.

— U opa bir vaqtlar milisalarni boshlig'i bo'lgan!

— Qizlar, — dedi Halima, — shunchalik ekan, Manzura opaga aytaylik, Solihani qoldira qolsinlar.

— Yo'q, mayli, — dedi Soliha, — kutubxonachi opa borsalar boraman.

Bundan ma'lum bo'ldiki Soliha o'g'rilar to'dasidan. To'dadan faqat Soliha qo'lga tushib qolgan. Ko'pgina sirlarni u biladi. Shunga to'dadagilar uni o'ldirib ketishmoqchi...

— Hammomga eson-omon borib keldik.

Hammomga borish judayam yaxshi, oyijon. U yerdan qaytgandan keyin hamma baravariga chiroyli bo'lib ketadi, deng. Oqi-oq, qizili-qizil bo'lib. Ayniqsa, Soliha boshqacha bo'lib ketdi. Uni xuddi yangidan ko'rayotgandek qizlar chekka-chekkadan qarashardi. Oxiri tosh oyna ro'parasiga Solihani o'tqazishdi. Uning sochiyam, qoshlarim, kiprik-lariyam tim qora tusda. Payqamagan ekanmiz, o'ng yuzida kuldirgichi bor ekan. Axir o'zi qachon qarasa xo'mrayib yurdi-da. Voy Solihani kulganida ko'rsangiz. Go'zallarning go'zali, parilarning parisi. Qizlar bizziyam sochimiz senikidaqa bo'lib o'ssin deb sochlarini sochiga chayqatib olishadi deng. Solihaga hammom hammadanam yoqqan edi. Nazarimda, uning hamma ko'ngil xiraliklari-yu g'ashliklari hammomda yuvilib ketgandek edi. Qizlar Solihaning

sochini u yoqqa surib, bu yoqqa surib yuz ohangga sola boshlashdi. Sochiyam xuddi joni bordek qo'lda turmas, o'ringa bo'y bermasdi. Qizlar uning tepasida tinimsiz chug'urlashardi.

— Soliha, sochingni kesasanmi?

— Nimaga endi kesarkan?

— Shundoq sochini-ya, qo'y-e, og'zingdan shamollar uchirsin.

— Kessa bormi, xuddi qo'shiqdagidek soch emas, sharshara bo'ladi.

— Sen-chi, Soliha, bo'ladi-ku, haligi go'zallar tanlovi, o'shanda bir martagina qatnashgin.

— Nima bo'ladi qatnashsa? — Soliha uchun boshqasi so'radi. Nimagadir bu suhbatlarda Soliha qatnashmasdi.

— Nima bo'lardi, O'zbekiston go'zali bo'ladi.

— Keyin nima bo'ladi?

— Shuniyam bilmaysanmi, kinoyulduzlikka olishadi.

— Vuy, qizlar oramizdan kinoyulduz chiqsa, yomonmi? Zo'r-ku.

— Bo'lmaydi kinoyulduz bo'lsa Soliha bizni tani-may qoladi. Yo taniysanmi, Soliha?

— Taniydi, hamma sen bo'ptimi, tanimay, — qizlar qiqirlab kulishdi. Men Soliha nimaga soqov bo'lib o'tiribdi deb ko'zguga qaradim. Qaradim-u hayron bo'lib qoldim, oyijon. U ko'zlarini chirt yumib, labini tishlaganicha miq etmay o'tirardi. Chiroyli yuzlarini bo'lsa ko'z yoshlari yuwardi.

— Soliha, yig'layapsanmi? — yig'layotganini ko'rib turib so'rabman, deng. Qizlar ham ko'zguga qarashdi.

— Ha, yana nima bo'ldi, yana qattan tega qoldi, — jerkib berdi qizlardan biri.

Soliha bo'lsa shuni kutib turgandek, yuzini hovuchiga bosgancha, baralla ho'ngrab yubordi. Qizlar o'zlarini chetga tortib, bir-birlariga yelka qisib, xomush bo'lib qolishdi.

— Qizlar, — dedi Soliha yig'laganicha, — jon qizlar, yalinib-yalinib so'rayman sizlardan. Shu meni

maqtamanglar. — Meni kinoyulduzlariga o‘xshat-manglar, menga it o‘xshasin, it! Sizlar meni bilmay-sizlar, men, men...

Soliha tizzasiga boshini qo‘ygancha o‘zini tutol-may yig‘lar, qop-qora sochlari atrofga yoyilib, yuz-ko‘zlarini berkitgan edi...

Nima bo‘lgan ekan o‘zi bu qizga deysizmi, oyijon? Yomon bo‘lgan ekan, ha judayam yomon bo‘lgan ekan. Voy, bechora Soliha!..

Soliha oilasida yolg‘izgina qiz ekan, oyijon. Otasining olamdan o‘tganiga hali yilam bo‘lmapti. Onasi kasalxonada supuruvchi bo‘lib ishlarkan. Shu desangiz, Soliha o‘rtog‘i bilan hind kinosiga tushibdi. Kino qosh qorayganroqda tugabdi. Ikki o‘rtoq uylar-iga chopib ketishayotsa, militsiyaning mashinasi yo‘lini to‘sibdi. Undan ikki nafar militsioner tushib-di-da:

— Ha, o‘g‘rilar, qayoqqa qochib boryapsanlar? — deyishibdi.

— Biz uyimizga... — deyishibdi qizlar.

— Qani, mashinaga chiqlaring, kerak joyda gap-lashamiz. Ayblaring bo‘lmasa olib kelib qo‘yamiz.

Qizlar mashinaga chiqishibdi. Ularni notanish ko‘chalardan bir maktabga olib borishibdi. Bu payt hammayoqni qorong‘ilik qoplagan ekan.

Solihaning o‘rtog‘i mashinada qolibdi, uni bo‘lsa maktab hovlisiga boshlashibdi. U yerda bir qorovul chol bor ekan. “Mana, otaxon, o‘g‘rini tutib keldik, hozir ichkariga obkiramiz-u, o‘g‘riligini bo‘yniga qo‘yib chiqamiz”, — deyishibdi.

Solihani qorong‘i xonaga olib kirishibdi. Uni labo-ratoriyadan allambaloni o‘g‘irlagansan, deb ayb qo‘ya boshlashibdi. Soliha bu joylarni birinchi marta ko‘rib turishini aytibdi. Bo‘yningga olmasang, o‘ldiramiz, sal joning qiynalsin, deb uni qiynay boshlashibdi. Shu darajaga borishibdiki, oyijon, bechora Solihani bebaxt qilishibdi... Yana nima deyishibdi deng: “Endi bundan bu yog‘iga bizniki bo‘lding, birovga churq etsang, seniyam, onangniyam, kallang ketadi. Jim yursang,

taqinchoqlarning zo'riyam, kiyimlarning zo'riyam seniki bo'ladi. O'qishlargayam o'zimiz obkirib qo'yamiz. Bilib qo'y, kimga arz qilsang, o'sha bizzini odam bo'ladi".

Soliha bechora bir haftagacha dardi ichida uydan chiqmapti. Oxiri oyisiga aytibdi. Onasi bo'lsa, yig'labdi, siqtabdi, biron joyda suyanchig'i yo'qligidan, yakka-yu yolg'izligidan nolibdi, ularni tashlab, olamdan o'tib ketgan Solihaning otasini qarg'abdi. Oxiri nima bo'пти deng, oyijon, Solihaning oyisi o'zini o'zi zaharlabdi. Yostig'i tagidan xat chiqibdi. Unda bo'lgan ishlar yozilgan ekan. Solihaning yodida esa mana shu gaplar qolibdi:

"Haq qaror topishiga odamning yo zo'ri, yo zari bo'lishi kerak. Mening jonimdan bo'lak hech nimam yo'q edi. Ey, yaxshilar, mening ketgan jonim haqqi, gunohkorlar otilmasa siz tiriklardan rozimasman".

Jinoyatchilar qo'lga olinib, ustilaridan tergov boshlanibdi.

Shu voqeani eshitgan kunim tun bo'yi uxlay olmadim, oyijon. O'zimcha ne-ne rejalar tuzmadim. O'zimcha yetimlar shaykasini tuzmoqchi, ular bilan Solihaga o'xshaganlarning baxtini o'g'irlaganlarga, qarshi qo'ymoqchi bo'ldim.

Mana shunaqa o'ylar bilan mizg'ib ketibman. Bilmadim, qancha uxladimikin? Bir tush ko'rib, karavotda yotgan odam polda ko'zimni ochdim. Tushimda ikkovimiz ukamni ko'rgani lagerga ketayotgan emishmiz. Qarang, ukam hech qachon lagerga bormagan, lagerga borish yoshidayammas, to'g'rimi? Avtobus tiqilinchmish. Lager deganlari tog' tomondamish. Men avtobusning oldingi eshigiga, siz bo'lsa orqa eshigiga yaqin turganmishsiz. Bir-birimizga yaqinlashib olaylik desak, odamlar orasidan o'tib bo'lmasmish-da. Avtobus oynasidan tashqariga qarab qopman, o'shanda avtobus to'xtaganmi, bilmayman, ishqilib, Siz tushib qolibsizda. Qarasam, yo'qsiz. Yig'lab, avtobusni to'xtatdim. "Shu yo'lning chekkasida turib tur, oyingam hozir boshqa mashina-

da quvib kelib qoladi”, — dedi haydovchi. Men o‘zimni o‘zim ayblardim. Oyimlar tush deganlar-u o‘zim anqovsirab qolganman. Atrofimga bundoq qarasam, hammayoq tog‘- u tosh. Shundoqqina tepamda tog‘lar... Qo‘rqib ketdim. Xuddi xarsanglar orasidan bir nimalar chiqib kelayotgandek. Kimdir yo‘talgandek bo‘ldi. Bu yerda odamlaram bor ekan-u, deb quvonib ketdim. Orqamga qarasam bir kishi xarsang ustida menga qarab turibdi. Assalomu alaykum, dedimu... U menga hirs bilan tikilib turardi. Yaxshi odamga o‘xshamasdi. Yo mast, yo jinni bo‘lsa kerak, degan o‘y ko‘nglimdan kechdi. Haligi odam “qo‘lga tushdingmi”, degandek toshdan toshga sakrab menga yaqinlasha boshladi. Men bo‘lsam siz kelishingiz kerak bo‘lgan tomonga qarab chopdim. Shu payt old tomondan ham xuddi shunaqa bitta odam to‘sib chiqdi. Xayolimga Solihaning baxtini qaro qilgan kishilar keldi-yu, tog‘ tomonga qarab qochdim. Men toshdan-toshga sakrab shunday joyga borib qoldimki, nari yurishga bir qadam ham yo‘l yo‘q edi. Ha, jarlik og‘zida turardim. Ular ustimga bostirib kelib qolishdi. Yo‘q, men... men yaxshisi o‘zimni jarlikka otaman...

Ko‘zimni ochsam polda yotibman. Qizlar yuzimga suv sepishibdi. O‘zimga keltirishibdi. Tarbiyachimiz u yer, bu yerimni paypaslab: “Hech yering og‘rimayaptimi?” — deydilar. Ko‘zim ochiq, qizlarni ko‘ryapman, lekin haligi badbashara odamlar ko‘z oldimdan nari ketmaydi... Shundan beri ichim qorong‘i, oyijon, nima bo‘larkin bu yog‘i-a, nima bo‘larkin?

* * *

Ma‘zur tutasiz, o‘quvchim, bundan bu yog‘idagi voqealarga aralashishga to‘g‘ri kelib qoldi. Ma‘sudaning kundaligi shu yerga kelganda to‘xtadi. Sezib turibman, xavotirga tushayapsiz. Ma‘sudaning tushi sizni ham bezovta qilib qo‘ydi. Shu manzilgacha Ma‘sudaning dardlariga sherik bo‘ldikmi, bu yog‘ini ham...

O‘sha kuni yakshanba edi. Yakshanbadan ikki kun

avval yetimxonaga qandaydir idoradan bolalarni bozor-o'char ishlariga o'rgatishsin deb pul tushgan edi. Bu pul katta yoshli bolalarga bo'lishib berildi. Ular o'sha pulga bozorga, do'konga borib xohlagan narsasini sotib olishi mumkin edi. Qayerdanam shu pul kelib qoldi-ya? Hamma tinchgina o'tirgan edi, to'zimasdan. Ma'sudaning xonasidagi qizlar ham yetimxonadan chiqishdi.

Qizlar magazinga kirishdi, magazindan chiqishdi. Ularga nima kerak edi? O'zlari ham bilishmasdi. Buning o'rniga falon-falon narsani sotib olib kelinglar deyishganda, boshqa gap edi. Qizlarning boshi qotdi. Shunda Ma'suda taklif kiritdi:

— Yuringlar, bozorga boramiz, bozorda hamma narsa arzon bo'ladi, deb eshitganman.

— Ketdik, — deyishdi qizlar.

Ma'sudaning xayolida tez-tez tushiga kiradigan bozor voqeasi. U nuqul oyisini bozorda yo'qotib qo'yardi. Oyisi ukasi ikkovini chinor tagida qoldirib ketadi. Tushida ko'rgan chinor bormikan bozorda? Ma'suda ana shular haqida o'ylardi. Tavba, bozorga kirishlari bilan Ma'sudaning ko'zi bozor o'rtasidagi ulkan chinorga tushdi. U tarvaqaylab butun bozorni egallagan edi. Beixtiyor Ma'sudaning qadamlari tezlashdi. Tezroq, ha, tezroq chinorning tagiga yetib olishga shoshilardi. Tushida ko'rgan chinor rost chiqib tursa-ya. Qiziq-ku. Faqat yonida oyijonisi, ukasi yo'q. Ma'suda odamlarga turtinib-surtinib chinorga yaqinlashdi. Oyijonisi: “Shu yerda kutib turlaring”, — deb ko'rsatgan joyni izlay boshladi. Ha, mana shu yer edi shekilli. Chinorning ulkan tanasidan ikki qadam berida, keyin oyijonisi qayoqqa qarab yuruvdi. Anovi yoqqa, kun chiqish tomonga. Hoziram xuddi tushidagidek o'sha tomonda odamlar qaynab yotibdi. Ma'suda o'zidan o'zi no'xat gulli ko'ylak kiygan ayolni qidirib alanglay boshladi.

— Ma'su, jinni-pinni bo'ldingmi? Ma'su, deyapman.

Ma'suda eshitmasdi... No'xat gulli ko'ylakli xotinni topib olsa bas...

— Ma'su, deyaрман, hey!

Ma'suda o'zini kimdir qattiq silkalaganidan keyin o'ziga keldi. Halima unga qarab turardi.

— Nima, — dedi Ma'suda undan astoydil xafa bo'lib, — nima deysan?

— Qayoqqa, birov bilan va'dalashganmisan? Ja!

Ma'suda o'zini qo'lga oldi-da:

— Qizlar, bilasizlarmi men bir o'zim aylangim kelyapti. Bir soatdan keyin mashu joyda uchrashaylik, xo'pmi? — dedi.

Qizlar bir-birlariga qarab yelka qisishdi.

— Hozircha xayr, bo'lmasa.

Ma'suda qizlardan ajradi-yu o'zini odamlar orasiga urdi. U yana boyagi holga tushgan edi. Xohlaydimi, xohlamaydimi, ko'zlari no'xat gulli ko'ylak kiygan ayolni qidira boshladi. Odamlar xuddi o'sha tushida ko'rgan odamlar. Muruvvatini burab qo'yib yuborilgan qo'g'irchoqlarga o'xshashardi. Bir-biriga surkalishib, u yoqdan bu yoqqa, bu yoqdan u yoqqa sirg'alishadi. Aksiga olib bittayam xotin no'xat gulli ko'ylak kiymapti. Ma'suda odamlarni yorib o'tib tarvuz-qovun bozoridan chiqib qoldi. Tarvuz, qovunlar tog'-tog' bo'lib uyulib yotibdi. Ma'suda bir zum angrayib turdi-da, yana odamlar orasiga o'zini urdi. Shu payt kimdir uni chaqirdi:

— Hey, Ma'su, Ma'sumisan?

Ma'suda bir uyum tarvuzning narigi yog'ida ishshayib turgan qop-qora, novcha bolaga ko'zi tushdi. Uning qayerlaridir, kimgadir o'xshardi.

— Men seni bir ko'rishdayoq tanidim, sen bo'lsa tanimayapsan, e, yashavor-ey...

— Voy Karim, Karim... Senmisan Karim? Katta kishi bo'lib ketibsanki... Karim?

— Nima qilay endi, — dedi Karim hamon jilmayib. — O'qishni tashlab, dehqonchilikka chiqib ketuvdim bo'yim o'sib ketdi.

— Voy jinni, o'qishni tashladingmi?

— Ha, sen deddomga-yu men dalaga ketdim.

— Rostdan, bu yerda nima qilib yuribsan?

— Mana, ko'rmayapsanmi, — deya tarvuz uyumi-ga ishora qildi Karim, pullayapman.

Ular nimagadir jim bo'lib qolishdi. Ma'suda xuddi akasiga tikilgandek Karimga tikilar, qarab to'ymasdi. Unga qaragani sayin qadrdon qishlog'ini, sog'ingan odamlarini ko'rayotgandek edi.

— Gapirsang-chi, Karim, sinfdoshlarimizni gapir, qishloqdan gapir.

— E, yurishibdi hammasiyam. Bittasiniyam o'qib shoxi chiqqani yo'q. Ko'rmaymanam ularni.

— Karim, qishlog'imiz bettan uzoqmi?

— Ola-a-a, — dedi Karim xushtak chalib, — mushuk bola qilib ko'zingni bog'lab olib kelishganmi, deyman?

— Nimaga endi, Karim?

— Bor-yo'g'i yarim so'lkavoylik yo'l-ku.

— Yarim so'lkavoying ko'pmi, ozmi, Karim?

— Yarim so'lkavoy dehqonchasiga yarim soatli yo'l bo'ladi.

— Karim, sen menga maynavozchilik qilmasdan ayt, bugun qishlog'imizga borib kelsa bo'ladimi?

— Aytyapmanku yarim soatlik yo'l deb.

— Vuy-y-y, qandoq yaxshisan, Karim, avtobusga qattan o'tiraman?

— Yur, o'tqazvoraman.

— Tarvuzlaring-chi, Karim?

— Ey, itam tegmaydi.

Ma'suda xuddi bog'cha bolasidek Karimning goh u tomoniga, goh bu tomoniga o'tar, suyunganidan uchib borardi. Eh, qandoq yaxshi-ya, o'z odamlaring, xuddi oyijonisini, adajonisini ko'rgandek bo'p turibdi-ya, hozir. Mana endi qishlog'iniyam borib ko'rib kela-di. Keyin ukasiniyam olib boradi.

Avtobus qo'zg'olishi bilan Ma'suda iloji bo'lsa, shu avtobusda qaytish rejasini tuza boshladi. Uylariga oyijonisi birovni qo'yib ketganmikan yo qulfmikan? Shundoq ko'cha tomondan ko'rib qaytsayam bo'ldi.

Shuyam yetadi unga. Shungayam zor edi-ku. Balki o'rtoqlariniyam ko'rib qolar. Ammo uning yuragida boyadan beri bitta g'ashlik paydo bo'lgandi. O'ylab, o'yiga yetolmayotgandi. Axir ular yetimxonaga kelishayotganda judayam uzoq yo'l yurishgandi-ku. Yana shalag'i chiqqan mashinadamas, chet el mashinasida. Qanchadan-qancha qishloqlarni bosib o'tishgandi. Yo'l... balki ko'prik buzuq bo'lgandir. Uning o'ylarini tasdiqlagandek bir yerga kelganda avtobus yo'ldan chiqib, tuproqli yo'llar bilan aylanib ancha yurdi-da, yana katta ko'chaga chiqib oldi.

Ma'suda qadrdon, tug'ilib o'sgan qishlog'ini olisdanoq tanidi. Ana maktab binosi, anovinisi suv minorasi, tepalik ustida ko'rinib turibdi. Bari ko'ziga shundoq aziz, shundoq issiq bosilar ediki...

Nihoyat avtobus oxirgi tanish bekatga kelib, "ux" tortib to'xtadi.

— Amaki, — dedi Ma'suda haydovchiga, — shaharga qaytasizmi?

— Qaytaman, qaytmayam ko'ray-chi, — dedi haydovchi qovog'ini solib.

— Bitta joyga yugurib borib kelsam bo'ladimi?

— Bo'ladi.

Ma'suda qadrdon o'rtog'i Mavjudalarnikiga yetay deganda hech bo'lmasa Mavjudani ko'rib ketaman, degan o'y ko'nglidan kechdi. Buni qarangki, Mavjudaning o'zi ko'chani bu tomonidan shisha bankada qatiq ko'tarib chiqib qoldi.

— Mavju, o'rtoqjon!

— Voy, Ma'su?

Ikkala o'rtoq quchoqlashib ketishdi.

— Mavju, o'rtoqjon men judayam shoshilayapman, avtobus kutib turibdi. Sen qatig'ingni tashlab, ko'chaga chiqib tur. Men uyimizni shundoq ko'rib kelay, avtobusgacha kuzatib qo'yasan, xo'pmi?

Mavjuda bosh qimirlatib uyiga qarab yurdi. Ma'suda hansiraganicha yo'lida davom etdi. Uylari Mavjudalarnikidan uchta hovli narida edi. Ana, uylari! Voy, darvozayam ochiq ekan. U beixtiyor bir vaqt-

lardagidek yugurganicha ochiq turgan darvozadan kirib bordi. Kirdi-yu darvozaxonada turgan tanish mashinaga ko'zi tushdi. Adasining o'rtog'ini mashinasi-ku... Ma'suda mashinani aylanib o'tdi-da, hovlining qoq o'rtasida paydo bo'ldi. Hovlidagi tanish so'ritok tagida, ha, tanish so'ritok tagida... Nimagadir Ma'sudaning ko'zlari ko'rmay qoldi. Shoshib-pishib ko'zlarini uqalab, yaxshiroq tikildi. Adasining o'rtog'imi? Iye, oyisimi, oyijonisimi? Chaqaloq cho'miltirishyapti! Ha, chaqaloq, oyog'ini chapillatib yig'layapti. Shu payt chaqaloq cho'miltirayotganlarning ko'zi Ma'sudaga tushdi. Ular Ma'sudani tanimay kim ekan bu qiz, degandek tikilishardi. Tanishdi shekilli... Ma'suda tanib turibdi-ku! Nimaga bunaqa?..

Ma'suda xuddi uyat ishning ustidan chiqib qolgandek, hovliga qandoq kirgan bo'lsa shundoq otilib chiqib ketdi.

Ma'suda qayoqqa ketdi? Osmonga uchdimi? Yerga kirdimi? Hech kim bilmay qoldi. Uni ko'chada kutib turgan na Mavjuda ko'rdi, na avtobuschi amaki, na Karim. Yetimxonaga qaytib bormadi. U boshlab qo'ygan xotira daftari esa undan bir mujda bo'lib qo'limizga tushdi. Na iloj, yetimlar hamma zamonlarda bo'lgan, lekin ha, lekin tirik yetim bo'lib qolishdan Yaratganning o'zi asrasin...

1990-yil.

YURT EGALARI



*Shuni unutma! Sevgin...
mana shular... shu tog'lar, shu
adirlar, soylar, qurt-qumurs-
qalar bari meniki deb o'yla!
Haqiqatan ham seniki!*

Shukur Xolmirzayev

Xayrullani tanimasdim. Bizdan oldinroq tog'dagi dalahovliga o'rnashib qolgan qo'shnimiz Abdushukur og'zidan gullab qoldi:

— Shu qizig'-ey, — dedi u ichdan to'lib kelgan hayajonini yashira olmay, — tog' bolalarini aytyapman-da, tog' bolalarini! Bitta Xayrulla degani bor... Yopiray... shu desangiz ot minib yuradi, ot!

U “ot” der ekan hayratdan ko'zlarining paxtasi ag'darildi. Ko'kragi shishinib, iyagi olisni ko'zlagan chavandozdek ko'tarildi. “Ot” deb otga mingandek qiyofaga kirdi.

Beg'ubor, bola tabiat qo'shnimning bu holatidan biror-bir jo'yaliroq ma'no uqmay unga tikilaman. U boshidagi marg'ilon nusxa do'ppisini peshonasiga surib, ensasini qashigan bo'ldi-da, “e...” deb qo'l sil-tadi. Shishingan ko'kragi ham, ko'tarilgan iyagi ham o'z joyiga tushib qoldi. Yana nimalardir demoqchi bo'ladi-yu, lekin yuragidagi dardi bir xo'rsinish bilan osmonga uchdi. Ko'z oldimda uning ancha adl, tik qomati cho'kkandek bo'ldi. Shundan keyin xuddi o'ra ichidan gapirayotgandek hafsalasizlik bilan g'uduran-di:

— Cho'rtni bolasi o'zi beshdami, oltidami o'qiydi-yu, bizzini o'n birda o'qiydigan bolalarimizdan tirik. Ha... ja-a-a tirik... Bizzikilar-chi, uni oldida ushoq, mayda...

E ha, gap bu yoqda ekan-u deyman o'zimga o'zim. Ko'z oldimga Abdushukurning Abdulla ismli o'g'li

keldi. U otasining chamasicha o'smayroq qolgan. Qishloqdan Toshkandek shahri azimga kelib boshpanalik bo'lgunlaricha, ijarama-ijara yuraverib, bola bechora ko'p kasallangan. Sog'liqqa yolchimagan. Sarsongarchiliklar Abdullani ezib qo'ygan. Ammo sezib turibman, otasi tushmagur, o'g'lini bir kunmas bir kun ot ustida ko'rmoqchi. Ana shu orzu tundlashgan chehrasining bir chekkasini yoritib turibdi. Ha endi, orzuga ayb yo'q deyman-u, qo'shninga achinib ketaman. Ammo o'zim ham birdan uning holiga tushib qolaman. Ichki bir xo'rsiniq meniham tomog'imni kuydirgandek. Shularni o'ylab, Xayrullaning qaddi-bastini o'zimcha xayolda tiklamoqchi bo'laman: keng yelkali, bug'doyrang, do'rdoq, ko'zlari katta-katta, vujudidan kuch yog'ilib turgan kelbatli yigit. Shaharda bunaqalarni suyagi buzuq deyishadi. Albatta, bunaqalar otga minsa yarashadida. Naq kinolardagi amirzodalardek bo'lib ketishsa kerak. Abdullalar-chi, egar ustida qo'riqchiga o'xshab qoladi. Shularni ko'ngildan o'tkazib, qo'shninga qarayman. U mahzun bir qiyofada hafsalasizlik bilan belkurakda yer o'yadi.

— Ey, — deyman ikkovimizniham dardimizga malham topganday bo'lib, — hamma joyniham o'ziga yarasha tosh-tarozusi bor, oshna. Bizzi bolalar mayda, ushoq bo'lgani bilan Xayrulladaqalarning yuztasini suvga oborib sug'ormay keladi. Ha! Ot mingan savlatlariga ishonmang bularni, o'lgudek laqma, sodda bo'lishadi.

— Bundan chiqdi bizzi bolalar firibgaram ekan-da, aka, — norozi qiyofada to'ng'illaydi u.

Qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarganimni payqab qolaman. Unaqamas, bunaqa demoqchiydim deb o'zimni oqlamoqchi bo'laman-u, vujudimning allaqayerlarida "nima qilasan talmovsirab, aslidayam shunday-ku", degan achchiq bir iqrar g'imirlaydi. Biroq "ha endi, buni hayot deydilar", degan bir bahona ko'nglimda yilt etadi-yu, haqiqat ko'zini qamashtirdi. Axir shaharniham avtobus, trolleybus, tramvay, metro degan "ot"lari bor. Biroq ularda bun-

doq qaddingni kerib yurolmaysan. Ilondek eshilmasang, tulkidek chap berolmasang yurib bo'psan. Birortasining oyog'ini bilmasdan bosib olsang kechirim so'rash o'rniga orqadagilarga to'nkab qutulasan. Ishni navbatsiz bitira qolay deb yolg'on to'qiysan, shallaqilik, surbetlikdanam toymaysan. Ba'zan o'zingga tus berib, qopag'on qilib ko'rsatasan. Bo'lmasa boshqasi iligingdan olib qoladi. Xullas, bu shahar deganlari bamisoli jungli. Hushyor bo'lmasang har qadamda oyog'ingdan chalishadi. Peshanangni taraqlatib urib olishing hech gapmas. Shahar deganlari naq yaxmalak. Avvalo oyog'ing toymasin, toydimi tamom, oyoq ostiga tushasan. Yana Abdullalar yirik-yirik devqomat bo'lsinmi?! Shahar ko'chalarida xuddi ot mingandek kerilib yursinmi?!

Yuraginga tosh cho'kkan kabi og'ir tortaman. Nazarimda shaharning uylari osmon-u falak, odamlari maydalashib yerga kirib borayotgandek... Eh, Abdullalar, Abdullalar... bir donishmand "o'zimni ko'raman desang ko'zgugamas, farzandingga qara", degan ekan.

Men bu ta'sirdan qanchalar chiqishga urinmay u meni tobora o'z domiga tortib boradi. Abdushukurni shaharda ko'rib qolsam "dachaga chiqdingizmi, Xayrullavoy qalay", deydigan odat chiqardim. Qo'sh-nim bo'lsa "yurgandir-da tog'-u toshida" deb beparvo javob bergan bo'ladi. Bir kuni Abdushukur yana Xayrulladan gap ochib qoldi. Yana o'sha hayrat, yana g'ashlikka qorishiq ichki bir hayqiriq:

— Shu desangiz kecha dachaga chiquvdim, aka. Xayrullani ko'rib qoldim. Cho'rtti bolasi birvarakayiga bir gap qildi deng, naq esim teskari bo'p ketdi...

Abdushukur jahl bilan qo'l siltadi. G'ijinib, tishlari orasidan kuldi.

— Oralaringdan olamushuk o'tdimi?

— Olamushuk o'tmadi-yu, olamushukni hozircha mashundoq qilib ko'zinga ko'rsatib qo'ydi, — deb Abdushukur kaftini ko'zgu qilib ko'rsatdi.

— Xafa bo'lmang, — dedim uni yupatgan bo'lib, — o'zi qishloq bolalari to'poriligi yetmagandek "to'nka"rog'am bo'lishadi.

— Nima deydi deng, — o'sha tog'-u toshlar-u, jar-jurlar-u, o't-o'lanlar unikimish. Bir nima bo'lsa joni achirmish. Shunga, shaharlik mashoqchi dorifurushlarni ustiga ot qo'yib quvib solibdi.

— Sizam nima qilib u bilan tog' talashib yuribsiz? Nafsilamrini aytganda to'g'riyam qiladi-da! Axir dorifurushlar hammayoqni mitadek yeb tugatishyapti-ku!

— E, bizgaki shundoq deb turgandan keyin, bolalarimizga nimalar deyishmaydi ertaga?

Beixtiyor qo'shnimning xavotiri mengayam o'tadi. Qandaydir olis fojialar g'ivirlab qo'yadi. Ko'z oldimda sukutga cho'mgan cheksiz-chegarasiz tog'lar. Go'yo qachonlardir bu tog'lar suv bo'lgan-u Yer kosasiga sig'may toshmoqqa tushgan, ammo Allohning amri bilan to'lg'in-to'lg'in holicha qotib qolganlar. Kunduz kunlari katta-kichik qishloqlarni bag'riga bosib mudrab yotadi. Oftob o'zining kumush ranglariga belaydi. U yer-bu yerda timirskilanib yurgan parokanda bulutlar osmonning oqish, ko'kish libosiga gul bosgandek bo'lib ko'rinadi. Go'yo tog'lar kunduz kunlari uxlaydi-yu oftob ufqqa dumalab, tun enishi bilan uyg'onadi. Tog' bag'irlari bamisoli ming ko'zli sirg'aga aylanadi. Shamol yurib daraxtlarni qo'zg'aganda sirg'a chayqala boshlaydi-yu, bir ulkan qomat raqsga tushayotgandek odamni rom qilib qo'yadi. Hatto, ko'z ilg'amaydigan eng xilvat go'shalarda ham sirg'a ko'zlari miltirab qo'nimgohlardan darak beradi. Ba'zi bag'irlarda isirg'a ko'zlari yulduzlarga omoda bo'lib ketadikim, chiroq qaysi, yulduz qaysi ajratolmay qolasan.

Ana shunday mo'jiza bag'ridan chekinga bir parcha yer tushganidan entikasan. Allohga shukronalar aytasan. Ammo o'sha bir parcha yerni ham anovi tog' bolasidek "meniki" deb aytolmaysan. Begonaligingni his etib turasan. O'zingni xuddi ikki vatanlik qushlarga o'xshatasan. Yozlaydigan joyi boshqa-yu, qishlaydigan joyi boshqa.

Shunda hali o'zini biror marta ko'rmagan bo'lsam-da, Xayrullaga nisbatan zaif bo'lsa-da, adovat o'ti yiltirab ketadi. "Meniki" degani mengayam botmaydi.

Xudbin deya yanaman o‘zimcha. Biroq g‘oyibona raqibga aylanib borayotgan bu bolaga hali-hanuz biror martayam baqamti kelmaganimni eslab o‘zimdano‘zim uyalib ketaman.

* * *

Navbatdagi dam olish kunlarining birida qo‘shnilarimiz tog‘dan zira terib tushishganini og‘izlaridan “gullab” qo‘yishdi.

— Rostakammi? Mana shu tog‘larda zira o‘sarkanmi? — deb so‘rayman ishonmay.

— Rostakamiyam gapmi, naq qaziga uradiganidan, isi yetti mahallani tutadi, — ichimni qizdirishdi qo‘shnilar.

— E, tog‘da zira bor ekan-ku, aytmaysizam, — deya Abdushukurdan astoydil gina qildim.

— E, aka, zap odamini topdingiz-da, bilsam ekan, sizzi obchiqsam, — deya hafsalamni pir qildi Abdushukur. Keyin bilmasligi o‘zigayam nasha qildimi yoki yer tatalab ajriq teraverishdan bezilladimi, taraddudli qiyofaga kirdi-da:

— Bir og‘iz so‘zingiz, erta sahar Xayrullalarnikiga chiqib boramiz. Zirani koniga o‘sha olib boradi bizni, — dedi.

— Qo‘lli tashlang, aynish yo‘q.

— Mana! — deb kaftini kaftimga qars ettirib urdi u.

Ana shu ahdlashuvdan keyin peshinga osh damlab yedik-da, ertangi safarimizgayam bitta tog‘orachaga bosib olib qo‘ydik. Keyin kun botguncha ertangi ishlarniyam uddalab qo‘yish uchun g‘ayrat bilan tomorqalarimizga tarqadik. O‘zi bu joylarda ish erta sahar-u kech salqinda unadi. Tong pallası quyoshning chiqishi ancha muddatga cho‘ziladi. Bir muncha vaqt ufq oqarib turaveradi. Keyin shaftoli gulidek pushti rangga kirib, olovlanadi. Ana undan keyin oftob qaragan ko‘zlarni qamashtirib yuz ko‘rsatadi. Kechga qarab buning tamom teskarisi bo‘ladi. Shom bilan xuftonni ilg‘amayam qolasan, kishi. Oftob ufqqa dumalab ketdimi, bas, go‘yo daralar orasida pisib yotgan tun suv yuziga tomgan rangdek bir zumda yoyiladi ketadi.

Ana, tog'lar etagidagi lalmikor adirlarga sirg'alib tushgan quyosh bir zungina lovullab turdi-da, sariyog'dek erib ketdi. Osmon yuzini qoplab olgan qizg'ish alanga ufq chekkasiga yig'ishtirilib bordi. Shuni kutib turgandek tun o'z hukmini qo'lga ola boshladi. Ana shu pallada Abdushukur qistalang bilan chaqirib qoldi. Borsam u bir ayol, bir qizcha va uning ukachasi bo'lsa kerak, bir bolakayga nimalardir deb gap uqtirardi.

— Xo'p de, ana, akamizam kelyaptilar...

— Ha, qola qol, qol bolam, akalaring bilan, — derdi onasi.

— He o'l, noz qimay, — deb jerkirdi opasi.

Ko'rib, eshitib kelyapman, bola unisigayam, bunisigayam “yo'q” deb oyoq tirab turibdi. Salomlashib ularga yaqinlashdim. Abdushukur “Ishimiz o'ngidan keldi, aka”, degandek qilib menga qaradi.

— Tanishib qo'ying, — dedi u, — bular kennoyimiz. Xayrullaning onalari bo'ladilar. Bular opachasi. Bu — deya engashibroq qaradi-da, tantana bilan, — Xayrullavoyning o'zlari, — dedi.

Beixtiyor “Nima?” degan hayratomuz xitob bo'g'zimdanda otilib chiqqanini sezmay qolibman. Tavba, tasavvur ham shunchalar odamni aldaydimi? Ko'z oldimda Abdulladan ham pachoq, injiq bir bola turardi.

— Buni qarang, — dedi Abdushukur, — biz u yoqqa chiqamiz deb tursak, Xayrullavoy bu yoqqa tushib kelayotgan ekan.

— To'y boridi-da, aylanay, to'y, — kelinoyi xijolat tortdi, — yaqin qarindosh bo'ladi, qiz uzatyapti.

— Iye, qiz bazmimi hali, — dedi Abdushukur bazona topilganidan quvonib, — Xayrullavoy sen boradigan joy emas ekan-ku. Yana qizlar laparlariga qo'shib yuborishmasin: samavar-u samavar, samavar-da nima bor, shuncha qizning ichida Xayrullaga nima bor!

Kutilmaganda Abdushukurning yarashmagan ovozda lapar aytib yuborishi hammani kuldirdi.

Xayrullayam yerdan boshini ko'tarmay "piq" etib qo'ydi. Bundan Abdushukur dadillashdi shekilli:

— Bo'ldi, gap pishdi, Xayrulla biz bilan qoladi, erta bilan nasib qilsa ziraga obchiqib keladi, — deb Xayrullaning qo'lidan tutdi.

Xayrulla tixirlik bilan buralib, qo'lini tortib oldi.

— He, noz qilmay o'l, — yana achitdi opachasi.

— Ha mayli, — dedi Abdushukur ishni pishirol-mayotgan dalloldek qizishib, — betta qolging kelmayotgan bo'lsa hoziroq senikiga chiqib boramiz, maylimi, aka, — deya menga qaradi. Men yelka qisdim. — Ana, akamizam rozilar. Tog'da bir otamlashib yotamiz...

— Yaxshi-da, u yoqda akasining bir o'zi qoldi, — quvonib ketdi kelinoyi.

— Yo'q! — Xayrulla jahd bilan shunday dedi-da, ters o'g'irilib ketaverdi.

Bolakay bu qilig'i bilan tasavvurimdagi Xayrullaga bir qadar yaqinlashgan edi. Axir odam degan uchragan birovga yur desa, yurib, qol desa qolaveradimi, barakalla Xayrulla, deyman ichimda.

— Voy cho'rtey, — deb Abdushukur g'udrandi, qo'ynidan sigaret olib tutatdi, — shunchamizni bir pulga olmadi-ya!

— Ot minadigan bolalar o'zi bir so'zliroq bo'lishadi. Jonivor ot ham shunaqa qaysarroq-da, — deyman.

— Ot minadiganlar bilan sal past tushib gaplash deng.

Ertangi rejamizning puchga chiqqanidan haf-salamiz pir bo'lib, Xayrulla ketgan tarafga qarab qolgan edik. Kelinoyi bilan opachasi xijolat tortgandek qisinib-qimtinib ketib borishardi. Abdushukur jahl bilan yuzini ters o'girdi-yu, birdan hayajonga tushib qoldi:

— Iya, anovni qarang, anovni!

U ishora qilgan tarafga qarab men ham hayratdan qotib qoldim. Kun chiqish tarafdagi bir-biriga yelka tutib qalashib yotgan tog'lar ajib bir yorug'lik shu'lasida qolgan edi. Osmon yuzi oqarib, yulduzlar ko'zi xira tortib borardi. Tog' yonbag'ridagi qator tizilgan

bodomzorlar endi sabza urgan o'smir mo'ylabidek aniq-tiniq ko'rinardi.

— O'sha tarafda harbiy poligon yo'qmi, mabodo, — so'radim Abdushukurdan.

— Yo'-o'-o', yana kim biladi deysiz, — dedi u xavotirdan ko'zlari yiltirab. — E, haligi uchar likobcha bo'lmasin tag'in!

— Ha-a-a, — deya men ham sergak tortdim, — shu taraflarga tushib turishini eshitgandim, — deya manzaraga mahliyo bo'lib tursam, Abdushukur kim-gadir gap qotdi. Bundoq qarasam, yonimizda Xayrulla turibdi.

— Iye, Xayrulla bu senmi, — dedim shoshib.

— Ketdik bizzikiga, — dedi u bolalarcha bir yo'sinda tirjayib.

— To'xtab tur, Xayrullavoy, — dedi Abdushukur uning qaytib kelganiga ham ajabsinmay, — anovi uchar likobchani qara!

— Qani, — dedi Xayrullayam qiziqib.

— Iye, biz ko'rayotgan narsani sen ko'rmayapsanmi inson, anovi yog'duni qara, tog'-u toshlaram yarqirab ketyapti-ku!

— Umi, — dedi Xayrulla kulib, — oy chiqib kelyapti-ku, oy!

— E, ha, u oymi hali, — depman shoshib, — o'zi qani, oymomaning o'zi?

— O'zi bodomli tog'ning orqasida.

Biz oy to'lishganidan bexabar edik. Tog'-u toshlar qo'ynida oyning bunaqa manzara kashf etib chiqishini biz shaharliklar birinchi marta ko'rib turardik. Shunga ikkala kap-katta odam Xayrullaning oldida "qovun" tushirdik.

Xayolimiz bizni gangitgan oy yog'dusiga ko'chgan bo'lsa, endi yana Xayrullaga qaytdik. Biroq "nechuk" deb uni savolga tutgimiz, boyagi qaysarligini yuziga solgimiz kelmadi. Apil-tapil yig'ishtirilib, safar tugunlarini yelkaga olib Xayrullaga ergashdik. Dalahovlini kesib o'tgan so'qmoqdan bir oz yurgach, tog' yo'liga tushib oldik. Yo'lning o'ng tarafida buloq suvlari shildiraydi. Ular toshdan-toshga urilib, dalahovlimiz

tomon chopadi. Chap tarafda esa ikki, uch terak bo'yi jarlik bo'lib, tubida kattagina suvning bo'g'iq guvillashi eshitiladi. Bu paytda oymoma bodomli tog' yelkasiga chiqib olgan, bundan bu yog'iga ne qildim endi degandek ol pushti rangda zo'riqib ko'rinardi. U bizga nihoyatda yaqin turar, bu yurishda hali zamon oldiga chiqib oladigandek edik. Chor-atrofda quloqlarni bitirib, chirildoqlar shovqin solishardi. Ovozlarnegadir yoqimsiz emasdi. Qaytaga uzoq-yaqindan sirli boqish qilayotgan tog'-toshlar-u, qorayib ko'rinayotgan butazorlar-u, tubsiz daralar — hamma-hammasini uyg'onib ketishdan asrab allalayotgan kabi bo'lardi. Biz ham ana shu sehriga qul bo'lib, jim-jim borardik. Hatto Abdushukurniyam tiliga qulf tushgan edi.

— Hov insonlar, bu nimasi azadorga o'xshab...

Beixtiyor kulib yubordim.

— Ha, aka, — dedi u harsillab, — nimadir nash'a qildi chamamda?

— Nuchuk Abdushukur jimib qoldi, deb ko'nglimdan kechirib turuvdim, — dedim.

— Rost-da, xuddi birov bizga mushtini do'laygandek, Sibir tarafga surgun qilingandek, yelkamizdan allambalo yuk ezgandek, yorug' dunyodan bezgandek... bu nimasi? — dedi-yu, nafasi bo'g'ziga tiqilib yo'taldi.

— Eh-ha, — dedi bo'g'ilib, — kuch degani gapirsa og'izdan chiqib ketarkan-da, voy mug'ambirlar-ey.

Yana jimib qolamiz. Yo'l tikkalashib, tobora og'irlashadi. Abdushukur yana tek turolmaydi:

— Hov, Xayrulla, sen bolaga hech tushunolmay qoldim-da, og'ayni. Qanaqa kuch seni orqaga qaytardi o'zi? Yo'lingdan qolmay ketovurmaysanmi-ya. O'pkaniyam tamom qilding-ku, oshna.

— Chekmang-da o'zizam, — deydi Xayrulla.

— Yo'-o'-o'q, sen gapni chuvatma, yo bizzi mana shunaqa qilib azoblamoqchi bo'ldingmi?

— E-e-e... — deya jahl qilgan bo'ldi Xayrulla.

— Axir sen orqaga qaytadigan bola emasding-da boya, — deya Abdushukur jo'rttaga yo'l azobini yengish uchunmi tirg'ala boshladi.

— Birdaniga borgim kelmay qoldi, shu... — dedi u.

— Iye, sen judayam xavfli zot chiqib qolding-ku, hozir birdaniga orqangga qaytging kep qolsa-ya, ikki birdek odam ora yo'lda qolib ketsag-a!

— Unaqasi bo'maydi, o'zingiz aytdingiz-ku, qiz bazmida nima bor deb, bo'ldi-da.

— O, jon joyingdan olgan ekanman-da o'ziyam. Eshityapsizmi, aka, — deya menga murojaat qildi u, — oriyatlari o'zlaridan baland bularni.

Men Xayrullada boshqa narsani kashf etib borardim. Unda salgina bo'lsayam charchash alomat-lari sezilmas, so'zlari og'ziga tiqilmas, ovozi tiniq va o'ktam edi. U biz his qilayotgan yo'l azobini sezmas-di. Shuning uchun bizning oh-vohlarimizdan, yo'l yurishga xomligimizdan anchayin kulib borayotgan bo'lishi ham mumkin. Ha, odamni yo'llar emas, yil-lar charchatib qo'yishini u qayerdan ham bilardi.

Biz ikki tog' oralig'idan yuqorilab borar, ro'paramizda qorayib ko'rinayotgan butazorlar yurak-ka vahima solardi. To'lin oy ham shu ikki tog' oralig'ini yoritar, faqat shuning uchun chiqqandek edi. Dara ichi dunyo ichidagi alohida bir dunyoga o'xshab ketardi. O'ziga xos tartiblari, hukmlari ham bordek, biz ularni hali bilmasdik. Nimagadir qulog'imga soyning shovullashi-yu, chirildoqlarning xonishi eshitilmay qolgandi. Butun borliq bitta ovoz-ga, yurakning duk-dukiga jo'r bo'layotgandek. Ha, silla qurib, tomoqlar qaqrab bo'lgan edi.

Xayrulla tog' yo'lidan chetlab yakka so'qmoqqa burildi. Xayriyat, yaqinlashibmiz chog'i, degan o'ydin ko'nglim yorishdi. Biroq Xayrulla bizni "chog'inglar keladimi", degandek tippa-tik so'qmoqqa yuzma-yuz qildi. Belini tuya qilgancha, ikki bukilib o'zi oldinga tushdi. Saldayoq o'pka shishib, bo'g'ziga tiqildi. Abdushukur ikkovimiz shilliq qurtdek tepaga yopishib cho'zildik-qoldik. Mening ikki chakkam yorilgudek lo'qillardik. Abdushukurning tomog'i g'ij-g'ijlab, allaqanday xushtaklar chalib yuborardi. Sigaretning asorati deyman ichimda va o'rni bo'lmasayam hazil qilaman:

— Tutundan torting jazasiga, tutundan, charchoq chiqadi, charchoq.

— E, nimasini aytasiz, la'natini tashlolmadim, tashlolmadim-da... — u bo'g'izlangandek xirillab, entikib uh tortdi-da, so'zida davom etdi. — Mana shunaqa paytlarda burqirab tutab ketaman, tutab. Bo'g'ib tashlaydi la'nati, bo'g'ib. Bas-e deyma-u, birdan o'z qarorimdan o'zim qo'rqib ketaman. Axir shundan bo'lak ovunchog'imam, dardkashimam yo'q-da meni.

— U bilan dardlashasizmi yo dard oshirasizmi?

— Unisiyam, bunisiyam shekilli.

Shunday deb Abdushukur qurigan o't-o'lanlarni paypaslab, tepaga alangladi:

— Xayrulla, hov Xayrulla, shettamisan, jo'ra.

— Ha.

— Sen bola chekmagin, xo'pmi, chekmagin.

— Haliyam...

— Ha-a-a, balli, yasha, chekkanni ahvoli shu! Biz nima-yu bir zambil loy nima.

Sezib turibman, Abdushukurni rosayam sigaret xumori tutyapti. Shunday deb o'z nafsiga uryapti. Chekay desa o'rnimas. Oh-voh qilib, yana yo'l bilan olisha boshlaymiz. O'ziyam bir nimaga bemavrud yopishgan odamga o'xshaymiz. Nima jin urdi o'zi? Dalahovlida maza qilib yotmaymizmi? “He, zira-pirasiniyam”, deb o'zimni o'zim yemoqda-ichmoqda bo'laman. Oxiri inqillab-sinqillab bir alpozda supadekkina joyga ko'tarilamiz. Charchoqqa qul bo'lib yerga cho'zilamiz. Bu yerdagi o't-o'lanlar qovjirama-gan, bahor maysasidek mayin, muzdek yoqimli, islariyam xushbo'y.

Men yotgan ko'yi chuqur-chuqur nafas olaman, misdek qizigan vujudim salqin, yumshoq havodan yayrab-yayrab ketadi, qayerlarga kelib qoldik degandek yon-verimga alanglayman. U tarafdayam, bu tarafdayam ola-quroq butalardan to'n kiygan tog'lar, tepada bo'lsa dumaloq ko'zgudek osmon gardishi, bir chekasida oy yarqiraydi, uning nuridan parda tortgan yulduzlar o'zlaridan darak bergandek zaifgina miltiraydi.

Biroq oyga yaqin bir manzilda qorayib o'rmon ko'ringandek, u yer-bu yerda chiroqlar yiltiragandek. Nahotki, Xayrullaning makoni o'sha osmon-u falakda bo'lsa? Yuragim orqamga tortib ketdi. So'rashga yurak betlamadi. Mabodo "ha" deb qolsa qay ahvolga tushishimni tasavvurimga sig'dira olmayman.

Abdushukurning tomog'i g'ijirlab, yo'tali zo'raydi.

— Davosini bosing, davosini, — deya yana uning jig'iga tekkim keladi.

— Ha-ya, darvoqe, — deydi Abdushukur.

Sal o'tmay dimog'imga sigaret tutuni uriladi. Qo'shnimning joni orom olganini yo'talmay qo'ygani bilan.

— Ana, — deyman kulib, — tinchidingiz-qoldingiz.

— Ha, bu zahri qotil bir kunmas bir kun, albatta, meni tinchitadi.

Suhbatimizga Xayrulla qo'shilmaydi. Yurishimizdan cho'zilishimiz ko'pligidan ensasi qotayotganini sezaman. Tavba, tog' bolasi-da, tog'dek og'ir, vazmin. Katta yoshli odamga o'xshaydi. O'zi kerakmidi unga bizlarni mana shunaqa qilib sudrab yurish? Nimaga yo'q deb turgan bola birdan rozi bo'p qoldi? Tog'-u toshlarni daf'atan anglab bo'lmaganidek tog' bolalariniyam... Bunday qaraganda hammasi oddiy va jo'ndek. Lekin tarjimonsiz gung va soqov. Mana, Xayrullaning o'zi biz uchun tarjimon-da. Usiz zirani taniymizmi, qayerlarda o'sishini bilamizmi? Bilish uchun shu yerlik bo'lish kerak...

Shularni o'ylab o'tirar ekanman, kutilmaganda a'zoi badanimdan chumoli yurgandek bo'ldi. Quloqlarim shang'illab, chippa bitdi. Biroq bu hol uzoqqa bormaydi. Kimdir ikki chakkamga qo'shqo'llab shapaloq tushirgandek bo'ldi. Quloqlarim qachonlardir tom bitgan-u endi varanglab ochilgandek. Jamiki shovqinlarni eshita boshladim. Dimog'im ham bitib qolgan ekan. Allaqanday yoqimli o't-o'lanlarning goh mayin, goh o'tkir islarini tuya boshladim. Ko'krak qafasim ham bamisoli kengaygandek. Halidan beri bosib kelayotgan yuk hov pastlikka dumalab

ketgandek. Zo'riqishdan changak bo'lib qolgan oyoq tomirlarim yozilib, qonlar ravon oqayotganini his qildim. Tavba, boshqacha odam bo'lib qolgandekman. Azoyi badanim menga noma'lum bo'lgan manbadan kuch olardi. Nazarimda, endi yo'lga tushadigan bo'lsak sudralibmas, Xayrullaga o'xshab takadek sakrab-sakrab ketadigandekman.

O'zimdagi bu holdan junbisha kelib, Xayrullani qidirib qoldim:

— Xayrulla, hov, Xayrulla!

Ovozim ham qandaydir tiniq, yo'l bosib toliqqan odamning ovozigga o'xshamaydi. Go'yo men billur gumbaz tagidaman-u shunga tovushim jaranglab chiqdi.

— Nima deysiz?

Xayrulla naq tepamga kelib tikildi. Uni shunchaki chaqirganimni eslab dovdirab qoldim.

— Qalaysan?

U "qalay bo'lishim kerak", degandek savol nazari bilan qarab, yelka qisdi.

— Yetdikmi, og'ayni?

— Ho-o-ov, — dedi Xayrulla naq tepamizda qopqora bulutdek xo'mrayib turgan o'rmonzorga ishora qilib.

— Hov inson, biz qarg'amasmiz, etga chiqish o'zi bo'ladimi? — dedi Abdushukur alam bilan. Abdushukurniyam ovozi bo'lakcharoq, tiniqlashib qolgan-dayroq eshitildi qulog'imga.

— Haliyam, — deydi Xayrulla chaynalib, — yo'l bersa chiqasizlar, bermasa qayda.

Xayrulla shunday deb bizni qaydadir kutib turgan ko'ngilsizlikdan darak berdi.

— Kim ekan u yo'l bermaydigan vallomat? — deya o'rnidan turib ketadi Abdushukur va xuddi birovni izlagandek chor-atrofga alangladi.

— Qaniydi bilsam, — deya xo'rsindi Xayrulla.

— Axir aytyapsan-ku, "yo'l bersa, bermasa" deb, — deya xavotirim oshib o'rnimdan turib ketdim.

— Yo'q, — deydi Xayrulla, — xuddi maktab doskasi oldida javob berayotgandek, — u o'zini ko'rsat-

maydi, tovusham bermaydi. Yoqib qolsangiz bu yog'iga o'zi obchiqib ketadi, yoqmasangiz bir qadam ham yurgizmaydi. Mana shu uning darvozasi bo'ladi.

Abdushukur ikkovimiz bir-birimizga qarab qolib-miz. Xayolimizdan "Bittamizni qabul qilib, bittamizni qabul qilmasaya?" degan shubha kechadi.

— Yoqish uchun qanaqa bo'lish kerak? — so'radim Xayrulladan. Abdushukur ham shunaqa savol bermoqchi bo'lib turgan shekilli "ha" degandek bosh qimirlatib qo'ydi.

— Adamlarning aytishicha, begunoh bo'lish kerak,— dedi Xayrulla.

Biz yana bir-birovimizga xavotir bilan tikildik.

— Sizda biron o'zgarish yo'qmi, — so'raydi Abdushukur mendan, — ko'zingizga hech narsa ko'rinmayaptimi?

— Sizda-chi, ko'rinyaptimi? — deya xavotirlanib tirsagidan ushlayman.

— Ko'rinmayapti-yu, lekin birov qo'ltig'imga kirgandek yep-yengilman. Ovozimniyam qarang, mil-tiqni o'qidek.

— Menam bitta "tarsaki"dan keyin onadan yangi tug'ilgandek bo'lib qoldim.

— Iye, hali tarsakiyam yevoldingizmi? — Abdushukurning ko'zlari oy nurida yaltirab ketdi.

— Ha, o'shandan keyin quloq, burun tiqinlari ochilib, ko'zlarim ravshanlashib, boshqacha odam bo'lib qoldim.

— Aytmadimmi, — deydi Xayrulla quvonib, — shu yerda darvozasi bor deb, qabul bo'psizlar, ketdik...

Xayrulla shunday deya yanada tikroq so'qmoqqa boshladi.

— Xayrulla, — dedim bu sirli mo'jizadan entikib, — qabul qilmasa, nima bo'lardi?

— E, so'ramang, — deydi u.

— Nima, aytib bo'lmaydimi, — qiziqdi Abdushukur ham.

— Lagerga bolasini ko'rgani kelgan bitta shaharlikni xuddi shu yerda oyoq-qo'li ishlamay qoldi. Zambilda olib ketishdi. Yana bittasini shu yerda boshi

aylanib nari yurolmay qolgan. Bittasini tomog'idan g'ippa bo'g'ib, nafas oldirmay qo'ygan. Sizlarga indamadi-yu, gunohiylar yo'q ekanda...

Biz uchun nafaqat tog'larning, balki Xayrullaning ham bag'ri ochilib ketdi. Bu ajabtovur sirlardan hayratga tushib, so'qmoqqa yopishgancha yuqori-laymiz. Yon tarafdin shamol esib, qurigan o't-o'lan-lar va kun bo'yi qizigan tuproq isini dimoqqa keltirib uradi. Qiyamalik oyoq uchini qo'yishga majburlaydi. Minba'd unday qilmaymiz. Aks holda poyabzal sir-panib, iyakni tepaga urib olib, qon qora qaqshab qo-lish hech gapmas. Qadamni tovon bilan bir tekis qo'yishga tirishamiz. Shunda qadamlarimiz shil-liqqurtnikiga o'xshab tomog'imiz tagiga kelib tushadi. Ko'tarilish azob-u, biroq boyagidek jonimiz bo'g'zimizga tiqilmaydi. Tavba, deyman o'zimga-o'zim hamon hayratimni bosa olmay, hovli-joy desam, bu tilsiz tog'larniyam darvozalari bor ekan-da!

Biz yo'lning bu yog'ini ortiqcha oh-vohlarsiz, cho'zilib yotishlarsiz bosib o'tdik. Ma'lum bo'li-shicha, pastdan o'rmonga o'xshash ko'ringan joy lager bo'lib, ta'til barvaqtroq tugagan, hammayoq huvillab yotardi. Bundan bu yog'iga Xayrullalar uydagilari bilan lagerni qo'riqlashar ekan. Manzilga yetganimni his qilar ekanman, ko'zimga bir parcha to'shak bilan yostiq ko'rinib ketdi. Tongda bosib o'tadigan yo'lni tunda bosdik, bir miriqib uxlaydigan bo'ldik-da, deya o'zimga-o'zim tasalli beraman.

Bizni yangi qarorgohda naq buzoqdek-buzoqdek keladigan itlar kutib oldi. Tog' itlari g'alati bo'larkan, akillab o'tirishmas ekan, shuvillab odamning ustiga bostirib kelaverarkan. Biz — ikki shaharlik nima qili-shimizni bilmay, bir-birovimizga yopishib oldik. Xayrulla bir nima degan edi ikkoviyam to'xtashdi.

— Bor, joylaringga, — deya jerkidi Xayrulla. Itlar erinibgina orqalariga qaytishdi. Biri qo'ra ichida bezovta bo'layotgan uloqchalar yoniga ketdi, ikkin-chisi bo'lsa yog'och uychaga olib chiqadigan beton yo'lakning qoq o'rtasiga ko'ndalang tushdi. Xayrulla zinadan pildirab chiqqancha, itning ustidan xatlab

o'tib, eshik tutqichiga qo'l cho'zdi. Eshik ochilmadi. U g'alati bo'lib bizga qaradi.

— Akam yo'q, ketib qopti, — deganicha engashib oyog'i tagidagi bir parcha lattani ko'tarib paypaslandi. — Kalittiyam ob ketibdi.

— Qaqqa ketadi, shu yaqin oragami ishqilib?— dedim.

— Qishloqqa, boshqa qaqqayam bo'lardi, — dedi Xayrulla.

— Axir biz uni ko'rmadik-ku, inson, — ingrab yubordi Abdushukur.

— Mashina yo'li bilan velosipedda tushib ketgan.

— Ko'chada qoldik degin? — mening madorim qurib, o'tirishga joy izlab qoldim.

— Hah, Xayrulla-ya, — dedi Abdushukur so'kingandek bir ahvolda, — o'zi seni men yo'ldan urdim, meni urib o'ldirgan odam savobga qoladi.

— Nahotki, shuncha katta lagerdan joy topilmasa,— deya oy va chiroq nurlaridan qorayib ko'rinayotgan katta-kichik uylarga ishora qilaman.

— Hammasi qulf, kirib bo'lmaydi.

— Bundoq xashak-pashagam yo'qmi, tagimizga to'shasak, bo'ldi-da.

— Xashak yig'dirishmaydi, bu yerdagi uylar hammasi yog'ochdan, yong'in chiqadi deyishadi.

Dardimiz ichimizda, uchovimiz ham jimib qoldik. Nahotki, orqaga qaytamiz degan o'yda chor-atrofga alanglayman. Notanish, begona go'shadan panoh izlagan bo'laman.

— Esiz, — deydi Abdushukur sigaretga zo'r berib, — tog' qabul qilgani bilan Xayrullaning uyi qabul qilmagandan keyin bir pul ekan-da.

— O'zi, — deyman hafsalam pir bo'lib, — shom oralig'ida bitishgan ishning xosiyati bo'lmaydi deganlari rost ekan, bu turishdan naf yo'q, erta kunda chiqqan joyimizga tushib olaylik, buyam bir ko'rgilik-da.

Bo'yimizga arqon solgandek izimizga qaytamiz. Itlar dumlarini likillatib bizga ergashadi. Xayrulla ularni qaytarmoqchi bo'lib, orqada qoldi.

— Yurmaysanmi, hov, inson, — dedi Abdushukur unga ilhaq bo‘lib.

— Bitta joy boridi-yu, — deya ming‘irlab biz tomon yura boshladi Xayrulla.

— Bosh suqsa bo‘ladimi, axir, — jon kirdi menga.

— Bo‘ladi-yu, uzoq-da. Lekin naq zirazorning o‘ziga borib qolamiz.

— E, ketdik, yanayam yaxshi, nima dedingiz, Abdushukur, — deya unga qaradim.

— Kattalar nima desa, shu-da, — dedi Abdushukur ham ovozi bir parda ko‘tarib.

Biz hozir orqaga qaytgandan ko‘ra tog‘-u toshda yurib tong ottirishga ham rozi edik. Oy nuriga sarvdek qadlarini tutib, yo‘lkalarga ola-chalpak soya tashlab turgan teraklar tagidan yana orqaga yurdik. Bu gal itlar bizni dumlarini likillatib, eski qadrdondek kutib olishdi. Xayrulla nimagadir uloqlar qamalgan qo‘ra yoniga borib, eshikni ochib yuboradi. Uloqlar o‘zini gurra tashqariga urdi. Havoda chang, qiy islari anqib ketdi. Xayrulla ularni oldinga o‘tkazib, hayday boshladi.

— Bu nima qilganing, Xayrulla, — hayron bo‘ldi Abdushukur.

— Bag‘otga indirvoramiz, akam bu yoqdaligimni bilsa, ertaga qaytib chiqmaydi. Orada bular och qoladi.

— E, qo‘y-e, — dedim uni qaytarmoqchi bo‘lib, — anovi maydachalarini shaqol-paqol tortib ketmasin, tag‘in.

Xayrulla kuldi:

— Ana qo‘riqchilarini ko‘rmayapsizmi, ja torttirib qo‘yadi-ya.

Men itlarning biri oldinga, ikkinchisi orqaga o‘tib olganliklariga endi e‘tibor berdim. Ko‘p yurmay itlar xuddi o‘rgatib qo‘yilgandek uloqlarni pastlikka boshlab tushib ketdi. Oy nurida ko‘rpadek yastanib yotgan butazorlar ularni yutib yubordi. Biz esa yana yuqori-lay boshladik. Ammo xayolim yo‘llarini ayri solgan itlar-u uloqlarda. O‘ttiz-qirqtacha jonivorni itlarga ishonib qo‘yishganiga Xayrulladan bir nimalarni so‘rab bilgim keldi.

— Bundan chiqdi, uloqlarni tun-u kun tog‘da qoldirsayam bo‘lar ekan-da, Xayrulla.

— Qoldirib bo‘maydi, — deydi u bosh chayqab, — yovvoyi bo‘p ketadi.

— Unda kechga tomon qo‘raga haydab kelarkan-sizlar-da, ularni tog‘- u toshdan topish mashaqqat bo‘lmaydimi?

— Biz haydab kemaymiz, itlar haydab keladi, — dedi Xayrulla itlari bilan maqtanib.

— Yo tavba, — dedi Abdushukurning hayrati toshib, — qorovullagani yetmay, hali haydab ham keli-shadimi? Mabodo itligiga borib haydab kelmasa-chi?

— Haydab kelishadi. Qorinlari ochgandan keyin shundog‘am haydab kelishadiki, axir itlar xashak yemaydi-ku.

— E, ha, — deydi Abdushukur qah-qah otib, — mana masala qayoqda ekan. Bir donishmand aytgan ekan, “yotganni turgazadi, turganni yurgazadi bu — nafs!” deb.

— Ana sizga Amerikaning ochilishi, — deya kuldim.

— O‘-o‘-o‘, haq gapni aytdingiz, aka, — deydi Abdushukur to‘lqinlanib, — tepamizda charaqlab tur-gan oyga qasamki, men nafs degan narsa bilan bugungidek baqamti kelmaganman. Qarang-a, to‘rt oyoqli zabonsiz ikki maxluq bir qo‘ra jonivorni kun bo‘yi boqadi, qo‘riqlaydi, kechga qarab yana qo‘raga haydab keladi... buning evaziga uni bir tovoqmi, ikki tovoqmi yuvindi kutib turadi. Bu joylarning odamlari u yoqda tursin, itlariyam nonini halollab yer ekan. Ba‘zi bir ikki oyoqli itlardan o‘lsa o‘ligi ortiq.

Abdushukurning gapi menga ham ta’sir qildi. Tog‘lar uchun yetti yot begonaligimni his qilaman. Axir halidan beri oddiy narsalardan hayratga tushib yotibmizda. Bizning holatlarimiz bo‘lsa bular uchun kulgili. Shunda shaharning fidoyilari shaharda, qish-loqning fidoyilari qishloqda, tog‘- u toshlarning fidoyi-lari tog‘- u toshda yashashini, unisi bu yerda, bunisi u yerda fidoyilik qilolmasligini, qilmoqchi bo‘lganda ham qo‘lidan kelmasligini yurakdan his qilib ketdim.

Shuning uchun ham Xayrullalar balandlarda yashaydi. Ularga tog'larning hamma darvozalari ochiq. Anovi shundoqqina tepamizda charaqlab turgan oy ham, yulduzlar ham yaqin. Biz bo'lsak bu manzaralarga suqlanib, yoqa ushlab qaraymiz. Nimagaki shaharda ko'rolmaymiz. Osmonimiz kir. Bu kirlik yuraklarimizga ham ko'chgan, ko'zimizning ravshanligini olgan.

Tiniq olamda odam tiniq fikrlaydi. Tavba, Abdushukurning gapi-chi? "Nafs degani bilan bunchalik baqamti kelmadim" mish. Voy vallomatey. Axir nafs degani bobokalonimiz Odamato bilan momo Havoni jannatdan chiqargan-ku, biz kim bo'pmiz. Odamning to'ng'ich o'g'li bizning akamiz Qobil nafs yo'lida ukasi Hobilni o'ldirdi-ku. Muborak zamin yuzi ilk bor inson qoni bilan bulg'andi-ku. Keyin yerda nimalar bo'lmadi. Farishtalar faryod chekib Arshga ko'tarildilar. Bu nomatlub ishidan Allohga arz qildilar.

"Ey, poki Parvardigor, o'zing bilguvchi va ko'rib turguvchisan. Odam bolalari yerni fisq-u fasodga to'ldirdilar. Zino va maishatni o'zlariga kasb qilib oldilar. Axir biz Odamga Halifai zamin deb sajda qilib edik-ku?

Parvardigor aytdiki, sizlarning Odam zurriyotlaridan farqingiz nafsingizning kesikligidadir. Agarkim nafsingiz kesik bo'lmaganda sizlar ham shu ko'chalarga kirgan bo'lur edingiz.

Yo'q, deyishdi farishtalar o'z da'volarida qat'iy turib — biz zinhor-bazinhor undoq qilmas edik. Senga itoatda va ibodatda bo'laverardik.

Shunda Alloh farishtalarning eng nufuzli, eng taqvodorini Arshga chorladi va dedi: "Shu bugundan boshlab sizlarga nafs ato etdim. Ushbu uzuklarni barmoqlaringizga taqingiz. U sizni yerga tushurur va yerdan Arshga ko'tarur. Bundan bu yog'iga Odam alay-hissalom zurriyotlari bilan birga yashaysizlar. Sizlarga ham uch narsani: may ichmoqni, zino qilmoqni va odam qonini to'kmoqni harom qildim".

Farishtalar yer betiga tushib, odamlar bilan aralashib yashay boshladi. Tez fursatda obro'-e'tibor

topdilar. Ulamolar masala so‘rab, bemorlar davo istab keladigan bo‘lishdi. Kunlardan bir kun ularning huzuriga ko‘hlilikda tengsiz, ofatijon bir ayol kirib keldi. Uning husn-malohati qarshisida farishtalar o‘zlarini yo‘qotib turishgan ekan, kutilmaganda ayol eridan nolib, shikoyat qildi. Bu farishtalarga qo‘l kelib, ayolni yo‘ldan urmoqchi bo‘ldilar. Ayni paytda ayolning ko‘zi uzukka tushib, uniyam niyati buzildi. Uzukni so‘radi. Biroq farishtalar uzukning yerdan Arshga ko‘tarilish kaliti ekanligi uchun rozi bo‘lishmadi. Ayol darrovda boshqa reja tuzdi, battol erimni o‘ldirib, meni undan xalos etinglar, dedi. Farishtalar odam o‘ldirishga ham rozi bo‘lishmadi. Unda, dedi ayol noz-karashmalar ila, bir piyoladan may icha qolinglar. Farishtalar maqsadga yetish uchun odam o‘ldirishdan bunisi yengilroq, tavba qilsak Alloh kechirar, deb sharobga rozi bo‘lishdi.

Mayxo‘rlik qilib, zinoga berilib, gunohga botib turganda ayolning eri kelib qoldi. Sirlari fosh bo‘lib odamlar orasida sharmanda bo‘lishdan qo‘rqib, uni o‘ldirishdi. Boshqa choralari qolmadi-da. Bu gunohniyam bo‘ynilariga olib, ichib uxlab qolishdi.

Ayol bo‘lsa niyatiga yetib, uzuklarni yechib barmoqlariga taqdi. Shunda, uzuklar uni Arshga ko‘tarib ketdi.

Alloh Odam alayhissalom zurriyotlari ustidan arz qilib kelgan farishtalarni huzuriga chorladi. Ayolga so‘zla, deb amr etdi. Ayol bo‘lsa, bo‘lgan voqealarni oqizmay-tomizmay gapirib berdi. Shunda farishtalar eng taqvodorlariki nafs yo‘lida zalolatga botganlarini eshitib, chuqur qayg‘uga botdilar. Va “o‘zing bilguchisan, Allohim”, deya bosh egdilar”.

Nafsilamrini aytganda, bizniyam yarim tunda tentiratib qo‘ygan narsa nafs emasmi? Qurib ketgur shu zirani bozordan sotib olsa ham bo‘ladiku.

Shularni o‘ylab, sheriklaringa zimdan ko‘z tashladim. Ular ham o‘z xayollari bilan bo‘lib jim-jim borishar, tog‘ yo‘li goh bahaybat yong‘oqlar tagidan o‘tib, goh butazorlar ichiga sho‘ng‘ir, adog‘i ko‘rinmasdi. Biz odam yashaydigan go‘shalardan ancha-

muncha uzoqlashib ketgan edik. Atrof begonalashgan, har xil yot, notanish tovushlar quloqqa chalinar, yo'lga chiqqanimizdan beri osmondagi to'lin oy va yulduzlarga sodiqligicha biz bilan kelardi. Ikki tarafimizda ham, ro'paramizda ham tog'. Oy shu oraliq uchun chiqqan kabi nurlarini ayamay mo'l-ko'l to'kar edi. Men yo'l ro'paradagi toqqa borib tugasa kerag-u, biz ham tin olsak kerak degan qarorga kelib qolgan edim. Biroq yo'ldan o'ng tarafga qarab so'qmoq ajrab chiqdi-yu, biz o'sha tarafga og'dik. So'qmoq bo'lsa shox-shabbalari bir-biriga matashib ketgan qop-qorong'i butazor ichiga olib kirdi. Yo'l boshlovchimiz shu yerda to'xtanglar ishorasini qildi. O'zi bo'lsa butalar orasi bo'ylab bir nimani qidirgan bo'ldi. Axiyri topgani uzun bir so'yil bo'ldi. Biz uning harakatlarini itoatkorlik bilan kuzatarkanmiz sirtidan qorong'i bo'lib ko'ringan butazor bag'riga ham sekin-asta ko'zimiz o'rganib, ko'nika boshladi. Qiziq, Xayrullaning qo'lidagi tayoqning bir uchida g'ildirakcha bor ekan. Xayrulla uni namoyishkorona shir-shir aylantirib ko'rganda sezib qoldik. Abdushukurning sabri chidamadi:

— Bu nima, Xayrulla?

Xayrulla eshitib-eshitmaslikka oldimi ishqilib tayoqning bir uchidan ushlab g'ildiratganicha taqir so'qmoq bo'ylab yo'lga tushdi. Bolada bu, hali bola degandek Abdushukurga qarayman. Uyam "ha" deya bosh irg'ab qo'yadi. So'qmoqdan qad ko'tarib yurib bo'lmadi. Qalin chakalakzor ikki yondan qisib bora-yotgani yetmay, tepadan ham o'rab kela boshladi. O'qtin-o'qtin oyoqlar chalishib, bir-birimizga urilib ketamiz. Bu yot olam bizni anchagina dovdirata boshlagan edi. Bir qadam oldinlab ketishgayam, orqada qolishgayam hech birimizning yuragimiz betlamasdi. Dastavval hov toqqa ko'tarilayotganimizda Abdushukur orqada edi. Endi bo'lsa o'rnimiz almashinib qopti. Bundan chiqdi qo'shnimni sal yuragi chatoq. Balki jonsarakligi ham shundandir. Xayrulla-chi? U qo'rqmayaptimikan? Qo'rqadi, nimaga qo'rqmasin! Hozir bizga suyanyapti. Lekin

yana o'n yildan keyin bu yigit tog' kelbatli, burgut yurakli bir yigit bo'ladi.

Shu payt kutilmaganda Abdushukurga urilib ketdim. Ha! Abdushukur Xayrullaning yelkasidan ushlaganicha qotib qoldi. Bir xavfni sezgandek oldinga qaradim. Butalar orasidan yo'l topgan oy nuri so'qmoq yuzini yoritib turar, allanarsa bosh ko'tarib vishillardi. Xayrullaning g'ildirakchasi uning naq tumshug'i tagida to'xtagan. Biz bir-birimizga qanchalik yopishib-qapishib qolgan bo'lsak, men hadeganda nimaligini ajratolmayotgan gazanda ham shunchalik qotib turardi. E-ha, axir bu ilon-ku! Vujudim muzlab ketdi. Yana unaqa-bunaqasimas — ko'zoynaklisi — kobra!

Boshini ketmon qilib turishidan o'shaning o'zi! Sheriklarimning yurak urishi shundoq eshitilib turibdi.

Ilon goh o'ngga, goh chapga sollana boshladi. Zahri qotilning tili oy nurida sanchig'ichdek yiltirab ketdi. Eng yomoni bu ofatga ro'baro' bo'lib, biz emas birovning bolasi turardi. Biz kattalar nima qilmaylik, xatarga Xayrulla yaqin edi. Aql-u hushim Xayrullaning qo'lidagi so'yilda. Shundan bo'lak arzigulik qurolimiz yo'q, ilon ham go'yo shundan hadiksirayotgandek edi. Men Xayrullaning qo'lidagi shunchaki o'yinchoq, shildiroq emasligini endi fahmlab yetdim. Agarda shu bo'lmaganda Xayrulla allaqachon ilonni bosib olgan, falokat yuz bergan bo'lardi. Ha, bu tog' bolasi bizdan ko'ra aqlliyoq edi shu turishda. U ajal bilan yuzma-yuz qilt etmay qotib turibdimi, demak shunday turish kerak. Bir nimani biladi u. Bu turishda qay tarafning asablari mustahkam bo'lsa o'sha yutadi. Biz uchun o'tib borayotgan har soniya tiriklikdan o'lja edi. A'zoyi badanimdan ter quyadi. Yelkadan chidab bo'lmas bir yuk ezadi.

Nihoyat yo'limizni to'sib qo'ygan qaroqchining toqati toq bo'ldi. Sabr-u bardoshi tugadi. Tanasi oy nurida yaltirab, harakatlanib qoldi. Zaharli boshi birov urgandek pastga tushdi-yu shuvillab butalar tagiga o'zini urdi. Biz shitirlash ovozi uzoqlashib, o'chib bitmaguncha sehrlangandek o'rnimizda qotib turaverdik.

Sezardim, hali hech birimiz o'zimizga kelib ulgurmandik. Meni qo'rquv bilan birga ajib bir hayrat ham qamrab olgan edi. Bu tog'larda ko'zoynakli ilonning uchrashi hayratomuz edi.

— Xayrulla, boyagi kobramidi? — deya birinchi bo'lib jimlikni buzdim.

Uchovimiz ham jiqqa terga botgan edik.

— Ha, kobraydi, — dedi Xayrulla.

Yo tavba, suv toshsa to'pig'iga chiqmaydi-ya bu bolakayni. Ovozidagi bepisandlik-chi?

— Kobra bu tog'larda bo'lmasdi shekilli?

— Vertolyotda tashlab ketishgan, ko'paysin deb.

— Bundan chiqdi ilonlarniyam tog'ma-tog' ekan-da, yong'oqqa o'xshab, tavba uni o'rniga boshqa narsa eksa bo'maydimi, naq jonim ko'zimga ko'rinib ketdi-ya, — gapga qo'shildi Abdushukur.

— Men paqqos sizdan qo'rquvdim, — dedim, — yo'talingiz tutib qoladimi deb.

— Ja olasiz-da gapniyam, damim ichimga tushib ketdi-ku, yo'talmish-a?!

Bu kasofat joydan tezroq ketishning payidan bo'ldik. Xayrulla endi boyagidan ko'ra ehtiyotkorroq, sekinroq, qadamlarini sanab bosardi.

Butazor tobora quyuqlashib, so'qmoq qorong'ilashib, kichrayib borardi. Xuddi lahim yo'ldek enkayib olganmiz. Men Abdushukurning yelkasidan boshqa mo'ljalni ko'rmayman. Abdushukur ham Xayrullaga taqalib boryapti. Xayrullaning qo'lidagi yog'och mening nazarimda yo'lboshchilik qilardi.

Shu damda oldinda yana nimadir qarsillab ketdi. Voh! Xuddi birov pistirmadan o'q uzdi. Ikki shaharlik yana Xayrullaga tarmashib qoldik. Xayrulla bolalarcha boplab so'kindi. Uning so'kinishidan oldindan kutilgan narsa ro'y berganini payqadik.

— Yana nima bo'ldi? — Abdushukurning ovozi titrab chiqdi.

— Qopqonga uchrab qoldik, — dedi Xayrulla sovuqqina qilib.

— Yo tavba-ey, qopqoning nimasi yana?

Xayrulla hozir ko'rsataman degandek qo'lidagi

yog'ochni o'zi tomon zo'r berib torta boshladi. Yog'och uchiga ilashib qandaydir temir parchasi oyog'imiz tagigacha sudralib keldi. Qopqon yog'ochni tishlab qolgan ekan. U bir nimaga mahkamlangan shekilli, boshqa tortilmadi.

Xayrulla qopqonning bir gupchagini yerga tirab, ikkinchi gupchagiga chiqib og'irligini tashladi. Shunday qilib so'yilni osongina bo'shatib oldi.

— Xayrulla, bu kasofatni kim qo'yadi o'zi, xudo bir saqlabdi-ya, bosib olganingda bormi, — dedim seskanib.

— Kim qo'yardi, shaharlik "shaqol"larda, — dedi u qopqonni bir tepib. Keyin engashgancha oyoqlari ostidagi xas-xashak orasidan nimadir izladi. Qo'liga kattagina tosh ilashib chiqdi. Uni bo'yi barobar ko'tardi-da, bizga nari turinglar deya ishora qilib, toshni qopqon ustiga tashladi. Bizam jon deb bu ishga qarashib yubordik. Qopqon obdan majaqlanib, qopqonlik nuqsini yo'qotdi. Shu ko'yi "shaqol"lardan o'ch olgan bo'lib, yo'lda davom etdik. Yana oldinda Xayrulla, uning qo'lida g'ildirakchali tayoq.

— Bundan chiqdi, bu yerlarda sensiz yurib bo'lmas ekanda oshna, — dedi Abdushukur.

Abdushukurni bilmadim-u, ammo yo'lga chiqqandan beri yuragimda bir xavotir bor. Nazarimda zira bahona bizni shayton yo'ldan urganga o'xshardi. Ha, shayton malayi, kofir jinlar qo'liga tushib qoldik shekilli. O'zim ham bir marta shu ko'yga tushganman.

Unda hali dachadagi kulbam bitmagan edi. Tut tagiga temir so'riga chodir tikib, buklama karavotda yotardim. O'sha kuni juda boshqacha ob-havo bo'ldi. Yoz chillasida tog' tarafdin bulutlar tushib, chor-atrofnin tumandek o'rab oldi. Havo kutilmaganda sovib ketdi. Osmondan yomg'irga o'xshash bir nima purkala boshladi. Dov-daraxt, ekin-tikin, o't-o'langacha bir-birining pinjiga tiqilib, shumshayib qoldi. Yon-verimdagin qo'shnilarim havonin bu avzoyidan yaxshilik kutmay shaharga jo'navorishdi. Abdushukur bola-chaqasi bilan chiqqanin uchun qaytishni o'ylamadi. Chiroq yo'qligidan kechkin ovqatni qorong'iga

qoldirmaslikka urindig-u, bari bir bo'lmadi. Salda borliq zulmat ichida qoldi. Chodiringa yetib olishga oshiqib o'rnimdan qo'zg'oldim. Abdushukur yo'liga "qolavering" degandek gap qildi. Qolib bo'lmasligini o'ziyam yaxshi biladi. Hayhotdek uyni qurib qo'yib, bitta xonasinigina bosh suqarlik qilgan, boshqalari somonxona, o'tinxona bo'lib yotardi. Abdushukurning mulozamatini eshitmaganga olib, tomorqamga olib boradigan so'qmoqqa burildim. Chor-atrof bamisoli qozonning qorasi. Ko'zni ochding nima-yu, yumib yurding nima — farqi yo'q. Oyoq uchida paypaslanib, amal-taqal bilan yo'l topib borardim.

Tepadan hamon yomg'irga o'xshagan narsa purkalib turibdi. Ba'zan etni junjiktirib epkin esadi. Yong'oqlar bargiga yopishgan tomchilarni shatir-shutur yerga to'kadi. Atrofga bo'g'iq bir ovoz taraladi. Hov pastdagi eski qabristonda boyo'g'li sayraydi. Paypaslana-paypaslana manzilga yetib, chodirga kirib oldim. Dimog'imga chodirning namiqqan, achimsiq hidi urildi. Xuddi o'zimni o'zim chodirgamas, qabrga tiqqandek edim. Ey, xudoyim-ey, zulmat deganlari shu bo'lsa kerak-da, bekorga bu dunyoni yorug' dunyo deyishmas ekan...

Yechinib, kunduz kuni hozirlab qo'yilgan ko'rpa orasiga kirdim. Buklama karavot har galgidek joylasholmay g'ijirlashga tushdi. Qani endi g'ijirlashi tezroq tinsa-yu uyqu oldidan o'qiladigan duolarni o'qisam. Qayoqda, g'ijirlash yoniga ustiga-ustak boshqa shovqinlar qo'shildi. Birov chodir ichidagi havoni so'rib olgandek, havo yetmayotgandek bo'g'ila boshladim. Yuragim bir nimani sezgandek bezovta. Gup-gup ura boshlagandi. Tilim ari chaqqandek shishib, og'zimga sig'may qola boshladi. Yo Parvardigor, buklama karavotmi desam, butun boshli temir karavot nari-beriga borib kelar edi. E, yer qimirlayapti-ku, yer, deya o'zimni o'zim bosaman, kallamdagi bo'lmag'ur xayollarni nari quvaman. Juda qattiq qimirlayapti-ku, tog'da shunaqa bo'lar ekan-da!

Biroq yer qimirlashi hadeganda to'xtay bermasdi. Shunda bu shunchaki yer qimirlash emas, boshqa

bir narsa ekanligini sezib qoldim. Nimagadir bu jinlarning ishi degan o'y miyamga chaqmoqdek urildi. Vujudimda qo'rquvdan ham ko'ra qaysarlik, jangari bir kayfiyat junbisha keldi. Shayton malaylari mendan oldinroq chodirga kirib olishgan ekan-da. Meni kelmaydi deb xomtama bo'lishgan. Bazm-u jamshid qurmoqchi bo'lishgan-u men rejalarini buzib qo'ydim.

Nima qilsamikin? Buklama karavotni ortmoqlab Abdushukurnikiga jo'nab qolaymi? Keyin-chi? Ertaga-chi? Ketsam bu yerga yana kela olamanmi?

Karavot hamon chok-chokidan so'kilgudek bo'lib qasir-qusur qilardi. O'h, jinlarni bu yerda o'rdasi bor ekan-da. Nimaga shu kungacha o'zlarini sezdirishmadi? Tushunarli! Men bir kun avval traktor opkelib xandaqlarni tekislatgan, o'ralarni ko'mdirib, yerni bir tekis qilib haydatib tashlagan edim. Bundan ularning tinchi buzilgan, alamzada.

Jinlar ikkilanayotganimni sezishdi shekilli, so'rini boyagidan battar silkitishga tushishdi. Karavot xuddi suv yuzidagi qayiqdek chayqalardi. Nima qilay? Yo'q, ketsam qaytib kelolmayman!

Qaysarligim tutib boshimga ko'rpani tortib oldim. Ovozim boricha "Yosin"ni o'qib, jinlarga urush ochdim. Uxlab qolibman...

Ko'zimni ochsam, chodir ichi yorishib ketibdi. Ko'rayotganlarim o'ngimmi, tushimmi deya shoshib chodirni ko'tarib tashqariga mo'raladim. Bulutlar tarqagan. Osmon yuzi marmardek. Sharq tomondagi tog' cho'qqilari bo'zara boshlabdi. Olisdan kaklik ovozi kelardi.

Shu tobda bu voqeani eslashimga sabab, bizni mana shunaqa jinlar yo'ldan urmadimikan degan hadik bor edi. Jinlar bir ko'z tikkan odamini tinch qo'ymasligini, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yerlarga boshlab, adashtirib ketishini eshitgan edim. Shunga o'xshash bir kori hol yuz berayotgan bo'lmasin.

Halidan beri alag'da qilayotgan xayollarni nari quvib, taqdirda bori-da, deb yo'lga qarayman. Butazor yanayam quyuqlashgan, oy nurlari endi biz

tomon sizmay qolgan, yaproqlardan tushayotgan shu'lalargina yo'limizni yoritardi. Axiyri yalang'och tik qoyaga peshana urgandek to'xtadik.

— Keldik, — dedi Xayrulla.

Men seskanib ketdim. Ro'paramizda tog', chor-atrofigimiz — chakalakzor. Tepamizda kaftdek osmon. O'sha yerdan ham oy kuzatib turibdi. Bamisoli quduq ichiga tushib qolgandekmiz. Xayrulla ko'zimga shumshuk ko'rinib ketdi.

— Xayrulla, biz o'zi qayerga kelib qoldik? — deb Abdushukur ingrab yubordi.

— Aytgan joyimga-da.

— Betta nima qilamiz inson?

— Ozgina dam olaylik, — dedi Xayrulla, — keyin u yoqqa chiqamiz. — Xayrulla shunday deb yag'rinlari oy nurida olmosdek shu'lalanib turgan tik qoyaga ishora qildi.

— Shunday demaysanmi-e! — Abdushukurning ovozi bu safar guldirab chiqdi. O'zimam yengil tortib ketdim.

— Tavba, Shiroqqa o'xshab kelib qoldik desang, menam hayron qopman.

Vahima tarqab, asablar biroz yumshadi.

Xayrulla qoyaga yopishibroq bordi-da, qurigan bir katta shoxni o'ziga tortdi. Abdushukur jon deb unga yordamlashdi. Shox-shabba olingach, yo'lak ochilib, zinapoyalar g'ira-shira ko'zga tashlandi. Xayrulla endi bizni tepaga qarab boshladi. Yo'lka tippa-tik, zinalar sirpanchiq, xuddi quduqning tagidan yuqori ko'tarilayotgan odamga o'xshaymiz. Yaxshiyam safar xaltalarimiz yelkamizda, qo'llarimiz bo'sh. Kun bo'yi qizigan toshlardan yoqimli bir iliqlik ufuradi. Men bu balandlikka boshpana qurishning o'zi bo'lmaganligini his qilaman. Sabrim tugab, o'qtin-o'qtin tepaga alanglayman. Xayrulla shundoq yelkamda, takaga o'xshab, sakrab-sakrab boryapti. Bizni shaharlik bolalar hozir uch uyquni olishdi. Xayrulla-chi? Ikki birdek odamni tog'ma-tog' yetaklab yuribdi, azamat. Bir og'iz so'zimizni yerda qoldirmadi. Biroz ko'tarilgach, ko'zimga nimadir qorayib ko'rindi. Xayriyat,

dedim o'zimga-o'zim. Shundoqqina oyog'im tagida Abdushukur xirillaydi.

— Yaqin qoldik shekilli, — dedim unga dalda berib.

— Shekillimi yo?..

— Bir nima ko'zga qorayib ko'rinyapti, g'orga o'xshaydi...

Shu barobarida dimog'imga zira hidi urulgandek bo'ldi. Ha g'or og'zida to'xtadik.

G'orning o'radek qorayib turgan og'zi bizni o'zidan nari itarib turardi. Axir g'or qanchalar sirli bo'lmasin, bari bir g'orda, uy emas.

Hozirgina xush yoqib turgan yeldirim endi tanamni junjiktira boshladi. Terdan ho'l bo'lgan kiyimlari-miz badanga muzdek-muzdek yopishib, seskantirdi. Bu ko'proq qoq suyak Abdushukurni bezovta qildi shekilli:

— Xayrulla, — dedi uyquli ovozd, — bu g'oringda eshik, tuynuk degan narsalar bormi, o'zi?

— Eshigi pastda qolib ketdi-ku.

— Yo tavba-ey, boyagi shox-shabbalar eshigimidi hali? Manovi kirsalaring yutaman deb turgan og'zi degin. O'zi bu saroy kimga qarashli, bilsak bo'ladimi?

— Jo'rttaga so'raysiz-da, kimga bo'lardi?

— Vey, inson, — dedi Abdushukur qizishib, — men u ma'nodamas, bo'rimi, ayiqmi, to'ng'izmi, nimaning ini bu deb so'rayapman sendan.

— Ha, buni so'rayapsizmi, ayiq g'ori deyishadi, bu yerni.

— Yopiray, ayig'iyam bor degin?

— Yo'qda, ular hov baland tog'larga qochib ketishgan.

— Xafa bo'lma, oshna, — dedi Abdushukur xo'rsinib, — biz odamlar hech qayerga sig'may qoldik, joni bor narsa borki bizdan qochib boryapti. Faqat bizni ko'tarib turgan yergina qochib ketolmayapti. Hay, mayli, quruq safsatadan bir chimdim uyqu yaxshi.

— Ichkarida qoplar bor, — dedi Xayrulla.

— Qani yur-chi...

Abdushukur gugurt chaqib, ichkari yurdi. G'or ichi

bitta gugurt cho'piga ham yorishib ketdi. Bu joy biz o'ylaganchalik g'or bo'lmay, shunchaki ayvonchaga o'xshash bir boshpana ekan.

— Manovilaring nimaydi, — deya Abdushukur ki-raverishdagi qora-qura narsalarga ishora qildi.

— Yong'oq, archilmagani, ilon-pilon, chaqadigan narsalar g'orga yo'lamasin deb to'kib qo'yganmiz.

— E, anovini qaranglar, bu joylarning turgan-bit-gani ertak-ku. Itlari cho'pon, yong'oqlari qorovul. Ishqilib bizga ziyon-zahmati yo'qmi yong'oqlaringni, bizam chaqadigan gazandalardan qolishmaymiz asli-da? — dedi Abdushukur.

— Ammo maza qilib uxlaysiz, — dedi quvnoq bir kayfiyatda Xayrulla.

— Shunaqami, — dedi Abdushukur, ko'pdan qidirib yurgan narsasini topib olgandek quvonib, — menbop dori ekan-da. O'lardek qushuyquman-da. Shu ozroq obketib yostig'imga joylab qo'ysam bo'lar-kan, asli.

— Qushuyquman deysiz-ku, halidan beri uyqudan gapirasiz, — dedim kulib, — meni bo'lsa manovi sirli olamni ko'rib uyqum o'chib ketdi.

— Nima, sizzi uyqingiz o'chsa, bizzikiyam o'chishi kerakmi, e tavba-ey, — dedi Abdushukur norozi bo'lib.

— Endi gap bunday, — dedim ularga, — harholda bu joylar sinashtamas, tong yorishiga uch soatcha vaqt qopti, bir soatdan poyloqchilik qilamiz. Shunda har birimiz ikki soatdan uxlagan bo'lamiz. Navbatni men boshlab beraman, mendan keyin, Abdushukur sizning galingiz.

— Ol-a, qiyin-qiyin, menga bo'larkan-da, men sho'rlik shu ikki soatniyam ikki bo'lib uxlarkanman. Koshki darrov uxlay qolsam, — zorlandi u.

— Sizlar bismilloni aytib, boshni yostiqqa qo'-yinglar-chi, men bir duo o'qiyman, uxlamasalaring men kafil.

— E, — dedi Abdushukur hayron bo'lib, — gipnozam qo'lingizdan kelarkan-da.

Men oydin yerga o'rnashib, g'orga suyanib oldim-

da, “Yosin”ni o‘qishga tutindim. Tovushim chor-atrofga yoyilib, soniya sayin atrofda aks-sado berayotganini his qila boshladim. Ovozimni yana bir parda ko‘tardim. Suraning “yubsirun”igacha ravon borib, keyiniga chalg‘ib ketdim. Tovushimga boshqa bir tovush qo‘shilib ketgandek bo‘ldi. Mutlaqo yot ovoz. Nima bo‘ldiykin? Ovoz hozirgina biz chiqqan yo‘lak tarafdin kelardi. Qandaydir dardli, azobli, ayanchli, vahimali... Kutilmaganda vujudim muzlab, tomo-g‘imga bir nima botdi. Tilim kesakdek qotgan. Turmoqchi bo‘laman-u, qani qo‘zg‘ala olsam. Birov meni toqqa mixlab tashlagandek. Yopiray, “Yosin”ni bu yerda o‘qimasligim kerakmidi ekan. Astag‘furulloh, Olloh o‘zing kechir...

Biroq ko‘z oldim shu qadar ravshanlashib ketgan ediki, go‘yo tun o‘z o‘rnini kunga bo‘shatgan edi. Ha, g‘or devorlaridagi eng mayda chiziqlargacha, bir zamonlar yoqilgan o‘tning tutun izlarigacha, hatto, Xayrullaning manglayidagi sariq tuklarigacha ko‘rib turardim.

Qulog‘im yaxshi eshitar, xayolim pastdan ko‘tarilib kelayotgan shovqin egasida. U har qadam bosganda zinalar uqalanib quyiga gurros toshlar yumalardi. Nima bo‘ldi ekan u, qor odammikan?!

Birdan kutilmaganda dara ichi gumburlab ketdi. Xarsanglar ko‘chib, tog‘ shovqin-suronga to‘ldi. Ko‘zlaringa ishonmay qoldim. Chiqib kelgan narsa ayiq-ku!

Abdushukur bilan Xayrulla yotgan tarafga qaradim. Yo tavba ayiqning bo‘kirig‘idan yuragim yorilay deyapti-yu, ularning tosh qotib uxlashini. Bundan chiqdi bu g‘orning biz bilmagan o‘z sirlari bor ekan-da. Sahnda tog‘dek bo‘lib turgan ayiqning badbo‘y hidi dimog‘imni yoray derdi. U meni, g‘orda yotgan sheriklarimni pashshachalik pisand qilmasdi. Ayiq orqa oyoqlariga cho‘kib, tanasi bilan bir bo‘lib ketgan beso‘naqay bo‘ynini ko‘kka cho‘zgancha hid ola boshladi. Pastki jag‘i tushib, tili osilib hansiraganicha g‘alati tovushlar chiqarardi. Ayiq shu alpozda anchagacha turib qoldi. Ko‘zlari bejo. Milklari qontalash!

Sirti zarga belangandek yaltir-yultir qiladi. Birdan g'or devori to'rt tomonga surilib, kengayib ketdi. Ha, g'or og'zida shunday bir joy borki ayiqning zalvori tushishi bilan mo'jiza yuz berdi. Abdushukur bilan Xayrulla g'orning bir chekkasiga surilib borib qolishdi. Ular hamon uyquni kelgan joyidan urishar edi.

Ayiq g'or ichiga qarab yurarkan, orqa bo'ksasi bilan boshimni toshga shundoq ezdiki, naq suyaklari majaqlanib, ichiga g'ijirlab toshlar kirgandek azobda qoldim. Ammo og'riq uzoqqa cho'zilmadi. Zum o'tmay ko'zim oq yog'dudan qamashib ketib, og'riqni mutlaqo unutdim.

Ayiq g'or adog'igacha sollana-sollana bordi-da, obdan o'ng-u so'lni iskalandi. Sandiqdek boshini o'ngga, so'lga tashlab ixrandi. Keyin ikki oyoqda turib, yelkasini toqqa tiradi-da, o'kira boshladi. Ayiq xayolimda tog'ni ko'tarib tashlamoqchi bo'lardi. Ko'zlari kosasidan otilib chiqqudek. Kutilmaganda u kesilgan daraxtdek yonboshga quladi. Ayiqning chovi orasida bir nima g'imirlay boshladi. Nima bo'ldiykin? E, jonivor... ayiq bolalapti-ku!

Zurriyot qoldiray deb hov olis tog'lardan kepti-da, bu yerlarga. Bundan chiqdi o'ziyam shu g'orda tug'ilgan. Fillar, tuyalar o'zlari dunyoga kelgan joyga kelib bolalashini eshitgan edim. Ayiqlar ham shunaqa ekan-da.

Ona ayiq anchagacha bolasini yalab-yulqadi. Keyin ivirsiq xotindek o'tirib oldi-da, hafsala bilan tarana boshladi. Hademay a'zoyi badanidan bir quchoq jun tushdi. Uni devor tagiga uydi-da, bolasini tishlab ustiga yotqizdi. Ayiq ancha shahdidan tushib, muloyimlashdi. Biroq hadeganda tilini chiqarib, toqatsizlana boshladi. Tilini g'or devorlariga bosib-bosib yalanishga tushdi. Suvsabdi-da jonivor. Suvlab kelishga bolasini ko'zi qiymayapti, shekilli. Ayiq g'or og'ziga qarab yura boshladi. Biroq nafsidan bola mehri ustun keldimi, to'xtab orqasiga qaradi. Ikkilanib, guvranib tebrandi. Bolasining ustiga bordi. Tili osilib, hansiraganicha ko'zlari yumildi. Yutoqib, yana g'or devorlarini yalay boshladi. Nafsi orom olmadi. Bardoshi tugadi. Nafsi

g'olib keldi. Lapanglaganicha shahd bilan g'ordan chiqdi. Sahnda turib, atrofdan hid olgan bo'ldi-da, burilib ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Men momiqqa ko'milib tek yotgan ayiq bolasiga va shuncha mo'jizadan bexabar yotgan Xayrulla bilan Abdushukurga qarayman. Balki ular ham xuddi menga o'xshab ko'rishayotgandir, eshitishayotgandir, faqat qimirlay olishmayotgandir.

Shu payt g'or og'zida boshqa bir sharpa bo'y ko'rsatdi. Jingil-jingil qo'ng'iroqchalar ovozi eshitildi. Yo Xudoyim, axir bu ilon-ku, yo'q, uni ilon deb bo'lmasdi ajdarho edi. Ha, ha, boshida bir juft shoxiyam bor. Yoli ham bor. Yolning har bir tolasiga no'xatdek, no'xatdek qo'ng'iroqchalar bog'langanmi yoki uchlari tugilib, qo'ng'iroqchaga aylanib qolganmi, ishqilib ular bir-birlariga urilib jingil-jingil ovoz berardi. Ko'zimni yumsam, bu turqi sovuqni ko'rmasam derdim. Ammo ko'zim yumilmasdi. Maxluqning men bilan ishiyam yo'q. Xunukdan xunuk boshini azod ko'targanicha g'or ichiga tebrana-tebrana surgala boshladi. Qo'ng'iroqchalari birdek jingillardi. G'or ichi bu ovozdan sirli ohangga to'ldi. Uning tanasi bo'lsa shu ohangga monand eshilardi. Nimagadir bu yovuzni ko'rgandayoq niyatini payqagan edim. U ayiqning bolasiga xomtama bo'lardi. O'ljasiga yaqin borgan sari tanasi kattarardi. Bundan chiqdi u ayiqni izma-iz poylab kelgan ekan-da. Jonivorning bolasiga mazakxo'rak ekan-da.

Zahri qotil g'or o'rtasiga yetganda bir nimadan cho'chib, ilkis orqaga tashlandi-da, boshini ketmon qilib sheriklarim yotgan tarafga burildi. Qo'ng'iroqchalarning uni o'chib qoldi. Yirtqich zaharli boshini ular tomon cho'zib, qo'rqinchli ovoz chiqardi: Xo-o-o-o-o-o! Tili og'zi atrofida chuvalandi.

Sudraluvchi ajal bu tarafdin o'zi uchun xavf va xatar yo'qligiga ishondi shekilli, halidan beri bezovta tipirchilayotgan o'ljasi tomon surgaldi. Ayiq bolasi najot axtargandek g'or devoriga qapishdi. Uning ko'zlari hali ochilmagan, shunday bo'lsa-da, xatarni payqayotgan edi. Allaqanday tovush chiqarib dush-

maniga o'zicha urush ochgan bo'ldi. Ajdarho bo'lsa hademay jig'ildoniga tushadigan luqmadan bir to'lg'anib oldi. Shu payt boshini ilkis orqaga tashladi. Nahotki, niyatidan qaytdi, nahotki, Alloh taolo bu yovuzning nafsini kesdi. Yo'q, yanglishgan edim, yirtqich niyatiga yetib bo'lgan edi. Jag'i yirtilgudek bo'lib, o'ljasini domiga tortar, qo'ng'iroqchalar bezovta jingillardi... U g'ordan chiqib ketdi.

Bu mudhish voqeaning xotimasini kutgandek Abdushukur g'imirlab qoldi. Qo'liga tiralib o'tirdi. Keyin qo'ynidan sigaret axtardi. G'or devoriga suyanib oldi-da, sigaretni olov oldirdi, gugurt cho'pini naridan beri o'chirgan bo'lib, duch kelgan tarafga qarab otdi. Baxtga qarshi o'chmagan gugurt cho'pi hozirgina ayiq bolasi yotgan momiq ustiga tushdi. Tushdi-yu lop etib alanga oldi. Qanday tez alanga olgan bo'lsa shundoq tez o'chdi. Abdushukur buni ko'rmay ham qoldi, chamamda. U o'rnidan turib, sigaretini cho'g'lantirib, cho'g'lantirib tortgancha tepamga keldi. U avvaliga meni suyanganicha uxlab qolgan deb o'yladi shekilli, ammo ko'zim ochiqligini ko'rib, ginaxonlik qildi:

— Bunaqamas-da aka, o'zim uyg'onmasam... — deb yelkamga qo'lini qo'ydi. Shu payt qo'lidan vujudimga bir nima yugurgandek bo'ldi. Yuragim gursillab urib ketdi. O'rnimdan turaman deb munkib ketdim. Yaxshiyamki Abdushukur ushlab qoldi, bo'lmasa peshanani qashqa qilib olardim.

— Iye, sizga nima bo'ldi aka, yo maza qochdimi?

— Qo'l-oyoq uvishib...

— E, tavba, shunchalikka doviram o'tiradimi odam?

Abdushukur meni suyagancha, paypaslanib o'zi yotgan joyga olib keldi. G'or qorong'i edi. Yotdim-u... Hozirgina tun edi. Yana chor atrof yorishib ketdi. Yana g'or devorlaridagi mayda-mayda chiziqlarlargacha aniq-tiniq ko'rina boshladi.

Ana, Abdushukur ham bezovtalanib o'rnidan turib ketdi. Uyam kutilmaganda tun kunduz bilan almashtirib qolganiga hayron bo'lyapti chog'i. U nimagadir

menga o'xshab tosh qotmadi, o'rnidan turib keta oldi. Abdushukur sahnning jar tomoniga ixota uchun terilgan tosh devorga bag'rini bergancha dara ichiga borliq-yo'qliq holicha tikilib qolgan edi. Beixtiyor "ha, Abdushukur" dedimu, o'z tovushimdan o'zim quvonib ketdim. Abdushukur men tomonga qaramay "beri keling" degandek imladi. Zum o'tmay Abdushukurning yonida paydo bo'ldim.

— Qarang, — deya hovliqqanicha dara ichkarisiga ishora qildi u, — anovilarni qarang! Odamlarmi?

— Ha, odamlar, — dedim tasdiqlab.

— Bir nimalar terib yurishibdimi?

— Ha...

— Tavba, nima terishlari mumkin, hammayoq qovjirab yotibdi-ku?

Ko'zim shundoqqina oyog'imiz tagidagi dara ostida tepaga o'rlayotgan tutunga va davra qurib olgan xotin-xalajlarga tushdi. Ular o'rtaga uyib tashlangan xashakni dastalashar, bir ayol daraxt o'rtasiga tortilgan belanchakni tebratish bilan ovora edi.

— Anovilari dorivor o't yig'ishyapti, anovilari dorivorlarni xil-xiliga ajratib o'tirishibdi shekilli? — dedim.

— Ha-a, — dedi Abdushukur, — siz mendan ko'ra yaxshiroq ilg'ayapsiz ekan.

Shu payt tog' yonbag'rini kesib tushgan tuproq ko'chada qo'sh otli arava ko'rindi. Aravakash otlarni choptirar, qamchisini o'ynatib bir nima deb baqirardi. Dara ichida sochilib yurgan ayollar shoshib qolishdi. Ular qop-u xaltalarini ortmoqlab aravakashga peshvoz kela boshlashdi. Davra qurgan xotinlar ham gurra qo'zg'alib, saralagan o't-o'lanlarini naridan beri etaklarga tugishib, arava sari chopishdi. Belanchak tebratayotgan ayol ham arg'amchini bir-ikki siltab tebratdi-da, tugunini olib ayollarga ergashdi.

Ammo xuddi shu payt, osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi belanchak yonida boyagi shoxdor ajdarho paydo bo'ldi. U shoxdor boshini ketmon qilgancha bir mo'ljalda turolmay, belanchak bilan barobar tebrana boshladi. Shu payt bir kishi tog' yon-

bag'ridan belanchak turgan yerga yiqilib-surgalib tushib kela boshladi. U shundoqqina shoxdor iblisning yoniga kelib qoldi. Biz uni chaqaloqni qutqargani kelyapti desak...

Uning ko'zi ajdarhoga tushdi-yu qo'rquvdan orqasiga ketib yiqildi. Bu paytda niyatiga yetib bo'lgan yalmog'iz o'zini butazorga urdi. Zum o'tmay belanchak yonida paydo bo'lgan ona bo'sh belanchag-u, o'zidan ketib yotgan kishiga ko'zi tushishi bilan boshini changallaganicha dodlay boshladi. Bechora to'rt tomonga zir yugurib, butalar ichiga o'zini urardi.

Butazor ichidan shundoq bir qo'rqinchli ovoz eshitildiki, dara ichi zirillab ketdi. Odamlar xuddi tog' qulab bosib qoladigandek, quyuq butazor ichidan qochib chiqa boshlashdi. Yana o'kirik eshitildi... Bu ayiqning ovozi edi...

Yana bir shunday o'kirikdan o'zimga keldim. Men sahn chetidagi tosh to'siq yonida emas, Abdushukur yotqizib qo'ygan taqir yerda yotardim. Tashqarida sharros yomg'ir quyar, o'qtin-o'qtin momaqaldiraq qaldirar, uning ovozi darada aks-sado berardi. Abdushukur bilan Xayrulla g'or ichida turib, yakkam-dukkam tushayotgan do'lga hovuch tutishardi. Ko'rganlarimni na tushga va na rostga yo'ya olmay og'ir qo'zg'aldim...

Nonushta qilib o'tirib ko'rganlarimni sheriklarimga aytib berdim...

— E, ha-a, — deydi Abdushukur ko'zining paxtasi ag'darilib, — bir qissali tush ko'ribsiz-da. Lekin buni tush ham deb bo'lmaydi. Qur'onda yanglishmasam "Insonlarning bu dunyodagi hayoti vaqt va zamonlar ichida qolib ketguvchidir", deyilgan. Diqqat qiling-a, "vaqt va zamonlar ichida yo'q bo'lib ketadi", demayapti, qolib ketadi, demoqda.

— Oxiratgacha deng?

— Odam bolasi do'zax azoblarini ko'rgach, gunohlaridan tonadi. Shunda Alloh vaqt va zamonlarga jon kiritib, guvohlarni uning ko'z oldiga keltiradi, yana, Allohning o'zi biladi.

Shu kuni tog' ziralaridan terib orqaga qaytdik.

1993-yil.

7-“A” DA...



Avvalambor... Ha, oldindan bor gapni aytib qo‘ya qolay. Qissamiz qahramonlari yurtimizning hur-hur shabodalariga ko‘kraklarini tutib, entikib-entikib nafas olayotganlardan. Hamma gap shu bor-yo‘g‘i nafas olishayotganligida-da. Alam qiladigan joyi ham shunda. Bo‘lmasa, yeng shimarib ishga kirishgan, hech bo‘lmasa kallalarini qotirib o‘ylashyapti, bir nimalarning rejasini tuzishyapti deb yozmasmidim. Shunday qilib, hozircha bor-yo‘g‘i nafas olib yurishibdi. Ular yana har kuni bitta yo‘ldan maktabga borib o‘sha yo‘ldan uylariga qaytishadi. Shunday paytlarda atrofga alang-jalang ko‘z tashlab, allanimalarni axtargandek, axtargan narsalarini topmagach, norozi bo‘lgandek qovoq uyishgandek bo‘lishadi.

“Maqto‘v”larini keltirib osmon-u falakka olib chiqayotganingiz kimlar, qaysi maktabda o‘qishadi, bir tanishib qo‘yaylik, deysizmi? Maktabini aytsam, sinfiniyam so‘raysiz-da. Aslida buning unchalik ahamiyati yo‘q. Oling, ana 7-“A” bo‘la qolsin.

Bu qandoq bo‘ldi, hozirgi oshkoralik, erkinlik zamonida yashirish nimasi deysizmi? Yo‘-o‘-o‘q, xotiringiz jam bo‘lsin, faqat ismingiz ham, o‘zingiz ham “qahramon”larimizga o‘xshab ketsa, mendan o‘pkalab yurmang, demoqchiman-da. Tanishtirishni boshladim bo‘lmasa.

Anavi ko‘zlari olma-kesak terib, kimnidir toqati toq bo‘lib kutayotgan bola — Azim bo‘ladi. Har kuni ahvol shu. Maktab devori tagiga saharmardondan kelib oladi-da, birov arqonlab qo‘ygandek nari-beri jilolmay, tipirchilab turaveradi. Bo‘lmasa qanchadan-qancha bola shundoq yonidan o‘tib, maktab tomon ketishadi. Ilgarilari: “Ha, Azim, qoqqan qoziqdek nima qilib turibsan, yur maktabga”, deguvchilar bo‘lardi. Bora-bora bu holga ular ham o‘rganishdi. Azimni jonsiz bir narsadek payqamay o‘tib ketadigan

bo'lishdi. Kim biladi, odam boshqalar oldida qadr-qimmatini yo'qotib qo'ysa, shunaqa bo'lsa kerak-da. Avvallari bu holdan Azimning ham xo'rliigi kelardi. "Yur", deganlarning orqasidan jo'navoray-jo'navoray derdi. Ammo jur'ati yetmas edi. Oxir-oqibat ko'nikdi-qoldi.

Nihoyat, osmondan tushgandek Azimning atrofida beshta bola paydo bo'ldi. Kiyimlari bashang. Birining sochi qoshigacha tushgan, biriniki hurpaygan. Ko'rinishdan ishlari shoshilinch, bamisoli uchaman deb turishibdi. "Ma, ushlasang-chi!" Hatto, Azimga zar-dayam qilishadi. Azimning quchog'i bir zumda papkalarga to'lib-toshdi. Papka egalari Azimga qarab "xelo" deb qo'l silkishdi-da, maktab hovlisiga oshib tushib ko'zdan g'oyib bo'lishdi. Azim iyagigacha taqalib xoda yutgandek g'o'dayishga majbur qilayotgan bir quchoq papkani "sizsiragandek" avaylab yerga tushirdi. Shimidan kamarini bo'shatib oldi-da, papkalarining bandidan o'tkazdi. Ana endi orqalasa bo'ladi. Shunisiga qoyil qoling-ki, Azim bu ishlarni zarrachayam og'rinmay, sabr-toqat bilan ado etadi. Go'yo u faqat mana shunaqa hammollik uchun dunyoga kelgandek.

Nihoyat burni yerga tekkudek bo'lib, maktab tomon yo'l oladi. Shu paytda maktab stadionidan "xelo"larning baqiriq-chaqiriqlari, gumburlatib to'p tepishlari qulog'iga chalinib qoladi-yu, beixtiyor jilmayib qo'ydi. Bu uning o'z ustidan o'zi kulayotganimi yoki papka egalariga havasi kelib, "qandingni urlaring" deyayotganimi, ishqilib, bilib bo'lmaydi-da. Ana, uning chehrasida sal zorlanishga o'xshagan bir nima paydo bo'ldi. Peshanasi tirishib, yuzlari burishdimi-ey... Ixranib, tobora orqaga tortayotgan "yuk"ni siltab, yelkasi tomon surdi. Kechirasiz, zorlanmayotgan ekan, shunchaki yuk ezibdi-da. "Nima balo, namuncha, zil-zambil, ichiga tosh to'latilganmi", degan fikr ko'nglidan kechgan bo'lsa ham ajab emas.

Shu payt orqadan kimdir unga tegizib:

— Xix eshagim, xix... Yana bitta xix... — dedi.

Qizlar ko'p ekanmi, haligi ovozni ularning hirlinglashi bosib ketdi. Azim qiyinchilik bilan orqasiga o'girilib, ovoz egasini topmoqchi bo'ldi. Yaxshisi qaramasayam bo'lardi. Qaysi ko'z bilan ko'rsinki, bolalar xuddi maymun o'ynatayotgandek Azimni oldilariga sole-e-eb kelishayotgan ekan! Azim o'qrayib qaragan edi, Nozim:

— Voy-vo-ey, chaqchayishlaridan. Nima, orqangdagi papkalarga aytib urdirasanmi?! Aytaver, hamma sen bo'ptimi, chumchuq pirr etsa, yuragi shig' etadigan, — dedi.

Yana bolalar kulishdi, yana ularning ovozi qizlarning hirlinglashi bosib ketdi. Agarda qizlarning hiring-hiringi bo'lmaganida Azimning peshonasi bunchalik tirishmasdi. Xo'rliqiyam kelmasdi. Yana uni ataylab oldinga o'tkazib yuborib, tomosha qilib keli-shayotgani-chi. Ular har kuni Azimning ustidan mana shunaqa qilib kulisharmikin? Nozimning oliftagarchiligini qaranglar. "Papkalaringga aytib urdirasan-mimish". O'zi-ku, ularni soyasiga salom beradi. Nuqul "shef"lab atrofida dumini likillatadi. Xuddi ismlarini aytsa, qadr-qimmatlari yerga uriladigandek. Shu tobda o'zini ko'rsatib qo'yishning xonasi kelib qoldi-da. Bunaqa imkoniyatlarni u hech qachon boy bermaydi. Futbol o'yinidayam shu. Raqib darvozasi atrofida pashshaxo'rda bo'lib yuraveradi. To'p qulay kelib qolsa bas — shunday ilib ketadiki, natijada hamma qarsak unga bo'ladi. Darslardan baho olishda ham ahvol shu. Oson-oston mavzulardan baho planini bajarib olishga ustasi farang. "Men aytay, men chiqay"lab o'qituvchining holi-joniga qo'ymaydi. Jurnalga baho ustiga baho tushaveradi. Qiyin mavzular o'tilganda, xuddi choyxonaga o'rgangan oshxo'rdek namoyishkorona tishini kavlab o'tiradi. Mabodo o'qituvchilar so'rab qolsa: "Og'irroq bo'lasiz, biz baho rejasini ortig'i bilan bajarib qo'rganmiz", deyishdan ham toymaydi. Nozimning shunaqaligini hamma biladi. Lekin uning ustidan hech kim kulmaydi. Insofdanmi shu?

Azimning peshanasi hamon tirishgandan-tirishar, a'zoyi badani prujinaga aylanib borardi. Uning boshqalardan kamlik joyi bormi? Ustidan kulmagan qizlar qoluvdi endi. Shu topda Azimga juda alam qildi... Hozir shunday bir ish qilsinki, bolalar naq ko'zlari qinidan chiqib, tushimizmi, o'ngimizmi deb, yoqa ushlab qolishsin... U yelkasidagi papkalarni boshidan oshirib sholcha qoqqandek qilib shunday yerga urdiki... Uni mayna qilib kelayotganlar "ux" deb yuborishdi. Nozimning ko'zlari olayib ketdi. Hali bu hammasi emas degandek Azim qizlarga ko'z qisib qo'ydi-da, kamarini bo'shatib oldi. Bir uchini hafsala bilan kaftiga o'radi-da, Nozimga tashlanib qoldi. "Mana senga bitta "xix", mana senga uchta "xix", mana bunisi "uh", mana bunisi "voh", "ih-h-h" deb savalab itdek cho'ziltirib tashladi...

Azim quloq chakkasiga birov shapaloq tortib yuborgandek seskanib tushdi. E, qurib ketsin, xayolim shunaqa bo'ladimi? Yelkasidagi papkalar joyidami o'zi. Ha toshdek bosib, ezib turibdi. Shu bugun judayam zil-zambil tuyulib ketdi-da, o'zining papkasi-ni uyida qoldirib kelsayam bo'larkan.

Orqada hirlingayotgan qizlar orasida Salima ham bor edi. U sinf boshi. U kulishga kuldi-yu, bundoq atrofiga qarab, dami ichiga tushib ketdi. Axir yonida boshqa sinf bolalari ham bor ekan-da. Azimning ustidan kulish, Salimaning ham ustidan kulish emasmi? Nima degan odam bo'ldi ularning oldida. Bu Azim qachongacha o'ziniyam, boshqalarniyam kulgiga qo'yib yuradi. Anavi Nozimam tilini tiysa o'larmidi? Kim o'z sinfdoshini ustidan kuladi. Uyatsiz. Azim ko'tarsa, birovnikinimas, o'z sinfdoshlarining papkasi-ni ko'tarib ketyapti. Nozim buning o'rniga, ko'rdinglarmi, biz judayam ahilmiz, desa o'ladimi. Buyam bir gapi-yu aslida anavi "papkalar"ning egalari haddidan oshib ketishgan. Azimni qo'rqqoq sanab, ustiga shunchalik minib olishgan. Bir bechorani shunchalik xo'rlash yaxshimi? Kim o'zi ular? Yetar, bu sharmandalikka shu bugunoq chek qo'yish kerak. Birinchi

dars sinf rahbariniki. Shuning uchun ham masalani shartta o'rtaga qo'yadi. Avvaliga Xadicha Karimovna hech narsaga tushunolmay turadi. "Intizom masalasimi, unda boshla", deydi-da, orqadagi partaga borib o'tiradi. Salima Azimni malay qilib olgan beshta zo'ravonning ismi, familiyasini shoshmay doskaga yozadi. Keyin ularning ustidan mana bo'lmasam deb chiziq tortib yuboradi. Sinf hech narsaga tushunmay bir chayqalib oladi. Salima: "Shunday, shunday, zo'ravonliklari uchun bu o'quvchilarni maktabdan haydash kerak, deydi. Xadicha Karimovnaning rang-puti o'chadi, yuragini changallaydi. Axir nega changallamasin, beshovidan bittasi uning arzandasi-da.

Salimayam xuddi Azimdek seskanib o'ziga keldi. Voy-bo'-o'-o', shunaqayam betayin xayol suramanmi! Xadicha Karimovnaga yomon ko'rinib nima zaril. Keyin boshqa o'qituvchilarniyam menga qarshi qo'yishi turgan gap. Ey, ko'tarsa ko'tarar. Menga nima. Balki Azim shunaqa ishlarga loyiq boladir.

Keling, sizni 7-"A"ning yana bitta "qahramon"i bilan tanishtiray. Huv ana, u orqaroqda xayol surib kelyapti. Parvoyifalak. Shundan bilaveringki, hozir bo'lib o'tgan gaplardan bexabar bo'lishi mumkin. Axir birov-birovning papkasini ko'taradimi, birov-birovning o'zini ko'taradimi, uning necha pullik ishi bor. Shungayam bosh qotirish kerakmi?! Bu bolani sinfdoshlari bekorga Orif kalla deyishmaydi. Odatda, bunaqa laqab kalladorlarga tirkalguvchi edi. Orifning kallasi bo'lsa, hamma kallalar qatori. Kalladorlarga zig'irchayam aloqasi yo'q. Lekin bir nimalarni o'ylab topishga kelganda uning kallasiga yetadigani yo'q. Orif yosh texniklar to'garagiga bekorga qatnamaydi. U beshinchi sinfdan beri allambalo bir narsalarni yasaydi. Ba'zan uyqudan turadi-yu, chala-chulpa yuvinib, yo'l-yo'lakay non kavshab, maktabga yo'l olgan bo'ladi. Ammo, kallasidagi rejalari uni to'g'ri to'garak xonasiga boshlab boradi. Eshikdagi "To'garak tushdan keyin ishlaydi", degan yozuvni o'qib, maktabi esiga tushib qoladi-yu...

Ayting-chi, bunaqa bolalar yuqoridagidaqa narsalarga boshini qotirib o'tiradimi? Hech qachon! Ammo bu Orif kalla yon-atrofdagilarga mutlaqo befarq, suv toshsa to'pig'iga chiqmaydiganlardan degani emas.

Ana, u kutilmaganda qizlarning nimadandir seskanib, qiy-chuv ko'tarishganidan xayollarini to'p-lab, atrofga sinchkov tikildi. Maktabga kiraverishda suv quvuri teshilgan — favvora bo'lib yotardi. Bolalar har qancha o'zlarini ehtiyot qilishmasin, bari bir favvora kimnidir ko'proq, kimnidir kamroq shilta qilardi. Orifjon o'z odaticha ma'nodor qilib miyig'ida kulib qo'ydi. “Kaltafahmlar-ey, bitta g'ishtmi, toshmi olib, favvoraning ko'ziga bosishsa-yu, olam guliston-a. Bunchayam qovoq bo'lishmasa bular”.

Orifjon shunday deyishga dedi-yu, o'ziyam bir amallab suvdan o'tib oldi. Ko'nglidan kechgan o'y o'yligicha qoldi. Ayting-chi, shunaqa bolalar bilan uzoqni ko'zlab bo'ladimi? Hech qachon!

Hozirgacha tanishishga shular yetib tursa kerak. Shundog'am beshta zo'ravonni hisoblamaganda sakkiztasi bilan tanishtirdim. Qanday qilib, bor-yo'g'i Azim, Salima, Nozim, Orif kalla deganlar bilangina tanishdik-ku, deysizmi? Shoshmang, shoshmang. Ana shu to'rttasining ichida o'zlariga o'xshamagan yana to'rttasi borligini payqamadingizmi? Papkalarni kim boshidan oshirib “tap” etkazib yerga urdi? Qo'rqmas Azim! Beshta zo'ravonni kim maktabdan haydadi? Sinfboshi Salima! Favvoraning ko'zini kim berkitdi? Uddaburron Orif kalla. Azimni kim masxara qildi? Mug'ambir Nozim?

Mana shunaqa! O'zingizniyam bir tintib ko'ring-chi, nechtaga bo'linib ketarkansiz? Ko'rinishdan bitta-yu, aslida odamning ikkita, uchtaga bo'linib ketishi yomon-da. Odam olasi ichida, mol olasi sirti-da degan gapni eshitganmisiz? Shunday deyish bilan o'sha ichdagi ikkinchi, uchinchi odamlarga ishora qilinyapti-da. Kim biladi deysiz, anovi beshta

zo‘ravonimizning ichida nechta zo‘ravon-u nechta notavon bor ekan?

Nimaga endi bitta odamni qiymalab tashlayapsiz, bunga qanday haqqingiz bor, dersiz?

E, nima desamikin, shu desangiz, bo‘ynimga bir mushkulot yuklangan. Zorlanishning o‘rni emas-u, bariga o‘zim aybdorman. “Har ne kelsa tilingdandir”, deganlaridek o‘zim ishlaydigan institutning kattakon majlisida odamlar ichidagi odamchalarni, ikkiyuzlamachiliklarni asoslashga urinsam bo‘ladimi? “Boring, o‘z olamshumul g‘oyangizni isbotlang”, deb, kovushimni maktabga to‘g‘rilab yuborishdi. Aytib qo‘ya qolay, bu quvg‘indan sirayam afsusda emasman. Axir odam bolalikdan bitta qiyofaga ega bo‘lib o‘ssinda. Haqgo‘y bo‘lsa haqgo‘y, mug‘ambir bo‘lsa mug‘ambir. Haqgo‘y ko‘rinib, mug‘ambirlik qilmasin. Mug‘ambir bo‘la turib, o‘zini haqgo‘y qilib ko‘rsatmasin. Hamma chalkashliklar-u, urish-janjallar, yana qanchadan-qancha fisq-u fasodlar mana shundan boshlanadi. Buning davosini bolalikdan axtarmoqchiman-da. Ishim qanchalar mushkulligini sezayapsizmi? Meni oldinda nimalar kutayotganini-chi? Men o‘zimni bamisoli jarrohga o‘xshatardim. Nimalar deyapman, axir jarrohning ishi menikining oldida holva-ku! Jarroh tig‘ni shundoq uradi-yu, dardni kesib oladi-qo‘yadi. Menda bunaqa imkoniyat qayoqda. Tig‘siz ishlashim, o‘sha ikki-uch ko‘rinishli bolalarni bitta ko‘rinishga keltirishim kerak.

Mana, anchadan beri Olim aka bo‘lib (aslida ismim boshqa) bolalar bilan ishlab yuribman. Ularni to‘g‘richasigayam, o‘g‘rinchasigayam kuzataman. O‘zimni jamoatchi tarbiyachi qilib tanitganman.

Ishni Azimdan boshladim. Otasi, onasi, Azim to‘rtovimiz o‘tirib gaplashdik. Azimning onasi ishlamas, otasi qorovul ekan. Mening kuyinishlarimdan, achinishlarimdan Azimning oyisi hayron bo‘lib:

— Inim, sizzi bola-chaqangiz yo‘qmi? — dedi.

— Hali bo‘ydoqman, nimaydi? — so‘radim noqulaylik sezib.

— Unda hali judayam g‘o‘r ekansiz. Bilmasangiz bilvoling, kimdir mehnattalab, kimdir izzattalab bo‘ladi... Nima qipti, papkalarini ko‘tarsa ko‘tarar, yuk ko‘targan bir kun yuzaga chiqadi. Shundoq mo‘min-qobil bolamni boshqalarga gij-gijlab o‘tirib-siz-a. E, qo‘ying-e...

— Bu, Azimjon o‘g‘lim, — dedi otasi g‘udranib, — o‘qituvchingni gapidan katta bo‘lsang bozorga tashkachi bo‘larkansanda. Hozirgi zamonda shu-nisiyam tuzuk, birorta bozorga joylashib olsang, biz-dan yaxshi yashaysan.

Bu gaplardan keyin Azimga battar achinib ketdim. Axir bunaqa oiladan faqat Azimga o‘xshaganlar chiqadi-da. Azimning onasiga qarab, bu xotinning gaplarida haqiqat yo‘qmikan deb o‘ylab qolaman. “Birov izzattalab, birov mehnattalab...” Axir hamma izzattalab bo‘lib ketsa, mundoqroq ishlarni ha, Azimning otasi aytgan tashkachilikni kim qiladi? Bu hayotning o‘ziga xos qonuniyatlari emasmikan? Men tomondan bu olamga behuda aralashuv bo‘lmayaptimikan? Men... men judayam izzattalab bo‘lgin demoqchi emasman-ku. Hayotda kim bo‘lishingdan qat’i nazar, o‘z qadr-qimmatingni bilgin, o‘zingni-o‘zing oyoq osti qildirib qo‘yma demoqchiman. Keyin nahotki, men Azimni birovga gij-gijlayotgan bo‘lsam? Bu xotinning gaplari buncha tikanli. “Bola-chaqangiz yo‘qmi” mish. Lekin bu gapdayam jon bor, o‘lay agar, hech kimning xayoliga kelmagan gap bu. Demak, o‘qituvchining bola-chaqasi bo‘lsa... Ha... mana mantiq qayerda. Menga o‘xshab uyma-uy tentirashga vaqti qolmaydi. U maktabdagina maktab bolasini o‘ylaydi. Boshqa vaqtda o‘z bolasini, uy-joyini o‘ylaydi. Bundan chiqdi, xalq bolasini tarbiyalayman, shuning orqasidan non yeyman degan odam yo bola-chaqa qilmasligi, yo bola-chaqa qilganda ham maktab bolalarigayam o‘z bolasidek qarashi, bunga kuch, bardosh topishi kerak ekan-da. O‘zini, bor hoy-u havaslarini shu maktab ishiga bag‘ishlashi kerak ekan-da. Maktab bolasi uning o‘z bolasiga, og‘riqlari o‘z

og'rig'iga, tashvishlari o'z tashvishiga aylanishi kerak ekan-da! Qarang, haqiqiy tarbiya o'z tarbiyachisidan cheksiz, chegarasiz qurbonlar talab qilar ekan-a? Shularni o'ylab, o'zim uchun bir nimalarni kashf etgan bo'lib, bu yurishlarimdan hech bir pushaymon bo'lmagan holda asta Azimga qarayman. Uning kallasiga hech narsa yetib borgani yo'q, biron nimani his etib, yuragi jiz etmadiyam, o'zi haqidagi gaplarga befarq, bee'tibor o'tiribdi. Axir Azimning ota-onasiga niyatimni yetkaza olmay, boshimni devorga urgandek bo'ldim-ku, Azimdan nimaniyam kutardim. Yo'q, Azim ko'zimga tund va noxotirjam ko'rindi. U shunday bir holatda ediki, bundan o'zimcha ikki xil xulosaga keldim. Biri, kuyunishlarimni o'rtoqlariga gij-gijlash deb tushundi. Ikkinchisi, oz bo'lsayam izzat-nafsi yuzaga chiqdi. Ota-onasida men o'ylayotgan izzat-nafs allaqachon o'lib, cho'gir tishdek ustini et bosgan. Azimda bo'lsa hamiyat, or-nomus degan narsalar bahorgi maysadek endi nish uryapti. Nahotki taxminimning birinchisi to'g'ri bo'lsa?! Azim halidan beri o'tirganlarning g'ashiga tegib g'ing'illayotgan xira pashshaga kutilmaganda shunday bir hamla qildiki... Ko'z oldimga sirk maneji va yuvosh tortib qolgan bahaybat sherning kutilmaganda haqiqiy sherligi qo'zib, so'yloq tishlarini ko'rsatib, o'kirgani keldi. Bu xatti-harakatidan bildimki, unda hamiyat uyg'otsa bo'ladi. Qaniydi hozir Azimning ko'zlarini bir uchrat-sam, taxminlarimni yanayam asoslab olgan bo'lardim. U hadeganda menga qaray qolmasdi. Jimlik cho'zilib ketdimi, ishqilib Azim beixtiyor menga qaradi. Ko'z qorachig'ida nimadir yilt etganini payqadim. Bu ichida kechayotgan kurashning bir uchquni edi... U yuragimning allaqaysi burchaklarini yoritgandek bo'lib, yengil tortdim.

Shu daqiqalarda qo'rqqoq Azimning qo'li qanchalar baland kelayotganini, qo'rqmas Azimning zarbalari qanchalar zaif-u noaniq tushayotganini, u hali chiniqishi, ha, chiniqishi kerakligini yurak-yuragimdan sezib turardim. Nazarimda, qo'rqmas Azim kim-

dandir yordam kutar, o'sha yordam bo'lmasa, "jang"da bari bir yutqazadigandek edi. U kutayotgan yordamni faqat mengina berishim mumkin edi. Axir qo'rqmas Azimni g'aflat uyqusidan uyg'otib, qo'rqoq Azimga qarshi qo'ygan men-ku.

— Qo'rqma, — dedim Azimga ketish uchun qo'zg'alib, — yoningda men borman...

Azim ko'zlarini katta-katta ochib, rostdanmi, degandek menga shunday qaradiki... O'zimni zo'rg'a tutdim. Ha, bunday bolalar tayanadigan tug'ishgan akasi bo'lishini orzu qilib yashaydilar. O'zlari esa, ukalariga akalik qilib, tayanch bo'lolmaydilar. Ukalarियam aksari o'zlaridek qo'rqoq, hadikchi bo'lib ulg'ayadilar...

Albatta, Azimning tezgina boshqacha bola bo'lib qolishi xom xayol edi. Taxminlarim aldamasa, u hali o'zi bilan o'zi ko'p kurashadi. Bu kurashlar uning boshiga hali ko'pgina kutilmagan savdolar solishi ham mumkin. Shungami, uning ertagayam, indingayam zo'ravonlarning papkasini ko'tarib yurishiga ishonardim.

Xo'sh, Nozim ertagayam xuddi bugungidek uning jig'iga tegarmikin? Qaniydi bugungi voqea ertagayam aynan takrorlansa. Agarda shunday bo'lsa, Azimdagi kurashchanlik yanayam tezlashgan, izzat-nafsi yanayam junbishga kelgan bo'lardi. Ha, tutayotgan o'tinning alanga olishiga bitta "puf" deyishdek bir ish bo'ladi. Men shu holatning aynan takrorlanishini juda-juda xohlardim. Shunda bir portlash yuz beradi-yu, portlashning kuchi soxta Azimni tashqariga uloqtirib tashlaydi, deb o'ylardim o'zimcha.

Unda bu "sahna"ni suniy ravishda tashkillashtirish kerakmikini? Agarda shunday qiladigan bo'lsam, Nozimning yoniga borishga majburman. Azimning nafsoniyatiga tegadigan yanayam og'irroq biron gap qil, deyishim kerak bo'ladi. Uning ustidan shunday kulishsinki, kulgining zahri nafaqat Azimni, Salimaniyam jazillatsin. Zora u ham o'z sinfdoshi ustidan kulish, o'zining ham ustidan kulish ekanligini

tushunib yetsa. Ha, men boshlagan ish zanjirli kimyoviy jarayonga o'xshab ketardi.

Ammo bu rejalarim bilan o'z g'oyamga o'zim qarshi borayotganimni payqab qoldim. Ha, maqsad yo'lida firib ishlatmoqchiman. Egri o'sayotgan nihol-ni egri tayoq bilan to'g'rilamoqchiman. O'zim nima-ga endi qarab turib ikkita odamga aylanyapman?!

Yo'q, ming marta, million marta yo'q! Bu xato yo'l! Azim bilan qanday gaplashadigan bo'lsam, boshqalar bilan ham xuddi shunday ro'yi-rost gaplashaman. Bu eng to'g'ri yo'l bo'ladi.

Bu yerdan chiqib Nozimnikiga yo'l oldim. Omadim kelgani shu bo'lsa kerakki, otasiyam, onasiyam endi ishdan kelib turishgan ekan. O'zimni tanishtirdim. Gap Nozim haqida borishini, ko'p vaqtlarini olmay, bir-ikkita savol berishimni aytib:

— Iltimos, — dedim otasiga, — malol kelmasa, o'g'lingizga ikki og'izgina baho bersangiz, lo'ndagina qilib.

Otasi jiddiy, bosiq, sipo odam ko'rinardi. Savolimdan yanayam jiddiylashdi, qaddini rostlab, yanayam sipolashdi, so'ng bir nuqtaga tikilib, o'sha yerdan gap iplarini chuvatayotgandek ehtiyotkorlik bilan dedi:

— Nima desamikin, menimcha, boshqa bolalarga qaraganda ancha sipo, ancha bosiq, betga choparmas shekilli, yana kim biladi deysiz...

— Nozimjon adajonginasining o'ppa-o'zi, xuddi uzgan-u, yopishtirgan, bir tukiya bo'lakmas, Olim akajonisi. Shirin narsaning ta'mini tuygandek og'zini chapillatdi oyisi. — Nozimjon deganda qo'shnilarimniyam og'izlaridan bol tomadi. Yana kim biladi, adajonisi aytgandek... hali bular go'dak-ku...

— Mutlaqo to'g'ri baho berdinglar, — dedim kulimsirab, — lekin ming afsuski, sizlar ham hamma bilgan Nozimjonni bilarkansizlar.

— Voy, yana qanaqa Nozimjonni bilishimiz kerak? — hayron bo'ldi onasi.

Otasi gapning tagida gap borligini payqadi shekilli, davom etavering degandek qaradi.

— Og‘ir olmanglar-u, shu Nozimjonning ichida yana bitta Nozimjon bor-da! U sizlar o‘ylagandek og‘ir, sipo Nozimjonmas, og‘irning ustidan, yengilning ostidan yuradigan mug‘ambir Nozimjon.

— Voy, voy, kulib turib jon olishingizni qarang, — onasining ko‘zlari naq kosasidan chiqay dedi.

Otasi bo‘lsa ko‘zlarini yumib, boshi bilan bir-ikki tasdiq ishorasini qildi.

— Bir misol, — deb gaplarimni asoslashga o‘tdim, — ularning sinfida beshta zo‘ravon bola bor. Ular har kuni erta bilan Azim degan sinfdoshiga papkalarini ko‘tartirishib, o‘zlari dars boshlanguncha to‘p tepishadi. Nozimjon bo‘lsa, bugun o‘sha Azimni “xix esha-gim” deb ko‘pchilik oldida izza qildiki... Azim ko‘ngli og‘rib, Nozimga qaragan edi, u bo‘lsa: “Orqangdagi papkalarga aytib urdirasanmi”, deb o‘zini qo‘rqmas qilib ko‘rsatdi. Aslida bunaqa emas-da. Nozimjon o‘sha zo‘ravonlarning oldida o‘zini shundoq tutadiki, hatto, ism-shariflarini aytsa obro‘lari to‘kilib qoladigandek “shef”, “shef”lab qoladi. Bu yomon, juda yomon. Mening niyatim, o‘sha mug‘ambir Nozimjonni qanday bo‘lmasin ko‘plashib quvib solish, bizga o‘sha sizlar aytgan — hamma havas qiladigan Nozimjon kerak...

— Voy, Olim akajonisi-ya, — dedi Nozimning onasi menga bir nimani uqtirmoqchidek achinish bilan qarab, — hozirgi zamonda sal mug‘ambiram bo‘lish kerak, bo‘lmasa noningizni topib yeyolmaysiz, ha!

Shu orada men o‘zi nima derkin degandek Nozimga bir-ikki qarab oldim. Suhbatimiz samimiy, beg‘araz bo‘layotganligidanmi davrada tundlik yo‘q edi. Buni qarang-ki, Nozim allaqachon shu ob-havoga moslashib ulguribdi. Go‘yo gap u haqda bormayotgandek xotirjam o‘tirardi. Nazarimda, kulib turib aytgan ayblarimni u ham kulib turib shundoq yonidan o‘tkazib yuborayotgan edi. Sal bo‘lsayam noqulaylik-

ka tushish, sal bo'lsayam qizarib-bo'zarish bir fazilat ekan. Suv yuqmas bo'lib turgandan xunugi yo'q ekan. Qarang-a, mug'ambir Nozim tamoman shakllanib bo'pti-ya! Shu yoshda! Buncha tez!

Tuyqusdan kallamga kelib qolgan fikrdan dahshatga tushib ketdim. Nahotki bolalardagi ikki toifalilikning biri otadan-u, ikkinchisi onadan o'tadi. Nimaga bu fikr Azimnikida kallamga kelmadi. Nimagayam kelsin, uning ota-onasi bir xil toifadagi odamlar edida. Ular zamona zo'rniki deb, taqdirga tan berganlar sirasidan. Nozimning ota-onasi bo'lsa... Ha u sipolikda otasiga, mug'ambirlikda baayni onasiga o'xshardi. Shunday qilib, Nozimning yuragi men uchun taqa-taq berkligini angladim. Eh, uning yuragi...

Quduq qazishdan maqsad suv ichish deganlaridek, mening ham ishimdan murod, — tarbiya bo'lgach, ba'zi-ba'zida xayollarga tolib, tarbiyaning suvli, suvsiz qatlamlariga duch kelardim.

Shunday qilib, Salimaniyam jur'atli, jur'atsizga ajratib qo'ygan edim. U ota-onasidan yetim qolgach, katta opasinikida yashayotgan ekan. Gap-so'zidan opasi anchagina qattiqqo'lga o'xshardi. Balki pochchasiyam shunaqadir. Bunday muhitda har qanday bolada ham jur'atsizlik kurtagi ildiz otadi. Axir Salima nima qilib bo'lsayam goh opasining, goh pochchasining ko'nglini topishga harakat qiladi. Bu aytishga oson. Ming ohangga tushish, ming ohangda turlanish... Yana uni sinfboshi qilib qo'yishibdi.

— Bilsang, sen sinfnings ko'z-qulog'isan, — dedim unga. — Sinfingdagi bolalar oddiy narsalarniyam ko'r-may qolishyaptimi, demak, avvalambor sen ko'r-mayapsan. Bolalar quloqsizmi, demak, avvalambor sening qulog'ing tom bitgan, qolaversa, birovlarining izzat-nafsini yer qilib, papkalarini ko'tartirib yuradigan zo'ravonlarning ko'payishiga sen aybdorsan...

Ha, men unga ancha-muncha shafqatsizlik qildim. Hamma kamchiliklarni bo'yniga ortib qo'ydim. Nimaga desangiz, Salimaga o'xshaganlar birov jig'iga tekkandagina qo'zg'aladiganlar toifasiga kiradi.

Ishonch bilan shunday deyishimning boisini aytsam Salima ota-onasi hayot paytlarida anchagina haqiqatchi qiz bo'lgan. Keyinchalik taqdir unga o'z hukmini o'tkazib, o'ta mulohazali qilib qo'ygan. O'ta mulohazalilikdan ikkilanish, ikkilanishdan jur'atsizlik kurtagi unib chiqqan. Bir paytlar ko'kara boshlagan yaxshi fazilatlar maysasini qum bosgan. Ammo ildizi hali o'lgani yo'q. Maysalar salgina quyoshga yuz tutsa bo'ldi, gurkirab ketadi. Salimaning boshqalardan farqi a'lochiligi-yu, o'sha yashashi mumkin bo'lgan maysaning — jur'atning borligi edi.

— Nima qilay, o'sha zo'ravonlarni maktabdan haydaylikmi? — dedi u darhol qat'iy bir to'xtamga kelib.

Mana sizga isboti, mana sizga ustini qum bosgan jur'at maysalari. Albatta, bu holat mening ta'sirimda bo'ldi. Lekin undagi qat'iylik hali barqarorlikka aylanmagan edi.

— Maktabdan haydash sening qo'lingdan kelmaydi, bu qiyin ish — dedim.

— E, siz bilmaysiz. Papka ko'tartirishlar holva, kichkina bolalarning yo'lini to'sib, pullarini shilishlari-chi. Naq maktabning erkatoyi ular. "Shef"ini bilasiz, sinf rahbarimizning o'g'li. O'rtoqlarining past baholarini chorak oxirida oyisiga aytib to'g'rilatib qo'yadi.

— Nimaga endi shularni bila turib, chidab yurding shu paytgacha?

— Siz sinf rahbarimizni unchalik yaxshi bilmaysiz. Ahror Saidov degan bola o'qirdi, o'sha sinf rahbarimiz bilan teskari bo'lib qoldi. Turtkilayverdi, turtkilayverdi, oxiri boshqa maktabga o'tib, qutildi.

— Senam juda bo'lmasa boshqa maktabga o'tib ketarsan. Lekin haqiqatni qaror toptirasan-ku. Vijdoning pok bo'ladi-ku. Balki ketish gali onabolalarnikidir. Qo'rqma, qachongacha qo'rqasan, yoningda men borman, axir.

Salimaning chehrasi yorishib ketdi. Yurakni toshdek ezib yotgan dard yuzaga tepsa, shunday bo'lsa

kerak-da. Kimki adolat yo'lida kurashmoqchi bo'lsa, to'siqlarning bari ko'tarilib, odam bamisoli osmonda uchayotgandek bo'ladi. Qaniydi bu uchish abadiy davom etsa. Afsuski, uzoqqa bormaydi. Pufakdek yorilib ketadi. Salimada ham shunday bo'lishi tabiiy. Uyam hali o'zi bilan o'zi ko'p kurashishi, jur'atli Salima jur'atsiz Salimani yengib chiqishi kerak. "Yengib" deyapman. Aytishga oson. Agarda odam aldamchi nur sari emas, xira bo'lsayam chinakam nur sari intilsa, hech narsadan qaytmaydi. Do'q-po'pisalar hech gap bo'lib qoladi. Odamni chalg'ituvchi illatlarga yurakning qoni taqa-taq berkiladi. Bir, ikki zada bo'lgan yurak shayton vasvasalariga hushyor turadi. Bu so'zlarni yozyapman-u, "yozishgagina oson" deb o'zimni-o'zim yanib qo'yyapman. Qaniydi o'ylaganlarimni o'z qahramonlarimga non ustiga surtilgan sariyog'dek oppa-oston yediolsam. Ikki karra ikki to'rt degandek onglariga yetkaza olsam. Ulardagi barcha hissiyotlar hozir shakllanishda, turlanishda, rivojlanishda. Ha, guliyam, pechagiyam tanada baravar o'sishda. Hammasi yam-yashil, bamisoli maysa. Bolalikni bekorga bahor pallasiga o'xshatishmaydi. Ota-ona bamisoli quyosh — mehri bilan isitadi. Shirin-shakar taomlar bamisoli yomg'ir — yashnatadi, qarindosh-urug'lar atrofida parvona — bamisoli shabadadek yoqimli, hayot sirli... o'sish, ulg'ayish... Eng muhimi, ana shu pallada bolalikka ilashgan gul qaysi-yu, chirmoviq qaysi payqay olishda.

Lekin Orif kalla bilan bo'lgan suhbat meni tamoman izdan chiqarayozdi. Uning o'zi bamisoli ixtiro bo'ldi menga.

— Favvora bekitishni o'ylading-u, nimaga berkitmading, — so'radim undan tasmollab.

— O'sha ishimga birov bir so'm berarmidi? — dedi yuzimga baqrayib.

Nima deyishimni bilmay, unga tikilib qolibman.

— Shunaqamisan sen hali. Hamma narsani pul bilan o'lchayman degin. Axir sen o'qiysan, davlat sendan pul so'ramaydi-ku.

— So‘ramay bo‘pti, soliqlarni nimaga chiqarib qo‘yibdi?

— Obbo sen-ey, men bunaqa gaplarni bilmas ekanman.

— Bilingda, — dedi bepisandlik bilan Orif kalla. Bu dunyoda tekin narsa yo‘q.

A‘zoyi badanimdan muzdek ter chiqib ketdi. Nimaga men va men tengilarning kallasiga “tekin” degan so‘z qoziqdek qoqilib qolgan. Balki “tekin-ku”, deb ko‘p narsaning qadriga yetmasmiz? Tekin-ku, deb aslida o‘z cho‘ntagimizga o‘zimiz o‘g‘irlikka tushayotgandirmiz. Katta-katta o‘marishlar shu “tekin”ning fojiasi emasmikan? Nimaga bolaga tekin deb pisanda qilishimiz, yolg‘on gapirishimiz kerak? Ota-onasining, yurtining boyligiga bepisand tarbiyalashimiz kerak. Eh, muomala lug‘atimizda qanchadan-qancha ayg‘oqchi so‘zlar izg‘ib yuribdi-ya.

— Buni qara-ya, — dedim Orif kallaga taslim bo‘lgandek, — men shu paytgacha o‘qish-o‘qitish ishlari “tekin” deb xato tushunib kelarkanman.

— Mana endi bilvoldiz, — dedi u bolalarcha samimiyat bilan.

— Bilvolishga bilvoldimku-ya, lekin bitta narsa qorong‘iligicha qolyapti-da, — dedim unga maslahat solgandek. — Mayli, hamma narsa sen aytgancha bo‘la qolsin. Maktablar ham o‘z mulkimiz, shundaymi? O‘sha yorilgan vodoprovod quvuriyam o‘zimizniki, to‘g‘rimi?..

— Ho-o-o, aylantiring-a, aylantiring, nimaga pul so‘rayapsan, demoqchisiz-da, a? Siz aytgan quvurni xomut bilan mahkamlash kerak. Xomutga pulni qayerdan olaman.

— Darvoqe, bu yog‘ini o‘ylamagan ekanman, — dedim o‘zimni gunohkordek tutib.

— Xijolat bo‘lmang, yaqinda pulimiz ham bo‘ladi, siz aytgan savob ishlarniyam qilamiz.

— Pulimiz bo‘ladi dedingmi?

— Men mantipazlar, kabobpazlar, oshpazlar uchun piyoz to‘g‘raydigan pichoq yasadim. Hozir

borlari xavfli. Piyoza qo'shib barmoqniyam oldirvorish mumkin. Bitta kabobpazga ko'rsatsam, yaxshigina narx qo'ydi. Yana beshtasiga buyurtma tushdi. Endi sabzi to'g'raydigan pichoq ustida ishlayapman. Chuchvara tugadigan qolipimni ko'rsangiz qoyil qolasiz. Zavod ishlab chiqargani bittadan tugadi. Meniki bo'lsa bir tukkada o'ntadan tugadi. To'garagimiz bir boyib ketsin, hamma narsani o'zimiz sotib olamiz. Keyin to'garagimizda "Savob" degan bo'lim ishlaydi. O'sha bo'lim siz aytgan savob ishlarni qiladi.

Orif kalla aytayotgan gaplar men izlayotgan yangicha qarashlarning bir ko'rinishi edi aslida. Biroq bu g'oya zarang yerga tushib qolgandek amal ololmay turibdi hozircha. Menimcha "bolalarni pulga o'rgatmaylik" degan to'siqqa uchrab qoldi.

Aslida shunaqa uddaburon bolalar kerakmasmi bizga? Hisob-kitob nimaligini tushunadi. Nazarimda uning to'garak rahbari ancha ishbilarmon odamga o'xshardi... Faqat... Ha, yana faqat degan so'z tilimga kelyapti. To'g'ri-da, bu ketishda bolalarimiz hamma narsani pul tarozisi bilan o'lchaydigan bo'lib qolmaydilarmi? Savob, yordam, burch degan gaplar qayoqda qoladi. Pul-pul deb yurib pulning tegirmoniga suv ochvormadikmi? Ochvordik, pulning tegirmoni yurib ketdi. Endi pulni ishlata bilish, uni yaxshilikka, ezgulikka xizmat qildirish kerak. Buning uchun ta'lim-tarbiya tegirmoniga pul tegirmoniga qaraganda o'n, hatto, yuz chandon ko'proq suv haydash kerak bo'ladi. Pulning odamlarga keltiradigan yaxshiligidan tashqari ajal keltiruvchi pichog'i ham bor. Har bir odamning ana shu pichoqdan himoyalalanuvchi qalqoni ham bo'lishi kerak. Mening yosh do'stim Orif kallada hali bunaqa qalqon yo'q. Nafaqat Orif, Orifga o'xshaganlarning bari shunaqa ojiz. Buni o'zim bir bor sinovdan o'tkazganman. Bir qarindoshimizning o'g'lini kabobpazga shogirdlikka berdik. O'zimcha unga yaxshilik qilmoqchi edim. Lekin g'irt aksi bo'lib chiqdi. Bola xuddi Azimga o'xshagan landovur,

birovlarining papkasini ko'tarib yuradigan bolalardan edi. Ammo ho'kizdek kuchiyam bor edi. Oilasi nochor, ukalari ko'p, kiyim-boshi yupun edi. Yozgi ta'til vaqti bo'lganligi uchun ham bekor yurmasin, ham ota-onasiga yordam bo'lsin deb shunday qilgandim. Kabobpaz kambag'alparvarroq ekanmi, kuni-ga durustgina haq belgiladi. Bola uch oyda kattagina pul ishladi. Unga chet el kiyimlari-yu, magnitofon oldi. Puldan na ukalarining kiyim-kechagiga, na oilaning osh-ovqatiga bermadi. Lapashang, landovur bo'lsayam qarindoshimning o'g'li butunlay o'zgarib ketdi. Qo'l jinsi shimning cho'ntagida, gaplashganda nuqul tishining orasidan chirtillatib tupuradi. Hatto endi o'qigisiyam yo'q... Ayb boladami? Yo'q! Ayb menda, undan vaqti-vaqti bilan xabar olib turmadim. Ayb ustozi kabobpazda, pul bergan-u, aql bermagan. Ayb ota-onasida — ishlab topgan puling qani, deb so'rab-surishtirmagan, oilaga qarashish kerakligini uqtirmagan. Mana endi uni asliga qaytarish amrimahol. Ko'zi pulga, dimog'i shirin taomlarga, usti ajnabiy kiyimlarga, qulog'i magnitofon kassetalariga o'rgandi-qoldi. Bunaqa bolalar koshkiydi bitta bo'lsa...

Nimaga men ko'rayotgan, men dahshatga tushayotgan narsalardan boshqalar dahshatga tushishmayapti. Masalan, o'qtiuvchilar. Yo bitta mening ko'zimga hamma narsa olabo'ji bo'lib ko'rinyaptimi, judayam oshirib yubormayapmanmi ishqilib?

O'zimcha katta doshqozon tagiga olovni yoqib yuborganman-u, lekin unda oxir-oqibat ming dardga davo sumalak pishadimi yoki qorinda turmaydigan atalami, bunisiga kafolat berolmasdim. Men 7-“A”ga kelganimdan beri hayotdagi ko'p narsalarni boshqatdan kashf etayotgan edim...

Erta sahardan Azim bilan zo‘ravonlar uchrashadigan marra atrofida yoshimga yarashmagan bir ahvolda panalab yurdim. Azim bugun o‘zini qanday tutadi — bilishim kerak edi. Nafsoniyati sal bo‘lsayam junbishga keldimi, haqiqiy Azim sal bo‘lsayam o‘z qiyofasini ko‘rsatadimi? Favqulodda ikki orada urish chiqib ketsa-ya... Yo‘q, bunday bo‘lishiga ishonmasdim. Azim o‘zi qaram bo‘lgan bolalarga darrovda yurak yutib qo‘l ko‘tarolmasdi. U buguncha papkalarni peshonasi tirishib, og‘rinibroq oladi. Yana kim biladi deysiz.

O‘quvchilar gurros maktabga o‘tib borishyapti. Ana, bir to‘da qizlar orasida Salima ham kelyapti. Uning yuzidagi o‘zgarishlarni uzoqdan bo‘lsayam ilg‘ab olishga harakat qilaman. Odamning dardi yuziga urib turadi, kasalni yashirsang — isitmasi oshkora qiladi, degan gaplarga yuz foiz ishonavering. Buni bilish uchun odamda bir oz diqqat-u, bir oz tajriba bo‘lsa bas. Ha, ha, aniq payqadim. Salima kechagidek xotirjam emas. Sinfdoshlari bilan nima haqdadir bahs-lashib kelyapti-yu, har zamonda atrofga jonsarak qarab qo‘yyapti. Kim biladi, Azimni qidirayptimi yoki zo‘ravonlarnimi, harholda xayoli o‘zida emas. Ovoziyam sal shang‘illab chiqayotgandek. Fikrimcha, Salima o‘zini kurashga tayyorlayapti. Shungami, ovozi shang‘illab chiqayotganini o‘ziyam sezmayotgandir.

Ana, Nozim ham ko‘rindi. Negadir bugun u hech qaysi to‘daga qo‘shilmayapti. Zarur ishi bordek zipil-lab boryapti. Ko‘rinishi chindan ham sipo, ishchan... Mendan keyin otasi yaxshilab ishlov bergan bo‘lsa kerak. O‘g‘li haqidagi gaplarimga bir og‘iz yaxshiyam, yomonam demadi-ku. Qaytaga xotiniga bir-ikki xunuk qarash qildi. O‘ziyam o‘g‘lidagi bu qusurlarni seza boshlagandir-u, shunchaki bolalikka yo‘yib kelayotgandir. Balki xotini eri bilan o‘g‘lining orasida devor bo‘lgandir. Nozimdagi pechag-u shumg‘iyalar o‘sha “devor”ning soyasida zo‘r berib o‘sgandir.

Kuzatuv maydonimda zo‘ravonlar to‘dasi paydo bo‘ldi. Tavba, bir daqiqada xuddi osmondan tushgandek-a! Olazarak atrofga alanglashdi. Azim qani! Yo‘q-ku? E, bor-e... Ular papkalarini devordan oshirib otishdi. Keyin o‘zlariyam “lip” etib ko‘zdan g‘oyib bo‘lishdi.

Azim qayerda qoldiykin? Maktabga boshqalardan oldinroq borib oldimikin? Zo‘ravonlardan shu taxlit qutulmoqchi bo‘ldimikin? Shunday qilgan bo‘lsa, oldinga bosish bor. Ha, bu qadam zaif va omonat bo‘lsa-chi. Omonatligi shundaki, u zo‘ravonlar bilan betma-bet kelishdan o‘zini olib qochgan.

Maktab tomon yurdim. Darvozadan ichkari kirmasimdan darsga qo‘ng‘iroq chalindi. Shu payt quvonchdan o‘zimni yo‘qatayozdim. Axir kechagidek suv otilib, hammayoqni shilta qilmas, quvur Orif kalla aytgandek qilib tuzatilgan edi-da. Voy azamat-ey, oxiri vijdoni ustun kepti-da. Savobga qo‘l uribdi-da. Demak, undagi “mushuk bekorga oftobga chiqmaydi” qabilidagi ishoralar hozircha shunchaki gaplar ekan-da. Qani endi shu bolalar omon-eson, miyasi chalg‘imay, amalparastlar-u buyruqbozlarning tuzog‘iga ilinmay, nohaqliklar devoriga peshonasini urmay ulg‘aysa. Ko‘pchilikka bosh bo‘lsa, yurti boshqarsa.

Azim maktabga kelmabdi. Ko‘nglimni har xil shubhalar qamrab oldi. Nima bo‘ldiykin? Azimning uyiga oshiqdim. Onasi befarqlarcha kutib oldi.

— Azim nega maktabga bormadi?

— Voy, manavi odamni. Azimdan bo‘lak ishingiz yo‘qmi deyman sizni, muncha unga yopishib oldingiz? — hayron bo‘ldi onasi.

Men bu xotinga nima deb muomala qilishimni bilmay, ko‘zimni lo‘q qilib tikilib turaverdim.

U qarab turishimdan sal xijolat chekdi shekilli, gapining davomini yumshatgan bo‘ldi:

— Axir shu paytgacha bitta o‘qituvchi uyimizga bosh suqqan bo‘lsa, har nima bo‘lay, shunga hayron bo‘lyapman-da, uka. Ana uxlayapti, tosh qotib.

— Maktabi-chi, nimaga uyg‘otmadingiz?

— Kechasi bilan alahlab chiqdi. Otasi o‘qib qo‘ygan edi uxladi qoldi.

— Balki issig‘i bordir.

— Balki...

Azim rostdan ham g‘arq uyquda yotardi. Peshanasiga kaftimni bosdim. Issig‘i yo‘q. Qon tomirining urishiyam joyida. Nima bo‘lishi mumkin? Kallam birdan yorishib ketdi. Bari tushunarli. Azim tuni bo‘yi uyqusida mushtumzo‘rlar bilan olishib chiqqan. Ha, qo‘rqoq Azim bilan qo‘rqmas Azim yoqalashgan. Qiziq, qay birining qo‘li ustun keldiykin-a? Bu ifodani uqish uchun Azimning yuziga tikilaman. Maktabga bormaganligini hisobga olsak, qo‘rqmas Azim yengilgan. Biroq uning xotirjam yuzida mag‘lubiyat alami sezilmasdi. Aksincha, labining bir chekkasida tabassumga o‘xshagan bir ifoda ilinib turardi. Bu menga endigina bosh ko‘tarayotgan oftobning daraxtlar uchida o‘ynayotgan nurlarini eslatib yubordi. Bu mening shunchaki shirin xom xayollarimmi yoki rostimmi, harholda bir qarorga kelishga hali erta edi.

Nihoyat, portlash!

Maktabga qaytib kelsam o‘quvchilar nechanchidir soatdan chiqishgan, hammayoq g‘ala-g‘ovur edi. 7-“A” tomon borayotganimda sinf xonasidan eshitilgan shang‘i ovoz oyog‘imdan olgandek nari yurgizmay qo‘ydi. “Basharasi qursin, kesakdan o‘t chiqibdi-da, uni bir tuzlab qo‘y!” Ovoz tanish bo‘lmaganda, bironta bozorchi xotin bo‘lsa kerak, deb o‘tib ketaverardim. Axir u 7-“A”ning sinf rahbari Xadicha Karimovna edi-da. Bir nimani sezgandek yuragim hapriqib ketdi. Xadicha Karimovnaning dag‘dag‘asidan qo‘rqib emas, yo‘q, sinfda mening tajribalarimga aloqadorroq bir gap bo‘lganga o‘xshardi. Kesakdan o‘t chiqdi deyapti-ku. Kim bo‘ldiykin u? Salimamikin? Ha-ha, Salima, xuddi o‘zi! Bo‘lmasa, “tuzlab qo‘y”, deb kimgadir arz qilarmidi Xadicha Karimovna.

Men tavakkal qilib ichkari kirdim. “O‘g‘limni oyoq osti qildirib qo‘ymayman, u oyimchaga”, deya shang‘illashda davom etardi sinf rahbari. U meni ko‘rishi bilan zahar solmoqchi bo‘lgan ilondek vishilladi. Og‘irligini u oyog‘idan, bu oyog‘iga tashlab tebrandi-da, zahrini sochdi:

— Bu sizning ishingiz bo‘lmasin tag‘in, olimcha. Sinfda nimalar bo‘lyapti o‘zi? Hammayoqning moshxo‘rdasi chiqib ketyapti-ku. He yo‘q, be yo‘q, meni o‘g‘limni maktabdan haydarmish anovi tannoz. Ha, siz keldiz-u, sinfda boshvoqsizlik boshlandi.

— Qani, oldin nima gapligini bilaylik, Xadicha Karimovna, hech narsadan xabarim yo‘q hali, — dedim bosiqlik bilan.

— Ha, biling, yaxshilab biling! Meni o‘g‘limni haydash haqida sinf majlisi bo‘larmish.

— Balki, o‘zingiz ham qatnasharsiz majlisda Xadicha Karimovna, axir sinf rahbarisiz-ku, — dedim pisanda bilan.

— Birinchidan, yuragim yomon, ikkinchidan, mening o‘g‘lim o‘zini-o‘zi himoya qila oladi. Gap shu!

Evoh, maktablarda bunaqa o‘qituvchilar ko‘p-mikin, ozmikin? Ishqilib, bitta bo‘lsayam mingtaga tatiydi-da. Bu xotindan o‘qimagan, to‘pori bo‘lsayam Azimning onasi ming marta yaxshi emasmi? Ehtimol 7-“A” dagi bolalarning fojiasi shunaqa sinf rahbarining qo‘liga tushganligidadir. Nega og‘zidan bodi kirib shodi chiqadigan bir shallaqi ayol o‘qituvchilikning nonini tuya qilib yuribdi? Hamma gap shunda! Direktorning undan tili qisiq joyi bordir. Uni-buni ko‘tarib kelib, og‘zini ochmaydigan qilib, moylab tashlagan. Bunday xotinlar usta bo‘lishadi...

Sinfdagi portlash shunday ro‘y beribdi. Birinchi soat kimyo darsi ekan. Doska mashg‘ulotga tayyorlanmabdi. Buning ustiga yozishga bo‘r ham yo‘q ekan.

— Kim navbatchi? — so‘rabdi o‘qituvchi.

— ...

— Ha, gapir, Salima, senmi sinfda kattakon?

— Bunaqa ishlarga navbatchi javob beradi, menmas, — debdi Salima.

— Kim navbatchi bo'lmasa?

Behzod o'rnidan turib:

— Azim navbatchi, — debdi.

— Azim uch kunlab navbatchi bo'ladimi, kechayam, o'tgan kuniyam navbatchi edi-ku, — Behzodni jerkib tashlabdi Salima.

— Xuddi bilmagandek gapirasana, Salima, — debdi qizlardan biri.

Bu piching Salimani alanga oldiribdi.

— Umuman, sen, Behzod, — debdi u, — shaykalaring bilan jonga tegib ketding. Seni maktabdan haydaymiz.

Behzod unga kitob otibdi, og'ziga kelgan gaplarni qaytarmabdi. Ishqilib to's-to'polon bo'libdi. Bo'sh narsaga tosh otsang, daranglab qulog'ingni qomatga keltiradi, iflos narsaga tosh otsang, sachrab ustingni bulg'aydi, degandek voqea ro'y bergan. Men bolalardagi ana shu tabiiy holatni jilovlab, yaxshilikka yo'llamoqchiman-da! Axir manfiy va musbat qutblar birikib, metallarni payvand qiladi-ku, lampochkalar yonadi-ku, dazmollar qiziydi-ku... Nahotki qahramonlarimni yakdillikka keltira olmayman! Hech bo'lmasa ularni avvalo o'zini o'ziga, qolaversa, boshqalarga tanitarman. Toki, o'ziniyam, boshqalarniyam chalg'itib yurmasin. Masalan, Orif kallaga ishongan ishni Azimga ishonib bo'lmaydi-ku. Kim nimaga qodirligini bolaligidan bilib yashasin-da. Axir doshqozonning necha pudligini bir qarashda chamalay olmagan oshpaz el-yurtga qanday qilib osh damlaydi. Yoki ekinga ishlov berishni bilmagan dehqon dehqonmi?

Men ham o'sha no'noq oshpaz-u dehqonga o'xshab qolishdan qo'rqardim. Vaholanki, bunaqa "oshpaz" va "dehqonlar" atrofimda urchib yotishardi. Ular go'yo darsga kiraverishadi-yu, bir hovuch tariqni olib sochib yuborishadi. Uddaburonlariga xo'rak ko'proq, mundayroqlariga ozroq, yanayam munday-

roqlariga hech vaqo tegmasdi. Bir xil o'qituvchilarning darsidan bolalar xuddi ustlariga bir chelak suv quyilgandek junjikib, bir xillarnikidan quloq chakkasiga shapaloq yegandek garangsib chiqishadi.

Darsdan keyin bolalarni olib qolib, "portlash" kimni qanchalik "jarohatlaganini", bu qanchalik haq-u nohaq bo'lganligini adolat tarozisida tortib ko'rishim kerak edi. Bu muhokama nihoyatda odil, fikrlar erkin va beg'araz bo'lishi kerak. Birov-birovga qora chaplamasligi zarur.

Suv loyqalangandan loyqalandi

Shunday qilib majlisga yig'ildik.

— Men gapiraman, — dedi Salima.

— Hadeb jikillayverma, — dedi Behzod, — oldin men gapiraman.

— Majlisda seni masalang ko'rilyapti, menikimas, bildingmi?

Salima judayam menga ishonib yuborayotgan edi. Xuddi oldindan kelishib olgandek vijdonim qiynala boshladi.

— Ikkalovingiz baravar gapira olmaysiz-ku, — deya ularni tinchlantirdim. — Salima gapir.

— Men, — dedi u, — hamma bilib yurgan gapni gapiraman. Behzod boshliq Nabijon, Baxtiyor, Hasan, Husanlar anchadan beri buzg'unchilik qilib yurishibdi. Ularning mushugini hech kim "pisht" demaydi. Aytganlari aytgan, deganlari degan. Qilayotgan ishlari...

— Aniqroq gapir, — luqma tashladi kimdir.

— Aniq gapirsam, ular o'zidan kichik, qo'rqqoq bolalarni yo'lini to'sib, pulini olishadi. Qaroqchi bular.

— Hov, Salima, quloqqa lag'mon osma, ko'zing bilan ko'rdingmi, qo'ling bilan ushladingmi? Tuhmatlaringga kallang bilan javob berasan hali, — o'tirgan joyidan bidirladi Behzod.

— Kallam bilan qoʻrqitmay qoʻya qol, sendan itimam qoʻrqmaydi.

— He it-pitingni...

— Majlisni hurmat qilinglar-da, — dedim oʻrnimdan turib, — juda quyushqondan chiqmanglar-da. Kim nima desa, dalil-isboti bilan gapirsin. Men hammasini yozib boryapman.

— Qoʻrqmang, — dedi Salima menga qarab, — gaplarimni isbotlab beraman. Xohlasangiz, pullarini oldirgan bolalar bilan hoziroq yuzlashtirishim mumkin.

— Yuzlashtir, yuzlashtiraver, — boʻsh kelmasdi Behzod. Biroq uning ovozi ishonchsizlik sezilib turardi. Hasan bilan Nabijon baravariga parta tagiga engashib, oʻzlarini alahsiganga solishdi. Temirni tobi-da, oʻgʻrini ovida bos deganlaridek, ichki bir kuch meni harakatga solib qoʻydi. Salima “isbotlayman” deb ishonch bilan aytgach, ularning asablari boʻshashib, oʻzlarini yoʻqotib qoʻyishdi. Bunday fursatdan foydalanmaslik mumkin emas edi.

— Bir zum toʻxtagin, — iltimos qildim Salimadan.

— Ha, oʻchir ovozingni, — deya masxaralagan boʻldi Behzod.

Men fursatni boy bermay, Behzodning sheriklariga murojaat qildim:

— Hasanjon, Husanjon, Naibjon, Baxtiyor aytinglar-chi, shu shartmi?

— Nima shartmi? — merovlangan boʻlishdi ular.

— Bolalar bilan sizlarni yuzlashtirish-da.

— Shartmas, — deb yubordi Hasan. Menga uning soʻz ohangida, shundogʻam boʻynimizga olamiz, degan ishora bordek tuyuldi-yu, biroq “shartmas” degani “boʻynimizga olamiz” degani ham emasdi-da! Buning ustiga masala mening sezgilarim va mening taxminlarim bilan hal boʻlmasdi. Oʻtirganlarga loʻndagina iqror kerak.

— Yoʻltoʻsarlik qilganimiz yoʻq, shuning uchun yuzlashtirish shart emas demoqchimisan? — dedim.

— Men bari bir isbot qilaman, boshqa sinfdan ham

ko'rganlar bor, — dedi Salima. Bu gap ayni paytida aytilgan va nishonga bexato tekkan edi. Men Salimaning gapini eshitmaganga olib, ularni iqror bur-chagiga battarroq qisa boshladim:

— Yo shu ishni qilganmiz, shuning uchun yuz-lashtirish shart emas, demoqchimisan?

Hasan jimib qoldi.

— Sukut alomati rizo, — dedim men. — Nimaga mardlarcha bo'yinga olib qo'ya qolmaysizlar. Bu yerda begona yo'q-ku, o'zimiz-ku.

— Nimaga endi yo'q narsani bo'yinga qo'yyapsiz?

— Ovozingni o'chir-e, — baqirib berdi Hasan Behzodga, — ja oliftagarchilik qilasan.

— Maraz, — dedi unga javoban Behzod.

Sal bo'lmasa mushtlashuv bo'lib ketay dedi. Yuragimda yana chiroq yondi. Bu zo'ravonlar hali bir-biriga birikib, qora bo'yoqqa qorishib ulgurishma-gan ekan.

Qiziq, yo'lto'sar, betgachopar, bezori bolalar biz-ning zamonga xos kasallikmikan, deb o'ylab qola-man. O'g'rilik qo'shnining tovuqxonasiga kirib, tuxum o'g'irlashdan boshlanadi, deyishadi keksalar. Men boshqa asrlarda bunaqa bolalar bo'lmagan degan gaplarga ishonmayman. Bolalar hamisha bolaligicha qolgan. Hozir qonimizda qanday illat bor ekan, uni u yoki bu ko'rinishda zohir qilayotgan ekanmiz, bari ota-bobolarimizdan o'tib, suyak surib yashab kelyapti. Lekin har bir davr u yoki bu fazilat-ning, yoki illatning yashashi uchun o'zicha sharoit yaratadi. Buni men o'z ilmiy ishlarimda ta'kidlab kelyapman, dalillar bilan asoslashga urinyapman. O'tmishning jazo va tarbiya maktablariga necha mar-talab sayohatlar uyushtirdim. Qanchalar yaxshi ish qilgan ekanman o'shanda. Eh, qo'qonlik, shahrixon-lik, namanganlik, xivalik, to'rtko'llik otaxonlar! Sizlar bugun oramizda yo'qsizlar. Ammo o'tmish-ning tirik qomuslari edingiz.

Ha, ular men bilan yurakdan suhbatlashishgan edi:

“Ilgariyam qaroqchilar, o'g'rilar, qalloblar bo'lgan,

o'g'lim. Lekin bunchalikmasdi-yov. Bola boshidan deb go'dakligidan hushyor bo'linardi chamamda". Ko'rinishdan vajohatli, mo'ylovdor, ammo ipakdek mayin otaxonning gaplari bu. U kishining aytishicha biron kimsaning farzandi quyushqondan chiqib, elulusning tinchini buzib, haddidan oshib ketsa, uni olib to'g'ri mahalla oqsoqoliga olib borisharkan. Ish mahalla oqsoqoligacha yetdimi, tamom, ota-onaning yuzi mahalla oldida qora bo'lgani shu ekan. Ota-ona bolasining gunohini so'rab borishga botinolmas ekan. Nima qilarkan deng? Yettita mahallaning oqsoqoliga zir yugurib, o'g'lini kafillikka olishni so'rarkan. Oxiri yetti mahalladan yetti kishi kelib noqobil bolaning gunohini so'rab, kafillikka o'tisharkan. Ha, shunchaki rasmiyatchilik uchunmas, butun umrga kafillikka o'tisharkan. Agarda bola yana buzg'unchilik qiladigan bo'lsa, o'sha yetti odamning ham yuzi qora bo'larkan. Bir bolaga yetti mahalla ota-onalik qiladi, degan gapning mag'zida o'shanday bir tarbiya yotarkan-da.

Hozir bezori bolalarni qanday yo'l bilan tarbiyalashyapti? Militsiya ro'yxatidan o'tkazish-u, qo'rqitish bilanmi?

Endi men o'z "qaroqchi"larimni qaysi yo'l bilan "davolasam" ekan. Dag'dag'asiz, melitsa-pelitsasiz. Hozircha halimdek pishib turishibdi. Biroq hali to'la taslim bo'lishgani yo'q. Ulardagi bo'yni yo'g'onlik, o'jarlik kurtaklarini yanayam, ha, yanayam ezish kerak. Shungami:

— Davom et, — dedim Salimaga qarab.

— Bularning dastidan Azimga kun yo'q. Papka ko'tartirishadi, o'rinlariga sinfda navbatchi qilib qo'yishadi!

— Rahming kelmay qo'ya qolsin, nima ish qilsa qurtdek qilib haqini oladi.

— Nima? Salimaning ko'zlari chaqchayib ketdi. — Haqini oladi?! Senlar pul berasanlarmi, senlar-a?

— Azimni nima deb o'ylayapsan, bekordan-bekorga oftobga chiqadigan mushuklardanmas, — dedi Baxtiyor.

Salima menga yarq etib qaradi-da, jim bo'lib qoldi. Uning qarashini "hali shunga yonbosib yuribmizmi?" degan ma'noda tushundim. Gapning ochig'i, o'zimam hayron qoldim. Yaxshiyamki sinfdagilar jonimga ora kirib qolishdi.

— Bundan chiqdi, senlar puldor boyvuchcha ekansanlar-da...

Bu gapni kim aytgan bo'lsayam otasiga rahmat. Judayam topib aytdi-da.

— Bekor aytibsan, bizziki bozor, kim xizmatimizni qilsa, haqini oladi, — dedi Behzod.

Ana xolos, gapiga o'lasizmi, qolasizmi? Bolasi tushmagurlar-ey, "bozor"ni juda bunaqasiga o'zlashtirib olishibdi-ku.

— Shunday qilib, bozor degin, — dedim Behzodga. — Bozor nimaligini bilasanmi?

— Bilganimcha bilaman. Qo'shnimiz fermer. Ishi ko'p. Bozordan odam yolladi. Pulini berdi. Buni nimasi yomon.

— Sizlarniyam ishlaring shunaqa ko'pmi, mardikor yollamasanglar bo'lmaydimi, a?

— Ertalab odamni to'p tepkisi keladida, papkalar xalaqit beradi. Papkang sinfda bo'lsa, ozroq kechikib kirsang ham bilinmaydi.

— Navbatchilik-chi?

— Azim papka ko'tarishni navbatchilikka qo'shib sotib olgan.

— Qanchaga sotib olgan?

— Anchaga...

Sinfda kulgi ko'tarildi. Bolalar Azimning bo'sh o'rniga qarab qo'yishdi. Majlisning tafti so'na boshladi. Ammo Salima tashabbusni yana qo'liga oldi:

— Mana bularning haqiqiy basharasini ko'rib qo'yinglar. Azimgayam o'z cho'ntaklaridanmas, qaroqchilikdan tushgan puldan berishgan.

— Yolg'on, men o'z pulimdan berardim, — baqirib yubordi Behzod.

— Baxtiyor, Hasan, Husan, Nabijon sizlar-chi? — so'radim yana temirni qizig'ida bosib.

— Bo‘ldi-ku...

— Aytdik-ku...

— Endi... — chaynalishdi ular.

— Qaytib beramiz pullarini, — dedi nihoyat Hasan.

— Birdaniga shuncha pulni qayerdan olasizlar?

— Birovning do‘ppisini birovga kiygizib yurishibdi-ku. Yana qaroqchilik qilishadi-da, ulardan undirganlarini bularga berishadi, — zaharxanda qildi Salima.

— Uydan olamiz, — bo‘g‘ilgandek bo‘ldi Hasan. Nimagadir tortishuvda Nabijon, Husanlar umuman qantashmas, Baxtiyor har zamonda omonatgina gap qo‘shib qo‘yardi.

— Uydan nima deb so‘raysizlar? — dedim.

— So‘raymiz-da, — ustidan og‘ir yuk tushgandek yengil xo‘rsindi Hasan.

— Mard bo‘ldinglarmi, oxirigacha mard bo‘linglarda. Ota-onanglarga ham shunaqa-shunaqa bo‘ldi deb aytinglar. Orqavoratdan eshitgandan ko‘ra o‘zlaringizdan eshitishsin. Shunda to‘g‘ri ish bo‘ladi.

— Nima, bular shuncha ishni qilib, ayblarini bo‘yinlariga olib, maktabdan haydalmaydimi? Salima menga ginali ko‘zlarini tikdi.

— Egilgan boshni qilich kesmas, deyishadi. Yana, mana, ko‘pchilik nima desa, shu-da, — dedim.

Aybdorlar iqror bo‘lishdi. Qaroqchilik yo‘li bilan olgan pullarini, ota-onalariga ma‘lum qilgan holda, ha, ma‘lum qilgan holda egalariga qaytaradigan bo‘lishdi.

Boshim g‘uvillab, tashqariga chiqdim. Soatga qaradim. Bir soatdan mo‘lroq kengashibmiz. Yo‘lak bo‘ylab borar ekanman, yon tomondagi xonadan eshitilgan tanish ovoz qulog‘imga chalindi:

— A-arava, A-ariq, A-avtobus...

Nimagadir tabiatim ravshanlashdi. Bu ayol yoshi yetmishni qoralab qolgan Muqaddam opa edi. U o‘sha sochilgan “tariqqa” yetolmay qolgan “jo‘jalari-ni” olib qolib, alohida donlatayotgan edi. Muqaddam opa o‘z umrini muallimalikka bag‘ishlaganlardan.

Erta tongdan kechgacha maktabda bo'ladi, faqat boshlang'ich sinfni o'qitadi. Ba'zi o'quvchilarining uyiga borib, yotib ham qoladi. U kishini bir necha bor nafaqaga kuzatishmoqchi ham bo'lishgan ekan. Ba'zilarga bu ayolning kasbiga nisbatan o'ta fidoyiligi yoqmagan bo'lsa kerak-da. "Yo'q, — debdi Muqaddam opa, — meni bolalardan oxirgi nafasimgina ajratadi, sizlar mendan ishlaringni so'ranglar-da, tinch qo'yinglar oylik-maoshiyam kerakmas". Ming afsuski bunaqa o'qituvchilar juda kam...

Yana omad kelmadi

Kechagi majlis tafsiloti va qarorlarini uch nusxada yozib, maktabga shoshmayroq keldim. O'quvchilar katta tanaffusga chiqishgan ekan. Darvozadan hovliga kirishim bilanoq Azimga duch keldim. U yugurib keldi-da, salom berdi. Hatto, so'rashishga qo'l ham cho'zdi.

— Ha, progulchi, — dedim unga boshdan-oyoq qarab, Azim ko'zimga ixchamlashib qolgandek ko'rindi. Yuz-ko'zlariyam nimanidir suyunchilayotgandek kulib turibdi.

— Bugunam papka ko'tardingmi? — so'radim undan.

— Yo'q, ko'tarmadim, — dedi Azim yasama g'oliblik bilan.

— Ko'tartirishmadimi yo ko'tarishdan bosh tortdingmi?

Bu holat men uchun ahamiyatli ekanligini Azim qayerdan bilsin.

— Ha, ular... — deya chaynaldi Azim, — o'zlari papkalarini berishmadi... men ko'tarmadim.

Bundan chiqdi ulardayam nimadir uyg'onibdi-da. Balki, Hasan, Husan, Baxtiyor, Nabijonlar boshqalarga qaraganda tezroq o'z aslilariga qaytishar? Axir, ularning qiyofasi ba'zi bolarnikidek aldamchi emas. Kimliklari ochiq, oshkora. Mana, eng sodda deb yurganim Azimni oling. "Ko'tarmadim", deb o'zini

g'olib ko'rsatib, ularda uyg'ongan insofni shuvab tash-lamoqchi. Azimdayam gap ko'p.

Maktabga kirib boryapman-u, bolalar nimagadir chetga chiqib, yo'l berishyapti. Boshqa kunlari nazar-pisand ham qilishmasdi. Xuddi praktikantlarga qara-gandek qarashardi. Tinchlikmikan? Bolalarda menga nisbatan xayrixohlik barq urib turardi.

Qo'limdagi qog'ozning bir nusxasini direktorga qoldirishim kerak edi. Qabulxonaga kirishim bilan kotiba qiz sapchib o'rnidan turib ketdi.

— Keldingizmi, — dedi quruqqina qilib.

Men ko'rib turganingizdek, deb o'zimga qarab qo'ydim.

— Bugun darslar tugagach, majlis bo'larkan, siz albatta qatnasharkansiz, eshittizmi, albatta, opa aytdi-lar.

— Opa o'zlaridami?

— Yo'q.

— Unda mana bu qog'oz xuddi o'sha majlisga tegishli, berib qo'yarsiz, — deb qog'ozni unga qoldirib, ikkinchi qavatga ko'tarildim.

Zinada Xadicha Karimovnaga duch kelib qoldim. U tushib kelayotgan ekan. Meni ko'rdi-yu, yuzini ters burib: “Basharang qursin”, dedi. Go'yo birov a'zoyi badanimga chang solib terimni shilib tushirgandek bo'ldi.

— Xadicha Karimovna, o'qituvchisiz-a, uyat emasmi, — dedim. U bo'lsa bor nafrati-yu, g'azabini ko'ziga yig'ib o'qraydi-da:

— Turqing qursin, — dedi.

— E-e-e, boring-e, — deb qo'l siltadim.

— Siylaganni bilmagan ovsar-ey. Hali sen meni bolamni maktabdan haydaydigan bo'ldingmi, savi-ley... ko'ramiz kim haydalarkin...

— Haydamadik...

— Haydab ham bo'psan.

Men kechagi bir soatlik majlisdan keyin o'ziga xos qiyinchiliklar, fikr va mulohazalar bo'lishini kutgan

edim-u, lekin bunchalik to's-to'polon chiqishini kutmagan edim. Tavba, shunga shunchami...

Nafsilamrini aytganda, yig'ilishgacha o'zimni-o'zim ming marta tahlil qildim. Ishimdan nobop joyini topolmadim. O'zimni befarqroq tutishga urindim.

O'qituvchilar majlis bo'ladigan xonaga erinibgina, xushlamaygina bosh suqishardi. Hammasining yuzida "bolalarning dastidan o'lar bo'lsak o'lib bo'ldik-ku", degan zorlanish bor edi. Bu maktabda bunaqa yig'ilishlardan keyin o'qituvchilar bir hafta o'zlariga kelisholmasdi. Birov-birovlariga tumtayishib yurishardi. Maqtov bolani buzadi degan gap o'qituvchilarga ham taalluqli. Tanqid ombiri bilan o'yib olishlardan chetda qolgan o'qituvchigina maqtovli hisoblanardi.

Xona g'ivir-g'ivir, shivir-shivirga to'la boshladi. Direktor opadan hali darak yo'q. Kimningdir yurakdan nolishi g'ivir-shivirlarni bosib ketdi.

— Qurib ketsin, shu o'qituvchilikning noniyam zahar-zaqqum bo'p qoldi-da. Yuragim sezib turibdi, bugun kaltak yana meni boshimda sinadi. Chidolmasam kerag-ov, ol-e ishingni, devorsam kerag-ov...

Noliyotgan o'qituvchini ancha bama'ni o'qituvchilardan deb bilardim. Bolalar unga qo'rqib emas, hurmat-izzatini o'rniga qo'yib salom berishardi. Shundan bilaveringki, bu o'qituvchining kallasi bo'sh emas. Lekin pichoq suyagiga borib yetgan shekilli-da. U shunday deyish bilan yuragini bo'shatib olyapti, yo otilajak ta'na toshlariga o'zini tayyorlayapti, yo hamkasblaridan madad kutyapti.

— Yana Mirzayevmi?

— Shunaqayam jonim hiqildog'imga keldiki... Voy, uni otasidan yegan kaltaklari, voy, uchastkavoyning do'q-po'pisalari. Hech narsa kor qilmaydiya. Yerga ursang osmonga sapchiydi. Bormagan joyim vodokanal qoluvdi.

— Nimaga bordingiz u yoqqa?

— Issiq suvning shaxtasiga tushib, allanimani portlatibdi-da!

— Voy-y-y, issiq suv bo'lmay qolgani shungamidi hali?

— O'zi qurmagur bir chiroyli, bir shirin, uni ichida shu o'chmaydigan bir olov bor-da. Yotsa turg'izadi, tursa yurg'izadi, yursa, albatta, bir ishkali chiqaradi.

— Bunday bolalardan, — dedim men ham jim tur olmay, — yo ashaddiy vatan xoini chiqadi, yo haqiqiy qahramon.

“Iye, sizdayam gap bormi?” degandek hamma menga qaradi. Men darrovda so'zimga aniqlik kiritdim:

— Bu menimas katta bir olimning xulosalari.

— Hoy, uka, o'sha olimingiz shunaqa bolalarni yig'ib, shug'ullansa bo'lmaydimi? To'polonchilardan u chiqadi, bu chiqadi deguncha.

— Buni hecham iloji yo'q-da, — dedim mehnat o'qituvchisiga qarab. — U bundan ikki yuz yilcha oldin bandalikni bajo keltirgan.

Xonada yengil kulgi ko'tarildi. Sochlari qordek oppoq matematika o'qituvchisiga bu gap keyinroq ta'sir qildi shekilli, sharaqlab kulib yubordi. Kulgidan qisilgan ko'zlarini menga tikib dedi:

— Siz, o'g'lim, bizga qadimgi zamonlardan gapirmang. Bugungidan, hech bo'lmasa kechagi kundan gapiring.

— Kechagi kundayam shunaqa bolalar bo'lgan, ota-bobolarimiz ular bilan oppa-oson til topishishgan.

— Xo'sh, xo'sh, eshitaylik-chi, qandoq qilib til topishganikin?

— Kelgan joyidan oling, olim yigit, bo'sh kelmang.

— Hoy, gapning beliga tepmanglar, gapingizni yo'qotmang o'g'lim, qanday qilib til topishgan ekan qadimgilar to'polonchi bolalar bilan, a?

Nazarimda o'tirganlarga ermak topilgandek, ba'zilar kalaka qilib vaqtni o'tkazmoqchidek, ba'zilar meni kallamdayam biron nima bormi-yo'qmi titib ko'rishmoqchiday tuyuldi. Bunaqa paytda jim o'tirib bo'ladimi?

— Ilgarilari bunaqa bolalarni yetaklab to'g'ri mahalla oqsoqoliga olib borishgan. "O'g'limiz shundoq, shundoq, buni ichiga shayton kirib olganmi, sira tiyib olmayapmiz, bu ahvolda mahallamiz yuzini qora qilib qo'yadimi degan tashvishdamiz", deyishgan.

Mahalla oqsoqoli bolaning "ta'rifini" obdan eshitgach, uni turg'izib, o'tqazib bo'y-bastini ko'rgandan keyin:

— Sirayam tashvish chekmang, qarindosh, o'g'lingiz ajabtovur yigit bo'ladi Xudo xohlasa. Bu gaplaringizga uyalib ham qolasiz hali. Siz bu yigit-chani falon qishloqqa olib borib, falonchi tegirmonchiga uchraysiz. Men yuborganimni aytasiz. Otalik qiling, ustixonni meniki, eti sizniki, deysiz. Illo, odam bolasi musofir bo'lmaguncha, musulmon bo'lmaydi. Sizlarga oq yo'l, omin!

— Iye, bolani badarg'a qilisharkan-da.

— Aytyapti-ku, musofir bo'lmaguncha, deb.

— Rost, bo'lmasa o'zlariniyam qishlog'ida tegirmonchilari bo'lgandir-ku.

— Begona joy, begona odamlar, ota-onadan uzoqda. Qoyil, mana siri qayerda, — muhokamaga tushib ketishdi o'qituvchilar.

— Bu hali hammasi emas, — dedim gapim tugamaganligini bildirib. — Tegirmonchi bunaqa bolalarni bir umr tarbiyalab kelayotgani uchun bir-ikki muomaladayoq uning nozik tomonlarini bilib oladi. "Qani, o'g'lim, tegirmon toshi taraqlab ketdi, choping, quloqqa chiqing, suvni kamaytiring", "iye, tosh sustlashib qoldi-ku, bora qoling, suvdan picha qo'shing, bo'lmasa tosh bir-biriga yopishib qoladi" deb bolani ishga soladi. Shunday qilib, bola kun bo'yi ikki terak bo'yi balandlikka tanda qo'yadi. Mana shunaqa qilib, bolani holi-joniga qo'ymayotgan yovoyi kuch jilovlanadi. Endi tegirmonchi uni sabr-toqatga o'rgatishi kerak. Sabr-toqat darsi esa tosh chekichlash bo'lgan. Tosh tunlari ustiga po'stak yopilib, kunduzlari oftob qoq miyaga kelganda chekichlashga o'tiril-

gan. Shunday qilinmasa, tosh yaxshi chekichlanmagan, bug'doyni yaxshi tortmagan. Bitta tosh ikki, uch kunlab chekichlangan. Mana shunaqa yo'llar bilan "tegirmonga tushsa butun chiqadi"gan bolalar tarbiyalangan. Bu gapning tagida o'shanaqa tarbiya yotibdi.

— E, qoyil, qaniydi hoziram...

— E, hozir unaqa ota-onayam, oqsoqolam, tegirmonchiyam yo'q. Endi bular ertak shunchaki.

— Tegirmon bo'lmasa, uni o'rnini bosadigan qanchadan-qancha korxonalar, ustaxonalar, sartaroshxonalar, oshxonalar bor. Bu joylarni biz tarbiya o'choqlariga aylantirmaganmiz-da. Ular bilan aloqa bog'lash kerak, — dedim.

— O'g'lim, — dedi matematika o'qituvchisi mehri tovlanib, — olimning katta-kichigi bo'lmaydi. Gaplaringiz yog'dek yoqyapti, juda ma'qul. Bu gaplarni kimdan eshitgansiz. Shu bobongiz ko'p dono odam bo'lganmilar deymanda.

— Bobomlarni bilmayman. Gitler urushidan qaytib kelmagan ekanlar. Men bunaqa gaplarni shaharshahar, choyxonama-choyxona yurib, atayin to'plaganman.

— A, choyxonama-choyxona yurib-a? Ko'p to'plaganmisiz bunaqa gaplarni.

— Ha, ancha-muncha to'plaganman.

— Barakalla, o'g'lim, — dedi-yu, matematika o'qituvchisi chuqur xo'rsinib qo'ydi. Keyin o'zini-o'zi ayblagandek gapira ketdi:

— Biz bo'lsak choyxonalardan o'zimizni obqochib yuribmiz. Ziyoliga yarashmaydi deb. E-ha, qancha-qancha suvlar oqib ketibdi-ya.

— Ancha-muncha to'plaganman dedingizmi, o'g'lim, shu bittasini o'ziam o'ylatib qo'ydi, odamni. Demak, ilgari hamma narsadan tarbiyaviy yo'lda foydalanishgan, hamma narsa tarbiyaga xizmat qilgan. Hozir-chi, ko'rganlari maktab! Bitta maktabni qo'lidan nimayam kelardi.

— Menda bitta bola bor, — dedi boyagi vodoka-

nalga bordim degan o'qituvchi, — biram bo'shang, buni ustiga nuqul darsda uxlab o'tiradi. Oldingi zamonda bunaqalarning uyqu bezini ezishgan deys-hadi, shu rostmikin? — deya menga murojaat qildi u.

— Rost, bu jo'ngina ish bo'lgan, — dedim yana o'tirganlarning e'tiborini o'zimga qaratib. — Bunaqa bolalarni temirchiga shogirdlikka berishgan. Shogird bola ishni bosqon bosishdan boshlagan. Olovning har lovullashi shogird bolaning ko'zidagi uyqu pardasini eritgan. Yonida bo'lsa, temirchining bolg'asi sandon-ga gursillab tushib turgan. Bolg'aning har gursillashi o'sha uyqu bezini temirga qo'shib ezavergan. Dastlabki kunlari shogird bola umuman uyqusini yo'qotgan, keyinchalik el qatori uyqusini topib olgan. Shunday qilib, siz aytgan o'sha xamirdek bola temir-dek bo'lib pishgan. Balki, “buni joni qattiq, temir-dan”, degan gaplar shunga ishoradir...

— Biz bo'lsak nuqul harf bilan odam qilmoqchi bo'lamiz bolalarni.

— Ha, bizam ota-bobolarimizga o'xshab, mehnat maktablarini topib olishimiz kerak. Ular bor, to'lib yotibdi...

Muhokama yana qiziy boshladi.

— Hozir olim o'g'limning tegirmon degan gapla-rini eshitib, tegirmon haqidagi bir olimning gaplari yodimga tushib ketdi, — dedi matematika o'qituv-chisi.

— Qaysi olim? — so'rab qoldi mehnat o'qituvchisi.

— E, sizga bari bir emasmi, mulla Hoshim.

— Adabiyotchilarga bari bir bo'lishi mumkin, lekin Hoshim akaga bari bir emas.

Xonada yengil kulgi ko'tarildi.

— Oling, bitta olimda, bari bir siz tanimaysiz, — dedi matematika o'qituvchisi quvnoqlik bilan. — U aytadiki... bug'doyni tegirmonchining tegirmoni tor-tadimi yoki daryoning suvimi, deydi? Bunday qarasangiz, tuxum oldin paydo bo'lganmi, tovuqmi deganga o'xshagan gap. Axir suvsiz tegirmonni, tegir-monsiz suvni tasavvur qilib bo'lmaydi-ku. Lekin

diqqat qilinsa, suv bo'lmaganda tegirmonchiyam bo'lmasdi, tegirmonam yasalmasdi. Demak, tegirmonchida tegirmon yasash fikrini suv uyg'otgan. Qarabsizki, kattakon kashfiyot. Shunga o'xshab, olim ukam aytmoqchi, chor-atrofimizda tarbiya vositalari to'lib-toshib, daryodek oqib yotibdi. Ularga qarab, tegirmon yasash o'zimizgagina bog'liq.

— To'g'ri aytdingiz, domla, — dedi vodokanalga bordim degan o'qituvchi, — jurnalda o'qidim, yaponiyalik bir o'qituvchi bolalarni esini taniganidan — uch, to'rt yoshdan boshlab o'qitish mumkinligini isbotlayapti.

— Yo'g'-e, — ishonishmadi o'qituvchilar.

— Olti yoshlilarga qanchadan-qancha dod-voy bo'lyapti-ku.

— Men aytayotgan o'qituvchi maktabdamas, uyda o'qitarkan. Mashg'ulotlari asosan badan tarbiyaga oid o'yinlar, tabiatni o'rganish, nutqni o'stirishdan iborat ekan. Rostmana harf tanitish, yozishni shu olti-yetti yoshga yetganda o'rgatarkan.

— Yaponiyada, Angliyada allaqachonlardan oq besh yoshdan o'qitish urf bo'lgan.

— Qaniydi o'shalarining ishlaridan oz-moz xabardor bo'lsak.

— Xo'p desanglar, — dedim, — men bir urinib ko'raman, institutimizning o'sha tomonlar bilan aloqasi zo'r.

— Xo'p deymiz, olim o'g'lim, xo'p deymiz, — dedi matematika o'qituvchisi. — Anovi, xonadonda bola o'qitadigan muallimniyam bilib keling iloji bo'lsa. Bir o'rganib qo'yaylik. Tovba, hammamizning uyimiz to'la bola-ya, lekin hammamiz maktab yoshiga yetkazvolib, maktabga olib kelib, keyin ilm o'rgatamiz.

— Afandi latifasiga o'xshab, — qo'shib qo'ydim men.

— A, labbay, yangisi bo'lsa eshitaylik, — dedi og'zimdan chiqayotgan har bir gapga e'tibor berayotgan matematika o'qituvchisi.

— Odamlar kechasi to‘ydan kelayotsa, afandi bir chiroqning tagida hadeb timirskilanib yotganmish. “Ha, Afandi bir nima yo‘qotdingizmi!” — deb so‘rashibdi undan. “Hamyonimni tushirib qo‘ydim”, debdi afandi. “Bu izlashingizda allaqachon topgan bo‘lardingiz, boshqa joyda tushirib qo‘ygandirsiz”, deyshibdi odamlar. “To‘g‘ri aytasizlar, hov anavi qorong‘i ko‘chada tushirib qo‘ydim”. “Unda nimaga bu yerdan qidirypsiz”, hayron bo‘lishibdi odamlar. “U yerda chiroq yo‘qda”, dermish afandi.

— Ha, buyam bor gap, yo‘qotgan narsalarimizning ko‘pini maktabdan qidiradigan bo‘lib qolganmiz, olim o‘g‘lim.

— Bugungi majlis ja boshqacha bo‘lyapti-ku, a? — dedi yana mehnat o‘qituvchisi jim turolmay. Bu gap g‘ashimni keltirdi-yu, dilimdagini aytib qo‘ya qoldim.

— Majlis, — dedim unga, — aslida shunaqa, erkin, ochiq, munozarali bo‘lishi kerak. Uzundan-uzun ma‘ruzalar joninglarga tegmadimi? Direktorning, zavuchning qosh-qovog‘iga qarashlar-chi? Ular ham bundoq oddiy o‘qituvchilardek o‘tirishsin. Hadeb pichog‘ini qayrab, o‘dag‘aylayvermasdan. Gap dunyo ta‘lim-tarbiyasi, qayerda qanday yangi tajribalar bo‘layotganligi haqida borsin. O‘qituvchilar yuragidagi gaplarni bir-biriga aytishsin, ochiq-oydin fikr-lashishsin.

— Ha, mana bu ham sog‘lom gap bo‘ldi, — dedi matematika o‘qituvchisi hayajon bilan.

Shu payt eshikda direktor opa bilan Xadicha Kari-movna paydo bo‘lishdi-yu, hammaning nafasi ichiga tushib ketdi. Xayolimda hozirgina chayqalib turgan bug‘doyzor yoppasiga yotib qolgandek. Direktor joyi-ga kelib o‘tirmasdanoq, yo‘l-yo‘lakay gap boshladi:

— Bugungi majlisimizda har galgidek masalalar ko‘p. Lekin masaladan tashqari bitta masalayam bor. O‘sha masalani hal qilib, unga taalluqli odamga javob beraylik-da, keyin o‘z masalamizga o‘taylik, nima deysizlar?

Direktor opa birovning bir nima deyishiniyam kutmay, menga yuzlandi:

— Siz, uka, ismi sharifingizniyam bilmayman, o‘rningizdan turing-chi. Ha, yaxshi-i... maktab bu ilm o‘chog‘i, bolalarga bilim beradigan joy. Biz siz bilan boshida bunaqa kelishmagan edik. Ishlarimizga ko‘maklashasiz, deb o‘ylagandik. Maktab bo‘lar-bo‘lmas tajribalarni o‘tkazadigan joy emas. Bunga men yo‘l qo‘ymayman. Bolalar odam — kalamush, sichqonlar emas. 7-“A”da o‘tkazgan tajribangizni bekor qilamiz va tajribalaringizni mana bunday qilib yirtib-yirtib tashlaymiz. Shu bilan maktabimizdagi xomxayol faoliyatingiz tugadi.

U men kotiba qizga qoldirgan hujjatni hammani oldida yirtib tashladi.

— Kechirasiz, — deya himoyaga og‘iz juftladim.

— Yo‘q, ukajon, siz bilan adi-badi aytib o‘tirishga vaqtimiz yo‘q. Keyin siz bizning jamoamizda emassiz, ha, bizga umuman aloqadorlik joyingiz yo‘q. Marhamat qilib, xonani bo‘shatib qo‘ying, shusiz ham bu yerdagilarni ancha kuttirib, vaqtini o‘g‘irladim. Qani, tez, tezroq, — o‘shqirdi direktor.

Direktor har “tez”, “tezroq” deganda bamisoli orqamga tepki yegandek xonadan otilib chiqib ketganimni bilmay qoldim. Ancha o‘zimga kelolmay, o‘ylarimning bosh-uchini topolmay, karaxt bo‘lib turib qoldim. O‘zim-ku, mayli-ya, orzularim, rejalarim oldida xijolatda qoldim. Axir orzu-o‘ylar ham yurakda bir farzanddek tug‘ilarkan-da. Essizgina mening ishonch va orzularimga aylanayotgan 7-“A”!

1993-yil.

**CHAMPO
OTLI ILON**



Men sizga Champo voqeasini aytib beraman. Champo deganim bu oddiy ilon. Bu nomni tasodifan o'ylab topganman. Men bog'hovlimizda ajoyib va g'aroyib, zaharli va zaharsiz, uzun-qisqa ilonlar borligini, ularni hech qachon o'ldirib, bezovta qilib bo'lmasligini shu yerlik odamlardan eshitar edim. Aslida nafaqat ilonga, pashshaga ham ozor bermasam deyman. Biroq men o'sha sirli ilonlarni juda-juda ko'rishni xohlardim. Chunki men o'z hayotimda ko'plab ilonlarga duch kelgan, ularning tusi va angori o'sha yashayotgan muhitiga o'xshashini ko'p kuzatgan edim. Keyin hayotimda ilonlar bilan bog'liq ajabtovur, eslasa odamning eti junjikadigan voqealar ham bo'lib o'tgan edi.

Bahor oxirlab, pichanlar o'rilgan payt. Bog'hovlimizdagi hali o'zlashtirilib ulgurilmagan yerlarga ham o'roq tushgan. Navbatdagi dam olish kuni bog'hovliga qadam qo'yar ekanman, pichanlar bir tekis o'rilib, so'qmoqlar ochilib qolganligini ko'rib dilim yayrab ketdi. Bolaligim o'tgan Bo'zsuv bo'ylarini esladim. Ayni pichan o'rilgan paytlarida ilonlarning ini buzilardi. Har qadamda suv ilonlarini uchratish mumkin edi. Ular shuvillab oyoq tagidan o'tar va hali qurib ulgurmagan pichan tagiga kirib berkinardi. Ba'zilari pichan ustiga cho'zilib quyoshdan bahra olardi. Men o'shanday damlarda ham ilonlarni kam uchratardim. O'rtoqlarim undoq katta, bundoq katta ilonni ko'rdim deb maqtanishardi. Bir odamdan ilon yilida tug'ilganlarning ko'ziga ilon kam ko'rinadi. It yilida tug'ilganlarni it qopmaydi, deganini eshitgan edim. Bundan chiqdi, ilon yilida tug'ilganlarning ilonlarga aloqasi bor ekan-da, deb o'ylardim. Ammo bir kuni o'sha ko'zimga kam ko'rinadigan ilonlardan biri... ha, meni zaharlab qo'yishiga ozgina qoldi. O'n-o'n bir yoshlar-

da edim. Ammamlarning uyida yashardim. Ammamning eri Majid pochcham urushdan yarador bo'lib qaytgan, tanasining allaqayerida qolib ketgan temir parchasidan azob chekar edi. U kishi o'sha og'riq bilan olisha-olisha olamdan o'tib ketdilar. Ammamlar uch go'daklari bilan beva qoldilar. Shundan keyin bu yerga kelib qoldim. Ammam kasalxonada ishlar, bir kecha-yu bir kunduz uyda bo'lsalar, bir kecha-yu bir kunduz ishda bo'lardilar. Bizning Zoya otliq oq echkimiz bo'lardi. Sersut edi. Suti ham qaymoqli, shirin. Ammam yo'q paytlarida echkini sog'ish, uni kosalarga quyib, chambaraklarga o'rnatish menga qolardi. Hovlimizdagi omonatgina qurilgan chaylaga to'rtta chambarak o'rnatilgan, ular kosalarining katta-kichikligiga qarab yasalgan edi.

Men kichkina chambarakka endigina emaklay boshlagan jiyanim Rixsining ulushini, undan keyiniga esa to'rt yoshli Ergashning, undan keyiniga olti yoshli Yo'ldoshning ulushini bir-bir joylardim. Oxirgi kattaroq chambarak meniki edi. Chambarakdagi sutlar kechasi bilan salqinda qaymoq olar, nonushtaga zog'ora nonni bo'ktirib mazza qilib yeb olardik.

Navbatdagi shunday nonushtadan keyin men o'zimni nimagadir boshqacha, lohas seza boshladim. a'zoyi-badanim qizib, havo yetishmayotganday bo'laverdi. Biroq biror yerimda qattiq og'riq sezayotganim yo'q. Jiyanlarimga qarayman: ular qorinlari to'ygach, men bilan ishlari yo'q, o'ynab o'tirishardi. Shu payt allanarsa meni bo'g'a boshladi. Nuqul qo'llarim bilan o'sha narsani olib tashlamoqchi bo'laman, qo'linga bo'lsa hech narsa ilinmaydi. Oxiri madad istab qo'shni hovliga yuzlandim. Mamariza tog'a ko'rindilar. U kishi domla edilar. Hovlida katta qanor qopni yo'rmab o'tirardilar. Aftidan somon olib kelishga otlangan. Men shoshmasam Mamariza tog'a hali zamon ko'k eshagini minib ketib qolishi tayin. Ikki hovlini bir-biridan ajratib turadigan ariqchadan sakrab, tog'aning yonlariga o'tdim. Tog'a meni ko'rdilar-da, nima deysan degandek yuzimga qaradi-

lar, men u kishiga tovushim bo'g'ilib zo'rg'a salom berdim va bir amallab g'alati holatni tushuntirdim.

Tog'a qanor qop bilan bigizni bir chekkaga qo'ydi-lar-da, shoshmay o'rinlaridan turdilar. Keyin qani qo'lingni ber-chi, deb bilagimdan bir zum tutdilar. Keyin ko'zimning oqini ko'rib:

— Nima yeding? — dedilar.

Men nonushtada nima yegan bo'lsam o'shani aytdim.

— Kosadagi sut qayerda turgan edi? — yana so'radi tog'a.

— ...

Shundan keyin Mamariza tog'a sal shoshib qoldilar. Qo'limdan yetaklab hovlimizga o'tdilar. Men ularga chayla tagidagi chambaraklarni ko'rsatdim. Tog'a bir zum chaylaning shox-shabbalari orasiga tikildilar-da, seskanib ketdilar. Seskanganliklarini bilagimni qisib ushlab turgan qo'llaridan bildim. Ammo men tog'a qarab turgan joyga qarab hech narsani ko'rmadim. Aftidan ko'zlarim ham xira tortib borar, havo yetmayotganidan chuqur-chuqur nafas olardim. Tog'a yetaklaganicha ariqcha bo'yiga olib bordilar. Va shu yerda o'sgan toldan bir necha gavronni sindirib oldilar. Shu payt gavronlar qarsillab yelkamga tushib qoldi-ku! Iye, nimaga?! Tog'aning qo'lidan siltanib chiqdimda, qochdim. Tog'a bo'lsa meni quva boshladilar. Gavronlar goh yalang'och oyoqlarimga, goh boshim aralash yelkamga tushib qoladi. Men kechirilmas bir ish qilib qo'yganimni payqadim. Shunga jazo olardim chog'i. U kishi har zamonda: "Ahmoq, bachchag'ar! Yetib olsam go'shtingni mayda-mayda qilaman", deb qo'yardilar. Jiyanlarim mening bu holimni ko'rib, hang-mang bo'lib qolishgan. Men hovli bo'ylab tinimsiz yugurar, tog'adan o'zim bilmagan gunohim uchun yolvorib kechirim so'rardim. Bu orada men ham, tog'a ham terga botib, hansirab qoldik. Men boyagi azobni ham unutib, oxiri yiqilib qoldim. Ammo qahri qattiq tog'a bas qilay demas edi. Kaltakdan qutulish uchun yana turib qocha boshladim. Endi men og'zimga kel-

gan soʻzlar bilan togʻani boʻralab soʻkardim. Togʻa bat-tar jahl bilan meni quvar, gavron tegmagan joyim qol-magan, hamma yogʻim lovullab yonar edi. Oxiri yerga yotib qoldim. Togʻa ham bir ahvolda yonimga choʻkdi-lar. Duo oʻqib, dam soldilar. Men urganlari nimasi-yu, dam solganlari nimasi deb jigʻibiyron edim.

— Qani, — dedi u kishi. — Koʻzingni och-chi?

Men jahl bilan boshimni chetga burdim.

— Senga aytyapman? Koʻzingni och! Yo, yana kaltak yeging kelyaptimi?

Men shundagina togʻaning bu savalashlari va duo oʻqishlarida bir sir borligini angladim-da, togʻaga itoat qildim. Togʻa koʻzimning paxtasini agʻdarib koʻrdilar-da: “Ha, boʻpti”, dedilar xotirjam. Keyin muloyim tikilib:

— Bundan keyin chambarakka sut qoʻyganda, albatta, ustini yopib qoʻy. Ilon sut ichaman deb zahar ham solib ketibdi. Yaxshiki anovi jiyanlaringni kosasi-ga tegmapti. Xudo saqlabdi.

Men qushdek yengil boʻlib qolgan edim. Lekin azoyi badanim kuygandek jazillardi. Togʻa yana dedi-lar:

— Bir yomonning bir yaxshisi, endi seni ari ham, iskabtoparlar ham chaqmaydi, mazza qilib yurasan. Uncha-muncha ilonning zahri ham zahmat yetkaz-maydi. Shunaqa!

Endi bilsam rahmatli Mamariza togʻa oʻshanda mening tanamdagi ilon zahrini xivchin-u va ter bilan haydab chiqargan ekanlar.

Ilonlarni qandoq qilib yeganimiz haqida

Oʻsha yili qishlogʻimizga allaqanday tilini anglab boʻlmaydigan ozgʻin, qoracha odamlar koʻchib kelish-di. Kattalarning aytishicha, ular xitoyliklar ekan. Oʻsha tomonlardan surgun qilinibdi. Surgun qilingan-lar kimningdir boʻsh uylariga, yertoʻlalariga, ombor-xonalariga joylashishdi. Bechoralarning na koʻrpa-toʻshaklari, na qozon-tovoqlari bor. Qishloq odamlari

ana shu zarur narsalar bilan ularning turmushini to'kis qildilar. Kirdi-chiqdi, bordi-keldi boshlandi. Biz esa bolalari bilan o'ynar edik. Ularning bolalari ko'proq qishloqdagi dastyori yo'q xonadonlarning mollarini boqishga yollanishdi. Biz har kuni Bo'zsuv bo'ylariga mollarni haydab ketardik. Avvallari dalada choy qaynatib ichish, dasturxon tuzash degan narsalarga e'tibor bermas ekanmiz. Xitoylik bolalar kelgach, tush paytida ham mollar yonida qoladigan bo'ldik. Ular orasida bitta ozg'in, uzun bo'yli, hamma ish qo'lidan keladigani bor edi. Biz oshpaz deb chaqirardik. U ba'zan bizga o'sha dalani o'zida hammaning sigiridan oz-ozdan sog'ib, shirguruch pishirib berardi. Allaqanday o'tlardan choy damlab ichirardi. Ammo bir kuni u boshqacha bir ovqatga urinib qoldi. Bizlarni ilon tutib kelishga buyurdi. Ilon tirik bo'lishi kerak. Shirguruch tayyorlaydigan guruchimizni esa doka ro'molga tugib, buloq suviga tashlab qo'ydi. Ko'p o'tmay, bolalar uzun-qisqa ilonlarni tutib kelishdi. Oshpazimiz ulardan eng uzun, eng semizini tanlab oldi-da, boshqalarini qo'yib yubordi. Keyin haligi katta ilonni non to'rvaga solib bir chekkaga qo'ydi. O'zi esa o'tlab yurgan sigirlardan oz-ozdan sut sog'ib ola boshladi. Hatto, mening echkimdan ham sog'ib oldi. Sutni har kuni choy qaynatib ichadigan qorni katta, og'zi kichik mis qumg'onga quydi. Keyin to'rvadagi ilonni oldi-da, buloq suviga bir-ikki chayib, boshini qumg'on ichiga tiqdi. Ilon jon-jon deb qumg'onga kirib ketdi. Sal o'tmay ilonning boshi qumg'onning og'zida ko'rindi. Oshpaz qopqog'ini yopib qo'ydi. Keyin bizga o'choqqa o't yoqishga buyurdi. O'zi esa buloqdagi guruchni olib keldi-da, namagini rostlash uchun tuz sepdi va yaxshilab aralashtirdi. Shundan keyin oshpaz ko'zani o'choq ustiga qo'ydi. Olov gurillab yona boshlagan edi, pastroq yoqishga buyurdi. Keyin qumg'onning qopqog'ini ko'tardi. Ilon sapchib chiqmoqchi bo'ldi. Ammo u qo'lidagi sopi uzun yog'och qoshiqcha bilan boshiga bir urgan edi, ilon yana sut ichiga sho'ng'ib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Qumg'ondagi

sut asta-sekin isiy boshlagan sari ilon tashqariga chiqish uchun boshini qumg'ondan chiqarar va og'zini kappa-kappa ochar edi. Shunda oshpaz ivitilgan muzdek guruchni uning og'ziga epchillik bilan qoshiqchada sola boshladi. Ilon bu yoqimli muzdek luqmani mazza qilib yutar, yana-yana degandek to'xtovsiz og'zini ochardi. Ilon qancha og'zini katta ochsa, oshpaz uning og'ziga shuncha katta luqma tashlardi. Biz uning imo-ishorasi bilan olovni tezlatdik. Ilonning harakatlari ham, oshpazning harakatlari ham tezlashib ketdi. Nihoyat, doka ro'moldagi guruch ham tugadi. Sut qaynashga kelib vijilladi-yu, ilon oxirgi marta og'zini karrakdek ochib cho'kib ketdi. Men o'shanda ilonlarning og'zi judayam katta ochilishini, uncha-muncha jo'jalarni ham yutib yuborishi hech gap emasligini sezgan edim. Oshpaz sut ko'zadan toshib chiqadigan bo'lsa, suv quyib taftidan tushirib turdi.

Nihoyat oshpazning ishorasi bilan olov yoqishni to'xtatdik. Oshpaz qizib turgan mis ko'zani nam latta bilan ushlab g'ir-g'ir shamol esib turgan salqin joyga eltib qo'ydi. Shundan keyin biz mollarni salqin joyga qantarib, tushlik qilishga shoshildik. Hammamizning fikri yodimiz mis ko'za ichidagi ilonda. Nazarimizda ko'zada guruch aralash ilon bo'tqa pishgan edi. Lekin buni yeyish haqida hech qaysimiz o'ylamasdik. Bir-birimizga "eysanmi" desak, "ey", deb aftimizni bujmaytirar edik.

Odatdagidek, dasturxon yozildi. Kim obi non, kim zog'ora non, kim chavati nonni o'rtaga qo'ydi. Oshpaz mis ko'zani ushlab ko'rib, sovuganini bildida, dasturxon yoniga ko'tarib keldi. Piyolalarga ko'zachadagi sutni taqsimlab quya boshladi. Sut ko'kimtir tusga kirgan, yuzida tangadek-tangadek sapsariq yog' tomchilari suzib yurardi. Xitoylik bolalar piyolaga quyilgan narsani huzur bilan ho'play boshladilar. Ular shunday bir rohat tuyishardiki, beixtiyor biz ham piyoladagi nasibani qo'limizga olib, ta'mini ko'ra boshladik. Men ham shunday qildim. Tavba,

men birinchi ho‘plamdayoq tuflab tashlasam kerak deb o‘ylagan edim. Ammo tomog‘imdan qanday o‘tib ketganini sezmay qoldim. U sal sho‘rtangroq, ammo eritilgan sariyog‘dek mazali edi. Men shu paytgacha bunaqa mazani birinchi marta his qilib turardim. Haligi narsani hammamiz pok-pokiza ichib oldik. Shundan keyin oshpaz urina-urina ilonning bosh tomonini qumg‘onning og‘ziga to‘g‘riladi-da, ovqat-cho‘p bilan qisib, tashqariga torta boshladi. Ular ana shunaqa ikkita cho‘p bilan ovqatlanishga usta edilar. Bundoq qarasak ilon biz o‘ylaganchalik bo‘tqasi chiqmapti. U qumg‘on ichidan bus-butun sirg‘alib chiqqa boshladi. Va nihoyat, dasturxonga boyagi uzunlikdagi ilon emas to‘mtoqqina bir hasip qo‘yildi. Hammamiz har tomondan ilonning ustidagi yaltira-yotgan po‘stlariga, to‘mtoq dumiga va xandon pista-ning og‘zidek ochilib qolgan og‘ziga hayrat bilan qarardik. Oshpaz cho‘ntagidan ip chiqardi-da, bizni sanagandek ko‘z yugurtirdi. Va ipda bir xil o‘lchamda tugunchalar hosil qildi. Biz o‘n ikki kishi edik. Ipda o‘n ikkita tuguncha paydo bo‘ldi. Keyin haligi ipni ilonning ustiga qo‘ydi-da, o‘tkir pichoq bilan har bir tugun orasini bir xilda kesib chiqdi. Kesilgan bo‘laklarni oldimizga bir-bir qo‘ydi. Endi ko‘z oldimizda ilon emas, balki oddiy hasip turardi. Biz bu taomni qandoq yeyishni bilmas edik. Oshpaz o‘z nasibasini namoyishkorona qo‘liga oldi-da, uning ustidagi piyoz po‘stidek yupqa terisini osongina shilib tashladi. Keyin ikki qo‘llab yer ekan, “oh-oh” degandek boshini sarak-sarak qilib qo‘ydi. Boshqa xitoylik bolalar ham xuddi shunday qilib yeya boshlashdi. Qornimiz och edi... Shunday qilib birinchi marta xitoylik do‘stlarimiz bilan ilon hasip yedik. Hasip mazali va yog‘li edi. O‘sha kuni biz kechga dovur ochiqmadik. Ammo ilon hasipni ikkinchi marta yeyish nasib qilmadi. Bu voqeadan xabar topgan qishloq kattalari shovqin ko‘tarib, kelgindilarning uyiga bostirib borishdi. Ilon go‘шти harom ekan. Kelgindilar o‘g‘illarini tutib olib, rosa kaltaklashdi...

Men o‘z tomorqamizga olib boradigan so‘qmoqdan borar ekanman, ana shu voqealarni bir-bir xayolimdan o‘tkazardim. Vaqt o‘n ikkiga yaqinlashib, kun qizigan sari hammayoqni pichan hidi tutgan. Men qo‘shnimiz Berdirahmatning uyi yonidan o‘tib, hovlimizga burildim-u, xashak ustida yotgan kamarga ko‘zim tushdi. Pichan o‘ruvchilarniki qolib ketibdi-da, olib qo‘yay, kelishsa beraman deb shu tomon yurdim. Buni qarangki, kamar deganim uzunligi bir qulochcha keladigan qora chipor ilon edi. Uning tanasi pichan ustida-yu, boshi ko‘rinmasdi. Ko‘nglimdan jonivorni o‘roqchilar bilmay o‘rib yuborishibdi-da degan o‘y kechdi. Hali zamon Berdirahmatning sho‘x, to‘polonchi o‘g‘illari kelib qolsa, o‘takalari yorilmasin deb ilonni bir chekkaga olib qo‘ymoqchi bo‘ldim. Uning dumidan ushlaganimni bilaman birdan jon bitib, menga daf qilib qoldi-yu. Tirik ekan. Men ilonni qo‘yib yuborsam ish chappasiga ketishini angladim. Uni ozod yuqoriga ko‘tardim. Ilonning gavdasi og‘irlik qilib, to‘lg‘ona boshladi. U jon-jahdi bilan siltanar, tanasini goh cho‘zib, goh qisqartirib qo‘limdan chiqishga urinardi. Ilon zaharli edi. Uning boshidagi qo‘shuv alomati shundan darak berardi. Men tasodifiy bu holdan hayron bo‘lib raqibimni nima qilishim kerakligini o‘ylab qoldim. Qo‘yib yuborsam, Berdirahmatning bolalariga biror-bir zarar yetkazishi mumkin. Chunki ular mana shu joylarda shataloq otib o‘ynab yurishardi. Bilmasdan bosib olishsa bormi! O‘ldirsammikin? Ha, boshini tutga bir ursam majaqlanadi. Ko‘mib yuboraman. Bu fikrimdan darhol qaytdim. Ilonlar qasoskor bo‘lishadi, deb eshitganman. Nima qildim endi...

Men ilonlar o‘z o‘rdasi — ini atrofidadagina yashashini, uni boshqa joyga eltib tashlansa avvalgi joyini topib kelolmasligini eshitgan edim. Shuning uchun bu kutilmagan “tashvish”ni ko‘targancha, bog‘hovlidan chiqdim-da, asfalt yo‘lining narigi yog‘idagi soy bo‘yiga eltib tashladim. Yana shu yo‘l bilan izimga qaytar ekanman, o‘zimdan o‘zim mam-

nun edim. Ilonni o'ldirmadim, buning ustiga bolalarni xavf-xatardan qutqardim. Harholda bu yerlarda ehtiyot bo'lib yurish kerakligini ko'nglimga tugdim. Shunday o'ylar bilan boyagi joydan o'tib borar ekanman, hayratdan qotib qoldim. Boyagi ilon yotgan pichan atrofida shunaqangi ilon bolalari g'ij-bij ediki... Ular boshchalarini u yoq, bu yoq cho'zib onasini izlashardi. Shundagina bildimki, ilon pichan ustida bekorga yotmagan, bolalari uni qora tortib atrofda sayr qilib yurishgan. Onalari birdan yo'qolib qolgach... Mana endi izlashyapti...

Men xol qo'yaman deb, ko'z chiqarganimni payqadim. Ha, ilonlarning ini buzilgan edi. Ular uzunligi bir-bir yarim qarich keladigan qora, chipor ilonchalar edi. Hammasining uch burchak boshchasi-da "biz zaharlimiz" degan qo'shuv alomatlari bor. Men qilgan ishimdan ko'p pushaymon chekardim. Biroq endi kech edi. Xavotir olib bog' etagiga ko'z tashladim. Shu tobda Berdirahmatning bolalari kelib qolishsa bormi? Ikkinchi bu yerlarga qadam qo'ymasliklari aniq. Chunki bu qo'rqinchli manzara ularning naq tomorqasida bo'layotgan edi-da.

Xayriyat, Berdirahmatning bolalari bu hafta dalaga chiqishmadi. Ilon bolalari tarqalib ketdimi yo o'rdalariga kirib joylashib olishdimi, har qalay ko'rinmay qolishdi. Men bu voqeani hech kimga aytmadim. Keyingi hafta yana bog'hovliga chiqdim. Yana o'sha tanish so'qmoqdan yurdim. Biroq sudralib yuruvchi "tanish"larimni boshqa uchratmadim. Qiziq voqea ertasiga, peshin mahali sodir bo'ldi. Qo'shnimiznikiga mehmonlar kelishgan, ularning orasida namozxonlari bor edi. Men namozxonlarni peshin namozini o'qish uchun salqinroq deb uyga taklif qildim. Ulardan oldinroq ichkari kirib joynamoz to'shar ekanman, mehmonlar "iye, iye" deganlaricha ostonada to'xtab qolishdi. Men ularga qaradim. Ularning ko'zi uy burchagida yalt-yult qilib sirg'alib borayotgan ilonchada edi. Men ko'rdim-u:

— Ha, bumi? Bu o‘zimizning Champo-ku, e’tibor bermanglar, o‘rgatilgan, — dedim.

Bu so‘z qanday qilib miyamga kelib qolganiga, hatto, ilonchaga Champo deb nom topila qolganligiga hali-hanuz hayron bo‘laman. Albatta, men bu gapni mehmonlarni xotirjam qilish uchun aytdim. Ammo ular mening gapimga shu zahotiyoq ishonishdi va tinchlanishdi. Chindan ham namozni xotirjam o‘qib tugatdik. Mehmonlar xayr-xo‘shlashib chiqib ketishdi. Ammo Champo mening xayolimdan ketmagan edi. Uni izlay boshladim. Topdim ham. Champo burchakda, kulcha bo‘lib jimgina yotardi. Men uning bu yerga qanday qilib kirib qolganini tasmullay boshladim. Yoz bo‘yi eshiklar ochiq turadi. Demak, u eshikdan kirgan. Bundan buyog‘iga, eshik yopib yurilmasa, ish chatoq... Men Champoni zo‘rlab chiqarib tashlashga shoshilmadim, o‘zi qanday kirgan bo‘lsa, shunday chiqib ketsin dedim. Buning ustiga Champo bilan ovora bo‘lgulik holim yo‘q edi. Charchab, uyqu bosib kelardi.

— Sen, — dedim Champoga esnab, — bu yerda uzoq yotmagin, ana kirgan eshiging ochiq turibdi. Izzating borida chiqib ket. Men biroz uxlab olay.

Champo xuddi gaplarimni eshitganday bir qo‘zg‘alib qo‘ydi. Tashqari qizdirar, uy ichi salqin, shundoqqina karavotga cho‘zildim-u dong qotdim. Bir soatlar chamasi uxlab, tiniqib ko‘zimni ochdim. O‘rnimdan turar ekanman, Champoni esladim. Uning yotgan joyiga qarasam, yo‘q. Hartugul yana karavot taglarini, u berkinishi mumkin bo‘lgan shubhali joylarni ko‘zdan kechirdim. Taxminim to‘g‘ri chiqqan ekan. U qanday adashib kirgan bo‘lsa, shunday chiqib ketganligiga ishonдим. Bu voqeani uydagilardan yashirdim. Oradan bir oylar chamasi vaqt o‘tdi. Tomorqada ishlab yursam, uyda baqiriq-chaqiriq bo‘lib qoldi.

— Ha, nima gap?

— Ilon... Nevarangiz ko‘ribdi, qo‘rqib ketdi!

— Ha, umi? U Champo-ku. Qo‘rqmanglar,

o‘zimizni ilon. Axir uy bo‘lgandan keyin iloni ham bo‘ladi-da...

Shunday deyman-u, yana eshikni bilmay ochiq qoldirganimizni, yana ilon salqin joy izlab uyga kirib olganligini anglayman. Ammo “o‘zimizning Champo-ku, uy bo‘lgandan keyin iloni ham bo‘ladi-da”, degan gaplarni behuda aytganimni keyin payqadim. Chunki hech kim uyga kirmay qo‘ydi. Men katta-yu, kichik xonalarni burchak-burchaklarigacha, hatto, etik, tuflilarning ichigacha qaradim. Ilondan darak yo‘q. Faqat bir joyda sichqonning iniga ko‘zim tushdi. Taxminimcha ilon shu kovakka kirib ketgan edi. Qattiq loy olib kelib kovakni suvab tashladim. Ammo kechgacha uyga kirib chiqish bilan bog‘liq ishlar mening zimmamda qolib ketdi. Bir kulaman, bir achchiqlanaman. Axir ilon arqonmidiki bir yerda yotsa. Unga ham jon kerak. Agar o‘sha kovakka kirib ketgan bo‘lsa, qaytib chiqolmaydi, yo boshqa yoqdan yo‘l topadi. Kalamushga duch kelib qolsa, sho‘ri quriydi.

Biz yoz paytlari uyda yotmas, tashqarida — so‘rida uxlardik. Bomdod namozini o‘qigach, bog‘ aylangani chiqdim. Bu taraflarda tong juda chiroyli bo‘ladi. Avval bir-biriga qalashib ketgan tog‘ o‘rkachlari ustiga shaftoli guliga o‘xshash harir bir parda — ro‘mol tashlanadi. Keyin u asta-sekin qizarib, lovullay boshlaydi. Sal o‘tmay qoyalar uchi oltinday tovlanib, ko‘zni qamashtiradi. Ana shunaqa dabdaba bilan quyosh chiqib keladi.

Men qandaydir ish bilan uyga kirganimda quyosh nurlari deraza osha uy ichini munavvar qilib turardi. Nur tushib turgan bo‘yradek joyda ko‘zimga bir narsa yalt-yult qilgandek bo‘ldi. Qarasam ilon! Ha, kattagina. Ey, tavba deyman o‘zimga-o‘zim. Eshiklar yopiq bo‘lsa, bu zahri qotil yana qayerdan paydo bo‘ldi? Ilon meni sezdi-yu, o‘zini karavot tagiga urdi. Men uni kuzata boshladim. Demak, shu tarafda men bilmaydigan biror joyda yotsa kerak-da. Balki karavotning oyoqlariga ilashib ko‘rpani ichiga kirib olar. Ilon

mening ta'qib etayotganimni sezardi. U allaqanday qo'rqinchli tovush chiqarib: "Yaqinlashma, meni tinch qo'y", degandek bo'lardi. Ilon oxiri do'q-po'pisam bilan karavot tagidan chiqdi-yu, xona o'rtasidagi fanerning tagiga kirib g'oyib bo'ldi. Qo'rquvdan seskanib ketdim. Fanerning ustiga sholcha solingan bo'lib, men uning ustida namoz o'qirdim. Fanerni qabarib, yerga yopishmayroq qolgan joyi bor edi. Ilon, sezishimcha, o'sha yerga kirib joylashib oldi. Men yana shuni angladimki, bu tasodifiy ilon emas, balki bundan bir yarim oylar muqaddam ko'rganim — Champo. U shuncha vaqt ana shuning tagida yashagan, uyga to'kilgan ushoqlar, pashsha va chivinlarni yeb ulg'aygan. Xayolimda bu Champo deganim onasini adashtirib kelganligim uchun o'ch olay, deb uyga kirgan va asta-sekin ulg'ayib, zaharga to'lishini kutayotgan qasoskorga o'xshardi. Kim biladi, u qachon mendan qasos oladi? Axir men shuncha vaqt uning ustida namoz o'qib kelgan edim-da. Niyatim buzildi. Tashqaridan ketmon ko'tarib kirdim. Bu ishlarni imi-jimida, shovqinsiz qilardim. Oldin sholchani ko'tardim. Keyin fanerni. Aytganimdek, men taxmin qilgan yerimda ilon uzala tushib yotardi. Ketmonning yuzi bilan dumidan ezdim. U ajabtovur kattarib kuchga kirib qolgan edi. Joni og'ridi shekilli, o'zini ketmon dastasiga bir-ikki urdi. Men ketmon yuzini uning silliq qop-qora tanasida yurgizib naq bo'yniga olib keldim. Champo yolvorgandek, og'zini ochib, tilini chiqardi. O'zicha bir nimalar demoqchi bo'ldi. "O'ldirma, men senga shu paytgacha tegmadim-ku", degandek bo'lardi. Bir ko'nglim uniyam bir yoqlarga eltib adashtirib kelay dedim. Lekin ilonni tushda ko'rsang ganj, o'ngda ko'rsang yanch, degan naql xayolimga keldi-yu, bir zarb bilan boshini uzib tashladim. Keyin ketmon yuzida ko'tarib, kecha ilon deb vahima ko'targanlarga bir-bir ko'rsatdim.

— Mana, ilonni o'ldirdim. Endi uyga kiraveringlar. Ammo o'zimning toshbag'irligimdan nafratlanib

ketdim. Axir menga va menga o'xshash allaqancha shaharliklarga bu go'zal maskanlar o'z bag'ridan joy bersa-yu, biz uning boyligi bo'lgan jonivorlarini mana shunday bitta-bittalab o'ldiraversak. Champoni ko'mar ekanman, xayr Champo, meni kechir, dedim. O'zimning ovozimdan o'zim cho'chib ketdim.

O'zim chaqirgan mehmon...

Yana bir ko'rgilik uy shiftiga faner qoqishdan boshlandi. Uy tomini yopish paytida men bitta xatoga yo'l qo'ygan edim. Mustahkamroq bo'lsin deb, lo'mbozgacha tut, tol shoxlarini bosgan edim. Biroq ularning po'stlog'ini shilmagan ekanman. Shilinmasa yog'ochga qurt tusharkan. Tun-u kun tinishmaydi. Qitir-qitir... Uyni un elagandek qipiqqa to'ldirishadi. Ba'zan vahmim keladi. Bu yeb to'ymaslar to'sinlargayam o'tib ketsa-ya...

Qilmagan dorim qolmadi. Isiriq, mingdevona tutatdim, bari bir bo'lmadi. Shunda kimdir faner qoqishni maslahat berdi. Har qalay, qurtdan qutulmasak ham qipiqdan qutulamiz-ku.

Faner bitdi. Uy ham binoyidek chiroyli bo'lib qoldi. Buni qarangki, oradan ko'p o'tmay qurtlar tinchidi. Bu ko'zga ko'rinmas mitti yog'ochxo'rlarga ham yorug'lik, toza havo kerak ekan-da.

Lekin undan ham battarroq tashvish boshlandi. Faner orasini sichqon bosdi. Ha, bu joy ularning o'yin maydoniga aylandi-qoldi. Bu g'alamislar yong'oqmi-ey, bodommi-ey, ishqilib shunga o'xshagan bir narsalarni dumalatib u yoqdan-bu yoqqa chopishadi. Jo'r bo'lib shundoq chiyillashadiki, uxlab bo'lmaydi. Endi ko'z ilinganda gumbura-gumbur... Cho'chib ketasan. Qo'l yetmas joyga kirib olgan bu maxluqlarni la'natlashdan nariga o'tolmaysan. Na qopqon va na sichqon dori qo'yib bo'ladi. O'sha joyda o'lib qolsa bormi... uyda yashab bo'ladimi? Ana mashmasha-yu mana mashmasha!

O'ylab o'yimga yetolmayman. Dalahovliga dam

olgani borib, horib-charchab qaytaman. Shunda xayolimga bir fikr kelib qoldi. Kimdandir, kalamush bor joyda sichqon bo'lmaydi, degan gapni eshitgan edim. Ajabo sichqon kalamushdan qo'rqarmikan?..

Uyimiz orqasidan ariqcha o'tar, unda-bunda kalamushlar ko'rinib qolardi. Suv bor joyda bu jonivor borda. Bir qaraganda beozor, hurkak, ziyon-zahmatsizday... Go'yo o'z kunini o'zi ko'rib yashaydigan jonivor. Kalamush meni sichqon balosidan qutqaradigandek, astoydil uni qidira boshladim. Tomimizga egilib o'sgan bir tup achchiq bodom bor edi. Mevasini dori uchun terib olardim. Ana shu bodom tagida kalamushning ini borligini sezib qoldim. Va uni poylay boshladim. Oradan sal o'tmay o'tlar orasida kattagina, biqqigina kalamush ko'rindi. Junlari yaltirab, tovlanardi. Kalamush suvsiz ariqqa sho'ng'idi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Lekin uni qanday tutaman-u qanday qilib fanerning ichiga olib kiranman? Kalamushlar ham yirtqichlar toifasiga kirishini, tishlari pichoqdek keskir bo'lishini o'qigan edim. Hayvonlar haqidagi bir kitobda kalamushlar och qolgan paytlarda odamlarga ham hujum qilishini yozibdi. Ular nuqul odamning qulog'i va burnini mo'ljalga olar ekan. Uning so'lagida shunday bir modda bor ekanki, tegishi bilan o'sha joy muzlab sezgini yo'qotar ekan-u, qichisha boshlarkan, kalamush o'sha a'zoni kemirishga tusharkan. Uyqudagi odamga bu xuddi qichigan joyni qashlagandek xush yoqarkan.

Xullas, kalamushni qanday qilib chordoqqa olib chiqish haqida bosh qotira boshladim.

Xo'sh, qandoq qilib? Shu payt kalamushning o'zi "mana bundoq qilib" degandek, bodom tanasidan o'rmalab, uning ustiga yugurgilab chiqib ketdi. Ey, qoyil! Ana u, shoxdan-shoxga osongina o'tib unda-bunda qolib ketgan achchiq bodomlarni pastga tushirib boshladi. Keyin pastga tushib, bodomlarni iniga tashmalashga tushdi. Shu payt xayolimga bir fikr keldi. Bodomga chiqqan kalamush shoxlar oralab tomga chiqolmaydimi? Buning uchun uni chiqishga

majbur qilish kerak. Birdan-bir yo‘l — uni bodom mevalaridan mahrum qilish. Shoxlardagi mevalarni qoqib, terib oldim. Bu ish kechga dovur cho‘zildi. Kechasi ozgina unni xamir qildim-da, achisin deb, sirkaga bo‘ktirdim. Ertasiga erta bilan xamirni chigit-day-chigitday qilib daraxtning tomga engashgan shoxiga bir qarich-bir qarich masofa yopishtirib, chor-doqqacha olib kirdim. Biroq ishimdan biror natija chiqishiga ishonmasdim. Tushgacha pana yerda poylab o‘tirdim. Kalamush nimagadir ko‘rinmadi. Axiyri toqatim toq bo‘lib, bor-e, dedim-da aylangani toqqa chiqib ketdim. Kechga tomon uyga qaytdim. Qaytdim-u, daraxtdagi boyagi xo‘raklarga e‘tibor qildim. Bari joyida turibdi. Hatto qushlar ham qayrilib qaramabdi. Sirkaga o‘ldirib bekor qildim shekilli? Shu kuni qo‘shnimiz Sharifjon biznikida tunaydigan bo‘lib qoldi. U shu paytgacha temir vagonchada yotib yurardi. Havo sovib, temir uychaga kirib bo‘lmay qolibdi.

— Marhamat, — dedim men, — uxlay olsangiz, anavi karavot sizniki.

U menga hayron bo‘lib qaradi. Men sichqonlardan shikoyat qildim. U shiftga qarar ekan, uy qurganda shu tomonini ham o‘ylab ko‘rish kerak ekanda deb qo‘ydi.

Chindan ham kechasi uyqu bo‘lmadi. Tongga yaqin ikkalamiz ham turib o‘tirib oldik. Tepada allaqanday tushunib bo‘lmaydigan “jang” borardi. Biz fanerning lopillashidan hayron bo‘lardik. Sichqonlar chiyillashdan ko‘ra big‘illashardi. O‘zlarini jon holat-da u yoqdan-bu yoqqa urishardi.

— Ha, — dedim suyunib, — niyatimga yetdim. Tuzoq ish berdi. Shu kuni tonggi poyezd bilan shaharga qaytdik.

Keyingi hafta dalahovliga borib, tokchadagi qutilar yerga dumalab tushganligini, quruq choylar to‘kilgani-ni ko‘rdim. Bu kimning ishi bo‘lishi mumkin? Har qalay sichqonning ishi emas bu! Diqqat qilsam, uyni shifti suv quygandek jimjit. Tiq etgan tovush yo‘q. Demak, kalamush sichqonlarni tinchitgach, uy

ichiga tushibdi-da. Qayerdan tushdi ekan? O‘h la‘nati, burchak joydan fanerni kemiribdi. Yana qayerdan deng? O‘sha burchakda baland tokcha bo‘lib, samovar qo‘yilgan. Samovar shiftga tegib turardi. Yo tavba, deyman o‘zimga-o‘zim. Kalamush shu yerda samovar borligini qayerdan bildi ekan? Nahotki, uning ko‘zlari faner orqasidan ham ko‘ra olsa? Bu jonivor ham ilonga o‘xshab... Shunday deyman-u, bir tashvishimga ming tashvish qo‘shilgandek bo‘ladi. Uyga o‘rganib qolsa-ya. Uni qandoq qilib quvib chiqaraman. Men kalamushni xuddi Champoni qidirgandek hamma-yoqqa bosh suqib izlab ko‘rdim. Kalamush yo‘q. Xonaga taxtapol o‘rniga zich qilib g‘isht terib chiqqan edim. Kalamush g‘ishtlarni ko‘chira olmasdi. Shunda bildimki, u pastga qayerdan tushgan bo‘lsa, o‘sha yerdan yana chiqib ketgan...

Shu kuni maza qilib uxladim. Na dupur-dupur, na bir shovqin bo‘ldi. O‘zimcha xaloskorimdan minnatdor edim. Tashqarida oy to‘lgan, uning oppoq nurlari xona ichkarisini munavvar qilar, sokinlik kishi ruhini allalab, uyqu elitgandan elitar edi. Ajabo, mana shunaqa osoyishta tunlar ham bor ekan-ku. Avvaliga yog‘ochxo‘r qurtlar qitir-qitiri, keyinigi sichqonlar dupur-dupuri, e, ha... Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘ deganlari shu bo‘lsa kerak-da.

Kelgusi hafta dalahovliga borgach, dahlizga kirdim-u, atrofga alangladim. Tinchlik! Bu safar tokchadagi narsalar ham joy-joyida turibdi. Ammo ikkinchi xonaga o‘tdim-u hang-u mang bo‘lib qoldim. Uy o‘rtasiga kimdir bir dunyo tuproqni uyib tashlagan edi. Kimdir deganimcha bor. Bunchalik mashaqqatli ishni faqat odam bolasigina qilishi mumkin edi. Tavba, bu kimning ishi bo‘ldi? Men toshotar jinlar, uyga o‘t qo‘yadigan jinlar haqida eshitgan edim-u, lekin tuproq uyadigan jinlar haqida eshitmagan edim. Hayron bo‘lib tuproq uyumini sinchiklab ko‘zdan kechirdim. Men zich qilib tergan g‘ishtlar qimir etmagan. Beixtiyor shiftga qaradim. Shift ham joyida. Tuproq uyumidan bir qadam nari o‘tganimni bilaman,

oyog'im tagidagi yer surilganday bo'ldi-yu, o'zimni o'rada ko'rdim. Hayratdan bir zum o'zimni yo'qotdim-u, darrov es-hushimni yig'ib oldim. Tavba, bu ahvolda uy ham bosib tushishi mumkin-ku? Nahotki, bu kalamushning ishi bo'lsa? Shunda ko'zim devor bilan g'isht orasidagi kovakka tushdi. Bu kalamushning ishi edi.

O'zi bog'hovliga biroz tobim qochib, toza havo istab kelgan edim. Mana sizga toza havo! Tizzamgacha tuproqqa botib o'tiribman. G'ishtlarni birin-sirin ko'chira boshladim. Endi kechagina do'st bo'lib, bugun haqiqiy dushmanimga aylangan raqibimni qidiraman. Qani endi ko'zimga ko'rinsa-yu, g'isht bilan bir urib, bir yo'la qutula qolsam. Xayolim uyning devorida. Yaxshiyamki tosh terib ustiga beton quyilgan, bo'lmasa qulab tushishi hech gap emas.

Hayron bo'laman. Nimaga buncha tuproqni qazidi ekan? O'zimcha o'ylayman. Hoynahoy u sichqonning izidan tushgan. Ularni yeb go'shtiga o'rganib qolgan. Mening nafsim balodir, yonar o'tga solodir, deganlari shuda... Nazarimda tuproqni qayta shibbalay turib kalamushni ham shibbalab tashlagandek edim. Ana endi o'zidan ko'rsin.

Ikki kundan keyin uyga qaytdim. Voqeani tanish-bilishlarga aytsam biri ishondi, biri ishonmadi. Xayolimning allaqayerida sichqonlar sendan o'chini olyapti, degan bir ishora bor edi. Chindan ham men yomg'irdan qochib, do'lga tutilgan edim. Eng alam qiladigani bu bosh og'riqni o'zim o'ylab topgan edim. Nima qilardim kalamushni sichqonga tezlab. Ular ham bir kunini ko'rayotgan edi. Taraqlatsa, uyquni buzsa nima qilibdi? Qayerda tinch hayot bor o'zi?! Odamzod shunaqa besabr. Shukr qilmaydi.

Kelgusi hafta yana xavotirlanib bog'hovliga bordim. Ko'nglimni xira qilib turgan narsa dahlizga kirishim bilan o'zini ko'rsatdi. Endi oldingidek tuproq uyumi o'choq oldida uyulib yotardi. Ha, men dahlizga ota-bobolarimiznikiga o'xshatib, mo'rili o'choq qurgan edim. (Bu haqda keyinroq bafurja to'xtala-

man.) Shoshib, katta xonaga qaradim. U taraflar tinchlik. Ajabo, bu tuproq endi qayerdan chiqdi ekan. Bu yalmog'iz tamoman uyimni qulatib tinchiydiganga o'xshardi. Shularni o'ylab tursam bog'hovlining qorovuli Boymurod aka kelib qoldilar.

— Anakka, — dedi u tuproq uyumiga ko'zi tushib, — uyingizga kalamushlarning poshshosi kirib qopti. Sizni ko'chiradiganga o'xshaydi. Qarang qilgan ishini.

Men beixtiyor burchak tarafga qarab hayron bo'lib qoldim. U yerda ikki chelak piyoz va yana shuncha kartoshka bor edi. Bir donasiyam qolmabdi. Qizarsin deb deraza tokchalariga terib qo'yilgan pomidorlar ham "tinhibdi".

Oldingi va hozirgi voqealarga endi tushuna boshlagan edim. Kalamush katta xonani kovlaganda mana shu narsalarni olib kirib, qishga g'amlashni o'ylagan-u, ulgurolmagan. Mana endi, dahlizdan yangi o'ra ochib o'z niyatiga yetibdi. Bu safar u yer tagiga o'choq ichidan yo'l topgan edi. Men qo'linga kosov olib g'ishtlarni asta-sekin ura boshladim. Oldingidek o'raga tushib ketishdan qo'rqdim. Uch-to'rt g'ishtning tagi gumburlab ovoz berdi. Demak, kalamush yasagan o'ra shu yerda. G'ishtlarni asta ko'chira boshladim. Birozdan so'ng ko'z oldimda shunday manzara paydo bo'ldiki, aqlim shoshib qoldi. Bu yer shunchaki o'raga o'xshamas edi. To'rt burchakli shinamgina uychaga o'xshardi. Ha, qizchalar xola-xolakam o'ynaydigan uycha! Uychaning bir burchagiga piyoz uyulgan, ikkinchi burchagida pomidor, yana bir burchagida kartoshka. O'rtaga kir qozonsochiq to'shab qo'yilgan edi. Qani endi bu manzarani suratga olsang? Hammasi batartib, faqat uy egasi kalamushxon ko'rinmasdilar.

Men asta piyoz va kartoshka, pomidorlarni terib oldim. Shunisi ajablanarliki, birortasi ham zaxa bo'lmagan edi. Bari bus-butun. Demak, kalamush ularni qo'llari bilan buyoqqa olib kirgan. Tishidan zaxm yetsa ular chirishi, uzoq saqlanmasligini biladi.

Kalamushning qilib qo‘ygan bu ishlaridan goh hayratga tushib, goh jahlim chiqib, yana ishni o‘rani shibbalashdan boshlayman. Men bu aqlli jonivorni o‘tgan safar yerga ko‘mib ketdim, deb o‘ylagan edim. Afsuski, yanglishgan ekanman. Mana hozir ham u hech yerda ko‘rinmadi. Mening kelishimni bilgan. Qayerdandir kuzatib turibdi.

Bunday qaraganda raqibimning ishlariga tan berganim bilan bari bir uning o‘ylagan ishi bo‘lmayotganligidan befarosat, degim kelardi. Axir uyning egasi keladi-ku, bu qilayotgan ishim befoyda-ku, deya olmas ekan-da bu jonivor.

Kalamush deganlari bu safar ham meni ko‘p xayollarga toldirdi va charchatdi. Yozda pol o‘rniga chiroyli qilib terilgan g‘ishtlarimning tartibi buzildi. Baland-past bo‘lib qoldi.

Shaharga qaytar ekanman, bu ko‘rinmas dushmanimdan qanday qilib qutulish yo‘lini izlay boshladim. Qiziq, ikki kecha tunagan bo‘lsam, tiq etib qo‘ymadiya. Qilib qo‘ygan ishidan xijolatdamikan? Yana bir shumlikni o‘ylab yotibdimikan?

Kalamushdan qutulishning birdan-bir chorasi uni zaharlash edi. Shahardagi dorixonalarining biridan dorisini topdim-da, bog‘hovliga yo‘l oldim. Bu safar ikkala xonaning ham tartibi buzilmay, o‘rni-o‘rnida turardi. Nahotki kalamushdan qutulgan bo‘lsam? Biroq suyunchim uzoqqa bormadi. Taxmon tarafga ko‘zim tushdi-yu, yana avvalgidek holni ko‘rdim. Bu yirtqich endi xuddi shunday ishni taxmonda amalga oshirgan, tuproqni sandiq yoniga uyib tashlagan edi. Kechga dovur kalamushning bu ishiga e‘tibor bermadim. Ko‘rsam ham ko‘rmaslikka oldim. Kechqurun ozgina piyozdog‘ qilib, doriga aralashtirdim-da, yelim xaltaga solib, tuproq uyumi yoniga qo‘ydim. “Ko‘p ishlab yubordingiz, tamaddi qilib oling”, dedim zaharxandalik bilan. Tun bo‘yi yelim xalta qitirlab chiqdi. Erta turib qarasam, kalamush o‘ziga qo‘yilgan luqmani to‘yganicha yegan-u, qolganini ham kovakka olib kirib ketmoqchi bo‘lgan.

Ammo olib kirolmagan, kuchi yetmagan. Zahar ta'sir qilgan. Yana bir kun taxmonning tagini shibbalash bilan ovora bo'ldim.

Osmondan tushgan Oqtosh

Oqtosh haqida yozish xayolimga ham kelmagan edi. Bog'hovlidagi Champo, kalamush fojialari bir-biriga ulanib ketib, beozorgina jonivor — Oqtoshniyam joniga jabr bo'ldi-yu qo'linga qalam olishga to'g'ri keldi. Keling, yaxshisi bunisiniyam bir boshdan boshlay qolay.

U paytda hali kulbam qurilmagan, Champo-yu kalamushlar bilan bog'liq hangomalar boshlanmagan. Bog'hovlini shoir Aziz Abdurazzoqdan sotib olgan kezlarim... "Sotib oldim" deyapman-u, ustozga xiyo-nat qilayotgandekman. "Yer sotilmaydi, ukam, u Allohning mulki", dedilar u kishi. Biz sotib olish deganda tomorqaning gir aylanasi-dagi sim devorlarni, kattagina so'ri, yomg'ir-sochinli kunlarda asqotadigan brizent chodir, ketmon, cho'kichlarni pulga chaqdik, xolos. "Bu joylarni obod qilishga kuchim yetmadi ukam, ko'taray desam ketmon mendan og'ir, yerning umrini o'tkazib, qarg'ishiga qolib yurmay", deb bog'hovli bilan xayrlashdilar Aziz aka. Shu bo'yi boshqa qaytib kelmadilar.

Shunday qilib, Yaratganning marhamati bilan qo'lga kirgan yangi joyni o'zimcha sarishtalagan, uni-buni nari-beri surgan bo'ldim. So'rini soyaroq deb, qari tutning tagiga oldim. Simto'rdan eshikcha yasab, qulflanadigan qildim, inson zoti borki, o'zi shunaqa: chekiga bir nima tushdimi, bas, qulf uradi, it bog'laydi, qorovul yollaydi. Aslida bog'da qo'lga ilinadigan narsaning o'zi yo'q. Yer o'zlashtirilmagan ham. Unda-bunda ekilgan nihollarni ham ajriq, chirmoviq o'rab yotibdi.

Navbatdagi shanbalardan birida borsam eshigim tagida bir notanish it yotibdi. U meni oldindan taniy-digandek sakrab turib, peshvoz chiqdi-da, har xil

qiliqlar qila boshladi. “Keldingmi, ja qopketding-ku”, degandek tumshug‘ini cho‘zib, o‘z tilida guvrandi. Qorovulning iti bo‘lsa kerak, Aziz akaga o‘xshatyaptimi, deb ko‘pam e‘tibor bermay ishga tushib ketdim. Vaqt g‘animat. Yuz chaqirim joyga kelib-ketishning o‘zi bo‘lmaydi. Yer demagan zarang. Baquvvat belkurak, ketmon, lom, cho‘kich, og‘irligi bir pud keladigan bosqon kerak. Bo‘lmasa, bir qarich joyni ham ochib bo‘lmaydi. Bundan tashqari ozroq sabr, fildek kuch kerak. Aziz akada hamma narsa bo‘lgan-u, o‘sha oxirgisi bo‘lmagan. Yerning tosh-metinligi yetmagandek ajriq ildizlari naq o‘qlog‘idek bo‘lib ketgan. Buyam kamdek, har qulochda bitta tosh, bitta xarsang chiqib turadi. Tosh bundog‘roq bo‘lsa, cho‘kich bilan osongina qo‘porib olaman. Katta bo‘lsami, atrofini aylantirib kovlash kerak. Ana undan keyin bir pudli bosqon ishga tushadi. Ajabo, ba‘zi toshlarda inson qo‘l izlarini ko‘rib qolaman. Qachonlardir bu toshlarga kimlardir ishlov berib, taroshlagan, yo‘ngan... Boshimni ko‘tarib, xayolga tolaman, bu joylar qanchalar qadim-a... deya uzoq-yaqinlarga tikilaman. Vah, yorug‘ olam bor ekan-u. Atrofimdagi go‘zallik meni o‘ziga rom qilib qo‘yadi. Hammayoq yam-yashil. Tog‘lar usti do‘lana, qizil olcha, yovvoyi olmalar bilan qoplangan — o‘rmonzor. Undan narida serviqor baland tog‘larning yalang‘och qovurg‘alari ko‘rinadi. Undan ham narida esa qorli cho‘qqilar... Ha, tog‘lar sobit, ularni Alloh yerga qoziq qilib qoqib qo‘ygan. Necha-necha asrlardan beri bu buyuk tog‘lar inson zotining g‘imir-g‘imirini hov o‘sha yuksakdan turib, jimgina kuzatadi.

Xayol yana ham nariga olib ketadi. Ajabo, qadimda sement, temir-beton degan narsalar bo‘lmagan. Shulersiz ham odamlar yashagan. Binolar poydevoriga jo‘ngina qilib, manovi toshlarni terishgan. Sinchli yoki paxsadan devor qilib, ustini yopishgan, vassalom. Mabodo imoratlari puturdan ketib, yangilash kerak bo‘lib qolsa, shundayla yiqitishgan-da, toshini yangi uyning poydevoriga, yog‘ochlarini kam-ko‘stiga

yaratishgan. Kim biladi, hozir men kovlab olayotgan toshlar ham ne qo'llardan o'tmagan, ne uylarga poydevor bo'lmagan. Men nechanchisidirman. Shunaqa, ota-bobolarimiz jo'ngina, soddagina uylar qurib ham yashab o'tishgan.

To'g'ri, zilzila, suv toshqinlaridan katta-katta shaharlar xarob bo'lib, odamlar yashab turgan joylarini tashlab, bo'lak manzillarga ketishgan. Shaharlar o'rni tepaliklarga aylanib, o't-o'lanlarga burkanib, avvalgi dovrug'idan nom-u nishon qolmagan. Bunga Afrosiyob, Choshtepa, Dalvarzintepa, Ellikqal'a, ko'hna Urganch va boshqa joylar misol bo'la oladi.

Qiziq, nimaga biz ajdodlarimizga o'xshab jo'ngina yashashni xohlamaymiz? Nimaga o'zimizga-o'zimiz yangidan-yangi tashvishlarni sotib olaveramiz. Qayerdan ham shu sement degan ofat o'ylab topildi ekan? Umrning yarmi uy qurish bilan o'tadi. Sement, g'isht, shifer, tunuka deb chopganimiz-chopgan.

Shunday deyman-u, bog'hovlining bir chekkasiga betondan poydevor qurishni o'ylayman. Keyin chiroyli beton yo'lakchalar. Axir qo'shnilarim shunaqa qilib qo'yishgan-da. Ulardan qolib, qayoqqayam borardim.

Shunaqa, biz odamlar o'zimizni deb yashamaymiz. Qo'shnilarim nima derkin, deb yashaymiz. Beton yo'lkalarni tugatib, beton hovuzlarga o'tamiz. Bo'lmasa, ikki qadam narida Chirchiq daryosi hayqirib oqib yotibdi. Undan teparoqda Chorvoq suv ombori. Yo'q, har birimizning o'z chirchig'imiz, o'z suv omborimiz bo'lishi kerak...

Xayol daryosida oqib, mazza qilib ishlayotuvdim, ko'z tegdi. Boyagi notanish it tuyqusdan akillab, o'ylarimni to'zg'itib yubordi.

Qarasam, qorovul. Ancha narida men tomonga kelolmay "ana xolos", degandek serrayib turibdi. It uni hadeganda bu yoqqa yo'latmoqchi emas. Bundan chiqdi it qorovulnikimas ekan-da. Unda kimniki bo'ladi? Ajabo, bu it nimaga mendan yotsiramadi? Aziz aka itimam bor deb qo'ymagan ekanlar-da.

Qo'limdagi belni yerga sanchib, intiq bo'lib turgan qorovul tomon yurarkanman, o'zimcha itga hukm o'tkazmoqchi bo'ldim:

— Jim bo'l-e...

Ajabo, itning chakagi o'chib, boshini eggancha nari ketdi. Boymurod aka bilan ko'rishib, hol-ahvol so'rashdik.

— Itingizniyam obkepsiz-da, — dedi u “yaxshi qipsiz” degandek iljayib. U kishining itga ishqivozligini bilardim. (O'zi bu hamma qorovullarga tekkan kasal bo'lsa kerak.)

— Ha, “Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga”, deganlaridek hali boshpanam yo'g'-u, itim-niyam obkeldim, — deya Boymurod akani ishlayotgan joyimga boshladim. Bilaman, u kishi odamga zor. Bizlarni u bir haftada bir ko'radi. Boshqa paytlarda huvillagan bog'hovlida bir o'zi qolib ketadi. Bola-chaqasi daryoning narigi yog'ida. Bechora gapini eshitadigan odam topsa bir xumordan chiqib oladi. Mana endi Boymurod aka gap beraveradi, men “innay kegin”, deb ishlayveraman. Boymurod akaning bir gap xaltasi ochilib ketsa bormi, to'xtatib bo'lmaydi. Qirq yil podachilik qilgan. Tog'ma-tog' yurib, umri o'tgan. Molni tuyog'ining iziga qarab yoshigacha, nechta tuqqanigacha, hatto, egasigacha aytib bera oladi. Yoppiray, bu karomat-ku, deymiz yoqa ushlab. Ba'zida podadan ajrab qolgan daydi sigirlar qo'radan hatlab o'tib, tomorqalarimizni payhon qilsa, kaltaklab ham haydab chiqarolmaymiz. Yo biz shaharliklar durustroq kaltaklashni bilmaymiz, yo sigirlar shaharlik deb nazar-pisand qilishmaydi. Shunaqangi surbetki... Bunday paytda Boymurod aka uzoqdan bo'lsayam hay-haylab qo'ysa bas, dumlarini xoda qilib qochib qolishadi. Ovoziyam miltiqning o'qidekda, o'zi!

Boymurod aka qazib chiqarilgan katta tosh ustiga cho'kib, o'ngi-tersi bilinmay ketgan do'ppisini tizzasiga qo'ndirib, yarim kal boshini ancha vaqt hafsala bilan silab o'tirdi. Men gapni nimadan chuvatsam ekan degan o'yda zarang yerga hali belkurak, hali lom

uraman. Peshanamdan marjon-marjon ter quyiladi. Shu payt Boymurod aka ming'irlab bir nima dedi. Ishdan to'xtab, u kishiga qaradim.

— Gapirdingizmi, Boymurod aka?

U kichkinagina chinoq qulog'iga ko'rsatkich bar-mog'ini tiqib, silkitar ekan huzurdan ko'zlari qisilib, dedi:

— Itingizni otini so'rayapman?

Ol-a, topgan gaplarini-chi? Shoshib qoldim. To'g'risini aytib qo'ya qolay dedim-u, qitmirligim tutdi. Xuddi "oting nimaydi" deb so'rasam aytib bera-digandek itni qidirib qoldim. Hozirgina shu yerda edi. Qayoqqa g'oyib bo'ldiykin?

— Itim ko'rinmaydimi?

— Ana, — dedi Boymurod aka qo'li bilan ishora qilib, — yotibdi-ku!

E, ha, yerdan chiqarib tashlagan oppoq toshlar-ning orasida yotganigami tusini darrovda ajratolmay qolibman. E'tibor qilmagan ekanman, itning rangi oppoq ekan. Dabdurustdan tilimga kelgan so'z shu bo'ldi:

— Oqtosh!

Ilonga "Champo" deb ot qo'yishim ham shunaqa dabdurustdan bo'lgan, tilimga kelib qolgan edi. Boymurod aka:

— Anak-ka-a-a, — deb do'ppisini boshiga qo'n-dirib, hayrat bilan o'rnidan turib ketdi. U kishi itimni endi ko'rayotgandek tikilganicha qoldi. Oftobda qoraygan, etsiz yuzlarida uqib bo'lmas bir ifoda bor edi. Mitti ko'zlari yiltillab, naq Oqtoshni teshvoray derdi. O'zimam hayron bo'lib itga qarab qolibman.

— Buni qarang-a, xa-xa... — dedi Boymurod aka shang'illab, — bu dunyoda oppoq itlaram bo'lar-kan-a? Bay-bay-bay, paxtadaqa oppog'-a, jonivor. Boya paqqos e'tibor qimappan. Qarang-a, otiam o'zi bilan ekan — Oqtosh! Ha, endi, o'qimishli odamsiz-da ming qilsayam, mulla.

Zil-zalvor lomni gursillatib yerga urar ekanman, kulgim qistaydi. Oppoq bo'lsa nima qipti? Oq it, qora

it bari bir it-da. Tavba, o'qimishlimish, itga nima aloqasi bor buning? Sodda odamlar-da. Bizni nuqul avliyo sanab, har ishimizdan bir hikmat qidirishadi. Bitta avliyo menmi? Birovning itini o'zimmiki deb, kap-katta odamni laqillatib o'tiribman. Oshqozonida kasali bo'lmaganida allaqachon otangiz yaxshi, onangiz yaxshi deb qo'lga lomni tutqazib qo'yardim. He, o'rgildim o'qimishli mug'ambirlardan. Yana bitta o'qimishlisi raisimiz Dadaxonmi? Uni qilgan ishini eshitgan odam uch kun yotib kuladi. Qarang Boymurod akani ishga solib, tomorqasiga tarvuz-qovun ektiribdi. Tog' joyda qovun-tarvuz bo'maydi desa, siz ekovrung, u yog'i bilan ishunguz bo'masun, deпти namanganchalab. Qovun-tarvuzlar palak otib, hosili mushtdek-mushtdek bo'lib, bez bo'lib turaveribdi.

Dadaxon urdu tilini bilgani uchunmi Pokiston-u Hindistondan Toshkentga mehmonlar kelib qolsa, tilmochlik qilib turadi. Ayniqsa, pokistonliklarga. Ora-chora Pokistongayam qadamranjida qilib turadi. U yoqda katta-katta davralarda bo'ladi. Villalarda ziyofat yeydi. U yoqlarda xizmatkorlar bisyor. Ayol xizmatkorlar ayollarning atrofida parvona, erkak xizmatkorlari erkak sohiblarning har bir ishorasiga zor. "Dadaxon sohib, sizda ham villa bordir", deb so'rab qolishadi ular gap orasida. Dadaxon sohib, albatta, Chorbog'dagi "villa"sini kiftini keltirib maqtaydi. O'zbekistonga kelib qolishsa, jon-jon deb villasiga olib borishga va'da beradi. Dadaxonning "villasi" rostdanam ajoyib. O'zimizning baxmaldek mayin bedalarimiz turganda, kirpining tikaniga o'xshash, mol yemaydigan ajnabiy o'tlar o'sadi. Sap-sariq bo'tana suvlarni buloq suvi deb toshlar orasidan shaldiratib oqizib qo'ygan. Ajnabiy mehmonlar oldida shavla ketsa ketsin, obro' ketmasin-da, a, labbay!

Bir kuni Dadaxon kechki payt shoshib kelib qoldi. Mashinaning orqa kapotini ochdi-da, katta-katta ikkita qovun bilan ikkita tarvuzni olib, Boymurod akaga tayinladi:

— Manovilarni oborib, qovunni qovun palagining

ichiga, tarvuzni tarvuz palagining ichiga qo'ying. Qarang, yana almashtirvormang-a...

— Anakka, xomini obsizmi, — deydi Boymurod aka qovun-tarvuzlarning dumiga e'tibor qilib.

— I-i-i, dumugo tegmong, dumugo, dumu ertaga ish beradi-ya. Shu dumliguni topaman dab, bozor aylanovrib, oyog'im qabardi.

Dadaxon iziga qaytar ekan, Boymurod akaga yana tayinladi:

— Ertaga pokistonluk mehmonlar keladi. Kelungiz bilan shatta bo'lung. Ha, bundoq tuzukroq kiyinub olunglar, hayitga kiyadiganlarudan bor-ku, o'shanaqasudan. Mehmonlarnu olduda uyalib qolmayn tag'un.

Ertasiga Dadaxon sohibning "villasiga" ikkita yengil mashinada mehmonlar keladi. Tog'larni, go'zal tabiatimizni ko'rib, bosh barmoqlarini ko'rsatib "voh" deb yuborishadi. Dadaxon oshga unnaydi. Chunki Pokistonda oshni o'z qo'lim bilan damlayman, xizmatkorlarimga ishonmayman, deb va'da berib qo'ygan-da. Boymurod aka yelkasiga sochiq tashlab, erkaklar qo'liga suv quygan. Kelini bo'lsa ayollar xizmatida. O'zbekchilik, mehmon kutishni o'rniga qo'yishni yaxshi bilishadi baraka topkur qaynota kelin. Mehmonlar "villa"dagi har bir ko'ringan narsani bilgilar keladi. Ularni Dadaxon sohibning qo'lbola "buloq" suvlari qiziqtirib qoladi.

— Dadaxon sohib, nimaga bu suv sap-sariq?

Bu paytda podadagi sigirlar ariqning boshiga suv ichgani tushishgan, tirroqlashib, suvni xo'p bulg'atishgan bo'ladi.

Dadaxon sohib bo'sh kelmaydilar:

— Bizzi tog'larumiz ma'danga juda boy, janoblar, Mendeleyev jadvalidagi hamma elementlar bor. Bu judayam shifobaxsh, tarkibida serovadarod-oltin-gugurti bor suv. Oshqozon, ichak kasalluklariga koni foyda. Teridagi toshmalarnuyam bir zumda yo'qotadu. Hov narida "Oqbuloq ota" degan bulog'imiz bor. Uni rangi sutdek oppoq. Tarkibida kumush modasi bor.

— Bu sariq suvingiz qanday ichiladi, Dadaxon sohib, — deya qiziqishlari tobora ortadi mehmonlarning.

— Oddiy suvni ichgandek ichilaveradu, janoblar.

— O‘zingiz ko‘rsatib bering, biz ichmoqchimiz, Dadaxon sohib, — deya shaylanib qolishadi mehmonlar.

— Kechirasuzlar, janoblar, meni oshqozonum soppa-sog‘-da, ichishga hecham ehtiyojim yo‘q.

— Shunday bo‘lsayam-da, bilasiz-ku, bizda mezbon boshlab bermasa mehmon tuz totmay o‘tirovradi.

— Bizdayam shunday, janoblar va xonumlar, odatlarumiz deyarli bir xil aslida.

Dadaxon noiloj sigirlar jo‘natgan sharbatdan hovuchida olib ichib ko‘rsatadi. Mehmonlar ham “tabar-ruk” suvdan ichishadi va zo‘r deya bosh chayqab qo‘yishadi. Buni kuzatib turgan Boymurod aka nimalar bo‘layotganiga tushunmay ko‘ngli aynib, nari ketadi.

Ana undan keyin antiqa, chinni laganlarga osh suziladi. Mehmonlar hayron, osh yesinlarmi yo lagan-ni tomosha qilsinlarmi? Bilishmaydiki, laganlar antik-var do‘konidan ijaraga olib kelingan. Bunaqasi villalik mehmonlardayam yo‘q.

Oshdan keyin navbat qovun-tarvuzlarga keladi.

— Obchiqing, — amr qiladi Dadaxon sohib Boymurod akaga.

Boymurod aka tomorqaga kirib, bittadan qovun bilan tarvuzni qo‘ltiq-lab chiqadi. Buni ko‘rgan kelinining aqli shoshib qoladi. Nahotki, qovun-tarvuzlar shunchalik bo‘lgan bo‘lsa-yu, bola-chaqamiz bilan ko‘rmagan bo‘lsak!

Mehmonlar qovun va tarvuzlarning bunaqa dodasini ko‘rishmagan ekanmi, hayratdan biri olib, biri qo‘yib ushlab ko‘rishadi. Dadaxon tantanavor bir harakat bilan, qovun bilan tarvuzning dumini uzib oladi-da, pichoq tortadi. Maqtab-maqtab yeyishadi.

Nihoyat, Dadaxon sohibning “villa”sidagi meh-

mondorchilik nihoyalaydi. Mehmonlar Dadaxon sohibning “xizmatkor”lariga minnatdorchiliklar bildirishib, xayrlasha boshlaydilar. Shunda Dadaxon sohib yana Boymurod akaga amr qiladi:

— Dehqonchulukdan obchiqung.

Dadaxon sohib qovun bilan tarvuzni mehmonlarning mashinasiga joylaydi. Ular shunaqangi suyunishadiki, go‘yo Dadaxon sohib ularga to‘n kiydirib, qo‘y yetaklatib yuborgandek...

Boymurod aka tushmagur ana shunaqa qip-qizil nayranglardanam bir hikmat qidiradi. Nimagaki biz o‘qimishli odamlarmiz. Qing‘ir ishlarimizam bu kishining ko‘ziga allambalo bo‘lib ko‘rinaveradi.

Shularni o‘ylab, odam degan shunchaligam sodda bo‘ladimi, deb Boymurod akaga qarayman. U kishining fikri-yodi itimda bo‘p qolgan. “Itim”ni sovg‘a qilvorsammikan, degan o‘y ko‘nglimdan kechadi.

— Itim sizga yoqib qoldi-a? — deyman kulib.

— Erkakmi, urg‘ochimi?

Qah-qah otib kulib yuboraman. Kasalni yashirsa, isitmasi oshkora qiladi, deganlari shu bo‘lsa kerak-da. “Itim”ning bunaqa tomonlariga e‘tibor qilmagan edim. Endi ochiqdan-ochiq shumlikka o‘tdim.

— Sigirlarni qanaqaligini tuyuq izidan bilaman deysiz, itniyam biling-da, — dedim sir boy bermay.

Boymurod aka hamon serrayganicha tik turar, Oqtoshga tikilib bir nimalarni xayol qilardi. U cho‘ntagidan qoq non chiqardi-da: “Ma, Oqtosh”, deb engashganicha yerga tashladi. Jonivor ochiqqan ekan, nonni u jag‘idan bu jag‘iga o‘tkazib, qitirlatdi-yu, yutib yubordi. “Yana bormi” degandek labini yalab, ko‘zlarini o‘ynatdi.

— Urg‘ochiyan, — dedi Boymurod aka. — Bilasiz, bu yerga qanaqasini obkelishniyam.

— Sizga ma‘qul bo‘lsa bo‘pti-da, Boymurod aka. Ana, qattiq non bilan bo‘lsayam do‘stlashib oldinglar.

— Yo‘q, — dedi Boymurod aka keskin bosh chayqab, — bu itingizga butun boshli qo‘y so‘yib bersa-

mam menga el bo'lmaydi. Bu itingiz uncha-muncha itlardanmas, — dedi Boymurod aka kutilmaganda.

— Gapingizga tushunolmadim, — deya navbatdagi toshni qo'porib, nari olib qo'ydim. Belim og'rib qaddimni bazo'r rosladim.

Boymurod aka bir xo'rsindi-da, ishimni zimdan kuzatgan bo'lib gapira ketdi:

— Sizga aytsam u paytlarda yurtning podasini boqardim. Odamlar elamaydi-yu, ammo podachilik og'ir ish. Issiqni — issiq, sovuqni — sovuq demaysanda. Jalalarda qolib ketasan. Qochadigan joy yo'q. Sovuqqa chalinib qolganman. O'pkamga o'tib ketgan. O'lar holatga kelganman. O'shanda it yog'i yedirishgan menga. Bu it o'shani bildi.

— Opqoching-a, hash-pash deguncha sizam duppa-durust yozuvchi bo'p qopsiz, Dadaxon sohibdan yuqibdi, — deyman huzur qilib kulib. — U kishidan uzoqroq yuring, bunaqada...

— Shu-da, ishonmaysiz, — astoydil xafa bo'lib, yuzini teskari burdi Boymurod aka.

— Itti yog'ini kecha yoki bugun yemagansiz-ku, axir.

— Ha, yo'-o'-o', qachonlar bup ketdi-yu. Unda Poti-Zuram yangi tug'ilgan, chaqaloq edi. Mana, yigirmaga kirishdi. Yigirma yil bo'p qoptiya, qarang, xuddi kechagidaqa. O'ladigan odam men yuribman hali, ikki o'rtada soppa-sog' yurgan xotinim o'lib ketdi. Rahmatlik yaxshi ayalidi.

Men bahaybatroq xarsang toshga duch kelib, hali-dan beri bir joyda depsinib yotardim. Peshanamdagi terni sidirib, Boymurod akaning gapini shunchaki safsataga yo'yib, gapni ataylab chuvatdim:

— Yigirma yil narida yegan it yog'ingizni shu it biladi deng? Qoyil, ayting-chi, shu itga qancha yosh berasiz?

— Ko'rinib turibdi, yoshigayam yetmagan, hali qochmagan shekilli-a? — talmovsiradi Boymurod aka.

— U tomonlarini qo'yaturing. Siz hozir bitta

savolimga javob bering. Bu it tug'ilmasidan oldingi yigirma yillik narsalarni qattan biladi-a?

— Biladi-da, mulla biladi. Xudo bildiradi. Ana, itingizni ko'ziga qarang. Qo'yib bersangiz xo'pam meni g'ajilasa. Siz bilan munday qaymoqlashib o'tirishimam unga yoqmayapti. Mayli, nima bo'lgan-dayam urg'ochi ekan, shunisi yaxshi.

— Urg'ochisi yaxshi deng, men bo'lsam itning erkagi yaxshi bo'ladi deb yurarkanman, — deya ish bilan kuymanaman. Boymurod aka "Xudo bildiradi" degandan keyin anovi gapni quvmay ko'nib qo'ya qoldim. Yarim beligacha ochilgan toshni bosqonlab uqalab olmoqchi bo'ldim.

— Nariroq o'tiring, tosh sachraydi, — dedim Boymurod akaga.

— Shoshmang, — dedi u o'rgatgan bo'lib, — bu toshni qandoq qilib maydalaysiz, axir, onasini qornida kuchga to'lib, semirib yotibdi-ku. Ozgina shabadalab, tanasiga oftob tegsin. Ana undan keyin salga o'zi uvalanib ketadi.

— Qoyil, — dedim, suhbatdoshimga tan berib, — tosham odamga o'xsharkan-da, tavba.

— Siz nima deb o'ylovdingiz?

Darvoqe, men nimayam deb o'ylashim mumkin? Suhbatimiz qovushmay qolgan edi. Biri tog'dan, biri bog'dan. Bu kishimning aql-hushini it olib qo'ygan. Odamam shunchalar itparast bo'ladimi? Boymurod aka itning yog'ini yeganman, shuni itingiz bilyapti deb o'zinikini ma'qullayapti. Men bo'lsam, ishonmayapman. Yana bu kishi itning urg'ochisi ma'qul deydi. Men erkagi deyman. Bir zamonlar Sharik degan urg'ochi itimiz bo'lardi. Yiliga uch martadan tug'armidi-ey. G'anijon amakim kuchukchalarning urg'ochisini ko'zi ochilmayoq chuqur qazib, ko'mib tashlardilar. Anchagacha kuchuklarning ingillashi eshitilib, ustilariga tortilgan tuproq ko'tarilib-tushib turardi. Qaniydi Sharik boshqa tug'masa-yu, bu dahshatli, ko'ngilsiz manzarani boshqa ko'rmasam derdim. Qayda, bolasini ko'mib tashlashsayam

tug'averardi. Yana erkagidan urg'ochisi ko'p bo'lardi. Urg'ochi it yaxshi emas degan fikr o'shanda kallamga o'rnashib qolgan. Axir yaxshi bo'lsa tiriklayin ko'milarmidi? Nahotki, Boymurod akaning poda boqqandagi barcha bo'ribosarlari urg'ochi bo'lgan?!

— Hov birda aytib bergan bo'ribosaringiz ham urg'ochimidi? — so'radim u kishidan.

— Oling-a, hech mahal urg'ochi it bo'ri bosarkanmi? — kuldi Boymurod aka bepisand. — Xo'p gapirasiz-da.... U kishi qo'lini yelkasiga o'tkazib, erinmay, rohatlanib qashindi. Bundan xijolat tortdimi, o'zini oqlab dedi:

— Podachilik qilib yurgan paytlarim yelkammi so'na chaqqanidi-da, qiztaloqni tuxumi qop ketganmi, turib-turib yomonam qichishib beradi.

— Urg'ochi it bo'ri bosolmasa, nimaga uni yaxshi deyapsiz, — mavzuga buraman suhbatdoshimni.

— Urg'ochi it poyloqchilikka yaxshi-da. Mana siz itingizni tashlab keting. Shattan bir qaricham nari ketmaydi. Urg'ochi it ayal kishiga o'xshab uyparast bo'ladi.

— Ochidan tirishib qolmaydimi? Uyparastligi yaxshi ekan.

— Be, nasibasini siz bilan mendan yaxshi topib yeydi. Sichqon-u kalamushlar to'lib yotibdi. Erkak it turmaydi, sang'ib ketib qoladi. O'zimizam shunaqamiz-ku, besabrmiz, — qiqirlab kuldi Boymurod aka.

— Mollarni yaxshi bilasiz desam, itlarniyam bilarkansiz, — deya nihoyat u kishiga yon berdim.

— Tavba-a! — deydi Boymurod aka yana nima dandir hayratga tushib. Ha, yana nima bo'ldi, degan-dek unga qaradim. — Itingizning dumini kesibsiz-u, qulog'ini kesmabsiz-da?

Qarasam, chindanam Oqtoshning dumi cho'ltoq ekan. Payqamaganimni-chi? Ammo o'zimni oqlashga harakat qildim.

— Ha endi qulog'i kesilsa, ziyrakligi qatta qoladi?

— Dumi-chi, dumi? — birdan qizishadi Boymurod aka, — dumi kerakmasmi?

— Ha, endi, — deya chaynaldim, — dumning oʻrni quloqchalikmas-da!

— Bekor aytibsiz, dumli it chopagʻon boʻladi. Dumsiz it ovga yaramaydi. Keyin bilsayz, itlar burgasini dumi bilan qoʻriydi. Dumsiz itlar erta kunda bit bosib, oʻlib ketadi. Burgasi talab tashlaydi. Bilmapsiz, dummi ishi koʻp... Xudo bularga bekorga dum bermagan.

— Sigirlar dumi bilan pashsha qoʻrishini bilardim. Itlar ham qoʻrir ekan-da? — dedim choʻkka tushib ajriq ildizlarini bittalab terar ekanman. Bu laʼnati ajriqning tirnoqchasini ham qoldirmay kuydirish kerak. Buyam urgʻochi itdek ana-mana deguncha koʻpayib ketarkan. Joniyam itning jonidek qattiq. Toshlarini yorib chiqqandan keyin... Shunday qilib mavzuni oʻzgartirmoqchi boʻldim.

— It zoti hech qachon dumi bilan burgasini qoʻri olmaydi. Qanday qilib qoʻrisin? — deydi Boymurod aka ezmalanib.

— Qoʻying, bas qilaylik. Itdan boshqa gap yoʻqmi?

— Bilmasakansiz!

— Nimani?

— Qoʻrishini-da.

— Ey, menga bari bir...

— Mana bunday, mulla. Kun qizigan paytda burgalar ja gʻimirlab qolishadi. Gʻimirlashi bilan it oqar suvning boʻyiga boradi-da, asta-sekin suvga tusha boshlaydi. Burgalar suvdan qoʻrqib, chovlari orasidan tepaga qarab oʻrmalab qoladi. Shundan keyin it tumshugʻini koʻtarib, yelkasini suvga botiradi...

Boymurod aka xuddi itga oʻxshab, emaklab koʻrsata boshladi, men esa angrayganimcha qotdim.

— Shundan keyin burgalar dum tomonga qarab qochishadi, — deya engashgan koʻyi doʻmpayib turgan orqasiga qayrilib qarab qoʻydi Boymurod aka. Men oʻxshamagan bu ahvolni chetdan birov kuzatmayaptimi degan xavotirda u yoq-bu yoqqa qarab

qo'ydim. Boymurod aka esa beparvo davom etadi: — Itni fikri-yodi burgani dumga qarab haydash. Ana endi it dumini xoda qilib, butun boshli gavdasini suvga botira boshlaydi. O'hho'...G'aflatda qolgan burgalar suvdan qochib dumning uchiga to'p bo'lishadi. Ana shundan keyin jonivor dumini lip etib, suvning ichiga tortib oladi. Burgalar g'aflatda qoladi-yu suvda oqadi-ketadi. Endi bildingizmi, mulla?

— Bildim, bildim, o'ringizdan turing, — dedim shoshib, — juda o'xshatdingiz, xuddi o'zi bo'p ketdingiz. Ja-a zo'rakan, bunaqasini hech qayerda ko'rmagan edim.

— Shunaqa, — deydi Boymurod aka tizzalarini qoqib o'rnidan turar ekan. — Xudo hamma narsani bekamu ko'st yaratib qo'yibdi. Shuningchun odamlar bo'lar-bo'lmasga Xudoning ishiga aralashavurmagani ma'qul.

Men hayron qolganim sari Boymurod akaning gap qopi ochilib borar edi.

— Sizga aytsam, mulla, anovi pul tikib urishtiriladigan itlar bor-ku, aslida o'shalarning dumi bilan qulog'i kesiladi. Siz bo'lsangiz urg'ochi itning dumini kesib yuribsiz. Shunchaki oliftagarchilikka kesgansiz-da-a?

— Kechirasiz, — dedim gapini og'zidan olib, — dumini kesgandan keyin urg'ochiligini bilib qoldim. Ha, sir boy berish yo'q bu kishiga.

— Voh-h-h... dumini kesgandan keyin bildim deng, — qotib-qotib kuldi Boymurod aka. — Shunaqasiyam bo'lib turadi, odam shoshadi-da.

Boymurod akaga qo'shilib o'zimam kula boshladim. Xo'p hangoma bo'ldimi. Hozir boshimga nimaiki balo yog'ilayotgan bo'lsa, bari tilimdan edi. Axir, nimaga birovning itini meniki deb turibman? Hay, mayli, bir yomonning bir yaxshisi. It haqida uncha-muncha bilmaganlarimni bilib oldim. Lekin bitta gap sal o'rniga tushmay turardi. Uniyam bila qolay deb Boymurod akadan so'radim:

— Shu deyman itlarning qulog'i bilan dumini

kesmasa, urushqoq bo‘maydimi, bunga nima deysiz?

— Bo‘ladi, shundog‘am bo‘ladiki...

— Unda nima zaril dumi bilan qulog‘ini kesib?

— Itning ikkita jon joyi bo‘ladi, mulla, — dedi suhbatdoshim oxiri bu haqda hech narsa bilmasligim-ga ishonch hosil qilib, — biri qulog‘i bo‘lsa, yana biri dumi. It qurmagurlar urushganda o‘sha joyning payidan bo‘lishadi. Buni itvozlar bilmaydi deysizmi, ja biladi-da.

— E, yashang, rosa akademik ekansiz-ku, oldingizga tushadigani yo‘q ekan bu sohada, — deb u kishiga yaqin bordim-da, qoyil qolganimni bildirib, yelkasiga qoqib qo‘ydim. Uning xursandligini ko‘rsangiz...

Oq kiyimli shayx

Boymurod aka “endi bo‘ldi”, deb o‘tirgan joyidan qo‘zg‘aldi. Boshqa kelganlarniyam ziyorat qilib, horma-bor bo‘l, qilish kerak. Men hozirgi suhbat ta‘siridan chiqolmay, qilgan ishimga nazar soldim. Chakkimas, gapga alahsib bo‘lsa ham ikki bo‘yracha yerni ochib qo‘yibman. Boymurod aka ketar jafosiga cho‘ntagidan qoq non chiqarib, Oqtoshga tashladi. Oqtosh nasibani u lunjidan bu lunjiga o‘tkazdi-yu, Boymurod akaning orqasidan akillab chopdi. U kishi “aytmadimmi, bu it bari bir menga el bo‘lmaydi”, degandek menga qarab, kesak olish uchun yerga engashdi.

— Oqtosh! — deb baqirdim. — He, esi yo‘q!

Oqtosh bo‘ynini qisib yonimga qaytdi. Ko‘nglimdan “Nahotki, Boymurod aka haq?!” degan o‘y kechdi-yu, judayam hayron qoldim. Shu daqiqadan Oqtoshga chin egalik mehri uyg‘ondi. Oqtosh endi mening itim, uning otiniam o‘zim qo‘yib oldim.

O‘sha zahoti Oqtoshni o‘zim uchun olib kelgan nasiba bilan siyladim. Teshik bo‘lsa-da, chog‘roqqina tog‘oracha topdim. Pilik o‘tkazib, teshigini yamadim. Mana endi ovqatlanadigan yalog‘iyam bor. Bitta

uycha yasasam bo'ldi. Buniyam yo'li topildi. Yerdan qazib chiqargan toshlardan qo'rg'oncha qildim-da, ustiga shox-shabba tashlab qo'ydim. Hozircha bo'ladi. Qishgacha bir gap bo'lar.

Tushdan keyin mendan ikki tomorqa yuqorida turadigan va allaqachonoq uy qurib olgan shoir Yo'ldosh Eshbek kelib qoldi. U shaharda galstuk taqib juda po'rim bo'lib yuradi-yu, bu yerga kelishi bilan shayx bo'lib oladi. Oq ko'ylak, oq ishton, oq do'ppi. Oq kiyimning bitta siri bor. Pakana odamni uzun qilib, uzun odamni yanayam alpqomat qilib yuboradi. Yo'ldosh Eshbek alplar toifasiga kiradi. Oq ko'ylak-ishtonning yana bir siri mana bunday qora ishlarga odamni tepadan qaraydigan qilib qo'yadi. Ha, savlat to'kib u yoqdan-bu yoqqa yurishdan boshqaga yaramay qoladi. Axir oppoq ko'ylak-ishton bilan terga botib yer ochib bo'ladimi? Yo'ldosh Eshbekning uyi katta yo'lning shundoq bo'yida. Shayxga o'tganam ikki bukilib salom beradi, ketganam. Kiyimiga salom beryaptimi, o'zigami — buning ahamiyati yo'q. U o'zi ekan nihollarning tepasiga borib, soatlab turishi mumkin. Ko'rgan odam daraxtga dam solyapti deb o'ylaydi. Unday emas, shayxning ko'zida shunday bir g'alati quvvat borki, tikilgan narsasini ko'kartiradi. Quritadigan ko'zdan xudo asrasin. Shungami uning bog'ida o't-o'lanlar shu qadar o'sadiki, o'rmon bo'lib ketadi. Buni qarang, qay kuni uyida tuvakka bitta pomidor urug'ini tashlab ko'z nuri bilan tajriba o'tkazibdi. Tuproqdan endigina bosh ko'targan niholcha bir kunda shoxlabdi, ertasiga gullab, uchinchi kuni hosil tugibdi. Keyin bola-chaqasi bilan shakarob qilib yeyishibdi. Xullas, Yo'ldosh Eshbekning omadi kelgan. Ekstrosensligiyam bor. Boshqa sayyoralardan kelayotganlar bilan aloqa o'rnata oladi. Bir marta jurnalistlarni shu yerga yig'ib, kelgindilar bilan uchrashuv o'tkazmoqchi bo'ldi. Jurnalistlar, reportyorlar, operatorlar kelishdi. Faqat kelgindilar kelishmadi. Ma'lum bo'lishicha, zarur ishlari chiqib qolganmish.

Yoʻldosh Eshbek men taraflarga umuman oʻtmas edi. Toʻgʻri qiladi, qora terga botib ishlayotganlar oldida nima bor, kayfiyatni buzib. Bu yerga dam olgani kelish kerak odam bolasi. Ha, oʻpkani mana bunday toʻldirib-toʻldirib nafas olganga nima yetsin. Havosi toza boʻlsa! Yoʻldosh Eshbek ana shunaqa oʻylaydi va bunga qattiq amal qiladi.

Nima qilaylikki, bizning koʻzimizda pomidor pishirib, daraxtlarni oʻstirib yuboradigan qudrat yoʻq. Quldek ishlaymiz-da.

Yoʻldosh Eshbek qoʻlini orqasiga qilib, yelkasi bilan yurib viqor bilan salom-alik qilib, ochgan qoʻrigʻimni tepkilab, “shamollatish” uchun qoldirgan xarsang ustidan joy topdi. Elektr poyezdda birga kelgan edik. Vagondayoq menga bir nima demoqchi boʻluvdi-yu, chalgʻib gapi ogʻzida qolib edi. Jiddiyroq gapi boʻlsa kerak-da. Qimmatli vaqtini ayamay keptiku. Bir hisobda yaxshi boʻldi. Boymurod akaga oʻxshab bu kishimam gap berib oʻtirsalar bas, ishim yanayam siljib qoladi.

Aytganimdek, Yoʻldosh Eshbekning keti toshga tegmay, gapni kelgan joyidan boshlab yubordi:

— Oʻsha kuni deng, aka, Xudo bir saqladi-da. Oʻlay agar, yolgʻon gapirsam, yigit yoshidaman, sal sizdan istihola qildim, boʻlmasa... Bir hisobda keb qolganingiz durust boʻldi, — deya bundan bir hafta oldingi mashmashani eslatdi.

Biz har doim poyezddan tushgandan keyin bogʻ-hovligacha anchagina yoʻlni poyi-piyoda bosib oʻtamiz. Yoʻldosh Eshbek jiyani shoir Rauf Subhon bilan tezlab, bizdan oʻtib ketishib edi. Biz “Chinor” choyxonasiga yetay deganimizda katta koʻchada birdan olatasir boʻlib qoldi. Qulogʻimga Yoʻldosh Eshbekning hayqirigʻi eshitildi:

— Hov mishiqlar, qoʻylaring uni, zoʻring boʻlsang bu yoqqa ke!

Tezlab borsam, mast bolalar Rauf Subhonga tirkʻalib turishibdi.

— Rauf o‘zingni bos, — derdi Yo‘ldosh Eshbek, — qo‘l ko‘tarma, bilasan senga mumkinmas.

Mishiqilarning bittasi birdan Yo‘ldosh Eshbekka tashlanib qoldi. Yo‘ldosh Eshbek uni o‘ziga yaqinlashtirmayoq bir qo‘li bilan yoqasidan tutdi. “Ya-a-a-a” deb mushtini mishiqining iyagiga tirab, shunday ko‘tardiki, naq esxonam chiqib ketdi. Axir bitta odamni bitta qo‘lda azot ko‘tarishni o‘zi bo‘ladimi?! Birdan Yo‘ldosh Eshbekning ko‘zi menga tushdi-yu, mishiqini qayerdandir kelib to‘xtagan yengil mashinaning kapotiga tashlab yubordi. Hammayoq taraq-turuq bo‘lib ketdi. Qarasam, janjal kattalashadigan. Mast bolalarni yalinib-yolvorib chetga tortdim.

— Qo‘yinglar, ukalar, yaxshimas, bir joyda turib... ertaga ko‘z-ko‘zga tushsa... axir biz yozuvchilarmiz-ku, dachaga dam olgani kelyapmiz...

— Yozuvchi! — deya bittasi chayqalib, xayriyat hushyor tortdi, — siz, siz... kimmm...siz?..

— Erkin Malikman... qo‘ya qol uka... Xo‘p de...

— A-a-a-a, — dedi u meni quchoqlab “Shaytanat”, “Shaytanat”! Gap yo‘q, gap yo‘q, zo‘r, zo‘r... Hov, hov deya, — deya sheriklarini o‘ziga qaratdi u, — qo‘ylaring, bular o‘zimizdan, — “Shaytanat” deya menga osilgancha yuzlarimdan o‘pdi. — Asadbekka salom... Bizning apoq-chapoq bo‘lib turganimizni ko‘rgan sheriklari birdan bo‘shashdi.

Bezorilar meni Tohir Malik deb o‘yladi shekilli. Lekin nimagadir shu ondayoq ko‘nglimda ularga nisbatan zig‘irchayam gidr qolmadi. Kitob o‘qisharkanda axir...

Men hozir Yo‘ldosh Eshbekning o‘sha paytdagi holatini yana bir marta ko‘z oldimga keltirdim-u, bosh chayqab, unga dedim:

— Jahl chiqqanda odam kuchga to‘lib ketarkanmi, a, Yo‘ldosh Eshbek? Oltmish kilocha boridiyov o‘sha bola?

Yo‘ldosh Eshbekning ko‘zlari kattarib, vujudi shijoatga to‘lib ketdi:

— Menga bari bir edi o‘shanda, aka, oltmishmi,

yetmishmi, yuzmi... Zang'arni shu turishda Chir-chiqqa qarab otvormoqchi bo'lib turuvdim. Sizga ko'zim tushgandan keyin... bir o'limdan qoldi bechora. Bo'lmasa, siz Yo'ldosh Eshbek deganlari g'irt jal-lod ekan-ku, nima qilib shoir bo'lib yuribdi, deyishin-giz mumkin edida-a, aka?

— O'zi, shu... — deyman Yo'ldoshning so'zlaridan zavqim toshib, — sichqonning o'lgisi kelsa, mushuk bilan o'ynashadi deganlari rost ekan.

— Xalq dono-da, aka... — entikib qo'ydi Yo'ldosh Eshbek.

— Bo'lmasa kelib-kelib, kimsan Rauf Subhon-u, sizdek odamga tirg'alishadimi u mishiqlar. Rauf Subhon kimsan qora belbog'li karatechi bo'lsa. Qo'yib bersa unaqalarning mingtasini urar. Nima dedingiz?

— Uradi, urgandayam shunaqangi uradiki, — dedi Yo'ldosh Eshbek keng yelkasiga yarashgan dumaloq boshini likillatib, — Rauf mening ham jiyanim, ham shogirdim. Sabrli bola, uncha-munchaga qo'l ko'tar-maydi. Ammo-lekin o'sha kuni bezorilarni vaqtida o'zimga qaratib oldim-da...

— Shunday, shunday. Lekin ulardan bittasi "Shay-tanat"ni o'qigan ekan, bezori bo'lsayam mehrim tovlanib ketdi. — Ularni insofga keltirgan narsa "Shaytanat" ekanligini negadir Yo'ldosh Eshbekka aytib o'tirmadim.

Yo'ldosh Eshbek boshidan jazirama oftob urib tur-sayam, ancha gap berib o'tirdi. Ovozi o'qdek, quloq-ni teshay deydi. Yo'ldosh Eshbek gapirsa karnayning keragi yo'q. Ba'zan o'zining bo'lar-bo'lmas kuzatish-lari bilan qo'l olishib ketay deb kelgan odamni xit qilib yuboradi. Toqati toq bo'lgan suhbatdoshi "Bo'pti, Yo'ldosh Eshbek, men shoshib turuvdim, keyinroq bafurja-a, gaplasharmiz?", deydi ming mulohaza bilan. Yo'ldosh Eshbek bo'lsa o'sha-o'sha beparvo. "Ha... Siz borovring, borovring, yo'lingizdan qolmang, men gaprovraman", deydi. Uning bundayin gaplaridan ko'pchilik hayron bo'lib, tomi joyidami deb qo'yishadi. Bilishmaydiki, Yo'ldosh Eshbekni

to'rt tomonida to'rtta muakillari bor. U gapirganda muakillariniyam e'tiboridan qochirmaydi. Suhbatdoshi zerikishi mumkin, ammo muakillari zerikishmaydi. Ro'parasida qo'l qovushtirib "shunday deng, taqsim", deb turaverishadi. Buni ba'zilar bilishmaydi, eng yomoni bilishniyam istashmaydi.

Mening halidan beri jonimni qiynab ishlayotganimga Yo'ldosh Eshbek endi e'tibor qildimi, jimib qoldi. Uniyam g'ayrati qo'zidimi, har tugul "men boray" deb o'rnidan turdi, xayrlashib, orqa-oldiga qaramay uppa-uzun bo'lib keta boshladi. Shu payt hayratdan hang-mang bo'lib qoldim. Oqtosh Yo'ldosh Eshbekka kelgandayam, ketgandayam Boymurod akaga tashlanganidek tashlanmadi-da. Nomiga bo'lsayam "ak..." deb qo'ymadi. Yo oppoq kiyimdaligini ko'rib "o'zimizdan ekan" deb o'yladimikin? Yo tanirmikin? Yo'ldosh Eshbekni orqasidan to'xtatib: "Mabodo manovi it sizdanmasmi", deb so'radim. Uyam bolaxonador qilib: "Bizdanmas, o'limdan xabarim bor-u aka, itdan xabarim yo'q", dedi. Bundan chiqdi Yo'ldosh Eshbek it yog'i yalamagan, it go'shti yemagan. Agarda shunday bo'lganda Oqtosh uni tinch qo'ymasdi. Tavba, qanday qilib bilishi mumkin-a? Ko'ziga ko'rinarmikin?

Xullas, bu Oqtosh deganlari yerdan chiqdimi, osmondan tushdimi, ishqilib men uchun bir jumboq bo'ldi. Hoynahoy bu it nima bo'lgandayam yaxshi bir odamning tarbiyasini olgan ko'rinadi. Egasi bilan sayr-u sayohatga chiqqan-u, adashib qolgan, bechora. Balki uni ataylab adashtirib ketishgandir. Shaharda nima ko'p — buzilayotgan uylar ko'p.

Tungi tashvishlar

Darhaqiqat, Oqtosh tarbiya ko'rgan it chiqib qoldi. Itlarga o'xshab suqatoymas. Bo'lar-bo'lmasga akkilab, asabni buzmaydi. Ertalab Boymurod akaga bir jag' urdi-yu, shundan keyin miq etmadi. Kechga dovur u yoq-bu yoqqa ham ketib qolmadi.

Tomorqadan nariga chiqmadi. Ko'z oldimda iskanib, nari borib, beri kelib yuraverdi. To'g'ri, u bilan osh-ovqatni bo'lashishga to'g'ri keldi. Endigi kelganimda Oqtoshniyam g'amini yeb kelishim kerak. Suyak-sayoqlar itning joni. Biz ularni axlatga tashlab yuboramiz. Bog'imdagi yaxshi tashvishlar yoniga yana bittasi qo'shilgan edi...

Bugun kun kech bo'lganiniyam sezmay qoldim. Quyosh tog' orqasiga o'tib dara ichini ko'lanka qoplay boshlabdi. Qibla tarafdin muzdekkina shamol qo'zg'olgan edi. Kun bo'yi terlab-pishib ishlaganim uchunmi, yotib dam olishni o'ylab, huzurlanib ketdim. Allohim qanchalar mehribon. Qur'oni karimda "Va uyqilaringizni rohat qilib qo'ydik", deydi. Bu yerda chalg'iydigan na televizor, na radio bor. Mazzaning mazzasi...

Qorong'i tushmasdan so'ri ustiga chodir tikdim. Uning ichiga buklama karavotni yoydim. Kulgili-a, karavot ustida karavot! Ko'rpa-to'shaklarni to'shab, ichiga kirishga tayyor qilib qo'ydim. Uyi yo'qning chirog'i yo'q deganlaridek, bu tomonlarga hali sim tortilmagan.

Shu payt miyamda nimadir yarq etib ketdi. Otabobolarimiz mana, nimaga sog'lom bo'lishgan. Yorug'ning ishlarini yorug'da bitirib, kech kirishi bilan uxlashgan. Erta yotib, erta turishgan. Kun chiqib yoyilguncha g'aflat bosib yotishmagan. Biz-chi, ishdan horib-charchab kelamiz, televizorga tikilgancha ovqatlanamiz. Taomni qoringa yedikmi, televizorning ichigami — farqi yo'q. Nimagadir bunaqa paytda hamma kanallarda ur-yiqit, o'ldim-kuydim seriallar boshlanadi. Naridan beri ovqatlanib, butun borlig'imizni televizorga topshiramiz. Go'yo buni dam olish deb o'zimizga-o'zimiz taskin beramiz. Axir ko'z ham dam olishi kerak-ku. Yurak-chi, yurak? Kinolarning turgan-bitgani yurak o'ynog'i bo'lsa! Kimdir odamlarga kishi bilmas, asal deb zahar yalatayotganga o'xshaydi. Yana gap-gashtaklarda nimagadir buyuk allomalar tug'ilmayapti-ya, deb zorlanib ham qo'yamiz.

Shunaqa gaplar... Toqqa chiqib olgandan keyin pastga qarash oson... Dastlab bu yerda ham uyqimni topolmay yurdim. Ko'rpaga kirib, chodirning bir chekkasini ochib, osmonga tikilaman. Yulduzlar katta-katta. Xuddi bir terak bo'yi tepada turganga o'xshaydi. Shaharda ko'zingni yirib-yirtib ham bu yulduzlarni ko'rolmaysan. Minglab mashinalarning dud-bo'ronlaridan chiqqan gazlardan to'lin oy ham kasalmand ko'rinadi. Qarab ko'zing yayramaydi. Bu yerda-chi, oymoma naq oppoq paxta. Ichidagi obkash ko'targan odam bo'lsa, jon bitib, mana, mana chiqib keladigandek. Yana yulduzlar orasida bir yulduzning sirg'alib borayotganini ko'rib qolaman. U yulduzmas, sun'iy yo'ldosh...

Bolaligimda kechalari berkinmashoq o'ynab yuranimizda, uchar yulduzlarni ko'p ko'rardim. "Yulduzlar, hay yulduzlar, bolalar qayga bekindi, aytinglar", derdik. Birdan yulduz uchib, bir tomonni ko'rsatardi. Biz o'sha yoqqa yugurib ketardik, berkinganlarni topib ham olardik. Opoqbuvim yulduz uchishini mana bunday deb ta'riflab bergan edilar: "Shayton osmonning qorniga qulog'ini qo'yi-ib, farishtalardan gap o'g'irlamoqchi bo'ladi, yulduzlar toshga aylanadi-da, ha, bachchag'ar, ket deb uni quvib soladi". Hozir shayton gap o'g'irlashni bas qilganmi yo unga otiladigan toshlar tugaganmi, ishqilib yulduz uchishini tog'dayam kam kuzataman.

Bugungi tun juda besaranjom bo'ldi. Yarim kechadayoq qandaydir shovqindan uyg'onib ketdim. It akilardi. Tog'da kechalari havo yanayam tiniqlashadi, maysalar-u dov-daraxtlar shudringda cho'milib, olam shaffoflashadi. Tiq etgan ovoz aks-sado beradi. Itni tanidim, Oqtosh! Yana u shu atrofda emas, bog'hovlining qaysidir burchagida akkillayapti. Ovozi qurg'ur qo'ng'iroqqa o'xshaydi.

Uyqim o'chib ketdi. Tavba, kun bo'yi atrofimdan nari ketmadi. Endi yarim kechada u yoqlarda nima qilib izg'ib yuribdikin? Ha, birorta sigir podadan adashib qolib ketgan bo'lsa kerak. It itligini qiladi-

da. Boshimni ko'rpaga burkayman. Ammo Oqtoshning ovozi tobora asabga tega boshlaydi...

Nimanidir tiriqtirib quvdimi, shamol ovozini boshqa yoqqa olib ketdi. Xayriyat-e! Ammo bu jimlik uzoqqa bormadi. Yana akkillay boshladi. Obbo! Sabr kosam toshdi. Kechasi uxlamaydigan odati bor ekan-ku bu itni. Shahardan bir kun bo'lsayam tinchgina uxlay deb chiqqan edim. Qorovulning iti xo'p zo'r it ekan-da. Na kunduzi, na kechasi xo'ja ko'rsingayam "ak" deb qo'ymaydi jonivor. Tepaning tagida miq etmay yotgani-yotgan. Odatda, bitta it akillasa, boshqasi unga jo'r bo'lguchi edi. Qulog'i karmikan-a? Oqtoshga qo'shilib nomiga bo'lsayam akkillab qo'ymasdi u.

Oxiri toqatim toq bo'ldi. Yotolmadim. Nima qil-sam ekan-a? Oy tog' orqasiga o'tib ketgan. Osmon to'la yulduz biri olib, biri qo'yib yaraqlashadi. Oqtoshning ovozi naq osmon gumbaziga urilib qay-tayotgandek.

Bir ko'nglim Oqtoshlab chaqiray dedim. Yarim kechada-ya? Shundog'am namozga azon chaqirsam ba'zilar yoqmayman-ku. Fikrimdan qaytdim. Ovoz bersam, qo'shnilar it meniki ekanini bilib qolishadi. Qayerdanam og'rimagan boshimga Oqtoshni orttirib oldim?!

Yodimga bolaligim tushdi. Karim aka deganlari bo'lardi. Kolxozning poliziga qorovullik qilardi. Iti zanjirini uzib ketsa: "Kampirlarga turshak, itlarga hushtak" derdi-da, chiyillatib bitta hushtak chalardi. Hushtagi tugamasdan iti oldida paydo bo'lib qolardi. Meniyam shundan bo'lak ilojim qolmadi. "Kampirlarga turshak, itlarga hushtak" dedim-da, hushtak chalvordim. Tavakkalda. Voy bo'-o'... O'zimning hushtagimdan o'zim qo'rqib ketdim. Xuddi osmondan bomba tushib kelayotgandek chiyillab ketdi-da, o'ziyam.

Poliz qorovuli Karim aka baloni bilar ekan. Hushtak ish berdi. Oqtoshning uni o'chib, saldayoq shatir-shutir qilib yetib keldi. Hushtagimni taniganini

ayting. Bo'lmasa, yaqin yigirma-o'ttiz yil orasida hushtak chalganimni eslolmayman. Buning ustiga Oqtosh hushtagimga o'rganmagan. Bu it meni savdoyi qilib qo'ymasa edi.

— Bor, kir uyingga, yot! — dedim jahl bilan. Keyin chiqib ketmasin deb omonat eshikni yopib qo'ydim. Olam tinchidi-qoldi. Lekin qani endi uyqu kelsa...

Jinlar

Sal ko'zim ilingan ekan. Yana itning akillashidan uyg'onib ketdim. Tong yorishib borardi. Sal bo'lmasa, bomdodni qazo qilar ekanman. So'ridan shoshib tushsam, sim devorning narigi yog'ida shipdek bo'lib Boymurod aka turibdi. Sim devorning bu yog'ida Oqtosh. Naq "bu yoqqa kirsang g'ajiyman" deb irilaydi. Men Boymurod akaga namozimni o'qib olay ishorasini qildim. U kishi tushunib, nari ketdi. Oqtosh tinchidi.

Bomdodni o'qib bo'lganimdan keyin saldayoq kunbotar tarafdagi cho'qqilarning uchi olovlandi. Bu yerda men quyoshning chiqayotganini yoki botayotganini qarama-qarshi tomondagi tog'larning cho'qqilaridan bilib olaman. Bo'lmasa, ikki tog' oralig'ida bomdodni boy berib, shomni erta o'qib qo'yish mumkin.

Xotirjam bo'lib olgach, Boymurod akani izlab qoldim. Sahar mardondan nimaga kelibdiykin? Biron ishi bormikin? Bir hisobda yaxshi bo'ldi kelgani. Bo'lmasa, g'aflat bosib bomdodni boy berar ekanman. Aslida Boymurod akani turg'azib, Oqtoshni akillatib meni bomdodga uyg'otgan ham Ollohning o'zi-ku!

Tashqariga chiqib, Boymurod akani izlay boshladim. Hov naridagi tut tagida cho'nqayib o'tirgan ekan. Ko'rib yonimga keldi. Xotirjamgina qo'l olib so'rashdik. Men u kishiga tinchlikmi, degandek qaradim. Nimagadir judayam horg'in ko'rinardi. Uyqudan turgan odamga ham o'xshamaydi. Chigitdek

ko'zlari kirtayib ketibdi. Sezdimki bir joyi og'riyapti. Hoynahoy, qornidir. Kechasi bilan "uzun borib, uzun kelganga" o'xshaydi, bechora. Oshqozonida yarasi bor-da bu kishini. Bu dardniyam podachilikda orttirib olgan. Tog'-u toshlarda ochin-to'qin qolib shunday bo'lgan. Podachi o'z qornini o'ylasa, podasi och qoladi. Shunisiga chidaganlar podachilik qiladi. Podachi zoti borki, yo o'pkadan ketadi, yo qorindan. Bular Boymurod akaning gaplari. Bir amallab it yog'i bilan o'pkani asrab qolgan ekan. Qorni esa chatoq. Shundan ketib qolamanmi, deb qo'rqib yuradi, bechora.

— Qorin bezovta qilyaptimi, — dedim achinib, — dori beraymi?

— Ha, yo'-o'... — deydi qo'l siltab. — Endi doriga ishim qomaydi...

— Nimaga unday deysiz, oshqozon turibdimi?

— Turibdi, turmay qaqqayam borardi. Erman gul-lab qoldi. Shu desangiz tirnog'dagini damlab ichsam bo'ldi. Sen ko'r, men ko'r bo'p yurovraman. O'zi quritib, ancha-munchasini g'amlab qo'yuvdim, onangni emmagur kalamusham o'ch bo'ladi-da, o'shanga. Erman — ming dardga davo derman deb bekorga aytganmi?

— Saharlab kelganingizga yana qorni og'rib qop-timi debman-da.

Boymurod aka eshigim tagiga terib qo'yilgan tosh-larga qarab "o'tiraylik" degandek ishora qildi. Sezdimki, maslahatli ishi bor. Qizlariga sovchi kelyap-ti deb eshituvdim. Bilaman, yoshlar nima bo'lgan-dayam to'ylarida nomdorroq xonanda bo'lishini xohlashadi. Xotini o'lib, o'nta bolaning tashvishi shu chigitdekkina odamning yelkasida qolgan.

— Ertalabki uyquni mazza qilib olayotgan ekansiz, uyg'otvordim-a mulla, — dedi Boymurod aka o'zini aybdor sanab.

— Qaytaga yaxshi bo'ldi, savobbi tagida qoldingiz, bomdodga ulgurib qoldim. Oqtosh qurg'ur kechasi bilan akillab uyqi bermadi hisob.

— Barini bilib turdim, — dedi Boymurod aka horg'in jilmayib, — ammo-lekin xo'b ish qildingiz-da. Itingizni vaqtida chaqirib oldingiz. Bo'lmasa, ketuvdi qulog'ini ushlab. Iziniyam topolmasdingiz.

Bundan chiqdi Boymurod akayam uxlolmapti-da. Hushtagimni eshitgan bo'lsa. Ajabo, itimni yarim kechada kim olib ketishi mumkin. Nahotki bu yer-dayam...

— It o'g'rilari bor deng?

— Anakka, — dedi Boymurod aka ko'zlari kosasi-dan chiqqudek bo'lib. U kishi "ana xolos!" deya olmay, nuqul "anakka" der edi. — Sizzi hech narsadan xabaringiz yo'qmi hali?

— Nimadan? — Boymurod akadagi hayajon menga ham o'tdi. — Kechasi biron gap bo'ldimi?

— Jinlar yomonam bazm qildi-ki! Hay... hay...

Jinlar?.. Qanaqa bazm? Shunisi yetmay turuvdi. Nima deyishimniyam bilmay talmovsirayman.

— Shu desangiz, mulla, bizzi qishloqda bir domla buva bo'lguvchi edi. Qaytish qilgan. Xudo rahmat qilsin. Mendan oldin dachaylada qorovul bo'lgan yigitti otasi. O'sha odammi avliyo deyishardi, o'lay agar avliyoligi rost ekan. Buni men shu kechasi bildim. Qarang, shundoq avliyo odam o'tib ketibdi-ya, g'aplatta qoppiz-a. Keling, o'sha kishiga atab bitta Qur'on o'qivoring.

Boymurod akaga jin tegibdi deb achinib ketdim. Gaplariyam biri bog'dan, biri tog'dan. Itdan gap ochib qo'yib, jinga o'tib ketdi. Endi domla buvani eslab qoldi. Qur'on o'qing deyaptimi, albatta, o'qish kerak. O'qidim... Boymurod aka some bo'lib o'tirdi. Duoga qo'l ochdik. Allohning oyatidan yetajak savobni shu yaqin oradan o'tganlarga, xususan domla buvaga yo'lladik.

— Ana endi yaxshi bo'ldi, — dedi Boymurod aka xuddi domla buva oldidagi qarzini uzgandek. — Shu desangiz... Boymurod aka gapirovraymi degandek menga bir qarab qo'ydi. Men u kishiga hamon xavotir bilan qarab turardim. — Rahmatlik hovlida it boq-

manglar, boqsaylaram nariroqda, chorbog'dan beri kelmasin, — deb tayinlardilar. — Qarang, iti bor hovliga farishta kirmasakan. Bir kuni domla buvaga uchrab, axir men cho'pon bo'lsam, itsiz ishim bitmasa, tog'da bo'rilar ko'p dedim. Rahmatlik juda ziyrak kishi edilar. Darrovda tushundilar.

— Boymurod, sen boqsang bo'ladi. Podachiga, ovchiga it zarur. Bunga yo'l bor. Agarda oq it bo'lsa yanayam yaxshi dedilar.

— Uvvalo oq it qidiraman, qani topsam. Jonivorning har qanaqa xilidan bor deng. Ola-bula, kulrang, malla... Oqi yo'q-da! Bor-e, yo'g'ni yo'ndiramanmi deb duch kelgan it bilan podachilik qilib yurovurdim. Biroq, yurtchilik ekanda, yana oq itga ishimiz tushib qoldi. O'shanda sizzikidaqa oq it topilmadi-da, topilgandami, eh attang mulla Do'smat o'lmasmidi, boyaqish.

— Nima bo'lgan edi o'zi? — so'radim sabrim chidamay.

— Jin tekkandi mulla Do'smatga, jin. Domla buva o'qib bir amallab olib qolgan edilar. Keyingisida bo'lmadi, obqololmadilar. Kuchlari yetmadi. Ha yetmay qoldi. Mulla Do'smat uch kungacha og'zidan ko'pik sochib, alahlab-alahlab jon berdi bechora. Qurib ketgur jinlar shu bilan tinchirmikin, desak, tinchimadi. Bitta odamning boshini yedig-u yetar, deyishmadi. Navbat mulla Do'smatning xotiniga keldi. Nima qilishini bilmaydi, bechora. Yashovray desa hali o'zi, hali u bolasi, bu bolasi shaytonlab qolyapti. Bosh olib ketay desa, boradigan joyi yo'q. Hovlini sotay desa birov olmaydi. Jin tekkan hovli kimgayam kerak deysiz. Kattalarga arz qilib ko'rdi, bo'lmadi. Xudosizlik zamoni edi-da, jinlarga ishonishmasdi. Duxtirlar bolalarini ukol qilib, onasining qo'liga xapdorilar berishdi. Domla buva oq it topib hovlidagi yong'oq tagiga bog'lab qo'yishni buyurdilar. Qani o'sha oq it? Yerdayam yo'q, ko'kdayam. Mulla Do'smatning xotini tarafdin urug'i topilib qolib, Sirdaryamiey, ishqilib o'sha yoqlarga obketib qoldi.

Keyin desangiz tepadagi tog' "qars" etib yorildi-yu, — deya Boymurod aka ro'paraga ishora qildi. — Bira-kayiga hammamizni tinchimiz buzilib qoldi. Tog' suriladi deb bizni daryani naryog'iga ko'chirvorishdi. Bu joylar qirq yil yotdi tashlandiq bo'lib. Qirq yil-a! Keyin sizlarga dacha qilib berishdi-da, mulla...

— E-e-e-e, — hayratim oshib o'rnimdan turib ketdim, — gap shu joylar haqida borayotibdimi e yashang-e, gapni teskarisidan boshlab, esniyam teskari qivoray dedingiz. Sal bo'lmasa sizzi ... hay mayli... Bu, mulla Do'smat deganning uyi qayerda edi? Bilsa bo'ladimi?

— Ja, bo'latta, — deya Boymurod aka halidan beri tizzasiga qo'ndirib o'tirgan do'ppisini qo'lga olib o'rnidan turdi va qibla tomonga yuzlandi, — hov anovi yong'oqni ko'ryapsizmi, o'sha joy-da.

Boymurod aka ko'rsatayotgan yong'oq daraxti mendan bir tomorqa narida — o'rtada Berdirah-matning hovlisi bor edi. Yong'oq juda tarvaqaylab o'sgan, qadimgiligi shundog'am sezilib turardi.

— O'sha yong'oq haliyam turibdi deng, — deyman daraxtni ko'rib turgan bo'lsam ham.

— Turad-da. Turmay qayoqqa boradi. Yildan-yilga ayqirib, semirib yotibdi. Kesishga yurak borakanmi? Xudosizlaram unga bolta urolmagan. Bo'lmasa o'tin-dan boshqaga yaramaydi. Mag'izi yopishqoq.

Men bu gaplarga ishonishniyam-ishonmaslikniyam bilmay, hayron edim. Shundog'am har go'shasi sirli ko'rinadigan bu joylar ko'z oldimda yanayam sirli tus olmoqda edi.

— Endi, — dedi Boymurod aka salmoqlanib, — jindan qo'rqmasayam bo'ladi. — Shunday deb u menga xursand jilmaydi. Etsiz yuzlarida, peshanasida chiziqchalar paydo bo'ldi. Mittigina ko'zlari yosh bolanikidek yiltiradi.

— Siz shunday deb o'ylaysizmi? Boymurod akaga yana shubha aralash qaradim. Xayolimda u kishi tun bo'yi jinlar bilan maishat qilib o'tirgan-u jinlarni aldab-suldab, otang yaxshi, onang yaxshi deb

yelkalariga qoqib, bog'ho'vlimizdan chiqarib yuborgan.

— Mulla deyman, — dedi Boymurod aka menga ziyrak ko'z tashlab, — sizzi rostdanam hech narsadan xabaringiz yo'qqa o'xshaydi-a?

— Men yelka qisdim.

— E, omon bo'ling, bilsangiz itingiz jinlarni haydab chiqardi, ha, voy bo'-o'-y... Jinlar-chi, sizga aytsam, oldin yong'oqni tagiga olovni gurullatishib, undan keyin ey gumba-ka-gum, gum-baka-gumlab eze-e-eb o'yinga tushib ketishdi...

Boymurod aka qo'lini orqasiga qilib, yer suzgan-dek goh o'ngga, goh chapga tashlab jinlarning o'yini ko'rsata boshladi. Sal o'zimni chetga oldim.

— Shu payt, — deya qaddini rostladi Boymurod aka, itingiz iskananib, yong'oq tagiga borib qoldi-yu, voh, voh, voh... Akillab jinlarni shundoq to'zg'itdiki...

— It sizga akillagandir, — dedim Boymurod akaga astoydil rahmim kelib.

— He-ey, mulla-ey, menga qandoq akillaydi, men hov tepada, vagonda bo'lsam. Jinlar bu yoqda, yong'oq tagida bo'lsa...

— Shunga hayron bo'lyapman-da, siz qayoqda-yu yong'oq qayoqda. Qanday qilib siz jinlar yoqqan olovni, yana shox tashlab raqsga tushganlarini ko'rasiz?

— E, u yog'ini qo'yovring, o'zimam hayronman. Hamma gap itingiz baraka topkurda... Jinlar itingizdan qo'rqib to'zg'ib ketishdi. Qo'tir buloqqa qarab yo'l solishdi. It demagan orqalaridan quvib akillab borovurdi... Oh, it endi asfalasofilinga ketti dedim o'zimcha. Jinlar hiyla qilisharkan-da, mulla. Dushmanini orqasidan ergashtire-eb borisharkan-da, birorta chuqur o'ragami, jargami tushirvorisharkan. Xayriyat, vaqtida hushtak chalib, itingizni chaqirib oldingiz. Men bo'lsam hammasini ko'rib, bilib turib hushtak chaldingiz deb o'ylabman.

— Yo'-o'q, — dedim bosh chayqab, — Oqtoshning

ovozidan uygʻonib ketdim, keyin qoʻshnilarning joni-ga tegmasin deb, chaqirvoldim. Bor gap shu!

— Xudo uygʻotgan-da sizzi, Xudo.

— Albatta, — dedim, — Xudo kechqurun oʻldira-di, erta bilan yana tiriltiradi. Uyqiyam oʻlgandek gap. Bari Xudodan...

Boymurod akani bir kechada savdoyi boʻp qopti deb oʻylasam... oʻzimam bir vaqtlar Boymurod aka-ning holiga tushganim yodimga tushdi. Talabalik yil-lari edi. Qoʻqonga praktikaga borgandik. Ogʻaynim Mirvohid bilan yotoqxonada turgimiz kelmadi. Qoʻqonning mashhur Gʻishtli masjid deb nom chiqar-gan choyxonasida ovqatlanib oʻtirib, choyxonachidan ijaraga uy topib berishini iltimos qildik. Choyxonachi bizga boshdan-oyoq qarab oldi-da, koʻrinishimiz maʼqul kelib qoldimi “kechga tomon bir xabar olinglar”, dedi.

Gʻishtli masjidning hovlisi yozgi choyxonaga aylantirilgan, xonaqolariga kutubxona, qiroatxonalar koʻchib kelgan edi. Biz kutubxonashunoslik fakulte-tining talabalari boʻlganimiz uchun ham xonalarni miriqib tomosha qilgan edik.

Mirvohid ikkimiz kelishilgan vaqtda samovarchiga roʻbaroʻ boʻldik. Samovarchiyam ishlaridan boʻshab, bizni kutib oʻtirgan ekan. U kishi bizni Gʻishtli mas-jidning shundoqqina orqa tarafidagi torgina yoʻlakka boshladi. Yoʻlak oxirida bir tabaqali eshik koʻzga tash-lanardi. Ijaraning shundoq ajoyib joydan topilganiga quvonib ketdik. Hovli torgina boʻlib, uniyam bitta daraxt-u, va bitta soʻri egallab turardi. Oʻng tarafda bir uy, dahlizi bilan, roʻparada yana bir xona koʻrinardi. Ichkarida temir karavotlar. Maʼlum boʻldiki, bu yer choyxonachining mehmonxonasi. Boshqa odam qoʻymaslik sharti bilan bir oyga kelishdik. Choy-xonachi har kuni tushlik paytida shoʻrvaning yogʻliq joyidan suzib, dastyor boladan kiritib turishga vaʼda berdi. Lekin ijara haqini oldindan qurtdek sanab oldi.

Biz boshqa kursdoshlarimiz nazarida, birimiz yozuvchi, birimiz shoirmiz. Ijodkorga tinchlik kerak-

da. Yotoqxona degani — kirdi-chiqdi, vag'ir-vug'ur joy. Kursdoshlarimizam bir-ikki kelib so'rida o'tirib, miriqib ketishdi.

Bir kuni yonimizdagi guzarchaga birov bir tog'ora doroyi uzum olib chiqibdi. Qo'qonda qizil chilgi uzumdanam oldin pishadigan shunaqa uzum bor ekan. Rangi qandaydir oqish, ko'kimtir. Ko'ksultonga o'xshab ketadi. Mevasi maydaroq, tig'iz. Ta'mi shirin, oq tutning mazasini beradi. Karsildoq. Lekin yangi bo'lgani uchun narxi osmonda. Talabani cho'ntagiga to'g'ri kelmaydi. Ko'nglim sust ketib turganini ko'rgan Mirvohid:

— Men Yakkatutga ketdim, ertalabki nonushtaga jizzali non, bir savat doroyi, qaymoq yetkazib kelman, — deb qoldi.

Mirvohidning Yakkatutda xolasi, xolasi bilan yashaydigan opasi bor edi, kelgandan beri boraman deb yurgan edi. Bahona topilib qoldi. Mirvohidni avtobusga kuzatib, uyga qaytdim. Qulfni ochib, hovliga kirsam qo'shni qiz o'rtadagi tuynukdan o'tib, hovliga suv sepib, supirib yuribdi. U har kuni biz kelguncha hammayoqni chinnidek qilib qo'yardi. Toshkentga o'qishga borsa yordam berishimizga o'ziyam, ota-onasiyam umid qilardi. U o'ninchini bitirayotgan edi. Bizning kursdosh qizlarimiz bilan allaqachon apoq-chapoq bo'lib ketgan, hammamizni uyiga mehmongayam taklif qilgan edi. Bizni akasidek ko'rar, o'zi durkungina ko'ringani bilan qiliqlari g'irt bolacha edi. Har kuni o'rtoqlarining nomini aytib she'r yozdirib olardi. Mirvohid bilan o'z holimizcha xayol suribmi, kitob o'qibmi o'tirsak, sezdirmay keldi-da, "vah" deb qo'rqitgan bo'lar, kutilmaganda suv sepib qochardi. Biz undan ba'zida bezor ham bo'lib ketardik. Onasiga devor osha shikoyat ham qilardik. Onasi bo'lsa u yoqdan: "Ayb o'zlaringda, popoch, popoch qilib boshlaringga chiqarvoldilaring, ayamasdan bir-ikki jonini achitinglar, esi kirib qoladi", derdi. Keyin orqasidan qo'shib qo'yardi: "Hoy, qiz o'lgur, bu yoqqa qara, bunaqada seni o'qishga yuborib

bo‘pman, erga berroraman”. “To‘g‘ri qilasiz, xola”, deb biz ham bu yoqdan tasdiqlardik.

Popoch hovliga yolg‘iz kirganimni ko‘rdi-yu:

— Mirvoit akam qanila? — deb so‘radi.

— Yakkatutga ketdi. Popochga doroyi uzum obkelaman dedi.

— Qachon obkeladi?

— O‘zi hozir ketdi-ku, gapini qaranglar, ertaga nonushtaga obkeladi. Choy ichmay o‘tir, xo‘pmi?

— Ey, — dedi qiz, uzumga hushim yo‘q deganday. Keyin oldiga tushgan bir o‘rim sochini orqasiga tashlab, supurgiga tayangancha menga angrayib qaradi.

— Bir o‘ziz yotassimi?

— Nima qipti, ajina chaladimi?

— Qo‘rqmissimi?

— Nimadan qo‘rqay?

— Ajinadan.

— Ajina bo‘lsa senchalik bo‘latta, Popoch.

— Hali shunaqami, — deya Popoch tushmagur supurgini teskari ushlab quvib qoldi. Hovliga qandoq kirgan bo‘lsam, shundoq ko‘chaga qochib chiqdim-da, darvozaga qulf solib, aylanib kelgani ketdim. Popoch supurgini dastasi bilan darvozani urganicha qoldi. Biz turgan hovlining orqasidan o‘tgan tor ko‘chaning narigi beti katta qabriston edi. Bir-biriga tutash qurilgan katta-kichik hovlilarni qabristondan shu ko‘cha ajratib turardi. Ba‘zan Mirvohid o‘zicha falsafa so‘qirdi: “Tasavvur qiling azizim, devorning narigi yog‘ida, bir dahlizcha joyda minglab odamlar qalashib yotibdi, biz bo‘lsak shuncha joyda ikki kishi xonlardek yashaypmiz. Qiziq-a?!”

Men qabriston yoqalab ancha joygacha borib keldim. Buzilgan, nurab tushgan sag‘analarni ko‘rib, Mirvohidning gapini esladim. “Bu dunyo tiriklarniki ekan-da, o‘lgandan keyin, xuddi o‘rilgan xashakdek qabristonga g‘aramlashaverar ekan... Qulayroq joy topib “Qulhu Ollohu ahad”ni o‘qiyman. Savobini shu joyda yotganlarga bag‘ishlayman.

Bu orada quyosh botib, issiqning tafti ketib, Qo‘qon shamoli esib qolgan edi.

Yotoqxonaga borib, kursdoshlar bilan ancha vaqt-gacha gurunglashib, “uyim”ga qaytdim. Oy to‘lgan, qadim shahar tomlarini, ko‘chalarini sutdek yoritardi. Karavotim xona darchasiga taqab qo‘yilgan, darcha qanotlari tashqariga ochilar edi. Xonada qandaydir zax hidi bor, darichalarni ertadan kechgacha ochib qo‘yganimiz uchun rutubat kundan-kun ko‘tarilib borardi. Men uyga kirganimda oy nuri qabriston tarafdin tushib, hovlining yarmini yoritib turar, uning shu‘lasi xonaga ham yoyilardi. Shuning uchun chiroq yoqib o‘tirmadim. Chiroq yoqsam iskaptoparlarning dastidan uxlab bo‘lmaydi. Ertalabgacha olishib chiqadi odam. Popochlarning hovlisiyam haligacha g‘alag‘ovur. Otasi qassob, do‘konini kech yopadi.

Yotibman-u qotibman. Tushumdami, o‘ngimdami bilmayman esib ketdimmi ishqilib ustimdagi choyshabni nari surmoqchi bo‘ldim. Ammo nimagadir qo‘lim o‘zimga bo‘ysunmas, qimirlata olmasdim. Xayolimda yelkam aralash birov meni bosib turardi. Azbaroyi uyquning shirinligidan ko‘zim ochilmas, miyamning allaqaysi hujayralari g‘ira-shira ishlab, kim bo‘ldi ekan degan o‘ylarga borardi. Kallamga kelgani Popoch bo‘ldi. Voy shumtaka-ey, kunduzi qo‘rqmissimi deb bekorga so‘ramagan ekan-da. Yengiltak, shayton qiz deyman-da, sal o‘zimga kelib ko‘zimni ochaman. Ammo... e-e-e... hayratdan qotib qolaman. Meni qimirlatmay qo‘ygan Popoch emas, boshqa... ha boshqa qiz edi. Voy bo‘-o‘... uni! Odam ham shunaqa chiroyli bo‘ladimi? Esim og‘ib qoldi. Biz studentlar shu paytgacha besh ketib o‘zimizcha hur deb yurgan qizlarning birortasiga o‘xshamas edi. To‘g‘rirog‘i, ularning husni-jamolini bir qilganda uning birgina g‘amzasiga alishib bo‘lmas edi. Oy nurlari uning sutdek oppoq yuzini, taralgandek uzun-uzun kipriklarini, chaqnab turgan ehtirosli ko‘zlarini yoritib turardi. Ajabo, oymoma deraza tarafga qachon o‘tib ulgurdi ekan? Qizning ko‘zlari qo‘lga tushdingmi sen yigit

degandek tobora ayyorona suzilar, jilmayganda tishlari sadafdek yarqirardi. Sochlari to'ldin-to'ldin bo'lib, uyning qorong'uligiga qo'shilib ketgan edi. Uning qarashlarida senga yomonligim yo'q, ey yigit degan bir ishoralar bor edi-yu ammo kulib turib yer parchin qilib meni ezardi. Ko'krak qafasim qisilib, nafasim og'zimga tiqila boshladi. Qiz ukpardek yengil ko'ringani bilan unda qandaydir yovuz, yovvoyi kuch bor edi. Ana shu kuch o'zining kimligini menga sezdirib qo'ydi. Ko'zimni chirt yumdim-da, bilgan suralarimni takror va takror o'qiyverdim. Sezib turibman ustimdagi "yuk" asta-sekin yengillasha boshladi. Yengillashgan hamonoq uxlab qolibman. Bir mahal childirma ovozi-yu g'alati qiyqiriqlardan uyg'onib ketdim. Oymoma hamon derazamdan nari ketmagan, shu yaqin atrofda to'y bo'lardi chog'i. Hayron bo'lib soatimni oy nuriga tutib ko'raman. Uchdan oshibdi... Qo'qonda to'ylar kech boshlanib, tongotar tugar ekan-da deb, uyquli ko'zlarimni yumaman... Bir ko'nglim chiqsam-chi, Qo'qonning to'ylari qanaqa bo'larikin, ko'rsam-chi deyman. Uyqu zo'r keladi...

Erta bilan uyqudan tiniqib uyg'onsam, tungi voqealar shundoq ko'z oldimda turibdi.

Biz olov yoqib, samovar qo'yib, choy qaynatmasdik. Choynakka quruq choy solib choyxonadan dog'suv burab kela qolardik. Erinsak Popochdan iltimos qilardik. Ularnikida ertadan kechgacha samovar jig'illab yotardi. Qarasam, Mirvohiddan darak yo'q. Qotgan-qutgan non bilan tamaddi qilib bo'lsayam, praktikaga borishim, Mirvohid uchun ham bir bahona topishim kerak edi. Choyxonadan dog'suv burab kelishimga Mirvohid opasi bilan kelib qoldi. So'riga joy qildik. Dasturxon shohona bo'p ketdi. Qo'shni hovli-da qassob tog'aning gurillagan ovozini eshitib, choyga taklif qildik. Tog'a yo'q demadi. Tuynukdan yonlamachasiga o'tib keldi. Ko'rinishdan juda polvon odam edi. Popoch otasiga tortgan edi.

Oling-oling bilan choy ichar ekanmiz, qassob tog'aga gap qotdim:

— Qo‘qonning to‘ylari tongotar bo‘larkan-a, qassob tog‘a?

— Qattagi to‘yga bora qoldingiz, jiyan? — dedi pishillab.

— Shetta bo‘ldi-yu...

— Shetta? Him... — deb kuldi qassob.

— Shu yaqin-atrofdada, ertametangacha gumbir-gumbir to‘xtamadi-ku, eshitmadingizmi?

Qassob tog‘a non chaynashdan to‘xtab, yog‘li ko‘zlarini lo‘q qilib menga qaradi-da, eshitmadim degandek boshini sarak-sarak qildi.

— Tushunarli, — dedim men kulib, — kecha ko‘payib ketibdi-da, a?

— Vohidjon, yaqinroq o‘tiribsiz, og‘aynizzi peshanasini ushlab ko‘ring-chi, isitmasi yo‘qmi? — deb qalin qoshlarini uchirib kuldi qassob tog‘a.

Mirvohid kaftini peshanamga bosdi-da:

— Joyida-yu, — dedi xandon otib kulib.

— Tavba, — dedi qassob tog‘a taajjubda, — mahallada to‘y bo‘larkan-u, mensiz o‘tarkanmi, naq ko‘chirtirvorarman. Hovlida jinlar bazm qilgandir, — dedi pinagini buzmay.

— Voy, tog‘a, unaqa demang qo‘rqaman, — dedi Mirvohidning opasi ko‘zlari alang-jalang bo‘lib.

Men tunda bo‘lib o‘tgan voqealarni birma-bir, oqizmay-tomizmay gapira boshladim. Mirvohid bilan opasi nonushtayam eslaridan chiqib angrayib o‘tirishar, qassob tog‘agina beparvo, hali piyozli nonni qaymoqqa bulab urar, hali doroyini g‘ujumlab og‘ziga tashlar edi.

Tungi sarguzashtlarim tugagach, Mirvohidning opasi kapalagi uchib, “bu gaplarga nima deysiz”, degandek qassob tog‘aga qaradi.

Qassob tog‘a sovub qolgan bir piyola choyni og‘ziga ag‘dardi-da, naq supradek kaftlari bilan lab-lunjini artib dedi:

— Bir balosi bo‘lmasa shudgorda quyruq na qilur, degan ekan mashoyihlar. Bu uyni ijaraga olayotganda sal o‘ylamadilaringmi olim yigitchalar. Nimaga shun-

day uy egasiz huvillab yotibdi deb. Yana shaharning qoq o'rtasida-ya. He... Bu hovlida ko'p ishlar bo'lgan sizlarga aytsam. Ha, yomon bo'lgan, yomon. Oldingi egasini qora buqa bo'lib suzib o'ldirgan. Xotini arzon-garovga issig'ida pulladi-da, bola-chaqasini olib, jo'nab qoldi. Keyingi sotib olgan odamni qora mushuk bo'lib bo'g'ib o'ldirdi. Bola-chaqasi sotolmay ketib qutuldi. Choyxonachi u yoq-bu yog'iga qarab, bir kun, yarim kunga musofirlarni qo'yib foydalanib turadi. Siz yigitni Xudoga yoqqan joyingiz bor ekan yo palagingiz toza... hartugul sizga hurqiz bo'lib ko'rinibdi...

Dasturxonga fотиha o'qilgach, Mirvohidning opasi shoshib qoldi:

— Tur uka, tezroq chiqib ketaylik bu yerdan. Gap shu, endi betta yotmaysan, tamom.

Shunday qilib ko'rpa-to'shagimizni orqalab yotoq-xonaga qaytib ketdik...

Shularni o'ylab, Boymurod akaning sarguzashtlarini o'zimcha tushungan bo'laman va so'rayman:

— Nima deysiz, Boymurod aka, jinlar yana o'rda-siga qaytishadimi, yo'qmi?

— Kemaydi, — dedi u kishi qat'iy ohangda, — ular siz bilan mendan ko'ra mardroq bo'lishadi. Quvilgan joylariga qaytib kelishmaydi. Buniyam rahmatlik domla buva aytganlar.

Shunday qilib bog'hovliga qilgan bu galgi safarim kutilmaganda ajoyib va g'aroyibotlarga boy bo'ldi. Yakshanba kuni kechga qarab qolgan-qutgan yeguliklarni Oqtoshning idishiga ag'dardim-da, omonat eshigimning tagidan it sig'adigan joy qoldirib, poyezdga shoshdim. Boshqa qo'shnilarim ham o'tlanib yo'lga chiqishgan, uzun-qisqa bo'lib oldinda borishardi. Ro'paramdan kelayotgan mashina guvillab yonimdan o'tdi-yu orqamdan itning hurib, mashinaga tashlanganini eshitdim. Qayrilib qarasam, Oqtosh!

Orqamdan quvib kelyapti. Bo'lmasa, "sen aqlli it ekansan, shu hovlidan chiqma" deb necha marta uqtirgan, Oqtosh gaplarimga jimgina quloq solib qolgan edi. "Qayt orqangga" deya jo'rttaga ko'zlarimni

ola-kula etib, po'pisa qildim. "He o'rgildim, sendaqa aqlli itdan, esing bo'lsa kelib-kelib mashinaga tashlanasanmi? Temir-ku bu. Nahotki, joni bor bilan joni yo'qni bilmasang!" Qayda, gaplarimga parvoyam qilmadi. Qaytaga o'ynoqlab, erkalanib oldinga tushib oldi. Shu nasihatni haddan oshirvordimov. Buning ustiga Oqtosh o'tgan har bir mashinaga hurib, tashlanishni qo'ymasdi. Unga sari Oqtoshni ajal haydab keldiyov, deya xavotirga tushaman. Boymurod aka ko'rsaydi buning ahmoqona qiliqlarini. Bu it hali orqamdan vagongayam chiqib, sharmanda qilmasaydi. O'zi vagonda it olib yurganlarni jinim suymaydi. O'tirishga joy bo'lmaydi-yu, eshshakdek-eshshakdek itlarini cho'ziltirib oyog'ing tagiga yotqizib qo'yishadi. "O'zing-ku toqqa sayr-sayohatga chiqibsan, itingga balo bormi", deb g'udranardim.

Bekatga borsam poyezd jo'nashiga besh daqiqa vaqt qopti. Yo'lovchilar joylashib olgan, ochiq dera-zalardan boshlarini chiqarib, poyezd jilishini sabrsizlik bilan kutishyapti. Kun issiq. Oqtosh bir-ikki marta poyezdga chiqib yurgandek mendan oldin perronga borib oldi.

Taxminim to'g'ri chiqdi. Oqtoshni kimdir o'zi bilan poyezdda olib kelgan-u, adashib qolib ketgan. Aftidan kamina egasiga judayam o'xshasam kerak. Mana endi shaharga qaytib ketmoqchi. Boshga bitgan balo bo'ldi-ku bu it. Xayolimda Oqtosh mensiz ham vagonga chiqib oladigandek edi. Ha chiqaversin, tezroq daf bo'lsin, men o'zimni boshqa vagonga uraman-u undan qutulaman. Qayda, it perronda meni sabr-toqat bilan kutardi. Bu dahmazani shaharga olib borib qayoqqa joylayman. Hovlim bo'lgandayam boshqa gap edi. Axiyri bo'lmadi, qo'limga tosh oldim-u rostakamiga dag'dag'a qildim. Oqtosh pildillab kelgan iziga qarab qochdi. Ha, shunchaki emas, rostdan jahlim chiqqanini bildi, jonivor. Orqasidan toshniyam mana bo'lmasam deb otib yubordim. Paytdan foydalanib o'zimni vagonga urdim. Tavba, halidan beri shu ishni qilmaymanmi? Vagonga chiqib Oqtoshni

ko'rish mumkin bo'lgan qanotga o'tdim. Shu ketgan-cha ketdimikan, yo?

Deraza ko'zidan panalab qarasam, qaytib kelyapti. Meni ko'rib qolmasin yana degan hadikda boshimni sal ichkari oldim-u, ammo ko'z qirimni uzmadim. Mabodo men chiqqan vagonga chiqadigan bo'lsa... unda boshqasiga o'tib ketishni o'ylardim. Oqtosh atrofga iskananib, olazarak bo'lib qaray-qaray, to'g'ri men chiqqan vagon yonida to'xtadi. Keyin vagon tagiga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Poyezdning jo'naydigan vaqti bo'lib qolgan edi. Bosib ketsaya! Derazadan rostmana boshimni chiqarib qaray boshladim. Vagon tagidan chiqib kelayotgan Oqtoshni tepadan ko'rdim-u, ilkis boshimni tortib, birovga urib oldim. "Vah" deya kimdir yelkamga bir musht tushirib qoldi. Ayol kishi ekan, astoydil kechirim so'radim. Boshini ushlab tik turgancha yerga qarab oldi. Bechoraya, it bilan bekinmachoq o'ynayotganimni qayerdan bilibdi. Ha, la'nati Oqtosh-a, boshga bitgan balo bo'lding-u sen. Ishqilib bu ayolning tish-pishi sinmagan bo'lsin. O'zimniyam boshim endi zirqiray boshladi. Iltimos qildim. Yoshlardan biri ayolga joy berdi. Gunohimni yuvgandek yengil tortdim. Poyezd joyidan qo'zg'algan, bekatdan uzoqlashib borardi. Oqtosh esimga tushdi-yu shoshib orqaga qaradim. Oqtosh kimsasiz perronda shu tomonga qaragancha cho'nqayib o'tirardi... Tavba, vagonning tagidan bo'lsayam, mening qayerdaligimni bildi-ya.

Ko'ktoy

Shaharga qaytdim-u, xayolim bog'hovlida bo'lib qoldi. Yashirib nima qilaman, Oqtoshni o'ylardim. Uning huvillagan perronda cho'nqayib o'tirishi ko'z oldimdan ketmasdi. Tavba, u meni kuzatib qoldi-ya... Men bo'lsam uni shafqatsizlarcha tashlab kelaverdim. Hazil-hazil bilan bog'hovlimizda kaminani ham sabrsizlik bilan kutadigan bir jonzot paydo bo'lgan edi. Endi uni ham o'ylashim, o'ziga yarasha sovg'a-salom-

lar bilan borishim kerak. Yana u Boymurod akaning ta'biri bilan aytganda qanaqa itki!..

Beixtiyor xalqimiz orasida yuradigan maqollar yodimga tushdi: "It vafo, xotin jafo", "Itni qopmaydi deb, otni tepmaydi deb bo'lmaydi", "Qovunning shirinini it yeydi", "Oq it, qora it — bari bir it", "It — itligini qiladi"...Bularni eslashdan murod o'zimcha Boymurod akaning bashoratlariга biror-bir dalil izlab ko'rish edi. Ha, odamzod o'zi shunaqa. Eshitsa — ko'rsam deydi. Ko'rsa — ushlasam deydi. Ushladimi — kesib olsam deydi. Shu antiqa fe'li bilan odam boshqa maxluqotlardan farqlanib turadi. Bo'lmasa meni bu hardamxayol narsalarga hech kim boshingni qotir demayapti. Bore, deb qo'l siltab qo'ya qolsam ham bo'ladi. Miyanı suyultiradigan bundan boshqayam tashvishlar ko'p. Balki Oqtosh Yo'ldosh Eshbekniyam Boymurod akaga o'xshab akillab kutib olganida yoki bo'lmasam meni bunchalik izzat bilan kuza-tib qo'ymaganida chindanam boshim qotmas edi. Boymurod akaning jinlar haqidagi gaplari-chi? Jin o'zi bor narsa. Uni yo'q deyish gunohi azim. Alloh o'zining muborak Kitobida inson va jinlarni menga ibodat qilishlari uchun yaratdim, deb marhamat qiladi. Qur'onda, hatto, alohida jin surasi ham bor. Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam jinlarga Qur'on o'qib berganlar. Kofir jinlar iymon keltirib, musulmon bo'lishgan.

Bolaligimizda bularni chala-yarim bo'lsayam eshitganmiz. Shayton, jin, alvasti, pari degan narsalarni odamlarni qo'rqitish uchun o'ylab topishgan deyishardi maktabda. Ota-onalarimiz rost gapni aytgani qo'rqishardi. Xudoga ishongan ota-bobolarimiz sovuq o'lkalarga surgun qilingan, qamalgan, otilgan, osilgan-da. Shungami, butun bir avlodlar og'izlariga talqon solgandek jimjim o'tib ketishdi. Biroq jinlar ham odamlar bilan birga-birga yashayverdi. O'rni kelganda gohi-gohida o'zlarini ko'rsatib ham turdi.

O'zim ham hayotim mobaynida necha bor jinlarga

duch keldim. Shunchaki tush koʻrdim shekilli, bosin-qiradim chogʻi, deb sarkashlik qilganman. Mana endi... Dinga erkinlik berilgach Alloh yaratgan har bir jonivor, olamning har bir goʻshasi koʻzimizga moʻjiza boʻlib koʻrinyapti. Oqtosh shularning bittasi...

Sizga Sharik degan itimizni aytgan edim. Sharikning rangi oq ham, qora ham, ola ham emasdi. Mallaroq edi shekilli. U qishlogʻimizda koʻp tugʻishi bilangina mashhur edi, xolos. Ammo Koʻktoy degan bir it bor edi. U Oqtoshga oʻxshab qishloqda mashhur boʻlib ketgandi. Koʻktoy Oytoʻra xola deganning iti edi. Uning junlari koʻkimtir, boʻyi baland, oʻzi xipcha, xuddi yangi tugʻilgan toychoqqa oʻxshardi. Shuning uchun ham uni Koʻktoy deyishgan boʻlsalar kerak. Koʻktoy hamisha boʻsh yurardi. Beozor edi. Katta-yu kichikka, tanish-u notanishga el boʻlib ketaverardi. Ammo qishloq odamlariga bir beminnat dastyordek xizmat qilardi. Birov kechasi tegirmonga boradigan boʻlib qolsa, hamrohlik qilardi. Yakka yolgʻiz odam kunduz kunlari Boʻzsuv boʻylariga tushgani qoʻrqardi. “Koʻktoy” deb ovoz bersa bas, osmondan tusharmidi, yerdan chiqarmidi, ishqilib bir zumda paydo boʻlib qolardi. “Xizmat” degandek boshini bir tomonga qiyshaytirib, dumini likillatgancha, jilpanglab qarab turardi. Ammo uning hushtakka tobi yoʻq edi. Shuning uchun ham u bolalar bilan unchalik chiqisholmasdi. Biz jigʻiga tegib ataylab hushtak chalaverardik. Jon-poni chiqib akillab berardi. Boshqa itlar bilan urushtirmoqchi boʻlardik. Koʻktoy ozgʻin boʻlgani bilan qishloqdagi hamma itlardan daroz edi. Lekin biron martayam it bilan urishganini koʻrmaganman.

Urushdan keyingi — elliginchi yillarning oʻrtalari. Tekis, yaxshi yerlarga paxta ekilar, odamlar suv chiqmaydigan tepalarda istiqomat qilishardi. Shuning uchun ham bu joylar katta qoʻrgʻoncha, kichik qoʻrgʻoncha yo falonchining qoʻrgʻonchasi, katta tepa, kichik tepa degan nomlar bilan yuritilardi. Tepalar bahor paytlarida yashnab ketardi. Kuzgi bugʻdoylar

ko'zni quvontirib mavj urar, cho'g'dek bo'lib lola-qizg'aldoqlar ochilar, binafsha rangli chuchmomalar ko'zga tashlanardi. Chuchmomaning ildizi shirin bo'ladi. Biz uni shimgancha varrak uchirardik. Osmon ko'm-ko'k. Ana-mana deguncha bug'doylar pishib, o'rib olinardi-yu tepalar qizib, bamisoli do'zaxga aylanardi. Jaziramadan nafas olib bo'lmasdi. Ba'zi odamlar hovlining o'rtasidan chuqur handaq qazib, ichiga tok ekkan edilar. Handaq qish bo'yi qor, yomg'ir suvlarini yig'ib olardi. Tok novdalari handaqdan o'sib chiqib, so'rilarga taralar, katta-katta, shirasi tilni yoradigan uzum boshlari soladi. Tepalar chinqiroq ilonlar, rangi pesga o'xshagan kaltakesaklar, cho'l baqalari, tegib ketsa o'zidan badbo'y hid chiqaradigan qora qo'ng'izlar, ko'k qarg'alar makoniga aylanadi.

Odamlar kun o'tkazish uchun Bo'zsuv bo'ylaridagi jar-jurlar, qamishzorlarni ochib dehqonchilik qilishar, omonat chaylalar qurib, mol-holi-yu bolachaqa bilan ko'chib chiqishardi. Ammo qishloqdagi eng katta ish — bu g'o'za parvarishi edi.

Biz ham tepa oralig'idagi tashlandiq yerni tomorqa qilib ko'chib chiqqan edik. Tomorqalarga makkajo'xori, qovun-tarvuz ekilardi. Qovun-tarvuz shaharga olib borib sotilar, puliga kiyim-kechak olinardi. Makkajo'xori eng ko'p ekiladigan ekin edi. U paytlardagi makkajo'xorilar hozirgidek sariq bo'lmasdi. Oppoq, xuddi katta marvarid donasidek bo'lardi. Kuchli yerlarda uchta, beshtagacha so'ta quchoqlardi. Oftobda quritilib, to'qmoqlanardi. Doni ajratilib, tegirmonda un qilinar, zog'ora nonlar yopilardi. Xamir qorilganda sut, qovoq yoki lavlagi qo'shilardi. Bo'lmasa zog'ora tandirda turmasdi. Nochor oilalar xamirni shundoq qo'rga ko'mib, ko'moch qilib yeyishardi. Unisiyam, bunisiyam shirin bo'lardi. Bug'doy nonni kam ko'rardik. Bug'doy uni faqat xamir ovqatga ishlatilardi. Ahyon-ahyonda atala qilinar.

Bir kuni chaylamizdan shisha bankadagi sariyog'imiz yo'qolib qoldi. Men sariyog'dan ham ko'ra

bankasiga achindim. Axir bunaqasi qishlog'imizda bitta edi-da! Uni Majid pochcham urushdan olib kelgan edilar. Uni yaltiroq temir qopqog'i bo'lib, tutqichiyam chiroyli edi. Qopqog'ining bir chekkasini bossa ochilardi, qo'yib yuborilsa, o'z-o'zidan yopilib qolardi.

Ammamlar katta boylikdan ajrab qolgandek, bir ahvolga tushdilar. Nuqul qo'ygan joylarini qayta-qayta qaraydilar. Xuddi yo'qolgan sariyog' topilib qoladigandek.

Qiyinchilik yillari bo'lgani bilan birovning narsasiga birov ko'z olaytirmasdi. Qaytaga bori bo'lishib yeyilardi. Bir qoshiq yog' ko'zga surtgulik, bir burda non boshga qo'ygulik. O'zim ko'rganman ammamlar qo'shnining qozoniga sariyog'ni bankasi bilan olib chiqib, bir qoshiqqina solib bergan edilar. O'sha bir qoshiq yoqqa piyozdog' qilinar, suv solib qaynatilar, uning otini piyava deyishardi. O'zimiz ham qozonga bir qoshiqdan ko'p yog' solmasdik. Ammamlar bir haftada bir kuv pishar, undan mushtumdekkina sariyog' tushar, eritib bankaga solib qo'yardilar. Ammamlar sariyog'ni yo'qolganiga tamoman ishonib bo'lgach, qarg'andilar:

— Ha, tiqilib o'lgur, hoynahoy o'sha olgan, — deb shahd bilan o'rinlaridan turdilar-da, o'choq boshidan kosovni olib, meni ergashtirdilar. — Uzoqqa ketmagan u yer yutkur... Men ham o'g'ri topilganidan suyunib darrov tut po'stlog'idan o'rilgan jing'il sopli qamchimni olib, havoda bir-ikki qarsillatib, ammamning oldiga tushib yura boshladim. Shu payt ammamning o'rtoqlari O'g'iloy opa kelib qoldilar.

— Ha, o'rtoq, kosov ko'tarib obsan, tinchlikmi?

Ammam "Otasining og'ziga..." deb boloxonador qilib qarg'andilar-da, arz qila ketdilar:

— Boya bitta qorang o'chki mardikor qorin to'yishga ish so'rab keluvdi. Qarasam, ko'zlari olmakesak... ish qiladiganga o'xshamaydi, ish yo'q, deb haydavoruvdim. Qirilib ketgur o'sha bankadagi sariyog'imni o'marib ketibdi. Hoynahoy, uzoqqa ketmagan, tepaning naryog'idagi jarga bekingan. Yuragim sezib turibdi...

Safimizga O'g'iloy opa ham qo'shildilar. Men yanayam dadillashdim. Axir uch kishi bitta daydini tutolmaymizmi?! Qamchin bilan oyog'iga o'xshatib turib bir solsam guppa yiqiladi... Shunday xayollar bilan ammam va O'g'iloy opani orqada qoldirib, jar tomon yugurdim. Nima bo'lganda ham men o'g'il bolaman-da. O'g'rini birinchi bo'lib ko'rishim, qamchi o'qtalib, "to'xta, o'lasan" deyishim kerak. Yaxshilikcha sariyog'ni bersa berdi, bermasa... Sariyog'ni yeb qo'ygan bo'lsa-ya?!

Halloslagancha jar yoqasiga yetib keldim. Jarda odam bolasi ko'rinmasdi. Hafsalam pir bo'ldi. Ammo shu payt ko'zim Ko'ktoygga tushib qoldi. Yanayam botirlashib ketdim. Endi Ko'ktoy bilan har qanday o'g'rining iziga tushish mumkin. Qochib, qutulib bo'pti. Ko'ktoyni chaqirdim.

— Ko'ktoy, Ko'ktoy, mah-mah...

Ko'ktoy menga bir qarab qo'ydi-yu, parvoyam qilmadi.

— Jarda o'g'ri yo'q, Ko'ktoy bor, — dedim ammam bilan O'g'iloy opa yetib kelishgach.

Ammamlar jar yoqasiga kelib, atrofni diqqat bilan ko'zdan kechirdilar-da:

— Hay, Ko'ktoy o'lgur, — dedilar, — baqqa ke...

Ana endi Ko'ktoy chopib kelsa kerak degan o'yda edim. Ko'ktoy ammamgayam parvo qilmadi. Aftidan u biz bilmaydigan bir nima bilan mashg'ul edi.

— Voy, jonivor Ko'ktoy, qopqonga tushib qopti shekilli, — dedi O'g'iloy opa. Bo'zsuv bo'ylarida tulki, chiyabo'rilar ko'p bo'lar, kechalari kelib tovuqlarni qiyratib ketardi. Ularga qarshi pana-pastqam joylarga qopqon qo'yilardi.

Yuragim jaz etib achishib ketdi. Bechora Ko'ktoy oyog'idan ajrabdi-da. Qopqonga ilingan chiyabo'riniyam, tulkiniyam ko'rganman. Qopqonning o'tkir tishlari panjalarini majaqlab tashlagan edi. Hatto, qopqon bitta chiyabo'rining panjasini cho'rt uzib yuborgan. Chiyabo'ri qochib qolgan. Ko'ktoyni qopqondan o'zim bo'shataman, qopqonning og'zini

qandoq qilib ochishni bilaman. Ko'ktoyning tepasiga bordim-u, hang-u mang bo'lib qoldim.

— Amma-a-a, — deya yig'lab yubordim. Nimaga ammamni chaqirdim-u, nimaga yig'lab yubordim, o'zim ham bilmayman. Ammam bilan O'g'iloy opa yetib kelishdi. Nuqul ammamni quchoqlab hiqillayman. Sariyog'ni Ko'ktoy o'g'irlagan edi. Ko'ktoy bir panjasi bilan qopqoqni bosib, ikkinchi panjasini bankaga tiqib, sariyog' yalab o'tirardi. Ammam hozir qo'lidagi kosov bilan boshiga tushirsalar kerak deb o'ylovdim. Unday qilmadilar. Ko'ktoyning ishiga ular ham hayron-u lol edilar. Men qamchin bilan itga tashlanmoqchi bo'ldim. Ammam ushlab qoldilar:

— Qo'y, bolam, shuning nasibasi ekan, Ko'ktoyning odamlarga ko'p foydasi tegadi...

Ammamlar sabr-toqat bilan banka bo'shashini kutib turdilar. Axir bunaqa banka qishlog'imizda bitta-yu bittaligini aytdim-ku. Axiyri Ko'ktoyning nafsi qonib, qo'lini bankaning ichidan tortib oldi-da, bizga bir qarab, jilpangladi. Men bankani olmoqchi bo'ldim.

— Tegma, — dedilar ammam, — boshqa idish bo'lganda qatron qilardik, bankani qatron qilib bo'lmaydi, endi u harom, — dedilar-da, kosov bilan bir urib chil-chil qildilar.

— O'l, o'rtoq, hech bo'lmasa tuz sop qo'ysa bo'lardi-ku, — dedilar O'g'iloy opa achinib.

— Bo'maydi, — dedilar ammam bosh chayqab. — Harom narsaga qandoq tuz sop qo'yan?!

Shundan keyin davralarda Ko'ktoyning qanday qilib bankadan sariyog'ni olib yeganlari anchagacha gap bo'lib yurdi. Keyinchalik uning yoniga "qovun ovi" ham qo'shildi.

Qovun ovi

Oldi qovunlar dum berib, dehqonlarning kaftlari qichisha boshlagan... Kolxozning otboqari Karimboy choldan tortib, aravakashlargacha shoshib qolishgan.

Kolxozda bor-yo'g'i ikkita avtokachka bor. Avtokachka deganlari poson arava. Rusiyadan keltirilgan. G'ildiraklari og'ir. Tekis yo'lda yaxshi yuradi. Qirli joylarda otlar tortolmay qiynaladi. Pastga tushishda arava og'irlik qilib, otlarni surib ketadi. Shuning uchun g'ildiraklariga tormoz o'rnatilgan. Aravakash tormozni bor kuchi bilan bosadi. G'ildiraklar chiyillab aylanadi. Ba'zan tormoz deganlari uzilib otlarni surib ketadi, mayib qiladi. Aravakashlar "o'zimizning aravalar ming marta yaxshi edi, bu matoh otniyam, aravakashniyam o'ldiradi" deb so'kinishardi. Ammo shahar joyga avtokachkaga ruxsat bor edi. Shuning uchun avtokachka talash, navbat bilan berilardi. Qani endi qovun-tarvuzlar ham navbati bilan pishsa. Yo'q, hammaniki bir vaqtda pishadi. Qishloqni obinovvot, bosvoldi, ichi qizil, cho'giri, ananas, ko'kcha degan qovunlarning xushbo'y hidi tutib ketadi.

Bir kuni bolalar orasida g'alati mish-mish tarqab qoldi. Nimaymish poliz qorovuli Karim aka kechasi Ko'ktoy bilan qovun ovlarmish. Kolxoz raisi Qozoqboy ota tepadan kelgan mehmonlarni faqat o'sha qovun bilan siylarmish. Ko'ktoy ovlagan qovun shirinligidan labni-labga yopishtirib qo'yarmish...

Rosa boshimiz qotdi. It bilan Bo'zsuv bo'ylarida tulki, tustovuq, jayra ovlashlarini eshitardik. It bilan qovun ovlash... O'ylab o'yimizga yetolmas edik.

Karim aka baland so'kichak ustida qorovullik qilardi. Bu yerdan polizzor kaftdek ko'rinib turardi. Biz qo'yarda-qo'ymay Karim akaning so'risiga chiqib,"sir"ni bilmoqchi bo'ldik. U kishi: "Bitta "Bayanshirin" obkesalaring ko'rsataman" dedi. Karim aka aytgan narsa musallas edi. Pul to'plab, musallas oldik-da, Karim akaning yoniga chopdik. Karim aka musallasni ichib, "E, quyosh"ni boshlab yubordilar. O'sha paytlarda "Tohir va Zuhra" kinosi urf bo'lgan. Hammaning og'zida shu qo'shiq edi. Karim aka yana allaqancha qo'shiqlar aytdi. Ovozi xirillab qolguncha aytdi. Allaqachon qorong'i tushgan, bizni esnoq tutib, uyqu bosar, ovdan darak yo'q edi. Oy to'lgan, yon-

atrofni uzoq-uzoqlargacha kunduzgidek yoritar edi. Biz bunaqa oydin kechalarda bekinmachoq o'ynashdan ko'ra kitob o'qishni yaxshi ko'rardik. Kim xuddi kunduzgidek sharillatib o'qisa, o'shaning ko'ziga besh ketardik. Bir xil og'aynilarimiz o'qiy olmasdi. Biz ularni "traxoma" derdik. Shunaqa ko'z kasalligi tarqalgan edi.

— Ja, qiziqsiz-da, Karim aka, — dedim men u kishidan xafa bo'lib.

— Gapir, akang bo'yingdan, nima deysan?

— Musallasni ichvoldiz, ov qachon?

Karim aka tomog'ini qirib, so'ridan pastga qarab tupurdi-da, oymomaga qarab:

— O'hho', — dedi bamaylixotir, — ovga hali uzoq-ku. Oymomani ko'ryapsanlarmi-a, hozir osmonning yonboshida turibdi-a? Yurib, yurib manovi ro'paraga kelsin, — deb olisni ko'rsatdi. — O'shanda tikka tursang soyang orqangga uzaladi. Uqdilaringmi? Ov o'shanda boshlanadi.

— Hozir boshlay qolaylik, jon Karim aka, boshlasayiz ertaga yana bitta musallas obkelib beramiz.

— Shu bugunoq ikkita qilib kelsalaring o'larmidilaring, qurumsoqlar, odamni na uyog'lik, na buyog'lik qilib qo'ydilaring.

— Bo'pti, ertaga ikkita qilib obkelamiz, ovni boshlay qoling, — deya og'zimizni kappa-kappa ochib esnaymiz. Yig'lagudek bo'lib yalinamiz.

— Voy, tushunsalaring-chi, enag'arlar, oy manovi ro'paraga kelmaguncha bo'lmaydi deyapman-ku, — dedi-da, pastga engashib, — ha akangni Ko'ktoyi, yotibsanmi, — deb qo'ydi. — Itchalik ham sabrlaring yo'g'a, nomardlar.

Karim akaning nayrangini payqagandek bo'ldim. Yaxshiroq bilib olay deb so'radim:

— Ovni qattan boshlaysiz, Karim aka?

Karim aka tilini chiqarib yana pastga tupurdi. O'zi bu odamning odati ichib olsa tupiraverar ekan. Halidan beri "kih-qih..."layverib jonimizga tegib ketdi.

— Qattan bo'lardi, bo'yingdan akang, senikidanda, — dedi. Keyin boshqa o'rtoqlarimniyam nomini sanay ketdi.

— Ey, — dedim hafsalam pir bo'lib, — kettik bolalar, shunchaki qovun o'g'irlash ekan-u, ishonib o'tiribmiz-a...

Bolalarning uyqusi o'chib, Karim akaga hezlanib qolishdi:

— To'lang "Bayanshirin"ni.

— Ha, to'lang.

— Rezinka ishtonbog' omoqchiydim attordan.

Karim aka so'kindi:

— Rezinka ishtonbog'mish, boshingga urasanmi uni? Omonatdan-omonat. Rezinka ishtonboqqa ishonib bo'larkammi? Gappi qaranglar... Xo-xo-xo-o-o... o'zimiznikidan qo'ymasin. Kurmak qilib bog'lab qo'ysang birov u yoqda tursin, o'zingam yecholmiysan. Duch kelgan joyda bexavotir, bemalol uyqini urovrasan, akang bo'ylaringdan... xo-xo-o-o...

Darhaqiqat, biz rostdanam rezinka ishtonboqqa oshiq bo'lib qolgan edik. Cho'milishga ja bop edi. Bir zumda yechasan-u, suvga sho'ng'iysan. Chiqasan-u, kiyib olasan. Bunaqa ishtonbog'li ishtonni birinchi bo'lib raisning o'g'li Ilhom kiydi. Biz u yoqqa o'tsak ham, bu yoqqa o'tsak ham ishtonini tushirib, Ilhomning rosa jig'iga tegardik. Ammo cho'milishga borganda, hammadan oldin Ilhom suvga kalla tashlar, suvning "qaymog'i" unda ketardi. Bu bizga judayam alam qilardi. Shunga hamma o'zicha pul yig'ib, attor kelishini kutardi. Mana endi Karim akaning nayrangiga uchib ishtonbog'dan quruq qolib o'tiribmiz. Alam qiladi-da...

Karim aka rezinkani pulini bermasa so'kichakli qorovulxonasini buzadigan bo'ldik. O'ziyam liqillab zo'rg'a turardi.

— Hazillashdim, it emganlar, hazillashdim. Senlarning qovunlaring hammani qo'yib ov qilishga arzirkanmi. Ha, itga bersang it yemaydi senlarnikini. Ov shetta bo'ladi, shetta. Senlar qovunga bir ho-

vuchdan ko'mma solgan bo'lsalaring, men har birining tagiga bir zambildan go'ng tashlatganman, enag'arlar.

Dehqonlar qovun-tarvuz ekishdan oldin ikki ketmon bo'yi chuqurcha qazishib, ularni ot go'ngi bilan to'latib chiqishardi. Keyin qayta ko'mib, ketmon orqasi bilan urib qo'yishardi. Buni ko'mma deydishardi. Urug'lar o'sha ko'mmaga ekilardi. Ot go'ngi qizib, urug'ni tez yetiltirardi. Havo sovib ketsa o'zidan issiq chiqarib ikki, uch quloq bo'lgan nihollarni bahorgi ayozlardan asrardi. Mol go'ngi solishmasdi. Qizdirmaydi, ekinni ildiziga qurt tushirib yuboradi, deyishardi. Shundog'am mol go'ngi yerga ortmas, qish bo'yi yig'ilib, yozda tappi qilib, qishga g'amlanardi.

Karim akaning dag'dag'asidan keyin jimib qoldik. Ovni qanaqa bo'lishini har birimiz o'zimizcha xayol qilardik. Axir hech vaqtda odam o'z qovuniniyam o'zi ovlaydimi? Ovlab nima qiladi? Shundog'am olovurmaydimi? Yana Ko'ktoy bilan ovlarmish. Nimaga endi Ko'ktoy bilan? O'ziniyam iti bor-ku? Ertadan-kechgacha tut tagida bog'log'liq, angillab yotadi. Yana bu ovning oymomaga bog'lab qo'yilgani g'alati. Oymoma bo'lsa hadeganda Karim aka aytgan "miyya"ga kela qolay demasdi.

Kayfi tarqab bo'ldi shekilli, Karim aka tilini bir qarich qilib tupurishni bas qildi. Og'ir tortib, dardmand odamdek ingranib, chuqur-chuqur xo'rsinib qo'ydi. Ming'irlagan ovozda dedi:

— Rostiylarni aytiylar ukalar... shu...

Karim aka qandaydir aytib bo'lmaydigan gapni aytmoqchi bo'lardi-yu, ikkilanardi. Biz Karim akaga yon-atrofdan tikilib qolgan edik.

— "E quyosh..." yaxshi chiqdimi? — dedi u entikib.

— Zo'r...

— Kinodagidaqami-a, aldamayapsanlarmi? — yosh boladek umid bilan so'radi u.

— Xuddi o'shanaqa, ha...ha Karim aka, paqat choladiganlari yo'q-da, — deb chug'urlaymiz biz.

Karim akaning g'amgin yuzlari oy nurida chiroyli bir turlanib ketdi. Qo'shiqni qayta boshlamoqchiday tomoq qirib qo'ydi. Keyin yonboshlab yotgan Qo'chqorga qaradi.

— Sen uka, xafa bo'magin-a?

Qo'chqor hayron bo'lib yotgan joyidan turib, chordana qurib o'tirib oldi. Karim akaga hayron bo'lib qaradi. Karim aka bizlarga o'girilib so'radi:

— Nima deysizlar? Eshitdimikin-a, “E quyosh-ni...”?

Biz bir-birimizga qarab oldik. Karim aka shunaqa ipakdek mayin tortib, sirli qilib so'radiki...

— Kim eshitadi, Karim aka, kim? Kutilmaganda bizning ham ovoqimiz mayinlashib, sirli tus oldi.

— Gulsum-da, Gulsum, — dedi-yu, Karim aka “o'-o'-o'-o'h...” deb yubordi.

Qo'chqor shartta boshini pastga egib oldi. Gulsum uning xolavachchasi. Kolxozchi qizlar orasida eng chiroylisi. O'g'il bolalardek shaddod, quvnoq. Gulsum opaga oshig'-u beqaror bo'lganlarning son-sanog'i yo'q. Bundan chiqdi Karim akaniyam yuragidan urgan ekan-da.

— Bilasizlarmi, ukalar, — dedi Karim aka xo'rsinib, — meni ichimam-tashimam lovullab yonib yotibdi... Eh... buni boshlaringga tushganda bilasanlar. Oh... Men bu dunyoda Gulsum borligi uchun yuribman. Bo'lmasa yashashni hecham qizig'i yo'q. Bugun “Bayanshirin” obkelib ko'p yaxshi ish qildilaring. Bir yozildim-da. Ha, ko'nglim bo'shadi, ukalar. Ishqilib “E quyosh...” Gulsumning qulog'iga yetgan bo'lsin-da.

— Sovchi qo'ying, — dedim.

— Oh, qaniydi, tilginangga shakar, bo'yingdan. Bu hech bo'maydigan ish. Biz kimmiz, kelgindimiz. Peshanamizda quloqning bolasi degan tamg'a bor. Begona itning dumi hamisha qisiq bo'ladi. Gulsum kim? Osmondagi oy-ku u. Sovchi qo'yingmish-a...

Qo'chqor boshini yerdan ko'tardi. “Bilib qo'ylaring, biz shunaqamiz”, degandek bo'ldi go'yo.

Birdan hammamiz jimib qoldik. Ov ham esdan

chiqdi, xuddi bu yerga Karim akaning dardini eshitgani kelgandek.

— Men o‘z yurtimda bo‘lganimda bormi, — dedi Karim aka jimlikni buzib, — do‘ppim yerga tushsa pulga oldiradigan boyvachcha bo‘lardim. Bu yerda mana yozda polizga qorovulman, qishda idoraga.

U do‘ppi o‘rniga boshiga tang‘ib olgan oppoq durani yechib, qayta bog‘ladi. Oyga qarab:

— Vaqt ham bo‘p qopti, — dedi va keti bilan narvonga qarab surildi. — Orqamdan shovqin ko‘tarmay tushinglar. Hammamiz soqovmiz — tamom.

Pastga tushsak Ko‘ktoy ham bir nimani sezgandek quloqlarini ding qilib, qotib turibdi. Ko‘zi polizda. Karim aka nimagadir Ko‘ktoyni pana qilib, cho‘nqayib o‘tirib oldi. Biz ham cho‘nqaydik. Oymoma naq ro‘paraga kelgan. Soyamiz orqaga cho‘zilgan. Dalalar oy nurida cho‘milib yotar, tiq etgan tovush yo‘q. Hatto, chirildoqlar ham bir nimani kutgandek jimib qolgan. Quloqlarim shang‘illab, yuragim gup-gup ura boshladi. Bolalar bir-birimizga suyanishib, g‘uj bo‘lib o‘tirardik. Ko‘ktoy hamon bo‘ynini oldinga cho‘zgan-cha hid olar, quloqlari hali u yoqqa, hali bu yoqqa borib kelardi. Shu payt birdan qarsillagan “o‘q” ovozi eshitilib qoldi. Cho‘chib tushdik. Ko‘ktoy turgan joyida bo‘ynini bukib bir cho‘kdi-yu, yugura ketdi. “Ketdik”, dedi Karim aka Ko‘ktoyning orqasidan tushib. Qayerdandir yana “o‘q” ovozi keldi. Ko‘ktoy qovun palaklarini bosib chopardi. Biz uni qora qilib, egatdan egatga o‘tardik. Nihoyat Ko‘ktoy bir joyga yetib, iskalana boshladi. Karim aka o‘sha joydan bitta katta qovunni uzib oldi-da, menga tutqazdi:

— Chop, chaylaga tashlab ke...

Ko‘ktoy endi boshqa tarafga qarab chop ketdi. Karim aka bolalarni o‘sha tomonga boshladi. Qovunni chaylaga tashlab qaytayotsam sheriklarimam birin-кетин qovun qo‘ltiqlab kelishyapti. Karim aka Ko‘ktoyning orqasidan hali u yoqqa, hali bu yoqqa chopib yuribdi. “O‘q” otishlar uzoqqa cho‘zilmadi. Shu bilan “ov” ham tugadi. Chayla tagiga ancha-muncha qovun

to'plandi. Ular shunaqangi xushbo'y ediki, hidi dimoqqa kirib ishtahani qitiqlardi. Lekin hammasi tars-tars yorilgan edi. Qovunlar yorilganda miltiqqa o'xshab ovoz berar ekan.

— O'hho', — dedi Karim aka qovunning cho'g'ini ko'rib, — bugun ov rosa baroridan keldi-ku. Yasha, azamat, bittayam qoldirmay hammasini topding-a, — deya Ko'ktoyni erkalab qo'ydi. Keyin qovunlardan bitta kattasini oldi-da, chetroqqa qo'yib Ko'ktoyni chaqirdi:

— Ol jonivor, haloling bo'lsin, yevol... Ko'ktoy bunday siylovni kutib turgan ekanmi, jon deb o'zini qovunga urdi.

— Qovunlarni tepaga olishvorasizlar endi, bo'l-masa hid olib hali zamon hammayoqni jayra bosadi. "Ov"dan ajrab qolamiz.

Karim aka haq edilar. Palaklar ichiga jayra kirib qolsa uni haydab chiqarib bo'lmasdi. Yaqinlashding deguncha nayza otadi. Nayzasi zaharli bo'ladi. Bundan chiqdi jayra, chiyabo'ri, tulki, itlar qovunlar qachon yorilishini bilib yarim kechada "ov"ga chiqisharkan-da. "Qovunning shirinini it yeydi", deganlari shu ekan!

Qovunlarni tepaga chiqargach, Karim aka bittasini so'yib bizni mehmon qildi. Biz qovun emas, xuddi novvot chaynayotgandek bo'lardik. Bir tilimdan ortiq yeya olmadik. Karim aka bilan xayrlashib, uy-uyimizga tarqaganda xo'rozlar qichqira boshlagan edi...

Yong'oq tagidagi jin

Boymurod akaning yong'oq tagiga makon qurib olgan jinlar haqidagi hikoyasi Ko'ktoy bilan bog'liq yana bir voqeani yodinga solib qo'ydi.

Biz qishloq bolalari doimo bir xil tashvish bilan yashardik. Hayotimiz ko'proq Bo'zsuv bo'ylarida kechardi. Sigirning qornini to'ydirishdan tashqari, bir ovqat pisharlikmi, choy qaynarlikmi ishqilib o'tin ham topib kelishimiz kerak edi. Pishirgulik topsa kuydirgu-

lik, kuydirgulik topsa pishirgulik topilmaydigan dardi bedavo zamonlar edi. Biz uchun qurigan ajriqning ildizi ham, mol yemaydigan xashak-xushak ham o'tin edi. Bir kuni sigirning qornini bir amallab qappaytirdim-u, bir tutamam o'tin topolmadim. Kuz boshlangan, dala-yu dasht bo'shab qolgan. G'o'zapoyaga ruxsat yo'q, paxta terimi davom etardi. Ammamlar urishmadilar-u, yig'lavorgudek bo'lib dedilar:

— Kechqurunga-ku amalladim, ertalabki choyga nima qilaman endi, otam?

Ammamlar juda xursand bo'lganlarida yoki xafa bo'lganlarida "otam" so'zini qo'shib qo'yardilar. Agarda xursand bo'lib aytsalar "otam" deyishlari yog'dek yoqardi. Birdaniga katta odam bo'lib qolgan-dek shishinib ketardim. Ammo hozirgidek paytlarda musht yegan odamdek a'zoyi badanim zirqirab ketar, o'zimni qo'yishga joy topolmay qolardim. Rost-da, uyimizda erkak kishi men bo'lsam, jiyanlarim yosh, o'tinni men topmay kim topishi kerak?!

— Hozir topib kelaman, — dedim-da, chilvirni qo'ynimga solib, ko'chaga otlandim. Ammamlar:

— Kech bo'ldi, qattanam toparding, qo'ya qol, — deganlaricha qoldilar.

Uyimizdan sal naridagi tepalikda kolxozning o'tinxonasi bor edi. Lekin o'tinxonaga yaqinlashishning o'zi bo'lmasdi. Bir yoqda kolxoz idorasi, undan keyin magazin, temirchi Mihtiyning ustaxonasi, omborxona, otxona, ana undan keyin o'tinxona edi. Men uchun bitta yo'l bor. Ana shu bir-biriga tutash qurilgan binolarning orqa tarafi. U tarafda derazalar yo'q. Faqat temirchi Mihtiyning kul tashlaydigan tuynugi bor, xolos. Tepalikning pasti qator yong'oqzor. Narigi yog'i paxtazor. O'tinni bir amallab o'g'irlaydigan bo'lsam, albatta yong'oqzordan o'tishim kerak. Shunday qilsam meni hech kim ko'rmaydi. Yong'oqlarning barglari to'kilib, ustida yakkam-dukkam qolgan barglar meni botirlantirdi. Yoz paytlari barglari shunaqangi quyuq bo'lardiki, odam kunduzi yurgani qo'rqadi. Shunday bo'lsa ham yolg'iz-

oyoq so‘qmoq tushgan, undan rahbarlarni ko‘ziga tashlanishni xohlamaganlar yurardilar. So‘qmoq yong‘oqzor yoqalab Bo‘zsuv bo‘yiga olib tushadigan ko‘chaga tutashib ketardi.

Otxona darvozasi ro‘parasiga yetguncha men bilan birovning ishi bo‘lmadi. Ko‘cha otxona darvozasiga borib, chapga burilardi-da, otxona yoqalab pastga tushib ketardi.

Nima bo‘ldi-yu, otxona darvozasiga yetganimda otboqar Karimboy cholga duch kelib qoldim. U meni ko‘rdi-yu, “Ha” degandek tikilib qoldi. Jin ursin. Qo‘rqib ketdim. Sir boy bermay darrov salom berdim:

— Assalomalaykum, Karimboy tog‘a.

— Ja, — dedi Karimboy chol, — eri nomoshshomda qo‘yvorgan xotindek nima qilib ivirsib yuribsan bu yerlarda?

Bunaqa paytda kallayam darrov ishlab ketadi:

— Sigirimmi temir qozig‘i tushib qopti...

Biz podamizni Bo‘zsuv bo‘yiga shu yo‘ldan olib tushib, shu yo‘ldan haydab chiqar edik. Yolg‘onimga Karimboy chol ishonmadi.

— He, sigiring o‘lib sigirsiz qol, bedaga aylanishsang, kallangni olaman.

Birdan xo‘rligim tutib, ko‘zlarimga yosh quyilib keldi.

— Bedayz boshshiyzdan qosin, sigirimni qarg‘a-mang. Pochcham o‘lib, ukalarim yetim qoldi, endi sigirimizam o‘lsinmi? Ochimizdan bizam o‘laylikmi? — dedim hiqillab.

Karimboy chol birdan yumshadi:

— Bo‘pti, bor, bor, toshingni ter, — dedi-yu otxonaga kirib ketdi.

Yo‘qolmagan temirqoziqni qidirgan bo‘lib, otxonaning orqa tarafiga o‘tdim-da, jahl bilan shartta devordan oshib, kolxozning o‘tinxonasiga tushdim. Hech zog‘ yo‘q. Kimam bo‘lardi nomoshshomda. Oftob botib ketgan, shafaq ham o‘chib bo‘lgan. Karimboy chol xo‘jayinligini g‘aramdagi bedalarga qilsin! O‘tin bilan uning nima ishi bor?! O‘tinxonada

to'nkalar, shox-shabbalar ayqash-uyqash bo'lib yotardi. Qo'ynimdagi chilvirga bir ko'tarim tut shoxini bog'ladim-da, yong'oqzor tarafdagi devordan oshirib otdim. Orqasidan o'zimam oshib o'tdim. Xayolimda kimgadir jahl qilardim-u, aslida qo'rquvni yengaman deb o'zim bilan o'zim olishardim. Bu taraf ko'zimga zimziyo qorong'i ko'rindi. O'tinni yelkamga oldim-u, so'qmoqdan keta boshladim. Ko'zim oyog'im tagida, u yoq-bu yoqqa qarash yo'q. Biron narsaga qoqilib ketishdan qo'rqaman. So'qmoqni ko'zdan qochirmasam bo'ldi, u uyimizga olib boradigan ko'chaga olib chiqadi. U yog'i bir qadam. Aksiga olib so'qmoqni yong'oq xazonlari bosgan, shitirlab vahima solardi. Nimadir yon-verimdagi xazonlarni bosib kelayotgandek bo'lardi.

Shu payt orqalab olgan o'tinimga yong'oq shoxidan bir nima sakrab tushdi. O'tinning butog'i kurgimga qattiq botdi. Chilvirning bir uchi bilagimga o'ralgan. Bo'shata olmayman. Odatda, bunaqa joylardan kunduzi o'tgan odam yo hushtak chalib yoki biron bir qo'shiqni varanglatib o'tadi. Shu bilan o'ziga-o'zi dalda bergan bo'ladi. Hozirgi ahvolimda na hushtak chala olardim, na... O'tin ustidagi mahluq yelkamdan oshib peshanamni silay boshladi. Nafasim bo'g'izimga tiqilib, dod devorishimga oz qoldi. Jon holatda boshimni chayqab yubordim. Qurg'ur yong'oqni bargi ekan. Shu payt otxonada ot kishnadi. Buyam ancha dalda. Bildimki, o'tinxona orqada qopti, otxonaning ro'parasiga kelib qolibman. Otxonadan keyin omborxona, temirchi Mihtiyning ustaxonasi, maktab, Isog'jon tog'aning hovlisi...

Shu payt ko'z oldim yorishib ketdi. E, olov!.. Ha, ha, olov chor atrofni yoritib, gurillab yonardi. Xayolimda kimdir uni yoqqan-u, o'zi ko'rinmasdi. E, deyman o'zimga-o'zim, bu temirchi Mihtiyning ishi-ku. Otlarni taqalab bo'lgandan keyin, tirnoqlarni shu yoqqa obchiqib kuydiradi. Ustaxonada kuydursa, ham-mayoqni qo'lansa hid tutib ketadi. Olovni yoqib o'zi uyiga ketgan shekilli.

Men yorug'lik — qo'rqmaslik, qorong'ulik — qo'rqoqlik ekanini o'shanda birinchi marta his qildim. Olovni ko'rish bilan qo'rquvni unutib, ichim yorishib ketgandi. Hatto, yelkamni bosib turgan anovi alvasti ham olovdan qo'rqib, yong'oq shoxiga chiqib ketdi-yov. Men o'tinni yerga qo'yib, yelkamga botayotgan joyni almashtirib olmoqchi ham bo'ldim. Shu payt mo'jiza yuz berdi. Olovga jon bitib, pildirab, yarim doira yasadi-da, yo'limni to'sib chiqdi...

Ajina degan o'y miyamga urildi-yu nimagadir Ko'ktoyni chaqira boshladim:

— Ko'ktoy! Ko'ktoy!

Osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi bilmayman. Ro'paramda, harsillaganicha Ko'ktoy turardi. U bir o'ynoqladi-da, meni aylanib o'tib oldimga tushib yura boshladi. Ko'zimni chirt yumib, tusmol bilan Ko'ktoyga ergashdim. Uyga qandoq yetib kelganimni bilmayman. Hartugul o'tinni olib kelibman. O'zimni yerga tashlab, yerparchin bo'lib yotaveribman, yotaveribman. Ammam suv sepib o'zimga keltiribdilar. Ertalab tursam og'zim, burnim to'la uchuq. Ammam ikki dona tuxum berib, kinnachi xolaga jo'natdilar. Kinnachi xola kirdan yag'iri chiqqan bir yostiqli boshimga qo'yib, qoq bo'yraga yotqizdi-da, kinna sola boshladi:

“Qirq sulton, qirq bir chilton,

Kinna-kinna kirmasmu, kirsaslo chiqmasmu.

Qorni katta boylarga bor,

Dumbasi katta qo'ylarga bor,

Qon yalagan qassobga bor,

Un yalagan allobga bor,

Bu yetimchada nima gunoh?!

Ha, chiq-chiq!.. Chiqmaganingga qo'ymayman, badbaxt chiq!..”

Kinnachi xola “hov, hov” deb kekirar, ko'zlaridan shashqator yosh oqardi. Xolaning zamzamalari xush yoqib, uxlab qolibman. Shu payt meni kimdir dast ko'tarib, olib ketmoqchi bo'ldi. Men tipirchilab unamadim. U meni ko'targan joyidan bo'yra ustiga tash-

lab yubordi. Ko‘zimni ochsam, bo‘yra ustida o‘tiribman. Kinnachi xolaning sopol kosadagi kullari sochilgan, o‘zi orqaga ketib, oyoqlari laylak bo‘lib yotardi.

— Voyy!.. — kinnachi xola dumalab-sumalab o‘rnidan turdi. Ko‘zlarining paxtasi chiqib dedi:

— Bunaqasi bo‘magan, bolam, ha... hecham bo‘magan, sen yetimchani bir xudo saqlabdi. Yomon cho‘chiding-a?

Qushdek yengil tortib, uyga qaytdim. Ko‘ktoyni eslayman. Kecha u kelib qolmaganida bormi, jinlar meni hoynahoy Bo‘zsuv taraflarga olib ketardi. Bo‘zsuvni ko‘zimga kichkinagina ariqcha qilib ko‘rsatardi-da: “Qani hatla, hatlab o‘t”, derdi. Shu bilan tamom edi... Ko‘ktoy o‘zi boshqacha-da!

Lekin Ko‘ktoy keyingi paytlarda kechalari osmonga qarab uliydigan odat chiqardi. Ayniqsa, oy to‘lgan kechalari u avjiga chiqadi. Bunday kunlarda qishloq oy nurida judayam chiroyli ko‘rinadi. Balandqo‘rg‘on, Pastqo‘rg‘on, Kenjaqo‘rg‘on hammasi kunduzgidek olamga o‘zini ko‘z-ko‘z qiladi. Hatto, Bo‘zsuvning narigi tomonidagi “To‘qsonbir” degan joylar ham yarqirab ko‘zga tashlanadi. Faqat Bo‘zsuv va uning ikki chekkasidagi jarliklar ustida qoramtir bir sharpa suzib yurganga o‘xshaydi. Ko‘ktoyning osmonga qarab ulishi bu chiroyli olamni yanayam sirli, g‘amgin qilib yuboradi. Ko‘ktoy Balandqo‘rg‘onda yashaydi. Shungami ovozi uzoq-yaqinlarga ketadi. Uning tinimsiz ulishini birovlar yaxshilikka yo‘yar — yurt boshiga tushadigan balo-qazolarni daf qiladi deyishar, boshqalar xosiyatsiz — balo-qazoni chaqiradi, nima balo urush boshqatdan boshlanib qoladimi, deyishardi. Biz Ko‘ktoy uliganda yaqindan borib tomosha qilardik. Ko‘ktoy cho‘nqaygancha tumshug‘ini oyga cho‘zib ulirdi. Uliganda tumshug‘i bo‘yniga qo‘shilib, allaqanday qo‘rqinchi tus olardi. Xayolimda Ko‘ktoy oymoma ichidagi obkash ko‘targan odamni taniydigandek, ular ilgari birga-birga yurishgan-u, nimadir bo‘lib egasi oyga chiqib, Ko‘ktoy yerda qolib ketgan-ga o‘xshardi. “Balandqo‘rg‘on” kunchiqar tarafda

bo'lib, quyosh ham, oy ham shu tarafdin chiqib kelardi. Oymoma to'lib, dum-dumaloq bo'lgan paytlarda, shundoqqina "Balandqo'rg'on"dan ko'tarilayotgandek bo'lardi. Ichidagi obkash ko'targan odam shundoq qadam qo'ysayoq bas, o'zini "Balandqo'rg'on"da ko'radigandek. Yoki Ko'ktoy yugurib egasinig oldiga chiqib olsa bo'ladigandek...

Qishlog'imizda it ko'p edi. Kechasi bittasi akillasa, butun qishloq itbozor bo'lib ketardi. Ammo Ko'ktoy uliganda nimagadir itlar jim turishardi. Go'yo qishloqda Ko'ktoydan bo'lak it yo'q.

Shunday kunlarning birida Oyto'ra xola o'lib qoldilar. Sal o'tmay, institutda o'qiydigan Ismoiljon degan o'g'li ham orqalaridan ketdi. Ha, "Balandqo'rg'on"da yig'i ovozi tinmay qoldi. Ikkita o'lik chiqsa ham Ko'ktoyning ovozi o'chmadi.

Bir kuni tunda "Balandqo'rg'on" tarafdin gumbirlagan o'q ovozi eshitildi-yu, qishloq bir qalqib tushdi. Kataklardagi tovuqlar qaqog'lab, itlar chuvvos ko'tarishdi. Biroq Ko'ktoy jimib qoldi. Ertasiga ma'lum bo'ldiki, uni kimdir cho'chqao'q bilan otibdi.

Qishloq huvillab qoldi. Ammo Ko'ktoyning o'limi boshqa bir tashvishni boshlab keldi. Cho'chqao'q ov miltig'idan otilmas ekan. Bundan chiqdi qishloqda berkitib qo'yilgan jangovar qurol bor. Uni urushdan qaytganlar harbiy komissarlikka topshirishmagan. Uylarni tintish boshlandi. Ammam bilan G'anijon amakim shoshib qolishdi. Bizzi uydayam uchta cho'chqao'q bor edi. Kosa ichida turardi. Bittasini men o'rtoqlarimga maqtanish uchun cho'ntagimda olib yurardim. O'qning uchi uchlik, qop-qora, gilzasi oltindek yaltirardi. Orqasida pistoniyam bor edi. Otilganda gilzasi qolarkan-u, qorasi uchib chiqib, tekkan narsani teshib o'tar ekan. Ko'ktoy xuddi shunaqa o'q bilan otilgan. Bo'lmasa, sochma o'qqa Ko'ktoy o'lmasakan. Itni joni qattiq bo'larkan.

Ammamlar kosa ichidagi o'qni tomorqaga uloqtirib yubordilar. Keyin amakimdan so'radilar:

— G'anijon, o'q ikkitamidi?

— Yo‘q, uchtaydi. Qarang, bolalaringiz olgandir.

Amakim meni eshikka poylaqchi qilib, shoshib taxmondagi ko‘rpani qulatdilar. Amamlar ishlatilmaydigan choynaklarni ag‘darib o‘q qidirib ketdilar. Jiyanlarim Yo‘ldosh bilan Ergashning cho‘ntaklarini titkiladilar. Topolmay jig‘ibiyron bo‘ldilar. Amakim sandiqning bir tarafini bazo‘r surib, orqasidan quvuri ingichka miltiq oldilar. Ko‘rib qo‘rqib ketdim. Amakim sandiqni joyiga surib, ammamga shoshapisha dedilar:

— Ko‘rpalarni tezda yig‘ib qo‘ying...

— Sen bolaga shuni yo‘qotgin deb necha marta aytdim-a. Oborib Bo‘zsvuga tashlavorsang o‘larmiding. Haliyam shunday qil. Ana, qopga o‘ra, jo‘na...

— Nima deyapsiz, opa, qishloq o‘rab olingan-ku. Hech kim uyidan chiqmasin deyishgan...

— Voy sho‘rim qursin... nima qilasan endi buni?

Amakim nima qilarini bilmay, bir zum o‘ylanib turdi-da, hech kim yo‘qmi degandek menga bosh irg‘adilar. Men tashqariga qarab boshimni sarak-sarak qildim. “Hech kim yo‘q! Amakim miltiqni quvuridan ushlagancha yerda sudratib hovliga chiqdilar. Keyin ilkis ko‘tarib, qo‘ndog‘ini to‘nkaga shundoq urdilarki, qo‘ndog‘i samovar o‘tin bo‘ldi-qoldi. Keyin quvurni ko‘ylaklari ichiga tiqib, hojatxonaga o‘tib ketdilar. Birozdan keyin keldilar-da:

— Qo‘rqmang opa, hammasi gatop, — dedilar. — Ha, siz o‘qqi toptizmi?

— Quribgina ketsin, topolmayapman-da shu!

O‘q mening cho‘ntagimda edi. Nimagadir mendan gumon qilishmasdi. Ammam o‘qni qidirishdan charchab dedilar:

— Hech yerda yo‘g‘u?

— Bollariz yutvormadimikan ishqilib? — kuldilar amakim.

— O‘lar... nimalar deyapsan G‘anijon...

— Bo‘pti, bitta o‘q nima bo‘pti. Topishsa, pochchamiz rahmatlik esdalikka obkelganidi deb qo‘ya qolamiz.

G'anijon amakim samovar o'tin bo'lib ketgan miltiqning qo'ndog'ini urchug'igacha terib, tandir ichiga tashladilar. Keyin xotirjam: — Anovi ikkita o'qni nima qildingiz, — deb so'radilar.

— Otvordim, nima qilardim.

— Qaqqa otvordiyz?

— Tomorqaga, — dedilar ammam.

— Bu yil och qopmiz-da.

— Nimaga unday deysan, nafasingni issiq qil uka, — hayron bo'ldilar ammam.

— Yer chopganda, ketmonim pistonga tegib ketsa, o'lamanku, opa.

— Ja, topding bahonani.

— Rost-da, hech bo'lmasa, hojatxonaga tashlavor-maysizmi, opa.

— Qattan bilay, shoshib qoldim-da, otam.

Ammamlar beshikdagi Rixsi jiyanimni emizgancha gap sotardilar. G'anijon amakim tikka turar, men ochiq eshikdan ko'chaga qarab-qarab qo'yardim. Ammam menga ish buyurdilar:

— Hay, tovuqlarga bir siqim jo'xori sepib qo'y... Sigiram och qoldi! Qachon kelisharkin u zormandalar. Uyda qamalib o'tirovramizmi? Shularni bari Ko'k-toyni otganni jatiga. Ha, otmay, otilgurlar-a. Shundoq itni otvorishdi-ya... Qo'llaring singurlar, — deb qar-g'andilar ammam.

Hujraga kirib, siniq sopol kosada jo'xori oldim-da, daydib yurgan tovuqlarni "tu-tu"lab chaqira boshladim. Hammasidan oldin tojisi qip-qizil, chipor xo'roz yetib keldi. Biz tovuqlarni ko'proq shu xo'rozga ishonib bo'sh qo'yib yuborardik. U tovuqlarga tulki u yoqda tursin, hatto begona odamniyam yo'latmasdi. Begona sharpa sezdi deguncha shovqin ko'tarib, qanotlarini qars-qars urib, patlarini hur-paytirib, tovuqlarni atrofiga yig'ib, "urush" holatiga tushib olardi. Xo'rozimiz judayam kekchi edi. Bir kuni qo'shnimiz Turob aka uyiga o'tib ketayotsa, kayfi bor ekanmi, to'satdan qichqirib, o'takasini yoray debdi. Turob aka erinmay xo'rozni tiriqtirib quvibdi.

Shu-shu Turob aka uyiga idoradan barvaqtroq qaytsa, “urush” e’lon qilib, uyigacha kuzatib qo’yadi. U kishi buxgalter bo’lib ishlardilar.

Xo’roz men sepgan donga tumshug’am urmadi. O’zini terib yegan qilib ko’rsatardi-yu, shundog’am yiqilib-surilib qanot qoqib kelayotgan tovuqlarni donlashga chaqirardi. Hovli yuzi oq, chipor tovuqlarga to’ldi. Bitta tepada o’zimiz yolg’iz yashaganimiz uchun, kattakka qamamasdan tovuq boqsa bo’lardi. Ammamlarning bevaligi uchun tepamiz tagidan, tomorqaga deb yer ajratishgan edi. Ammam ham kelib-kelib cho’chqa o’qlarni shu yoqqa uloqtiribdilar.

Men xo’rozning don cho’qish o’rniga, kerma-chog’lik qilib, aylanishini tomosha qilib turib, ko’chadagi ikkita shapkalikka ko’zim tushib qoldi. Xayolimga cho’ntagimdagi o’q keldi. Hali uni bekitib ulgurmagan edim. Qarasam, o’choqni oldida turgan ekanman, shapkaliklardan ko’z uzmay o’qni cho’ntagimdan oldim-u, o’choqqa tashlab yubordim. O’q kulga ko’mildi-ketdi. Keyin “kelishyapti” deb ammamga xabar berdim. O’zim yana o’choq oldiga turvoldim. Ular uyimizga olib chiqadigan so’qmoq boshida nimagadir yurmay turib qolishdi. Orqalaridan partkom yetib keldi. Uchovlari turvolib, o’rischalab ancha chug’urlashdi. Pochchamlarning ismini tilga olishdi. Qo’llaridagi qog’ozga bir nimalar yozishdi. Keyin biznikiga kirmay, keta boshlashdi. Men shoshib, o’qni o’choqdan olmoqchi bo’ldim.

Kosov bilan kulni titkilaganimni bilaman, xuddi kul ichida tuxum yorilganday paqillagan ovoz chiqdi-yu, chotimning orasidan vizillab bir nima o’tib ketdi. Don cho’qilayotgan tovuqlar tumtaraqay bo’lib ketishdi. Xo’roz shunday bir qo’rqinchli ovoz chiqardiki, uni ko’rib hayron qoldim. Xo’rozning tojdor kallasi yo’q, ikki oyoqda dikonglab sakrab yuribdi. Hovli yuzi qon. Qarasam shapkaliklar pusib olib, biz tomonga yugurib kelishyapti.

Ichkariga chopqillab kirib, jon holatda, “kelishyapti”, deb baqirdim. G’anijon amakim deraza

tokchasida o'tirgan ekanlar, lip etib sakradilar-u, ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

Kimdir eshik tagiga keldi-yu, ichkariga kirmay buyruq qildi:

— Ichdagilar tishga chiqig'iz. Bulmasa, bez puru-dupurejeniya atam...

Hozirgina amakim o'zini tashlab qochgan deraza-da yana bittasi paydo bo'lib, ichkariga to'pponcha o'qtaldi:

— Nu, nu, bistro, bistro!

Qo'lida to'pponchasi bo'lsayam ko'zlari ola-kula edi. Ammamlar Rixsi jiyanimni beshikdan bo'shatib, ikkita jiyanimni ergashtirib tashqariga yurdilar. Deraza ko'zida turgan to'pponchalik lip etib ichkariga sakradi. Taxmonlarni, sandal ichlarini qaradi. Men serray-gancha qotib qolgan edim. To'pponchalik mushukka o'xshab hammayoqni titib tashladi... U bir zumda dahliz-u, hujralarimizgacha qarab chiqdi. Bilib turib-man, u o'q otgan odamni qidirardi. U hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, "chiq" degandek yelkamga bir turtidi.

Ammamlar hovli yuzidagi qonni va bir chekkada cho'zilib yotgan xo'rozimizni ko'rdilar-u, jon-ponlari chiqib ketdi. Partkom hech narsaga tushunmay ko'zining paxtasi chiqib, tinimsiz u yoqdan-bu yoqqa yurardi. Ammam Rixsini menga tutqazdilar-da:

— Otayni og'ziga sendaqa zo'ravonlarni, — deb to'pponchalikka tashlanib qoldilar-u. — Xo'rozimni nima qilib qo'yding, qirilib ketkur... Nimaga otasan, o'qing o'zmay o'lsin seni... Yetimlarimmi uvoli tutsin...

Partkom bilan yana bitta shapkalik o'rtağa tushib, ammamni ajratib olishdi.

Ammamlar ko'zlaridan duv-duv yosh to'kib, ezilib-ezilib yig'lardilar. Qo'rqib ketishgan jiyanlarim ham ammamning etagiga yopishib, dod solishdi. Hovlimiz birpasda qiyomat-qoyim bo'p ketdi.

— Hov, Tursun, aylanay jiyanim, gapga quloq sol. Biz seni uyingga kirmasdan o'tib ketayotgan edik. Shu

tomondan birov o'q otdi. Eshityapsanmi, o'q otdi! Tepamizdan vizillab o'tib ketdi. Shundan keyin orqaga qaytdik. Bu yoqqa chiqsak hamma yoq qon, anov yoqda xo'rozing tipirchilab, o'lolmay yotibdi, ha ishon gapimga, Tursunxon jiyan...

Ammam jon-jahdi bilan yopishganlarida boshidagi shapkasi uchib ketgan kishi "plaxoy baba-plaxoy baba", deb yoqalarini tuzatar, shapkasini yerdan olib, yaltiroq joyini zo'r berib yengi bilan artar edi. Yana bit-tasi bo'lsa ammamlarning dod-voyi bilan ishi yo'q, hovlining u yog'idan bu yog'iga borib kelib, bir nimalarning mo'ljalini olar, o'tirar-turar, engashardi. Xuddi esi og'ib qolgan odamga o'xshardi. Oxiri orqasi-dan it quvgandek yo'lakdan yugurib, ko'chaga tushib ketdi. Keyin ko'chada turganicha biz bilan bekin-machiq o'ynayotgandek o'tirib, oyog'ining uchida turib bo'ylay boshladi. Siroj tog'am ammamga bir nimalar deb uqtirar, gaplari qulog'imga kirmas, xayolim anovi masxarabozda edi. Men ham unga javob qilgandek bir pastlab, bir balandlab, o'zimni goh o'ngga, goh chapga tashlab tirjayar edim. Bir mahal u pastdan meni qo'rqitgandek yugurgilab chiqib keldi-da, birdan qo'limdagi kosovga yopishdi. Men bo'lsam anovi "plaxoy baba" deyayotgani ammamga tashlanib qolsa kosov bilan boshiga tushiraman deb, mo'ljallab turgan edim. Kosovni ikkalamiz talashib qoldik. U o'ziga tortdi, men o'zimga. Oxiri u zo'r chiqdi. Kosov bilan uradi endi deb, qo'llarim bilan boshimni pana qilgan-cha o'tirib olibman. U bo'lsa men bilan ishiyam bo'lmadi, o'choqning oldiga borib, kulni tita boshladi.

— Vot, vot, — deb baqirib yubordi u birdan. Shoshib kul ichidan bir nimani qo'liga oldi-yu, qo'li kuyib, uni tashlab yubordi. Yerda archilib ketgan gilza yotardi. Sherigiyam shoshib borib, gilzaning ustiga cho'nqaydi. Unisi o'rischalab, o'qni o'choqning ichidan otilganini zo'r berib tushuntirardi. Qochib qolmasin degandek mengayam qarab-qarab qo'yardi. Sirim fosh bo'lib qoldi. Siroj tog'ayam bariga tushinib yetdilar. Tepamga kelib, ko'zlarini

paxtasi chiqib, to'mtoq ko'rsatkich barmog'i bilan peshanamga nuqiy ketdilar:

— Sen yot unsur, yomon bolaykansan. Men-ku mayli, o'zimizni odamman, o'qing manovilarning bit-tasiga tekkanda bormi, a? Naq onangni uchqo'r-g'onidan ko'rarding. Yo'-o'q, bitta senmas, qaniydi shu bilan qutilib bo'lsa, butun qishloq onasini uch qo'rg'onidan ko'rardi. Ha, qishloq yer bilan bitta bo'lardi... tekislashvorardi, bachchag'ar, odam-poda-mi bilan tekislashvorardi...

Ammam angrayganicha menga qarab qoldilar. Axir ular G'anijon amakim bilan shu bitta o'qni qidirib tinkalari quridi-ku. Jiyanlarimni qorinlaridan bo'lak hamma joylarini titkilab chiqishdi. Men bo'lsam, ko'rib-bilib turib bez bo'lib turaverdim. Ammamlar judayam soddadil, ishonuvchan xotin edilar. Do'xtir-xonada farrosh bo'lib ishlar, oylik olsalar menga sanata dilar. Bir so'mlik bilan uch so'mlikni ajrata olmasdilar. Ammamning menga g'alati qilib qarashi "hali kelib-kelib senga ishonib yurganmidim, otam" degandek yuragimni ezib yubordi. Kishi bilmas ich-etimni yer edim. Qaniydi, shu turishimda yerga kirib keta qolsam...

— Ayda malay, konturda viyasnit itabiz, — dedi meni fosh qilgan askar yelkamga turtib. U totor abziylardan ekan. Ular meni aristondak oldilariga solib olishdi. Ammamga, jiyanlarimga "xayr, yaxshi qolinglar" degandek qarab qo'ydim. Ammam emizikli Rixsi jiyanimni bag'riga bosgancha, indamay ko'zyosh to'kardilar. Ergash bilan Yo'ldosh bo'lsa xuddi men o'ynagani ketib, ular quruq qolayotgandek g'ingshib orqamdan ergashishdi.

— Voy o'lay, — dedilar nihoyat ammamlar o'zlariga kelib, — buni ota-onasiga men nima deyman, Siroj tog'a?..

— Nima derding, tavba? Shuyam gap bo'пти-yu yot unsur deysan, ko'rib turibsan-ku qib qo'ygan ishini. Astag'firullo, bunaqa ishlar paqat yot unsurlardan chiqadi! Shunday deb Siroj tog'a ukalarimni orqaga

qaytardilar, — borilar jiyanlarim, borilar, akaylar bir xuttaga borib o'ynab kelsin...

Jiyanlarim xuttani eshitib battar dodlashdi...

Meni selitra va allaqanday sassiq dorilar saqlanadigan omborxonaga qamashdi. Partkom kalitni choyxonachi Isoqjon tog'aga berarkan dedi:

— Bu yot unsurga rahm qilib yurmang tag'in, xo'pmi?

— A? Nima ishkal chiqardi bu yetimcha, firqa ukam?

— Naq otib qo'yaayozdi bizzi...

— Yoppiray, Tursunxonni uyida o'qotar borakanmi, yo qudratingdan! Rahmatlik Abdumajid topshirmay ketgan ekan-da.

— Otaman desa miltiqsizam otsa bo'larakan. Tavba shuncha yil qon kechib... Bir Xudo saqladi-da, meni. Ajal o'lgur bir enlik teppamdan o'tib ketdi-ya...

— Yo qudratingdan, — deya eshik orqasida g'udrandi Isoqjon tog'a, — kelib-kelib o'zimizni pirqani otasanmi yetimcha — yetti kulcha. Anovilarni otmay-sanmi, anovilarni! Padaringga la'natlar kevolishib, naq mening choyimga tikilib qolishdi. Choyni biram kakra qilib ichishadiki, ko'knorimi deysan... Boraqolay... ha qo'rqma jiyan, osh-ovqating bo'ynimga. Kechqurun bo'lsin qo'yvoraman uyingga borib maza qilib uxlabam kelovrasan. Xohlasang qochiribam yuboraman... Menga nima...

Men Ko'ktoyni G'anijon amakim otgan ekanlarda degan gumonda qoldim. Ular shu ketganlaricha Qozog'istondagi ammamnikiga ketib qoldilar. Ancha yillar o'sha tomonlarda qolib ketdilar. Qishlog'imizda Ko'ktoydaqa it boshqa paydo bo'lmadi. Davralarda Ko'ktoyning qiliqlari, vafodorliklarini ancha yillar gapirib yurishdi.

Najot Allohdan

Oqtosh menga o'sha olis va yorqin bolalik xotiralarimni eslatib yuborgan edi. Boymurod akaning

urg‘ochi itning vafodor bo‘lishi haqidagi gaplari to‘g‘ri chiqdi. Oqtosh daydib u yoq-bu yoqqa ketib qolmadi. Qachon borsam, sadoqat bilan ancha beridan kutib oladi. Tavba deyma o‘zimga-o‘zim, poyezddan tushishim bilanoq hidimni olsa kerak-da. Jonivor cho‘ltoq dumini likillatib uzoqdan chopib keladi. Hozir itligiga borib, suykalanib tahoratimni sindiradi deb xavotirga tushib qolaman. Yo‘q, Oqtosh fikrimni uqqandek ikki qadam narida tappa yerga yotib, ko‘zlari munchoqdek yiltirab, tumshug‘uni ko‘tarib guvranadi.

— Ha jonivor, yaxshi yuribsanmi, “Bog‘dod”da nima gaplar, tinchlikmi? — deb qo‘yaman.

Oqtosh gaplarimni aniq-tiniq tushunadi, sakrab turadi-da, “Bog‘dodda tinchlik” degandek o‘ynoqlab, oldinga tushib, yo‘l boshlaydi. Bog‘hovlidagi hayotim Oqtoshni yaxshilab mehmon qilishdan boshlanadi. U yalog‘ining oldiga borib, sabr-toqat bilan cho‘nqayib o‘tirib oladi. Bilaman, judayam ochiqqan, ammo uning toqatini ko‘rib, hayratga tushaman. Odamda bunchalik sabr-toqat bo‘lmasa kerak. Idishiga siylovi tushgandan keyin ham yutoqib, ochko‘zlarcha tashlanmaydi. Uzoqlashishimni kutadi. Keyin siylovni bir hidlaydi-da, menga, albatta, qarab qo‘yadi. Bu uning minnatdorchilik bildirgani.

Oqtosh poyezdgacha kuzatib qo‘yishni kanda qilmas edi. Endi u poyezdning qorasi yo‘qolguncha peronda o‘tirib qolmas, vagonga chiqishim bilan panapasqam yo‘llar bilan kelgan yo‘liga qarab chopar edi. Yo‘lda daydi itlar ko‘p, ba‘zilariga menga ishonibmi, bir-ikki irillab ham qo‘ygan. Endi ulardan omon-eson o‘tib, bog‘hovliga yetib olishi kerak. Faqat ko‘chadagi mashinalarga tashlanishidan qo‘rqardim.

Ajriqdan tozalagan bir parcha yerimga jo‘xori, bodring ekib, uy qurishni boshlab yubordim. Ha, qurilish ishiga birovni aralashtirgim kelmadi. Loyixasidan tortib, to yog‘och ishigacha bismillo aytib, o‘zim qurishga niyat qildim. Bular poydevor kovlash, g‘isht quyish, devor urishdan iborat ishlar edi.

Sandalli uy odatda kengroq bo'lishi kerak. Chunki to'rt tarafida odamlar o'tirishini hisobga olganda, ancha-muncha joyni egallab qo'yadi. Keyin mo'rili o'choq ham salkam bir metr joyni egallaydi. U devorning o'rtasiga qurilishi, ikki chekkasida bir tomoniga o'tin-cho'p, ikkinchi tomoniga qozon-u, idish-tovoq qo'yiladigan joylari bo'lishi kerak. Shuning uchun sandalli uyni to'rtga-to'rt, keyingi katta xonani to'rtga-besh qilib reja oldim. Katta xonaning yarim metri taxmonga chiqib, to'rt yarimga-to'rt metr chorsi bo'ldi. Yana bu xonada muzlatkich ham bo'lishini o'ylardim. Muzlatkich — uzunligi bir metr, eni oltmish, chuqurligi yetmish santimetr bo'lgan oddiy o'ra. O'raning to'rt tomoni yarim g'isht qalinligida urilib, ichi sement qorishmasi bilan suvalgach, uning tashqi gir aylanasi danam yarim g'isht sig'adigan handaq qaziladi. U qish chillasining qori bilan to'latiladi. Chillada yoqqan qorning joni qattiq va quruq bo'ladi. Qor uchun salafan xaltachalar qo'l kelishi mumkin. Men bolaligimda ko'rgan muzlatkich menikiday uyning ichidamas hovlida bo'lardi. U kattakon xum bo'lib, atrofi sholi poxol-u, muz bilan o'ralgan, tuproq tortib ko'milgan edi. Yozda bu xumda issiqda tez aynib qoladigan narsalar saqlanardi. Yoz chillasida xumning gir aylanasi dan bir chekkasi ochilib, muz parchasi olinar, doriga so'rab kelganlarga berilardi. Muzni shu yerning o'zida qirg'ichda qirib yeyishardi. Ko'proq qari odamlar so'rab kelishardi. U qanday dardga davo bo'lganini hali-hanuz bilolmayman. Harholda yoz kunlari yurakka davo bo'lsa kerak-da. U paytlarda qishda hovuzdagi suvlar bir qarich-bir qarich qalinlikda muzlardi...

Men bog'hovlimga haligidek oxonjamali uy qurishni istamas edim. Ularda hech bir qulaylik yo'q. Kech kuz, uch oy qish, erta bahor bu uylarda yashab bo'lmaydi. Yoz kunlari muzlatkich bo'lmasa, ayniydigan narsalarni qayerda saqlaysan. Buning ustiga bog'hovliga elektr kelmagan. Ishqilib ko'nglimga

ota-bobolarimiz qadimda qanday yashagan bo'lsa shunday yashagim kelib qolgan edi.

Mening bu rejalarimdan qo'shnilarim mantiq axtarib, oldiniga qiziqib eshitishdi-yu, keyiniga xom-xayolga yo'yib, "akademik bo'b ketinge", deb ustimdan kishi bilmas kulib qo'yishdi. Ularga qurilish rejalarimdan ko'ra, ko'proq Oqtosh haqidagi hikoyalari yoqadi. "Oqtoshingiz dachamizdagi jinlarni xaydavoribdi, deb eshitdim... agar shu rost bo'lsa, zap ish bo'pti-da"... "E-e-e... u jonivoringiz yana it go'shti yegan odamniyam bilarkan-a, yozuvchi Boris Pakka ro'para qilib ko'rish kerak ekan". "Oqtosh xuddi sizzi odamdek kutib olib, odamdek istansagacha kuzatib qo'yarmisha-a, vah anovni qarang"...

Qurilish tufayli shirindan-shirin tashvishlarim ko'paygan edi. Juma kunlari ishdan keyinoq, kechki poyezdda jo'navoraman. Yoz bo'lgach, qorong'i tushmasdanoq yetib kelaman. Boshqalar shanba kuni ertalabki poyezdga chiqishar, o'n birlarga yaqin yetib keli-shardi. Kunning yarmi boy berilardi. Men juma kuniyoq loy qorib, shanba kuni sahardan g'isht quyishga tushardim. G'isht katta-katta — har biri oltita kichkina g'ishtning o'rnini bosadigan "polvon g'isht"lardan edi. "Yoz endi boshlandi-yu, shosh-mang", deb ba'zi bemalolxo'jalar o'zlaricha meni ayagan bo'lishadi. "Bu polvon g'ishtlar yoz chillasida bir kunda quriydi, chilladan keyin o'n kundayam qurimaydi, nahotki shungayam ko'p aql kerak bo'lsa", degandek qarab qo'yardim. "E, gap bu yoqda deng", deya o'zlari ustidan o'zlari kulgandek osongina holatdan chiqib ketishadi. G'isht quyish ular achinganchalik og'ir emas edi. Men o'zlashtirgan yerdan chiqqan ajriq ildizlarini loyga qo'shar edim. Bu ildizlar loyni shunday tishlab olardiki, bolta bilan chopib ushatib bo'lmasidi. "Bu ajriqni ildizi borib turgan armatura ekan-u, biz noshudlar shunday qurilish materialini kuydirib yuribmiz-a", deb afsus chekkanlar bo'ldi. Shunchaki ko'nglim uchun aytishdimi, rostdanmi, ishqilib bu ishimgayam besh ketgandek bo'lishdi. Ana

shunaqa gaplar, yozuvchi do'stlarim oldida itimam, o'zimam kundan-kunga mashhurlashib borardik.

Navbatdagi jumalarning birida yo'lga chiqdim-u, falokat ro'y berdi. Poyezd bir kambag'alning sigirini bosib ketdi. Bu ishni xujjatlashtirib, sigir egasini jarimaga tortguncha (bechora ham sigiridan ajradi, ham jarimaga tushdi) bir soatdan mo'l vaqt o'tib ketdi. Shomni vagonda o'qidim. Poyezd oxirgi bekatga yetib kelganida, xufton ham kirib qolgan edi. Qorong'ulik faqatgina mening yuragimga cho'kkandek bo'ldi. Stansiaga tushdim-u, yon-verimga alanglab o'zimga hamroh qidirib qoldim. Zora yozuvchi do'stlarimdan birortasi adashib chiqib qolishgan bo'lsa. Bugun shaharda kun judayam dim bo'ldi-ku. Men u yoq-bu yoqqa qaragunimcha bog'hovlining yaqinrog'iga tashlab o'tib ketadigan avtobus ham liq to'lib, yarimtayam joy qolmapti. Eshigini amal-taqal bilan yopib, jo'navordi. Men bundan yomon fol oldim. Poyezdning kechikishi, avtobusga sig'may qolishim... Qandaydir ko'ngilsizliklardan darak berayotganga o'xshardi. Tavakkal, ko'chaning chekkasidan keta boshladim. Ko'chaning o'ng tarafi baland tog'. Ba'zan omonat turgan toshlari dumalab, yo'lning o'rtasigacha tushadi. Tog'ning usti qalin butazor. Vahimali qorayib turibdi. Osmonda yulduzlar... Lekin toqqa tushgan qorong'ulikni yoritishga ojizlik qilib, zaifgina miltirashadi. Yo'lning chap tomonida daryo. Shovqinlamay jimgina oqadi. Daryoning narigi betida esa son-sanoqsiz chiroqlar, bamisoli shahar. Chiroqlar suvda shunday akslanadilarki, go'yo daryoning tagidayam shahar bordek. Ular qo'l yetmas joyda bo'lsada bari bir yurakka dalda. Ichim yorishib ketadi. Bunday paytlarda nur Allohning sirli bir mo'jizasi ekanligiga shak-shubha qilmayman. Va bu mo'jizaning o'zimcha ta'rifiniyam keltirmoqchi bo'laman! Ammo uddasidan chiqolmayman. Axir Allohning mo'jizalarini ta'riflab bo'ladimi?! Ular qaysi ta'rifga siqqan? Butun dengiz suvlari siyohga, jamiyki daraxtlar qalamga aylanganda ham Yaratganing mo'jizalari-

ni ta'riflab adoq qilib bo'ladimi. Bu haqda Yaratganning o'zi Qur'oni karimning "Nur" surasi, o'ttiz beshinchi oyatida "Alloh osmonlar va yerning nuridir", deb aytib qo'yibdi.

Shularni o'ylab, poyi-piyoda, unda-munda o'tib qolgan mashinalarning chirog'i yorug'ida bog'hovli etaklariga yetib oldim. Undan u yog'iga yurishga nimagadir oyog'im tortmay qoldi. Bog'hovlidagi daraxtlar tepada xo'mrayib turgan tog' bilan birlashib, zimiston bo'lib ketgan, qadam qo'yan odamni yutaman derdi. Qani endi daryoning narigi qirg'og'idagi minglab chiroqlarning jillaqursa bittasigina dalabog'ning o'rtasida yiltirab tursa?! Nima azob deb o'zimni-o'zim koyiyman. Qaysi ahmoq yuz chaqirim joyga kelib, yer ochadi-yu, uy quradi? Shuncha odam siqqan shaharga sen sig'maysanmi? Sig'asan! Lekin bu yerdayam yana bitta imkoniyat topilib qoldi-da. Shunga nafsing hakalak otdi, tinching buzildi. Seni bu kimsasiz joylarda sarson-u sargardon qilib qo'yan shu nafsing emasmi? Ey, nafs bandasi!

Bog'imga olib boradigan ikkita yo'l bor edi. Biri qabristonning o'rtasidan o'tadigan asfalt ko'cha, u ikki baravar uzoq, ikkinchisi yaqingina so'qmog'u, ammo u jinlar uya qurgan o'sha yong'oqning tagidan o'tadi. Jinlarni Oqtosh haydab chiqarganiga o'zimni qanchalar ishontirmay bari bir oyog'im tortmay turardim. Men qaysi yo'ldan yursamikin deb anchadan beri bir joyda turib qolganimni payqab qoldim. Bu ahvolda yana qancha turish mumkin? Birdan miyamga uchinchi "yo'l" kelib qoldi. Uni hech ikkilanmay bajo keltirdim. Bu "yo'l" sal bo'lsayam dadillashib olishim uchun ham kerak edi. Bunday paytda shunchaki xirgoyi ham dalda beradi odamga. Xuddi yoningda kimdir borday. Yo'q, men xirgoyi qilib o'tirmadim. Hov birdagidek shunday hushtak chaldimki! Naq jimjit tog'lar orasi zirillab ketgandek bo'ldi. Chaldim-u, ko'zimni chirt yumib, quloq sola boshladim. Zora mening mehribon, sadoqatli itim eshitib qolsa. U o'sha kundan beri hushtagimni tanib qolgan.

Ana, uzoqdan shatir-shutur ovozlari kela boshladi. Oh, jonivor, jonivorim eshitdi. O'qdek uchib kelyapti o'ziyam. Yuragimdagi vahima birdan chekinib, lablarim quvonchdan yoyildi.

Shu turishda Oqtoshni erkalab, silab-siypab qo'yishgayam rozi edim. Yo'q, u har doimgidek mendan sal narida yerga tappa yotdi-da, "keldingmi?" degandek guvrandi. Ko'zlari uchqun sohib yiltiradi. Oppoq junlari g'ira-shira ko'zga tashlandi. Uni tusmol olib ergashdim. Ketyapman-u, iymonim zaifligidan qiynalibmi, uyalibmi, Yaratganga istig'for aytaman. Axir hamma najot Alloh-dan-ku. Bu bir tilsiz it bo'lsa... Yolg'izning yori Xudo deyishadi. Shunday bo'lgach, Allohning hifzi-himoyasida turib, yana nimadan ham qo'rqadi odam! Bir istig'fordan, ming istig'for aytib boryapman-u, "Amma"dan yodlaganim ushbu oyat yodimga tushadi: "Robbissamavati val arzi va ma baynahumar rohman..." — Alloh osmonlar, yer va ularning orasidagi barcha narsalarning tarbiyachisi, Rahmonidir..." Barcha narsalar qatoriga shu tilsiz jonivor ham kiradi-ku. Balki Allohim ayni damda shu tilsiz jonivori bilan meni quvvatlantirayotgandir. Vujudimni qoplab olgan qo'rquv va tahlikani nari surayotgandir... Nima qilishni, qayerdan, qanday madad yetkazishni Yaratganning o'zigina biladi. Aslida aqlli, farosatli, ziyrak jonivorning osmondan tushgandek bog'imda paydo bo'lib qolishining o'ziyam bir mo'jiza emasmi?!

Ro'molchaxat

Men kunma-kun Oqtoshni kashf etib borardim. U ko'rinmas ip bilan bog'lab qo'yilgandek mendan ajramas edi. Biror yoqqa otlanib qolsam, mendan oldin yo'lga tushardi. Men tappi terib kelish, tog'dan o'tin olib tushish, suv ochish uchun boshqa-boshqa so'qmoqlardan borardim. Oqtosh hovlidan chiqmasimdanoq o'sha so'qmoqda meni kutib turardi. Tavba, shu yoqqa yurishimni qayerdan biladi, deb

hayron bo'lardim. Gapga tushinishi bir sari edi-yu, odamning fikrini uqib olishi ham bir sari edi. Ha, meni benihoya hayratga solardi. Keyinchalik bu sirning tagiga yetdim. Oqtosh qo'limdagi narsadan fol olar ekan. Yelkamga ketmon tashlab chiqsam quloq boshiga, qop ko'tarib olsam tappiga, qo'limda arqon bo'lsa o'tinga borishimni sezarkan.

Bir kuni qiziq bo'ldi. Boymurod aka bilan toqqa o'tinga chiqdik. Boymurod aka eshakda, men piyoda.

Boymurod akaning qiziq-qiziq gaplariga og'ib, ancha-muncha o'tin qilib qo'yibman. Qoldirgani ko'zim qiymadi. Yovvoyi qizil olchalar qurigandan keyin ham zil-zambil bo'larkan. Orqaga qaytdik. So'qmoq goh pastga, goh qirga o'rlaydi. Pastlikka duch kelsam o'tinni dumalatib yuboraman-u ammo u yerdan olib chiqquncha tinkam qurib qoladi. Eshak jonivorniyam tumshug'i yerga tegay-tegay deb boryapti. Oqtosh atrofimizda girdikapalak. Birdan xayolinga bir fikr kelib qoldi.

— Boymurod aka, — dedim. Boymurod akaning har doimgidek do'ppisi qo'lda, yarim kal boshini qashlaganicha menga qaradi. — Oqtoshni avliyo devdingizmi?

U kishi "shunday" degandek jilmaydi.

— Hozir sinab ko'ramiz. Oqtosh bu yoqqa ke, — deyman uni o'zimga imlab.

Oqtosh yonimga keladi-yu, fikrimni uqqandek nafas olmay, men tomonga bo'ynini cho'zdi. Ro'molchamni uning bo'yniga bog'layman-da:

— Bor jonivor, kennoyingni yordamga boshlab ke, — deb uyimiz tarafni ko'rsatdim.

Oqtosh topshiriqni olib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

— Xuddi kinolardagidek bo'ldimi, — deya Boymurod akaga qarab kulaman. — Qog'oz-qalam bo'lganda yanayam o'rniga tushardi-da, bu "ro'molchaxatimiz"ni kennoyisi tushmagur "o'qiy" olarmikan?!

— Nima qilamiz, kennoyini kutamizmi? — so'raydi Boymurod aka. Nimagadir u kishi Oqtoshning odam boshlab kelishiga ishonardi. Men esam yo'q.

— Keling, chiqmagan oftobga isinmaylik, qimirlagan qir oshar, — deb inqillab-sinqillab o'tinni yelkamga olaman, — qir oshib turaylik...

Bir jarlikka tushib, u yerdagi manzarani ko'rib, hayron qoldim. Bu yerga bahor endi yetib kelgandek edi. O'tlar barra, ko'm-ko'k. Qarab turib, odamning ko'zi yashnaydi. Eshak jonivor yutoqib, o'zini ko'kka urdi. Rohatbaxsh bir salqinlik kishi vujudini erkalardi. Ko'zlarimni yumib, jarlik soyasiga cho'zilaman.

— Mulla, suvga qalaysiz? — so'raydi Boymurod aka.

— Tilizzi qarg'a cho'qisin, — deyman yutinib.

— Anakka, — deb kuladi Boymurod aka.

— Rost-da, yo'q narsani nima qilasiz esga solib, o'zi shundog'am to'kilib turibman.

— Suv bor-da, axir!

— Yo'g'-e, — deb dik etib o'rnimdan turib ketibman.

Boymurod aka "yuring" degandek, oldinga tushib, yo'l boshladi. Jarning adog'ida rostanam buloq bor ekan. Ikki qarichgina temir quvurdan jildirabgina oqib turar, nari ketolmas, shu yerning o'zida yerga singir edi. Atrofini ninachi, kapalak, shilliqqurt bosgan, loyda tulki, it, qushlarning izi bor edi. Suvni hovuchimga to'plab-to'plab, bir alhamdudan, ming alhamdu aytib to'yib ichdim.

— Mazasi, o'zimizzi qo'tirbuloqqa o'xshaydimi? — so'rayman tanam yayrab. Endi menga hech qanaqa kennoyini keragi yo'q, har qancha o'tin bo'lsa ko'tarib ketadigan bir kelbatga tushgan edim.

— O'shanda shu, qo'tirbuloq bettan qochib, ashag'dan chiqqan, — dedi Boymurod aka, — o'hho'... bir paytlar qo'tirbuloq degani yer ostidan guldirab chiqardi. Atrofida quloch yetmas tollar o'sardi... Xo'p ziyorat qiladigan joylar edi-da! Onayni emmagurlar bir deganda qochirvorishdi-ya... — deya achinish bilan menga qaradi Boymurod aka.

— Qo'ysangiz-chi, Boymurod aka, xo'p gapirasiz-

da, buloq-buloq-da, uni ettan betga qochirib bo'lar-kanmi,— deb jo'rtaga jig'iga tegdim.

— Siz shunaqasiz-da, bizdaqalarni gapiga ishon-maysiz, — deya qizishdi Boymurod aka. — Biz bor gapni aytamiz, yolg'onga do'ppi kiydirmaymiz. Buloq shu yerdan guldirab chiqardi-da, hov eshak o'tlayot-gan joyda bir yoyilib olardi, keyin pastga qarab tushib ketardi. Yo'lida tegirmon boridi... Bahori bug'doylarni o'shanda un qilardik. Ja mayin tortardi. U paytlarda hayvonlarga qo'tir ko'p toshardi. Parvo qilmasa odamlargayam o'tib ketardi. O'sha suv yoyilgan joyda mollarni bir-ikki cho'miltirsak bo'ldiydi, qo'tiri to'kilib, sen ko'r, men ko'r bo'lib ketardi.

Xayolimda Boymurod aka ertak aytayotganga o'xshardi. Ipdek jildirab tushayotgan suv qachonlardir tegirmon toshini yurgazganiga ishonib bo'lmasdi. Bu kishi usta hikoyachilarga o'xshardi. Odamni qiziqtirib, yechimini oxiriga asrab qo'yardiki, tan olib aytishim kerak, yaxshi ma'noda hasadimam kelardi. Qalam-kash degan nomim bo'la turib, voqealarni Boymurod akachalik o'rni-o'rniga qo'yib, marjondek bir ipga tiza olmasdim. Mana hoziram buloqning qochganidan gap ochdi-yu boshqa tomonlarga o'tlab ketdi. Oxiri voqea qanday qilib buloqni qochirishgani bilan yakun topi-shini sezib turibman. Shuning uchun gaplarini bo'lmay eshitaman.

— Shu desangiz, bir kuni, o'shandayam shunaqa yoz edi. Men hov Beltepada podani o'tlatib yurardim. Bir uzun yuk moshinasi kelib to'xtadi. Tog'da boqi-ladigan kolxozlarning mol-qo'ylari shunaqa moshi-nalarda tashilardi. Bir mahal mashinadan uzun-uzun, biqqa-biqqa kaltabaqay bir nimalar chiyillashib tushib kelishdi-yu... Durbunimminan qarasam bari cho'ch-qa... katta-a...katta-a. Anakka, yaylovlarimizda boqil-magan cho'chqa qoluvdi, deb jonim hiqildog'imga kelib qarab turdim. Qayerdadir G'azalkat taraflarda cho'chqaxona borligini eshitib qolardim. Hoynahoy ashag'dan obkeganov deb turibman. Shu desangiz cho'chqani boshlovchisi bilassimi kim bo'larkan?

Odam, ha cho'chqani odam boshlab yurarkan. Bittasi borakan, qaqqa yursa, bir moshin cho'chqa o'shaqqa yuradi, deng. O'sha boshlovchisi cho'chqalarni to'ppa-to'g'ri qo'tirbuloqqa olib bordi. Suv yoyiladigan joyda cho'chqalar ey yayrashdi, yayrashdi... Voybo', cho'chqa deganlari balchiqqa o'ch bo'larkan. To'rt oyog'ini osmonga qilib, bir chiyillashadi deng... Keyin bilsam ulargayam qo'tir yuqqan ekan... Bu gap shu kuniyoq qishloqqa tarqaldi. Qo'tirbuloqning suvi-ni hech kim ichmay qo'ydi. Ziyoratchilarniyam qadam-i uzuldi. Tegirmonam to'xtadi. Xudoning qudrati bilan shu yili qishda ko'chkin bo'ldi. O'-o'-o'... quchoq yetmaydigan tollar, tegirmon deysizmi, barini tep-tekis qilib ketdi. Ha, yer yutvordi... Keyin bilsak qo'tirbuloq pastdan, hov, siz ko'rgan joydan bilakdek bo'lib chiqqan ekan. Bilasiz, odam etga zo'rg'a tushadi. Tuyoqli hayvonlar yo'lay olmaydi. Jonivor qo'tirbuloq o'ziga qulayroq, panaroq joyni topib chiqqanini qarang, mulla.

— Yuring, bu yerdan tezroq ketaylik, — dedim Boymurod akaga qarab.

— Ha, keta qolaylik, — deya u kishining mitti ko'zlari xavotirdan bejo yiltirab ketdi.

— Qarg'ish tekkan joy ekan, bunaqa joyda uzoq turib bo'lmaydi, — dedim jiddiy.

— Rost aytasiz, cho'chqalar harom qilganda betti, asti... ha-a, — dedi Boymurod aka yana do'ppisini qo'lga olib boshini qashir ekan, — siz ayting-chi, mulla kim qarg'agan bo'lishi mumkin-a? Men yelka qisdim. — O'shanda domla buva boshlarini yerga egvolib, sarak-sarak qilib, ko'p xafa bo'luvdilar, hoy-nahoy, o'sha qarg'aganov.

— Bilmadim, bilganim shuki, cho'chqaning haromligi Qur'onda kelgan. Shunday pokiza joylarni bulg'anishi, oyoq osti qilinishi Xudoga yoqmagan bo'lishi kerak. Ha Allohning qahri kelgan...

Ikkovimizam xayolga tolib, orqaga qaytdik. Shu payt kutilmagan g'ala-g'ovurdan cho'chib tushdik. Bundoq qarasak, tepamizda bir dunyo odam.

Dalabog'dagi qo'shnilarimiz. Erkag-u ayol, bola-yu baqra...

— Ma'lum bo'lishicha, Oqtosh "ro'molchaxatni" yetkazgan, kennoyi xavotirga tushib, qo'shnilarni oyoqqa turg'azib, kelib turishgan joyi ekan.

Boymurod aka "aytmadimmi?" degandek menga qarab qo'ydi. Ro'paramda cho'ltoq dumini likillatib, Oqtosh turardi.

Ko'z tegdi

"Ro'molchaxat" voqeasidan keyin Oqtosh yanayam mashhur bo'lib ketdi. Mabodo tug'sa, bolasidan olaylik deb mulozamat qilganlar qancha? Bunaqa itlar tug'maydi, tug'sa avliyoligi qoladimi, deb itimning narxini oshiraman. Bu yoqda uyimam ko'tarilib, ko'zga ko'rina boshlagan. Polvon g'ishtlarni judayam quritmay, sal selgishi bilan devorga bosaman. G'isht yaxshi qurimagani uchun ko'tarib devorga mindirish qiyin kechadi. Og'ir-da. Lekin men har bir g'ishtni "bismillo" aytib ko'tarar, shunday deyishim bilan g'isht o'zidan-o'zi devorga chiqib qolgandek bo'lardi. Men aniq-tiniq sezardim Allohning farishtalari yordam berishganini. Ish o'rgatuvchi dangasa qo'shnilarim: "G'ishtni yaxshilab quritsangiz-u, ko'tarish oson bo'ladi-ya", deb menga achingan bo'lishadi. "Bunaqa g'ishtlar bir-birining ustiga minib devorda qurisa, ja tishlashib tosh-metin bo'lib ketadi", deb ataylab qila-yotganimni tushuntirmoqchi bo'laman. Keyin bu g'ishtlarni men ko'tarmiyman, birodar, Allohning farishtalari ko'tarishadi, deb qo'shib qo'yaman. "E, ha-a-a... shunaqa demaysizmi", deb ko'zlari alang-jalang bo'lib, jo'nab qolishadi. Ular mana men degan yozuvchi, olim bo'lishmasin, bari bir ilohiy mo'jizalardan yosh boladek qo'rqishadi. Men ularga Payg'ambarimiz sallollohi alayhi va sallam "Bismillosiz boshlangan ishning oxiri kesik", deganlar, har bir ishni Allohning ismi bilan boshlasangiz, charchamaysiz, ishingiz unadi, deyman. Ular "bizda siz aytgandaqa

bo‘maydi-da”, deb hiringlab kulishadi. Avvalo, Allohning buyurganini bajaring, keyin Payg‘ambarimiz aytganlarini qiling — besh vaqt namoz o‘qing, fitir-sadaqa, zakot bering, ana undan keyin bo‘ladi-da, deb achitib olgim keladi-yu, tilimni tishlayman. Bittasiga aytuvdim, paqqos vahobiyga chiqarib qo‘yayozdi meni. Bo‘lmasa, o‘zi Ahmad Yassaviyning avlodidanman deb maqtanib yuradi. Islomdan gapirib, yakkalanib qolish-dan qo‘rqaman. Shundog‘am ular menga dachaning shayxi deb nom qo‘yib olishgan. E, qo‘yinglar bu nom menga og‘irlik qiladi, ana Yo‘ldosh Eshbek turibdi-ku, oppoq kiyinib, qo‘lidan tasbeh tushmaydi, keyin unda osmonning kalitlariyam bor, xohlagan sayyorasidan xohlagan gumanoyidni chaqira oladi, buni ustiga ekstrasens, deyman. Meni shayx deyishlariga boshqa bir sabab ham bor. Garchand namoz o‘qishga jamoa to‘planmasayam besh vaqt azon aytaman. Ovozim tog‘larga urilib, bir guldirab beradi. Dastlab azonni ichingizda ayting degan takliflar ham bo‘ldi. Tavba, tuppa-tuzuk ilmi odamlar shunday deb turishsa. Azonniyam hech mahal ichda aytib bo‘larkanmi? Azon bu odamlarni ibodatga chaqirish-ku. Najotga shoshilinglar! Gunohlardan forig‘ bo‘lishga shoshi-linglar! Uyqudan namoz afzal deymanku. Bu taklifdan qattiq xafa bo‘lganimni qo‘shnilarga ochiq aytdim. Hartugul ko‘pchilik tarafimni oldi. Hech bo‘lmasa, azonimdan soat nechchi bo‘lganini bilib olisharkan. Keyin ovozim ko‘pchilikka yoqarkan, allaqanday xayollarga toldirib, ularga ilhom parilarini chaqirib berarkanman. Men ayrimlarning quloqlariga azon ovozi nimaga yoqayotganini bilardim. Ular dunyoga kelgach, ism qo‘yish marosimida, albatta, qulog‘iga azon aytilgan. Quloq pardalari azon va takbir bilan ochilgan. Shuning uchun bu quloqlarga azon ajib bir sehrdek kiradi. Azon ovozi yoqmaydiganlarning qulog‘iga azon va takbir aytilmagan. Albatta, buning uchun ular aybdor emas. Yo azon aytib, ism qo‘yadi-gan odam bo‘lmagan, yo ota-onalari g‘irt kommunist bo‘lishgan. Bu gaplarni ularga aytib bo‘ladimi? Aslo!

Bir kuni azon bilan bog'liq bir voqea bo'lib o'tdi. Vaqt peshinga yaqinlashib qolgan, azon aytaman deb tashqariga chiqsam Ilashvoy shogirdi bilan kelib qoldi. Zarur gapi borga o'xshardi. Gap boshlab qo'ysa, bo'linib qolishini o'ylab:

— Uzr, azon payti bo'p qoldi, azon aytib, peshinni o'qib olay, keyin bafurja gaplashamiz, — dedim.

— E, — dedi Ilashvoy iddao bilan, — azon chaqirganingizdan keyin boshqalaram kelishsaykan, kelishmaydi-yu...

Ilashvoyning o'ziyam, shogirdiyam namoz o'qimasdi. Shunga qaramay menga bo'lishgani yoqib ketdi:

— Kelishadi, ular kelmasa, musulmon jinlar kelishadi. O'hho'... azonni eshitishadi-yu, bir-birini yur-yur qilishib, bir zumda shamoldek uchib kelishadi. Orqamga tizilib olishadi. Men ularga imom bo'laman. Ular menga iqtido qilishadi. Shunday qilib, qarabsizki jamoa jam bo'lamiz.

Bu gaplardan har ikkovining og'zi lang ochilib qoldi. Azonni aytib, duosini o'qib, bundoq qarasam Ilashvoy shogirdi bilan xuddi birov quvgandek ketib boryapti.

— Ilashvoy, ha, — dedim hayron bo'lib, — birov chaqirib qoldimi?

— Namozingizni o'qib bo'ling, keyin kelamiz, — dedi. Nimagadir Ilashvoyning ovozi xavotirli chiqdi.

Shu kuni Ilashvoy kelmadi. Bir haftadan keyin ko'rinish beruvdi, eslatdim:

— O'sha kuni kelaman deb kelmadingiz yo mendan xafa bo'ldingizmi?

— E aka, sekin aytassimi, o'sha kundan berisiga o'zimga kelolganim yo'q, shogirdim bo'lsa, ikkinchi bu taraflarga qadam bosmaydigan bo'ldi. Ilashvoy gapiryapti-yu, ko'zlari o'zidan-o'zi alang-jalang bo'lib ketyapti. — Kemasang kema dedim shogirdimga. Axir hammani joni o'ziga shirin-da, aka!

— Nima bo'ldi o'zi, tinchlikmi, Ilashvoy? — deyman shubhaga tushib.

— O'sha kuni jinlaringiz g'uvillab ustimizdan o'tib

qolishsa bo'ladimi? Shogirdim ikkovimiz bir-birimizga qarab, baqa bo'lib qopmiz, deng...

— Yo'g'-e, ko'rdinglarmi, — dedim shoshib, — jinlarni-ya?

— E-e-e... yaxshiyam ko'rmadik, — deya boshini sarak-sarak qildi Ilashvoy. — Ko'rsak bormi, taxta bo'p qolarmidik. Aytganingizdek g'uvillab shamoldek uchib kelishdi-yu, uyingiz tarafga o'tib ketishdi. O'lay agar, haliyam qulog'im tagida "g'uv..." degan ovozi turibdi, aka. Ilashvoy juda bir katta hurmatli odamning ro'parasida o'tirgandek, bir yerga qarab, bir chetga qarab gapirardi. — Mahalladagi chollarga aytsam, Xudoyimga yaqin kishiyan, ziyoratiga boramiz, deyishdi. Keb qolishsa, hayron bo'lib yurmang tag'in. Tomingizni adam ikkovimiz yopib beradigan bo'ldik, bir tiyiningiz kerakmas, duo qilsayiz bo'ldi, aka...

Ilashvoy bir yerda o'tiradigan odammas. Usta-da. Qo'lidan kelmaydigan ish yo'q. Radio, televizorlarniyam tuzatib ketaveradi, baraka topkur. Elektr o'tkazish ishlariyam qo'lidan keladi. Tom yopish bo'lsa qo'g'irchoq qilib qo'yadi. Bugunini o'ylamaydi. Ertasini o'ylaydi. Kim qurgan — falonchi qurgan, baraka topsin, qo'li dard ko'rmasin, degan gap kerak unga. Shunga haridori ko'p. Shanba, yakshanba kunlari dalabog'imizni aylanib, hammaning ko'nglini olib chiqmasa ko'ngli joyiga tushmaydi. Shunday qilib, mening jinlar bilan birgalashib namoz o'qishim, dalabog'imizga yoyilib ketdi. Bir kuni Ilashvoyning mahallasidan bir yigit darmondan ketib, shilqillab qolgan bolasini ko'tarib kelib qoldi.

— Sizga ixlos qildim, aka, o'qib qo'ysangiz...

Hah bechora soddagina-ya! Ixlos qo'ygan odamini qarang. Yarim yalong'och, hammayog'im loy. Notanish yigit oldida ja noqulay ahvolda qoldim. Men namoz o'qirdim-u, hali bunaqa "kuf-suf" tomonlariga o'tmagan edim. Dabdurustdan nima deyishimni bilmay qoldim. Yigit bechora javdirab ko'zimga qarab turibdi. Bolasi bo'lsa boshini shilq etib hali o'ngga, hali so'lga tashlaydi. Judayam holdan toygan.

Ko'zlarini ochishgayam holi yo'q. Og'zidan so'lakayi oqib yotibdi.

— Do'xtirga ko'rsatmadingizmi? — so'radim bolaning qo'lini ushlab. Xayolimda bolaning issig'i borgan o'xshagan edi. Qo'li muzdek.

— Buni do'xtirlik ishi yo'q, o'qish kerak, paqat o'qish kerak, — dedi zorlanib yigit. Shunday der ekan cho'zinchoq dahani qaltirab ketdi. Ilgari ko'cha-ko'yda ko'rganmanmi yo birovga o'xshatdimmi, ishqilib qiyofasi tanish edi. Eslolmadim.

Halidan beri parishonhol, chaynalib turganimni ko'rgan yigit:

— Bevaqt kelib qoldikmi deyman, o'qiydigan paytingizni ayting, yana kelovramiz, — deb qoldi.

— Ha, ha, — dedim shoshib, — bomdoddan keyin o'qisa yaxshi bo'ladi-da. Bolaning og'zidan so'lakayi oqqanini ko'rib, nimagadir novvot esimga tushgan edi. Qon bosimimning pastligi, buning ustiga loy ishlariga unnab yotganim uchun novvotning qozontagisidan olib kelib qo'ygan edim. Ko'pchilik duriga ishqivoz bo'lishadi. Aslida quvvat unisidamas, bunisida. Bitta aybi — dasturxonni bezamaydi, xolos. O'sha novvotdan bir bo'lagini qog'ozga o'rab, yigitga tutqazdim:

— Qora choyni achchiqroq qilib damlang-da, novvotchoy qilib ichiring, — orqasidan qo'shib qo'ydim, — bunga dam solingan-a!

Yigit cho'ntagini kovladi. Nima qilmoqchiligini darrovda tushundim. Ha, bunaqa narsalarga maza-xo'rak bo'lmaslikni bilardim.

— Cho'ntak kovlaydigan bo'lsangiz oldimga boshqa kemang, — dedim azbaroyi qovog'imni solib.

— E, siz zo'rakansiz-ku, — dedi yigitning chiroyi ochilib. — Unda mayli, uyingizni suvog'i mendan. Nima qilib bo'lsayam shu o'g'limmi tuzatib bersangiz bo'ldi.

— Tuzatguvchi Alloh, biz so'raymiz xolos, — dedim so'lakayi oqib yotgan bolaning yelkasini silab. — Hudo xohlasa toy bola ko'rmagandek bo'p ketadi.

— Aytganingiz kelsin.

Ota-bolani kuzatib qo'yib, loyxonaning ustiga borar ekanman, o'ylab ketaman. Bu yerdagi odamlar bunchalar sodda. Bittasi tomingizni yopib beraman desa, yana bittasi suvog'ini bo'yniga olib tursa. Ajabo, bu nimaning sharofati? Astoydil tavba qilib, ibodatga qoyim bo'lganimning mukofotlarimikan? Yo, odamlar ibodatli kishilarni shunchalar sog'inib qolishganmi? Azon aytish judayam katta martaba emasku. Xohlasa hammayam ayta oladi. Masjidning imomi, qishloqning domlasi bo'lish bu chindanam katta martaba. Uyammas, buyammas odamlar Allohni sog'inishgan. Boshqa hech narsa emas. Adashib qolgan odam bari bir o'z go'shasini, o'z yaqinlarini qo'msaydi. O'xshash go'shalar, o'xshash odamlarni ko'rganda yuragi orziqib ketadi. Qadrdonidek bag'riga bosgisi keladi. Odamlar ham dinsiz jamiyatda uzoq yillar adashib yurishdi. Hatto, jinlar ham xuddi odamlardek musulmon va kofirlarga bo'linib yashashini, kofirlari shaytonning malaylari ekani, musulmonlari bo'lsa hech qachon odamlarga zarari tegmasligini bilmadilar. Hatto, jinlarni bo'lmag'ur yo'q narsagayam chiqarib qo'yishdi. Axir Allohning inson va jinlar menga ibodat qilsinlar deb yaratdim degan oyatlari bitilgan kitoblar yoqilib, kuli ko'kka sovrildi-da. Bo'lmasa, Alloh yaratdim degan narsani yo'q, odam maymundan paydo bo'lgan deb kufarga ketisharmidi? Odamlarning qulog'i azonda aytiladigan "Allohu akbar!" — Alloh ulug'dir, zikri o'rniga Alloh yo'q (astag'firulloh) degan zo'rlovlardan bitib qoldi-da. Mana endi ibodatli har bir odam ko'zlariga avliyo bo'lib ko'rina boshladi.

Shularni ko'ngildan o'tkazar ekanman, yodlab yurgan oyatlarim tilimga keladi. O'zim bilmagan holda takrorlay boshlayman, har xil ohanglarga solib ko'raman. Oyatlarni tajvid qoidalari bilan o'qish kerakligini mutlaqo bilmayman. Xayolimda ertaga og'zidan so'lakayi oqib turgan bolakayni o'qiyman-u, u otasining qo'lidan tushib chopqillab ketadigandek. Ha, bunga men qattiq ishonaman. Bekorga u yigit menga ixlos qo'ymagan. Bo'lmasa, shunday katta

qishloqda o'qiydigan odam topilmaydimi? Alloh uning ko'ngliga meni solgan. Hoynahoy, ilashvoyning ta'rif-u tavsiflarini eshitgan. Ajabo dindand mutlaqo xabari bo'lmagan odamlar ham mana shunaqa tasodiflar bilan mashhur bo'lib ketisharkan? Hatto, katta ko'chalarda o'z-o'zidan "Tabib", "Domla ostanovkasi" degan bekatlar paydo bo'lib qoladi. Meni ham oldinda ana shunday shon-u shavkatlar kutayotganini sezib qoldim. Ammo Yo'ldosh Eshbekning o'zga sayyoraliklar bilan aloqa o'rnataman deb o'rnatolmaganini eslab, qo'rqib ketdim. Meniyam shayton hovliqtirayotgan bo'lmasin, tag'in? Uch-to'rtta surani yod olib, azon chaqirgan, namoz o'qigan bilan odam darrovda Allohga yetisha qolmaydi-ku! O'ttiz pora Qur'onni yod olganlar ham miq etmay yurishibdi-ku.

Kattaroq loy qorish uchun suv ochib kelish kerak bo'lib qoldi. Ariqdagi bormi-yo'qdek jildirayotgan suv bilan ishim bitmasligini bilib, ketmonni yelkaga tashlab, quloq boshiga yurdim. Bunday paytda Oqtosh, albatta, ergashadi. To'g'rirog'i, men unga ergashaman. Oldinda o'ynoqlab yo'l boshlaydi. Ketmon yelkamda bo'lgach, qayoqqa borayotganimni oldindan biladi, jonivor. Quloq boshiga borsam, suvni katta quloqdan pastki mahallaga burib ketishgan ekan. Bog'hovlidan chiqib, asfalt yo'ldan tepaga ko'tarilishga to'g'ri keldi. Tashqariga chiqqanimiz Oqtoshga yoqib ketdi. U tekis yo'lda ship-ship yurib, battar o'ynoqlardi. Ichkarida bog'ma-bog' sanqiyverish joniga tegsa kerak-da. Bu tomonlarda bir o'zi izg'igani qo'rqadi. Toqqa chiqqanam, tushganam yonida naq eshakdek-eshakdek itlari bilan yurishadi. Ular Oqtoshni ko'rsayoq mijib qo'yishlari hech gapmas. Shuning uchun Oqtosh bu taraflarga meni qora qilib chiqadi. Xuddi hayvonot bog'iga ketayotgan yosh boladek o'ynoqlashi shundan. Biz ko'pam yurmagan edik oldinda bir eski "Zaparojets" ko'rindi. To'xtatish muftasi yaxshi ishlamay qolganmi, qiyalikdan bir to'xtab bir, yurib, ming azobda tushib kelayapti. Oqtoshni yonimga chaqirib, chetroqqa chiqib turdik.

Mashina ro'paramizga kelib to'xtadi-da, yana yurdi. Shu payt bir chekkada jim turgan Oqtoshning itligi tutdi. Har doimgidek yon tomonidan tashlanib qoldi. Haydovchi tezlab ketishdan qo'rqib, to'xtatgan edi, Oqtosh uni quvib o'tib, naq ro'parasiga turib qoldi. Mashina qo'zg'alishi bilan oldindan tashlanib qoldiyu. Nimadir qarsillab ketdi. Sezdim mashina uni urib yubordi. Vujudim tok urgandek zirqirab ketdi. Oqtoshning mashina tagiga kirib ketganini ko'rdim. Mashina uni bir zumda qorni bilan jo'valab, orqasidan chiqarib yubordi. Oqtosh avvaliga nima bo'lganiga tushunmay irg'ib o'rnidan turdi-yu, birdan vangillab, oldimga chopa keldi. Afti-angori qon, yer bag'irlab shunday angillardiki, quloqni teshay derdi. Yuragimga sanchiq turib ketdi. Men bo'lsam:

— Ahmoq, ajab bo'ldi, xo'p bo'ldi, — deb o'lganining ustiga tepgan qilib Oqtoshga ketmon o'qtalib yuribman. Oqtosh jon holatda o'zini bog' ichiga urdi. Vajohatimdan qo'rqib ketdi shekilli. Mashinaning bosganiyam bir sari-yu, mening do'q-po'pisam ham bir sari bo'ldi. Oqtosh ko'rinmas, ammo dod-faryodi dalabog'ni boshiga ko'tarardi. Ovozini eshitmagan odam qolmadi.

Oqtoshni shu kuniyam, ertasigayam qidirib hech yerdan topa olmadik. Hatto, Boymurod aka biron ochiq go'rda yotibdimikan deb eski qabristongacha kirib chiqdi.

— Ha endi, — dedi Boymurod aka do'ppisini qo'liga olib, — yaxshi it o'ligini ko'rsatmaydi. Hoynahoy bu o'sha, kopir jinlarni ishi, ha, alamlarini olishdiyov. Keyin, ko'zam tegib ketdiyov boyaqishga... Attanggina-ya, tug'sa bolasidan olmoqchiydim. Yana kim biladi deysiz, ermanni topib olgan bo'lsa, o'shani ustida ag'anab yotibdimi?

— Erman itgayam davomi? — so'radim ichimda chiroq yonib.

— Ey, siz ermanni bilmabsiz, u qimirlagan jon borki, bariga davo. Bir kuni chaylammi oldida bir ilonni qushlar ey cho'qilashdi, ey cho'qilashdi — qora

qoniga botirishdi. O'ldiyov deb kurakni betida pastga otvordim. Ikki kun o'tdimi, uch kunmi esimda yo'q, qo'shnimiz erman bo'lsa obkelib bering, deb qoldi. Chaylamni pastida bir tup erman o'sib yotardi. O'shani mo'ljal olib tushsam, bir nima vishillaydi. Bundoq qarasam, ilon, ermanga o'ralvolibdi. Anakka deb turgan joyimda qotib qopman. O'ldi deb otvorgan ilonim yara-chaqalari bitib, menga daf qilyapti. Ashinaqa...

Bu hafta men uchun katta yo'qotish bo'ldi. Yuragim huvillab, shaharga qaytdim. Oqtoshni mashina urib yuborganini dalabog'dagilar eshitishibdi. Poyezd shaharga yetib kelguncha qo'shnilarim achinib, itimni maqtab ketishdi.

— Bir kuni, — deya suhbatga qo'shildi Rahimjon Otayev bilan shaxmat o'ynab kelayotgan Shodmonbek raqibining “ot”i bilan chakkasini qashlab, — bir o'zim edim, ko'chamizga burilsam, yo'lli o'rtasida eshshakdek it turibdi-da. O'zi itni o'ngimdamas, tushimda ko'rsam labimga uchuq toshib ketadi. Nimagadir odamlar qo'rqishmaydi, men o'lgudek qo'rqaman. Haligi bahaybat itni ro'parasida taxta bo'b qopman. U bo'lsa, menga tikilganicha qo'nqayib o'tiribdi. Oldinga yurishni-ku o'ylamayman, orqaga bir qadam tashlashga oyog'im qaltiraydi. Bolaligimda o'qiganim yo'lbarsga salom berib, qutilib ketgan ovchi esimga tushib qoldi. Mayin, yumshoq ovozdada dedim: “Hov-v-v... assalomu alayko'm, it aka, iltimos, yo'lni bo'shatsalar, kulbayi vayronaga kirib olsak” deyman, qani miq etsa. Bu yog'da yomg'ir degani urib yotibdi. Yomg'irpo'sh yo'q. Bez bo'lib qimir etmay turibdi, jonivor. Bilaman, itdan qo'rqqan odamni itam yoqtir-masakan. Jig'iga tekkisi kelovrarkan. Birortasi kep qolarmikan deb u yoq, bu yoqqa alanglayman. Bunaqa yomg'irda kimam dachaga chiqardi. Shu payt desaylar qiziq ish bo'ldi. Tarixiy voqea desayam bo'ladi. Oqtosh paydo bo'lib qoldi. Ha, yonimdan lip etib o'tdi-da, haligi barzangi itga qarab ko'pammas, ozammas ikki marta akkilladiyov. Obbo, hali menga

akkillaydigan sen bo'ldingmi, tirrancha deb tashlanib qolsa-ya, naq meniham qo'shib piypalab tashlaydi-da, degan xayolda naq jonim manavi yerimga kelib qoldi, deb "ot" bilan kekirdagini ko'rsatdi Shodmonbek. E, ishonasizlarmi yo'qmi, haligi it o'rnidan turdi-da, orqasiga qaramay jo'navordi. Oqtosh unga o'z tilida bir nimalar dedi shekilli-da. Shu-shu Oqtoshni yaxshi ko'rib qoldim, — deya Shodmonbek qo'lidagi "ot"ni xayol bilan kastyumini cho'ntagiga solib qo'ydi.

— Kechirib qo'yadilar, otimni manavi joyiga qo'ying, — deb taxtaning ustini ko'rsatdi Rahimjon.

Yengil kulgi ko'tarildi.

— Bir kuni, — dedi Muhammad Salom, — so'rida tushlik qilib o'tirgan edik. Ochiq darvozadan Oqtosh kirib kelib qoldi. Birdan bizni ovqatlanib o'tirganimizni ko'rib, gunoh ish qilib qo'ygandek shartta orqasiga o'girilib, jo'nab qolsa bo'ladimi. Judayam nafs o'lik, farosatli itidi-da.

— Oqtosh, Oqtosh... ey bag'ri tosh ukaginam, qayga ketding?

Qoqilmang deb sen bizlarga kunduzlari chiroq tutding... — deya Shukur Qurbon she'r o'qib yubordi.

Men bo'lsam o'zimning toshmehrlikimdan ezilib o'tiribman. Jonivorga ketmon o'qtaguncha boshini silamaymanmi! Hech bo'lmasa, o't bo'lib yonayotgan vujudiga muzdek-muzdek suv sepmaymanmi! Ey, xom sut emgan banda, uni senga Xudo osmondan tashlagan edi-ku, qadriga yetmading-a! Shukur Qurbon haq, u bizga chiroq tutdi, biz uni ko'rmadik...

Shanba kelib, bog'hovliga borguncha Oqtosh bir zum ham xayolimdan nari ketmadi. Nazarimda uning barcha mo'jizakorligi tusining oqligida edi. Domla buva bekorga jinlarni haydab solish uchun oq itni tamlaganlar. Shu oq rangli jonivorlarda biz bilmagan mo'jizalar bor. Bolaligimda eshitganman. Buvamlar Andijondan Qovunchi tomonlarga quloq qilinganda (aslida ular din peshvosi deb bola-chaqalari bilan Sibirga surgun qilingan, tasodif bo'lib Qovunchida tushib qolishgan, buning hikoyasi boshqa) bir odam-

ning uyida ijarada turishadi. Bu uyning oq iloni bor ekan. Adam va ammalarim qo'rqishsa, buvamlar qo'rqmanglar, bu sizlar o'ylaganchalik ilonmas, jinlarning musulmoni, uning uyda bo'lishi juda yaxshi, kofir jinlarni yo'latmaydi, uni har zamonda bir kaft un bilan siylab tursa bo'ldi, deydilar. Oq ilon un yalagan kunlari hamma uxlaganda xonani aylanib chiqar, qusar, uy xushbo'y iforga to'lar ekan. Uydagilar shunaqangi ajoyib-g'aroyib tushlar ko'rib uyg'onisharkan-ki... Xuddi gulzor ichida uxlab, gulzor ichida uyg'ongandek. Ifor hidi uyda anchagacha saqlanib turar, bosh og'rgan, tumov bo'lgan odam bu xonaga kirsar, dardi arib, vaqti chog' bo'lib chiqib ketar ekan... Oq ilonning ana shunaqa fazilatlar bor ekan. Bekorga oq ilon, oppoq ilon, oydinga yotganing qani, deb qo'shiq qilib aytishmas ekan-da.

Bir kuni toqqa charchoq yozgani chiqib, ajoyib manzaraga guvoh bo'ldim. Qachonlardir obod bo'lgan, bir chiroyli joy nimagadir qarovsiz ahvolga tushib qolgan edi. Eski o'choq, zanglab ketgan sim karavotlar. Qo'ra... Yana eng hayron qolarli joyi bilakdek buloq suvi otilib chiqib yotardi. So'qmoqning buloqqa borib qaytishidan bildimki, tog'liklar bu yerni eslaridan chiqarishmagan. Nimaga shunday joy tashlandiq bo'lib yotibdi? Bundan battar joylarga tog'liklar kapa tikishib, ot boqib, mol boqib, asalari uyalarini yoyib kun o'tkazishyapti. Bu yer eng so'lim, odamning suqi kiradigan joy-ku. Buloqdan suv ichib, salqinlab o'tirsam bir odam mesh ko'tarib kelib qoldi. Ajabo, shu joyni egasi ekan. Qiziqqanim uchunmi, hasrat qopi ochilib ketdi. Qimizchilik qilarkan. O'n beshta biyasi, yana qo'y-qo'zi, sigir degandek. Bu yerni tashlab ketishiga bir ko'ngilsiz voqea sabab bo'lgan ekan. Eng yomoni endi bu yerga birov kelib palak yozolmas ekan. Aytishicha, xotini har kuni kechqurun sirli chelakda qatiq uvitar ekan. Sut ertasi-ga qolsa achib qolarkan-da. Xotini erta bilan qatiqni suzma qilib qo'yay deb sirli chelakning qopqog'ini ochsa qatiqning yuzidagi yog'ini bir nima yeb qo'ygan

bo'larkan. Avvaliga e'tibor qilmapti. Keyin eriga aytibdi. Er-xotinini rosa boshi qotibdi. Nima bo'lishi mumkin? Bu odam zotini ishi emas. Hayvon desa — qaysi hayvon sirli chelakning qopqog'ini ochib, qaymog'ini yalab, yana o'zidek qilib yopib qo'yadi? Eri oxiri o'g'rini poylashga tushibdi.

— O'sha kunlari oy to'lgan edi, — deya g'amgin hikoya qiladi suhbatdoshim, — daraxt barglarining soyasi demasa mana shu o'tirgan joylarimizni bemalol kunduzgidek ko'rsa bo'lardi, — deb buloq atroflarini, nurab tushgan supa ustilarini ko'rsatdi u. — Sirli chelagimiz qatig'i bilan manovi supa ustida edi. Men hov anovi temir karavotda yotardim. Tun yarimga keb qolgan edi. O'g'ridan darak yo'q. Ataylab uni tutaman deb kunduz kuni picha mizg'ib ham olganman. Bari bir uyqi bosib, ko'zim yumilib-yumilib ketaverdi. Bore... deb endi uyquga qasd qilganimda supa ustida bir nima qimirlagandek bo'ldi. U timirskilanib chelakning tagiga bordi. Tusi oq bir narsa edi. Avvaliga oq sichqonmi, kalamushmi deb o'yladim. U bag'rini chelakka berib tepaga o'rlay boshlaganda bilib qoldim, ilon ekan! Ishonasizmi, oq ilon! Tog'da yurovrib ilonni har qanaqasini ko'rganidim-u, oqini ko'rmaganidim. Eshitardim lekin. Satil oq bo'lganigami unga yopishgan tomoni ko'rinmay, soyasi ko'rinib turardi. Qatiqxo'rlik qilovurganidan keyin tusiya oqarib ketgan-da deb o'yladim. Qani, qopqoqni qandoq ocharikin, deb ko'z uzmay turibman. Bilaman, ilonning joni boshida-yu, kuchi dumida bo'ladi. O'ylaganimdek bo'ldi, dumiga tayanib, boshi bilan qopqoqning bir chetini osongina ko'tardi-da, chelakning ichiga boshini tiqdi. Qopqoq bosilsa tamom, o'g'ri qo'lga tushadi. Yanayam ichkariroq kirsin deb turibman. Toqatim toq bo'ldi. Turdim-u... qarang sira esimda yo'q. Sim karavotim g'ijirlab, o'g'rini cho'chitib yubordim. Qopqoqni daranglatib yerga tushurdi-yu, qochib qoldi. Shundan keyin satilning ustiga g'isht bostirib qo'yadigan bo'ldik. Oq ilon haqida birovga aytsam ishonmaydi. Ko'rmagan-da.

Bora-bora ko'zimga oydinda oq bo'lib ko'ringandir deb o'zimam ishonmay qo'ydim. Lekin kunlardan bir kun desangiz... Cho'llab shu buloqdan suv ichayotsam bir nima sadafdek yaltiraydi deng. Qarab turib, bir narsaning aksi suvga tushayotganini payqab qoldim. Tepamga qarasam o'sha oq ilon, manovu qizil olchaga o'ralib turibdi. Qattanam belimda chopqim bor ekan. Bir sermab, ikkiga bo'ldim-qo'ydim. Shu payt bir chinqiriq bo'ldi, bir chinqiriq bo'ldi deng... o'takam yorilib hov bog' o'rtasigacha qochib boribman. Xayolimda ilonnimas, odamni ikkiga bo'lib qo'yganga o'xshardim. Qo'limda chopqi, dir-dir titrayman... Sal o'zimga kelgandan keyin buloq boshiga qaytdim. Ishonasizmi, ilonni topolmadim. Yo'q! Ikkiga bo'lib tashlaganim aniq esimda. Na u yarimi bor, na bu yarimi desangiz? Axir bosh tomoni qochib ketsa, dumi qolishi kerak-ku. Nechchi marta pichan o'rayotib ilonni ikkiga bo'lib yuborganman. Bir qarich bo'lsayam boshi omon qolsa qochib qutiladi. Biltanglab dumigina qolib ketadi. O'lmadimi desam qizil olchada qon izi turibdi. Shu voqeadan keyin bu joylarni qop-qora, qop-qora zaharli ilonlar bosib ketdi. Ko'chib qutuldik...

Men tog'lik tanishimga rahmatli buvamizni eslab, oq ilon voqeasini aytib berdim.

— Eh, — dedi u afsus va nadomat bilan tizzasiga musht urib, — siz bilan oldinroq tanishsam bo'lmaydimi-a? Bundan chiqdi farishtani o'ldirib qo'yibmandan, a, aka?

— Yo'q, — dedim bosh chayqab, — farishtani o'ldirib bo'lmaydi. Farishtalar ko'zga ko'rinmaydi. Siz o'zimizga o'xshagan musulmon birodarimizni o'ldirgansiz. Payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi va sallamdan hadis bor. Oq ilonni ko'rsangiz o'ldirmanglar, ular musulmon jinlardir, deganlar. Musulmon jinlarning odamlarga zarari tegmaydi. Ular dindosh birodarlarimiz-da, axir! Kofirlari yomon bo'ladi, nuqul shaytonga malaylik qilishadi. Folbin-u jodugarlarning tegirmoniga suv quyishadi.

— O‘shandan keyin anovi zaharli ilonlarni jo‘natgan deng?

— Yo‘q, — dedim qat‘iy qilib, bu qat‘iylik qayerdan paydo bo‘ldi, o‘zimam bilmayman, — oq ilonlar makon qurgan joyda kofir jinlar bo‘lmaydi, zaharli ilonlar ham. Anovunday sabab bo‘lib, ketib qolishsa, joylariga mo‘ri-malahdek bostirib kelishadi. Payt poylab yurishadi-da, ular ham.

— Ha, shunday deng, bilmay qoldim-da aka, bilmay qoldim... Bilmaganni Xudo kechirar...

E, Oqtosh bormisan?!

Kelgusi hafta ming bir xayol bilan bog‘hovliga bordim. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, sim eshik tagida Oqtosh turibdi. Dabdurustdan uni Oqtoshga o‘xshatolmadim. Junlari to‘kilgan, bir ko‘zidan tinimsiz yosh oqar, bir ahvolda edi.

— E, Oqtosh bormisan, tirikmisan, o‘zingmisan?— debman suyunganimdan. Oqtosh avvalgidek erkalanmoqchi bo‘ldi-yu, uddalay olmadi. Bir tomonga og‘ib ketib, o‘zini zo‘rg‘a tiklab oldi. Diqqat qilsam kimdir uning junlarini qaychilab, yaralariga malham, ko‘k dorilar suribdi. Sezdim yozuvchilar uyushmasining poliklinikasida ishlaydigan opaning ishi bu. Har qalay hammayam mendayin toshmehar emas, o‘lganning ustiga tepgan qilib, ketmon o‘qtalmaydi. Aybimni yuvib qo‘yay deb Oqtoshni silamoqchi bo‘ldim-u, bari bir o‘zimni tiydim. Itni bir silagandan keyin doim silash kerak. Silamay qo‘ysa uyam yetim boladek o‘ksiydi.

Oqtoshning o‘lmay qolgani bog‘hovliga tezda yoyildi. Ba‘zi birovlar azza-bazza ko‘rganiyam kelishdi. Shukur Qurbon Oqtoshga atab yozgan marsiyasini o‘qib berdi. Shoir misralar orasida “Oqtosh, Oqtoshginam, bag‘ritoshginam...” deb otini aytsa ko‘zidan yosh oqizib, shingrayganicha qarab-qarab qo‘yadi, jonivor.

Boymurod akaning taxminicha Oqtosh urchishi kerak edi. Unday bo'lmadi. Mashina halokati bu ishni orqaga surib yubordi chog'i. Bolasidan olamiz deb og'iz ochganlar ko'p edi. Men bo'lsam Oqtosh, "avliyo" itlardan, unaqa pastkashliklarga bormasa kerak, degan fikrimda turardim. Har qalay Oqtosh hali unaqa sarguzashtlarni boshlamagan, boshlamaganiyam tuzuk edi. Boshlasa, nazarimda obro'si bir pul bo'ladi.

Oqtosh raqsga tushadi...

Uyim bitdi. Kuz oyoqlab, qish kirdi. Mo'rikon kutganimdanam ajoyib chiqdi. Tutun qaytarmaydi. O'choqda tut o'tini og'ir yonadi. Qozonda ovqat pishadi, bir chekkasida choy qaynaydi. Olovning alangasi uyni isitadi. Cho'g' tushsa kulga aylantirmay bozillatib sandalga bosaman. Ortganiga suv sepib, pista ko'mir qilib qo'yaman. Sandalning cho'g'i tugay deganda asqatib qoladi. Bir xokandoz solib qo'yilsa, pista ko'mirga qaytadan jon bitadi. Na hidi bor va na tutuni. Bu ham Yaratganning bir mo'jizasi. Ota-bobolarimiz eshik, derazalarni qanday qilib ochib o'tirishgan bo'lsa, menam shunday ochib o'tiraman. Derazadan tog' taraf ko'rinib turadi. Olamni qor bosgan. Ba'zi qor bosgan o'ngirlar osmon bilan bitta bo'lib ko'rinadi. Qora-qura o'rmonlargina tog'ligini sezdirib turadi. Qor ko'rpasi tizzadan. Chor atrofda sukunat... Sukunatning rasmini chizaman degan rassom bu taraflarga kelsin. Qorning ajab-ajab shivir-shivir, pichir-pichirlarini eshitaman degan shoir bu yerlarda kezsин. Kimsasiz tog' bag'rida azon chaqirib, jinlarga imom bo'lib, dunyo tashvishlarini unutish-chi? Ha, bu yerda Yaratganning o'zigagina tavakkal qilgan ojiz bir quli va yana bir jon egasi — Oqtosh bor.

Sandal deganlari bitta oyoq-qo'lli beminnat kelinchakning o'zi ekan. Bir chekkasida tahorat suvi doimo

issiq turadi. Birovga ovqat ilinmoqchi bo'lsangiz ungayam joy topiladi. Samovardan qaynagan suvni choynakka to'latib olov taftiga qo'yasiz-u, zarur paytida bir qaynatim choy tashlab yuborsangiz, olam guliston. Qayta samovar qo'yishga hojat yo'q. Hali bu hammasi emas. Kechasi yotish oldidan choynakka sho'rva tashlayman. Bir yarim litrlik chinni choynagim bor. Roppa-rosa uch kishini boqadi. Choynakka sarpanja, bir bosh piyoz, sarimsoq, qizil sabzi, kartoshka yoki sholg'om, ikki dona pamidor qoqisi, bir chimdimdan zira, tuyilgan oshrayhon va ukrop, bir dona qalampir, ta'bga qarab tuz solinadi. Ana undan keyin bu masallig'ning ustiga qaynab turgan suv quyiladi. Suv qopqoqqa tegib turishi kerak. Kam bo'lsa suvning biqirlab qaynashiga maydon ochiladi-yu, parlanib, qopqoqning teshigidan chiqib ketadi. Natijada, choynaksho'rva emas, choynakbo'tqa bo'lib qoladi. Endi hamma gap choynakni olovga qanday qo'yishda! Choynakning yarim qorni olovga tegishi kerak. Agarda choynakdagi suv sovuq bo'lsa o'tga tegishi bilan yorilib ketadi. Qaynoq bo'lsa, olov bilan achomlashadi. Choynakning tagi ham olovda turmasligi zarur. Yer shari quyoshga bir tomonini tutgandek, choynak ham olovga bir tarafini tutadi. Shunda yer o'z o'qi atrofida soat mili-ga nisbatan qanday teskari aylansa, choynakdagi suv ham qaynagan paytida xuddi shunday aylanadi. Qaynamagan joyi qaynagan joyiga intiladi. Ajabtovur aylanma harakat boshlanadi. Sho'rvaning suvi tepaga qarab biqirlab qaynamagach, misqolchayam parlanmaydi. Qopqog'idan toshmaydi, jo'mragidanam to'kilmaydi. Ertalabgacha shunday bir sho'rva tayyor bo'ladiki, sarpanjaning suyaklarigacha erib ketadi... Ana endi bu ne'matni bomdod namozidan keyin ichib oling-da, Allohga shukuronalar ayting.

Bu yerdagi uyquni hech bir yerdagi uyquga o'xshatib bo'lmaydi. Odam shunday miriqib uxlaydiki, bamisoli onasining qornida yotganday. Yonboshlab sandalga shundoq belingizni tutsangiz, mast-u maston

uyqu elita boshlaydi. Uyqu oldidan o'qiladigan duolarni o'qib, oxiriga yetolmayam qolasiz... Ajib-ajib, nurli-nurli tushlar ko'rasiz. Bir kuni Makka-yu Mukarramani tush ko'ribman. Xursandligimdan ko'zlarimda shashqator yosh bilan uyg'onib ketdim. Qani endi tushim kelgan yeridan yana davom eta qolsa. O'rnimdan turib oldim. Soatga qarasam uchdan o'tibdi. Ko'rganlarim shundoq ko'z oldimda turardi. O'chib ketishidan qo'rqib, yozishga tutindim. Rosa uch soat yozibman. Hajga borgan bir birodarimizga yozganlarimni o'qib bersam menga angrayib qarab qopti. "Allohg'a oson dedi u, hajga tushdayam borib kelsa bo'lar ekan, yozganlaringiz bari rost, hatto, oyoq tagiga to'shalgan marmarlarigacha, aniq-ravshan... Bu joyning tushlari ana shunaqa...

Sandal ko'rmay o'sgan hamkasblarim zerikibmi yoki oppoq-oppoq qorlarni sog'inibmi, shahardan kelib qolishsa, sovqotib mening uyimga tiqilishadi. Olovni ochaman-da, ozroq isiriq tashlab yuboraman. Shahardan ergashtirib kelgan mikroblaringiz o'ladi deyman. Ular hay-haylab, bay-baylab sandalga bag'irlarini berishadi-yu, zum o'tmay mudray boshlaydilar.

— Yoppiray sandalingizni sehri bormi yo jinlaringiz avrayaptimi, — deb hayron bo'ladi, tortinmay yostiq so'raydi. Birpasgina tosh qotib uxlaydi. Lekin uzoq uxlagandek kalla tiniqib, uyg'onadi-yu, "maza qippan" deb qo'yadi. Bu sandaldagi cho'qqayam bog'liq. O'rik o'tini bo'lsa, asablarni tinchlantirib, xuddi avragandek uxlatib qo'yadi. Tut o'tini bo'lsa, tanaga quvvat beradi. Buni men keksalarning: "O'rik o'tini asabga, tut o'tini nasabga", degan gaplaridan bilib olganman. Mantiqan ham shunday. O'rikning yangi pishgan mevasiyam, turshagiyam yurakka davo. Tabiblar ham, do'xtirlar ham shuni buyurishadi. Tut bo'lsa bahor pal-lasi ayni ilikuzuldi paytida pishadi. "Og'zimiz tutga yetdi, Xudo xohlasa endi o'lmaymiz", degan gaplarni ko'p eshitganmiz. Shuning uchun ham tabiblar quv-

vatsiz odamlarga tutdan qilingan shinni, tutmayizlarni buyurishadi. Men o'choqqa o'rik bilan tut o'tinni aralashtirib yoqaman. Unaqasigayam, bunaqasigayam davo bo'lsin deyman-da! Aralashtirishimning boshqa bir sababiyam bor. O'rik o'tinning cho'g'i sandalga tushgach, xash-pash deguncha pistako'mirga aylanib qoladi. Tut o'tin pista ko'mirga aylanmaydi. Ohangaron ko'miriday lang'illab ustini kul bosadi-yu, o'chmay turaveradi. Shunday bo'lgach bag'ridagi o'rikning cho'g'iniyam o'ldirmay tirik saqlaydi. "Men yonyapmanmi, senam yonasan", deydi. Men o'rik bilan tut o'tinlarining shifobaxshligini his qilib, o'zimcha ixtiro qilaman. Har ikkovini arralab, qipig'ini olaman. Ulardan alohida-alohida damlamalar tayyorlayman. Chiroyli qirmizi rangli damlamalar hosil bo'ladi. Albatta, bu damlamalarni eng avvalo, o'zimda sinab ko'raman. O'rik damlamasini ichgan kunim o'n sakkiz soat qimir etmay uxlabman. Miyam tip-tiniq, ko'zlarim ravshan, ishtaha karnay... Lekin namozlarim qazo bo'lgani uchun bu tajribam o'zimga yoqmadi. Tut o'tinning damlamasi aksincha quvvat berib, uyqumni o'chirdi. Anchadan beri kuchim yetmayotgan bir to'nka bor edi, damlamani kuchi bilan maydalab tashladim. Bundan men daraxtlarning tanasi ham dori ekanini, dori bo'lgandayam juda kuchli dori ekanligini bildim. Axir, biz o'tin qilib yoqib yuborayotgan daraxtlar nechcha yillik-ku?! O'n besh, yigirma, qirq yillik quvvatlar bor ularda! Shu tajribadan kelib chiqib bir vaqtning o'zida ham allergiya, ham astma bilan og'rib yurgan bir tanishimga achchiq bodomning qipig'ini tavsiya etdim. U achchiq bodomning mag'izini hovonchada tuyib, kap otib yurardi. Qipiqdan damlama qilib berdim. Uch kunda sen ko'r, men ko'r bo'p ketdi.

Voy uning qiynalganlari, voy uning har xil dori-darmonlarga pul sarflaganlari. O'zimam ichib ko'rgan edim tomoqdagi balg'amlarni ko'chirib, ovozimni o'n sakkiz yoshli yigitnikidek qilib qo'ydi. Azon chaqirsam, bir chiroyli. Qo'shnimiz ko'rib turib, "hozir

azonni siz chaqirdiymiz, boshqacha chiqdi-ya”, deydi ko‘zimga baqrayib. “Tomog‘im bo‘g‘ilib turuvdi, musulmon jinlarim qarashib yuborishdi”, dedim jo‘rttaga. Qo‘shnim: “O‘zimam shunaqa bo‘sa keragov deb turuvdim-a” deb teskari o‘girilib ketdi. Men u kishining teskari qarab ketmay, ilohiy mo‘jizalarga ishonib, namozga kirishini juda-juda xohlardim. Shuning uchun sal mubolag‘ayam qilib yuborardim. Xudoga shukr u keyinchalik namozgayam kirib ketdi. Qo‘shnim deganim hassos shoir rahmatli Mirtemir domlanning jiyani Mirjamol edi. U tog‘asining joyini obod qilib o‘tirar, ToshMida xirurg bo‘lib ishlardi. Asmatik kasal bilan qilgan tajribamni aytgan edim qiziqib qoldi. Bir qarich to‘nkasidan olib ketdi. Qipiq qilib o‘tirmay, payrahasidanoq damlama tayyorlabdi. Qarang, damlama, hatto, tomoq yo‘llari shamollagan, allergik kasallargayam davo bo‘libdi. Shunday qilib, achchiq bodomning mevasi qolib, tanasiga ishqivozlar ko‘paydi. Bu yomon. Tanasiga qiron kelgandan keyin mevasi qattan bo‘ladi? Bu tajribani to‘xtatdim.

Sandalimda mizg‘ib olgan mehmonimdan sog‘lig‘ini so‘rayman. Asab chatoq desa, sandalning chekkasida ilib turgan o‘rik qipig‘ining damlamasidan bir piyola quyib beraman. Bilaman ular hamisha asabdan shikoyat qilishadi. “Shu quvvatim yo‘qroq-da”, desa tut damlamasini tutaman. Ba‘zi shumroqlari sog‘liqning dabdalasi chiqqan deb har ikkalasidanam ichvoladi. Ular ko‘proq damlamalarning mazasigamas rangiga e‘tibor qilishadi. O‘rikniki qirmizi chiroyli, tutniki novvotrang ekan deb qo‘yishadi. Shoir xalqi shunaqa go‘zallikka oshiq bo‘ladi. Mabodo osishga hukm qilinsalar ham arqoni chiroylimikan deb qarab qo‘yishsa kerak. Damlamalar bilan siylagach mehmonimga, albatta, sandalning ta‘rifini keltira boshlayman. Uning hayotimizdan chiqib, izsiz yo‘qolishini xohlamayman. Axir sandalning o‘zi bir akademiya. Alloh in‘om etgan, beminnat shifoxona-ku. Ha sizga bir kelinchakdek xizmatda bo‘lishini aytdim. Rost-da, hozirgi kelinlarning uchtasi bitta sandalning

xizmatini qila olmaydi. Keyin sandalning ilmiy taraflariga o'taman. Kasbdoshlarimga shu tomondan kelmasa bo'lmaydi. Ijodkorlar o'zi shunaqa bo'ladi g'irt yolg'on-uydirma narsalarga ishonishadi. Uydirmani romantika deb bilishadi. Men ularga ichki a'zolar, ayniqsa, yurak, o'pka, jigar, oshqozon, buyraklarning nuqtalari oyoq tagiga joylashganini aytaman. Buni o'zlariyam bilishadi, gazetalardan o'qishgan. Turli-tuman kasalliklar shu a'zolarining shamollashidan paydo bo'lishini, sandal oyoq tagidagi o'sha nuqtalarni qizdirishi orqali davolab tashlashini uqtiraman. Mana deyman, sandalga o'tirishingiz bilan sizni uyqu elitadi-a? Nimaga bunday bo'ldi? Mehmonim yelka qisadi. Mana sandalda o'tiribsiz. Yarmingiz issiqda, yarmingiz sovuqda. Hozir tanangizda nimalar kechayotganini bilasizmi? Bilmaysiz. Qoningiz hozir shunday shaldir-shuldir qilib oqyaptiki, hatto yo'g'on tomiringizga quloqni tutib eshitsa bo'ladi. Yoppiray, deydi mehmon ko'zlari o'ynab. Ha, ha ishonavering deyman. Sandal ichidagi a'zolarangizda qoningiz kamida qirq besh darajada qiziyapti, tashqarida esa o'ttiz olti, to'g'rimi? To'g'ri, deydi mehmon hushyor tortib. Endi o'sha isib ketgan qon o'zini sovuq tarafga uradi. Sovug'i issiqqa qarabsizki, qon o'zidan-o'zi aylana boshlaydi. Odatda, qonni yurak aylantiradi. Qon o'zidan o'zi aylana boshlagach, yurak ozgina bo'lsayam dam oladi. Ana shu paytda odamni uyqu eltadi. Ozgina mizg'ib olsangiz bir dunyo uxlagandek maza qilasiz.

Bu gaplarni eshitgan do'stlarim, albatta, taxta polarlarni buzib, sandal qurishga ahd-u paymon qilishadi. Sandalimga boshqacha hurmat va ehtirom bilan qarab qo'yishadi. Ko'rpaning bir chekkasini ko'tarib, qanday qurilganiga e'tibor qilishadi. Men sodda tushmagur endi ular ham sandal quradi deb o'ylayman. Qayoqda! Yoz kelishi bilan eslaridan chiqib ketadi. Ammo sandalimni maqtab gapirib yurishadi, to'g'ri kelib qolsa, o'z tillaridan asarlarigayam kiritib yuborishadi.

Men qish kunlari qo'shnilarimning jillaqursa, bit-tasi kelsa-chi deb, ko'z tikaman. Kam kelishadi. Kelganlari ham sichqonga, kalamushga dori qo'yisha-di-da, kunduzgi poyezdda jo'nab qolishadi. Kamina haftasiga shanba va yakshanba kunlari bog'hovlida bo'lmasam ichikib qolaman. Meni bu yerga bog'lab qo'ygan boshqa bir narsayam bor. U ham bo'lsa, Oqtosh. Qish kunlari yovvoyi jiyda, qizil olcha mevalarini, ko'rkalamush, sichqonlar inini qor bosadi. Ochiqib kelishimni kutib yotadi jonivor.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi va sallamning mana bu hadislarini o'qigandan keyin yanayam tinchimay qoldim: "Bir odam yo'lda ketayotib qattiq chanqadi. Bir quduqni topib, unga tushib suv ichdi. Keyin qaytib chiqib, chanqoqligidan tuproqni yalayotgan itni ko'rdi. Bu it ham menga o'xshab chanqabdi, dedi. Quduqqa tushib, mahsisini suvga to'ldirdi va og'ziga tishlab qaytib chiqdi. Itga suv berdi. Alloh taolo uni mag'firat qildi". Sahobalar: "Ey, Allohning Rasuli! Bizga hayvonlardan ham ajr bormi", deb so'radilar. Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: "Har bir jigari borda ajr bor", dedilar. Ushbu xadis Imom Buxoriy, Muslim va Molik, Abu Hurayra rozyallohu anhulardan rivoyat qilingan.

Oqtosh odamlar yashaydigan mahallalarga, choy-xona taraflarga tushmaydi. Shusiz ham u joylarning egalari ko'p. Dumlarini qisib, gala-gala bo'lib yuri-shadi. Bari irkit itlar. Oqtosh ularga qo'shilib obro'sini to'kkisi kelmaydi. Undan ko'ra och qolishni, sabr qilishni afzal biladi. Albatta, Oqtosh men olib borgan yemishlarni ikki kunda yeb tugatolmaydi. Inini oldida saqlay ham olmaydi. Olaqarg'a, hakkalar uni tinch qo'ymaydi. Ertalabdan kechgacha nasibasini poylab ham yotolmaydi. Boshqacha tadbir qo'llaydi. Nonlarni olib borib qaylarga dir ko'mib keladi. Bir safar ataylab kuzatdim, inidanam ishonchliroq omborxonasi bormikan deb. Yo'q, u turli-tuman kun-gay joylarga non ko'mish bilan ovora bo'ldi. Diqqat qilib, sanab ko'rsam, beshta joyga ko'mibdi. Voy

Xudoyim, deb yoqa ushladim. Qani endi yonimda Boymurod aka bo'lsa-yu Oqtoshning avliyoligiga yana bir marta tan berib, maqtab, ko'klarga ko'tarib xumordan chiqsak. Afsuski ular ham kam keladi. Qorovulchilikni Xudoga topshirib qo'ygan. Lekin ignayam yo'qolmaydi. Bir kuni qiziq bo'libdi. Qish kunlari tog' qishloqlarida o'tin anqoning urug'iga aylanadi. Ha, o'tinga ehtiyoj katta bo'ladi. Bittasi kelib, Nurullaxonning sarjin qilib qo'ygan tut o'tinidan qopga solib, yo'lga tushibdi. O'tin o'g'risi Boymurod aka yashaydigan ko'chada turarkan. O'tin o'g'risi Boymurod akaning uyi ro'parasiga kelganda, u kishim sarpoychang kavush sudrab chiqib, uning yo'lini to'sibdi:

— Ha, horma.

— E, bor bo'ling, Boymurod aka.

— Ja holdan toyibsan-ku bola, nima orqalab kelyapsan?

— E, qishshi kunida nima bo'lardi, Boymurod aka, o'tin-da. E, savil qolsin orqalarimni shilvordi.

— A, qatta bor ekan bunaqa tap-tayyor sarjin o'tin?

— Dodammikidan obkelyapman, dodammikidan, nimaydi Boymurod aka?

— He o'l, dodammikidan demay, uyalmaysanmi, yolg'on gapirgani. Qachondan beri yozuvchi Nurullaxon senga doda bo'p qoldi? Bu o'tin tog'dan enaverishdagi Nurullaxon deganni o'tini-ku. Yolg'on deb ko'r-chi, hozir sharmandangni chiqaraman sen ilvirssi. Qayt orqangga, hozir oborib joyiga qo'y, bola!

O'tin o'g'risi baqa bo'lib qoladi. Axir bu o'tinni daryoning narigi betidan — uch chaqirimcha joydan ko'tarib kelayotgan edi-da. Boymurod akaga kim yetkaza qoldi ekan? O'tin o'g'risi burnini tortib, Boymurod akaning oldiga tushadi. Birovga aytmang, deb yalinadi. Boshqa bunaqa noma'qulchilik qilmaslikka qasam ham ichadi. Ammo Boymurod akadan bu ishni kim sotganligini ijikilab so'rayveradi.

— Menga qara, — deydi Boymurod aka unga

mug‘ambirona tikilib, — kim aytganini aytsam yuring yorilib o‘lasan?

— Aytovring-chi?

— Bo‘masa kelishvolaylik. O‘g‘rilik qilganingni men birovga aytmayman. Senam meni sirimmi birovga aytmasan, bo‘ptimi?

— Bo‘pti, aytsam til tortmay o‘lay.

— Yozuvchilar orasida bitta ja eskichani o‘qib qo‘ygan mullasi bor. Bir kuf desa bormi, Chirchig‘ingni teskari oqizadi. Ana avliyo-yu, mana avliyo. O‘sha odam mana shu yerdagi ancha-muncha jinlarni o‘ziga qaratvolgan. Ishonmasang, Ilashdan so‘ra. O‘sha mulla shaharga ketganda jinlariga tayinlab qo‘ygan ular menga qarashib, bor gapni yetkazib turadi.

Boymurod akaning bizning oramizda yuraverib ancha-muncha ayyorlashib qolganini sezib, esiz shunday odam ham ishdan chiqibdiya, deb qo‘yaman. Shunday bo‘lsayam o‘tin o‘g‘risini qanday bilib qolgani meni qiziqtiradi. “Keling-qo‘ying, sizam bilmay qo‘yaqoling”, deb kuladi Boymurod aka. “Aytmasangiz hech qanaqa jinlardan tanishim yo‘q, deb e‘lon qilvoraman”, deyman u kishini qo‘rqitib. “Gap shet-ta qolsin-u, buyam gapi-de, durbindan qarab o‘tirovdim, bizzini boloxonadan betlar qish kunlari ja ko‘rinat-ta, yozda qiyin, daraxtlar to‘sib qoladi... E, qo‘yovring unaqalar milisadanmas, jin-ajinalardan qo‘rqishadi. Qo‘rqishsin, odam degani bir nimadan qo‘rqishi kerak-da, to‘g‘rimi, mulla?”

Bilmadim hozir Boymurod aka yonimda bo‘lganda Oqtoshning qilgan ishini ko‘rib: “Anakka, o‘rgilay sendan itposhsho. Hoynahoy nonni dushanbada yeyman, seshanbada yeyman, chorshanbada yeyman... deb taqsimlab chiqqan jonivor, oltinchi kun shanba bo‘ladi, unda siz kelasiz, to‘g‘rimi”, degan bo‘lardi.

Navbatdagi shanba va yakshanba juda g‘alati kun bo‘ldi. Qish chillasining o‘rtasi. Kun uzayib, poyezd oxirgi bekatga kun botmasdan yetib kelar, shomgacha bog‘hovliga yetib olsa bo‘lardi. Qor bearmon tushgan,

havo aynib, qor yana uchqunlay boshlagan edi. Tizza bo'yi qor kechib, zo'rg'a kulbanga kirib oldim. Har doimgidek kaminani Oqtosh kutib oldi. Uni ko'rish bilan ko'nglim yorishdi. Bunday kimsasiz joylarda nafaqat it, hatto, salgina shovqin-u, shamolning guvillashigacha odamga dalda.

Shomdan keyin temir kurakni taraqlatib, kiraverish va hojat yo'llarini qordan tozaladim. Bilaman, bunday ish odamni toliqtiradi-yu, ammo o'pkani toza havoga to'ldiradi. Ko'krak qafasing kengayib, diling ravshan tortib ketadi. Men bu harakatlrim bilan go'yo bog'hovliga jon kiritaman. Oqtosh ham bu yerda biz bormiz degandek, hali uyning orqasiga o'tib, hali qordan tozalangan yo'laklarda o'ynoqlab, akillab qo'yadi. Qor borgan sari kuchayadi. Hozirgina kuragan joyim, bir zumda ko'rpa bo'lib qoladi. Oqtosh men kelgan kunlari inida yotmaydi. Tansoqchiday ayvonda, eshik tagida yotadi. Tagiga karton to'shab beraman.

Shu kuni lampa chiroq yorug'ida allavaqtgacha yozish bilan band bo'ldim. Bo'lmasa, boraman-u sandalda bir miriqib uxlayman deb kelgan edim. Toza havo charchoqni yozib yubordi. Kalla tiniqlashdi. Ko'zimga oppoq qog'oz bilan sharikli ruchka ko'rinib ketdi. Paydarpay qog'ozga tushayotgan jumlar orasida qaydadir gurullayotgan motorning ovozi ham ilashib yurgandek. Bu qor surgich. Tun bo'yi tog' yo'llarini peshma-pesh tozalab yuradi. Tanholikda motor ovoziyam quloqqa qo'shiqdek yoqadi. Kimdir shunday havoda ham ertaning harakatida. Hayot davom etyapti. Tom bo'g'otlarida o'qtin-o'qtin shamol guvillaydi, lampa chiroqning nuri deraza ko'zlarini g'ira-shira yoritadi. Qaydandir shamol kirib xonani oralaydi. Chiroqning piligi o'zidan-o'zi bir ikki ko'tarilib, xona yorishib ketadi. Qor shamol bilan yoqqanda, avvalo, o'ra-yu ungurlarni shibbalaydi. Shibbalangan qor uzoq vaqt quyosh ko'rmay, bahorning oxirlarigacha ustini kir bosib yotadi. Bu yerning yana bir jihati quloqni ding qiladi. Tiq etgan ovoz ham e'tiborni tortadi. O'sha narsa nimaligini bilma-

guncha odam tinchimaydi. Dimog' ham ochilib ketadi. Halidan beri xonaga sichqon oralaganini sezib o'tribman. Ho'rak qo'yib, qopqonni ishga solish kerak, degan o'y kallamda aylanadi.

Bomdodga tursam kurak tekkan joylarni yana qor bosibdi. Hojat yo'lini kurashga to'g'ri keldi. Qor yorug'ida ancha-muncha nari-berini bemalol ko'rsa bo'lardi. Bomdodni o'qib, yana mudrab ketibman. Allanarsaning qarsillashidan uyg'onib ketdim. Uyning ichida naq miltiq otilgandek bo'ldi. Boshimni ko'tarsam xonayam, tashqariyam yorishib ketibdi. Nima bo'lishi mumkin? Sichqon chiyillab, sirni fosh etdi. Qopqon ishlab ketgan ekan. Jonivorni dumidan qisib qopti. Joni og'rib, o'zini u yoqdan, bu yoqqa uradi. Najot kutgandek chiyillab ham qo'yadi. O'rnimdan turib ustiga bordim. Tirik-da. O'lgan bo'lgandayam olib tashlardim. O'ldirishga qo'lim bormadi. Shundog'am ko'zlari irg'ib chiqib, mo'ltiraydi jonivor. O'lishini kutay desam, o'ladiganmas. Dumini qisgan bilan sichqon o'larmidi? Qaytaga yana biroz tipirchilasa, dumini uzib qochib qolishiyam mumkin. Yaxshisi qopqon bilan tashqariga olib chiqaman-da, qo'yvoraman. Sovuqda o'lsa-o'lar, qolsa-qolar. Eshikni ochsam Oqtosh g'ujanak bo'lib oyoq ostida yotibdi. Dik etib o'rnidan turdi-da, oldingi oyoqlariga tiralib kerishdi. Tipirchilayotgan sichqonni ko'rib, ko'zlari o'ynab, sergaklandi. Jonivor, men yo'q paytlarimda Boymurod aka aytmoqchi ko'rkalamush, sichqonlarni tutib yeydi-da. Tashqariga chiqqach sichqon jon-jahdi bilan tipirchilab, dumini uzib, yerga tushdi-yu, devor tagidan eshikka qarab chop ketdi. Eshik ochiq edi. Oqtosh og'zini katta ochib, sichqonni yo'lini to'sdi. Sichqon bo'lsa teshik topilib qoldi deb o'yladimi, pildiraganicha Oqtoshning og'ziga kirib ketdi. Oqtosh dik etib o'rnidan turdi-yu, qiynalib yutindi. Vo-oh... chaynamayoq yutvordi-ya deb tursam, Oqtosh birdan bezovta bo'lib qoldi. Sirk itlariga o'xshab orqa oyog'ida tikka turib, qo'llari bilan havoni mushtlay boshladi. Bitta sichqonga shun-

cha xursandchilikmi deb tursam, yanayam boshqacharoq o'yin ko'rsatib qoldi. Turgan joyida shunday g'ildirakka o'xshab aylandiki... Yopiray!.. Olmaxon bo'p ketdi-ya!

E, bu it aslida sirkchilarniki ekan-da, degan o'y xayolimdan o'tdi. Tomosha ko'rish uchun unga sichqon tutib berish kerak ekan-da. Oqtosh bu o'yinlari bilan tinchimadi. O'zini jonholatda qor ichiga urdi. O'ynayver jonivor, o'ynayver, yana sichqon tutib beraman deb kulaman. U shu qadar kuchga kirib ketgan ediki, hali u yonboshi bilan, hali bu yonboshi bilan qorga sho'ng'ir, pishqirar, qirg'oqqa otilgan baliqdek o'zini ko'tarib-ko'tarib yerga urardi. Daraxtlarning egilgan shoxlarini chaynab, irillardi. Ayniqsa, oppoq qor ustida orqa oyoqlarida turib, muqom qilib, raqsga tushishlari ichakni uzardi. Qani endi birov bo'lsa-yu, bu manzarani birgalashib tomosha qilsang. Aytib bersa ishonmaydigan, maromiga yetkazib aytib ham bo'lmaydigan bir hol yuz berayotgan edi-da. Bog'hovlini boshimga ko'tarib, kulayapman-u, birdan ko'zim qor ustidagi qizil dog'larga tushib qoldi. Qon? Nima bo'lishi mumkin? Nahotki, jonivor menga o'yin ko'rsataman deb bir yerini qonatib oldi? Oqtoshlab chaqiraman, qani yonimga kelsa. Diqqat qilsam, qon og'zidan kelardi. Oqtosh saldayoq qor ustini xuddi mingta it tepkilagandek payhonlab tashladi. Nihoyat, tinchidi ham. Qor ustida birpas qornini yerga berib yotdi-da, og'zini yalab yonimga keldi. Qon to'xtagan edi. Men hech narsaga tushunmadim. Og'zi joyidamikan deb yumshoqroq non berdim. Hech narsa bo'lmagandek nonni pok-pokiza tushirdi. Men bu o'yin ko'rsatishning boisini ikki soatlardan keyin bilib qoldim. Qopqonga yana sichqon tushdi. Bir emas, ikkita. Bolasi ekan. Jonivorlar onasini izlab chiqqanda. Ikkoviyam o'libdi. Men Oqtoshning raqsini yana tomosha qilish umidida sichqonlarni xokandozga solib tashqariga chiqdim. Ma jonivor, bugun go'shtga to'yadigan kuning ekan, bir emas, ikkita deb,

sichqonlarni oldiga tashladim. Ammo Oqtosh sichqonlarni ko'rib shunaqangi qochish qildiki, naq uyning orqasiga o'tib ketdi. Kula-kula qotib qopman. Boya sichqon qorniga tiriklayin kirib ketgan ekan-u, ichagini tishlagan ekan-da. Men bo'lsam xursandchiligidan raqsga tushib beryapti, deb yuribman. Qon qornidan sizib chiqqan ekan-da. Mana endi sichqonni o'ligidanam bezillab qolipti, jonivor.

Asilzoda "kuyovlar"

Qor bir maromda uchqunlab turdi-yu, asrdan keyin yana tezlashdi. Bugun Boymurod akayam qorasini ko'rsatmadi. Endi kelmaydi, kelsa ertaga keladi. Dadaxon qorovulni ko'rdingizmi deb so'rashini biladi. Ko'rdim, deyishim uchunam bir ko'rinish beradi. Boshqa kunlari so'riga chiqib olib, durbinga tikilib o'tiradi. Sandalga qayta cho'g' qilib solguncha, bir qoshiq ovqat tayyorlaguncha shom ham tushdi. Qish kuni bir tutam deyishardi bolaligimizda. Biroz kitob o'qish-u qopqonni ikki marta bo'shatish bilan kun kech bo'ldi. Oqtoshni ko'rdim degandan kulgi bosib keladi. U bari bir sichqonlarni yemadi. Nari otib yubordim. Poylab turgan ekanmi zag'izg'on ilib ketdi.

Shomga azon aytaman deb, ustimga to'nimni kiyib tursam, Oqtosh xavotir bilan xurib qoldi. Dilim bir yorishdi. Ko'nglim hamroh istardi. Kim bo'ldi ekan? Tushdan keyingi poyezda birortasi Toshkanga sig'may, chiqib keldimikan? Bilaman, bunday paytda menikiga mehmon bo'lishadi. Sandal bor. Hovliga chiqsam, hech kim ko'rinmadi. Ammo Oqtosh meni qora olib, battar xurishga tushdi. Hatto, qiynalib bo'lsayam qor kechib, sim devorgacha bordi. Sim devordan narida ko'zga tashlanadigan biron sharpa ko'rinmasdi. Nimagadir Oqtosh ochiq turgan eshikdan tashqariga chiqishga qo'r qar, ichkarida turib jag'iga zo'r berardi. Shom tog' tomondan bosib kelardi. Qor tezlashgan. Azonni hovlidan tashqariga chiqib, eshikdan ikki-uch qadam narida turib chaqi-

rardim. Oqtosh meni tashqariga chiqa ko'rma degan-dek turgan joyidan jonholatda men tomon chopdi. U to'rt oyoqlab sakraganda qorga ko'milib-ko'milib ketardi. Oqtoshning ko'zida qandaydir tushunib bo'lmaz vahima bor edi. U yo'limni to'sib, bir-ikki chirpirak bo'lib aylandi. U meni kimdandir qizg'anardi. Parvo qilmagandek oldinga yuraverdim. Oqtosh qanday shoshib yonimga kelgan bo'lsa xuddi shu alpozda yana boyagi joyiga borib, tashqariga qarab xuriy boshladi. Ajabo, men hovlidan chiqsam, mendan oldin yugurardi-yu? Nimadan bunchalik o'takasi yorilibdi?

Sim devorning bir tomoni Alibek Rustamovning bog'i, bir tarafi jin ko'cha-yu, Ikrom Otamurodning yeri edi. Ikrom hali qurilish qilmagan, biy dala. Tashqariga chiqib, Oqtosh xuriyotgan tomonga qor pardasi orasidan bundoq razm solsam Ikromning yerida bir emas, ikkita asilzoda ovcharka itlar cho'nqayib o'tirishibdi. Ikkoviyam bir xil tusda, katta-katta. Hoynahoy Oqtoshga kelishgan bular. Ana, xalos, deyman Oqtoshga qarab. Shundoq "kuyov"larniyam shu ahvolda kutib oladimi, voy oyimchaey... Lo'lilik qilishini qarang... Men ularga xayrixohligimni bildirib, hushtak chaldim... Boymurod aka aytmoqchi o'ziyam asilzoda itlardan. Ularni o'z oyoqlari bilan kelishi katta marhamat-ku.

Oraliq o'ttiz qadamcha kelardi. Bilaman, bunaqa itlar odamga tashlanmaydi. Hushtagimni eshitgach itlarning biri o'rnidan qo'zg'alib, men tomonga yura boshladi. Biroq sherigi qo'zg'almagach, yana orqasiga qaytib borib, joyiga cho'nqaydi. Itlarga andarmon bo'lib, shomni boy beray debman. Shoshib qiblaga yuzlandim-da, azon chaqirishni boshlab yubordim. Qor yog'ib turganda ovoz uzoqqa ketmaydi. Shuning uchun men bunday paytlarda kekirdakka zo'r bera-man. Musulmon jinlar eshitsinlar deyman-da. Azon aytib bo'lgunimcha ko'kragimni ikki enlik qor bosdi. Azon duosini o'qib, itlarga qarasam, ovozim yoqib qolipti shekilli ikkoviyam boplading-da, degandek

menga qarab o'tirishibdi. Yoqadi-da, odam zotiga yoqmasligi mumkin, ammo bu jonivorlarga yoqadi. Ular Yaratganga bizdan ko'ra yaxshiroq ibodat qilishadi. Topsa yeyishadi, topmasa sabr qilishadi. Oqtosh hamon sim devorning orqasida akillab noz-u firoq qilardi. Odatda, shom azonini aytgach, eshikni sunnatga binoan, ichkaridan tambalab qo'yardim. Bugunam shunday qildim. Nachora, asilzoda "kuyov"larning yuziga eshik yopishga to'g'ri keldi. "Kelinposhsha" xohlamagandan keyin nima qildim!

Shomdan keyin saldayoq qor tindi. Hovliqib yog'ishidan ko'nglim sezgan edi. Hoynahoy kuchli shamol bulutlarni tog'dan oshirib, vodiylar tarafidagi surib ketdi shekli. Kuyov to'ralaram umidlarini uzib ketishdimi, Oqtosh jim qoldi.

Ertasiga oftob demagan charaqlab ketdi. Kechasi havo ochilib ketib, sovuqning zaxri yerga tushgan, qorning beti muzlab, past-u baland, tog'-u tosh ko'zgudek yaltirar edi. Chor-atrofga bunday qaray olmaysan, ko'zni oladi. Tangadek qora nuqta ko'rinmaydi. Xuddi ertaklardagi shaffof qasrni eslatadi. To'rt tarafda kakliklar jonsarak sayraydi. Nasibalarini qor bosib, tentirab qolishdi jonivorlar. Qirdan qirga galalashib uchib o'tishadi. Muzlagan qor betida yengil-yengil chopqillashadi. Qordan chiqib qolgan butalardan bir nimalar topib yeyishsa kerak-da. To'qson, to'qson beshinchi yillar orasida jonivorlar rosa qirildi. Ovozlari eshitilmay ham qoldi. Tog'-u toshlar kakliksiz huvillab qoldi. O'qotar qurollar cheklanib, ro'yxatdan o'tkazilgach, yana ko'payishdi. Ana, bir dunyo katta-yu kichik bolalar baqir-chaqir bilan, bog'hovlimizni kesib o'tgan ko'chadan tepalab, kaklik oviga chiqib ketishyapti. Albatta, qor beti erib, jonivorlar yurolmay qolgandagina ularni tutib olish mumkin. Bo'lmasa, qayda, juda jonsarak bo'lishadi.

Men bu ajib manzaralarni sandalda o'tirganimcha derazadan kuzatib o'tirardim. Odatim, bomdodga azon aytgandan keyin ko'cha eshikni ochib qo'yaman. Bugun yakshanba, tushdan keyingi

poyezdda Xudo xohlasa, shaharga qaytaman. Bog‘-hovli qo‘shnilarim azza-bazza menga qo‘ng‘iroq qilib, hol-ahvol so‘rashgan bo‘ladi. Sezib turaman, ular mening hol-ahvolimdan ko‘ra uy-joylari turibdimi, o‘g‘ri-po‘g‘ri oralamaganmi, shuni bilmoqchi bo‘lishadi. Men ularga ataylab tog‘dagi ajib manzarlalar, hatto, hovlinga kakliklar tushganini, ikkitasini sho‘rvaga bosib, qolganini qo‘yib yuborganimni (yolg‘onni Xudo kechirsin) qo‘shib-chatib, to‘lib-toshib gapiraman. Bormay qo‘yganlariga pushaymon qildiraman. Oxiri sabrlari chidamay, uy-joylarini so‘rashadi. Ha, turibdi egasi tashlab ketgan hovlidek huvillab, deb qo‘yaman.

Tashqarida tap-tup oyoq tovushi eshitildi. Oqtosh yotgan joyida erinibgina xurib qo‘ydi. Derazadan ko‘rib turibman, etigiga ilashgan qorlarni qoqib Boymurod aka kelyapti. U kishi shaxd bilan eshikni ochdi-da, hol-ahvol so‘rashisham yo‘q, “anakka”! deb yubordi. U kishi qor kechib kelguncha qora terga tushibdi. Buning ustiga yuz-ko‘zlaridan hayrat ustiga hayrat yog‘ilib turardi. Allaqanday qo‘rquv ham bor. U kishiga peshvoz turib, qo‘lini olib so‘rashdim:

— Yaxshi yuribsizmi, bolalaringiz tinchmi?

— Tinchlikka, tinch-a... o‘zizdan keling, o‘ziz tinchmisiz? — deb menga boshdan-oyoq xavotirlanib qaradi.

— Ko‘rib turganingizdek, — iljaydim men, — qani sandalga...

— Hech balodan xabaringiz yo‘g‘ov...

— Tinchlikmi, — deyman xavotirga tushib? — Nima gap?

— Bo‘ri tushibdi-ku, boqqa, bo‘ri! Yaxshiyam kechasi tashqariga chiqmapsiz, bo‘lmasa, naq aspala-sopilin bo‘lardizda... anakka Xudo saqlabdi sizzi. Bir emas ikkitaya, ikkita, — deydi Boymurod aka ko‘zi-ning paxtasi ag‘darilib.

— Ko‘rdizmi? Qatta? Oyoq-qo‘limga titroq kirib, deraza osha tog‘ tarafga qaradim.

— Ov-v... — dedi Boymurod aka shang‘illab, —

izini ko'rdim izini... Ikrom Otamuroddi joyini pakka qivolib, rosa izg'ishibdi. Keyin qo'tirbuloq tarafga qarab chiqib ketishibdi. O'zlariyam yuz sentner, yuz sentner keladiyov, onangni emmagurlar. Izlari qorga chuqur-chuqur botgan deng.

— Ey, — dedim kulib va qaytib joyimga o'tirdim. — Ja olasiz-da vahimani, ular ovcharka itlar-ku, kecha shom mahali kelishganidi. Oqtosh akillab yaqiniga yo'latmadi.

— Anakka, opcharkamisha, — deb Boymurod aka-ning jahli chiqib ketti, — o'lippan endi bo'ri bilan opcharkani bilmasam, qirq yillik podachi...

— Ishonmaysiz-da, axir men ularni hushtak chilib, oldimga chaqirdimam-ku...

— Anakka, hali qotgan non berib, peshanasini siladimam dersiz, — kuldi Boymurod aka.

— Ha yo'q, unchalikka bormadim, hushtak chalsam bittasi men tomonga yurdi-yu, sherigi qimirlamagach, orqasiga qaytdi. Shomga azon aytib, eshikni berkitib kirib ketayotganimdayam ikkovi Ikrom Otamurodni yerida o'tirishib edi.

— Xuddi o'sha bo'ri bo'ladi, bo'ri bo'lmasa, men kallammi olaman kallammi, Xudo degan odamsiz-da, Xudo saqlabdi sizzi. Toshkanga borib osh-xudoyi qivoring. Toqqa qor qalin tushdi-da, och qolib tushib kelishgan. Ochdan-och-da, jonivorlar nima qilsin... Odamlar bir nima berarmikan deydi-da. Beradi-ya, berib bo'pti. Qadimdaydi, tirraqi, o'lolmay qolgan mollarni toqqa obchiqib bog'lab tushishardi. To'g'ri qilishardi. Bo'lmasa qo'ra oralab, yigirmalab, o'ttizlab qo'ylarni bo'g'izlab ketishardi. Hozir bunaqa gaplar esdan chiqib ketdi. Odamlar ochko'z bo'p ketishgan ochko'z. Bir siqim don sepib, qoplab kaklik ovlab tushishyapti...

Men xayolga tolib qoldim. Nahotki, ovcharka deganlarim bo'ri bo'lsa. Juda yaqindan ko'rdim-ku. Ovcharka itlarday istarali, vaxshiyliги sezilmadi-ku! Yo'g'-e, Boymurod aka o'zi shunaqa, vahima qilavuradi...

Poyezdda shaharga qaytayotib bir kishi bilan suhbatlashib qoldim. Orqasida puchchaygan safarxalta, qo'lida hassa. Men bu kishini ilgariyam ko'p ko'rgan edim. Havaskor sayyohlardan bo'lsa kerak deb yurardim. Ma'lum bo'lishicha u kishi bo'g'in kasali bilan og'rikan ekan. Bu kasallik to'qimalarga kislorod yetishmasligidan paydo bo'larkan. Bo'g'inlari zirqirab og'rirkan. Kechalari uxlamay chiqar ekan. Qilmagan dori-darmoni qolmapti. Oxiri bir tabib tog'larga chiqishni maslahat beribdi. Dardim aridi deydi. Kechasi istansaga kelib poyezdda uxlab, tong bilan yana toqqa chiqib ketar ekan. Yoz paytlari chodir olib yurarkan. Ammo shu bugun uni bir Xudo saqlabdi. Peshin payti ekan. Aytishicha, bizning qo'tirbuloq taraflar ko'z oldinga keldi. Yelvizak shamoldan panalab jar tagiga tushibdi-da, biroz tamaddi qilib olmoqchi bo'пти. Bir mahal yaqin oradan g'alati uvil-lagan ovoz eshitilib qopti. Kaklik tutib yurgan bolalar sho'xlik qilishyapti shekilli deb e'tibor qilmapti. Ammo ovoz borgan sari kuchayib, yuragiga qo'rquv tushibdi. Bundoq tepaga qarabdi-yu, baqa bo'p qopti. Yuragi qinidan chiqay dermish. Xavfni yurak oldinroq sezarkan-da. Bo'rimish! Kattakon! Nuqul qibla tomonga qarab ulirmish. Bo'ri turgan joyidan pastga sakrasa bormi, naq ustidan bosib tusharkan. Bechora nima qilishini bilmay o'tirgan joyida qorga ko'milib olmoqchi bo'пти. Ammo bu niyatidan tezda qaytibdi. Axir ko'milib qancha yotish mumkin? Bo'riga tayyor o'lja bo'ladi-ku. Tavakkal qilib ko'zini chirt yumib, bilgan duolarini o'qib, orqasi bilan pastga qarab surilaveribdi, surilaveribdi... Oxiri bizzzi boqqa tushib olibdi-yu, bu yoqqa qarab juftakni rostlabdi. Ana shundan keyin ham Boymurod akaning vahimasiga ishonmaymi?! Tusi qanaqaydi deb suhbatdoshimdan so'radim. E, tusi qursin, dedi u.

Meni ham Xudoyimning o'zi asragan edi. Suhbatdoshimning gapidan keyingina Oqtoshning bo'rilar kelganda o'zini jon holatda u yoqdan bu yoqqa urgan-larini tushinib yetdim. Jonivor hovlidan chiqma, xatar

bor degandek ikki marta yo‘limni to‘sdia. Men bo‘lsam, g‘aflat bosib, bo‘rini ovcharka deb yuribman. Oqtoshga mehrim yana ham oshib ketdi. Jonivor, gapirishnigina bilmaydi, xolos, lekin gapirgandan ziyoda harakatlar qiladi, bari bir odamning aqli noqis ekan-da... Beixtiyor Allohning kalomida o‘qiganim ushbu oyatni eslayman: “Yer yuzidagi har bir yuruvchi jonzot va ikki qanoti ila uchuvchi jonzot borki, hammasi siz kabi ummatlardir”. (An‘om, 38-oyat). Tavba, nimaga men o‘sha damda judayam xotirjam edim. Mana bu odam yuragim xatarni oldindan sezib, urib ketdi deyapti. Nimaga men seskanib ham qo‘ymadim? Alloh asrasa bandasini shunaqa xotirjam qilib qo‘yar ekan-da.

Bo‘ri voqeasi oldingi shov-shuvlardanam oshib tushdi. Eshitganlar meni shaharda ko‘rib qolishsa ham azza-bazza to‘xtatishib, bo‘ri voqeasini erinmay so‘rashadi. Bo‘rilar kettimikan, borsak bo‘larmikan, deb qo‘yishadi xavotir bilan.

Sharmandali, oddiy bir hol

Bog‘hovlidagi mish-mishlardan ichlari qizigan bir guruh shaharlik jo‘ralar bola-chaqalari bilan mehmonga chiqadigan bo‘lib qolishdi. Albatta, ularning uylarida Oqtosh va bo‘rilar haqida gaplar bo‘lgan, bolalari xuddi hayvonot bog‘iga otlangandek edi. Yengil mashinalar hovlingacha kirib borolmadi. Qorda yurolmadi. Hay-haylab, bay-baylab tiz-zadanam mo‘l qor kechib, ozroq piyoda yurishga to‘g‘ri keldi. Nimagadir yarim yo‘ldanoq kutib oladigan Oqtoshdan darak yo‘q edi. Oqtoshning kutib olishlarini mehmonlarga bir ko‘z-ko‘z qilib qo‘ymoqchi edim. Jonivorga nima bo‘ldiykin degandek xavotir bilan atrofga ko‘z tashlardim. Havo ochiq. Qorning usti muzlagan, bosganda qirsillab sinadi-yu, keyin oyoq botib ketadi. Yelvizak shamol izillatib turibdi. Ming qilsayam tog‘-tog‘-da. Shahardan ko‘ra sovuq. Shu payt ro‘paramizdan bir gala it chiqib qolsa

bo'ladimi? Qotib qoldim. Voybo'... buncha it qattan kep qopti. Katta-kichik, oq-qora — hammasidan bor. Ne ko'z bilan ko'rayki, oldinda Oqtosh. Oqtoshligiyam qolmapti. Ko'zimga mallarang bo'lib ko'rindi. Abgori chiqibdi. Qor ustida sirpana-sirpana zo'rg'a yurib boryapti.

Bu holat shaharlik bolakaylarga zo'r tomosha bo'ldi. Ular turli-tuman nomlar bilan itlarni chaqirishar, o'zlariyam it bo'lib xurib ko'rishar, max-max deb cho'ntaklaridan bir nimalar olib bermoqchi bo'lishardi. Itlar bo'lsa, parvo qilishmas, Oqtoshni bir-biridan qizg'anib irillashardi. U sharmanda esa, shu palladayam kallasini ishlatar, qorga o'tirib olib, jon saqlardi. Shunchalik orttirgan obro'si-yu, shon-shavkati bir pul bo'lib turardi. Qani endi oldimdan Oqtoshni avliyodan olib avliyoga solgan Boymurod aka chiqib qolsa-yu, "to'ylar muborak" deb alamimdan chiqsam. Ha endi... ming qilsayam it bari bir it ekan-da... itligini qilar ekan-da.

Lekin Oqtosh bolalamadi. Keyinchalik bahor oxirlab qolganda yana kuyikdi. Bu safar boshqa itlar kelishmadi. Nazarimda, itlar egalari bilan toqqa chiqib ketishgan edi. Shu yerlik Moylan akaning Jek degan iti bilan bo'ldi. Kuzga borib bolaladi. Telestudiyada ishlaydigan sim devor qo'shnimiz Odil akaning qurilish uchun olib kelgan bir dunyo yog'ochlari tagiga kirib tug'ibdi. Bu ishigayam tan berdik. Bolalari qo'lyetmas joyda edi. Ba'zi shoshqaloq qo'shnilarimiz Oqtosh tug'sa bolasini ko'zini ochirmayoq olamizda, uyda sut berib boqamiz deb yurishardi. Boymurod akaning aytishicha, bu hecham bo'lmagan gap ekan. Kuchuk bolaning ko'zi onasining ko'zi bilan ochilsin ekan. O'shandagina zotiga tortarkan. Men G'anijon amakimning urg'ochi kuchukchalarni ko'zi ochilmay ko'mib yuborganliklarini endi tushunib turardim. Oqtoshning bolalari beshta edi. Birortasi o'ziga o'xshamaydi. Bari Jekka tortgan. Bechora Oqtoshning bundoq tinib-tinchib yotganini ko'rmayman. Qovurg'asi sanalib, ko'kraklari osilib ketgan. Kechgacha

sakkillab, hali u hovliga, hali bu hovliga bosh tiqadi. Og'zida suyak-sayoqlarni ko'tarib keladi. Shanba, yakshanba kunlari ovqat g'amlash bilan ovora bo'ladi. Jonivor ilgari o'zinigina o'ylasa, endi bolalarini o'ylardi.

Haftalar o'tgan sari yanyam qoqsuyak bo'lib boryapti. Men qancha yegulik olib kelmay, to'ydim demaydi. Bolasiga ishqivoz bo'lgan qo'shnilarimning esa parvoyifalak.

Oqtosh favqulodda bolajon chiqib qoldi. Ammo qattiqqo'l. Bolalari uni inidan chiqib kutib oladigan bo'lsa, shunday irillaydiki, sichqonning ini ming tanga bo'lib, inlariga qaytib kirib ketishadi. Orqasidan ergashadigan bo'lsayam xuddi shunday irillab beradi. Sharik degan itimiz unaqa emas edi. Bolalarini ko'ksiga osiltirib, yo'lma-yo'l tashlab ketaverardi. Bolalari adashib, angillashib yurardi.

Kuchukchalarning uchtasi durkun bo'lib, ikkitasi judayam abgor edi. O'lib qolsa kerak deb yurardim. Oqtoshning suti anavi uchtasidan ortmasdi. Uchala zo'ravon ikkala kuchsizni turtkilab, chekkaga surib qo'yishardi. Jonivorlar iskanib, angillashdan bo'lak chora topisholmasdi. Osh oldida mehr ketar deb, bu jonivorlar ham bir-birini ayashmas ekan. Qani endi qo'l yetsa-yu anavi zo'ravonlarni nari beri surib, anovi bechoralarga yo'l ochsang. Buning hech iloji yo'q. Nahotki, shunday aqlli it Oqtosh buni faxmlamayotgan bo'lsa. Balki bular o'limga mahkumdur. Turlar ichida zo'rlari yashab, zaiflari qirilib ketadi degan gaplarni o'qigandim. O'lib ketishini bilib, onasiyam parvo qilmayotgandir. Bir kuni bog'hovliga kelib, hayron bo'ldim. Anavi ikkita zaif kuchukcha to'pida yo'q edi. Va nihoyat o'libdi-da, onasi inidan chiqarib tashlabdi-da deb o'yladim. Ammo Oqtosh pastdagi birovning hovlisida aylanishib yurardi. Poylab borsam, pana joyda o'sha, ikkita zaif kuchukchani emizib yotibdi. Qoyil, manavini endi nima desa bo'ladi! Itlaram zaiflarini xosxona qilib, ajratib boqishni bilar ekan-da. Yo qudratingdan! Bunday qilish uchun itda

aql bo'lishi kerak-ku. Oqtosh pastdagi kuchukchalarining oldiga ikki marta borsa, kattalarining oldiga bir marta kirib qo'yardi. Bulari timirskilanib, suyak-say-oqlarga, nonga og'iz uradigan bo'lib qolishgan edi. Shunday qilib tez kunda anavi ikkitasiyam semirib, yana to'piga qo'shildi. Oqtoshning bu ishiyam anchamuncha hayratomuz gap-so'zlarga sabab bo'ldi.

Men bu paytda o'zim chaqirgan "mehmon" — kalamushlar bilan olishib yotardim. Yer chopayotsam u yoqdan bu yoqqa chopib yurgan biqqagina kalamushga ko'zim tushib qoldi. Anakka deb yubordim men ham Boymurod akaga o'xshab. Bu la'natilar shunchalar surbetlashib ketibdiki, endi hayiqmay ko'z oldingdayam o'ynab yuradigan bo'pti. Qo'linga kesak olib poylayman deb tursam, Oqtosh o'tib qoldi. Ol Oqtosh deb kesakni otishim bilan kalamush qochdi-yu, uzoqqa ketolmadi. Oqtosh bir zumda ushladi-oldi. Shudgorning ichidayoq kalamushni pok-pokiza tushirdi. Ajali yetgan ekan.

Ertasiga erta bilan hayratdan qotib qoldim. Men shudgor qilgan joyda Oqtoshning bolalari sochilib yotardi. Tunda oy oydin bo'lgan edi. O'ynagani chiqishib, charchab, yotib qolishibdi-da, deb o'yladim. Ham hushtak chalib, ham cho'chitay deb qars urdim. Birortasi qimir etmadi. Qayerdandir Oqtosh paydo bo'ldi-da, menga bir qarab qo'yib, bolalarining yoniga chopib ketdi. Endi bolalariga jon bitib, o'ynoqlab ketishadi deb o'tiribman. Qayda, bari tosh qotib qopti. Bir kechada ularga o'lat tekkan edi. Nima bo'lishi mumkin? Itlarning joni qattiq bo'lguvchi ediku... Shu payt qo'llaringa qaltiroq kirib, yuragim achishib ketdi. O'z nafsimga o'ylab, yana nimalar qilib qo'ydim? Ey bandai noshukr! Nimaga faqat o'z huzur-halovatingni o'ylaysan? O'zim bo'lay deysan? Qilayotgan ishingni oqibatini o'ylamaysan! Ertaga nima deb javob berasan, beshta jonivorning qotiliga aylanib qolding-ku?! Vafodor bir jonivorga ko'rsatgan karomating shu bo'ldimi? Jonivor bolalarini shu ahvolga yetkazguncha ozmuncha yelib-yugurdimi?..

Dabdurustdan ularni ko'rgan kishi o'lgan demasdi. Ko'zlarimdan yosh tirqirab ketdi. Kechagi kalamushning nimaga osonlikcha Oqtoshga yem bo'lganini endi tushunib turaridim. U men qo'ygan zahri qotilni yeb zaharlangan, Oqtosh uni tutib yegandan keyin zahar suti orqali bolalarining boshiga yetgan edi. Attang... Endi kech...

Oqtosh bolalarini bitta-bitta tashib keta boshladi. Qaygadir ko'mgani olib ketayotganini sezib turardim. Bolalari og'irlashib qolgan, yerga sudrab ko'tarib borardi. Jonivorga bundan og'ir azob bo'lmasa kerak. Odamdek faryod chekolmasa. Alamini ko'zyoshlaridan ololmasa. Kuzatsam, Berdirahmatning bog'ida bir parchagina tashlandiq joy bor edi, o'sha yerdan chuqur qazibdi. Topgan joyinichi. Ha, ancha soz tuproq uyilib yotardi. Qachon qarasa puchchayib qurib-qaqshab yotadigan ko'kraklari endi sutga to'lgandi. Oqtosh bolalarini chuqurga joylagach, ustiga to'rtoyoqlab tuproq tortdi. Erinmay bir ahvolda kuzatib o'tirdim. Keyin tuproq ustida bir, ikki aylandi-da, bag'rini yerga berib uzoq yotdi... Men qilib qo'ygan ishimdan ming bora pushaymon edim, ich-ichimdan ezilardim... Champoni o'ldirib qanday ahvolga tushgan bo'lsam, hozir undanda battar ahvolda edim...

Oqtosh kun bo'yi allaqaylarda izg'ib kelar, bolalari ko'milgan joyga kelib iskanalar, yana bag'rini tuproqqa berib yotardi. Bilishimcha, u shu yo'sin ko'ksidagi sutini qaytarardi. Gunohimni yuvay, deb ovqatlar bilan siylamoqchi bo'ldim. Qayrilib ham qaramadi. Nasibasini qushlar talab ketdi. Parvoyifalak. Bilib turibman u mendan qattiq xafa. Axir kechiradigan ish qilmadim-da!

Erta bilan ko'zim beixtiyor yana Berdirahmatning bog'iga tushdi. Yo qudratingdan!.. Ko'zimni qayoqqa olib qochishni bilmay qoldim. Oqtosh o'sha-o'sha, tuproq ustida yotardi. Oqtosh, deya chaqirdim sabrim chidamay. Gunohim bo'ynimda. Ovozim titrab chiqdi. Oqtosh, deb chaqirdim yana. Oqtosh qayrilib ham qaramadi. To'g'ri qiladi, qarashgayam arzimayman. U

barini biladi, odamdan yaxshi tushunadi. Gapirolmayapti, xolos! Bog‘hovlini kecha-yu kunduz qo‘riqlab, bo‘rilardan himoyalab, kechalari hamroh bo‘lib, mendan ko‘rgan yahshiligi shu bo‘ldimi?

Uning jillaqursa bir qarab qo‘ymagani, izzat-nafsimga tegdi. Oqtoshlab jahl bilan chaqira boshladim. Qimir etmadi. Axiyri qo‘limga ilingan kesakni unga qarab qulochkashlab otdim. Shundayam miq etmadi. Yuragim orqamga tortib ketdi. Nahotki... Sim devorni aylanib o‘tib borsam, Oqtosh boshini oldingi oyoqlari ustiga qo‘ygancha o‘lib yotardi... Bolalari yonidan chuqur qazib, Oqtoshni ham ko‘mdim...

2003-yil.

QALDIRG'OCH



Qizilqum bag'riga tortilgan asfalt yo'ldan ichkarilab boryapmiz. Ko'chaning ikki chekkasi yamyashil, cheksiz qir-adirlar. To'lqin-to'lqin bo'lib, go'yo ufq etagidan istiqbolimizga chopqillab kelayotgandek. Har bitta tepalikning qoq miyasida bitta cho'pon qo'rg'oni. Qo'ralar, yem-xashak g'aramlari. Go'yo moviy dengizda suzib borayotgan kemalarni eslatadi. Ularning oralig'idagi masofalar deyarli bir xilligini ko'rib, tepalar ham, soylar ham bo'lib olinganmi, qandaydir ko'zga ko'rinmas chegaralar bormi, degan xayolga borasan kishi. Aslida ham shunday ekan: qo'rg'on atrofidagi yaylovlarda shu qo'rg'onda yashovchi cho'ponning qo'ylari o'tlar ekan. Shaharning qayog'iga qarasang, baland uylarga, yo'l belgilari qo'yilgan chorraha va yo'lkalarga o'rganib qolganimiz uchunmi bu cheksiz kengliklar o'zimizniyam, qarashlarimizniyam, fikrlarimizniyam kengaytirib yuborgandek edi.

Mashinadan tushdik. Havo shunaqangi musaffo ediki, biz yurganga emas, uchayotganga o'xshardik. Tinchlikka, sokinlikka o'rganmagan quloqlarimiz bitib qolgandek. Nazarimda, tabiatning o'zi bizni o'ziga moslab olardi. A'zoi-badanimizni ko'zga ko'rinmas bir sehrgar qo'l erkalab siypalardi. Quloqlarimiz so'fito'rg'aylar, jo'rchilarning ovozidan qomatga kela boshladi. Eh, bu kengliklarda yashayotganlarning armoni bormikan? Qanchalar baxtli odamlar!

Biz to'xtagan qo'rg'onning qizalog'i Guljahonni yo'l boshlovchi bo'lishga ko'ndirmoqchi bo'ldik. Biz u, bu o'tdan totinib, zaharlanib qolishdan, qo'ziqorin terishda aldanib qolishdan qo'rqardik. U shahar qizlaridek tiyrak, hozirjavob ko'rinardi. Guljahon rozi bo'lishdan oldin onasiga bir qarab oldi. Bu uning, "ruxsat berasizmi", degani edi.

— Bora qol, qizim, mehmon otangdan ulugʻ, choyga taklif qilish esingdan chiqmasin. Qurtova qilib beraman, — dedi onasi.

Havo moʻtadil. Issiq ham emas, sovuq ham. Quyosh oqish parda orqasidan nur sochar, kechagina yoqqan kuchli yomgʻirdan koʻkka oʻrlagan gʻubor zangori osmonni qaymoq rangiga boʻyar edi.

Bizni dastlab bir koʻkat oʻziga rom etdi. Uning yaproqlari katta-katta, kumush rangda boʻlib ustiga shakar sepgandek edi. Baʼzilari karamga oʻxshab bosh olgan, baʼzilarining boshi chatnab, ichidan och-sariq gullari moʻralab turardi.

— Bu qanday oʻt? — soʻradim Guljahondan.

— Kovrak, tabib oʻt...

— Tabibchilik qiladi degin?

— Shunaqa...

— Sir emasmi?

— Ha, yoʻ-oʻq... bir xil qoʻylar qishdan oʻpkasi shamollab chiqadi, kovrak zaharli oʻt, shunday boʻlsayam qoʻylar uni yeydi. Oʻpkasi shamollaganlari tez kunda oʻlib ketadi. Sogʻlariga hech narsa qilmaydi.

— Bundan chiqdi bu oʻt jonivorlarni saragini sarakka, puchagini puchakka chiqarib berar ekan-da.

— Shunaqa.

— Tabiat xoʻp ajoyib-da, — deya hayratimni yashira olmay sheriklarimga qarayman, — bu oʻtni kasal mollarni tutib yeydigan boʻriga oʻxshatsa boʻlarkan.

— Kovrak boʻriga oʻxshamaydi, jahli chiqinqiradi Guljahonni, — boʻri yomon, u kasal, kasalmasini soʻrab oʻtirmaydi, biz boʻrini yomon koʻramiz...

— Kim biladi, boʻrini “sanitar” deb oʻqigan edik-da. Sen haqdirsan balki...

— Kovrak qaysi yili yaylovda oʻt koʻp yoki oz boʻlishiniyam aytib beradi.

— E, ha... bundan chiqdi yomgʻir yogʻish-yogʻmasliginiyam aytib bersa kerak.

Guljahon unisini aytib berolmaydi degandek bosh chayqab qo'ydi-da, so'zida davom etdi:

— Kovrak yerdan gullab chiqsa, o'sha yili qurg'oqchilik bo'ladi. Yerdan ko'tarilib, keyin gullasa, o't ko'p bo'ladi, qurg'oqchilik bo'lmaydi.

— Bu yil o't ko'p bo'lar ekan-da, bo'lmasa?

— Ko'p bo'ladi. Kecha otam ham pichan o'radi-gan mashinalarni ko'paytirishni aytdilar.

Biz kovrakzor o'rtasida xuddi sirli bir olam ichida qolgandek turardik. Kovraklar duch kelgan joyda o'smas ekan. Odamlarga o'xshab "mahalla-mahalla" bo'lib, kungay, suvli joylarni vatan qilisharkan. Biz bir zum maysa gilamlariga bag'ir berdik. Bahor shamoli go'yo kovraklar orasida sochini tarab kuylagandek bo'lardi. Naq tepamizda biz shaharliklarga bir nimalarni uqtirgan bo'lib jo'rchi chuldirardi. Biz uni ko'raylik deb osmonga qanchalik alanglab qaramaylik, osmon-falakka singib ketgandek ko'rinmasdi.

— Jonivor, shundoq tepangda sayrayotgandeg-u, o'zini ko'rib bo'lmaydi-ya. Nimalar deb chuldirarkin bular?

— Men bilaman, — dedi Guljahon qo'lini soyabon qilib, qiyiq ko'zlarini osmonga tikar ekan.

— Qani eshitaylik-chi, bo'lmasa, bilsang?

Shu payt ro'paramizdagi tepada xuddi yerdan chiqqandek mototsikl paydo bo'ldi. Motor ovozi sokinlik bag'rini pora-pora qilib yubordi. U tepadan pastlikka shunday sho'ng'idiki, qo'rqqanimdan ko'zimni chirt yumib olibman. Mototsikl shundoqqi-na yonimizda to'xtadi. Orqasida sakkiz, to'qqiz yosh-li ikki qizaloq. O'takamizni yorgan haydovchi o'n uch, o'n to'rt yoshlardagi bola edi.

— Hech narsa kerak emasmi? — so'radi u.

Guljahon savol nazari bilan bizlarga qaradi.

— Yo'q-yo'q, — dedik suhbat bo'linib qolganiga og'rinib.

Bola mototsiklga shunday gaz berdiki, oldingi g'ildiragi yerdan naq bir qoziq bo'yi ko'tarilib ketdi. Eh, deb yuboribmiz, hozir kovraklarni qiyratib ketadi-

gan bo'ldi-da. Yo'q, unday bo'lmadi. U mototsiklni shunday boshqarar ekanki, kovraklar orasidan kapalakdek lip-lip etib o'tib ketdi. Loaqal bittasi-gayam ziyon-zahmat yetkazmadi. Tepa oshdi-yu ko'zdan yo'qoldi.

— Ukalarimni choyga olib ketyapti. Ular qo'y boqishayotuvdi. Bugun ularning gali. Biz har shanba kuni maktabdan qaytamiz. Yakshanba kunlari qo'ylarga qaraymiz. Ota-onamiz uy ishlarini qilib oladilar. Men oldingi haftada qo'y boqib edim.

Ko'zimizga bu cheksiz olam bag'rida baxtiyor ko'ringan bolalarning ham o'ziga yarasha tashvishlari borligi sezila boshladi. Ular bir hafta davomida maktabda o'qib, bir kungina ota-onasi bag'riga kelsa-yu, shunda ham qo'ylarga qarasa, ota-ona esa bolalarining tashvishida uyda kuymalansa. Shuning uchun ham cho'pon bolalari kuchli, bir so'zli, bardoshli, ota-onasiga yukkash bo'lib ulg'aysa kerak-da. Ehtimol, bular shahar bolalaridek injiqlik qilishni ham bilish-masa kerak.

Jo'rchi "men haqimdagi suhbat nima bo'ldi", degandek tepamizda shunday chuldirab yubordiki, Guljahon bilan ko'z urishtirib oldik.

— Jo'rchi Hasan loy, Tohir g'isht, Hasan loy, Tohir g'isht, deyapti, — dedi Guljahon kutilmaganda.

— Yo'g'-e, — deb osmonga quloq tutamiz, — ohangi shunaqa chiqyaptimikan-a?

— Qadim-qadimda bir hukmdor o'tgan, — hikoya qila boshladi Guljahon yoshiga yarashmagan bosiqlik bilan. — U judayam yomon odam bo'lgan. U odamlarga boshi osmonga, oyog'i yerga tegmaydigan qasr qurib berasanlar, deb oyoq tirab olibdi. Bo'lmasa, baringni o'ldiraman, debdi. Odamlar to'planib, bu farmonni qanday bajarish haqida o'ylashibdi. Yana poshsho bor-yo'g'i qirq kun muhlat bergan ekan. Qasr bitmasa hammani qilichdan o'tkazarkan. Shunda xalq orasidan bir yigit chiqibdi. "Sizlar xotirjam yashayveringlar, men o'ttiz kun deganda, shunaqa qasr quradigan ustalarni boshlab kelaman", debdi. Muddat bir

zumda o'tibdi-ketibdi. Yigit aytgan vaqtida paydo bo'libdi. Lekin ustalardan darak yo'q. Bir o'zi emish. Xaloyiq unga termilgancha qarab qolibdi... "Odamlar, — debdi yigit, — to'qay ortiga o'tib, yashirininglar. Hukmdor bizga hiyla qilmoqchi bo'ldi, biz ham unga hiyla qilamiz. Men hukmdorning yoniga ketdim". Yigit tong sahar hukmdor qasriga yetib boribdi-da, qo'ynidan sakkiz juft jo'rchini chiqarib qo'yib yuboribdi. Ularning bariga Hasan loy, Tohir g'isht, degan so'z o'rgatilgan ekan. Yigit hukmdorning huzuriga kirib debdi: "Ustalar osmonda muntazir. Birinchi loy bilan g'ishtni suyuqli o'g'illaringiz Hasan bilan Tohir uzatib berishsin deyapti", — debdi. Hukmdor quloq solsa, osmon to'la ovoz. Hasan loy, Tohir g'isht! Hukmdorning aqli shoshibdi. Tezroq oyog'i yerga, tomi osmonga tegmaydigan qasrga ega bo'lay deb, o'g'illari-yu askarlariga farmon berib yuboribdi. Osmonga otilgan g'ishtlar boshlariga tushib, barini halok qilibdi. Ular otgan loy-u g'ishtlardan mana shu tepaliklar qolibdi.

Bu afsona ta'sirida tamoman erib, tabiatga singib ketdik. Shunda bir jo'rchini ko'rib qoldik. U chindan ham bir joyda qotib turgancha qanot qoqar, boshini yerga egib, pastdan nimanidir uzatib yuborishlarini so'rardi. Nazarimizda, ulkan tepaliklar ham jonlanib ketgandek, oh chekib ingragandek bo'ldi. Ekskursivodimiz mana shu sirli olamning egasidek tuyuldi bizga. Undan so'radik:

— Guljahon, bu yerlarda senga yoqmaydigan hech bir narsa bormi o'zi, — deya jo'rtaga so'radik.

— Hammasi yoqadi, — dedi u ishonch bilan.

— Nahotki, hammasi yoqaversa?

Guljahon o'ylanib qoldi. Uning chehrasida kimnidir ayashlik bor edi.

— Bir nima demoqchisan-u, yashiryapsan, — dedim men.

— Xafa bo'lmaysizlarmi?

— Yo'q, nega endi?

— Yuringlar bo'lmasa, anovi tepalik ustiga...

Biz tepa ustiga chiqqanimizda boyagi mototsikli bola bu safar qizil "Jiguli"ni uchirib o'tib ketdi.

— Birorta qo'y qiynalib qo'zilaganga o'xshaydi. Qo'raga olib ketyapti, — dedi Guljahon.

Biz bu yerdagi qimirlagan jon borki biror-bir yumush bilan bandligiga yana bir bor ishondik.

— Ana ko'ryapsizmi, o'tlar ustidagi mashina izlarini, — dedi Guljahon peshanasi tirishib.

G'ildiraklar zarbidan ezilib, daftar chizig'idek yo'l-yo'l bo'lib qolgan maysazorlar ko'zga tashlandi.

— Shahardan kelganlar qo'ziqorinmi, ismaloqmi — dorivor o'tlarni terib tashlayverishadi. Bu kechagi izlar. Ular ikki kundan keyin yana kelishadi. Kovraklarni, o'tlarni ezg'ilab tashlashadiki, ularning bu ishi mengayam, otamgayam, cho'ponlargayam yoqmaydi. Shaharliklarga bir nima deya olmaymiz, mehmon-da ular...

Biz o'sha ochofat shaharliklarga hamshahar bo'lganimizdan xijolatda qolamiz. Oyoq bilan ezib, qo'l bilan uzganlari yetmagandek, mashinalari g'ildiragi bilan ham oyoqosti qilishar ekan-da. Mana sizga nafs balosi...

— Hov ana, qaranglar, yoqib yuborilgan joy qora-yib yotibdi, o'sha joyga boramizmi? — dedi Guljahon.

— Boramiz, — dedik unga ergashib.

Jala suvlari yuvib, jarlatgan yerlarga kimdir tikan o'tlarni shunday shibbalagan ediki, ular bamisoli qavilib uzundan-uzun to'shab qo'yilgan ko'rpachaga o'xshardi.

— Bular qushqo'nmas, kovrakning quvrangan tikanlari. Kuzda cho'l shamollari ularni supurib, suv yuvgan joylarga uyadi. Keyin bu yerlarni sel suvlari yuvolmaydi.

Demak, bu tikanli ko'rpachalar yaylovlarni jarlab ketishdan asrarkan. Shaharlik sayyohlar bo'lsa ularni o'yin qilib yoqadilar. Qarang-a, tabiat o'zini-o'zi himoya qilsa-yu, unga yordam bermaganingga yarasha, hech bo'lmasa xalaqit qilma nomard, deb hayqirging keladi!

“Nima qilish kerak, a?” Bu savolni o‘zimiz uchun berdikmi yoki Guljahongami, bilmayman. Harholda bir qaraganda cheksiz, chegarasizdek, nima erkalik bo‘lsa ko‘taraveradigandek ko‘ringan, aslida esa, har bir giyoh sanoqli bo‘lib borayotgan bu kengliklarni qo‘riqlash, uni abgor qilayotganlarni tizginlashni o‘ylardik.

— Otamning Yunus aka degan jo‘rasi bor, — dedi Guljahon, — o‘sha odam otam bilan so‘ylashib o‘tirib, asfalt yo‘lining qurilgani cho‘pon-cho‘liqlarga yaxshi bo‘ldi-yu, yaylovlarga yomon bo‘ldi dedilar. Yunus aka ko‘ksomsaga ismaloq topolmaptilarda.

— Rostdan ham ismaloq yo‘qmi bu yerlarda?

— Urug‘latmay terib ketishadi-da, sizga kerak bo‘lsa, hov qo‘raning tagida bor.

— Ke, qo‘y, Guljahon, o‘sha qo‘raning tagidagi ismaloq urug‘ bersin, ko‘paysin...

Kelayotganimizda asfalt yo‘l qanchalar ko‘zimizga mo‘jizadek ko‘ringan, avtobus bamisoli suv ustida suzandek beozor yelgandi. Bunday tekis yo‘l, hatto, shaharlardayam yo‘q degan o‘y ko‘nglimizdan kechgan edi. Shu topda bu rohatijon yo‘l ko‘zimizga cho‘l bag‘riga sanchilgan xanjardek, u asta-sekin bu yashil olamning jonini sug‘urib olayotgandek tuyulib ketdi. Rost-da, agarda shu yo‘l bo‘lmaganda, biz sahroning qandaydir beshinchi kilometrilaridayoq qolib ketardik. O‘sha yerdayam shu tabiat, shu qirlar, shu ko‘klik. Yo‘lga qiziqib, ancha ichkariga kirib ketdik. Biz-ku, o‘zimizni beozor sayyoh deb sanay qolaylik, anavi tabiat ovchilari-chi? Ular uchun bu yerlarning har bir qarichi dasta-dasta pul bo‘lib ko‘rinsa kerak.

— Guljahon, asfalt yo‘lni buzib tashlash kerak-mikan-a? — dedim talmovsirab.

Guljahon nahotki shunday qilib bo‘ladi, degandek “yalt” etib qaradi. Unga biz juda ko‘p narsalarga qodirdek ko‘rindik. Ha, ular shahardan kelganlarni hamma ishlarga qodir deb o‘ylashadi.

— Asfalt yo‘lni buzib tashlasak, o‘qishga borishga, shaharga tushishga qiynalib qolmaysizlarmi?

— Qiyin bo‘lsayam, mayli.

Guljahon yana nima derkin, deya kutamiz. U boshqa qo‘shimcha qilmadi. U aytadiganini aytib bo‘lgan edi. “Qiyin bo‘lsayam, mayli”, deyish bilan mollarimizni boqayotgan yaylovlarimiz, o‘t-o‘lanlarimiz qiynalmasin, demoqchi. Qani endi ham-mayam mana shunday o‘zidan kecha olsa. Bu dunyoda qo‘riqxon, “Qizil kitob” degan gaplarga o‘rin qol-masmidi? Guljahon shu tabiat qo‘ynida o‘sib-ulg‘ayyapti. U tabiatning jonli bir parchasi, o‘z onasi-ni qanchalik sevs, imo-ishoralarini bir qarashda anglasa, tabiatni ham shunday sevadi, imo-ishoralari-ni tushunadi. Ehtimol, u qanchadan-qancha muam-molar eshigini ko‘rsatayotganini ham, katta odamlardek fikrlayotganini ham o‘zi bilmas. Lekin unda nimaiki fazilat bo‘lsa, bari shu olamdan o‘tgan, shu olam gapirtiryapti. Naqadar kuchga, qudratga, mehrga ega bu olam! Faqat biz insonlar undan uzoq-lashib, qashshoqlashib, o‘gaylashib boryapmiz.

Qo‘rg‘onchaga qaytganimizda pritsepqa sixmola ortishayotgan ekan. Beixtiyor traktor kabinasiga ko‘zim tushdi. Yana sochlari o‘sib quloqlariga tush-gan, do‘rdoq lablari bahor shamollaridan yorilib, qoraygan o‘sha bola. U traktor ruliga bag‘rini bosgancha ish bitishini sabrsizlik bilan kutardi. O‘n to‘rt yoshlardagi bola qancha texnikani bilishi mumkin?! Nazarimda, bu bola samolyotni ham haydab ketaveradigandek tuyuldi. Shaharlik bolalar buncha texnikani boshqara oladimi? Ular qaysi jihat-lari bilan kishini lol qoldirishlari mumkin. Kom-pyuterlari bilanmi yo zamonaviy kiyinishlariyu a‘lo baholari bilanmi? Guljahon tengi shaharlik qizlar-chi? O‘zlari o‘sib-ulg‘aygan shaharlarini Gulja-honchalik biladilarmi?

— O‘ynab qolib ketma, tezroq qayt, — dedi ota o‘g‘liga, ishni bitirib pritsepning qanotini yopar ekan.

Traktor zo‘riqib joyidan qo‘zg‘aldi. “O‘ynab qolib ketma”, — deyapti ota. Bu dasht bolalari qachon o‘ynashga vaqt toparkin? Biror-bir o‘yinni qizitish

uchun kamida uch yoki to'rtta bolaning boshi qovushishi kerak. Bu yerda bekorchi, o'yinqaroq bolalarning o'zi yo'q. Hamma nima bilandir band. Shaharda-chi, o'yin bolalarning asosiy mashg'ulotiga aylangan. Hatto, "O'yin eng yaxshi tarbiyachi", degan gaplar yuradi. Shaharda bolalarning asosiy ishi o'yin va o'qish. Mehnat oxirgi o'rinda. Ota-onalar bolalariga: "Maktabdan kelgach, ovqatlan, keyin biroz o'ynab kel, so'ng darsga o'tir". O'yinga berilib ketgan bola jiddiy mehnatga ham o'yin ko'zi bilan qaramas-mikan yoki aksincha, mehnat qilishga o'rgangan bola har qanday o'yindan ham biron foydali ish qidirmas-mikan? Dasht bolalarida biz ikkinchi holatni ko'proq kuzatardik.

Bizni uy egalari tushlikka taklif qilishdi. Ancha chaqchaqlashdik, turmoqchi edik, uy bekasi norozi bosh chayqadi:

— Bir bolam do'mbira chertib, o'lan aytadi, eshitib ketinglar. Kela qol, Qaldirg'ochim-ov, — dedi u.

Qo'lida do'mbira bilan boyagi mototsikl, "Jiguli", traktor haydagan bola paydo bo'ldi. Yopiray, temir-tersak bilan andarmon bo'lgan bolaning qo'lidan do'mbira chertish kelarmikan?

— Qani qizim, boshlay qol, — dedi otasi gavdasi-ni orqaga tashlab, ko'zlarini suzib, kuy tinglashga shaylanar ekan.

— Nima? — quloqlarimizga ishonmay, otaga o'girildik. — "Qizim", dedingizmi?

— Ha. Qaldirg'och qizim bo'ladi.

— Traktor haydagan, mototsikl mingan...

Ha, degandek bosh irg'adi ota. Do'mbiraning hazin va yoqimli ovozi borliqni tutdi. Cheksiz kengliklar yanayam kengayib ketgandek bo'ldi. Qaldirg'ochning qo'llari do'mbiraning iplari ustida tez va nafis harakatlanar, pardalarda qoqilmas edi. Men ilk tasavvurimizni anri quvish uchun uning chehrasidan qizlarga xos belgilarni izlayman. Sochlarini sal tartib-

ga solgani uchunmi, qulog'idagi sirg'asi yiltillab turardi. Qaldirg'och kuylay boshladi. Ovozi mayin, nafis, shirali...

*Kuy taralsin, hamma birdek o'ynasin,
Ona kulib, yoshlik chog'in o'ylasin.
Boshqa to'yni to'ylamasang to'ylama,
Bolalari dunyoga
Kelgan kuning to'ylansin.
Boringni ham, zaringni ham qo'y o'rtaga,
Ota-bobong shunday to'yni orzulagan...*

Kuy, qo'shiqlar poyoniga yetdi. Qaldirg'och o'n to'rt yoshda ekan. Biz uning nechanchi sinfda o'qishini so'radik. Qaldirg'och odob bilan yerga qaradi-da, bosh chayqadi. Otasi ham, onasi ham savoldan o'zlarini chetga olgan bo'ldilar.

— Qaldirg'och o'qimagan, — dedi ota tutila-tutilla,— uni har qanaqasiga ham o'qitib bo'lmadi. Cho'pon bolalari uzoqda turib o'qishadi. Yigirma chaqirimli yerdan qochib kelgandan keyin boshqa yubormay qo'ydik...

— Texnikalarni boshqarishni, do'mbira chertishni qayerdan o'rgangan bo'lmasa?

— Qaldirg'och — shunaqa bilgich, bir ko'rgani esida qoladi. Do'mbira chalishni televizorga qarab o'rgangan. Qo'shiqniyam o'zi to'qiydi.

Shaharga qaytyapmiz-u, yuragimiz shu cho'pon o'tovlarida qolib ketgandek. O'g'il bola qiyofali Qaldirg'och sira ko'z oldimizdan ketmasdi. U o'qimasdan, otasi aytgandek “bilgich”ligi bilan bizni shunchalar lol qoldirdi. Agarda u o'qiganda qanday qobiliyat egasi bo'lardi? Oddiy o'quvchilarimizga o'xshab qolarmidi yo bir yilda ikki, uch sinfni hatlab, bola yoshida oliygohlar darvozasini taqillatgan bo'larmidi? Lekin Qaldirg'och hozirgi turishida ham minglab kitoblar o'qigan bolalardan ham dono ko'rinardi menga. O'zlari olim bo'lmasa-da, qo'lidan hamma ish keladigan, odamgarchiligi zo'r, mehr-oqibatli, odamshavanda bo'lgan ota-bobolarimizni

esladim. Odam eng avval inson bo'lishi kerak. Biz, albatta, Qaldirg'ochning o'qimaganiga achindik. U haqda qayg'urmagan kishilarni qoraladik.

Qaldirg'och bilan xayolan gaplashaman: "Qaldirg'och, sen ko'zing ko'rib, qo'ling tutgan nimaiki narsa bo'lsa barini egallabsan, o'qish, yozishdan tashqari. Sen singling Guljahon kabi tabiatning bir parchasiga aylanib ketibsan. Bu cheksiz yaylovlar, dashtlar sening lochindek qirdan-qirga sho'ng'ib yuradigan mototsiklingsiz, traktoringsiz, "Jiguli"ngsiz, do'mbirang va qo'ng'iroqdek ovoziingsiz g'arib bo'lib qolishi turgan gap. Bu sirli olam seni o'zi uchun asrab qolganga o'xshaydi. Men sening turush-turmushingdan dasht qirlar kelajagini ko'rib turibman. Lekin kelajak savod, bilim bilan bog'liq. Sen o'zing haqingda o'zing qayg'ur. Qanday bo'lmasin, o'qishning yo'lini axtar. Sendek bir qiz uchun hamma maktablar o'z bag'rini ochadi...

1991-yil.

Mundarija

Nevara	3
Onaizor	49
Yetim qolgan xotiralar	113
Yurt egalari	147
7-“A” da	183
Champo otli ilon	223
Qaldirg‘och	355

Erkin Malik

CHAMPO OTLI ILON

Qissalar

Sharq nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2006

Muharrir *Q. Qayumov*
Rassom *R. Zufarov*
Badiiy muharrir *B. Bobojonov*
Texnik muharrir *R. Boboxonova*
Sahifalovchi *M. Atxamova*
Musahhih *H. Abdusamatov*

Terishga berildi 13.04.2005. Bosishga ruxsat etildi 30.11.2005. Bichimi 84x108^{1/32}. Tayms garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 19,3. Nashriyot-hisob tabog'i 19,1. Adadi 3000 nusxa. Buyurtma № 1699. Bahosi kelishilgan narxda.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasi, 700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.